


JAHON ADABIYOTI DURDONALARI

*Onore de Balzak*

# GORIO OTA



**JAHON ADABIYOTI DURDONALARI**

**ONORE DE BALZAK**

**GORIO OTA**

*(roman)*

**«KAMALAK-PRESS»**

**TOSHIKHT-2019**

**UO‘K: 821.133.1-31**

**KBK: 86(4Fra)**

**B- 26**

**Onore de Balzak.** «Gorio ota» / roman / ruschadan **Sulton Muhammadjonov** tarjimai/ «Jahon adabiyoti durdonalari» turkumi -- T.: «Kamalak-press», – . . .  
2019. –352 b.

«Gorio ota» romanidagi voqea Qayta tiklanish davrida bo‘lib o‘tadi. Burjuaziya dunyosining qonunlari shafqatsiz. Bu jamiyatda odamning qadri-qimmatini qancha daromad keltirishiga qarab belgilanadi.

Gorio ota kapitalist bo‘lganda hamma unga xushomad qilardi, davlat, boylik qo‘ldan ketib, u mayda burjua darajasiga tushib qolgach, hamma uni unutadi. Gorio azob-uqubatda o‘lib ketadi, hatto qizlari ham otalarining o‘limiga kelmaydi. Yozuvchi «Gorio ota» romanida oilaning barbod bo‘lishini, insonning eng ezgu his-tuyg‘ularining sekin-asta yemirilishini ko‘rsatadi.

**UO‘K: 821.133.1-31**

**KBK: 86(4Fra)**

**ISBN: 978-9943-5683-9-6**

© **Onore de Balzak.**

© «**Kamalak-press**» nashriyoti

## SO'ZBOSHI

### **AZIZ KITOBXONLAR!**

Qo'lingizdagi ushbu kitob fransiyalik adib **Onore de Balzakning** "Le Pere Goriot" romanining rus tili orqali (rus tiliga **Yakov Zalmanovich Lesyuk "Отец Горю"** nomi ostida tarjima qilgan) ona tilimizga **Sulton Muhammadjonov** tomonidan "Gorio ota" nomi ostida tarjima qilingan ko'rinishidir. **Sulton Muhammadjonov** ushbu asarni tarjima qilish orqali ona tilimizning lug'at boyligini boyitishiga va kitobxonlarning badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarining yuksalishiga ulkan hissa qo'shgan.

Shuni bilingki, badiiy asarni tarjima qilish (ayniqsa, turkiy tillarga mansub bo'lmagan tildan tarjima qilish) shu asarni qaytadan yozish bilan teng qiyinchilikka ega. Shu tildagi iboralarni so'zlarni, jumalarni yoki maqol-matallarni maromiga yetkazib tarjima qilish juda mushkul ish hisoblanadi. Chunki bunda tarjimondan bevosita eng kamida ikkita tilni mukammal bilish, shuningdek, o'sha til egalari – xalqning turmush-tarzi, etnografiyasini, madaniyatini va tarixini mukammal bilish talab etiladi. Shuning uchun ham boshqa mashhur tarjimonlarimiz kabi **Sulton Muhammadjonov** ham doimo xalqimizning, ayniqsa, o'quvchi yoshlarimizning tahsin-u tashakkuriga sazovor bo'lgan. Biz ham shular qatorida tarjimon – **Sulton Muhammadjonov**dan ushbu xizmatlari uchun behad xursandmiz!

Ushbu kitob ilk bor o'zbek tilida 1968-yilda chop etilgan. Bu davrdagi nashrida ayrim so'z va jumalarning ma'nosi izohlanmagan yoki ruscha so'zlar, yoki baynalmilal jumalar orqali berilgan edi. Bu holat bilan biz tarjimonlarni yoki o'sha davr nashriyoti xodimlarini kamsitish fikridan yiroqmiz. Faqat hozirgi davr kitobxonlarining talab va iltimoslariga asosan asar tarjimasiga juda kichik o'zgartirish va izohlar kiritildi.

Siz ushbu asarni o'qir ekansiz, asarning asosiy qahramoni Gorio otaning o'z farzandlari uchun qanchalar qayg'urganligini, hatto ularning baxtli hayot kechirishlari uchun o'zining hayotini qurbon qilganligiga guvoh bo'lasiz.


Gorio ota boy-badavlat odam edi! U kasodga uchradi!

Bunday holatda uning atrofidagi do'stlari, farzandlari qanday yo'l tutar ekan?

Gorio ota o'z vaqtida barchaga yordam qo'lini cho'zgan edi, omad yuz o'girganda atrofidagilar, farzandlari unga qanday munosabatda bo'lishdi?

Asarni o'qish davomida ushbu

Nashrga qayta tayyorlovchi –



## «GORIO OTA»NING HIKMATLARI

*Agar asar haqiqatdan ham yozilmagan, ya'ni tug'ilgan bo'lsa, demak, bu asarda kitobxon ma'naviy ozuqa oladigan, hayot yo'llarida kerak bo'ladigan jumlar mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham asarda qo'llangan hikmatli so'zlardan ba'zilarini ajratib ko'rsatishga qaror qildik.*

... yolg'iz iztirob haqqoniy bo'lib, shodlik esa ko'pincha soxta ko'rinadigan vodiydagina munosib baho berishlari mumkin; bu yerda hayot shunday vahimali to's-to'polon bilan o'tardiki, faqat eng g'ayri oddiy hodisalar kishilar tasavvurida xiyla uzoqroq saqlanib qolishi mumkin. Holbuki, ba'zan bu yerda ham shunday og'ir g'ussaga duch kelish mumkinki, maraz illatlar bilan xayrli fazilatlar chirmashib ketib, o'sha g'am-g'ussani dab-dabali va ulug'vor qiyofaga kiritadi: bu musibat qarshisida tamagirlik va xudbinlik sueqaga chekinib, rahm-shafqat tuyg'usiga o'rin bo'shatib beradi, lekin shirin mevani shoshqaloqlik bilan yutib yuborganda mazasi og'izda qolmaganidek, bu ajib hissiyot ham tezda unut bo'lib ketadi. (9-bet)

\*\*\*

Qop-qorong'i g'orga tushib borayotgan sayyoh har pillapoyaga oyoq qo'ygan sari kunning yorug'i xiralashadi va u tobora zulmat qo'yniga g'arq bo'la boradi, yo'l boshlovchining ohangdor ovozi unga tobora sekinroq eshitila boshlaydi; shunga ko'ra, kitobxonning oldindanoq mazkur sayyoh kayfiyatiga tushmog'i uchun (qanday to'g'ri o'xshatish-a!) o'shal gardish vazifasini o'taguvchi ko'cha, iloji boricha, ko'proq qora bo'yoqlar va jiddiy fikrlar talab qiladi. Qaysi biri dahshatliroq: toshyurak odamlarga rioya qilishmi yo qovoq kallalargami, buni kim ajrim qilib bera oladi? (11-bet)

\*\*\*

Ejen de Rastinyak – yigitning nomi shunday edi – muhtojlik oqibatida mehnatga o'rgangan yigitlardan edi, bunday yigitlar oila a'zolarining butun umidi yolg'iz o'zlaridan ekanini yoshlikdanoq yaxshi tushunadilar va ilmning jamiki foydali tomonlarini yaxshilab tarozida tortib ko'rib hamda kelajak jamiyat taraqqiyotidan birinchilar qatorida bahramand bo'lishni

o‘ylab, butun olgan ilmlarini jamiyatni taraqqiy qildirish yo‘liga moslaydilar, o‘zlariga, iloji boricha, porloq istiqbol hozirlashga tirishadilar. *(20-bet)*

\*\*\*

... odamzod hamma og‘irlikni mo‘min-qobilligi, beparvoligi yo bo‘lmasa ojizligidan ko‘tarib ketaveradigan odamlarning sabr-toqati qanchaga yetishini sinab ko‘rish uchun, tabiatan jo‘rttaga shunday qilarmikan? Axir hammamiz ham, o‘z afzalligimizni duch kelgan kimsada yoki duch kelgan narsada sinab ko‘rishni yaxshi ko‘rmaymizmi? Hattoki ko‘cha bolasidek zaif bir go‘dak ham qahraton qish paytida odamlarning ko‘cha eshiklaridagi qo‘ng‘iroqlarni birma-bir chalib qochadi yoki endigina o‘rnatilgan yangi haykalga chiqib olib, unga o‘z nomini yozib ketadi. *(30-bet)*

\*\*\*

... shunday bir turkum odamlar borki, o‘zlarining eng yaqin odamlari va do‘stlariga sira yaxshilik qilmaydilar, vaholonki bunday odamlarga yaxshilik qilish ularning bevosita burchi; shunga qaramay, bunday odamlar begonalarga yaxshilik qilishadi, sababi – begona odamlar nazarida, o‘z bahosini ko‘tarmoqchi bo‘ladilar; shunga ko‘ra ularga qanchalik yaqin bo‘lgan kishi shunchalik qadrsiz bo‘ladi; kishi ulardan qancha uzoq bo‘lsa, ular shuncha ko‘p xushomad qila boshlaydi. *(37-bet)*

\*\*\*

Uning nafrati avvalgi muhabbati darajasi bilan emas, puchga chiqqan umidining alami darajasi bilan barobar edi.

*(38-bet)*

\*\*\*

Ko‘ngli tor odamlar o‘zlarining xoh yaxshi, xoh yomon hislarini behisob mayda qiliqlar qilib qondiradilar. *(38-bet)*

\*\*\*

Dunyoda eng ko‘ngilsiz narsa – nuqsonlarningning o‘zgaga oshkor bo‘lishi. *(56-bet)*

\*\*\*

Odam aldov yo‘liga bir kirgandan keyin, yolg‘onlarni biri ustiga birini qalab tashlayveradi. *(93-bet)*

\*\*\*

Bizning yuragimiz – bir xazina: uni birdan sarflab



qo'yingizmi, – gado bo'lasiz qolasiz. (104-bet)

\*\*\*

Boshimizga biror baxtsizlik tushishi bilanoq, darrov bu xabarni yetkazib, yuragimizga xanjar urib, uni kavlaydigan va xanjarning bejirim dastasini tomosha qilishimiz uchun, uni shu alpozda tashlab ketadigan do'st hamma vaqt ham topilib turadi. O'sha zamoniyoq achchiq piching-u kinoyalar boshlanadi!

(105-bet)

\*\*\*

Yumshoq tabiatli odamlar bo'ladi, bunday odamlarning dili ko'ngilga chuqur joylashib olgan o'zgalarning fikridan vayron bo'ladi; ammo shunday mustahkam irodali odamlar ham uchraydiki, bunday odamlarning miya qopqog'ini go'yo bronzadan quyilgan deysiz, – devorga otilgan o'q unga urilib yerga tushganidek, o'zga kishining fikri ham unga urilib pachaqpacha bo'ladi; bulardan tashqari ojiz va bo'sh tabiatli odamlar ham bor: bundaylar miyasiga boshqa odamlarning fikri transheya ustiga sepilgan qumga cho'kkan yadrolardek oppa-oson cho'kib isitaveradi. (129-bet)

\*\*\*

Qalbidagi ehtiroslarning o'tkirligi barsniki singari ko'zlarining o'tkirligidan qolishmasdi. Haqiqatni ikki yoqlama (ham aqli, ham hislari bilan) shu qadar nozik va chuqur his qilar ediki, alohida iste'dodga ega bo'lgan odamlargina, masalan, raqibi qanday sovutga o'ralgan bo'lishiga qaramay, uning himoyasiz yerlarini bir lahzada sezib oladigan mohir shamshirbozlar shunday odamlar bo'ladi. (129-bet)

\*\*\*

Yoshliging hali shaffof osmondek toza, lekin sen nufuzli yo boy-badavlat bo'lmoqchisan, bu esa ko'rib bila turib yolg'on gapirish, ikki bukilib ta'zim qilish, tiz cho'kish, yana qomatni tiklash, xushomadgo'ylik va ayyorlik qilishga rozi bo'lish emasmi? Axir, buning o'zi yaqinda ikki bukilib, tiz cho'kib, yolg'on gapirib yurgan odamlarga ixtiyoriy ravishda malaylik qilish emasmi? (150-bet)

\*\*\*

Mening butun hayotim qizlarimda. Modomiki, ular yaxshi turisharkan, baxtli ekan, yaxshi kiyinib, pat gilamlar ustida



yurisharkan, mening ko‘ylagimning qanday matodan tikilgani-  
yu qayerda yotib uxlashimning nima ahamiyati bor? Ular issiq  
uyda turishsa, men ham sovuq qotmayman, ular xursand  
bo‘lishsa, men ham xafa bo‘lmayman. Ularning g‘amidan  
tashqari mening hech qanday g‘amim yo‘q. O‘zingiz ham ota  
bo‘lib, bolalaringiz ovozini eshitganingizdan keyin: «Bular  
mening bir bo‘lagim», – deb qolasiz hali, o‘sha kichkintoylar o‘z  
qoningizdan ekanini, nainki qoningizdan, joningizdan ekanini  
tushunasiz, – haqiqatan ham, o‘zi shunday! – nazaringizda, ular  
bilan bir jon-u bir tan bo‘lib ketgandek bo‘lasiz....(170-bet)

\*\*\*

Mana shunday pinhona yaxshilik qilish faqat xudoga  
ishonadigan odamlarning qo‘lidan kelsa kerak, Ejen esa xudoga  
ishonar edi. (193-bet)

\*\*\*

Yo‘lga otlanishdagi oxirgi tayyorgarliklar bilan  
rassomning rasmga oxirgi pardo berishi o‘rtasida allaqanday  
o‘xshashlik bor: shu oxirgi ishlarga asosiy ishga ketgandan ko‘ra  
ko‘proq vaqt sarf bo‘ladi. (307-bet)

\*\*\*

Agar hamma otasini oyoq osti qilaversa, vatan halok  
bo‘ladi. Bu aniq. Jamiyat, butun dunyo otalarga suyanib turibdi,  
bolalar o‘z otalarini sevmay qo‘ysalar, hamma narsa ostin-ustun  
bo‘lib ketadi. (327-bet)

*Nashrga qayta tayyorlovchi –  
“GOLD STAR EDUCATION” NTM direktori  
Matyoqubov E. R.*



*Ushbu asar ma'lum va mashhur  
Joffrua de Sent-Ilgera<sup>1</sup> uning faoliyati va  
dahosidan benihoya zavqlanganimni  
eslatib tursin.*

*De Balzak*

Qizlik familiyasi de Konflan bo'lgan keksa tul xotin Voke, qirq yildirki Parijda, Lotin mahallasi<sup>2</sup> bilan Sen-Marso<sup>3</sup> degan chekka mahalla orasidagi Nev-Sent-Jenevev ko'chasida oilaviy pansion<sup>4</sup> tutardi. «Voke uyi» deb yuritiluvchi ushbu pansion yosh-u qariga ham, ayollar-u erkaklarga ham, xullas, barchaga barobar bo'lishiga qaramay, bu muhtaram xonadonda istiqomat qiluvchilar hech qachon malomatga qolgan emas edi. Lekin, gapning ochig'i, so'nggi o'ttiz yil mobaynida bu yerga hech ham qiz-juvonlar kelib turmagan, mabodo bironta yigitcha kelib, istiqomat qilib qolgudek bo'lsa, bilingki, u ota-onasi yuborib turgan pul g'aribona yashashiga zo'rg'a yetganidan bu uyda turgan. Biroq 1819-yilda, ya'ni mazkur fojia boshlanishi arafasida bu yerga kambag'al bir qiz kelib qoldi. Davrimizning

<sup>1</sup> **Joffrua de Sent-Iler Eten** (1772-1844) – mashhur fransuz zoolog olimi, o'z davri uchun progressiz hisoblangan hayvonot olami organizmlarining tuzilishidagi birdamlik haqida ilmiy nazariyani oldinga surgan. «Gorio ota» romanini Joffrua de Sent-Ilgera bag'ishlanishi birinchi marta 1843-yil nashrda paydo bo'ldi, biroq Balzak Joffrua de Sent-Ilerning nazariyasiga 1930-yillarning boshlaridanoq qattiq qiziq boshlagan edi.

<sup>2</sup> **Lotin mahallasi** – Parij rayonlaridan biri; bu yerda juda qadim zamondan oliy o'quv yurtlari, muzeylar va kutubxonalar joylashgan edi.

<sup>3</sup> **Sen-Marso** (boshqacha qilib aytganda – Sen Marsel) – Parij mahallalaridan biri; Balzak yashagan davrda bu yerda asosan qashshoqlar istiqomat qilardi.

<sup>4</sup> **Pansion** – inqilobdan oldingi Rossiyada va ayrim chet mamlakatlarda: o'quvchilarni yotoqxona, oziq-ovqat, kiyim-bosh bilan ta'minlaydigan o'rta o'quv yurti; 2) turuvchilarni haq badaliga oziq-ovqat va kiyim-bosh bilan ta'minlaydigan kichik mehmonxona (**asarda shu ma'noda**); 3) haq badaliga to'la ta'min etish, to'la ta'minotga olish.

g'amgin adabiyotida «fojia» so'ziga qanchalik teskari, noo'rin ma'no berib, to'g'ri kelgan va kelmagan yerda ishlataverib, unga putur yetkazgan bo'lishmasin, bu o'rinda aynan shu so'zni ishlatmay ilojimiz yo'q: qissamiz to'la ma'nodagi fojia bo'lmasligi mumkin, lekin bu qissani o'qib chiqqan intra va extra muros<sup>1</sup> istiqomat qiluvchi kitobxonlarning ba'zilari qissa ustida ko'z yoshi to'ksalar ham ajab emas. Parijdan boshqa joylarda ham bu qissaga tushunisharmikanlar? Bunga shubha qilish mumkin. Rang-barang kuzatuvlar va mahalliy xususiyatlarga naqadar boy bo'lgan bu mojarolarning tafsilotlariga faqat Monmartr<sup>2</sup> adirlari bilan Monruj<sup>3</sup> tepaliklari orasida, ya'ni yiqilay-yiqilay deb omonat turgan beso'naqay imoratlar va balchiqdan qop-qorayib ketgan zovurlari bilan mashhur bo'lgan vodiydagina, yolg'iz iztirob haqqoniy bo'lib, shodlik esa ko'pincha soxta ko'rinadigan vodiydagina munosib baho berishlari mumkin; bu yerda hayot shunday vahimali to's-to'polon bilan o'tardiki, faqat eng g'ayri oddiy hodisalar kishilar tasavvurida xiyla uzoqroq saqlanib qolishi mumkin. Holbuki, ba'zan bu yerda ham shunday og'ir g'us-saga duch kelish mumkinki, maraz illatlar bilan xayrli fazilatlar chirmashib ketib, o'sha g'am-g'ussani dabdabali va ulug'vor qiyofaga kiritadi: bu musibat qarshisida tamagirlik va xudbinlik sueqaga chekinib, rahm-shafqat tuyg'usiga o'rin bo'shatib beradi, lekin shirin mevani shoshqaloqlik bilan yutib yuborganda mazasi og'izda qolmaganidek, bu ajib hissiyot ham tezda unut bo'lib ketadi. Madaniyat aravachasi bamisoli Jahannatha<sup>4</sup> sanami o'tqazilgan aravacha singari harakat qiladi: bu aravacha yuragi baquvvatroq. odamga duch kelsa, bir zumgagina taraddudlanib turadi-yu, shu zahotiyuq uni ezib-yanchib o'tib, yo'lida davom etib ketaveradi. Siz ham aynan shunday ish ko'rasiz: mazkur kitobni nozik qo'lingizga olib, yumshoq kresloga joylashib o'tirib olasiz-u: «Zora shu kitob bilan ovunsam», – deb o'qishga

<sup>1</sup> *Intra va extra muros (lotincha)* – shaharda va shahar atrofida.

<sup>2</sup> *Monmartr* – Balzak zamonasida, Parijning shimoliy chekkasi.

<sup>3</sup> *Monruj* – janubiy chekkasi. Bu yerlarda tepaliklar ko'p uchraydi.

<sup>4</sup> *Jahennatha* («jahovsir») – hind xudosi Vishvuning tasvirlaridan biri. Jahannatha sharafiga o'tkaziladigan katta hayit vaqtida, xudojo'ylar qo'shilgan kattakon aravada uning haykali olib chiqilardi. Mutaassiblar o'zlarini shu arava g'ildiragi ostiga tashlab shahid bo'lardilar, kohinlar ularga buning evaziga, qashshoq odam rubi qayta tirilganda yuqori mazhab kishisiga aylanadi, deb va'da qilardilar.

kirishasiz, keyin esa, Gorioning pinhona otalik iztiroblari haqida o'qib chiqib, bahuzur ishtaha bilan ovqatingizni yeysiz, toshbag'irligingiz boisini esa, muallifga to'nkab, juda oshirib yuboribdi, deb ta'na qilasiz, uning shoirona uydirmalarini qoralaysiz. Ammo bilib qo'ying: bu fojia uydirma ham, roman ham emas All is true<sup>1</sup> – u shu qadar haqkoniyki, har qaysi odam uning nishonalarini o'zida, ehtimolki, o'z qalbida ham topa oladi.

Oilaviy pansion joylashgan uy Voke xonimga qaraydi. Uy Nev-Sent-Jenev'ev ko'chasining quyi qismiga joylashgan, bu yerda ko'cha Arbalet ko'chasiga ulanib shunday qiyalab pastga tushadiki, ot-aravalar bu yerdan juda kam qatnaydi. Bu vaziyat Val-de-Gras<sup>2</sup> va Panteon<sup>3</sup> binolarining orasiga yashiringan ko'chalarning doimo sukunat qo'ynida bo'lishiga imkon beradi, shuningdek, bu ikki ulkan bino havoning rangiga go'yo dog' tushirayotgandek, devorlarining sarg'ish tusi bilan uni bo'yar va tevarak-atrofi ch bahaybat gumbazlarining qora ko'lankasi shumshuk qiyofaga solardi. Bu yerlarda tosh ko'chalar qup-quruq: zovurlarda na suv bor, na loy; devorlar tagida o't o'sib yotadi; bu yerga kelib qolgan eng beg'am odam ham shu yerlik o'tkinchilar singari g'amgin qiyofaga kiradi: bu ko'chadan izvosh o'tsa zo'r bir mo'jizadek tuyuladi, uylarning fayzi yo'q, baland devorlardan turma hidi keladi. Bu yerlarga tasodifan kelib qolgan parijlik kishi oilaviy pansionlar yoki o'qish muassalaridan, xunobgarchilik va qashshoqlikdan, bir oyog'i yerdayu, bir oyog'i go'rda bo'lgan qariyalar bilan xushchaqchaq, ammo mehnat bilan kun ko'rishga majbur yoshlardan boshqa hech kimni va hech nimani uchratmaydi. Parijda bundan dahshatliroq va bu qadar pastqam mahalla topilmaydi.

Nev-Sent-Jenev ko'chasi – u bamisoli rasm qo'yiladigan bronza ramkaga o'xshaydi – ushbu qissamizga makon bo'lishga eng munosib joydir. Qop-qorong'i g'orga tushib bora-

<sup>1</sup> All is true (*inglizcha*) – hammasi haqiqat.

<sup>2</sup> Val-de-Gras – Parijda harbiy gospital binosi.

<sup>3</sup> Panteon – Parijda XVIII asrda ko'rilgan kattakon bino; u avval ibodatxona bo'lgan; XVIII asr burjuaziya inqilobi vaqtida u Fransiyaning mashhur arboblari dahmasiga aylangach, ammo bu yerga dafn etilgan odamlar orasida hech mashhur bo'lmagan odamlar ham qo'yilgan, masalan: Uchinchi respublika prezidenti Sadi Karno dafn etilgan-u, lekin Volter kabi adiblar va Marat singari inqilobiy arboblarga bu yerdan joy berilmagan, ularning xoki Panteondan chiqarib yuborilgan.

yotgan sayyoh har pillapoyaga oyoq qo'ygan sari kunning yorug'i xiralashadi va u tobora zulmat qo'yniga g'arq bo'la boradi, yo'l boshlovchining ohangdor ovozi unga tobora sekinroq eshitila boshlaydi; shunga ko'ra, kitobxonning oldindanoq mazkur sayyoh kayfiyatiga tushmog'i uchun (qanday to'g'ri o'xshatish-a!) o'shal gardish vazifasini o'taguvchi ko'cha, iloji boricha, ko'proq qora bo'yoqlar va jiddiy fikrlar talab qiladi. Qaysi biri dahshatliroq: toshyurak odamlarga rioya qilishmi yo qovoq kallalargami, buni kim ajrim qilib bera oladi?

Nev-Sent-Jenev ko'chasining muyulishiga joylashgan pansionning old tomoni bog'cha, ko'chadan uyning faqat yon tomoni ko'rinib turadi. Bog'cha bilan uy o'rtasidan, tagiga shag'al yotqizilgan sayozgina ariqcha o'tadi, ariq yoqalab ketgan qum sepilgan yo'lkaning ikki chetiga qator qilib yorongullar ekilgan, shuningdek ko'k gulli oq sopol tuvaklarga anor va tol gul nihollari o'tqazilib, tizib qo'yilgan. Bu yo'lkaga ko'cha eshik orqali kirib kelinadi; eshik tepasiga: «Voke uyi», – deb yozilgan lavha osib qo'yilgan, lavhaning pastrog'ida esa: «Er-xotinlar va hokazo odamlar uchun oilaviy pansion» degan yozuv bor. Kunduz kunlari, jaranglovchi qo'ng'iroq osilgan ko'cha eshikning panjaralari orasidan ko'chaning narigi betida, zovurning etagidagi devor ko'rinib turadi, shu yerlik rassomlardan biri bu devorga yashil bo'yoq bilan marmar peshtoq rasmini ishlagan, peshtoq ichida esa Amur<sup>1</sup> haykalini tasvirlagan. Ramziy tasavvurlarga o'ch kishilar bir zamonlar lok berilgan, endilikda esa loki eskib ko'cha boshlagan Amurning tasviriga qarab, parijscha muhabbat ramzini ko'rsalar ajab emaski, unday muhabbatning oqibati qo'shni binoda davolanardi. Bu rasmning qachon dunyoga kelganini Amur o'rnatilgan poydevorning pastki qismidagi ko'p yeri o'chib ketgan yozuv ko'rsatib turibdi:

*O inson, mayliga, sen bo'lmagin kim,  
Bir umr u senga ustoz-muallim<sup>2</sup>.*

degan bu yozuv Volter<sup>3</sup> Parijga qaytib kelganda, uni shodlik

<sup>1</sup> Amur – muhabbat farishtasi.

<sup>2</sup> She'rlarni Xayriddin Saloh tarjima qilgan.

<sup>3</sup> Mari Fransua Arue Volter (1694-1778) – fransuz yozuvchisi, faylasuf, tarixchi. Didro boshchiligidagi «Ensiklopediya»ni nashr etishda faol ishtirok etgan. «Falsafiy

xurramlik bilan kutib olingan 1778-yildan darak beradi.

Kechasiga ko'cha eshikning panjarasi yopib qo'yiladi. Uyning uzunligiga teng keladigan bog'cha ko'cha tomondan devor va qo'shni uyning orqa devori orasiga qisilgan bo'lib, bu uy devori quyuq pechak gullarga shu qadar burkanib Parij uchun shunday ajib bir manzara kashf etganki, o'tganketganlarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib turadi. Bog' atrofini o'ragan devor yoqalab qator meva daraxtlari va tok o'tqazilgan bo'lib, Voke xonim bularning chang bosib ketadigan mevalari haqida yil sayin ko'proq tashvish tortar va uyida istiqomat qiluvchilar bilan bu haqida ko'proq suhbat qurib turardi. Devor bo'ylab ketgan torgina yo'lka arg'uvon<sup>1</sup> daraxtlari ostiga olib boradi. Voke xonim, garchi oqsuyak de Konflanlar oilasiga mansub bo'lsa ham, noto'g'ri talaffuz etayotgani xo'randalari tomonidan doim eslatib turilsa ham, u terslik qilib, arg'uvonni armug'on deb atardi. Yo'lkalar orasiga pol-pol qilib shovul<sup>2</sup>, petrushka<sup>3</sup>, qohi va boshqa ko'katlar ekib tashlangan, pollarning burchak-burchaklarida sarvga o'xshatib butalgan mevali daraxtlar tikkayib turadi. Arg'uvonlar ostiga yashil bo'yoqqa bo'yalgan bir oyoqli duma-loq stol oyog'i yerga ko'mib o'rnatilgan, uning atrofiga skamey-kalar qo'yilgan. Jo'jalar kurk tovuqsiz ham, o'zlari tuxumni teshib chiqaveradigan yozning jazirama issiq pallasi boshlanganda, Voke xonimning uyida istiqomat qiluvchilardan o'ziga ancha to'groqlari salqinda huzur qilib o'tirib, qahva ichgani bu yerga tushib turadilar.

Tepasida boloxonasi bor to'rt qavatli uy ohaktoshdan qurilgan va Parijdagi deyarli barcha uylarga allaqanday qabihona tus berib turadigan sarg'ish rangga bo'yalgandi. Har qavatda beshtadan mayda ko'zli deraza bo'lib, derazalarga biri biriga mos

---

maktublar», «Metafizika to'g'risidagi risola», «Nyuton falsafasining asoslari», «Lisabon halokati haqida doston», «Genriada», «Orlean qizi», «Zadig», «Kandid», kabi asarlar muallifi.

<sup>1</sup> **Arg'uvon** (*forscha*) – yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan, bahorda ochiladigan qirmizi gulli bir daraxt.

<sup>2</sup> **Shovul** (*ruscha*: shavel – nordon bargli o'tsimon o'simlik) – otquloqqa o'xshash, qora bug'doylar oilasiga mansub, bargi mayda. ta'mi nordon, ovqatga ishlatiladigan ko'p yillik o'simlik; qo'ziquloq.

<sup>3</sup> **Petrushka** (*yunoncha*: petroselinon – tog' seldereyi) – soyabonguldoshlar (soyabongullilar oilasi)ga mansub bir yoki ikki yillik, kashnichsimon o'simlik. Petrushka bargi ko'rinishdan kashnichga o'xshasa-da, hidi va mazasi o'ziga xos dag'atroq.

kelmagan chiypardalar qing'ir-qiyshiq qilib osilgan edi. Uyning yon tomonida esa deraza faqat ikkitadan, shuni aytib qo'yaylikki, pastki qavatdagi ikkala derazada ham hech qanday bezak yo'q, bezak o'rniga temir panjara qoqilgan. Uyning orqa tarafi eni yigirma futcha keladigan hovli, bu yerda faqat cho'chqalar, quyonlar va tovuqlardan boshqa qimirlagan jonni ko'rmaysiz. Hovlining to'rida o'tinxona, o'tinxona bilan oshxona derazasi o'rtasida don-dun saqlanadigan yashik osig'liq turadi, yashik ostida esa yuvindilarni oqizib yuborish uchun ariq qazib o'tilgan. Hovlidan Nev-Sent-Jenev ko'chasiga chiqadigan kichkina tuynuk ochib qo'yilgan; har xil yuqumli kasalliklar tarqatishda ayblanib, jarima to'lamaslik uchun oshpaz xotin hamma axlatni shu tuynukdan ko'chaga chiqarib tashlarkan, bu ishni amalga oshirishda suvdan sira ayamay foydalanadi.

Uyning pastki qavati go'yo atayin oilaviy pansion uchun moslab qurilgandek edi. Derazalari ko'chaga qaragan va oyna-band eshikli birinchi xona mehmonxona edi. Mehmonxonadan yemakxonaga kirilardi. Yemakxona bilan oshxona o'rtasida esa, pillapoyalari to'rt burchak taxtalar yotqizilib bo'yalgan va ustidan mumlangan zina bor edi. Bu mehmonxonadan ham noxushroq biron yerni tasavvur qilish juda qiyin: stullar bilan kreslolariga bir yo'li yaltiroq, bir yo'li Xira olachipor jun matodan giloflar sirilgan; mehmonxona o'rtasini xol-xol qora marmar bilan qoplangan dumaloq stol egallagan, stolni bezib tursin deb, ustiga chetlaridagi zarhal chiziqlar o'chib ketayozgan oq chinni qahva servizi<sup>1</sup> qo'yib qo'yilgankim, bunday servis hozir hamma yerda uchrab turadi. Pol taxtalari nari-beri qoqilgan, devorlarning yelka barobar yerigacha panel qoplangan, undan yuqorisiga «Telemak»dagi<sup>2</sup> asosiy voqealarni tasvirlovchi yaltiroq gulqog'ozlar yopishtirilgan, qog'ozdagi antik dunyo qahramonlari rang-barang bo'yoqlar bilan ishlangan. Kataksimon ikki deraza o'rtasidagi yon devorda pansion ahli suv parisi Kalipsoning<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Serviz (*fransuzcha: service* – xizmat; idish-tovoq to'plami) – ma'lum miqdordagi kishilarga mo'ljallangan, bir xil badiiy bezatilgan idish-tovoq to'plami.

<sup>2</sup> «Telemak» – fransuz adibi Fransua de Salinyaka de Lamot-Fenelonning (1651-1715) «Telemak sarguzashtlari» asari nazarda tutilgan. Telemak – Odisseyning o'g'li.

<sup>3</sup> Kalipso – yunon afsonalarida tasvirlangan dengiz ma'budasi.

Odissey<sup>1</sup> o'g'li sharafiga uyushtirgan ziyofat manzarasini tomosha qiladi. Mana qirq yildirki, bu rasm yosh xo'randalarning zaharxanda kulgilariga sabab bo'lib kelardi, ular qashshoqliklari oqibatida iste'mol qilishga majbur bo'lgan faqirona taomlari ustidan kularkanlar, ayni vaqtda o'zlarini o'z qismatlaridan afzal deb bilardilar. Olovxonasining doim top-toza turishiga qaraganda, mehmonxonadagi kamin faqat eng tantanali kunlarda yoqilardi, uning tokchasiga juda borib turgan beso'naqay ko'kimtir marmar soat ziynat sifatida qo'yilgandi, soatning ikki chetida turgan ikki guldonga eskirib ketgan sun'iy gullardan guldasta o'tqazilib, ustiga shisha qalpoq bostirib qo'yilgandi.

Bu birinchi xonadan g'alati bir hid kelib turadi: tilimizda bu hidning hali aniq bir nomi yo'q, ammo uni qovoqxona hidi deb atasa bo'ladi. Unda bo'rsigan, mog'orlagan, achigan-sasigan narsalarning hidi bor; bu hid kishini seskantiradi, allaqanday sassiq hid bilan burnini achitadi, kiyim-boshga singib qoladi; u hozirgina ovqat yeb bo'lingan yemakxona hidini eslatadi; undan oshxonalar, malayxonalar, kucherxonalar<sup>2</sup> hidi anqiydi. Kishining dimog'iga urilib, ko'ngilni aynatadigan bu hid tur va navlarga ajratilgandan keyin, uni ham mukammal tasvirlab berishning iloji topilsa ajab emas – bu yerdagi xoh yosh, xoh qari bo'lsin, har bir xo'randadan mana shunday yaramas, kishini o'sal qiladigan qo'lansa hidlar kelib turadi. Mana shu barcha yaramas jihatlarga qaramay, bu xonani o'rtadagi yemakxona bilan taqqoslab ko'rsangiz, mehmonxona yemakxona oldida nafis va xushbo'y atirlar anqib turgan ayollar pardozxonasiga o'xshaydi.

Devorlariga to shippgacha taxta qoplangan yemakxona ilgari qandaydir bir rangga bo'yalgan; ammo uning qanday rangligini hozir aytish qiyin, chunki o'sha rangni hozir to'rt enlik kir bosib, devorda ajib bezaklar kashf etgan. Devor bo'ylab shira tekkan idish-tovoq javonlari tizilishib turar, ularning ichida cheti uchgan, xira tortgan grafinlar<sup>3</sup>, idish ostiga qo'yiluvchi bema'ni rasmlar solingan tunuka tarelkalar, Turneda<sup>4</sup> ishlangan havorang

<sup>1</sup> Odissey – yunon tarixchisi va adibi Gomerning shunday nomli dostonining bosh qahramoni.

<sup>2</sup> Kucher (*nemisch*a: Kutscher – aravakash) – izvosh haydovchi. Kucherxona – aravakashlar xonasi.

<sup>3</sup> Grafin (*inglizcha*) – suv, vino va shu kabilar solib qo'yiladigan, bo'g'zi tor idish.

<sup>4</sup> Turne – Belgianing sanoat shahri.

hoshiyali qalin chinni tarelkalar bor edi. Xonaning bir burchagida kataklari nomerlab qo'yilgan yashik turardi. Har bir xo'randa-ning vino to'kilib dog' bo'lib qolgan yoki o'zi shunday ham kir bo'lib ketgan sochig'i bu yerda alohida-alohida bo'lmada saqlanardi. Bu xonada yana hamma yerdan quvg'in bo'lgan, ammo mustahkam har xil anjomlarni uchratish mumkinki, madaniyat chiqindilarini davolab bo'lmaydiganlar kasalxonasiga tiqib qo'yishganidek, bu anjomlarni ham shu yerga olib kirib qo'yishgan edi. Bu yerda siz yomg'ir yog'ib o'tgandan keyin simobi ko'tariladigan barometrni<sup>1</sup>, bir qarashdayoq ishtahani bo'g'adigan zarhal hoshiyali qora ramkaga solingan gravyuralarni<sup>2</sup>, atrofiga shoxga o'xshatib misdan bezak ishlangan devor soatini; yashil tusda sirlangan pechkani, Argan korxonasidan chiqqan, moyi chang bilan qorishib ketgan kenket lampani<sup>3</sup> ham; uzun stol va uning ustiga yozilgan o'ta isqirt kleyonkani ham (kleyonka shu qadar ifloski, hazilkash xo'randa, qalam qidirib o'tirnasdan ermak uchun o'z ismini, to'ppa-to'g'ri barmog'i bilan yoza-veradi); singan, qiyshaygan stullarni, titi-piti chiqib ketgan bo'lsa ham, uzluksiz ishlatilaveradigan bo'yralarni; qorayib, siyqasi chiqib ketgan, qopqog'i yirtiq grelkalarni<sup>4</sup> ko'rishingiz mumkin. Bu yerdagi narsalarning qanchalik eskib, chirib, ilma-teshik bo'lib ketganini, buzilib-yorilganini, omonatligini, qiyshiq-qing'irligini va zo'rg'a ilinib, ilvillab turganini batafsil tasvirlab berish g'oyat mushkul, buning uchun qanchadan qancha satrlar darkor-ki, agar shu ish bilan shug'ullansak, qissamiz juda cho'zilib ketgan va vaqti ziq odamlar bizni kechirishmagan bo'lardi, albatta. Qizil pol hadeb bo'yalavergani va artilaverganidan cho'tir bo'lib ketgan. Qisqasi, bu yer nazokat va latofatdan asar ham bo'lmagan qashshoqlikning, chirik, qurumsoq, maraz qashshoqlikning saltanati edi. Garchi buni hali tom ma'nodagi kir deb bo'lmasa ham, dog'-dug'i behisob edi; garchi buning hali yirtiq-yamog'i bo'lmasa ham, hademay tamoman titilib uzilib tushishi

<sup>1</sup> **Barometr** (*yunoncha*) – atmosfera bosimini o'lchaydigan asbob.

<sup>2</sup> **Gravyura** (*fransuzcha*: gravure, graver – o'yish) – biror qattiq metall, yog'och va boshqa yuzasiga o'yib tasvir ishlash san'ati, grafika turi. Shu usulda ishlangan asar va undan bosma usulida ko'chirilgan nusxa ham gravyura deb ataladi.

<sup>3</sup> **Kenket lampa** – moy bilan yonuvchi takomillashgan lampa.

<sup>4</sup> **Grelka** (*ruscha*) – badanning biron og'riqli qismiga qo'yiladigan, odatda, rezinadan qilinadigan sun'iy isitish moslamasi.



muqarrar edi.

Bu xona o'zining butun qusn-jamolini ertalab soat yettilarda ko'rsatadi, o'sha mahalda bu yerga Voke xonimning mu-shugi o'z bekasidan sal oldinroq kirib keladi, bufetlarga<sup>1</sup> sakrab chiqadi-da, xurillab ertalabki qo'shig'ini xirgoyi qilib, ustiga likopcha yopilgan sut idishlarni bir-bir hidlab chiqadi. Ko'p o'tmay bu xonaga to'zigan kavushlarini sudrab tul bekaning o'zi ham kirib keladi; bekaning nari-beri yumaloqlab yig'ib qo'yilgan ulama soylari boshiga qo'ndirgan to'r qalpog'i ostidan chiqib turadi. Uning quruqshagan, ammo go'shtdor yuzidan xuddi to'ti qushning tumshug'iga o'xshab ketadigan uzun burni turtib chiq-qan; uning baqaloq qo'llari, cherkovdagi kalamushniki singari bo'rdoqi gavdasi, qar qimirlaganda lorsillab turuvchi haddan tashqari katta ko'kraklari – bularning hammasi ham go'shasidan g'am-alam zahri chakillab tomib turgan harislik maskani bo'lmish bu zalga, ya'ni Voke xonim aynigan va qo'lansa havosidan huzur qilib nafas oluvchi bu zalga g'oyat mos tushgan edi. Bekaning kuzning ilk qirovi singari sovuq basharasi, ajinlar bilan qurshalgan ko'zlari, raqqosa qizning soxta kulgisidan tortib, to sudxo'rning badjahloni o'shshayishigacha bo'lgan hamma ho-latlarni aks ettira oladi – xullas, pansion bu ayolning shaxsiyatini ifodalab berganidek, bu ayolning shaxsiyati ham pansionning qanday joyligini aniqlab beradi. Surgun nazoratchisiz bo'lma-ganidek, bularning birini ikkinchisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Terlama kasali kasalxonalaridagi iflos havo oqibatida vujudga kelganidek, bu bekaning rangsiz xomsemiz gavdasi – butun hayotining mahsuli edi. Eski ko'ylakdan buzib tikilgan, qaviqlari ostidan paxtasi chiqib yotgan, ustki yubkasi ostidan mo'ralab turgan jundan to'qilgan dag'al yubkasi, qisqa mazmunda shu mehmonxonani, yemakxona va bog'ni esingizga soladi, oshxo-naning qandayligidan darak beradi va bu yerdagi xo'randalarning qanaqa odamlar toifasidan ekanini ko'rmasdan turib bilib olishga ham imkon tug'diradi. Voke bu xonaga kirib kelishi bilan bu yerning manzarasi to'kis bo'ladi. Elliklarga kirib qolgan beva

<sup>1</sup> **Bufet** (*fransuzcha*: buffet – stol) – 1) idish-tovoq, meva-cheva, ichimlik va shu kabilar saqlanadigan maxsus javon (shkaf) (**bu yerda shu ma'noda**); 2) katta oshxona va restoranlar, muayyan korxonalar qoshida tashkil etiladigan, yengil-yelpi ovqatlanish uchun mo'ljallangan do'kon; tamaddixonalar.

Voke ko'pni ko'rgan xotinlarning hammasiga o'xshab ketadi. Uning yuzlari shishadek nursiz, aftiga qarasangiz, o'zini xuddi qo'shmachilardek sipo tutadi-yu, ammo molini qimmatroqqa pullash uchun har onda tutoqib ketishga, bobillab berishga ham tayyorligi shunday sezilib turadi, shunisiyam borki, o'z tirikchiligini yaxshilash yo'lida u hech narsadan tap tortmaydi: agar Pishegryu bilan Jorjga<sup>1</sup> yana bir marta sotqinlik qilishning iloji bo'lsa, shu Jorj bilan Pishegryuni ham tutib beraveradi. Shularning hammasiga qaramay, aslida, yomon xotin emas deyishadi xo'randalar beka to'g'risida va uning ham xuddi o'zlari singari hasratidan chang chiqib, tinmay oh-voh qilishiga qarab, sho'rlikning puli yo'q bo'lsa kerak deb o'ylaydilar. Janob Voke qanday odam edi? Beka marhum eri to'g'risida hech og'iz ochmasdi. U qanday qilib davlatidan ajralgan edi? Bu savolga beka, omadi kelmadi, deb qisqa javob qilib qo'ya qolardi. Marhum xotiniga jabr qilib ketgan, sababi – yig'lab kun ko'rish uchun yolg'iz ko'zlarini, ochdan o'lmaslik uchun mana shu uyni va yana o'z-galarning g'am-alamiga sherik bo'lmaslik huquqini meros qoldirgan, negaki, bekaning gapiga qaraganda, u tortmagan azob-uqubat qolmagan ekan.

Baqaloq oshpaz xotin Silviya bekasining pildirib kelayotgan oyoq tovushini eshitib, bu uyda istiqomat qiluvchi xo'randalarga nonushta tayyorlashga oshiqadi. Chetdan keladigan xo'randalar, odatda, faqat oyiga o'ttiz frank<sup>2</sup> turuvchi tushki ovqatgagina kelishardi.

Ushbu qissaning boshlanish vaqtida pansionda turuvchilar yetti kishi edi. Ikkinchi qavat ikki xonadan iborat bo'lib, bular uydagi eng yaxshi xonalar edi. Kichikroq xonada Voke xonimning o'zi turar, ikkinchi xonada esa, Respublika davrida intendantlik<sup>3</sup> komissari<sup>4</sup> bo'lib xizmat qilgan odamning bevasi

<sup>1</sup> **Pishegryu bilan Jorj** – Sharl Pishegryu bilan Jorj Kadudal – Napoleon I ning birinchi konsullik vaqtida (1804) unga suiqasd uyushtirgan royalistlar fitnasining tashkilotchilari; fitna ishtirokchilaridan biri ularni fosh qilgan; Kadudal qatl etilgan, Pishegryu esa qamoqda o'lgan.

<sup>2</sup> **Frank** – Fransiya, Belgiya, Shveysariyada, shuningdek, ba'zi Yevropa va Afrika mamlakatlarida pul birligi (yevroning joriy etilishi munosabati bilan ayrim mamlakatlarda muomaladan chiqarildi).

<sup>3</sup> **Intendant** – armiyada moddiy ta'minot bilan bog'liq vakollikdagi lavozim.

<sup>4</sup> **Komissar** (*fransuzcha*: commissaire) yoki *lo'lyant* – o'zlashtirilgan vakollikdagi lavozim.



Kutyur xonim joylashgan edi. U bilan birga Viktorina Tayfer ismli yoshgina bir qiz turardi, Kutyur xonim uning onasi o'rnini bosgandi. Bu ikki ayolning istiqomat haqi yiliga bir ming sakkiz yuz frankka yetardi. Uchinchi qavatdagi ikkita xonadan birini Puare ismli bir chol band qilgandi, ikkinchisida esa, qora parik<sup>1</sup> kiyib, chakka soqollarini bo'yab yuradigan bir kishi turardi, u o'zini sobiq savdogar janob Votren deb tanitgandi. To'rtinchi qavat to'rt xonadan iborat edi, bulardan ikkitasini hamisha shu yerda yashovchi xo'randalar band qilishgandi: birida – qari qiz mademuazel<sup>2</sup> Mishono, ikkinchisida – vermishel<sup>3</sup>, bug'doy kraxmali<sup>4</sup> va makoron tayyorlaydigan fabrikaning sobiq xo'jayini, hammaga ham o'zini Gorio ota deb chaqirishga ruxsat bergan bir chol turardi. Qolgan ikki xona mademuazel Mishono bilan Gorio otaga o'xshab, ovqati va boshpanasi uchun qirq besh frankdan ortiq pul sarflay olmaydigan, vaqtincha qo'nib o'tadigan qashshoq talabalarga atalgandi. Lekin Voke xonim bunday qo'noqlarni uncha qadrlamasdi, balki durustroq xo'randalar topilmagani uchungina uyiga qo'yardi negaki, ular juda ko'p non yeyishardi.

O'sha paytlarda bu xonalardan birini Angulemdan Parijga huquq fanini o'rganish maqsadida kelgan bir yigit band qilgandi, uning serfarzand oilali qarindoshlari esa, bu yigitning Parijda yashashi uchun yiliga bir ming ikki yuz frankdan pul yuborib turamiz deb, o'zlarini g'oyat og'ir muhtojliklarga duchor qilgan edilar. Ejen de Rastinyak – yigitning nomi shunday edi – muhtojlik oqibatida mehnatga o'rgangan yigitlardan edi, bunday

---

lat berilgan) – 1) harbiy, ijtimoiy-siyosiy yoki ma'muriy vakolatlarga ega bo'lgan rahbar, boshliq; 2) 1918-1942-yillarda Sho'ro hukumatining armiyada komandir bilan bir qatorda qo'shinlarning jangovarlik qobiliyati va siyosiy ahvoli uchun teng darajada javobgar bo'lgan siyosiy xodimi; 3) ayrim xorijiy mamlakatlarda ma'muriy yoki politsiyachilik vazifalarini bajaruvchi mansabdor shaxs (**bu yerda shu ma'noda**).

<sup>1</sup> **Parik** (*fransuzcha*: parrucca) – tutam-tutam sochlardan shakli va rangini kishi sochiga o'xshatib, biror matoga yopishtirib tayyorlangan yasama soch.

<sup>2</sup> **Madmuazel** (*fransuzcha*) – fransuzlarda turmushga chiqmagan qizga nisbatan qo'llanadigan so'z.

<sup>3</sup> **Vermishel** (*lotincha*: vermiculus – chuvalchang; qurt) – bug'doy unidan qorilgan xamirdan tayyorlanadigan ingichka, uzun oziq-ovqat mahsuloti.

<sup>4</sup> **Kraxmal** (*nemischa*: Kraftmehl < Kraft – kuch, energiya, quvvat + Mehl – g'alla uni) – ko'pchilik o'simliklarda fotosintez natijasida hosil bo'ladigan uglevod; ba'zi o'simliklardan olinadigan ta'amsiz oq kukun; ohor (oziq-ovqat, kimyo, to'qimachilik sanoatlarida ishlatiladi).

yigitlar oila a'zolarining butun umidi yolg'iz o'zlaridan ekanini yoshlikdanoq yaxshi tushunadilar va ilmning jamiki foydali tomonlarini yaxshilab tarozida tortib ko'rib hamda kelajak jamiyat taraqqiyotidan birinchilar qatorida bahramand bo'lishni o'ylab, butun olgan ilmlarini jamiyatni taraqqiy qildirish yo'liga moslaydilar, o'zlariga, iloji boricha, porloq istiqbol hozirlashga tirishadilar. Agarda Rastinyak turmushni nechog'liq ziyraklik bilan kuzata olmaganda va parijlik zodagonlarning mehmonxonalariga nihoyatda ustalik bilan kira olmaganda edi, qissamiz bu qadar rostgo'ylik bilan yozilgan bo'lmasdi, albatta, qissamizda tasvir qilingan fojining aybdorlari ham, qurbonlari ham o'z sirlarini yashirishga qanchalik uringan bo'lmasinlar, biz Rastinyakning o'tkir zehn va bir bechoraning fojiasi sabablarini bilishga bo'lgan intilishlari tufayli u voqealardan xabardor bo'ldik.

To'rtinchi qavat tepasida kir yoyiladigan chordoq va ikki mansarda<sup>1</sup> bor edi, mansardalarda Kristof ismli xizmatkor va semiz oshpaz xotin Silviya yotib yurishardi. Shu yerda turuvchi yettita xo'randadan tashqari Voke xonim vaqtiga qarab, lekin kam deganda sakkiztadan yo huquqshunos, yo medik talabalarni, ikki-uchta muttasil qatnab turadigan o'z mahallasining odamlarini boqardi – bu xo'randalarning hammasi faqat tushlik ovqatga kelishardi. Tushki ovqat paytida yemakxonaga o'n sakkiz kishi to'planardi, lekin yigirma kishini sig'dirsa ham bo'lardi; erta bilan esa stol atrofiga faqat shu uyda istiqomat qiluvchi yetti kishi to'planardi, nonushta paytidagi bunday yig'in oila yig'iniga juda o'xshab ketardi. Hammalari chuvak kiyib kirib kelishar, chetdan kelib turadigan xo'randalarning turq-atvori yo kiyimboshi to'g'risida, kecha kechqurun sodir bo'lgan voqealar to'g'risida hech tap tortmay o'zaro do'stona vaziyatda ochiqdan ochiq gaplashaverardilar. Bu yetti pansioner<sup>2</sup> Voke xonimning arzandalari edi, xonim esa bu xo'randalarga ularning pansionga to'laydigan haqiga yarasha mehribonlik va diqqat-e'tibor ko'rsatardi. Taqdirning taqozosi bilan bu yerga to'planib qolgan shaxslarning barchasiga o'lchov bitta edi. Uchinchi qavatda turadigan ikki pansioner hammasi bo'lib oyiga faqat yetmish ikki frankdan

<sup>1</sup> Mansarda – shifti qiya boloxona

<sup>2</sup> Pansioner – pansionda yashovchi.

haq to'lashardi. Faqat Salpetriyer<sup>1</sup> va Bubr<sup>2</sup> o'rtasidagi Sen-Marso dahasidagina (Kutyur xonimning pansionda turish haqi bundan mustasno) bo'lishi mumkin bo'lgan bunday arzon baho, bu yerda istiqomat qiluvchilarning ozmi-ko'pmi og'ir iztirob chekkanlaridan dalolat berardi. Mana shuning uchun ham, bu uydagi barcha jihozlarning shumshuk manzarasi, aynan shunday shumshuk qiyofa kashf etgan doimiy xo'randalarning kiyim-boshlariga juda mos tushardi. Erkaklar syurtukining<sup>3</sup> qanday rangdaligini bilib bo'lmasdi, oyoq kiyimlari esa, shunaqa ahvolda ediki, bunday poyabzalni badavlat xonadon ahli ko'chaga olib chiqib tashlardi, ichki kiyimlarining joni qolmagan, faqat nomiga kiyim. Ayollarning egnilarida allaqachon modadan qolgan, qayta bo'yali, bu rangi ham aynib ketgan ko'ylak, to'rlari eski, qirg'yamoq, hadeb kiyilaverib yag'iri chiqqan qo'lqoplar, yuvgan bilan hech oqarmaydigan sarg'ish yoqalar, yelkalariga tashlangan ro'mol esa ilma-teshik bo'lib ketgan. Kiyim-boshlari mana shu ahvolda bo'lsa ham deyarli hamma pansionerlarning jussalari pishiq, ular hayotiy qiyinchiliklarning jamiga jismonan bardosh berib kelganlar, chehralari sovuq, dag'al, muomaladan chiqarib tashlangan chaqalarga o'xshab, siyqa bo'lib ketgan, qurishgan og'izlarida o'tkir tishlar. Bu xo'randalar qiyofasiga qarab turib, har birining boshidan bir fojia o'tganini yoki hozir o'tayotganini payqab olish mumkin: chil chiroqlar yorug'ida bo'yoqli dekoratsiyalar orasida o'ynaladigan fojialar emas, balki boshdan oyoq hayot bilan sug'orilgan yoki gung va kar bo'lib qotib qolgan bo'lsa ham, qalblarni hayajonga soluvchi poyoni ko'rinmaydigan fojialarni payqab olsa bo'lardi.

Qari qiz Mishono ojiz ko'zlari tepasiga mis simga o'matlangan yashil shoyidan kir soyabon tutib yurardiki, u soyabon ins-u jinslarning ham o'takasini yorib yuborishga qodir edi. Siyrak popuklari shalviragan shol ro'moli xuddi skelet ustiga yopib qo'yilgandek tuyulardi – ro'mol tashlangan yelkalar shunchalik qoq suyak edi. Bir vaqtlar u qaddi-qomati kelishg'an ayol bo'lgan bo'lsa kerak. Ammo bu sho'rlik ayolning chehrasidagi

<sup>1</sup> Salpetriyer – Parijda kampirlar uchun xayriyaxona: uning qoshida ruhiy kasallar va asab kasallari shifoxonasi ham bor.

<sup>2</sup> Burb – Parijdagi tug'ruqxonalardan birining nomi.

<sup>3</sup> Syurtuk (*fransuzcha*) – erkaklarning tizzagacha keladigan bir tomonlama yoki ikki tomonlama tugmalanadigan paltosi.

latofatni qanday balo yalab ketdi ekan? Nuqsonlarmi, g'am-u anduhmi yo harislikmi? Muhabbat og'ushiga mukkasidan tushib ketganmidi yoki shunchaki bir suyuqoyoq qizlardan bo'lganmidi? Balki, u aysh-u ishrat bilan o'tgan bevosh yoshligi vaqtida qilgan gunohlarini endi foniy dunyoning barcha aqliga tahdid soluvchi qarilik iztirobi bilan yuvayotgandir. Hozir uning sovuq nazari kishining etini jimirlatib yuboradi, badbashara yuziga ko'zi tushgan odamning yuragi orqasiga tortib ketardi. Chinqiroq ovozi qish yaqinlashib qolganda buta orasida chirillaydigan chigirtkani eslatardi. O'zining gapiga qaraganda, qovug'i yallig'lanib yotib qolgan bir cholga qarab turgan ekan, cholning bolalari otamizning puli yo'q deb, unga qaramay qo'yishgan ekan. Chol unga umrbod yiliga bir ming frankdan foyda olib turadigan renta<sup>1</sup> qog'ozni vasiyat qilib qoldiribdi. Ammo cholning vorislari ba'ziba'zida Mishono boshiga tuhmat yog'dirib, otasining vasiyatini buzishga urinisharmish. Uning ehtiroslar bo'ronida poymol bo'lgan chehrasida hali ham bir zamonlardagi sutdek oppoqligi va ipakdek nozikligidan xiylagina asar qolgan edikim, bu belgilar, ayolning qiyofasida yoshligidagi nafosat hali ham ozmi-ko'pmi mavjud degan fikrga olib kelardi kishini.

Janob Puare allaqanday avtomatga o'xshardi. Mana u kulrang soya singari Botanika bog'ida tentirab yuribdi; boshida g'ijimlangan eski furajka<sup>2</sup>, qo'lida dastasi fil suyagidan yasalgan, sarg'ayib ketgan hassasini zo'rg'a tutib turibdi, kamzulining oftobda rangi aynigan etaklari na bir juft tayoqqa kiydirib qo'yilgandek kaltagina shimini, na mast kishilarnikiga o'xshagan qaltiroq va chillakdek ingichka oyoqlariga kiyib olgan zangori paypoqlarini berkita olardi, yuqorida esa, kir oq nimchasi va bo'rtmasi arzon muslindan<sup>3</sup> tikilgan dag'al yoqasi arqonga o'xshab eshilgan galstuk taqqan kurkasifat uzun va ingichka bo'ynidan ajralib mo'ralab turibdi; uni uchratgan odamlarning

<sup>1</sup> **Renta** (*nemischa*: Rente; *fransuzcha*: rente; *lotincha*: reddita – qaytarib berilgan narsa) – mulk egalari bilan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmasdan yer yoki mol-mulkdan foiz shaklida muntazam oladigan daromadi; 2) ayrim mamlakatlarda davlat zayomlari obligatsiyalari bo'yicha foiz yoki yutuq shaklida to'lanadigan daromad.

<sup>2</sup> **Furajka** (*fransuzcha*: fourrage – yem-xashak tayyorlovchining bosh kiyimi; *fourre* – somon) – erkaklarning gardishli va qisqa soyabonli bosh kiyimi.

<sup>3</sup> **Muslin** (*fransuzcha*: mousseline – Iroqning Mo'sul shahri nomidan) – yengil, yupqa va mayin gazlama.

ko'pchiligi ko'ngliga beixtiyor shunday bir Gap kelardi: bu soya-  
ga o'xshab qolgan odam Italiya xiyobonida parvoz qilib yurgan  
arvohlardan emasmikan? Qanday ish azobidan u bunchalik  
munkayib qoldiykin? Rasmini karikatura<sup>1</sup> qilib ishlaganda ham  
shunchalik xunuk chiqmaydigan uning g'udda<sup>2</sup> qoplagan yuzi  
qanday ehtiroslar oqibatida bu qadar unniqib ketibdiykin? Ilgari  
kim edi? Ehtimol, adliya ministrligining hamma jallodlar qilgan  
sarflari haqida hisobot yuborib turadigan, ya'ni padarkushlarni  
qatl qilish paytida lozim bo'ladigan qora oyoqlilar, jallod jodusi  
tagiga qo'yiladigan qipiq savatlari va jodu uchun arqon sotib  
olish to'g'risidagi talabnomalar keladigan bo'limida ishlagandir.  
U qassobxona darvozasi oldida o'tiradigan soliq yig'uvchi yoki  
xalq sog'lig'idan xabar olib turadigan nazoratchining yordam-  
chisi bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Xullas, bu odam, aftidan,  
bizning ulkan ijtimoiy tegirmonimizda yuk tashuvchi eshakka,  
o'z Bertranlarini<sup>3</sup> hatto tanimaydigan Parij rayonlariga mansub  
bo'lgan bo'lsa kerakki, u atrofida badbaxtlik va yaramaslik  
parvona bo'lgan kimsaga o'xshardi, qisqasi u, biz odatda:  
«Nachora, shunday odamlar ham kerakda», – deb baho beradigan  
odamlar toifasidan edi. Ahloqiy yoki jismoniy azoblardan rangi-  
da qon qolmagan bunday odamlar serdabdaba Parijga yotdir.  
Ammo Parij – ulkan bir okean. Unga qancha uzun lot<sup>4</sup> tashla-  
sangiz ham, haqiqiy chuqurligini aniqlay olmaysiz. Parijni kuzat-  
moqchi, ta'rif-tavsifini qilmoqchimisiz? Kuzatavering, ko'ng-  
lingizga siqqancha ta'rifini qilavering: tadqiqotchilar qanchalik  
ko'p va sinchkov bo'lishmasin, bu okeanda tesha tegmagan soha,  
noma'lum suv osti g'orlari, dur-gavharlar, gullar, bahaybat max-  
luqlar, xullas, adabiyot g'ovvoslari nazaridan chetda qolgan misli  
ko'rilmagan yangiliklarni uchrataveradilar. «Vokey uyi» ham

<sup>1</sup> **Karikatura** (*italyancha*: caricatura yoki caricare – bo'rttirmoq, oshirib yubormoq) – kulgi yoki mazax qilish maqsadida kishi yoki biror narsa-hodisaning salbiy tomonlari, xarakterli xususiyatlari ataylab bo'rttirib ishlangan hajviy rasm.

<sup>2</sup> **G'udda** (*arabcha*; bez; shish, g'urra) – odam, hayvon yoki o'simlik a'zosining, narsaning biror joyida bo'rtib chiqqan shish, bo'rtiq qabariq.

<sup>3</sup> **Bertran va Raton** – Lafontening «Maymun va mushuk» masalidagi personajlar; bu masalda ayyor maymun Bertran mushuk Ratanni o'zi uchun o'lib-qutulib ishlashga majbur etgani hikoya qilinadi. 1833-yilda E. Skrib satirik komediya yozib, unga «Bertran va Raton» deb nom qo'ygan.

<sup>4</sup> **Lot** (*nemischa*) – 1) dengiz chuqurligini o'lchaydigan asbob (*asarda shu ma'noda*); 2) 12,8 grammga teng qadimgi rus og'irlik o'lchovi.

mana shunday Maxluqotlar toifasidan edi.

Bu yerdagi hamma pansionerlar va chetdan keladigan xo'randalar orasida ikki kishi butunlay ajralib turardi. Viktorina Tayferning rangi kasalmand odamlarnikiga o'xshash oppoq edi, u kamqon qizlarga o'xshardi; rost, u chehrasidagi g'amginlik va tortinchoqlik alomatlari bilan, o'zining achinarli darajada zaifaligi bilan, iztirob chekayotgan bu muhit aqliga mos tushardi, ammo chehrasi bu yerda istiqomat qiluvchilarniki singari tumshaygan emas, xatti-harakatlari tetik, ovozi jarangdor, jonli edi. Bu sho'rpehona qiz yaqinginada bir yerdan boshqa noqulay yerga olib o'tqazilganidan sarg'ayib qolgan niholga o'xshardi. Za'faron yuzidagi, oq-malla rang sochlaridagi, haddan tashqari ingichka belidagi nafosatga qarab, hozirgi zamon shoirlari uni o'rta asrlardan qolgan haykallarga o'xshatgan bo'lardilar. Qizning qoradan kelgan qo'y ko'zlarida Uning musichadek beozorligi va xristianlarga xos itoatgo'yiligi aks etib turardi. Arzon baho oddiy ko'ylak uning badaniga chippa yopishib, qizlik belgilarini yaqqol ko'rsatib turardi. Boshqalarga qaraganda, uni yaxshigina qiz deb aytsa bo'lardi, agarda unga baxtli hayot nasib qilganda, u g'oyat latofatli qiz bo'lardi: ayol kishining husni-jamoli kiyimboshida bo'lganidek, nafosati uning xotirjamligida. Agarda sho'x bazmlar shu'lasini uning qonsiz chehrasini yoritisa, nazokat va nafosat bilan o'tadigan ko'rkam hayot uning salqigan yuzini xiyla taranglashtirsa-yu, unga qizil yugursa, g'amgin ko'zlariga muhabbat nur bag'ishlasa, Viktorina go'zallikda manaman degan eng chiroyli qizlar bilan ham tenglasha olardi. Unga ayol zotini tamomila o'zgartirib yuboradigan narsalar: latta-puttalar-u ishqiy maktublar yetishmasdi, xolos. Bu qizning boshidan kechirganlari butun boshli bir kitobga syujet bo'la olardi.

Viktorinaning otasi qandaydir bir sababga binoan uni o'z qizi deb tan olishdan voz kechgan, uni o'z uyiga olib ketishdan bosh tortgan edi va tirikchiligi uchun yiliga olti yuz frankdan ortiq bir chaqa ham pul bermasdi, butun davlatini esa o'g'liga topshirish uchun tayyorlab qo'ygandi. Viktorinaning onasi o'zining uzoq qarindoshi bo'lgan beva Kutyur xonimning uyiga kelib, g'am-u anduh azobidan o'lib ketgandan keyin, Kutyur xonim yetimcha qizni o'z bolasiday ardoqlab tarbiyalay boshladi. Afsuski, Respublika zamonida intendantlik xizmatini o'tagan



komissar bevasining qarilik bilan bevalik nafaqasidan boshqa hech vaqosi yo'q edi, shu sababli kambag'al, tajribasiz, hech narsa bilan ta'minlanmagan qiz axir bir kun murabbiyasidan ajrab, taqdirning qo'lida o'yinchoq bo'lib qolishi mumkin edi. Bu oqko'ngil xotin har yakshanbada Viktorinani ibodatga, ikki haftada bir marta tavba qildirgani cherkovga olib borar, har ehtimolga qarshi uni taqvodor, xudojo'y qilib tarbiyalardi. Kut-yur xonim to'g'ri qilardi. Diniy e'tiqod bu oq qilingan farzand uchun qanday bo'lmasin istiqbolga yo'l ochardi, qiz otasini yaxshi ko'rardi va onasining rozi-rizoligini yetkazish uchun har yili otasi huzuriga borardi, ammo har yili ham otasining eshigi uning uchun berk bo'lardi. Otasi bilan Viktorina o'rtasidagi birdan bir vositachi bo'lgan yolg'iz akasi esa shu to'rt yil mobaynida biron marta bo'lsin singlisini ko'rgani kelgani yo'q, unga hech qanday yordam bergani ham yo'q. Qiz sho'rlik xudoga sig'inib otasining ko'zini ochishini, akasining ko'ngliga rahm solishni iltijo qilar va ularni yomonotliq qilmay, duo qilardi. Qizning otasi bilan akasining vahshiyiligini ifodalab, ularni haqoratlash uchun Kut-yur xonim bilan Voke xonimning so'z boyligi ojizlik qilardi. Beva xotinlar benomus millionerning boshiga ta'na toshini yog'dirayotgan bir paytda Viktorina bamisoli yaralangan kabutar yanglig' iltijo bilan ibodat qilardiki, bu iltijodan faryod ham mehr-muhabbat so'zlari bo'lib eshitilardi.

Ejen de Rastinyak janubliklarning tipik namoyandasi edi: badani oq, sochlari qora, ko'zlari ko'k. Uning yurish-turishi, atrofdagi odamlarga munosabati, xatti-harakatlari va o'zini tutishida bolalik chog'idanoq qadimiy xulq-odob asosida tarbiyalangan oqsuyaklar avlodidan ekani ko'rinib turardi. Ejen kiyimboshini tejab kiyishga, eskilarini oddiy kunlarda kiyib yurishga majbur bo'lsa ham, har holda, ba'zi-ba'zida ko'chaga olifta yigitlardek yasanib chiqa olardi. Lekin boshqa har kuni u eskirgan kamzul, ishdan chiqib qolgan nimcha kiyib, g'ijimlangan qora arzon galstugini naridan-beri taqib, xuddi galstugi singari g'ijimlangan shim va faqat tag charm uchun xarajat talab qilib, ikkinchi bor dunyoga kelgan botinkasini kiyib yurardi.

Yuqorida tasvirlangan bu ikki shaxs bilan pansionda istiqomat qiluvchi boshqa kishilar o'rtasida zanjirlik vazifasini o'tab turgan kishi – chakka soqollarini bo'yab yuradigan qirq

yoshlar chamasidagi janob Votren edi. U odamlar: «Obbo, azamat-e!» – deb baholaydigan kishilardan edi. Uning yelkasi keng, ko'kragi do'ng, mushaklari bo'rtib chiqqan, qo'llari go'shtdor, kurakdek chor qirra, barmoqlarining yuqori bo'g'ida o'ta malla tuklar qalin o'sgan edi. Barvaqt yuziga tushgan ajinlar uning qahri qattiqligidan darak berar, ammo odamlarga ochiq chehra va shirinsuxanlik bilan muomala qilishi qiyofasiga tamomila zid edi. Yoqimli, do'rillagan ovozi uning xiyla dag'al hazillariga juda yopishib tushardi. Votren iltifotli va xushchaqchaq odam edi. Agarda bironta qulf buzilib qolgudek bo'lsa, darrov uni bo'lak-bo'laklarga ajratar, egovlab tozalar, moylab, yana joy-joyiga yig'ib berardi, ishni bitkazar ekan: «Bunaqa ishdan xabarimiz bor», – deb qo'yardi. Lekin, ochig'i, uning hamma narsadan ham xabari bor edi: Fransiya, dengiz, kemalar, chet ellar, bitimlar, odamlar, voqealar, qonunlar, mehmonxonalar, qamoqxonalar – hammasi unga tanish edi. Mabodo bitta-yarimta o'z boshiga tushgan musibatdan nolib qolgudek bo'lsa, u darhol yordam qo'lini cho'zardi; u hatto Voke xonimning o'ziga ham, boshqa bir necha pansionerlarga ham pul qarz berib turardi; ammo undan qarz olganlar, o'lsalar o'lardilar-u, ammo qarzni vaqtida qaytarib berardilar, chunki Votren shunchalik xushchaqchaq ko'rinishiga qaramay, qarz olgan odamga shunday g'ayri oddiy bir tarzda qattiq tikilardikim, bundan qarzdorning o'takasi yorilib ketardi. Chirtillatib tupirish odatining o'zi uning o'ta sovuqqon odamligini, mushkul ahvolga tushib qolgan paytida jinoyatga qo'l urishdan ham toymasligini taqozo qilardi. Uning o'tkir nigohi xuddi mohir sudyaning nazariidek har qanday masalaning ham, har qanday hissiyot va vijdonning ham eng teran yerigacha yetib borayotganga o'xshardi.

U har kuni nonushtadan keyin ko'chaga chiqib ketib, tushlik ovqatga qaytib kelar, keyin yana shu yo'q bo'lib ketganicha yarim kechaga yaqin qaytib kelardi; bunda u uyga Voke xonim ishonib berib qo'ygan ikkinchi kalit bilan eshikni ochib kirardi. Bunday iltifotga faqatgina Votren sazovor bo'lgandi. To'g'ri, beva xotin bilan u g'oyat yaxshi munosabatda edi, uni onaxon deb atar va belidan quchoqlab ham qo'yardi – xonim esa bu xushomadning ma'nosiga tushuna olmasdi! Beva xonim, meni quchoqlash aslo muammo emas, deb astoydil ishonardi,

vaholanki, bu zildek g‘o‘lani quchoqlashga yolg‘iz Votrenning-gina uzun qo‘llari yetardi. Votrenga xos yana bir xususiyat: u hech xasislik qilmay, «gloriya<sup>1</sup>» uchun oyiga o‘n besh frank ortiqcha pul to‘lar va uni ovqatdan keyin shirinlik bilan ichardi, Parijning yengil-elpi hayoti girdobiga g‘arq bo‘lgan yoshlar yoki o‘zlariga bevosita aloqador bo‘lmagan ishlar bilan mutlaqo qiziqmaydigan qariyalar singari ko‘p masalalarga yuzaki qaray olmaydigan odamlar Votrenning xatti-harakatlaridagi bunday bir-biriga zid holatlarni ko‘rib, albatta, hayron qolgan bo‘lardilar. U atrofidagi hamma odamlarning nima ish bilan shug‘ullanishini bilar yoki hech bo‘lmaganda fahmlab yurardi, ammo uning o‘zining nima ish qilishini, miyasi qanday fikrlar bilan bandligini qo‘shnilaridan birontasi ham bilmasdi. U boshqalar bilan o‘zi o‘rtasida soxta ko‘ngilchanligi, shirinsuxanligi va xushchaqchaqligini to‘siq qilib qo‘yarkan, vaqti-vaqti bilan xarakterida mavjud bo‘lgan shafqatsizlik xislatini ham namoyish qilib qo‘yardi. Ko‘pincha, u Yuvenal<sup>2</sup> satirasiga<sup>3</sup> teng keladigan hajviya bilan davlat qonunlarini masxaralar, oliy tabaqa odamlarini sharmanda qilar, ulardagi g‘ayri mantiqiy munosabatlarni fosh etib tashlarkan, go‘yo huzur qilayotgandek his qilardi o‘zini, bu holni ko‘rganlar, Votrenning dilida jamiyat tuzumiga qarshi qattiq norozilik mavjudga o‘xshaydi, uning yashirib yurgan katta bir siri bo‘lsa kerak, degan xayolga borishi mumkin edi.

Mademuazel Tayfer goh mana shu qirq yashar kishiga, goh talaba yigitga o‘g‘rinchi nazar tashlab yurar, u hech qanday mulohazaga borib o‘tirmay, birining kuch-quvvatiga va ikkinchisining chiroyiga mahliyo bo‘lgan bo‘lsa kerak, ammo, ko‘rinishdan, yigitlardan bittasi ham qiz to‘g‘risida o‘ylamasdi, vaholanki, Viktorinaning hozirgi tutgan mavqei, oddiy bir tasodif tufayli o‘zgarib ketishi va u badavlat qayliqqa aylanishi mumkin edi. Ammo bu yerdagi odamlardan birontasi ham boshqalar boshiga tushgan kulfatlarning qanchasi to‘g‘ri-yu, qanchasi uydirma ekanini tekshirib ko‘rishni xayoliga ham keltirmasdi.

<sup>1</sup> *Gloriya* – konyak qo‘shilgan shirin qahva yoki choy.

<sup>2</sup> *Yuvenal Detsim Yuniy* (eramizning I-II asrlari) – Rimlik satirik shoir, u o‘z asarlarida Rim imperiyasidagi hukmdor sinflarning kirdikorlarini ayovsiz fosh qiladi.

<sup>3</sup> *Satira* (*yunoncha*; turli mevalardan iborat ovqat; aralashma) – adabiyot va san’atda insonlardagi nuqsonlar va hayotdagi kamchiliklar salbiy hodisalarni ayovsiz tanqid qilish, fosh etish hamda shunday mazmunda yozilgan badiiy asar; hajviyot.

Har kim o'z boshiga tushgan shaxsiy kechinmalar tufayli, o'zi bilan o'zi ovora bo'lib, boshqalarga befarq va bir oz ishonqiramay qarardi. Hammalari ham o'z boshiga tushgan kulfatni yengillatishga qodir emasliklarini tushunardilar, shuning uchun ham o'z g'am-kulfatlarini bir-birlari bilan hamdamlashib, hamdardlik kosasini simirardilar. Qo'shaqarigan er-xotinlarga o'xshab ularning bir-biriga aytadigan gapi ham qolmagandi. Xullas, faqat tashqi munosabati bir joyda muqim yashashlari ularni bir-biriga bog'lab turardi. Ularning har biri ko'chada tilanchilik qilib turgan ko'r gadoyga parvo ham qilmay o'tib keta olar, odamlarning boshiga tushgan musibat haqidagi gaplarni sovuqqonlik bilan tinglar, yaqin kishisining o'limini esa qashshoqlikdan qutulishning birdan bir yo'li deb hisoblardi, chunki eng dahshatli o'lim talvasasini ham mutlaqo sovuqqonlik bilan kuzatish qobiliyati shu qashshoqlik tufayli vujudga kelgan edi. Mana shunday dili vayron odamlar orasidagi eng baxtlisi bu xususiy g'aribxonaning bekasi beva Voke edi. Qahraton qishda, saratonda, loygarchilik paytida xuddi cho'l-biyobondek huvullab yotuvchi kichkinagina bog'cha faqat bekaning ko'ziga oromgoh chakalakzor bo'lib ko'rinardi. Xuddi do'kon peshtaxtasi singari arzon bo'yoqlar hidi o'tirib qolgan bu sariq tusdagi yoqimsiz uy faqat shu ayolga jozibali bo'lib tuyulardi. U mana shu hujralarning bekasi edi. Mana shu umrbod surgun qilingan sho'rpe-shonalarni boqardi, ularni o'zi oldida itoatgo'ylik bilan qo'l qovushtirib turishga majbur etardi. Bu sho'rlik jabrdiydalar shunday arzon issiq ovqatni, juda chiroyli va qulay turar-joyga aylantirib bo'lmasa ham, har holda, ozoda va sog'liqqa zarar keltirmaydigan qilib olish o'z qo'llarida bo'lgan bunday boshpanani Parijning yana qayeridan ham topardilar? Voke xonim ularga o'taketgan darajada adolatsizlik qilgudek bo'lsa ham – bu bechoralar churq etmay chidagan bo'lardilar, Odamlarning mana shunday uyushmalarida kishilik jamiyatining ajralmas qismlari o'z aksini topishi kerak. U qismlar kichik-kichik hajmda namoyon bo'ldilar ham. Maktablarda va to'garaklarda bo'lgani kabi bu yerda ham, o'n sakkiz xo'randa orasida har baloga qolgan bir sho'rlik jabrdiyda bor edikim, hamma uni mayna qilardi. Ejen. Rastinyakning bu yerdagi xo'randalar bilan birga turganiga ikki yil bo'lgan edi, ammo u Voke uyiga kelganiga bir yildan osh-

ganda, o'sha jabrdiyda sho'rpehona bilan juda inoq bo'lib oldi. Shu hammaga mayna bo'lgan odam sobiq vermishelchi Gorio ota edi, vaholonki xoh rassom bo'lsin, xoh adib, o'z asarida markaziy o'rinni aynan shu odamga bag'ishlagan, unga ko'proq diqqat qilgan bo'lardi. Nega bunday bo'ldi ekan, nega unga g'azab aralash nafrat bilan qaraydilar, nima uchun eng keksa pansioner boshiga tushgan musibatlar ustidan kuladilar, birov chekayotgan iztirobga bunchalik behurmatlik qayoqdan paydo bo'ldi? Bunga uning o'zi sababchi bo'ldimikin, yo'qmikin? Negaki, odamlar nuqsonlarni kechirsalar kechiradilar-u, ammo bunday narsalarga yopishib oladilar. Bu gaplarning hammasi juda ko'p ijtimoiy adolatsizliklar bilan bog'liqdir. Yoki bo'lmasa, odamzod hamma og'irlikni mo'min-qobilligi, beparvoligi yo bo'lmasa ojizligidan ko'tarib ketaveradigan odamlarning sabr-toqati qanchaga yetishini sinab ko'rish uchun, tabiatan jo'rttaga shunday qilarmikan? Axir hammamiz ham, o'z afzalligimizni duch kelgan kimsada yoki duch kelgan narsada sinab ko'rishni yaxshi ko'rmaymizmi? Hattoki ko'cha bolasidek zaif bir go'dak ham qahraton qish paytida odamlarning ko'cha eshiklaridagi qo'ng'iroqlarni birma-bir chalib qochadi yoki endigina o'rnatilgan yangi haykalgaga chiqib olib, unga o'z nomini yozib ketadi.

Yoshi oltmish to'qqizlarga borgan Gorio ota o'z ishlarini yig'ishtirib qo'ygandan keyin, 1813-yilda Voke xonimning uyiga ko'chib keldi. Avvaliga u hozir Kutuyur xonim egallagan kvartiraga kirdi va yiliga yuz frank ortig'u yuz frank kamligining ahamiyati yo'qdek, ovqat-u boshpana uchun bir ming ikki yuz frank to'ladi. Voke xonim bu kvartiradagi uchta xonaning jihozlarini yangilash bahonasida Goriodan pansion haqi hisobiga qarz ko'tardi va bu pullarni eskib ketgan jihozlar bilan xonalarni tuzatishga sarf qildim dedi, olgan narsasi esa sariq surp darpar-dalar, duxoba bilan qoplangan, loklangan kreslolar va shahar chekkasidagi qovoqxonalar ham yaramasga chiqargan oboy-qog'ozlar edi, bir oz pulni u yelimli bo'yoq bilan kvartiraning qurigan-ko'chgan yerlarini moylashga sarf qilgandi. O'sha paytda hurmat yuzasidan janob Gorio deb ataladigan Gorio ota shunday yengiltaklik bilan bevaning tuzog'iga ilinib, yengiltak saxiylik qilib yuborgani uchun bo'lsa kerak, hamma uni amaliy ishlarga uquvi yo'q, ahmoq deb hisoblay boshlagan edi. Gorio

savdo ishini yig'ishtirgan bo'lishiga qaramay, o'zini hech narsadan qismaydigan badavlat savdogarlarga o'xshab, o'zi bilan anchagina kiyim-bosh, har kuni ishlatilib turadigan ajoyib ashyo-anjomlar olib kelgan edi. Beva Voke gollandcha nafis surpdan tikilgan bir yarim dyujina ajoyib ko'ylaklardan ko'zini ololmay qoldi, vermishelchi ko'ylakning nafis yoqasiga, gavhar ko'zli ikkita bir-biriga ulangan to'g'nag'ich taqib olganda ko'ylaklar ayniqsa ochilib ketardi. Odatda, u to'q zangori frak<sup>1</sup> kiyib yurar, g'ijim qilib to'qilgan oq nimchasini har kuni almashtirar, nimchasi ostida esa, noksifat do'ppaygan qorni silkinib turar va har xil bezaklar osilgan oltin zanjiri likillardi. Tamaki qutisiga, – bu ham oltindan edi, bir medalon o'rnatilgandi, medalonda allakimning soch tolasi saqlanardi, bu esa Gorioning, muhabbat sarguzashtlarini boshidan kechirgan odam ekanligidan dalolat berardi. Uy bekasi uni «qari xotinboz» deb ataganda, Gorio o'z oshiqligiga mamnun bo'lgan meshchan singari shodlik bilan jilmayib qo'ydi. Uning shkaflari (bu so'zni u soddagina qilib, «ishkop» deb aytardi) kumush idish-tovoqlarga liq to'la edi. Beva iltifot ko'rsatib, Gorioga buyumlarini tugunlardan olib joylashtirishga yordamlashar ekan, oltin suvi yuritilgan kumush qoshiqlar, cho'michlar, sirka va qayla soladigan idishlar, har xil taqsimchalar, nonushta vaqtida ishlatiladigan idishlarni – xullas, u ajralishni istamagan, ma'lum darajada chiroyli va salmoqli bo'lgan bu barcha idish-tovoqlarni ko'rar ekan, ko'zlari o'ynab ketgan edi. Bu sovg'a-salomlar uning oilaviy hayotidagi tantanalil kunlarni yodiga solib turardi.

– Mana, – dedi u Voke xonimga, qopqog'i ustida o'pishib turgan ikkita musicha tasvirlangan kattagina chashka bilan likopchani olib ko'rsatarkan, – to'yimizga bir yil to'lganda xotinim qilgan birinchi sovg'a. Bechora! Qizlikda yig'ib yurgan hamma pullarini shu idishga sarflagan edi. Shuning uchun ham, tirnoqlarim bilan yer qazisam, qazimanki, bu sovg'adan ajralmayman, xonim. Xudoga shukr, to o'la o'lgunimcha ertalablari mana bu chashkadan qahva ichishni kanda qilmayman. Nolimasam ham bo'ladi, bir burda nonga hali-beri zor bo'lmayman.

<sup>1</sup> *Frak (fransuzcha)* – old qismi kalta qilib o'yilgan, uzun orqa etagining quyi qismi ikkiga ajralgan, tantanalarda kiyiladigan erkaklar kiyimi, kostyum.

Pirovardida Voke xonimning hakkaniki singari chaqchaygan ko'zlari davlat xazinasi tomonidan chiqarilgan zayomlarga<sup>1</sup> tushib qoldi, bu zayomlar o'sha janob Gorioga yiliga taxminan sakkiz-o'n ming frank daromad keltirardi. Shu kundan boshlab, qizligida de Konflan familiyasida yurgan beva Voke garchi yoshi qirq sakkizga kirgan bo'lsa ham, – o'zining hisobida esa o'ttiz to'qqizda edi, – o'z rejasini tuzdi. Gorioning qovoqlari salqib, xaltaga o'xshab osilib qolgan bo'lsa ham, ko'zlari hadeb yoshlanaverganidan shilliqlanib, tez-tez artib turishga to'g'ri kelsa ham, xonim cholni, aft-angori xushbichim va kelishgan deb topdi. Buning ustiga uning go'shtdor, yo'g'on boldirlari bilan uzun, keng burni juda ko'p pinhona fazilatlar borligidan darak berib turardiki, aftidan, beva bu fazilatlar juda qadrlardi, nihoyat, Gorioning soddaligidan darak beruvchi to'lin oydek yumyumaloq yuzi ham uning shunday fazilatlar egasi ekanini tasdiqlardi. Chol, bevaning nazarida, butun kuch-quvvatini ehtiroslar quchog'iga yig'ib ota oladigan pahlavonga o'xshardi. Har kuni ertalab uyga kelib turadigan Politexnika maktabining sarta-roshi uning sochini ikki «qanot»ga ayirib farqini ochib tarar va yaxshilab upa qo'yib qo'yar, torgina peshonasiga besh joydan chiroyli qilib jingalak tushirib qo'yardiki, bu uning yuzini yana ham ochib yuborardi. To'g'ri, u xiyla dag'al odam edi, ammo shunday orasta, tamaki qutisini istagan chog'ida makuba<sup>2</sup> bilan to'ldirishga qat'iy ishongan holda, tamakini shunday ko'p olardi va uni shunday xotirjamlik bilan mazza qilib burnaki qilardiki<sup>3</sup>, Gorio ota ko'chib kelgan kuni kechqurun Voke xonim o'ringa yotar ekan, Voke degan nomdan qanday qilib qutulib, qanday qilib Gorioning xotini bo'lib qayta tug'ilsam ekan deb, cho'chqa yog'iga o'ralib o'tga tutilgan kaklikdek, o'z orzu o'tiga o'zi qovrilib yotdi. Erga tegish, pansionni sotish, o'ziga to'q meshchanlarning mana shu eng yaxshi namoyandasi bilan birga kun kechirish, butun mahalladagi eng dongdor xotin bo'lish, qashshoqlar uchun pul yig'ish, yakshanba kunlari Shuazi, Suazi va Jantiliga sayrga borish; faqat iyul oyidagina pansionerlardan

<sup>1</sup> Zayom (*ruschu*) – olingan yoki berilgan qarz pul.

<sup>2</sup> Makuba – Makubadan (Martinika oroli) olib kelinadigan oliy nav tamaki.

<sup>3</sup> Burnaki qilmoq – ij dorivor, narkotik va shu kabi moddalarni kayf qilish yoki davo maqsadida ishlash.

bitta-yarimtasi kontramarka<sup>1</sup> sovg'a qilishini kutib o'tirish o'rni-ga, istagan vaqtda teatrga bora olish, borganda ham lojaga<sup>2</sup> bilet olish – Parijdagi bemaza hayot kechiruvchi oilalarning hammasi uchun mislsiz dabdaba hisoblangan shu narsalar Vokening orzusi bo'lib qoldi. U o'zining bir chaqadan yig'ib ko'paytirgan qirq ming frank puli borligini hech kimga bildirmasdi. Turgan gapki, davlat-mulkining miqdori bo'yicha Voke xonim o'zini Gorioga munosib deb hisoblardi.

«Qolgan jihatlardan esa choldan hech qolishadigan yerim yo'q», – deb o'yladi u va o'zining rostdan ham ancha kelishgan xotin ekanligiga ishonch hosil qilmoqchi bo'lgandek boshqa yonboshiga o'girilib yotdi, bundan yumshoq par to'shakka shunday chuqur iz tushib qoldiki, har kun ertalab semiz xotin Silviya ham o'rinni tuzatayotganda buni e'tirof qilardi.

Shu kundan boshlab, uch oy mobaynida beva Voke janob Gorioning sataroshi xizmatidan foydalanib turdi va pardoiz tufayli bir oz chiqimdor ham bo'ldi, pansionga kelib turadigan muhtaram zotlar oldida uyatga qolmaslik ham kerak-da, deb o'ziga tasalli berdi. U astoydil harakat qilib pansionda istiqomat qiluvchilar toifasini o'zgartirmoqchi bo'ldi va bundan buyon uyga faqat har jihatdan to'kis bo'lgan odamlarni qo'yaman, deb hamma yerda ovoza qildi. Bu yerga biror begona odam keldi deguncha, janob Gorioni pesh qila boshlar, butun Parijga dong'i ketgan savdogar bo'la turib, faqat mening uyimni afzal bildi. deb maqtanishga tushardi. Voke xonim, sarlavhasiga «VOKE UYI» deb yozilgan maxsus varaqalarni hamma yoqqa tarqatdi. Sarlavha ostidagi jummalarda esa uyning fazilatlarini sanab ko'rsatilgandi: «Bu Lotin mahallasidagi eng qadimiy va eng hurmatga loyiq oilaviy pansiondir. Pansion derazalaridan qaragan kishiga (to'rtinchi qavatdan qarasa!) Gobelen manufaktura<sup>3</sup> fabrikasi vodiysidagi xushmanzara joylar kamoyon bo'ladi, shiringina bog'i ham bor, bog'ning etagidan esa arg'uvon xiyoboni cho'zi-

<sup>1</sup> **Kontramarka** (*fransuzcha*) – tomosha joylariga bepul kirish yoki undan vaqtincha chiqib ketib, qayta kirish uchun huquq beradigan talon.

<sup>2</sup> **Loja** (*fransuzcha*: loge; qadimiy *nemischa*: laubia – shiyponcha) – tomosha zalida bir necha kishi o'tirishi uchun ajratib yasalgan maxsus joy.

<sup>3</sup> **Manufaktura** – kapitalistik ishlab chiqarishning mashinalashgan yirik sanoat paydo bo'lmasdan oldingi formasi.



lib ketgan». Bu yerning xilvatgohligi va havosining beg'uborligi ham eslatib o'tilgan. Bu e'lon natijasida bevaning uyiga grafinya<sup>1</sup> de l'Ambermenil ko'chib keldi, o'ttiz olti yoshlardagi bu ayol jang maydonlarida halok bo'lgan generalning bevasi bo'lgani uchun o'ziga nafafa tayinlanishi va tasdiqlanishini kutib yurgan ekan. Voke xonim ovqatlar sifatini yaxshiladi, deyarli olti oygacha hamma umumiy xonalarni isitib turdi va e'londa va'da qilingan narsalarning hammasini shunday astoydil bajardiki, natijada yonidan sarf qilshiga ham to'g'ri keldi. Natijada, grafinya Voke xonimni aziz do'stim deb ataydigan bo'ldi, Mare<sup>2</sup> mahallasida turadigan o'rtoqlaridan baronessa<sup>3</sup> de Bomerland bilan polkovnik graf Pikuaeoning beva xotinini ham shu yerga ko'chirib kelishga va'da berdi, grafinyaning aytishicha, u xonimlar ham nafaqa tayin qilinishini kutib, «Voke uyi»dan ko'ra qimmatroq pansionda istiqomat qilib turishar ekan. Ammo harbiy ma'muriyatlar bu xonimlarning ishini bir yoqlik qilsa, ular juda boy bo'lib ketarkanlar, albatta.

– Lekin ma'muriyat ishimizni juda cho'zib yotibdida, – derdi grafinya.

Tushlik ovqatdan keyin ikkala beva Voke xonimning xonasiga kirib olib, qora smorodina<sup>4</sup> sharbatidan ichib, bekaning o'zi uchun tayyorlangan shirinliklardan totinib, u yoq-bu yoqdan gurunglashib o'tirishardi. Grafinya de l'Ambermenil bekaning Gorio to'g'risidagi niyatini juda ma'qullardi, uning fikricha, bu Muda yaxshi niyat, Gorioni orzu qilsa arziydi – o'zi ham buni ko'chib kelgan kundanoq sezib olgan, xullas, Gorio – a'lo nav erkak.

– Voy tasadduq! – derdi unga beva Voke. – Bu erkak hali

<sup>1</sup> **Grafinya** (*nemischa*) – ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi grafliklarda qirol nomidan hokimiyatni boshqargan mansabdor shaxsning xotini yoki bevasi.

<sup>2</sup> **Mare** – XVIII asrda yirik amaldorlar imorat qurib obod qilgan Parij mahallasi; XVIII asr burjuaziya inqilobidan keyin savdo-sanoat markazi bo'lib qoldi va u yerda asosan hunarmand va savdo ahli yashaydigan bo'ldi.

<sup>3</sup> **Baron** (*fransuzcha: baron* yoki *lotincha: baronis* – anqov, lapashang; yollanma askar) – G'arbiy Yevropada o'rta asrlarda qirolning bevosita vassali; qirol kengashi a'zosi. Keyinchalik G'arbiy Yevropa zodagonlari, dvoryanlarining grafdan bir pog'ona past unvoni va shunday unvon olgan kishi (**baron** – erkak kishiga nisbatan, **baronessa** – ayol kishiga nisbatan). Baron unvoni Angliyada vikont unvonidan quyi sanalgan. Fransiya va Germaniyada baron unvoni graf unvonidan quyi turgan.

<sup>4</sup> **Smorodina** – qorag'at butasi va mevasi.

juda baquvvat, o'zini juda yaxshi ehtiyot qilgan, hali xotin kishining ko'nglini oladigan ko'p ishlar keladi qo'lidan.

Grafinya mehribonchilik bilan Voke xonimga, uning niyatlariga juda ham mos tushmaydigan kiyim-boshlari to'g'risida ba'zi yo'l-yo'riqlar ko'rsatdi.

– Sizni yaxshilab yasantirish kerak, – dedi u bevaga.

Uzoq hisob-kitob qilishgandan keyin ikkala beva Pale-Royalga jo'nashdi va Yog'och rastadan ukparli shlyapa bilan qalpoqcha sotib olishdi. Grafinya o'rtog'ini «Jajji Janeta» magaziniga boshlab kirdi, bu yerda ular sharf bilan ko'ylak sotib olishdi. Bu jami jangovar liboslar ishga solinib, beva Voke odamlar oldiga yasanib-tusanib chiqqanda, u «Bef a lya mod<sup>1</sup>» viveskasidagi suratga xuddi quyib qo'yganday o'xshab ketgandi. Shunday bo'lsa ham, beva o'zining yaxshi tarafga o'zgarishini sezib, grafinyadan minnatdor bo'ldi va bu qilgan yaxshiligi evaziga, garchi uncha serxarj xotin bo'lmasa ham, grafinyaga yigirma frank turadigan shlyapa sovg'a qildi. To'g'risini aytganda, u grafinyadan bitta xolis xizmat qilib berishni iltimos qilmoq niyatida edi, aniqrog'i – grafinya Gorio bilan bir gaplashib ko'rishni va uni, Voke xonimni, unga maqtashi kerak edi. Grafinya de l'Ambermenil bu ishga bajonidil kirishdi, keksa vermishelchi atrofida parvona bo'la boshladi va nihoyat, u bilan suhbatlashishga muyassar bo'ldi dam, ammo bu suhbat paytida grafinya vermishelchini shaxsan o'ziga og'dirishga urinib ko'rdi; uning hamma urinishlari Gorio otaning qarshiligiga demasak ham, tortinchoqligiga duch kelib qolgandan keyin cholning qo'poligidan g'azabga kelib, qaytib chiqdi.

– Tasadduq, bu odamdan hech qanday naf ko'rolmaysiz! – dedi u dugonasiga. – U qar narsaga shubha bilan qaraydigan qip-qizil ahmoq hayvon, g'irt baxil odam ekan, faqat ko'ngilsizliklardan boshqa hech nima kutib bo'lmaydi undan.

Grafinya de l'Ambermenil bilan janob Gorio o'rtasida shunday bir gap bo'lib o'tdiki, shundan keyin grafinya u bilan hatto bir uyda yashashni ham istamadi. Ertasi kuniyoq u bu

<sup>1</sup> «Bef a lya mod» so'zma-so'z tarjimasini: «Moda bo'yicha tayyorlangan mol go'shti», go'shtlik ovqat; shu nom bilan yuritiluvchi Parij restoranlaridan birining viveskasiga ayollarning so'nggi moddadagi shlyapasini kiygan va shol ro'mol o'ragan buqaning rasmi chizilgan edi.

uydan ko'chib ketdi, ammo ketganda ham olti oylik pansion haqini to'lashni unutib, evaziga jami besh frank ham turmaydigan qaqir-ququr qoldirib ketdi. Voke xonim uni qanchalik zo'r berib qidirmasin, Parijning biron yeridan ham grafinya de l'Ambermenilning daragini topolmadi. Bu ko'ngilsiz voqeani u tez-tez eslab turar, o'zi hech narsaga ishonmaydigan xotin bo'lsa ham, o'lgudek laqmaman, har narsaga ham ishonaveraman deb nolib yurardi; bu jihatdan Voke xonim, eng yaqin odamlariga ham aslo ishonmaydigan va lekin bir uchratgan kishisining qo'liga laqqa tushadigan odamlardan edi. Bu ajib psixologik hodisa edi; ammo shunday ishlar bo'lib turadi, bunday g'alati ishlarning ildizini kishilar qalbidan topish qiyin emas. Balki, ba'zi odamlar o'zlari bilan birga yashaydigan kishilarning hurmatini qozonishga qodir emasdilar, natijada, o'zlarining o'lgidek bemaza odam ekanligini sezdirib qo'yib, atrofdagi odamlarning bu to'g'rida pinhona to'g'ri xulosa chiqarganini sezarlar; ayni vaqtda, bunday odamlar o'zlari to'g'risida maqto'v so'zlarini eshitishni judayam istaydilar, aslida esa, xuddi shu maqto'v so'zlari eshitilmaydi yoki bo'lmasa o'zlarini ajoyib fazilatlarga ega odam qilib ko'rsatmoqchi bo'ladilar, – surushtirib qaralganda, o'sha fazilatlardan ularda asar ham bo'lmaydi, aynan ana shu niyatda ular begona odamlarning hurmat-e'tiborini qozonmoqchi bo'lib urinadilar-da, keyinroq borib bu odamlarning ham nazaridan qolishlarini xayollariga keltirmaydilar. Nihoyat, yana shunday bir turkum odamlar borki, o'zlarining eng yaqin odamlari va do'stlariga sira yaxshilik qilmaydilar, vaholonki bunday odamlarga yaxshilik qilish ularning bevosita burchi; shunga qaramay, bunday odamlar begonalarga yaxshilik qilishadi, sababi – begona odamlar nazarida, o'z bahosini ko'tarmoqchi bo'ladilar; shunga ko'ra ularga qanchalik yaqin bo'lgan kishi shunchalik qadrsiz bo'ladi; kishi ulardan qancha uzoq bo'lsa, ular shuncha ko'p xushomad qila boshlaydi. Shubhasizki, Voke xonim timsolida mana shu ikki xislat – eng past, soxta va maraz xislatlar mujassamlashgan edi.

– O'shanda men yo'q edim-da, – derdi Votren, – shu yerda bo'lganimda boshingizga shu kunlar tushmasdi. Men u firibgarning sirini fosh qilardim. Ularning qiliqlari menga ayon.

Hamma kaltafahm odamlar singari Voke xonim ham o'zi

qatnashgan voqealar doirasidan tashqari chiqmas va ularning sabablari to'g'risida bosh qotirib o'tirmasdi. O'z xatolarini u bajonidil boshqalar bo'yniga qo'yaverardi. Yuqorida aytganimiz baxtsizlik ro'y berganda, malomatga sof vijdonli vermishelchi qoldi; xonimning gapiga qaraganda, o'sha paytdan boshlab vermishelchining aslida qanday odamligini bilib olishibdi. O'zining yasan-tusanlari va bu yo'lda qilgan xarajatlarining zoye ketganini tushungandan keyin, bir zumda bu muvaffaqiyatsizlikning sababini ham topdi. Xonimning ta'biri bilan aytganda, Gorioning o'ziga yarashar qiliqlari bor ekan. Xullas, Gorio Voke xonimga uning astoydil orzu qilgan shirin xayollari puch ekanini va grafinya zarda qilib aytganidek, undan hech qanday naf ko'rolmasligini bildirib qo'ydi. Aftidan, grafinya bunday ishlar-da pixini yorgan xotin ko'rinadi. Voke xonimning do'stligi bir hissa bo'lsa, adovati o'n qissa bo'lib ketdi, albatta. Uning nafrati avvalgi muhabbati darajasi bilan emas, puchga chiqqan umidining alami darajasi bilan barobar edi. Odamzodning qalbi yaxshi munosabatlar dovoniga ko'tarilishda tinchlanishi mumkin-u, ammo yomon hislar jarligiga tushib ketayotganda kamdan kam tinim oladi. Ammo nima bo'lganda ham Gorio uning uyida turadi, demak, beva o'zining tahqirlangan nafsoniyatini tiyishga, hafsalasi pir bo'lib ketganidan ich-ichidan qaynab kelayotgan xo'rsiniqlarini bosishga va igumenning<sup>1</sup> xafa qilganiga chidashdan boshqa iloji bo'lmagan monax singari o'ch olish istagidan voz kechishga majbur edi. Ko'ngli tor odamlar o'zlarining xoh yaxshi, xoh yomon hislarini behisob mayda qiliqlar qilib qondiradilar. Beva ayollarda mavjud jamiki makrlarni ishga solib, o'z g'animidan pinhona o'ch olishga kirishdi. Dastavval u umumiy dasturxonni yaxshilash uchun bergan hamma qo'shimcha taomlarni yana tortib qo'ydi.

Voke xonim avvalgi vaziyatga qaytishga ahd qilgan kuni ertalab Silviyani chaqirib olib:

– Hech qanday kornishon-u<sup>2</sup> anchousning<sup>3</sup> keragi yo'q: turgan-bitgani ziyon ularning! – deb buyurdi.

Janob Gorio oddiy hayot kechirishga o'rgangan odam edi,

<sup>1</sup> **Igumen** – monastir boshlig'i.

<sup>2</sup> **Kornishov** (*fransuzcha*) – sirkalangan mayda bodring.

<sup>3</sup> **Anchous** (*inglizcha*) – seldga o'xshagan mayda baliq.

boylikni o'z qo'li bilan orttiradigan odamlar singari u ham ziqnalikka odatlanib qolgandi. U azaldan sho'rva, yaxna go'sht, sabzavot solib pishirilgan har qanday taomni yaxshi ko'rardi. Shuning uchun bunday xo'randani ovqatdan bu tarzda qisib, g'ashini keltirish Voke xonimga oson emasdi. Tepsa tebranmas odamga duch kelib qolganidan alamzada bo'lgan beva, Gorio nisbatan o'z ko'nglida tug'ilgan nafratni boshqa pansionerlarga ham o'tkazishga urindi, ular esa ermak uchun xonimning qasosiga sherik bo'lardilar.

Gorioning kelganiga bir yil bo'lib qolganda ish shu darajaga yetdiki, beva: yiliga yetti-sakkiz ming livr<sup>1</sup> daromadi, ajoyib kumush servizlari-yu, suyuqoyoq xotinlarniki singari qimmatbaho chiroyli ziynat buyumlari bo'la turib, nega bu savdogar chol mening uyimda turarkin, shuncha boy bo'lishiga qaramay, nega pansion haqini buncha xasislik bilan to'larkin, deb o'ziga o'zi savol beradigan bo'ldi. Gorio pansionga ko'chib kelgan yilining ko'proq qismida bot-bot, ya'ni haftada bir yoki ikki marta boshqa yerda ovqat qilib kelardi, keyinchalik chetda ovqatlanishi oyiga ikki marta bo'ladigan bo'ldi. Janob Gorioning pansionda bo'lmasligi Voke xonimga foyda edi, xolos; lekin Gorio ota pansionda ovqatlanishini tobora kamroq kanda qiladigan bo'lgan ediki, bu qiligi bekaning g'ashiga tegadigan bo'ldi. Bu o'zgarishlarga Gorioning puldan siqilganigina emas, balki uning jo'rttaga bekaga o'chakishganini ham sabab qilib ko'rsatishdi. O'zining ma'naviy jihatdan qashshoqligini o'zgalarga ham yopishtirish – befarosat, kaltafahm odamlarga xos o'taketgan bema'ni odat. Baxtga qarshi ikkinchi yilning oxirida Gorio Voke xonimdan o'zini uchinchi qavatga ko'chirib, yillik pansion haqini to'qqiz yuz frankkacha tushirishini iltimos qilib, o'zi to'g'risidagi hamma mish-mishlarning to'g'ri ekanini isbotladi. U shu qadar tejash tomoniga o'tib oldiki, hatto qishda ham pechka yoqmay qo'ydi. Beva Voke ijara haqini oldindan to'lang, deb talab qildi, janob Gorio bunga rozilik berdi, ammo beva o'sha paytdan boshlab uni «Gorio ota» deb ataydigan bo'ldi.

Bunday tushkunlikning sabablari haqida erinmagan odam

<sup>1</sup> Livr – 1) Fransiyada yevro joriy etilishdan oldingi kumush tanga; keyinchalik frank nomi bilan atalgan pul birligi (bu yerda shu ma'noda); 2) 0,52 kilogrammga teng qadimgi og'irlik o'lchovi.

borki, hammasi o'zicha har xil taxminlar qilib ko'rdi. Bu qiyin ish edi. Soxta grafinya aytganidek, Gordo ota ichimdagini top, deydigan, indamas odam edi. Qovoq kalla, mahmadona odamlarning ta'biriga ko'ra (bunday odamlar mayda gaplarni javrab yurishdan nariga o'tolmaydilar), o'z ishlari to'g'risida gap sotishni yoqtirmaydigan odamlar yomon ishlar bilan band bo'lar-mish. Shunday qilib, «dongdor savdogar» qallobga, «xotinboz» esa – qari masxarabozga aylandi-qo'ydi. Gorio ota goh birjaga<sup>1</sup> yuguradigan, u yerga borib, moliyachilarning o'tkir ta'biri bilan aytganda, rentadan yulib qolishga urinadigan odamga aylandi, – o'sha paytda «Voke uyi»ga ko'chib kelgan Votrenning fikri shunday edi; goh qarasangiz, uni har kuni kechqurun baxtini sinab ko'radigan, omadi kelib qolganda, nari borsa o'n frank pul yutib oladigan mayda qimorboz deb hisoblashardi. Goh uni maxfiy politsiyaning josusi deb o'ylashardi, lekin Votrenning ishontirib aytishicha, Gorio bunday lavozimga erishmoq uchun yetarli darajada ayyor emasdi. Bulardan tashqari, Gorio otani qisqa muddatga pul berib turadigan baxil sudxo'r deb ham, lotereyada «qatorasiga» bir qancha nomerga pul tikadigan qimorboz deb ham o'ylashardi. Uni allaqanday juda mavhum benomus, buzuq odamga chiqarib qo'yishgandi. Lekin uning ayblari naqadar og'ir, axloqi naqadar yomon bo'lmasin, unga bo'lgan nafrat pansiondan haydab yuborish darajasiga yetib bormagan edi; har qalay, pansion haqini to'lab turardi. Bundan tashqari uning boshqa jihatdan ham foydasi tegib turardi: har bir pansioner unga tegajaklik yo masxara qilib, xumordan chiqishi mumkin edi.

Voke xonimning fikri hammanikidan ko'ra to'g'riroqqa o'xshardi, shu sababdan hamma shu fikrga qo'shilishdi. Uning aytishicha, «hali juda baquvvat; o'zini juda yaxshi ehtiyot qilgan, hali qo'lidan xotin kishining ko'nglini oladigan ko'p ishlar keladigan» bu kishi, shunchayin g'alati tabiatli buzuq bir odam edi. Beka o'z da'vosini mana bunday dalillar bilan isbot qildi.

Yarim yil Voke xonim hisobiga kun ko'rgan va uni jig'ibiyron qilib qochib qolgan grafinya g'oyib bo'lganidan bir necha oy o'tgan edi, bir kun ertalab hali o'rnidan turmagan Voke xonim zinada chiroyligina yosh bir juvonning shoyi ko'ylagi shitirla-

<sup>1</sup> **Birja** (yunoncha: byrsa – hamyon, xalta) – qimmatbaho qog'ozlar va har xil mollar bilan savdo-sotiq qiladigan yirik savdo muassasasi; bozorni uyushtirishning tashkiliy shakli.

ganini va oyoq tovushini eshitib qoldi: u juvon oldindan ataylab ochib qo'yilgan Gorioning eshigiga «lip» etib kirib ketdi. Baqaloq Silviya yugurganicha kelib bekasiga xabar qildi: nomusli juvon deb aytishga judayam chiroylilik qiladigan, parilardek kiyingan, oyog'idagi pryuneldan<sup>1</sup> tikilgan botinkasiga gard ham yuqmagan bir qiz ko'chadan g'irillaganicha oshxonaga kirib kelibdi-yu, janob Gorio qayerda turadi, deb so'rabdi. Beka Voke oshpaz xotin bilan birga kelib, cholning eshigidan quloq solib turishdi, xiyla cho'zilgan bu tashrif paytida aytilgan ba'zi bir muloyim so'zlar quloqlariga chalindi. Gorio ota mehmonini kuzatgani chiqqanida, baqaloq Silviya oshiq-ma'shuqlarning qayerga borishini bilib olish uchun go'yo bozorga ketayotgan kishi bo'lib, savat ko'tarib oldi-da, ular ketidan qorama-qora ko'chaga chiqdi.

Qaytib kelganidan keyin u bekasiga bunday dedi:

– Xonim, janob Gorio judayam badavlat bo'lsa kerakki, ma'shuqalaridan hech nimani ayamabdi. Ishonasizmi, Estrapada ko'chasida biram chiroyli foytun<sup>2</sup> kutib turgan ekan, o'sha qiz shu foytunga chiqdi! Tushki ovqat vaqtida Voke xonim Gorioning ko'ziga oftob tushmasligi uchun derazaning pardasini tushirgani o'rnidan turdi.

– Janob Gorio, sizni go'zal xonimlar yaxshi ko'risharkan, oftob ham nurini sizga sochyapti. Barakalla-e, didingiz joyida, u juda chiroyli ayol ekan! – dedi beva, Gorioning mehmoniga sha'ma qilib.

– U mening qizim, – dedi Gorio g'urur bilan: xo'randalar esa bu gapni sirini oshkor qilishni istamagan sipo cholning hiylasi deb qabul qilishdi.

Oradan bir oy o'tgach, Gorio ota oldiga o'sha ayol ikkinchi marta keldi. Birinchi marta ertalabki kiyim-boshida kelgan o'sha qiz, bu gal tushki ovqatdan keyin ko'chaga kiyib chiqadigan libosda yasanib kelgan edi. Mehmonxonada gap sotishib o'tirgan xo'randalar allaqanday Gorio otaning qizi deyish uchun haddan ziyod chiroyli, qaddi-qomati kelishgan, beli ingichka ayolni o'z ko'zlari bilan ko'rishga muyassar bo'ldilar.

– Iye, ular ikkita ekan-ku! – dedi uni tanimasdan baqaloq

<sup>1</sup> Pryunel (*fransuzcha*) – poyabzal uchun ishlatiladigan yupqa, ammo pishiq ip gazlama.

<sup>2</sup> Foytun – to'rt g'ildirakli, ochilib-yopiladigan soyabonli yengil arava.

Silviya.

Bir necha kundan keyin norg'ul, qad-qomatlari kelishgan, ko'zlari chaqnab turgan qora qosh, qora soch boshqa bir juvon janob Gorioni so'rab keldi.

– Voy, uchta ekan! – deb yubordi Silviya.

Ikkinchi qizi ham otasi oldiga ertalab kelgan edi, bir necha kundan keyin esa u kechqurun balga boradigan kiyimda karexada<sup>1</sup> keldi.

– To'rtta ekan! – deb yuborishdi Voke xonim bilan baqaloq Silviya, ular birinchi marta oddiygina kiyinib, ertalab kelgan juvonnini bu yasangan ayolga sira o'xshatisha olmagan edi.

Gorio hali u paytda pansion haqiga bir ming ikki yuz frankdan to'lab turardi. Voke xonim boy-badavlat erkakning to'rtta yoki beshta ma'shuqasi bo'lishiga tabiiy bir qol deb qaradi, ularni qizim deb tanitishini esa cholning ustomonlik bilan qilgan hiylasi deb tushundi. Gorio ularni «Voke uyi»da qabul qilishiga bevaning sira ham g'ashi kelmadi. Lekin beva pansionerning o'ziga nisbatan befarq qarashiga shu juvonlarning kelib turishi sabab deb bilgani uchun ikkinchi yilga o'tganda Gorio-ga «qari tullak» deb laqab qo'ydi. Gorio to'qqiz yuz frankkacha pasayib ketgandan keyin, uning xonasidan tushib kelayotgan o'sha xonimlardan birini ko'rib qolib, beva choldan, uyimni qanaqa joyga aylantirmoqchisiz, deb juda behayolik bilan so'radi. Gorio ota bu xonim mening katta qizim bo'ladi deb javob qildi.

– O'n sakkizta qizingiz bormi deyman? – deb zaharxanda qildi beva.

– Faqat ikkita qizim bor, xolos, – deb yuvoshgina javob qildi unga chol; ovozi so'nib, muhtojlik natijasida itoatkor bo'lib qolgan ojiz odamning ovozigina o'xshardi.

Uchinchi yil oxiriga borib, Gorio ota to'rtinchi qavatga ko'chib o'tdi va o'zi uchun bo'ladigan chiqimlarni oyiga qirq besh frankka tushirdi. U burnaki qilmay qo'ydi, sartaroshiga javob berib yubordi, sochiga upa qo'yishni bas qildi!.. Gorio ota birinchi marta sochiga upa qo'ymasdan pastga tushganda, uning sochini ko'rib, beka «voh» deb yubordi – cholning sochi kirga o'xshash kulrang va allaqanday ko'kish rangli ekan. U butun

<sup>1</sup> Kareta (*polyakcha*) – usti va yonlari yopiq to'rt g'ildirakli yengil arava.



tashvishini ichiga solaverganidan, kundan kun g'ami orta bordi, endi uni dasturxon atrofiga yig'iladigan xo'randalar orasida eng g'amgini desa ham bo'lardi. Gorio otaning eski xotinboz ekanligiga, nojo'ya oyoq olib, kun ko'rgan paytlarida yovuz dorilarni juda ko'p ishlatgan u dorilar ta'siridan ko'zlarini faqat doktorlarning ustaligi tufayli omon saqlab qolganiga, sochining bunday xunuk tusda bo'lishiga esa uning shahvoniy hayot kechirgan va shu shahvoniy hayotni yana ham cho'zish uchun iste'mol qilgan dori-darmonlar sabab ekanligiga endi hech shubha qolmagan edi. Sho'rlikning jisman va ruhan iztirobda yashashi ham shu safsatani tasdiqlayotganday edi. Gorioning chiroyli ko'ylaklari yirtilib tamom bo'lgandan keyin u cho'zimi o'n to'rt su<sup>1</sup> turadigan dag'al qalin surpdan ko'ylak kiyadigan bo'ldi. Dur-gavharlari, oltin tamaki qutisi, soatining zanjiri – qimmatbaho bisotlarining hammasi birin-ketin joyini topib ketdi. U to'q zangori frakdan ham ajraldi, yaxshi kiyimlaridan bittasi ham qolmadi, endi u qishin-yozin muttasil jigarrang dag'al jun syurtuk, echki junidan to'qilgan nimcha va qalin buksindan kulrang shim kiyib yuradigan bo'ldi. Gorio juda ozib ketdi: boldirlari so'ldi, meshchanlarga o'xshab tinchgina yashab yurgan vaqtidagi lo'ppi yuzlari tirishib, ajin qopladi; chakaklari turtib chiqdi, peshonasidagi ajinlar chuqurlashdi. Nev-Sent-Jenevev ko'chasiga ko'chib kelganiga to'rt yil bo'lganda tanib bo'lmaydigan darajada o'zgarib ketdi. U vaqtda oltmish ikkiga kirgan bo'lsa ham, ko'rinishidan qirq yashar kishiga o'xshagan baland bo'yi, to'ladan kelgan gavdasi odamning ko'zini quvontiradigan, labidan quvnoq tabassum arimaydigan burjua, ya'ni yoqimtoy vermishelchi endi yetmish yashar to'pori, rangida qoni yo'q, munkillagan chol bo'lib qolgandi. Moviy ko'zlari qanday sho'x chaqnab turardi! Endi u ko'zlarining nuri so'nib allaqanday xiralashib qolgan, yoshlanmas ham, qovoqlarining qip-qizil hoshiyasi qon talashib turganga o'xshardi. Unga birovning rahmi kelsa, birovning nafrati kelardi. Yosh medik talabalar uning pastki labi osilib qolganini payqab, yuz tuzilishini rosa tekshirib ko'rdilar, Gorio otaning esini joyiga keltirish uchun ko'p urindilar-u, ammo hamma urinishlari bekor ketdi, shundan keyin, chol telbalik kasa-

<sup>1</sup> Su (*italyancha*; sou) – Fransiyada 1793-1947-yillarda muomalada bo'lgan tanga pul. 1 livr = 20 su.

liga chalinibdi, degan xulosaga keldilar.

Bir kun kechqurun ovqatdan keyin beva Voke Goriordan istehzo bilan: «Qizlaringizga nima bo'ldi, kelmay qo'yishdi?» – deb so'radi, bu bilan u Gorioga o'sha xonimlar hech ham sening qizlaring emas, demoqchi edi. Gorio ota go'yo beka nayza san-chib olgandek bir sapchib tushdi.

– Ba'zi-ba'zida kelib turishadi, – dedi u hayajonlanib.

– Hali shunaqa deng! Hali ham ba'zi-ba'zida ko'rishib turaman deng? – deb qichqirishdi talabalar. – Qoyil, Gorio ota!

O'zining javobidan keyin boshlanib ketgan zaharxandalar cholning qulog'iga kirmadi: u yana chuqur o'yga tolgandi, lekin vaziyatga yuzaki qarovchilar, uning bunday xayoli parishonligini qarib, miyasi aynib qolganidan deb o'ylashardi. Ular Gorioni yaxshiroq bilishsa edi, garchi hech narsaga tushunolmasalar ham, ehtimolki, uning ruhiy va jismoniy holati ularni qiziqtirib qolgan bo'larmidi. Gorio rostdan ham alloflik<sup>1</sup> bilan shug'ullanganmi yo yo'qmi va qanchalik boy bo'lgan – surishtirib bilib olish sira ham qiyin emasdi, lekin bunday gapga qiziqishi mumkin bo'lgan qariyalar chig'anog'i ichiga yopishib olgan shilliq qurtdek o'z mahallasidan chetga chiqishmas va pansionda yashashardi. Boshqa xo'randalarga kelsak, ular Nev-SentJenev ko'chasidan chiqishlari bilanoq Parijning hayoti qo'yniga g'arq bo'lib ketib, mazax qilib ko'ngil ochishadigan bechora cholni birpasda unutib yuborishardi. Gorio otaning hozirgi achchiq muhtojlik holati va ovsarligini o'z ko'zi bilan ko'rgan o'sha beg'am yoshlar va bu yerda istiqomat qiluvchi omi odamlar uni hech ham badavlat va ishbilarmon odam deb tasavvur qila olmasdilar. U qizlarim deb tanitgan ayollar to'g'risida hamma Voke xonimning fikriga qo'shilgandi; beva xonim kechqurunlari bekorchilikdan, og'ziga kelgan narsalar to'g'risida o'z taxminlarini aytib vaqillab o'tiradigan kampirlarga xos mantiq bilan bunday derdi:

– Gorio otaning qizlari bu yerga kelgan juvonlar singari boyvuchcha bo'lsa, u mening uyimda, to'rtinchi qavatda, oyiga qirq besh frank pul to'lab turarmidi-yu, gadoylarga o'xshab yurarmidi?

Bunday dalillarni sira ham rad qilib bo'lmaydi. Shunday

<sup>1</sup> **Allof** – 1) giyohfurush, o'tin-cho'p sotish bilan shug'ullanuvchi kishi; 2) bozorda g'alla, don, un sotuvchi.

qilib, 1819-yilning noyabriga kelib, biz hozir hikoya qilib bermoqchi bo'lgan fojia yuz berganda, pansiondagi har bir xo'randa bechora chol to'g'risida qat'iy bir fikrga kelib qo'ygandi. Hech qachon uning hech qanday xotini, hech qanday qizi bo'lgan emas; yomon yo'lga ko'p yurganidan, u kelib-kelib oxiri shilliq qurtga, qalpoqlilar toifasiga kiradigan odamsimon molyuskaga<sup>1</sup> aylanib qolgan, – derdi tabiiyot-tarix muzeyining xodimi – u faqat tushlik ovqatga kelib turadigan xo'randalardan edi... Hatto Puare ham Gorio oldida lochin edi, haqiqiy jentelmen desa bo'lardi uni. Puare gapirar, mulohaza yuritar, gap so'ragan odamga javob ham qaytarardi; to'g'ri, u na suhbatlashganda, na bir narsa deganda, na savollarga javob qaytarganda bayon qilardi o'z fikrini, negaki boshqalar allaqachon aytib qo'ygan fikrlarni boshqa qolipga solib takrorlaydigan odati bor edi, ammo, har holda, u suhbatga o'z hissasini qo'shar, odamlar orasida yashardi, hissiyot degan narsadan ham qandaydir uchqunlar borligi sezilardi, Gorio esa, yana o'sha muzey xodimining ta'rifi bilan aytilganda, doim muzlash nuqtasida turardi.

Ejen Rastinyak ta'tildan shunday bir kayfiyatda qaytib keldiki, uning bu kayfiyatini umuman juda iste'dodli yoki nochor bir ahvolga tushib qolgandan keyin, qisqa vaqtga bo'lsa ham, g'oyat dono odamlarda bo'ladigan qobiliyatni o'zida uyg'ota oladigan ko'pgina yigitlar yaxshi tushunishsa kerak. Ejen Parijga kelgan yili, fakultetda birinchi bosqich ma'lumotini olish uchun bosib o'tirib o'qish unchalik zarur emas edi, shunga ko'ra shaharning xushmanzara yerlarini tomosha qilib olish uchun uning bo'sh vaqti serob edi. Agar talaba har bir teatr repertuari<sup>2</sup> bilan tanishib chiqmoqchi bo'lsa, Parijning jamiki past-balandini bilish payiga tushsa, poytaxt ahlining urf-odatlarini bilaman, tilini o'rganaman, huzur-halovatlardan tatib ko'raman, har bir ibratxona-yu ishratxonalarga kirib chiqaman, foydali ma'ruzalar eshitaman va muzeylarni ko'zdan kechiraman desa, bularning hammasiga vaqti yetishmaydi. Bunday paytlarda talaba har xil ikir-chikir, arziyas narsalarga berilib, shularga qiziqib yuradi.

<sup>1</sup> **Mollyuskalar** (Mollusca) – umurtqasiz hayvonlar tipi. Gavdasi, odatda, bosh, tana va oyoq bo'limlaridan iborat (ikki pallalilardan tashqari).

<sup>2</sup> **Repertuar** (*fransuzcha*: repertoire < *lotincha*: repertorium – ro'yxat, ma'lumotnoma) – turli teatr, konsertlarda yoki ayrim xonanda tomonidan muayyan davr mobaynida ijro etiladigan asarlar majmui.

Uning nazarida, namuna olishi lozim bo'lgan o'z buyuk odami bor – u Kollej de Fransdagi bir professor, professor esa, talaba yoshlar nazarida, shunday buyuk odam bo'lib ko'rina olish qobiliyati uchun pul oladi. Talaba Komediya operasi teatrining birinchi qavatida o'tirgan biror ayolga yoqish uchun galstugini balandroq tortadi, chiroyli bir tarzda qaddi-qomatini kelishtirib turadi. U asta-sekin hayot qo'yniga kirib boradi, nazokatga odatlanadi, dunyoqarashi kengayadi va nihoyat, jamiyatdagi kishilik tabaqalari orasidagi munosabatlarga tushunib oladi. Quyosh yog'du sochib turgan Yelisey Dalasida<sup>1</sup> tizilishib o'tayotgan foytunlarni tomosha qilib yurib, ko'p o'tmay, o'zi ham shunday foytun egasi bo'lishni orzu qila boshlaydi.

Bu hayot maktabini Ejen, nafis adabiyot va yuridik fanlar bakalavri<sup>2</sup> unvonini olib, ta'tilga jo'nab ketishdan oldinoq o'zi sezmagani holda o'tgan edi. Uning bolalarga xos shirin orzulari, qishloq odamlariga xos tushunchalari yo'q bo'lib ketdi, fikrlari o'zgardi, o'zi g'oyatda takabbur bo'lib ketdi, shuning uchun o'z oilasi quchog'iga qaytib borganida endi har narsaga jiddiy ko'z bilan qaraydigan bo'lib qolgandi. Otasi, onasi, ikki ukasi, ikki singlisi va butun boyligi nafaqadan iborat bo'lgan ammasidan iborat bu oila kichkinagina Rastinyak mulkida istiqomat qilib turishardi. Yiliga uch ming frankka yaqin daromad beradigan bu mulkning butun iqtisodiy asosi tokdorchilikdan chiqadigan, doimo o'zgarib turuvchi daromadga asoslangan edi, shunga qaramay, Ejen uchun har yili bir ming ikki yuz frankni ham shu daromaddan siqib chiqarishga to'g'ri kelardi. Ejen o'zi uchun qilinayotgan mehribonlik tufayli sir tutilgan doimiy muhtojlikni sezib turardi; bolalik chog'ida g'oyat go'zal ko'ringan singillarining husnini endi u o'zi yetishmoqni orzu qilib yurgan parijlik ayollar husniga beixtiyor solishtirib ko'rardi, faqat Ejenga umid bog'lagan katta oilaning kelajagi juda qaltis ekanini u yaqqol sezib turardi; eng arzon ozuqalarni ham naqadar ehtiyotlik bilan tejab ishlatishlarini payqardi, butun oila a'zolari bilan birga uzum po'chog'idan tayyorlangan ichimlik ichardi; qisqasi, bu yerda sanab o'tirish ortiqcha. bo'lgan juda ko'p xil sabablar uning

<sup>1</sup> Yelisey Dalasi – Parijning eng katta ko'chalaridan biri.

<sup>2</sup> Bakalavr (*lotincha*: Baccalaureus) – ba'zi mamlakatlarda va O'zbekistonda: oliy ta'lim dasturining birinchi bosqichini tugallagan talabalarning ilmiy darajasi.

dilida har qanday qilib bo'lsa ham, odam bo'lish, yuqori tabaqa davrasiga ko'tarilish istagini uyg'otdi. Olijanob kishilarga xos xususiyat bo'yicha, u ham istaklariga faqat o'z kuchi bilan erishmoqchi bo'ldi. Biroq u tom ma'nosi bilan janublik yigit edi, shuning uchun u amalda, dengizga birinchi marta chiqib, kemani qaysi sohilga yo'naltirishni ham, yelkanni qanday ko'tarishni ham bilmaydigan tajribasiz yigitga xos xatolarni boshidan kechirishi muqarrar edi. Avvaliga Ejen ishga mukkasidan sho'ng'ib ketmoqchi bo'ldi, lekin ko'p o'tmay o'ziga lozim bo'ladigan tanish-bilishlar orttirish payiga tushdi. Jamiyat hayotida xotinlarning roli juda muhim ekanini sezib, o'ziga biror homiy topish maqsadida zodagonlar jamiyati davrasiga kirish rejasini tuzdi, gapga chechan va xassos<sup>1</sup> yigitga, ayniqsa bu fazilatlari ustiga, xotinga juda o'ch bo'lishadigan qaddi-qomatining kelishganligi va o'ktamligini ilova qilsak, homiy topilmay qolarmidi unga? Bir vaqtlar singillari bilan birga sho'xlik qilib chopqillab o'ynab yuradigan dalalarni kezib yurarkan, Rastinyakni mana shunday fikrlar chulg'ab olardi, endi Esa singillari ham uning juda o'zgarib ketganini yaqqol sezishgan edi. Uning xolasi de Marsiyyak xonim bir vaqtlar saroy ayollari orasida yashagan va oliy tabaqa oqsuyaklardan tanish-bilish orttirgan edi. Ilgarilari Ejenning xolasi o'z xotiralarini unga juda zavq bilan hikoya qilib turardi. Shuhratparast yigit bu xotiralar orasidan jamoatchilik davrasida o'zi qo'lga tushirishi zarur bo'lgan nuqtalarni topib oldi, bular uning huquq maktabida erishgan muvaffaqiyatlaridan aslo kam emasdi. U xolasidan hozir kimlar bilan yana munosabatni tiklasa bo'larkin deb so'radi. Keksa xonim qarindosh-urug'larining shajara daraxtini bir silkitib ko'rib, boy-badavlat, xudbin qarindosh-urug'lar orasida jiyanimga faqat vikontessa<sup>2</sup> de Bosean iltifot ko'rsatib yordam bera oladi degan xulosaga keldi. U o'sha yosh xonimga qadimiy uslubda bir maktub yozib, uni Ejenning qo'lga tutqizar ekan, agar shu juvonning ishonchiga sazovor bo'la olsang, boshqa qarindoshlarimizni topib olishingga u, albatta, yordamini ayamaydi, deb tayinladi. Rastinyak Parijga

<sup>1</sup> **Hassos** (*arabcha*: hissiyotga beriluvchi; sezuvchan, sezgir) – narsa-hodisaning mohiyatini tez, to'g'ri va to'la his etuvchi, biror sohalarda o'tkir bilimli va sezgir.

<sup>2</sup> **Vikont** (*fransuzcha*: vicomte – tarbiyachining o'rinbosari) – G'arbiy Yevropa mamlakatlarida dvoryanlarning graf bilan baron oralig'idagi unvoni. **Vikontessa** – vikontning xotini yoki qizi.

kelganidan keyin bir necha kun o'tkazib, xolasining maktubini de Bosean xonimga yubordi. Vikontessa uni ertasi kuni bo'ladigan balga taklif etish bilan unga javob qildi.

1819-yil noyabr oyi oxiriga kelganda, oilaviy pansiondagi vaziyat mana shunday edi. Ejen maktubga javob olib, de Bosean xonimnikiga balga bordi va uyga kechasi soat ikkilarda qaytib keldi. Talaba yigit raqs vaqtidayoq, bekor o'tgan vaqtni qoplash uchun tong otguncha ishlayman deb o'ziga o'zi qat'iy so'z berdi. U zodagonlarning bunday dabdabali hayotini ko'rib, vujudida jo'sh urayotgan soxta g'ayrat ta'siriga berilib ketdi va birinchi marta sukunat qo'yniga g'arq bo'lgan mahallada kechani tong otguncha bedor o'tkazishga ahd qildi. O'sha kuni u pansionda ovqatlanmadi. Bundan esa xo'randalar endi u faqat tong otganda qaytib keladi degan xulosa chiqarishdi; u odatda, Odeonda<sup>1</sup> bo'lgan ballardan yoki Pradoda<sup>2</sup> o'tkazilgan tantanali kechalardan ipak paypog'iga loy sachratib, bal tuflisini to'zitib, aynan ana shunday vaqtda qaytib kelardi. Kristof eshikka tamba solishdan oldin ko'chaga bir mo'ralab qo'ydi. Xuddi shu vaqt Rastinyak kelib qoldi va Kristof bilan birga yuqoriga o'z xonasiga jimgina chiqib oldi, ammo xizmatkor rosa tapir-tupur qilib yuqoriga chiqib ketdi. Ejen yechindi, uyda kiyadigan shippagini oyog'iga ildi, to'zigan syurtukini kiydi, pechkaga torf<sup>3</sup> yoqdi va ishlash uchun shunday tvya tayyorgarlik ko'rdiki, Kristof boshmoqlarining do'pir-do'piri ostida talabaniing deyarli tovush chiqarmay qilgan tayyorgarligi eshitilmay ketdi.

Yuridik kitoblarni o'qishga kirishishdan oldin Ezken birpas xayolga cho'mib o'tirib qoldi. Hozirgina o'zi tanishgan vikontessa de Bosean Parij zodagonlari orasidagi malikalardan biri edi, uning uyi esa Sen-Jermen dahasida dong'i ketgan uy hisoblanardi. U o'z nomi va boyligi bilan ham oliy tabaqa oqsuyaklarga mansub edi. Kambag'al talaba xolasi de Marsiyyak tufayli vikontessa tomonidan juda yaxshi qabul qilindi, ammo bunday himmatning nechog'liq zo'r ahamiyati borligini o'zi ham bilmasdi: bu zarhal yuritilgan mehmonxonalarga kirishga mu-

<sup>1</sup> Odeon – Parij drama teatri.

<sup>2</sup> Prado – Parijdagi ko'ngil ochish uylari.

<sup>3</sup> Torf (*nemischa*) – to'qayzor, botqoqlik yerlardagi o'simlik qoldiqlarining tabiiy chirishidan hosil bo'lgan zich massa, foydali qazilma. Yoqilg'i, o'g'it, xomashyo sifatida ishlatiladi.

sharraf bo'lishining o'zi oliy tabaqa dvoryanlar safiga qabul qilinish bilan baravar gap edi. Ejen eng saralangan oqsuyaklar davrasida ko'rinish berish bilan istagan joyiga kira olish huquqini qo'lga kiritgandi. Bunday zodagonlar anjumanidan ko'zlari qamashgan Ejen de Bosean xonim bilan bir ikki og'iz suhbatlashdi-yu, tantanali yig'inga kelgan Parij ma'budalari orasidan yigitlar bir qarashdayoq mahliyo bo'lib qoladigan go'zallarning birini o'ziga tanlab olish bilan qanoatlandi. Baland bo'yli, qadqomati kelishgan grafinya Anastazi de Resto qomatining go'zalligi bilan butun Parijga dong chiqargan edi. Shahlo ko'zlari tim qora, qo'llari chiroyli, oyoqlari xuddi quyib qo'ygandek go'zal ayolni ko'z oldingizga keltiring, uni bamisoli lovullab turgan o't deysiz – markiz<sup>1</sup> de Ronkerol uni «nasldor ot» deb atagandi. Grafinyada mavjud bo'lgan asab nazokati uning chiroyini aslo buzolmagan edi: butun qomati to'ladan kelgan, lo'ppigina bo'lsa ham, me'yorida edi. «Nasldor ot», «zotli xotin» – bunday iboralar oliftalar tomonidan rad etilgan «samoviy farishta», «Ossian gul chehralari<sup>2</sup>» kabi iboralarni siqib chiqarayotgandi. Lekin Rastinyak uchun grafinya de Resto anchayin oddiy ayol, ayol bo'lganda ham ko'pdan orzu qilgan ayol edi. Ejen grafinyaning yelpig'ichiga yozilgan kavalerlar<sup>3</sup> ro'yxatidan o'ziga ikkita raqsga o'rin oldi va birinchi raqs paytidayoq u bilan gaplashishga muyassar bo'ldi.

– Sizni qayerlarda uchratsam bo'ladi, xonim? – deb zo'r ehtiros bilan dangal so'rab qo'ya qoldi u, bunday ehtiros xotirlarga juda yoqadi.

– Qayerda deysizmi?.. Xohlang Bulon o'rmonida, xohlang Bufonlarnikida, menikida, hamma yerda ham uchratishingiz mumkin, – deb javob qildi u.

<sup>1</sup> **Markiz(a)** (*fransuzcha*) – 1) Franklar davlatida markgrafga to'g'ri keluvchi unvon; 2) o'rta asrda Fransiya va Italiyada yirik mulkdor, o'z mavqeiga ko'ra, tabaqaviy pog'onada gersog va graf o'rtasida turgan; 3) Fransiya va Italiyada, XIV-XV asrlardan esa Angliya, Ispaniya va Portugaliyada merosiy dvoryanlik unvoni.

<sup>2</sup> **Ossian gul chehralari** – ya'ni Shotlandiya shoiri Jems Makfersonning (1736-1796) «Ossian dostonlari» asaridagi obrazlarga o'xshovchi chehralar. Makferson o'zining shotland xalq ijodi asosida yozgan asarini kitobxonga, Shotlandiyaning afsonaviy shoiri Ossian (eramizning III asri) qo'shiqlarining inglizcha tarjimasi deb taqdim qildi.

<sup>3</sup> **Kavaler** (*fransuzcha*: cavalier – otliq) – orden bilan mukofotlangan kishi, nishondor; 2) biror ayol bilan birga bo'lib, suhbatlashib yuruvchi, kuzatib boruvchi yoki birga o'yinga, raqsga tushuvchi erkak.

Shundan keyin epchil janublik yigit ikki raqs vaqtida xotin kishi bilan qanchalik yaqinlashishning iloji bo'lsa, sohib-jamol grafinyaga o'shanchalik yaqinlashib olishga harakat qilib qoldi. O'zi bilan raqs tushayotgan xonimini «tagli-taxtli xonimlardan» deb hisoblab, Ejen o'zini de Bosean xonimning amaki-vachchasi bo'laman deb tanitdi, shundan keyin grafinya unga uyiga borishga va istagan vaqtida to'g'ri kirib boraverishga ruxsat etdi. Grafinyaning xayrlasha turib, tabassum qilganidan keyin yigit, grafinyanikiga tashrif buyurish kerak degan xulosa chiqardi. Baxtiga bu ayol uning go'lligidan kulmadi, o'sha davrning nom chiqargan sayoq oliftalari har qanday Molenkurlar, Ronkerollar, Maksim de Traylar, de Marse, Ajuda-Pinto, Vandeneslardan birontasining oldida bunday savol berish juda katta gunoh hisoblanib, malomatga qolib ketishi hech gap emas edi; savlat to'kib yurishdan bo'lak hech ish qo'lidan kelmaydigan bu daydi oliftalar o'sha davrning eng dongdor ayollari – ledi Brendon, gersoginya<sup>1</sup> de Lanje, grafinya Kergaruet, Serizi va de Lanti xonimlar, gersoginya de Karilyano, grafinya Ferro, markiza d'Eglemon, Firmiani xonim, markiza de Listomer, markiza d'Espar, gersoginya de Mofrinez va de Granle oilasining xonimlari singari ayollar davrasida vaqt o'tkazardilar, Xullas, tajribasiz talabaning baxti bor ekan, u gersoginya de Lanjening oshig'i markiz de Monrivoga to'qnash keldi, bu go'daksifat soddadil general grafinya de Restoning Gelder ko'chasida turishini aytib berdi.

O'zi yosh bo'lsa xotin kishi to'g'risida shirin xayollar sursa, zodagonlar orasida kun kechirishni orzu qilsa-yu, o'shalar-ning eng dongdorlaridan ikkitasining eshigini ocha olgan bo'lsa; Sen-Jermen dahasidagi vikontessa de Boseanning uyiga dadil qadam tashlab kirib borsa-yu, Shosse d'Antenda<sup>2</sup> grafinya de Resto qarshisida tiz cho'kishga muyassar bo'lsa, Parijning mashhur mehmonxonalariga kirish yo'lini topsa-yu, o'sha mehmonxonalarda ayollarning homiylik qilishi va madad berishi uchun munosib darajada o'zini chiroyli yigit deb hisoblasa; taqlid qilib

<sup>1</sup> **Gersog** (*nemischa*; Herzog) – qadimiy germanlar qabilasining harbiy dohiysi; o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada yirik yer-mulk egasi; o'rta asrning oxirlaridan dvoryanlarning oliy unvonlaridan biri. Bu unvon ayrim mamlakatlarda (masalan Buyuk Britaniyada) hozirgacha saqlangan. **Gersoginya** – gersogning xotini yoki qizi.

<sup>2</sup> **Shosse d'Anten** – Balzak romanida moliya burjuaziyasi yashagan Parij rayoni.



bo'lmaydigan darajada epchillik bilan bir sakrab tarang tortilgan arqonga chiqib olib, hech vaqt yiqilib tushmaydigan dorbozdek arqondan dadil yurib borsa va bu ishida sohibjamol ayol dorcho'plik vazifasini o'tasa! Shunday shirin xayollarga berilgan, ko'z oldida, shu yerda – torf bilan yoqilayotgan pechka yonida, qashshoqlik va qonunlar majmuasi qurshovida dabdaba bilan namoyon bo'lgan shunday go'zal ayolga mahliyo bo'lgan qaysi bir odam kelajakdan Ejen singari katta umid qilmagan? U xayol og'ushiga berilib, kelajakda ko'radigan shod-xurram hayot gashtini surib, o'zini grafinya de Resto bilan yolg'iz qolganini ko'z oldiga keltirib turgan edi hamki, shu payt qulog'iga Yusuf payg'ambarning<sup>1</sup> tortgan oh-faryodini eslatuvchi ingrangan tovush eshitildi, bu tovush tun sukunatini tilib o'tib, talaba yigitning yuragiga borib sanchildi. Ejen sekingina eshigini ochib, koridorga chiqqan edi, Gorio otaning eshigi tirqishidan tushib turgan chiroq shu'lasiga ko'zi tushdi. Qo'shnimga bir gap bo'lib qoldimikan, deb xavotir olib, eshikdagi kalit teshigidan mo'raladi, qarasa, chol g'alati bir ish bilan band, bu talabaga shunday shubhali tuyuldiki, o'zini vermishelchi deb yurgan odamning tungi nayranglarini aniqlab olib, jamiyatga foydali ish qilib qo'yishni mo'ljalladi. Gorio ota allaqachon stolini to'ntarib qo'ygan ekan, stol oyoqlari orasiga qoqilgan yakka cho'p taxtadan kergi o'rnida foydalanib, unga zarhalli kumush taqsimcha bilan yana bir idishni bog'lab qo'yibdi, hozir u o'sha hashamatli naqshlar zarb qilingan idishlarni arqonga o'xshagan bir narsa bilan o'rab shunday kuch bilan burardiki, ular trubaga o'xshagan shaklga kirib borardi, aftidan, chol ularni quyma kumushga aylantirayotgan edi.

«O'-ho'! Choli tushmagur zo'r-ku! – deb o'yladi Rastinyak, arqon yordami bilan oltin hal yuritilgan kumush idishni haligidek yumaloqlayotgan cholning paydor qo'llariga qarab. – Tag'in o'g'ri bo'lmasin yo o'zini ojiz qilib ko'rsatib, tinchgina tirikchilik qilib yurish uchun qashshoqnamo yashab o'g'irlik mollarini «suv» qilib yuradigan hunari bormikan?» – deb xayo-

<sup>1</sup> Yusuf alayhissalom – Qur'onda tilga olingan payg'ambarlardan biri. Bibliyada Iosif deb tilga olingan. Qur'onning 12-surasi Yusuf nomi bilan ataladi. Alloh Yusufga tushlar ta'birini aniq ayta olish qobiliyatini ato etdi. Yusuf alayhissalom go'zallikda tengsiz bo'lgan.

lidan o'tkazdi Ejen, qaddini rostlar ekan.

Talaba yana kalit o'rnidan ichkari mo'raladi. Gorio ota arqonni yechib tashladi, yumaloqlangan kumushni olib, uni adyol yozilgan stol ustiga qo'ydi va guvalakka o'xshatib yumaloqlay boshladi, – buni u juda epchillik bilan qilardi.

«Qara-ya, bu cholning kuchi Polsha qiroli Avgustnikidan<sup>1</sup> ham ko'pga o'xshaydi!» – deb qo'ydi o'zicha Ejen, kumush idishning dumaloq bo'lib qolganini ko'rgandan keyin.

Gorio ota o'z qilgan ishiga g'amgin nazar tashladi, ko'zlaridan duv-duv yosh oqdi; u eshma shamni o'chirdi, – shu sham yorug'ida ishlagan edi, – shundan keyin, Rastinyak uning bir xo'rsinib qo'yib, uxlab ketganini eshitdi.

«Telbaga o'xshaydi», – deb o'yladi talaba.

«Sho'rlik bolam!» – deb qo'ydi baland ovoz bilan Gorio ota.

Cholning shu so'zidan keyin Ejen bu voqea to'g'risida hech kimga aytmasligim ma'qul deb, uni shoshqaloqlik bilan qoralamaslikka ahd qildi. Talaba o'zining xonasiga kirib ketmoqchi bo'lib turgan edi, shu payt yumshoq tufli kiyib olgan odamlar zinadan chiqib kelayotgandek, quloqqa deyarli chalinmaydigan bir sharpa eshilib qoldi. Ejen qulog'ini ding qilib to'xtadi va chindan ham ikki odamning nafas olayotganini eshitdi. Na eshikning g'iychillagani, na oyoq tovushi eshitildi-yu, ammo birdan uchinchi qavatdagi Votrenning xonasidan tushib turgan chiroqning xira shu'lasini ko'rib qoldi.

«Bitta oilaviy pansionda shuncha sir bor ekan», – dedi u o'ziga o'zi.

Bir necha pillapoya pastroq tushib quloq solgan edi, qulog'iga oltin jarangi eshilib ketdi. Ko'p o'tmay chiroq o'chdi, eshik bu safar ham g'iychillamadi-yu, ammo ikki odamning nafas olayotgani eshitildi. Keyin ular pastga tushib borganlari sari, nafasleri ham o'cha bordi.

– Kim u yurgan? – deb qichqirdi Voke, derzasini ochib.

– Men, onaxon, xonamga chiqib ketyapman, – deb do'rillagan past tovush bilan javob qildi Votren.

«Qiziq! Axir, Kristof eshikni tambalab qo'ygan edi-ku, –

<sup>1</sup> Fridrix Avgust II (1670-1733, Varshava) – 1694-1703-yillarda Polsha qiroli va Litva knyazi.

deb hayron bo'lardi Ejen, o'z xonasiga qaytib kelarkan. – Parijda tevarak-atrofdan nimalar sodir bo'layotganini bilish uchun kechalari uxlamaslik kerak ekan».

Bu ikkita g'alati hodisa uning shuhratparastlik va muhabbat tuyg'usi bilan sug'orilgan shirin xayollarini tarqatib yubordi, shundan keyin u ishga o'tirdi. Lekin talaba Gorio otaning shubhali ishlarini, nainki Gorio-chi – bil'aks, o'zining porloq istiqbolidan darak bermoqchi bo'lganiday har daqiqa sayin ko'z oldida namoyon bo'layotgan grafinya de Restoning qiyofasini o'ylayverib, xayoli parishon bo'ldi; axiri bo'lmagandan keyin, o'ringa yotdi-yu, o'sha zahotiyuq o'likdek qotib uxlab qoldi. Yosh yigitlar kechasi bilan ishlab chiqaman deb ahd qiladigan bo'lsalar, o'n hodisadan yettitasida uxlab qolaveradilar. Kechalari uxlamay ishlay olish uchun yigirma yoshdan oshgan bo'lish kerak.

Ertasiga ertalab Parijga shunday quyuuq tuman tushdiki, bunaqa tuman quyunday yopirilib, hamma narsani ko'zdan yashiradi, hatto eng sergak odamlar ham vaqtdan adashib qoladilar. Zarur ish bilan uchrashadiganlar uchrasholmaydilar. Soat o'n ikkiga jom chalsa, soat ertalabki sakkiz deb o'ylaydilar. Soat to'qqiz yarim bo'ldi, ammo Voke xonim hali o'rnidan turgani yo'q. Kristof bilan baqaloq Silviya qaymoq solingan qahva ichib o'tirishardi, – ular ham bugun kechikishgandi, – qaymoq pansionerlar uchun sotib olingan sutning yuzidan olingan edi; bu nojo'ya ishni Voke xonim payqab qolmasligi uchun Silviya sutni rosa qaynatib olardi.

– Silviya, – dedi Kristof, yoqqa qovurilgan burda nonni qahvaga botirib, – harna bo'lgandayam, janob Votren – yaxshi odam ekan; bugun kechasi uning oldiga yana ikkita odam keldi; agar beka surishtirgudek bo'lsa, hech nima aytma.

– Senga hech narsa berdimi?

– «Tuya ko'rdingmi – yo'q» qabilida, bir oyda yuz so'm berdi.

– Faqat u bilan Kutuyur xonim qo'li ochiq odamlar, boshqalar bo'lsa Yangi yilda o'ng qo'li bilan bergan chaqasini bir iloj qilib chap qo'li bilan tezroq qaytarib olishning payidan bo'lishadi, – dedi Silviya.

– Berganda qancha berishardi juda? – dedi Kristof. – Bor-yo'g'i yuz so'm. Mana, ikki yil bo'ldiki, Gorio ota poyabzalni



o'zi cho'tkalaydi. Anavi ziqna Puare bo'lsa sira etik moyi ishlatmaydi; moyni shap-shapiga ishlatguncha, yalab oladi desang-chi. Anavi qiltiriq talaba bo'lsa atigi qirq su beradi. Bergan puliga bitta cho'tka ham kelmaydi, buning ustiga eski-tuskilarini o'zi sotadi. G'irt o'g'rixona-ku, o'zi bu!

– Og'zingga qarab gapir! – dedi qahvasini maydalab ichib o'tirgan Silviya. – Bizning joyimiz bu mahallada eng yaxshisi-ku; tirikchilik qilsa bo'ladi! Ha, aytganda-ya,

Kristof... yana muhtaram Votren amaki to'g'risida so'ramoqchiman – sen bilan hech kim hech nima to'g'risida gaplashgani yo'qmi?

– Bir marta bo'lgandi. Yaqinda ko'chada bir janobga duch kelib qoldim, u mendan: «Chakka soqolini bo'yab yuradigan semiz janob sizlarnikida turadimi?» – deb so'radi. Men esa unga: «Yo'q, taqdir, u chakka soqolini bo'yamaydi. Shunday xushchaqchaq odamning esiga kelarmidi bunaqa ish», – dedim. Uyga kelganimdan keyin, turgan gap, buni janob Votrenga aytdim; u nima dedi degin: «Yaxshi javob qilibsana, yigitcha! Doim shunday deb javob qilaver. Dunyoda eng ko'ngilsiz narsa – nuqsonlarningning o'zgaga oshkor bo'lishi. Shu sabab bo'lib odamlarning to'yi to'xtab qolgan vaqtlar ham bo'lgan!» – dedi.

– Bir kun bozorda mendan ham shunaqa gaplarni so'rashgan edi, ko'ylak kiyayotgan vaqtida uni hech ko'rganmisiz, deyishdi. Kulgisi qistaydi kishining! Iye, eshityapsanmi, – dedi u, gapini bo'lib, – Val-de-Grasda chorak kam o'nga zang urdi-yu, shu mahalgacha hech kim qilt etmaydi-ya.

– Endi esingga keldimi? O'zi uyda hech kim yo'q. Kutur xonim soat sakkizdayoq uyidagi qizcha bilan ibodat qilgani avliyo Eten cherkoviga ketgan. Gorio ota allaqanday bir tugun ko'tarib chiqib ketdi: talaba ma'ruzadan chiqib, soat o'nda keladi. Zinani tozalayotgan edim, shuning-chun ularning ketishganini ko'rdim, Gorio ota bo'lsa temirga o'xshagan qattiq bir narsa o'rab olgan tuguni bilan meni bir turtib o'tib ketdi. Nima balolar bilan shug'ullanib yurarkin-a, choli tushmagur? Boshqalar uni esankiratib, mayna qilishgani qilishgan, shunday bo'lsa ham u yaxshi odam, hammadan yaxshi. O'zining-ku beradigan choy chaqasi arzimagan narsa-yu, ammo u yuborgan joydagi xonimlar aroqqa ham yetadigan pul berishadi – kimligimizni

bilib qo'y, deyishadimi, o'zlari ham rosa yasanib kiyinishadi-da!

– Qizlarim deb aytgan xonimlar bo'lmasin yana? O'z-o'zlari ham bir vagon deyman?

– Men faqat bu yerga kelgan ikkitasinikiga borganman.

– Beka uyg'ondi, shekilli? Hozir uyni boshiga ko'taradi, men boray. Kristof, qarab tur, sutga mushuk tegmasin.

Silviya bekaning xonasiga chiqib ketdi.

– Bu nimasi, Silviya? Soat chorak kam o'n bo'libdi-yu, men hanuzgacha dong qotib uxlab yotibman, sizlarning bo'lsa parvoyingiz falak. Hech qachon bunday bo'lmagandi.

– Hammasiga tuman aybdor, biram quyuuq tushibdiki, asti qo'yaverasiz.

– Nonushta nima bo'ldi?

– Nonushta qayoqda deysiz! Ijaradorlarimizga bir balo bo'lganga o'xshaydi: hammasi ham tong otdi-otmadi jo'nab qolishgan.

– Gapni to'g'ri gapir, Silviya, – dedi Voke xonim, – tong otar-otmas deyish kerak.

– Xo'p, siz aytgandek gapiraman. Nonushtaga soat o'nda tushsangiz ham bo'ladi. Mishonetka bilan Puare hali uyg'onishgani ham yo'q. Uyda faqat o'shalar qolishgan, lekin xuddi o'likday uxlab yotishibdi: qimir etishmaydi.

– Senga nima bo'ldi, Silviya, ularni doim birga qo'shib gapirasan, go'yo...

– Nima go'yo? – deb gapni ilib ketdi Silviya, xiringlab kulib. – Ikki kishi bir juft bo'ladi-da.

– Hayronman, Silviya, Kristof eshikni tambalab qo'yganidan keyin janob Votren qanday ochib kiroladi ekan?

– Sirayam unaqa emas, xonim. Kristof janob Votrenning kelganini eshitib, tushib eshikni ochdi. Siz bo'lsangiz, allanimalarni o'ylab yuribsiz...

– Koftamni olib ber, keyin chaqqon-chaqqon nonushta tayyorla. Kechagidan qolgan qo'y go'shti bilan kartoshka pishira qol, keyin anavi donasi ikki lira<sup>1</sup> turadigan qaynatilgan nokdan qo'y.

<sup>1</sup> Lira – 1) Qadimgi yunonistonda chertib chalinadigan torli muzika asbobi; 2) belorus va ukrain qo'shiqchilarining kamoncha bilan chalinadigan torli muzika asbobi; 3) Italiya, Vatikan va Turkiyaning pul birligi (asarda shu ma'noda).

Voke bir necha daqiqadan keyin pastga tushdi, xuddi shu payt mushuk sut ustiga to'nkarib qo'yilgan taqsimchani oldingi oyog'i bilan surib qo'yib, sutni shosha-pisha shapillatib ichmoqda edi.

– Mistigri! – deb qichqirdi Voke.

Mushuk ura qochdi, ammo birpasdan keyin qaytib kelib, egasining oyog'iga surkala boshladi.

– Ha, qa, surkalib qol, qurib ketgur, qari shayton! – dedi beka mushukka. – Silviya! Silviya!

– Ha, yana nima deysiz, begoyim?

– Qaragin, mushuk qancha sutni ichib qo'yibdi!

– Hamma ayb anavi yigit o'lgur Kristofda, dasturxon yoz deb tayinlagandim unga, qayoqqa yo'qoldi ekan? Tashvish qilmang, begoyim, bu sutni Gorio otaning qahvasiga solib bera qolamiz. Ozroq suv qo'shib yuboraman, sezmaydi ham. U shunday ham hech narsani sezmaydi, hatto nima yeyayotganini ham.

– Anavi ta'viya qayoqqa yo'qoldi ekan? – deb so'radi Voke xonim dasturxonga taqsimchalarni terarkan.

– Kim biladi deysiz, qayerlarda sanqib yurgan ekan.

– Ko'p uxlab shishib ketibman, – deb qo'ydi Voke xonim.

– Lekin guldeksiz...

Xuddi shu payt qo'ng'iroq jiringladi-da, yemakxonaga do'rillagan ovozi bilan qo'shiq xirgoyi qilganicha Votren kirib keldi.

*Kezib chiqdim barcha ellarni,  
Baxtli bo'ldim, bo'ldim g'oyat shan...*

– Ho'! Ho'! Salom berdik, onaxonim Voke, – dedi u, bekaga ko'zi tushishi bilan, so'ng hazillashib uni quchoqladi.

– E, qo'ysangiz-chi...

– «Surbet!» deng. Aytavering! Shunday demoqchi edingiz-ku, a?.. Xo'p, mayli, dasturxon tuzatishingizga qarashganim bo'lsin. Nahotki, men yomon odam bo'lsam?

*Qora, malla sochli gullarni  
Uza oldim... lek..,*

Hozir men g'alati bir manzaraning shohidi bo'ldim...

*tasodifan...*

– A, nima dedingiz?

– Gorio ota ertalab soat sakkiz yarimda Dofina ko'chasidagi, eski kumush idish-tovoqlar va uqalar sotib oladigan zargarning uyida bo'ldi. U har kimning ham qo'lidan kelavermaydigan darajada yaxshilab ezg'ilab yumaloqlagan allaqanday zarhalli kumush idishlarni zargarga mo'maygina pulga sotdi.

– Yo'g'-e, rostdan-a?

– Rostdan. Men pochta aloqalari komissiyasi<sup>1</sup> vositasida Fransiyadan butunlay jo'nab ketayotgan bir o'rtog'imni kuzatib qaytib kelayotgan edim; qani, nima qilar ekan deb, Gorio otani atayin kutib turdim – shunchaki, qiziqchilik uchun. U bizning mahalladagi de-Gre ko'chasiga qaytib keldi-da, u yerda Gobsek degan bir sudxo'ring uyiga kirib ketdi, – Gobsek otasining suyagidan domino toshi yasatishdan ham toymaydigan shunday ablah odamki, bunday odamlar kamdan kam bo'ladi; u yahudiy, arab, grek, lo'li, ammo pulini o'g'irlash mushkul masala: pularini u bankda saqlaydi.

– Gorio ota nima bilan shug'ullanyapti?

– Xonavayron bo'lish bilan, – dedi Votren. – U kallavaram shu qadar esini yeb qo'yibdiki, bor-yo'g'ini qizlariga sarflab yotibdi, ular esa...

– Ana o'zi! – dedi Silviya.

– Kristof, – deb chaqirdi Gorio ota, – mening oldimga chiqing!

Kristof Gorio orqasidan yuqori chiqib ketdi va ko'p o'tmay qaytib tushdi.

– Qayoqqa ketyapsan? – deb so'radi Voke xonim, xizmatkoridan.

<sup>1</sup> **Komissiya** (*lotincha*: commissio – topshirish; topshiriq, yumush) – 1) biror aniq vazifani bajarish yoki alohida maxsus chora-tadbirlar o'tkazish uchun tashkil etilgan organ; 2) shunday ishlarga vakolati bo'lgan shaxslar guruhi; 3) bir tomon (komissioner)ning boshqa tomon (komitent) topshirig'iga ko'ra ma'lum haq evaziga uchinchi shaxs bilan o'z nomidan, lekin komitent hisobidan uning manfaati yo'lida tuzgan shartnomasi; 4) shunday bitim tuzganlik uchun to'lanadigan haq (tuzilgan bitim summasining avvaldan belgilangan foizi miqdorida).

– Janob Gorio ish buyurdilar.

– Bu nima? – deb so‘radi Votren, Kristofning qo‘lidan konvertni tortib olib; konvert ustiga: «Grafinya Anastazi de Restoga» deb yozilgan edi. Votren xatni Kristofga qaytib berar ekan: – Qayoqqa ketyapsan? – deb so‘radi.

– Gelder ko‘chasiga. Bu xatni grafinyaning o‘z qo‘liga topshirishim kerak.

– Ichida nimasi bor?! – dedi Votren xatni yorug‘ga solib ko‘rib. Pulmi?.. Yo‘q, pulga o‘xshamaydi! – U konvertning bir chekkasiki salgina ochib ko‘rdi. – E, puli to‘langan veksels<sup>1</sup> ekan! – deb yubordi u. – Ana xalos! Himmati baland-ku ovsar cholning. Bora qol, shovvoz, – dedi u katta kaftini Kristofning boshiga qo‘yib, uning yuzini eshik tarafga o‘girarkan, – bor endi, aroqqa durustgina pul ishlaydigan bo‘lding.

Dasturxon tuzatib bo‘lindi. Silviya sut pishirardi. Voke xonim pechkaga olov yoqish bilan band edi; Votren esa, qo‘shig‘ini xirgoyi qilganicha bekaga yordamlashardi:

*Kezib chiqdim barcha ellarni  
Baxtli bo‘ldim, bo‘ldim g‘oyat shan.*

Hamma narsa taxt bo‘lganda, Kutzur xonim bilan made-muazel Tayfer qaytib kelishdi.

– Buncha erta qayoqqa borib keldinglar, tasadduq? – » deb Kutzur xonimdan so‘radi Voke xonim.

– Ikkalamiz avliyo Eten de Monga sig‘inib keldik; axir, bugun janob Tayferning oldiga borishimiz kerak. Qiz sho‘rlik judayam sovuq qotdi, – dedi Kutzur xonim pechka oldiga o‘tirib, oyoqlarini o‘tga tutarkan, uning botinkasidan bug‘ ko‘tarila boshladi.

– Isinib oling, Viktorina, – dedi Voke.

– Xudoga iltijo qilib otangizning ko‘nglini yumshatishni so‘rash ham yaxshi gap, – dedi yetimcha qizga stul qo‘yib berar ekan Votren. – Ammo buning o‘zi kifoya qilmaydi. Bor gapni

<sup>1</sup> *Veksel* (*nemischa*: Wechsel – o‘zgarish; almashtirish) – qonun bilan qat’iy belgilangan shakldagi yozma qarz majburiyati: qarz oluvchi tomonidan kreditorga berilib, kreditorga belgilangan muddatdan so‘ng qarzdordan vekselda ko‘rsatilgan pul summasini to‘lashni talab qilish huquqini beradi.



o'sha cho'chqa, o'sha qonxo'r otangizning yuziga shart-shart gapirish uchun sizga sodiq do'st kerak, aytishlaricha, uning uch million frank puli bor emish, ammo sizga sep berishdan ham bosh tortyapti. Hozir shunaqa zamonki, eng sohibjamol qizlar ham sepsiz turmushga chiqolmaydigan bo'lib qolishdi.

– Bechora qiz, – deb unga rahmi kelgan bo'ldi Voke. – Menga qarang, ko'zim, meni aytdi dersiz, – o'sha berahm otangiz bir baloga uchramasaydi hali.

Bu gapdan Viktorinaning ko'zlarida yosh paydo bo'ldi, buni ko'rib Kutyr xonim bekaga imo qilgan edi, u nafasini ichiga yutdi.

– Zora-mora uni uchratsak, u bilan ikki og'izgina gaplashsam-u, marhuma xotining vasiyat xatini qo'lga topshirsam! – deb intendant komissarining bevasi yana gap boshladi. – Vasiyat xatini pochta orqali yuborishga yuragim betlamayapti: u mening xatimni yaxshi taniydi.

– O, begunoh, bebaxt, jabrdiyda ayollar, – deb Votren uning gapini bo'ldi, – holingiz shumi hali? Hademay sizlar bilan o'zim shug'ullanaman, keyin ishlar yurishib ketadi.

– O, janob Votren, – dedi Viktorina nam ko'zlari bilan unga otash nigoh tashlab, ammo bu o'tli nigoh Vogrenning xotirjamligiga zarracha ham ta'sir qilmadi, – agar siz otam bilan ko'rishish imkoniga musharraf bo'lsangiz, aytingki: uning otalik mehri bilan onamning xotirasi men uchun dunyodagi hamma boyliklardan afzal. Otamning ko'nglini yumshata olsangiz, ertayu kech haqingizga duo qilgan bo'lardim. Yaxshilingizni sira unutmadingim...

– «Dunyoni charx aylandim-u...» – deb istehzo bilan kuyladi Votren.

Shu payt, yemakxonaga Puare, mademuazel Mishono va Gorio tushib qolishdi; aftidan Silviyaning kecha qolgan qo'y go'shtidan tayyorlagan qaylasining hidi dimoqlariga urilgan bo'lsa kerak. Xo'randalar bir-birlari bilan salom-alik qilishib, dasturxon atrofidan joy olishar ekan, soat o'nga zang urdi, xuddi shu payt ko'chadan talabaning ham oyoq tovushi eshitildi.

– Juda yaxshi bo'ldi, janob Ejen; bugun hamma bilan birga nonushta qilasiz, – dedi Silviya.

Talaba hamma bilan salomlashib, Gorio ota yoniga

o'tirdi. U taqsimchasiga bir talay go'sht soldi-da, kattagina qilib non kesib olarkan (Voke xonim esa, odati bo'yicha uning qancha non kesib olganini ko'zi bilan chamalab qo'ydi):

– Bugun men ajoyib sarguzashtga uchradim, – dedi.

– Sarguzasht?! – dedi Puare.

– Buning nimasiga hayron bo'lyapsiz, qari lapashang? – dedi Puarega Votren. – Janob Ejen sarguzashtlar uchun yaratilgan.

Mademuazel Tayfer talaba yigitga qo'rqa-pisa qarab qo'ydi.

– Kechirgan sarguzashtingizni bizga ham gapirib bering, – deb iltimos qildi Voke xonim.

– Kecha men qarindoshim vikontessa de Boseanlarnikiga balga borgan edim, ajoyib dang'illama imorat, xonalariga shohi matolar tutilgan. Qisqasi, vikontessa zo'r dabdabali bazm uyush-tiribdi, men u balda xuddi qiroldek vaqti chog'lik qildim...

– Qoramoldek, – deb uning gapini kesdi Votren.

– Bu bilan nima demoqchisiz? – dedi qizarib Ejen.

– Men qoramoldek deyapman, negaki qoramol qirolidan ko'ra ancha betashvish bo'ladi.

– Bu haq gap, -- dedi «haybarakallachi» Puare, – men ham qirol bo'lishdan ko'ra o'sha beg'am-betashvish qoramol bo'lish-ni afzal ko'rardim, nega desangiz...

– Shu balda, – deb shartta Puarening gapini bo'lib hiko-yasini davom ettirdi talaba, – men g'oyat latofatli va malohatli go'zallar go'zali bir grafinya bilan raqs tushdim, bunaqa sohib-jamol xonimni umrim bino bo'lib hech qachon ko'rmagan edim. U boshiga shaftoli guli qadab olgandi, chekkasiga esa muattar hid taratuvchi g'oyat ajib guldasta taqilgan edi. E, nimasini aytasiz! Raqsning sehriga berilib ketgan ayol kishini tasvir qilib bo'larmidi? Uni bunday paytda tomosha dilish kerak. Mana, bu-gun ertalab soat to'qqizlarda o'sha ma'budasifat grafinyani ko'-chada ko'rib qoldim; u de-Gre ko'chasidan piyoda ketayotgan ekan. O, yuragim shunday o'ynab ketdiki, asti qo'yasiz, o'ylab-manki – – ...bu yoqqa kelyapti deb o'ylagandirsiz-da, – dedi Votren, talabaga tikilib turib. – U bo'lsa, aniqrog'i, sudxo'r Gob-sek amakinikiga ketayotgan edi. Qachon bo'lsa ham siz agar pa-rijlik ayollar qalbiga qo'l solib ko'rsangiz, u yerdan eng avval

sudxo'rni, ana undan keyin oshiq'larni topasiz. O'sha grafinya-  
ngizning ismi Anastazi de Resto, o'zi Gelder ko'chasida turadi.

Bu nomni eshitishi bilan talaba Votrenga tikilib qarab  
qoldi. Gorio ota cho'chib ketib, boshini ko'tardi va hayajonli  
ko'zlari bilan ikki suhbatdoshga shunday tikildiki, buni ko'rgan  
xo'randalarning hammasi ham hang-mang bo'lib qoldi.

– Demak, Kristof kechikibdi: uning o'zi kelibdi-da! – dedi  
alam bilan Gorio.

– Gumonim to'g'ri chiqdi, – dedi Votren Voke xonimning  
qulog'iga shivirlab.

Gorio nima ovqat yeyayotganining farqiga bormay, beix-  
tiyor kavshanardi. U hech qachon bunchalik ovsar, parishonxotir  
bo'lmagan edi.

– Janob Votren, uning nomini sizga qaysi iblis yetkazdi?  
– deb so'radi Ejen.

– Aha! Hali shunday deng! Gorio ota-ku bu nomni juda  
yaxshi biladi! Xo'sh, shunday ekan, nimaga men bilmas ekan-  
man?!

– Janob Gorio! – deb chaqirdi talaba.

– A? Nima? Shunday deng, kecha juda chiroyli edimi? –  
dedi bechora chol.

– Kim?

– De Resto xonim.

– Qoqvosh cholning aftiga qarang, ko'zlari o'ynab ket-  
yapti-ya! – dedi Voke xonim Votrenga.

– Cholning o'ynashi o'sha xonim bo'lmasin tag'in? – deb  
talabaning qulog'iga shivirladi mademuazel Mishono.

– O, nimasini aytasiz! Go'zallikda tengi yo'q edi, – deb  
gapini davom ettirdi Ejen, o'zidan ko'zini uzmay tikilib o'tirgan  
Gorio otaga qarab. – De Bosean xonim bo'lmaganda, mening  
pari-paykar go'zal grafinyam kechagi balning malikasi bo'lishi  
turgan gap edi, yigitlarning hammasi undan ko'zini olmasdi, men  
u bilan raqs qilishni xohlaganlar ichida o'n ikkinchi bo'lib  
ro'yxatga yozilibman; bironta raqsda ham u chetda qolmadi.  
Boshqa hamma xonimlarning alam qilganidan jonlari chiqib ket-  
di. Kechagi balda eng baxtli odam o'sha edi desa to'g'ri bo'ladi.  
Barcha yelkanlarini yoyib suzib borayotgan kemadan, yeldek  
chopib ketayotgan otdan va raqs qilayotgan ayoldan chiroyliroq

narsa yo‘q deb juda to‘g‘ri aytishgan ekan.

– Kecha gersoginyanikida balda baxt-iqbol cho‘qqisida, bugun ertalab esa qashshoqlikning eng tuban pog‘onasida sud-xo‘rnikida! Mana sizga parijlik ayol qiyofasi, – dedi Votren. – Erlari keti uzilmaydigan sarf-xarajatlariga pul yetkazib berolmasa, xotinlari o‘zlarini bozorga soladilar. Agarda o‘zlarini bozorga solishni eplay olmasalar, tuqqan onalarining ichak-chavag‘ini ag‘darsalar ag‘daradilar, ammo uning bisotidan hammani mahliyo qiladigan bir narsa topmay qo‘ymaydilar. Bu hammaga otning qashqasiday ma‘lum narsa!

Gorio otaning Rastinyak qikoyasini eshitib o‘tirganda ochilib ketgan chehrasi Votrenning achchiq mulohazasidan keyin yana xiralashdi qoldi.

– Xo‘sh, aytgan sarguzashtingiz qani? – deb so‘radi Voke xonim. – U bilan gaplashdingizmi? Huquq fanini o‘rga-nishni istamaysizmi, deb so‘radingizmi?

– U meni ko‘rgani yo‘q, – deb javob qildi Ejen. – Ammo eng chiroyli parijlik ayollardan birini ertalab soat to‘qqizda de-Gre ko‘chasida uchratishning o‘zi qiziq emasmi, axir, u baldan juda. Kech, kechasi soat ikkilarda qaytgandir. Bunday sarguzasht faqat Parijda ro‘y berishi mumkin.

– Be-e! Bundan ham qiziqroq ishlar bo‘ladi! – dedi Votren.

Mademuazel Tayfer otasi bilan bo‘ladigan uchrashuvni o‘ylab shunday miyasi shishgan ediki, gaplarning ko‘pi qulog‘iga kirmasdi. Kutyur xonim unga endi tur, yuqori chiqib kiyin degandek imo qildi. Ikkala xonim turib ketishgandan keyin Gorio ota ham qo‘zg‘aldi.


– Qalay! Endi ko‘rgandirsiz! – dedi Voke, Votren bilan boshqa xo‘randalariga. – Mana shunaqa xotinlarni deb xonavayron bo‘lgani ko‘rinib turibdi.

– O‘sha go‘zal Grafinya de Resto Gorio otaning o‘ynashi deb meni hech kim ishontirolmaydi! – dedi talaba.

Biz ham sizni ishontiramiz deb urinayotganimiz

yo‘q, – Votren uning gapini bo‘ldi. – Parijni yaxshi bilishga hali yoshlik qilasiz, ehtiros telbalari deb yuritiladigan odamlar hali ko‘p uchrab turishini keyinroq bilib olasiz.

Bu gaplarni eshitgan maDemuazel Mishono hushyor



tortdi-da, truba ovozini eshitgan harbiylar otiday qulog'ini ding qilib, Votrenga ma'nodor qarab qo'ydi.

– Xo'sh! Xo'sh! – deb o'z gapini o'zi bo'ldi Votren va Mishonoga tikilib qaradi. – Biz ham bir vaqtlar ehtiroslar qozonida qaynagan emasmizmi?

.Qari qiz yalang'och haykallarga ko'zi tushgan monax xotinlardek ko'zini yerga tikdi.

– Shunday qilib, – Votren gapini yana davom ettirdi, – o'sha toifadagi odamlar biron g'oyaga shunday yelim bo'lib yopishib oladilarki, keyin ularni bundan ajratib olish amri mahol bo'ladi. Ular faqat ma'lum bir suvni, ma'lum bir quduqning suvini ichaman deb turib oladilar, bunga erishmoq uchun xotinu bola-chaqalarini sotishdan, hatto shaytonga xizmatkor tushishdan ham toymaydilar, vaholonki, o'sha quduqning suvi ko'pincha badbo'y bo'ladi. Ba'zi odamlarga bunday quduq vazifasini – qimor, birja, rasmlar yoki hasharotlarni kolleksiya<sup>1</sup> qilish, musiqa bajaradi, ba'zilar uchun esa hirslarini qondira oluvchi xotin bajaradi. Bunday odamlarga butun Dunyodagi xotinlarni taklif qiling, ularga qayrilib ham qaramaydilar: ehtiroslarini qondiruvchi faqat o'sha xotinning o'zi kerak, xolos. Ko'pincha bunday xotinlar ularni sira ham sevmaydilar, mazax qiladilar va bir onlik lazzatlarini juda qimmatga sotadilar. Oqibati-chi dersiz? Oqibati shuki, bunday laqmalarga bu ham kor qilmaydi: oxirgi ko'rpayostig'ini ham garovga qo'yib, eng so'nggi Chaqasini ham o'shalarga eltib beradilar. Gorio ota ana shunday odamlar xilidan. Grafinya uni siqib suvini ichib yotibdi, u esa hech kimga sir aytmaydigan odam, – mana sizga zodagonlarning qiyofasi! Bu laqma chol bo'lsa, faqat o'shani o'ylaydi. O'zingiz shohidi bo'lib turibsiz – chol ehtirosidan judo bo'lsa g'irt hayvonga aylanib qoladi. Lekin unga shu mavzuda gap ochsangiz bormi, ko'zlari chaqnab ketganini ko'rasiz. Bu sirning tagiga yetish qiyin emas. Bugun ertalab u kumush idishlarini eritgani olib borib berdi; uning deGre ko'chasida turadigan Gobsek amakinikiga kirib ketayotganini o'zim ko'rdim. Gapimga yaxshilab quloq solib turing! U yerdan qaytib kelib, Grafinya de Restonikiga anavi anqov Kristofni jo'natdi, u esa laqillab konvertdagi adresni va

<sup>1</sup> Kolleksiya (*lotincha*: collectio – to'plash, yig'ish) – bir xil, bir turdagi ayrim narsalarning (masalan, tanga, marka, kitob va shu kabilarning) tartibga solingan to'plami.

ichidagi puli to'langan vekselni bizga ko'rsatib qo'ydi. Masala ravshan, modomiki, grafinya ham sudxo'rnika erta bilan yurgan ekan, demak, qarz juda qistovlik bilan to'lanishi lozim bo'lgan. Gorio ota iltifot bilan grafinyaning o'rniga qarzni to'lab kelgan. Bunaqa gapning mag'zini chaqish uchun peshonaning yepgi enlik bo'lishi shart emas. Bu demak, talaba uka, o'gay grafinya kulib, odamlarga noz qilib, shaftoli gulini silkitib va barmoqlarining uchi bilan ko'ylagining baridan ushlab, raqs qilib yurganida, o'zining yoki o'ynashining muddati o'tib ketgan vekselini o'ylab, ko'ngli joyida bo'lmagan ekan.

– Bu gap bilan siz meni har qanday qilib bo'lsa ham haqiqatni bilishga undayapsiz. Ertagayoq grafinya de Resto oldiga boraman! – dedi talaba.

– To'g'ri, – dedi Puare, – ertagayoq grafinya de Restoning oldiga borish kerak.

– Ehtimol o'sha yerda, qilgan xizmati evaziga haq olgani borgan anavi tentaksifat Gorioni ham uchratib qolarsiz.

– Demak, Parijingiz iflos bir botqoq ekan-da? – dedi Ejen nafrat bilan.

– Ha, botqoq bo'lgandayam juda g'alati botqoq, – deb ilova qildi Votren. – Bu yerda foytunda yurib loyga botganlar asilzoda-yu, piyoda yurib loyga botganlar tovlamachi hisoblanadi. O'z boshingizga balo qilib, bironta arzimas narsani o'g'irlab ko'ring-chi, sizni Adliya saroyiga qo'yib bir ajoyibot sifatida odamlarga namoyish qiladilar. Lekin siz million o'g'irlang, hamma mehmonxonalarda sizni eng nomusli odam sifatida izzatikrom bilan qarshi oladilar. Doimo shunday axloqli bo'laman desangiz, jandarmlar<sup>1</sup> bilan sudga yiliga o'ttiz million to'lab turasiz. Qoyil-a?

– Nima dedingiz boya? Gorio ota o'zining zarhalli kumush idishini eritgani sotdi dedingizmi? – deb so'radi Voke.

– Qopqog'ida ikkita musichaning rasmi bor edimi? – deb so'radi Ejen.

– Xuddi o'zi.

– Aftidan, o'sha idishni judayam qadrlar ekan, o'sha idish

<sup>1</sup> **Jandarm** (*fransuzcha*: gendarmerie – qurollangan kishilar) – ayrim mamlakatlarda siyosiy muhofaza, tintuv ishlari olib borish, davlat tuzumiga zid ish olib boruvchilarga qarshi kurash uchun xizmat qiladigan siyosiy politsiya xodimi.

bilan tarelkani yumaloqlab turib yig'laganini men tasodifan ko'rib qoldim, – dedi Ejen.

– Ularni jonidan ham ortiq ko'rardi, – deb javob qildi Voke.

– Tentak cholimizning nechog'liq oshishi beqaror ekanini ko'rdingizmi, – dedi Votren. – Uni qanday qilib vasvasaga solish yo'lini bilib olgan-da, o'sha xonim.

Talaba xonasiga ko'tarildi. Votren ko'chaga chiqib ketdi. Bir necha daqiqadan keyin Kutuyur xonim bilan Viktorina Silviya tonib kelgan kirakash foytunga tushib jo'nab ketishdi, Puare mademuazel Mishonoga qo'lini tutdi, – ikkalasi qo'ltiqlashib botanika bog'iga jo'nashdi, kunning eng yaxshi damlaridan ikki soatni o'sha yerda o'tkazib kelishmoqchi edi.

– Ana, ko'rdingizmi, er-xotindan qayeri kam ularning, – deb gap qotdi baqaloq Silviya. – Bugun birinchi marta birga ko'chaga chiqishlari. Ikkalasi ham biri biridan besh battar oriq, qoq suyak, falokat bosib, bir-biriga urishib ketsa bormi, naq chaqmoq toshdan o't chiqqandek uchqun chaqnab ketishiyam hech gap emas.

– Unda mademuazel Mishono shol ro'molidan ajraldi deyavering, – xuddi pilikday «pov» etadi, yonadi ketadi, – deb kuldi Voke.

Kunduzi soat to'rtida qaytib kelgan Gorio ota tutab yonayotgan chiroq yorug'ida yig'idan ko'zlari qizarib ketgan Viktorinani ko'rdi. Voke xonim ertalab janob Tayfer huzuriga qilingan tashrifning muvaffaqiyatsiz chiqqani haqidagi hikoyaga quloq solib o'tirardi. Tayfer, qizi bilan bu kekxa xotinning eshigi tagida oyog'ini tirab turib olgani uchun, ularni qabul qilishga rozi bo'libdi.

– Buni qarang-ki, jonginam, – deb Voke xonimga arz qilar edi Kutuyur xonim, – u Viktorinaga hatto o'tirgin deb joy ham ko'rsatmadi, qiz to uydan chiqqunimizcha tikka turdi. Menga esa beparvolik bilan sovuqqina qilib nimalar dedi deng-a: mening oldimga hadeb ovora bo'lib kelib yuravermanglar, mademuazel esa. – o'z farzandini, loaqal, qizim deyishga ham tili bormadi, – meni hadeb bezovta qilavergani uchun undan ko'nglim qolgan (hali bir yilda bir marta borganiga shunaqa deyapti!); Viktorinaning, da'vo qilishga hech qanday sababi yo'q, negaki, onasi

menga tekkanda ikki qo'lini burniga tiqib kelgan, dedi; xullasi, chunonam qattiq botadigan gaplarni aytdiki, bularni eshitib, bola bechora yum-yum yig'lay boshladi. Qiz sho'rlik otasining oyog'iga yiqilib, men faqat onam tufayli shunday terslik qilgan edim, endi sizning aytganlaringizga so'zsiz itoat etaman, ammo marhuma onamning vasiyat xatini o'qib ko'rishingizni sizdan yolvorib so'rayman deb shaxdam-shaxdam gapirib, xatni otasiga uzatdi; qiz shunaqangi yurakka borib tegadigan gaplarni topib gapirdiki, asti qo'yaverasiz; bunday gaplarni u qayerdan topdiykin, aftidan, xudoning o'zi diliga solib turdi, shekilli, men esa esi past xotinlardek yum-yum yig'lasam deng. Lekin anavi yaramas odam nima qilib o'tirdi deng? Timnog'ini olib o'tirdi, sho'rlik Tayfer xonimning ko'z yoshlari bilan yuvilgan xatni esa kamin ustiga tashlab: «Yaxshi!» – deb qo'ya qoldi. U qizini o'rnidan turg'azib qo'ymoqchi bo'lgan edi, ammo Viktorina uning qo'lini mahkam ushlab olib, hadeb o'pa boshladi, u esa qo'lini tortib olishga urindi. Axir bu jinoyat emasmi? Shu payt uning anavi jinni-sang'i o'g'li kirib qoldi, singlisi bilan, aqalli, ko'rishmadi ham.

– Bu axir razolat-ku! – deb yubordi Gorio ota.

– Keyin, – deb davom ettirdi Kutyur xonim cholning nidosiga e'tibor bermay, – ota-bola zarur ishlarimiz bor deb, biz bilan xayr-ma'zur qilishdi. Qilib kelgan ishimizning bori mana shu. Har qalay, u qizini ko'rdi-yu. Tavba, qanday qilib qizidan voz kecharkin, axir. Viktorina quyib qo'ygandek otasining o'zginasi-ku.

Chetdan keladigan xo'randalar birin-ketin kelishaverdi, ular bir-birlari bilan salomlashib, har xil bo'lar-bo'lmas gaplarni aytib hazil qilisha boshladi, bunday gaplar Parijdagi ma'lum tabaqa odamlar orasida askiya o'rnini bosadi, – bunday xandon suhbatga biron arziyas narsa asos bo'ladi-yu, uning kulgiga sabab bo'ladigan joyi gapning talaffuz etilishida-yu, odamlarning shu so'zlarni aytgan vaqtdagi qilig'ida bo'ladi. Ammo bu sheva so'zlari doim o'zgarib turadi. Bunday askiyaga sabab bo'lgan «payrov» bir oyga ham yetmaydi. Biror siyosiy voqea, jinoiy ishning ko'rilishi, ko'cha qo'shig'i, aktyorlarning biror qilig'i, – bularning hammasi ham «payrov»lik vazifasini bajara-veradi, «askiyachi»lar biror so'z yoki fikrni ushlab olib, bir-



Gorio ota stolning narigi boshida, ovqat tashiyotgan xizmatkor kirib-chiqib turgan eshik oldida o'tirardi; o' boshini xiyla ko'tarib, ustiga sochiq yopib qo'yilgan nondan bir bo'lagini olib hidlab ko'rdi, – bu unga alloflik qilib yurgan paytidan odat bo'lib qolgandi.

– Ha, non yomon ekanmi, nima balo? – Voke idish-tovoqlarning taqir-tuquri va odamlar Ovozini bosib qichqirdi.

– Aksincha, begoyim, bu non birinchi nav Etamp unidan yopilibdi, – dedi Gorio.

– Buni qayoqdan bildingiz? – deb so'radi Ejen.

– Oqligidan, mazasidan.

– Mazasini burningiz bilan bilasizmi? Axir, nonni hidlab o'tiribsiz-ku, – dedi Voke xonim. – Shunday tejamli bo'lib ket-yapsizki, nariroqqa borib, oshxonadan chiqqan ovqat hidining o'zi bilan kun ko'rish yo'lini ham topmasangiz deb turibman.

– Unday bo'lsa bu ixtiro uchun patent<sup>1</sup> oling, – deb qichqirdi muzey xodimi, – boyib ketishingiz mumkin!

– Qo'ysanglar-chi, vermishelchi bo'lganiga bizni ishon-tirish uchun jo'rttaga shunday qilyapti, – dedi rassom.

– Demak, burningiz burun emas, darboza ekan-da? – deb yana tegajaklik qildi muzey chinovnigi.

– Nima? Dar... – deb so'radi Byanshon.

– Dar-goh,

– Dar-yo.

– Dar-akchi.

– Dar-i-cha.

– Dar-par-da.

– Dar-ra.

– Dar-axt.

– Dar-rama.

Sakkiz kishining javobi bir zumda o'qdek otilib chiqib hammani xaxolab kulishga majbur etdi, Gorio ota esa xuddi notanish tilda gaplashayotgan odamlarning gapiga tushunishga urina-yotgandek hamtovoqlarning og'ziga qaragancha angrayib qoldi.

<sup>1</sup> **Patent** (lotincha: patens, patentis – aniq, ochiq) – 1) ixtirochiga davlat patent idorasi tomonidan beriladigan, uning o'z ixtirosiga muallifligi va mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat. 2) savdo-sotiq yoki biror kasb-hunar bilan shug'ullanish uchun ruxsat berilganligi haqidagi hujjat.

– Dar?.. – deb so‘radi u yonida o‘tirgan Votrendan.

– Dar-da-rak, otaxon! – deb javob qildi Botren va Gorio otaning boshiga kafti bilan bir tushirib, uning shlyapasini to ko‘zigacha tushirib qo‘ydi, Bechora-chol bunday kutilmagan hujumdan dovdirab, birpas shu taxlitda qimir etmay o‘tirib qoldi. Chol sho‘rvasini endi ichmas ekan shekilli, deb o‘ylab, Kristof uning oldidagi idishni olib, ketdi, shuning uchun Gorio ota shlyapasini ko‘tarib qo‘yib, qoshig‘ini tovog‘iga solaman degan ediki, qoshiq taq etib stolga tegdi. Yana qahqaha ko‘tarildi.

– Janob, – dedi chol, – siz bema‘ni hazil qilar ekansiz; yana bir marta shlyapamni shunday bostirib qo‘yadigan bo‘l-sangiz...

\* \* \*

– Unda nima bo‘ladi, otaxon? – deb cholning gapini bo‘ldi Votren.

– Bir kunmas bir kun jazongizni yeysiz...

– Do‘zaxga tushganda, to‘g‘rimi? – deb so‘radi rassom: – Sho‘xlik qilgan bolalarni turg‘azib qo‘yishadigan do‘zaxning qorong‘i burchagida!

– Mademuazel, nega ovqat yemayapsiz? – deb so‘radi Votren, Viktorinadan. – Aftidan, otangiz juda o‘jar ko‘rinadi-a?

– Basharasi qursin, – dedi Kutyur xonim.

– Aqlini joyiga tushirib qo‘yish kerak uning.

– Modomiki, mademuazel ovqat yemayotgan ekan, – dedi Byanshon bilan yonma-yon o‘tirgan Rastinyak, – ovqat pulini qaytarib olish to‘g‘risida ish qo‘zg‘ashi mumkin E! E! Gorio otaning mademuazel Tayferga tikilib qolganini qaranglar-a!..

Chol xafa bo‘lganini unutib, bechora qizni kuzatib o‘tirardi, qizning butun vujudidan beqiyos iztirob, o‘z otasini chin yurakdan yaxshi ko‘rishiga qaramay oq qilingan farzandning iztirobi yaqqol ko‘rinib turardi.

– Azizim, – derdi Ejen Byanshonga shivirlab, – Gorio ota to‘g‘risida yanglishibmiz. U ahmoq ham emas. asabi o‘lik ham emas ekan. Unga nisbatan Gall sistemasini qo‘llab, fikringni menga ayt. Bugun kechasi men uning zarhalli kumush idishlarni mumdek ezg‘ilab buraganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, mana

hozir ham yuzidan o'tkir hissiyotga boyligi sezilib turibdi. Mening fikrimcha u juda mavhum hayot kechirsa kerak. O'rgansa, arziydigan ko'rinadi. Bekor kulyapsan, Byanshon, hazil qilayotganim yo'q.

– Bu odamning shifokorlar tekshirsa bo'ladigan xilidan ekanligiga qo'shilishaman, – dedi Byanshon. – Agar rozi bo'lsa, mayli, miyasini yorib ko'raman.

– Yo'q, shunchaki ushlab ko'r.

– Qo'y-e, ahmoqligi yuqumli bo'lsa-chi?

Ertasi kuni soat uchlarda Rastinyak g'oyat bashang kiyinib grafinya de Resto huzuriga jo'nadi, yo'l-yo'lakay u, odatda, ko'proq yosh yigitlar xayolini qamrab oluvchi shirin xayollar, hayajonli kechinmalar girdobiga g'arq bo'lib bordi: bunday shirin xayol surayotgan kishi na g'ovlarni, na xavf-xatarlarni pisand qiladi; bunday damlarda ularning ko'ziga muvaffaqiyatdan boshqa hech nima ko'rinmaydi, yolg'iz tasavvur bilan turmushlarining naqadar tumtaroq bo'lishini yaqqol ko'radilar, ammo ko'knori xayollik bilan tuzilgan rejalari puchga chiqqandan keyin esa, darrov xafa bo'lib qoladilar va o'zlarini baxti qora deb hisoblaydilar. Yaxshiki, bunday yigitchalar tajribasiz va tortinchoq bo'ladilar, aks holda, jamoat tartibini saqlash oson bo'lmasdi. Ejen kiyimlariga chang yuqtirmaslik uchun nihoyatda – ehtiyotkorlik bilan yurib borar, ayni vaqtda grafinya de Resto bilan nimalar to'g'risida suhbat qilishini ham o'ylardi, ta'sirchan gaplarni eslar, grafinya bilan bo'ladigan so'zlashda gap aylanishi mumkin bo'lgan mavzularga bog'lab, har xil savollarga javoblar hozirlardi, o'z kelajagini shu xotin bilan bog'lamoqchi bo'lgan muhabbati ustiga qurar va gap kelib qolgudek bo'lsa, muhabbat izhor qilib qolish uchun Taleyran ruhidagi dabdabali va nazokatli ifodalardan jamg'arib borardi. Talabaniing kiyimlari bari-bir chang bo'ldi – Pale-Royalda Shimi bilan etigini tozalatib olishga to'g'ri keldi.

– Boy bo'lganimda, – derdi o'ziga o'zi, har ehtimolga qarshi cho'ntagiga, solib olgan yuz so'mlik pulini maydalatar-kan, – karexada yurib, bamaylixotir xayol surgan bo'lardim.

Nihoyat, u Gelder ko'chasiga yetib bordi va grafinya de Restoni so'radi. Ejen hovlidan piyoda kirib kelgani, hatto ko'chadan ham foytun tovushi eshitilmagani uchun unga masxaraomuz

qarab turishgan xizmatkorlarning ko'ziga, nechog'liq achchig'i chiqib turgan bo'lsa ham, axiri bir kuni g'alaba qilishiga, ishonchi komil odam sifatida tik qaradi. Ejen hovliga kirib kelganida egasining juda boyvachchalik bilan kun kechirishidan va Parijda surish mumkin bo'lgan davri davroning hammasidan bahramand ekanligidan darak berib turuvchi chiroyli aravaga qo'shilgan otning yer tepinib, pishqirayotganini ko'rdi-yu, juda o'ksib ketdi. Xizmatkorlarning mensimay baqrayib turiShI yana ham yuragini siqib yubordi. Ejen o'zini bu yerda tamom begona his qildi-yu, xafa bo'ldi. O'z mo'ljali bo'yicha muttasil miyasiga quyilib kelayotgan ta'sirchan gaplar qayoqqadir uchdi ketdi: u aqlini yo'qotdi qo'ydi. Lakey<sup>1</sup> mehmon kelganini kirib grafinyaga ma'lum qilib chiqquncha u dahliz derazasining tokchasiga suyanib, og'irligini bir oyog'iga olib, beixtiyor hovliga qarab turdi. Vaqt juda sekin o'tardi, ahd qilgan ishidan aslo qaytmaydigan janubliklarga xos o'jarligi (qar qanday ishga qodir o'jarlik) bo'lmasa, ketib ham qolardi.

– Taqsir, – dedi unga qaytib chiqqan lakey, – grafinya o'zining xosxonasida va juda band, menga javob qilmadilar; ma'qul ko'rsangiz, mehmonxonaga o'tsangiz, u yerda boshqa mehmon ham bor.

Bir og'iz gap bilan o'z xo'jayinlari ustidan hukm chiqarib qo'ya qoladigan xizmatkorlarning bundayin yuksak mavqeidan hayron qolib, Rastinyak bu surbet lakeyga grafinyaning uyini besh qo'limdek bilaman deb o'zini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ldi, shekilli, hozirgina lakey chiqib kelgan eshikni dadillik bilan ochib, ichkari kirdi, lekin u bufetlar, lampalar va hammom sochig'ini isitadigan asbob turgan xonaga kirib qoldi; bu xonadan qorong'i yo'lakka va ichki zinaga chiqadigan eshik bor edi. Dahlizdan allakimning piqirlab kulgani eshitildi-yu, Ejen battar xijolat bo'ldi.

– Taqsir, mehmonxonaga marhamat qilib, mana bu yoqdan kiring, – dedi lakey soxta izzat-ikrom bilan, bu esa Ejenga yangi masxaradek tuyuldi.

Ejen Orqasiga shunday shoshilib qaytdiki, vannaga turtinib ketdi, shlyapasi sal bo'lmasa suv to'ldirib qo'yilgan vannaga

<sup>1</sup> Lakey – malay, xizmatkor.

tushib ketayozdi, lekin baxtiga, uni ushlab qoldi. Shu payt kichkinagina lampa bilan yoritib qo'yilgan uzun yo'lakning oxiridagi eshik ochildi, Rastinyak, grafinya de Resto bilan Gorio otaning ovozi eshitdi, keyin o'pish tovushi qulog'iga chalindi. Ejen yemakxonaga o'tdi, undan lakeyning kuzatuvida birinchi mehmonxonaga kirdi, mehmonxonaning bir derazasidan hovli ko'rinishiga ko'zi yetdi-yu, shu deraza oldida to'xtadi. U Gorio otani ko'rmoqchi, rostdan ham o'shami yo boshqa odammi ekanini aniq bilmog'chi edi. Ejenning yuragi gurs-gurs tepardi: esiga Votrenning dahshatli mulohazalari tushib qolgandi. Lakey Rastinyakni ikkinchi mehmonxona eshigi oldida kutib turardi, shu payt to'satdan o'sha eshikdan qaddi-qomati kelishgan bir yigit chiqib qoldi va diqqati oshib, dedi:

– Moris, men ketdim. Grafinyaga aytib qo'ying, uni yarim soatdan ko'proq kutdim.

Bu surbet, – aftidan, bu yerda uning xiyla huquqi baland ko'rinadi, – allaqanday italyancha bir qo'shiqni xirgoyi qilgan-cha, talabani aftini ko'rib olmoqchi va hovliga bir nazar tashlamoqchi bo'lib, Ejen turgan deraza tarafga qarab kelaverdi.

– Janob graf<sup>1</sup>, yana bir daqiqagina kutib tursangiz bo'lardi, grafinya ishlarini tugatdilar, – dedi Moris, tashqari dahlizga qaytib ketar ekan.

Xuddi shu payt Gorio ota orqa zinadan darvoza oldiga chiqdi. Chol darvoza tabaqalari lang ochiq turganiga va orden lentasi taqib olgan bir yigit chiroyli aravani hovliga burib kirib kelayotganiga mutlaqo e'tibor qilmay, hadeb qo'lidagi soyabonini ochishga urinardi. Gorio ota o'zini aravadan zo'rg'a chetga olib qoldi. Soyabondan hurkib ketgan ot aravani uy ostonasi tomon olib qochdi. Aravada o'tirgan yigit Gorio otani ko'rib o'girilib qaradi va uni tanib, ta'zim qilib salomlashdi, odatda, kuniga yaraydigan sudxo'rlar bilan yoki vaziyat taqozo qilgan paytda nomiga dog' tushib, yomonotliq bo'lgan odamlar bilan-gina shu taqlidda, o'lganining kundan salomlashadilar, keyin esa, salomlashganlari uchun yana o'zlari xijolat bo'lib yuradilar... Gorio ota oqko'ngillik bilan bosh irg'itib qo'ydi. Bu ishlarning hammasi ko'z ochib-yumguncha o'tib ketdi. Butun

<sup>1</sup> Graf (*nemicha*) – G'arbiy Yevropada va chor Rossiyasida oliy tabaqali dvoryanlarning knyazdan quyi, barondan yuqori unvoni va shu unvonga ega bo'lgan shaxs.

diqqat-e'tiborini shu voqeaga qarattan Ejen mehmonxonada o'zi yolg'iz emasligini sezmedi, shu payt to'satdan grafinya de Restoning ovozi eshitilib qoldi:

– Iye, Maksim, ketyapsizmi? – dedi u, bir oz xafa bo'lganday gina qilib.

Darvozadan kirib kelgan aravani grafinya sezmay qoldi. Rastinya shartta burilib qaradi-yu, grafinyaga ko'zi tushdi: u pushti lentali oq kashmiri<sup>1</sup> penyuar<sup>2</sup> kiyib olgan, ertalab bo'lgani uchun hamma pariqlik ayollar singari sochini nari-beri tarab qo'ygandi; undan xushbo'y atirlar hidi anqib turardi; hozirgina vannadan chiqqan bo'lsa kerak, qandaydir mayinlashgandek tuyulgan husnijamoli yana ham ochilib ketgandi; ko'zlari namlanibroq turardi. Yigitlarning ko'zi har narsani ko'radi, o'simlik o'z hayoti uchun zarur bo'lgan jamiki moddalarni havodan yig'ib ola bilganidek, yigitlar hissiyoti ayollarda yuz berib turgan hamma o'zgarishlarni mujassamlashtira oladi, grafinyaning qo'li ipakdek muloyimligini sezish uchun Ejen uning qo'lidan ushlab ko'rishi shart emasdi. Grafinyaning och pushti rangdagi ko'kragi oq penyuar ostidan ko'rinib turar, ko'ylagining yoqasi sal-pal ochilib ketganda yaqqol ko'rinib ketar, bunday paytlarda Ejenning ko'zlarini o'ziga rom qilib olardi. Grafinya korset<sup>3</sup> taqib yurishga muhtoj emasdi, uning xipcha belligi belbog'ining bog'lanishidan yaqqol ko'rinib turardi; chiroyli bo'yni odamlarning qalbida muhabbat o'tini yoqar, tungi bejirim tufli kiygan oyoqlari kishini o'ziga tortib turardi. Maksim grafinyaning qo'lini o'pgani o'z qo'luga olganidagina Ejen uni payqab qoldi, grafinyaning ko'zi esa Ejenga tushdi.

– E, sizmidingiz, janob Rastinyak, kelganingizda: juda xursandman, – dedi grafinya, bu gapini shunday bir ohangda aytdiki, aqlli odamlar bundan qanday xulosa chiqarish kerakligi darrov faqmlagan bo'lardilar.

<sup>1</sup> **Kashmiri** (*hindcha*: Kashmir viloyati nomidan) – 1) ayyor, hiylakor; sehr; 2) jundan yoki junga ip yo ipak aralashtirib to'qilgan mayin mato (**asarda shu ma'noda**).

<sup>2</sup> **Penyuar** (*fransuzcha*) – ayollarning yupqa matodan tikiladigan ertalabki ko'ylagi.

<sup>3</sup> **Korset** (*fransuzcha*: corset – mahkam ushlab, tutib turuvchi) 1) qaddi-qomatni chiroyli, raso tutish yoki davolash maqsadida taqiladigan, ko'krak qafasining pastki qismi va qorinni siqib, tortib turadigan maxsus belbog'; 2) umurtqa pog'onasi singan, qiyshaygan va kasallangan paytda uni kerakli holatda yoki qimirlatmay tutib turadigan ortopedik moslama.

De Tray chaqirilmagan mehmonni tezroq daf bo'lishga undash darajasida ma'nodor qilib, goh Ejenga, goh grafinyaga qarab qo'yardi. «Bu yana qanaqasi bo'ldi! Azizam, bu shov-vozni tezroq daf qilarsan deb umid qilaman!» Grafinya Anastazi Maksim deb atagan takabbur yigitning ko'z qarashlaridan mana shu ma'noni yaqqol o'qish mumkin edi, grafinya esa uning qar bir amrini so'zsiz bajo keltirishga shay turgandek yuziga tikilib qarardiki, bunday ma'nodor qarashlar xotin kishining ixtiyori va irodasidan tashqari butun sirlarini oshkor qilib tashlaydi.

Rastinyak: bu yigitni juda yomon ko'rib qoldi. Birinchi galda u Maksimning jingala qilib chiroyli, o'rilgan sarg'ish sochlariga qarab, o'zining sochlari qanchalik xunuk qilib taralganini tushundi. Buning ustiga Maksimning etigi shinam va ozoda edi; Ejenning etigini, qancha avaylaganiga qaramay, xiyla chang bosgandi. Nihoyat, anavi olifta Yigitning syurtuki qomatiga chippa yopishib turar, bundan u xushbichim ayollarga o'xshab ketardi, Ejen esa kuppa-kunduzi soat ikki yarimda qora frak kiyib kelgandi. Sharanta<sup>1</sup> bo'ylarida o'sgan aqli raso yigit novcha bo'yli, nozik qomatli, shahlo ko'z, oppoq tanli, hatto yetimesirlar haqidan ham toymaydigan anavi oliftaning kiyim-boshi o'zinikidan nechog'liq ustunlik qilishini anglab oldi.

Grafinya de Resto Rastinyakning javobini kutib o'tirmay, qanot paydo qilib uchgandek penyuarini hilpiratib, narigi mehmonxonaga chiqib ketdi: penyuari hilpirab, goh yoyilib, goh yig'ilib, uni xuddi kapalakka o'xshatib yubordi. Maksim uning ketidan yurdi. Joni hiqildog'iga kelgan Ejen ham Maksim bilan grafinya ketidan ergashdi... Uchalasi ham katta mehmonxona o'rtasida, kaminning ro'parasida to'xtashdi. Talaba o'zi yomon ko'rib qolgan Maksimga xalaqit qilayotganini juda yaxshi sezib turardi. Lekin bu xatti-harakatidan grafinyaning norozi bo'lishini aniq bilsa ham, u olifta yigitga xalaqit berishga ahd qildi. Ejen bu yigitni de Bosean xonimnikida balda ko'rganini esladi va shunda Maksimning grafinya de Restolar uyida qanday rol o'ynashini darrov fahmlab oldi; yo o'ta ahmoqlikka, yoki zo'r muvaffaqiyatga olib boradigan yoshlik g'ururi bilan u o'ziga o'zi mana

<sup>1</sup> *Sharanta* – Fransiyaning g'arbi janubidagi daryo. Bu daryo sohiliga Angulem shahri joylashgan bo'lib, romanda e'tirof etilishicha Rastinyaklar yer-mulki shu shahar yaqinida bo'lgan.

shu mening raqibim, uning ustidan g'alaba qilishim kerak! – deb so'z berdi.

Nodon yigitcha! Maksim de Tray o'zini haqorat qilganlarga qarshi duelda birinchi bo'lib o'q uzishini, raqibini shu tarzda o'ldirib yuborishini hali bilmas edi. Ejen tajribali ovchi edi, ammo nishonga olish uchun qo'yilgan narsalarning yigirma ikkitasidan hali yigirmatasini ham urolmagan edi.

Graf kamin oldidagi kichkina divanga o'tirib, qo'liga otashkurak oldi va shunday jahl bilan o'tni titkilay boshladiki, Anastazining go'zal chehrasi xiralashdi. Juvon Ejenga o'grilib savol ma'nosida sovuqqina nazar tashladi, uning bu nazarida: «Nega ketmayapsiz?» – degan savolni ochiq-oydin o'qisa bo'lardi, bunday paytlarda aqli raso odamlar darrov xayr-ma'zur qilish vaqtida aytiladigan gaplarni aytgan bo'lardilar.

Ejen ochiq chedra bilan dedi:

– Xonim, men sizni ko'rish uchun oshiqqanimning boisi ... – dedi-da, tutilib qoldi.

Eshik ochildi. To'satdan xonaga boya aravada kelgan bosh yalang janob kirib keldi, grafinya bilan salomlashmadi, talabaga qovog'ini solib qarab qo'ydi, Maksimga qo'l berdi va xuddi o'z ukasi bilan ko'rishgandek: «Salom», – deb qo'ydi, buni ko'rib, Rastinyak hang-mang bo'lib qoldi. Uch burchak bo'lib yashashning butun sir-asrorlari qishloqdan kelgan yigitlarga tamomila mavhumdir.

– Janob de Resto, – deb grafinya erini Ejenga tanitdi.

Ejen ikki bukilib unga ta'zim qildi.

– Janob de Rastinyak, – deb grafinya endi Ejenni graf de Restoga tanitdi, – Marsiyyaklar orqali vikontessa de Bosean xonimga qarindosh bo'ladilar, men janob de Rastinyak bilan vikontessaning oxirgi balida tanishish sharafiga muyassar bo'lgan edim.

Grafinya bu gaplarni juda dabdaba bilan, bizning uyimizda faqat yuksak mavqe odamlari bo'ladi deb ta'kidlashni yaxshi ko'radigan bekalarga xos g'urur bilan aytdi: uning – «Janob de Rastinyak Marsiyyaklar orqali vikontessa de Bosean xonimga qarindosh bo'ladilar», – degan gapi xuddi jodugarning sehridek ta'sir ko'rsatdi: grafning chiroyi ochildi va Ejenni:

– Siz bilan tanishganimdan g'oyat baxtiyorman, – deb



tabrikladi.

Hatto graf Maksim de Tray ham Rastinyakka xavotirlanib nazar tashladi-da, surbetligini tark qildi. Sehrli tayoqchanning kuchi bilan yolg'iz bir nom shunchalik katta ish qildiki, natijada boya Ejen yo'l-yo'lakay tayyorlab kelgan jamiki ta'sirchan, dabdabali gaplar yana miyasida paydo bo'ldi – ilhom bulog'i yana qaynab ketdi. Ejen uchun hali mavhum bo'lgan Parij zoda-gonlari muhitini qandaydir bir nur to'satdan yilt etib yoritib yu-borgandek bo'ldi. «Voqe uyi», Gorio ota uning xayolidan butunlay ko'tarilib ketdi.

– Marsiyyaklar avlodidan hech kim qolmagan deb yurardim, – dedi graf de Resto.

– To'g'ri, – deb javob qildi Ejen. – Otamning amakisi shevale<sup>1</sup> de Rastinyak Marsiyyaklar xonadonining eng oxirgi namoyandasi bo'lgan qizga uylangan edi. Ular faqat bitta qiz ko'rishdi, shu yolg'iz qizlari de Bosean xonimning ona tarafdan bobosi bo'lmish marshal<sup>2</sup> de Klaremboga turmushga chiqqan edi. Biz esa kenja o'g'ilning avlodimiz, kambag'allashib qolgan avlodimiz, ayniqsa vitse-admiral<sup>3</sup> bobomiz qirol xizmatida bo'lib, butun bor-budidan ajralgandan keyin kambag'allashib qolganmiz. Inqilobiy hukumat Hind kompaniyasini<sup>4</sup> tugatar ekan, uning bizdan qarzligini tan olmadi.

– Bobongiz 1789-yilgacha «Qasoskor»ga qo'mondonlik qilmaganmidi?

– Juda to'g'ri.

– Bo'lmasa u «Varvik»ka qo'mondonlik qilgan mening bobomni tanigan bo'lishi kerak.

Maksim grafinya de Restoga qarab, yelkasini qisib qo'y-

<sup>1</sup> **Shevale** – kavaler – feodal, Fransiyada dvoryanlar unvoni.

<sup>2</sup> **Marshal** (*fransuzcha*: marechal) – 1) Sho'rolar davrida alohida xizmatlari uchun oliy qo'mondonlik tarkibidagi kishilarga beriladigan, generallik unvonlaridan yuqori harbiy unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs; 2) ba'zi davlatlarda oliy harbiy unvon yoki amal va shu unvon yoki amalga ega bo'lgan shaxs.

<sup>3</sup> **Admiral** (*gollandcha*: admiraal yoki *arabcha*: amir ul-bahr – dengiz hokimi, qo'mondoni) – harbiy dengiz flotining oliy qo'mondonlik tarkibiga beriladigan harbiy unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs.

<sup>4</sup> **Hind kompaniyasi** – XVIII asrda Hindiston davlati va Zond arxipelagi bilan savdo qilish maqsadida tashkil etilgan; bu kompaniya Fransiya hukumatidan favqulodda imtiyozlar olgan va mustamlaka asorati quroli bo'lib xizmat qilgan.

di, bu bilan u: «Ering bu janob bilan flot<sup>1</sup> to'g'risida gap sotishga tushib ketsa, ishimiz pachava bo'ladi», – demoqchidek edi. Akastazi uning nima demoqchi bo'lganiga tushundi. Xotinlar hukmining nechog'liq kuchli bo'lishini juda yaxshi tushunadigan grafinya bundan foydalandi:

– Yuring, Maksim, sizdan bir narsani iltimos qilmoqchiman, – dedi u kulib turib. – Janoblar; biz sizlarga «Qasoskor» bilan «Varvik»da bahuzur sayohat qilishlaringizga imkoniyat yaratib bermoqchimiz.

Grafinya o'midan turdi, mug'ambirona tabassum bilan Maksimga imo qildi, shundan keyin ikkalasi ham grafinyaning xosxonasiga qarab yo'naldilar. Bu ikki Morganatik shaxs – fransuz tilida munosib ifodasi bo'lmagan ajoyib nemis iborasi, – eshik oldiga yetar-etmas, graf Ejen bilan qilayotgan suhbatini bo'lib, norozi ohangda dedi:

– Anastazi! Shu yerda qoling, azizam, o'zingiz yaxshi bilasizki...

– Hozir! Hozir! – dedi grafinya erining gapini bo'lib. – Men faqat bir daqiqaga chiqaman, xolos: Maksimga bir topshiriq bermoqchiman.

Grafinya darrov qaytib chiqdi. O'z bilganlaricha ish tutish niyatida, erlarining avzoyiga beparvo qaramaydigan hamma xotinlar erlarining qimmatli ishonchiga putur yetkazmaslik uchun, qay darajada haddan oshishni yaxshi biladilar va bo'lar-bo'lmas ikir-chikir narsalarni deb mojaro qilib yurmaydilar – shuning uchun grafinya ham graf de Restoning ovozidagi norozilik ohangini sezib, xosxonada ko'proq qolishni xavfli deb bildi. Bunga Ejen sababchi edi. O'zining butun vajohati bilan xunob bo'layotganini ifodalab, grafinya ko'zi bilan Maksimga talabani ko'rsatdi, shundan keyin de Tray grafga, uning xotiniga va Rastinyakka qarata turib, zaharxanda qildi:

– Juda muhim ishlar bilan band ko'rinasiz, sizlarga xalaqit berishni istamayman, yaxshi qolinglar, – u tez yurib chiqib ketdi.

– Ketmang, Maksim! – deb qichqirdi graf.

– Ovqat qilgani keling, – deb ilova qildi grafinya va Ejen

<sup>1</sup> Flot (*gollandcha*) – muayyan bir vazifa bajaradigan yoki ma'lum bir sohaga, hududga mansub kemalar majmui (**bu yerda shu ma'noda**); 2) harbiy-dengiz kemalarining katta qo'shilmasi.

bilan graf ikkalasini ikkinchi marta yolg'iz qoldirib, Maksim orqasidan oldingi mehmonxonaga chiqib ketdi, bu vaqt ichida graf talabani jo'natib yuborar degan umidda u yerda ikkalasi ancha turib qolishdi.

Rastinyak ularning narigi mehmonxonada goh kulishganiga, g'oaq gaplashganiga, goh jim qolishganiga quloq solib o'tirdi; ammo mug'ambir talaba grafinyani yana bir ko'rish, uning Gorio ota bilan qanday aloqasi borligini aniqlash maqsadida graf de Resto oldida goh o'zining so'zamolligini namoyish qildi, goh unga xushomadgo'ylik qildi, goh u bilan munozara qildi. Maksimga oshiqligi ochiq-oydin ko'rinib turgan, erini istagan ko'yga sola oladigan va qari vermishelchi bilan sirli munosabatda bo'lgan bu xotin Rastinyak uchun bamisoli bir jumboq edi. U asl parijlik bo'lgan bu xotinning ustidan to'la hukmron bo'lish maqsadida grafinyaning sirlarini bilib olmoqni astoydil niyat qilib o'tirardi.

– Anastazi! – deb graf yana xotinini chaqirdi.

– Xayr, mening sho'rlik Maksimim, – dedi grafinya yigitga, – itoat etishdan boshqa iloj yo'q. Kechqurungacha xayr...

– Nazi, – dedi Maksim, uning qulog'iga, – boya penyuaringiz sal-pal ochilib ketgan edi, anavi shovvozning ko'zlarida o't chaqnaq ketdi. Uni uyingizga boshqa qo'y massiz deb umid qilaman. U sizga muhabbat izhor qilib, obro'yingizni to'kib qo'yishi mumkin, agar shunday qilsa, siz uchun uni o'ldirishga majbur bo'laman.

– Esingizni yeb qo'yibsiz, Maksim! – dedi grafinya. – Aksincha, bunday talabachalar odamlarning ko'zini chalg'itish uchun juda yaxshi xizmat qiladi-da! Albatta, o'qing graf de Restoga yomonlab ko'rsatishga harakat qilaman, Maksim xaxolab kulib yubordi va grafinya kuzatuvida tashqari chiqdi. Grafinya deraza oldida to'xtab, Maksimning aravaga chiqqanini, otini tezlaganini, qamchi o'ynatganini qarab turdi. U ko'chaga chiqib, orqasidan darvoza yopilgandan keyin grafinya de Resto mehmonxonaga qaytib kirdi.

– Buni qarang-a, – dedi unga graf, – janob de Rastinyak oilasi turadigan mulk, Sharanta bo'yida, Verteysga yaqin yerda ekan. Janob Rastinyakning bobolari bilan mening bobom tanish bo'lishgan ekan.

– Tanish chiqib qolganimizdan juda xursandman, – dedi parishonlik bilan grafinya.

– Tanishligimiz siz o‘ylagandan ham ziyodroq, – dedi talaba, ovozi pasaytirib.

– Qanday qilib, – deb qiziqib so‘radi grafinya.

– Hozirgina men eshigim bilan ro‘parama-ro‘para bo‘lgan bir qo‘shnimning uyingizdan chiqib ketganini ko‘rdim, – dedi talaba, – biz u kishi bilan bir pansionda turamiz, men Gorio otani aytyapman.

Kamindagi o‘tni titkilab o‘tirgan graf «ota» so‘zi qo‘shib aytilgan bu ismni eshitib, qo‘li kuygandek otashkurakni itqitib yubordi-da, o‘rnidan turdi. .

– Muhtaram janob, siz «Janob Gorio» deyishingiz ham mumkin edi, – deb yubordi u.

Grafinya erining jahli chiqib ketganini sezib, oldin oqardi, keyin qizardi, aftidan, u nima qilishini bilmay qolgan edi; so‘ng go‘yo hech nima sodir bo‘lmagandek yasama beparvolik bilan dedi:

– Biz hech kimni uni sevganchalik yaxshi ko‘rmaymiz...

Ammo gapni oxiriga yetkazmay, miyasidan «lip» etib o‘tgan allaqanday fikr ta‘sirida ko‘zi to‘satdan fortepyanoga<sup>1</sup> tushib qoldi-da, gapni boshqa yoqqa burdi:

– Musiqani yaxshi ko‘rasizmi? – deb so‘radi u Rastin-yakdan.

– Juda ham, – deb javob qildi shoshib qolgan Ejen. U allaqanday xatoga yo‘l qo‘yganini his qilganidan qizarib ketdi.

– Ashula ham aytasizmi? – deb so‘radi grafinya fortepyano tomon borarkan, so‘ng klavishlarini hammasi ustidan pastqi «do» dan yuqorigi «fa» gacha qo‘lini yurgizib o‘tdi!

– Yo‘q, xonim.

Graf de Resto mehmonxonada u yoqdan-bu yoqqa kezib yurardi.

– Afsus, muvaffaqiyat qozonish uchun eng zarur vositadan mahrum. ekansiz. Caro, caro, no dubitare<sup>2</sup>!.. – deb kuyladi

<sup>1</sup> Fortepyano (*nemischa*: Fortepiano < *italyancha*: forte – qattiq + piano – asta, kuchsiz) – klavishlari barmaq bilan bosib chalinadigan torli musiqa asbobi (royal va pianining umumiy nomi).

<sup>2</sup> Caro, caro, no dubitare (*italyancha*) – azizim, shubhangizni bas qiling!

grafinya.

Gorio otaning nomini tilga olish bilan Ejen yana sehrli tayoqchani ishga solgan edi, ammo bu safar sehrli tayoqcha: «Vikontessa de Boseanning qarindoshi» jumlasidan hosil bo'lgan taassurotning aksini berdi. U nodir yodgorliklarni yig'ib yuradigan odamning uyiga kirishga ijozat olib, ichkari kirgan va tasodifan turtinib ketgan, uch-to'rtta haykalchaning omonatgina yelimlab qo'yilgan kallasini uchirib sindirgan odamning ahvoriga tushib qolgandi. Shuning uchun Ejen: «Yer yorilsa-yu, yerga kirib ketsam», – deb qattiq xijolat bo'ldi. Grafinya de Restoning chehrasi iltifotsiz va e'tiborsiz qiyofaga kirdi, beparvo boquvchi ko'zlarini esa baxti qora talabdan chetga olib qochardi.

– Xonim, – dedi u, – graf de Restoga aytadigan gapingiz bo'lsa kerak. shuning uchun mening sizga bo'lgan samimiy ehtiromimni qabul qilsangiz-u, menga...

Grafinya qo'l ishorasi bilan Ejenning so'zini bo'ldi va shoshib-pishib gapira boshladi:

– Qachon kelsangiz meni ham, graf de Restoni ham benihoya xursand qilgan bo'lasiz.

Ejen er-xotin ikkalasiga chuqur ta'zim qilib, xonadan chiqdi; Ejenning aslo ovora bo'lmang, deb aytganiga qaramay, graf de Resto ostonagacha kuzatib qo'ydi,

So'ng graf:

– Janob de Rastinyak qachon kelmasin men ham, grafinya ham uyda yo'qmiz, – deb Morisga tayinladi.

Ejen eshik oldiga chiqib qarasa, yomg'ir yog'ayotgan ekan.

«Attang, biron nojo'ya ish qilib qo'ydim, shekilli, lekin nima qilganimni ham, uning mohiyatini ham tushunolmayapman. – deb o'yladi Ejen, – buning ustiga ustak, endi frakim bilan shlyapam ham rasvo bo'ladigan bo'ldi, Bundan ko'ra hujramda tinchgina o'tirib, qanday qilsam, baodob sud chinovniki bo'lar-kinman deb o'ylab, huquqshunoslik darsini tahlil qilsam bo'lmasmidi?.. Zodagonlar davrasiga aralashishni menga kim qo'ygan edi! U jamiyat ahli bilan durustroq aloqada bo'lish uchun olamjahon matohlaring bo'lishi kerak: tagingda shaxsiy

kabriolet<sup>1</sup>, oyog'ingda yarqiragan etik, tilla zanjirli soat va shunga o'xshash zaruriy ashyolar, chunonchi, ertalab kiyish uchun bahosi olti frank turadigan yumshoq charmdan tikilgan qora qulqop, kechqurunga esa, albatta, sariq qo'lqop kerak. Eh, Gorio ota, qari firibgar!»

U darvozadan chiqqanda, hozirgina nikoh o'qitgan kelin-kuyovni uyiga keltirib qo'ygan va, shubhasizki, bir qatnashda xo'jayinga bildirmay iloji. boricha ko'proq odam tashib, ko'proq pul ishlab olish dardida bo'lgan yollanma foytunning kучeri RastinYakni ko'rib qoldi; kучer yigitning egniga frak, oq nimcha, sariq qo'lqop va toza etik kiyib olganini, ammo qo'lida soyaboni yo'qligini payqab, uni imlab foytungga taklif qildi. Ejen alamidan o'zini qayerga urishni bilmay xunob edi, bunday alam, odatda, yosh yigitlarni o'zi qulab borayotgan jarga yana ham ko'proq itaradi, iztirobga qolgan yigitcha ham najotni shu yoqdan topsam kerak deb, jarga qarab qulayveradi, Kucherning taklifiga u bosh irg'itib roziligini bildirdi va karetaga chiqdi; karexada sochilib yotgan oppoq apelsin gullari bilan zar ip bo'laklari bu karexada hozirgina kelin-kuyov kelib tushganidan dalolat berib turardi.

– Buyursinlar, qayerga boramiz? – deb so'radi kучer, oq qo'lqopini yechib.

«Padariga la'nat, – dedi Ejen, qat'iy qarorga kelib, – sharmanda bo'lishga bo'ladigan ekanman, nafi chiqadigan bo'lsinda!» So'ng:

– De Boseanlarnikiga! – dedi u baland ovoz bilan.

– Qaysi birinikiga? – deb so'radi kучer.

Bu g'oyat muhim savol Ejenni dovdiratib qo'ydi. Hali juda g'o'r bu olifta yigit de Boseanlarning ikkita hovlisi borligini bilmas, qarindoshlarining bu qadar ko'pligidan mutlaqo xabari yo'q edi; ammo u qarindoshlarning ham bu bilan uch pullik ishi yo'q edi.

– De Boseannikiga, ko'chasi...

– Gronel ko'chasida, – deb gapni ilib ketdi kучer, bosh chayqab, – yana graf de Bosean bilan markiz de Bosean(larning

<sup>1</sup> **Kabriolet** (*fransuzcha*) – 1) yengil avtomobilning usti tashlab-yig'ib qo'yiladigan kuzovi. Bunday kuzovli avtomobillar issiq iqlimli joylarda ishlatiladi; 2) bir ot qo'shiladigan 2 g'ildirakli yengil arava (bu yerda shu ma'noda).

ham uylari bor – Sen-Dominik ko‘chasida turishadi, – deb qo‘shib qo‘ydi u pillapoyani ko‘tarib qo‘yarkan.

– Bilaman, – dedi quruqqina qilib Ejen.

«Bugun meni hamma masxara qilyapti! – dedi u o‘ziga o‘zi, shlyapasini ro‘parasidagi o‘rindiqqa uloqtirib. – Bu sho‘xliklarim menga qimmat tushadigan bo‘ldi. Ammo men, loaqal, qarindoshim hisoblanmish xonimnikiga tamomila zodagonlardek tashrif buyuraman. Shu qari, yaramas Gorio otani deb, o‘n frankcha puldan ajraldim! Yaxshisi, bugungi sarguzashtlarimni de Bosean xonimga so‘zlab beray, – zora bu hangomalar bilan uni kuldirsam! Turgan gapki, u, albatta, anavi kaltadum qari kalamush bilan sohibjamol grafinya o‘rtasidagi jinoiy munosabatlar sirini biladi. O‘sha axloqsiz xotinni deb boshimni devorga urib yotganimdan ko‘ra, qarindoshimga yoqqanim ma‘qulroq, keyin, u xotin o‘ziyam xiyla qimmat turadigan ko‘rinadi. Go‘zal vikontessaning yolg‘iz ismiki shunday zo‘r kuchga ega ekan, – unda uning o‘zi qanday ekan? Oliy tabaqalar ta‘sir doirasiga murojaat qilamiz. Osilsang, baland dorga osilki – oyog‘ing yerga tegmasin!»

Rastinyak o‘ziga o‘zi gapirib borarkan, miyasidan ming xil xayol o‘tdi. U yomg‘irga tikilib o‘tirarkan, o‘zini bir oz bosib oldi va ancha dadillashdi.

«Oxirgi ikki yuz so‘m pulimdan ajralsam ham, baribir, bekorga ajralmayman, botinkamni, frak va shlyapamni yomg‘irdan asrab qolaman», – derdi Ejen o‘ziga o‘zi. Kucherning: «Ochinglar darvozani, baraka topkurlar!» – deb qichqirgani ko‘nglini tag‘in ham ko‘tarib yubordi. Zarrin hoshiyali qizil kamzul kiygan shveysar<sup>1</sup> darvozaning tabaqasini itarib yubordi, darvoza g‘iyq yetib ochilib ketdi... va Rastinyak o‘zi tushgan karetaning ichkari kirganini, hovlini aylanib kelib, usti soyabon ostona oldida to‘xtaganini huzur qilib kuzatdi. Qizil hoshiyali dag‘al zangori chopon kiygan kucher arava pillapoyasini qo‘yib bergani pastga tushdi. Ejen karetdan tusha turib, ustunlar orqasidan allakimlarning piqillab kulganini eshitib qoldi. Uchto‘rtta lakey meshchanlar to‘yiga xizmat qiladigan foytunni mazah qilib kulishayotgan yedi. Talaba o‘zi tushib kelgan beso‘na-

<sup>1</sup> Shveysar – mashhur restoran, mehmonxona, muzey va boshqa shunga o‘xshash maishiy joylarda mehmonlarni kutib olish va kuzatib qo‘yish uchun ma‘sul xodim.

qay shalldiroq aravani Parijdagi eng chiroyli karetalardan hisoblangan ikki o‘rinli ajoyib arava bilan solishtirib ko‘rgandan keyin lakeylarning nimadan kulayotganiga tushundi: u karetaga qo‘shilgan, quloqlariga gullar qadalgan ajoyib ikki ot suvluq chaynab, o‘ynoqlab turardi; upa-elik surib, yaxshi galstuk taqib olgan kucher otlarning jilovini mahkam tortib turardi. Hali, Shosse d’Anten ko‘chasida, grafinya de Restoning hovlisida yigirma olti yashar yigitning chiroyli kabrioleti turgandi; Sen-Jermen dahasida esa dongdor amaldorning o‘ttiz ming frankka ham topib bo‘lmaydigan ajoyib kareyasi egasini kutib turardi.

«Bu kim bo‘ldiykin? – deb o‘yladi Ejen, u Parijda biron odam band qilmagan ayol, albatta, kamdan kam bo‘lishini, bundayin malikalarni qo‘lga kiritish uchun quruq fidoyilikning o‘zi kamlik qilishini kechikibroq tushunib qoldi. – Yo tavba! Hoynahoy bu qarindoshimning ham o‘z Maksimi bo‘lsa kerak».

Ejen yuragini hovuchlab ostonaga ko‘tarildi. U eshik oldiga yetib borishi bilan oynaband eshik ochilib ketdi; qarshisida, qashlaganda g‘o‘dayib turadigan eshaklarni eslatuvchi takabbur lakeylar turishardi. Ejen ishtirok etgan dabdabali bal de Boseanlar uyining pastki qavatidagi katta mehmonxonalarda bo‘lgach edi. Uyga taklif qilingan payt bilan balga borgan vaqt orasida u vikontessa de Bosean huzurida bo‘la olmagan, qarindoshi vikontessa de Boseanning xoxsonalarini hali ko‘rmagandi; Ejen bu ma’luma va mashhura ayolning ichki dunyosi va turmush tarzini ifodalovchi shaxsiy nafosatlari bilan endi tanishuvi lozim edi. Bu nafosat olamining yana bir qiziqarli tomoni shunda ediki – grafinya de Restoning mehmonxonasi bu xonalarni o‘zaro muqoyasa qilib ko‘rish imkoniyatini berardi. Soat to‘rt yarimdan boshlab vikontessa mehmon qabul qila boshlardi. Qarindosh Ejen besh daqiqa oldin kelganda ham vikontessa uni qabul qilmagan bo‘lardi. Parij urf-odatlarining hech bir farqiga bora olmaydigan Ejenni gullar bilan bezatilgan, panjarasiga zarhal berilgan va qizil poyandoz gilamlar solingan keng, oq zinadan de Bosean xonim huzuriga boshlab kirdilar; Ejen Parij mehmonxonalarida har kuni kechqurun shivirlab aytiladigan, doim o‘zgarib turadigan qissalardan biri bo‘lgan de Bosean xonimning pinhona tarjimayi holini bilmasdi.

Vikontessa uch yildan beri Portugaliyaning ma’lum va



mashhur eng badavlat a'yonlaridan bo'lgan markiz d'Ajuda-Pinto bilan aloqada edi. Bu g'oyatda to'kis va dilbar aloqa ikkovlari uchun shunday ajib joziba baxsh etar ediki, ular uchun uchinchi shaxs tamomila ortiqcha edi. Shuning uchun vikont de Boseanning o'zi ham bu g'ayri qonuniy aloqani istar-istamas tan olib, tevarak-atrofidagilarga birinchi bo'lib namuna ko'rsatdi. Do'stlik aloqalari bog'langan dastlabki paytlarda vikontessa bilan ko'rishish maqsadida kelgan har bir kishi kunduzi soat ikkilarda bu yerda doim markiz d'Ajuda-Pintoni uchratardi. De Bosean xonim tashrif buyuruvchilarni qabul qilmay iloji yo'q edi, albatta, bu odobsizlik bo'lardi, ammo mehmonlarini u shunday sovuq qarshi olar va shiftga shunday tikilib qarab o'tirardiki, har bir mehmon ham o'zining bu yerda qanchalik ortiqcha odam ekanligini darrov payqab olardi. Soat ikki bilan to'rt o'rtasida mehmon kutish de Bosean xonimga malol kelishini butun Parij bilgandan keyin, xonim bu vaqtni yolg'iz o'tkazadigan bo'ldi. Janob de Bosean va markiz d'Ajuda-Pinto bilan u Opera yoki Bufonlar teatriga<sup>1</sup> borardi, ammo janob de Bosean o'zini qanday tutishni juda yaxshi bilardi. Portugaliyalik bilan xotinini yonmayon o'tqazib qo'yib, ikkalasini yolg'iz tashlab chiqib ketardi. Endi esa markiz d'Ajuda-Pinto mademuazel de Roshfidga uylanmoqchi. Ammo oliy tabaqa zodagonlar davrasida bu bo'lg'usi nikohdan bexabar birdan bir odam de Bosean xonimning o'zi edi. Xonimning yaqin dugonalaridan ba'zilari unga bu to'g'rida sha'ma ham qilib ko'rishdi. Ammo xonim, bular ichqoralik qilib, mening baxtinga chang solishmoqchi deb o'ylab, kulib qo'ya qoldi. Vaholanki, yaqin orada nikoh to'yi ovoza qilinishi kerak edi. Portugaliyalik xushro'y yigit o'zining uylanayotganini vikontessaga aytgani kelgan edi-yu, ammo bevafoqlik qilganini ochiq aytishga yuragi betlamadi. Nima uchun? Chunki ayol kishiga bunday og'ir gapni aytishdan musibatliroq narsa yo'q dunyoda! Ba'zi erkaklar uchun, ikki soat muttasil ko'z yosh to'kib, oh-voh qilganidan keyin, hozir o'lib qoladigandek o'zini tashlab yuboradigan va hidlash uchun hushiga keltiradigan dori so'raydigan ayol oldida turgandan ko'ra yakkama-yakka olishuvda hademay ko'ksiga shamshirini sanchib olishi muqarrar

<sup>1</sup> **Bufonlar** - Parijdagi Komik opera teatri, odatda, shu nom bilan yuritilardi; bu teatr 1807-yildan boshlab Italiya komediya teatri bilan qo'shilib ketgan.

bo'lgan o'zga erkak qarshisida turish osonroq bo'ladi.

Ejen kelganda, markiz d'Ajuda-Pinto xuddi oyog'i kuygan tovuqday pitirlab turgan va de Bosean xonim bu yangilikni hozir eshitmay qo'ya qolsin, yaxshisi, unga bu to'g'rida yozib yuborarman deb o'ylab, ketishga shaylanayotgan edi: bunday og'ir zarbani og'zaki suhbat vaqtida aytgandan, maktub orqali ma'lum qilgan osonroq. Vikontessaning lakeyi Rastinyak kelganini xabar qilganda, markiz d'Ajuda-Pinto xursand bo'lganidan bir seskanib ketdi. Shuni ham aytish kerakki, sevuvchi ayolning, biron narsadan shubhalangan paytidagi mohirligi, uning oshig'iga lazzat baxsh etishidagi xilma-xil usullarga boy mahoratidan o'n chandon oshib ketadi. Yaxshi ko'rgan odamidan ajrab qolish xavfi tug'ilsa, bunday ayol oshig'ining biron ishorasi ma'nosini, Vergiliyning<sup>1</sup> ta'rif qilishi bo'yicha, juda uzoqdan turib, biyaning hidini sezgan otdan ko'ra ham ziyraklik bilan sezib oladi. Imoningiz komil bo'laversinki, de Bosean xonim markizdagi beixtiyor, sezilar-sezilmas, ammo samimiy bo'lgani uchun qo'rqinchli bu ichki titroqni sezib qoldi. Ejen Parijning bir xususiyatini bilmas edi: kimning oldiga kirmang, bundan oldin shu oila do'stlaridan erining, xotini, hatto bolalarining ham hayoti to'g'risida bor gaplarni surishtirib bilib olish kerak, aks holda shunday o'sal bo'lasizki, bitta zambil bilan ikkita hammol zarur bo'lib qoladi yoki polyaklarning ta'rifi bilan aytganda, o'sal bo'lib qolgan joyingizdan olib chiqib ketish uchun aravangizga beshta ho'kiz qo'shishga majbur bo'lasiz. Modomiki, bunday ta'rif Fransiyada yo'q ekan, bunga sabab, shubhasiz, shuki, har qanday g'iybat ham zudlik bilan keng tarqab ketadigan mamlakatda unday iboraning vujudga kelishi o'zi mumkin emas. Faqat Ejen, grafinya de Restonikida bir marta o'sal bo'lgan va bunday og'ir ahvoldan xalos bo'lish uchun aravasiga beshta ho'kiz qo'shishga ham de Resto xonim imkon bermagak Ejengina o'sha yerdan to'ppa-to'g'ri de Bosean xonim oldiga kelib, yana ho'kizlarga muhtoj bo'lishi mumkin edi. Lekin u birinchi safar janob de Tray bilan grafinya de Restoga juda Malol keladigan ish qilgan bo'lsa, bu yerda, hozir markiz

<sup>1</sup> Publiy Maron Vergiliy (miloddan avvalgi 70 - miloddan avvalgi 19) - Rim shoiri. Rim respublikasi inqirozining guvohi bo'lgan. Asarlari: «Bukolikalar» («Cho'pon qo'shiqlari») va «Georgikalar», «Eneyda».

d'Ajuda-Pintoni mushkul ahvoldan xalos etgandi.

Ejen uncha katta bo'lmagan, kulrang bilan pushti qorishmasida bo'yalgan, bezaklik, ammo bezaklari oddiy, chiroyli jihozlardan iborat mehmonxonaga kirib kelar ekan, portugaliyalik:

– Salomat qoling, – dedi-yu, eshik tarafga otildi

– Faqat kechqurungacha, a? – deb so'radi de Bosean xonim, yolg'iz boshini burib, markizning yuziga tikilib qararkan.

– Bufonlar teatriga biz bilan birga bormaysizmi hali?

– Borolmayman, – deb javob qildi u eshik tutqichini ushlab.

De Bosean xonim o'rnidan turdi va Rastinyakka aslo Narvo qilmay, markizni o'z yoniga chaqirdi; Rastinyak esa mehmonxonadagi jihozlarni ko'rib, arab ertaklarida tasvirlangan dabdabali hayotning bo'lganligiga ishonch hosil qilar darajada hayron qolib va uni pisand qilmagan ayol oldida o'zini qayoqqa urishini bilmay, hang-mang bo'lib turardi.

Vikontessa ko'rsatkich barmog'ini ko'tarib, chiroyli bir harakat bilan uni tushirarkan, o'z yonidan markizga joy ko'rsatdi. Bu harakatda ehtiroslarning shunday amirona kuchi mavjud ediki, markiz eshik tutqichini qo'yib, qaytib keldi. Ejen unga hasad qilib qarab turardi.

«Mana u, haligi kichkina karetaning egasi. Parijlik ayolning e'tiboriga muyassar bo'lish uchun nahotki suvluq chaynagan otlar-u, zar uqali kamzul kiygan lakeylar va tog'-tog' oltin zarur bo'lsa?»

Shayton zeb-ziynatni ko'z-ko'z qilib, uning yuragini jarohatladi, boy bo'lish orzusi qaynab toshdi, oltinga bo'lgan tashnalikdan tomog'i qurib qoldi. Ejenning bor-yo'g'i bir yuz o'ttiz frank puli bor edi, uni ham uch oyga yetkazish kerak edi. Otasi, onasi, aka-uka va singillari, xolasi – butun oila bir oyda faqat ikki yuz frank bilan tirikchilik qilishlari kerak edi. O'zining hozirgi ahvoli bilan erishmoqchi bo'lgan maqsadini shu tarzda, ko'z ochib yumguncha solishtirib ko'rdi-yu, battar dovdirab 1 qoldi.

– Nega endi italyanlar teatriga borolmaysiz? – deb so'radi vikontessa kulib turib.

– Ish ko'p! Bugun ingliz elchisidikida ziyofatda bo'laman.

– Tashlang ishlarni!

Odam aldov yo'liga bir kirgandan keyin, yolg'onlarni biri ustiga birini qalab tashlayveradi. Markiz d'Ajuda kulib yubordi-da, dedi:

– Shuni talab qilasizmi?

– Ha!

– Men aynan mana shuni eshitmoqchi edim, – deb javob qildi markiz va unga shunday bir otashin nazar tashladiki, bu nigohi boshqa har qanday ayolning ko'nglini tichlantirgan bo'lardi. Markiz vikontessaning qo'lidan o'pib, chiqib ketdi.

De Bosean xonim nihoyat, menga e'tibor qilar degan umidda Ejen qo'li bilan sochini siladi-da, bukilib ta'zim qildi. Bosean xonim esa irg'ib o'rmidan turib, galereyaga otildi, chopganicha deraza oldiga kelib d'Ajudaning ekipajga chiqayotganiga qarab turdi, u darvozabon lakeyga qayerga borishini aytganini qulog'ining uchi bilan ilib oldi, ketidan lakey ham kucherga:

– Janob de Roshfidnikiga! – deb uning buyrug'ini takrorlaganini eshitdi.

Bu so'zlar ham, markizning karetaga naqadar tezlik bilan sakrab chiqib o'tirishi ham, vikontessa uchun chaqmoqning chaqnashi va momaqaldiroqning guldurashidek ta'sir ko'rsatdi; uni o'lim dahshati qamrab oldi. Zodagonlar davrasida bundan ham mudhishroq falokat bo'lishi mumkin emas. Vikontessa yotoqxonasiga kirdi, stoli oldiga o'tirib, chiroyli bir varaq qog'ozni oldiga surdi va quyidagi maktubni yozdi:

«Modomiki, siz ingliz elchixonasida emas, balki Roshfidlarnikida ovqat qilar ekansiz, buning boisini menga izohlab berishingiz kerak. Kutaman».

So'ng u qo'li qaltiraganidan bir oz qiyshiq-qing'ir bo'lib chiqqan harflardan uch-to'rttasini to'g'rilab, «K» deb imzo chekdi-da, (bu harf «Burgundli Klara» degan ma'noni bildirardi) qo'ng'iroq chaldi.

– Jak, – dedi u, huzuriga kirgan lakeyga, – soat yetti yarimda janob de Roshfidnikiga borasiz-da, markiz d'Ajuda shu yordami deb so'raysiz. Agar u o'sha yerda bo'lsa, mana shu xatni unga berib qo'yinglar deb iltimos qilasiz-u, javobini kutib o'tirmaysiz. Agarda markiz u yerda yo'q bo'lsa, orqangizga qaytib, xatni menga olib kelib berasiz.

– Vikontessani mehmonxonada kutib turishibdi,  
– Ha-ya, aytganday! – dedi vikontessa, eshikni ochar –  
ekan.

Ejen o'zini juda noqulay seza boshlagan edi; baxtiga, vikontessa, nihoyat kirib keldi va shunday hayajon bilan gapirdiki, Ejenning yuragi achishib ketdi.

– Ma'zur ko'rasiz, men ikki enli xat yozib yuborishim lozim bo'lib qoldi, endi tamomila sizning ixtiyoringizdaman.

Vikontessa xayoli boshqa joyda bo'lgani uchun nimalar deyaotganini anglamasdi. «D'Ajuda mademuazel de Roshfidga uylanmoqchi. Lekin u band-ku! Shu bugun kechqurunoq bu nikoh buziladi yoki mek... Ha! Ertaga bu to'g'rida gap ham bo'lishi mumkin emas!»

– Xonim... – deb Rastinyak gap boshlagan edi, vikontessa:

– Nima? – deb so'rab qoldi va unga shunday takabburona nazar tashladiki, bechoraning yuragi «shuv» etib ketdi.

Ejen bu «nima» degan savolning ma'nosiga tushundi. Keyingi uch soat ichida u ko'p narsalarga aqli yetib, hushyor bo'lib qolgandi.

– Xonim, – deb boshqatdan gap boshladi Ejen, qizarib; u birpas iymanib Turdi-yu, ammo o'zini qo'lga olib, gapini davom ettirdi: -- Kechiring meni; himoyatingizga shunday mushtoq-manki, menga jindakkina qarindoshlik qilib yuborsangiz g'oyat xursand qilgan bo'lur edingiz.

De Bosean xonim g'amginlik bilan jilmayib qo'ydi: uning fig'oni ortib, osmonida endi momaqaldiraq gulduray boshlagan edi.

– Oilaviy ahvolimning qay tarzda ekanligini bilsangiz edi, – deb davom etdi Ejen, – menga ertaklarda o'z himoyasi ostidagi odamlarning boshidan dar qanday falokatni bartaraf qilib turadigan afsonaviy pari vazifasini bajarishdan bosh tortmagan bo'lardingiz.

– Xo'p, yaxshi, qarindosh, – deb javob qildi xonim kulib, – sizga qanday foydam tegishi mumkin?

– Qaydam! Uzoqlashib ketib, qarindoshligimiz uzilib qolay degan bir paytda, yana shu qarindoshligimiz orqasida o'z kishingiz bo'lib turishning o'zi menga katta baxt. Meni uyaltirib yubordingiz, aytmoqchi bo'lib turgan gapimni ham unutib qo'y-

dim. Men Parijda tanigan birdan bir odam sizsiz. Siz bilan maslahatlashib ko'rishni juda ham istardim, qanotingiz ostidan o'ziga joy topishni orzu qilgan va siz uchun o'limga ham tayyor turgan mendek ojiz bir bola bechorani himoyatingiz ostiga olsangiz deb iltimos qilmoqchi edim.

– Men uchun bitta-yarimtani o'ldira olarmidingiz?

– Istasangiz, ikkitasini ham o'ldiraman.

– Yosh bola-ey! Ha, rostdan ham yosh bola ekansiz, – dedi u ko'z yoshlarini zo'rg'a tiyib. – Mana, siz astoydil sevishga qodir bo'lsangiz kerak!

– O, bo'lmasam-chi! – deb yubordi u bosh irg'itib.

Mana shu javobi uchun vikontessa shuhratparast talabani dardiga quloq sola boshladi. Janublik yigit birinchi marta o'z manfaatini o'ylab ish tuta boshladi. Shu vaqt ichida, ya'ni grafinya de Restoning zangori xosxonasi bilan de Bosean xonimning pushti mehmonxonasida o'tkazgan bir necha soat ichida u Parij huquq ilmining uch yillik sabog'ini bosib o'tgan edi, bu huquq ilmi garchi rasmiy bo'lmasa ham, zodagonlarning oliy tabaqasi orasida huquq fanlari majmuasi vazifasini bajarardi, uni yaxshi o'zlashtirib olinsa va ustalik bilan foydalanilsa, amalda istagan narsani qo'lga kiritish mumkin edi.

– Ha, aytganday! – dedi Ejen. – Siz bergan balda menga grafinya de Resto yoqib qolgan edi, shu bugun kunduzi unikida bo'ldim.

– Albatta, unga juda xalaqit bergan bo'lsangiz kerak, shundaymi, – dedi jilmayib turib de Bosean xonim.

– Men juda nodon odamman, o'zingiz yordam bermasangiz, hamma mendan yuz o'giradi. Nazarimda, Parijda yosh, chiroyli, xushbichim, badavlat va ayni vaqtda hech kim band qilmagan ayolni uchratish qiyinga o'xshaydi, menga esa xuddi ana shunday bir ayol zarurki, u menga hayot kechirish sabog'ini o'rgatsin, bunday ilmni faqat siz ayollar do'ndirib o'qita olasiz. Aks holda qayerga bormayin, allaqanday graf de Tray deganlarga duch kelaveraman. Men hozir u yerda qanday nodonlik qilib qo'ydim ekan, shuni yechib bersangiz deb iltimos bilan kelgan edim. Mek u yerda bir chol to'g'risida gap ochib qolgan edim, uning ismi...

– Gersoginya de Lanje! – deb xabar berib qoldi Jak,

Ejenning gapini bo'lib.

Talaba juda ta'bi tirriq bo'lib ketganini bildirib, basharasini burishtirdi. {

– Agar muvaffaqiyat qozonaman desangiz, – dedi ovozi pasaytirib vikontessa, – birinchi galda, ko'nglingizdagi hamma gapki bu qadar ochiq aytavermang. – O! Keling! Salom, azizam! – dedi u o'midan turib, gersoginyaning qarshisiga yurar ekan; keyin mehmonining qo'lini shunday sidqidillik bilan siqishar, xuddi tug'ishgan singlisini qarshi olyapti deb o'ylash mumkin edi; Gersoginya ham unga eng latif ehtirom bilan javob qildi.

«Ikkalasi juda qalin do'st ekan, – deb o'yladi Rastinyak. – Endi mening homiylarim ikkita bo'ladi; ularning didi ham bir xil bo'lsa kerak, shuning uchun, ikkinchisi ham meni o'z qanoti ostiga olishi muqarrar».

– Azizam Antuanetta, qanday yoqimli shamollar uchirdi sizni? – deb so'radi de Bosean xonim.

– Markiz d'Ajuda-Pinto Roshfidlarnikiga kirib ketayotganini ko'rib, o'zingizni yolg'iz uchratsam kerak deb o'ylagan edim, xolos.

Gersoginya bu mash'um xabarni aytayotganida, de Bosean Xonim labini tishlab qolmadi, qizarib ketmadi, nigohlari ham o'zgarmadi, bil'aks, chehrasi hatto yorishib ketgandek ham bo'ldi.

– Sizning band ekanligingizni bilganimda... – deb qo'shimcha qildi gersoginya, Ejenga qayrilib qarab.

– Bu yigit mening qarindoshim, janob Ejen de Rastinyak, – dedi vikontessa. – Monrivo to'g'risida hech narsa bilasizmi? – deb so'radi u. – Kecha Serizi hech qayerda ko'rinmadi degan edi, bugun siznikiga borgani yo'qmi?

Bu zaharli savol gersoginyaning qalbiga nishtardek sanchildi: u general Monrivoning ishqida esini yo'qotib qo'ygan edi, ammo general uni tashlab ketibdi degan mish-mishlar tarqalgan edi.

– Kecha u Yelisey saroyida edi, – deb javob berdi gersoginya, cho'g'dek qizarib ketib.

– Navbatchilik qilgan bo'lsa kerak-da! – deb taxminini bildirdi vikontessa.

– Klara, – deb o'z navbatida ko'zlaridan o't sachratib gap

boshladi ichi qoralik bilan gersoginya, – ertaga markiz d’Ajuda-Pinto bilan mademuazel de Roshfidning to‘yi to‘g‘risidagi xabar e‘lon qilinishini bilarsiz, albatta?

Zarba juda kuchli edi. Vikontessa oppoq oqarib ketdi, ammo kulib turib javob qildi:

– Ahmoq odamlar o‘zini shunday g‘iybatlar bilan ovutib yurishibdi. Markiz d’Ajuda Portugaliyadagi eng mashhur xonadonlardan birining ismini Roshfidlarga berib esini yebdimi? Roshfidlar kechagina yuzaga chiqqan dvoryanlar.

– To‘g‘riku-ya, ammo Bertaning yillik daromadi, aytishlariga qaraganda, ikki yuz ming livr bo‘larmish.

– Markiz d’Ajuda bunday maqsadni ko‘zda tutib uylanadiganlardan emas, u shunday ham boy odam.

– Lekin, azizam, mademuazel de Roshfidning o‘zi ham juda chiroyli qiz, axir.

– Shunday deng-a!

– Xullas, bugun u Roshfidlarnikida ovqat qiladi nikoh shartnomasi allaqachon imzolangan. Bundan shunchalik bexabarligingizni ko‘rib, juda hayron bo‘lib turibman.

– Xo‘sh, qanday tentaklik qilib qo‘ydim deyayotgan edingiz, muhtaram janob? – deb Ejendan so‘radi De Bosean xonim. – Buni qarang-ki, azizam Antuanetta, mana bu go‘dak zodagonlar davrasiga endi qadam qo‘yib kirib kelyapti, siz bilan mening gaplarimdan hech narsa tushungani yo‘q. Unga bir muruvvat qilsangiz: gaplarimizni ertagacha qoldirsak. Ertaga, shubhasiz, hamma gaplar ochiq-oydin ma‘lum qilinadi, ana o‘shandan keyin siz ham bu to‘g‘rida bahuzur, ishonch bilan ovoza qilaverasiz...

Gersoginya Ejenga shunday takabburona nazar tashladiki, bunday mensimagan nazar bilan bir qarashning o‘zida odamzodni boshdan oyoq ezib-yanchib, yo‘q qilib yuborish mumkin. Ikkala xonimning do‘stona tarzda gaplashayotgan bo‘lishlariga qaramay, bir-birlarini chaqib-chaqib olayotganlarini payqashga aqli yetgan Ejen bunday deb javob qildi:

– Men grafinya de Restoning qalbiga bilmay turib xanjar sanchib qo‘yibman. Mening butun aybim ham shu bilmay ish tutishimda. Bila turib dilingizni og‘ritgan odamlar bilan yana uchrasha berasiz va ehtimolki, unday odamlardan cho‘chib ham



turasiz, agarda biror odam o'zi bilmay turib boshqa odamning dilini og'ritsa, uni o'zi uchun hech qanday naf ko'rolmaydigan bir ahmoq, befahm deb hisoblaydilar, oqibat, bunday odamga hamma nafrat bilan qaraydi.

De Bosean xonim talabaga iliqqina qilib bir nazar tashladi, bu bilan u ham minnatdorligini bildirdi, ham o'zining qadr-qimmatini qanchaligini sezdirtdi, bunday nazokatli ishlar, faqat qalbi zo'r odamlar qo'lidan keladi, Vikontessaning bu nigohi gersoginyaning Rastinyakka mensimay qarab, uning qalbida hozirgina ochgan yangi jarohatga malham bo'lib tushdi.

– Buni qarang-ki, – dedi Ejen, – men graf de Restoning iltifotini qozona oldim; vaholanki, sizga aytib qo'yishim keraki – deb u mutelik va ayni vaqtda makkorlik bilan gersoginyaga murojaat qildi, – hozircha men ayanchli bir talabaman, so'qqabosh va juda kambag'al bir odamman...

– Bunday gaplarni gapirmang, janob de Rastinyak. Biz ayollar hech qachon hech kimga keragi bo'lmagan narsalar ketidan quvmaymiz.

– Na chora! – deb javob berdi Ejen. – Mening yoshim bor-yo'g'i yigirma ikkida. Bunday yoshda boshga tushadigan falokatlariga bardosh bera olish kerak. Buning ustiga men hozir ko'nglimdagi bor gaplarimni ochiq aytib tavba-tazarru qilyapman, tiz cho'kib tavba qilish uchun esa, bu yerdan ham chiroyliroq ibodatxona topilmasa kerak: lekin odatda, bunday dargohda faqat gunohga bosh urasan-u, tavbani boshqa joyga borib qilasan.

Gersoginya bu shakkoklikka pinagini buzmay quloq soldi va uni odobsiz deb hisoblab vikontessaga:

– Qarindoshingiz hali juda g'o'r ko'rinadi... – deb qo'ydi.

De Bosean xonim gersoginyaning ham, qarindoshining ham ustidan astoydil huzur qilib kuldi.

– To'g'ri aytdingiz, azizam, u hali g'o'r, shuning uchun o'ziga odob o'rgatadigan murabbiya axtarib yuribdi.

– Gersoginya, – deb Ejen yana unga qarab so'z boshladi, – menimcha, bizni maftun etgan odamning sir-asrorlaridan voqif bo'lishga intilish g'oyat tabiiy hol bo'lsa kerak, shunday emasmi? («Ammo, – deb qo'ydi u ichida, – bu xonimlar bilan suhbat qilish uchun sartaroshlarga munosib iboralarni ishlatayotganimni qara»).

– Lekin, menimcha, grafinya de Restoning o‘zi janob de Trayning shogirdi bo‘lsa kerak-ku, – deb javob qildi gersoginya.

– Mana shunisidan mutlaqo bexabar ekanman, – dedi talaba. – Shuning uchun ham eng ahmoqona bir tarzda ikkovlarining orasiga g‘ov bo‘libman. Shunday bo‘lsa ham uning eri bilan ancha ulfatlashib oldim, xotini ham, mening uyida bo‘lganimga, garchi vaqtincha bo‘lsa-da, chidab turgan edi-yu, birdan tilim qichib, hozirgina koridorda grafinyani o‘pgan va ko‘zim oldida orqa eshikdan chiqib ketgan odamni taniyman deb yuboribman.

– Kim ekan u? – ikkala xonim baravariga so‘rab qolishdi.

– Bitta chol; u ham menday qashshoq bir talaba turadigan joyda, oyiga ikki luidorga<sup>1</sup> Sen-Marso dahasidagi pastqam bir qavatda turadi; u rostdan ham juda baxtsiz odam, hammaga mayna bo‘lib qolgan, biz esa uni «Gorio ota» deb ataymiz.

– Siz, chindan ham yosh bola ekansiz, – deb yubordi vikontessa. – Axir, grafinya de Restoning qizlik familiyasi Gorio edi-da.

– Vermishelchining qizi, – deb ilova qildi gersoginya, – saroy somsapazining qizi bilan bir kunda janob oliylariga tavsiya etilgan meshchan xonim. Klara, esingizdami? O‘shanda Qirol ham kulib qo‘ygan va lotinchasiga uning to‘g‘risida allanima deb qochiriq ham qilgandi: ikkoviyam... xah, nimaydi?.. Ikkoviyam...

– E jusdem farinae<sup>2</sup>, – deb aytib berdi Ejen.

– Juda to‘g‘ri, – dedi gersoginya.

– Hali Gorio uning otasi deng! – dedi talaba vahmi kelib.

– Ha-da; u tentak cholning ikki qizi bor, ularni o‘lgudek yaxshi ko‘radi, lekin u qiziyam, bu qiziyam undan allaqachon yuz o‘girishgan.

– Ikkinchisi nemischa familiyali bir baron Nusingen degan allaqanday bankirga turmushga chiqmaganmi? – deb so‘radi vikontessa, gersoginya de Lanjega o‘girilib. – Ismi Delfina bo‘lsa kerak, shunday emasmi? O‘zi sariq sochli, operada yon tarafdagi lojada o‘tiradi; u Bufonlar teatriga ham borib turadi, odamlarning

<sup>1</sup> **Luidor** (*fransuzcha*; Lyu oltini) – XVII-XVIII asrlarda Fransiyada muomalada bo‘lgan oltin tanga. Birinchi marta fransuz qiroli Lyudovik XIII tomonidan 1640-yilda zarb etilgan.

<sup>2</sup> **E jusdem farinae** (*lotincha*: «bir undan») – bir xamirdan.

diqqatini o'ziga tortish uchun qattiq-qattiq kuladi, o'shami?

– Shunday odamlarga ham parvo qilganingizga hayronman, azizam, – dedi istehzo bilan gersoginya. – Muhabbatdan eshushini yeb qo'ygan graf Restodek odamgina mademuazel Anastazining uniga bulg'anishi mumkin. O! Bu qilmishidan graf ancha zarar ko'radi! Xotini graf de Trayning tuzog'iga ilinib qoldi, graf u xonimni nobud qilmay qo'ymaydi.

– Demak, ular o'z otalaridan yuz o'girishgan ekanda? – deb takror so'radi Ejen.

– Ha, o'z otasidan, – deb javob berdi gersoginya, – tushunasizmi, qanday bo'lishidan qat'i nazar, o'z otasidan yuz o'girishgan buning ustiga uni juda yaxshi, mehribon ota deyishadi; qar bir qiziga u besh yuz mingmi, olti yuz mingdan sep bergan ekan, qizlarim baxtli bo'lsin deb yaxshilab uzatgan ekan, o'zi esa yiliga sakkiz – o'n ming livr daromad bilan kifoyalanib qolaveribdi, ikkala qizim ham o'z bolam emasmi, ikkalasining uyida ham mehr va muhabbat ko'rarman deb o'ylabdi. Buning o'rniga ikki yil ichida kuyovlari uni o'taketgan bir muttahamni quvlab yuborgandek uylaridan quvib solishibdi.

Ejenning ko'zlarida yosh ko'rindi: u yaqinginada o'zining qadrdon oilasidan qalbini musaffo, muqaddas tuyg'ular bilan to'ldirib qaytuan edi, u hali yoshlikning shirin orzu-umidlari bilan mast edi, faqat bu yerda, Parij madaniyatining jang maydonida u bilan birinchi marta to'qnash kelishi edi. Yurakdan chiqqan chinakam hislar shunday ta'sirli bo'ladiki, natijada, uchalasi ham anchagacha bir og'iz so'z aytolmay bir-birlariga qarab jim o'tirib qolishdi.

– Voy, xudoyim-ey! – deb jimlikni gersoginya buzdi, – Bularning hammasi dahshatga o'xshaydi, vaholanki, bunday hodisalarni biz har kuni kuzatib turamiz. Nima yo bunday holning yuz berishiga sabab yo'q deb o'ylaysizmi?

Qani, ayting-chi, tasadduq, kuyovning nimaligi to'g'risida hech o'ylab ko'rganmisiz? Kuyov – siz bilan bizning o'n yetti yil mobaynida ardoqlab boqib katta qilgan, Lamartin ta'biri bilan aytganda, tomir-tomiri bilan jismimizga tutashib ketgan, eng qimmatli jigarimizni – oilamiz Quvonchini uyimizdan olib ketib, keyin shu quvonchni boshimizga bitgan baloga aylantiruvchi erkak. Erkak kishi bizdan ana shu jigarporamizni olib

ketgandan keyin dastavval uning muhabbatidan bolta o'rnida foydalanadi va o'sha farishtaning qalbidagi oila bilan bog'liq bo'lgan har bir rishtani shartta-shartta uzib tashlaydi. Qizimiz kechagina bizning baxt-u taxtimiz, butun davlatimiz edi, biz ham unga eng yaqin odam edik; bir kechadan keyin esa u bizning ashaddiy dushmanimizga aylanadi. Ajabo, bunday fojialar ko'zimiz oldida qar kuni yuz berib turmayaptimi? Bir qarasang, kelin qaynata bilan chiqisha olmaydi, vaholanki, qaynata butun bor-budini shu o'g'li yo'lida qurbon qilib yuborgan. Bir qarasang, kuyov qaynatani uyidan quvib yuborgan. Shundan keyin yana bizning hozirgi jamiyatimizda fojia nima deb so'rashgani ortiqcha. Xo'sh, kuyov-chi? Axir, kuyov degan narsa fojianing xuddi o'zi-ku, fojia bo'lganda ham juda dahshatli fojia, s mutlaqo bema'nilikka yuz o'g'irgan nikohlarimiz to'g'risida-ku, gapirib o'tirmasa ham bo'ladi. O'sha vermishelchi cholning boshiga qanday kunlar tushganini juda aniq tasavvur qilyapman. Esimda, o'sha Forio...

– Gorio, xonim...

– Ha, yaxshi, o'sha Morio inqilob yillarida seksiyalardan<sup>1</sup> birining raisi edi<sup>2</sup>; u o'sha vaqtda yuzaga kelgan ocharchilikning asl sabablarini bilardi, shu sababli, olgan unini o'n hissa qimmatiga sotib, boyiy boshlagan edi. Un unda judayam serob edi. Buvimning ish boshqaruvchisi uni g'oyat ko'p miqdorda un bilan ta'minlab turardi. Bu toifadagi odamlarning hammasi singari Norio ham ko'rgan foydasidan Jamoatchilikni qutqarish qo'mitasiga<sup>3</sup> ham berib turardi. Esimda, buvimning ish boshqaruvchisi ranviledagi mulkingizda betashvish yashayvering, sizning yerlaringizda ungan bug'doy ishonchli odam ekaningizga garov bo'la oladi deb ishontirgan edi. Shunday qilib, kallakesarlarga

<sup>1</sup> **Seksiya** (*lotincha*: sectio – kesish, qirqish) – 1) ba'zi idora, tashkilot, jamiyat va shu kabilarning alohida bo'limi (**asarda shu ma'noda**); 2) sho'ba; 3) magazinning muayyan turdagi tovarlar sotishga ixtisoslashgan bo'limi; 4) mashina, mexanizm, uskuna, asbob kabilarning quvur, truba va shu kabilar tizimidagi bir qancha qismlardan biri; 5) turar-joy yoki sanoat binolarining tugallangan alohida qismi.

<sup>2</sup> «...seksiyalardan birining raisi edi» – XVIII asr Fransiya burjua inqilobi vaqtida Parij qirq sakkiz seksiyaga bo'lingan bo'lib, ular mustaqil ravishda o'zini o'zi idora qilish, shuningdek o'z vakillarini shahar mahkamasiga va davlat lavozimiga saqlash huquqidan foydalanardilar. Parij seksiyalari inqilobiy voqealarda muhim rol o'ynardilar.

<sup>3</sup> **Jamoatchilikni qutqarish qo'mitasi** – Fransiyada 1793-yilda ta'sis etilgan va Konvent tomonidan saylangan davlat hokimiyati organi.

don sotish bilan shug'ullangan o'sha Lorio faqat bir narsaning savdoyisi ekan: u qizlarini yer-u ko'kka ishonmas ekan. U qizlaridan bittasini graf de Restoga berdi, ikkinchisini esa o'zini royalist<sup>1</sup> qilib ko'rsatuvchi badavlat bankir baron Nusingenga tiqishtirdi. O'zingizga ma'lumki, Imperiya hukmronlik qilayotgan zamonda kuyovlar bir ming yetti yuz to'qson uchinchi yilning odami – qaynatani o'z uyiga kirgizishdan nomus qila boshlaydilar: Buonaparte<sup>2</sup> zamonida-ku butunlay boshqa gap edi. Lekin burbonlar<sup>3</sup> hukumat tepasig'a qaytib kelishgandan keyin cholni uyida saqlash Restoga malol kelib qoladi, bankirga esa undan ham og'irlik qiladi. Qizlari, ko'rinishdan, hali bu vaqtda otasini yaxshi ko'rishardi, shuning uchun ular six ham, kabob ham kuymasini qabilida ish ko'radilar, ya'ni erini ham, otasini ham xafa qilmaslikka harakat qiladilar. Ular Torioni uyda hech kim yo'q vaqtlarda qabul qiladigan bo'ladilar. Buni ular otasiga mehribon ekanliklarini ko'rsatish uchun: «Ota, falon vaqtda keling, o'zimizdan bo'lak hech kim bo'lmaydi, chaqchaqlashib o'tiramiz!» – deb yoki shunga o'xshash gaplar bilan niqoblashadi. Shaxsan mening o'ylashimcha, o'rgilay, chinakam ehtiroslarning o'z idroki, o'z ko'zi bo'ladi, shuning uchun bechora otaning jigar-bag'ri qon bo'lib ketgan. U qizlarining undan andisha qilishayotganini, modomiki, o'z erlarini yaxshi ko'rishar ekan, demak, u kuyovlariga xalaqit berayotganini tushunadi. Fidoyilik qilish payti yetib keladi. Chol qizlari yo'lida o'zini fido qiladi, nima qilsin axir, ota-da: u qizlari o'yidan o'zi chiqib ketadi, qizlari esa bundan mamnun bo'lishdi; bu mamnunlikni sezib, u to'g'ri ish qilganini tushunadi. Mana shunday qilib, ota bilan qizlari ishtirokida oilaviy jinoyat sodir bo'ldi. Bunday voqealarni biz qar qadamda uchratib turamiz. Axir, o'sha Gorio ota qizlarining mehmonxonasida dasturxonga tushgan dog'dek bo'lib qo'lmasmidi? Uning o'zi ham bunday uylarda yuragi siqilib, zerikib qolgan bo'lardi. O'sha otaning boshiga tushgan kun erkak kishini chin yurakdan yaxshi ko'rib qolgan eng chiroyli xotinlar

<sup>1</sup> **Royalist** – monarxiyachi, monarxizm tarafdori, qirol hokimiyatini yoqlovchi.

<sup>2</sup> **Buonaparte** – ultraroyalistlar davrasida Napoleon I ni familiyasi bilan atash odat bo'lgan. Ular italyanча talaffuz bilan uni shunday Buonaparte deya talaffuz qilishardi.

<sup>3</sup> **Burbonlar** – Fransiyada 1589-1792-, 1814-1815-, 1815-1830-yillarda; Ispaniyada 1700-1808-, 1814-1868-, 1874-1931-yillarda va Ikkala Sitsiliya qirolligida 1735-1805-, 1814-1860-yillarda qirollik qilgan sulola.

boshiga ham tushishi mumkin: agar u ayol erkak kishiga seni yaxshi ko'raman deb jig'iga tegaversa, erkak ketadi boradi, bunday xotindan ajrab ketish uchun qabih yo'lga kirishdan ham toymaydi. Jamiki ehtirolarning oqibati mana shunday. Bizning yuragimiz – bir xazina: uni birdan sarflab qo'ydingizmi, – gado bo'lasiz qolasiz. Biz oshkora ehtirolarni ham, bir so'm puli qolmagan odamni ham ayab o'tirmaymiz. Bu ota bor budini ulashib bo'lgan. Qalbidagi o'tini, o'z muhabbatini u yigirma yil mobaynida ulashib kelgan bo'lsa, butun davlatini bir kunda berib qo'ygan. Qizlari limonning butun suvini siqib olib, o'chog'ini ko'chaga uloqtirib tashlashdi.

– Jamiyat qanchalik razil-a, – dedi vikontessa, ko'zini yerdan ko'tarmay va shol ro'molining popugini asab bilan siltab tortib: gersoginyaning hikoyasidagi oxirgi jumlar o'ziga qarata aytilganini sezib vikontessaning qattiq achchig'i chiqqan edi.

– Razil dedingizmi?.. Yo'q, – dedi gersoginya, – anchayin, jamiyat hayotida hamma narsa o'z yo'li bilan boryapti. Bu bilan jamiyat to'g'risida yanglish fikr yuritmayotganimni ko'rsatmoqchiman, xolos. Umuman esa, men ham siz bilan hamfikrman, – dedi u vikontessaning qo'lini qisar ekan. – Jamiyatimiz – bir botqoq, biz balandlikda turishga harakat qilamiz.

U o'rnidan turdi va de Bosean xonimning peshonasidan o'pib, dedi:

– Azizam, hozir juda ham chiroyli bo'lib ketibsiz, Men hech qachon odamzodning rangi bu qadar toza bo'lishini ko'rmagan edim.

So'ng Rastinyakka o'girilib, sal bosh irg'itib qo'ydi-yu, chiqib ketdi.

Ejen esa cholning kechasi kumush idishini ezg'ilaganini eslab:

– Gorio ota ajoyib odam! – deb qo'ydi.

De Bosean xonim o'yga tolgan edi, shuning uchun uning Gapini eshitmadi, Sukut bir necha daqiqa davom etdi;» bechora talaba gapirishini ham, qolishini ham, ketishini ham bilmay, xijolat tortib, qisinib-qimtinib o'tirardi.

– Hayot yovuz va razil, – deb gap boshladi nihoyat, vikontessa. – Boshimizga biror baxtsizlik tushishi bilanoq, darrov bu xabarni yetkazib, yuragimizga xanjar urib, uni kavlaydigan va

xanjarning bejirim dastasini tomosha qilishimiz uchun, uni shu alpozda tashlab ketadigan do'st hamma vaqt ham topilib turadi. O'sha zamoniyoq achchiq piching-u kinoyalar boshlanadi! Shu zahotiyoyoq masxarali gaplar avjga minadi! O, men o'zimni masxara qildirib qo'ymayman!

U oqsuyak xonimlarga xos bir harakat bilan boshini adl ko'tardi, mag'rur nazar tashlab turgan ko'zlarida o't chaqnardi.

– Ah, shu yordamidingiz hali! – dedi u Ejenni ko'rib qolib. – Ha, hali shu yerdaman! – dedi talaba, ayanchli ohangda.

– Gap bunday, janob de Rastinyak, jamiyat bilan o'ziga munosib ravishda muomala qiling. O'zingizga mavqe yaratmoqchimisiz, yaxshi, sizga yordam qilaman. Xotinlarning qaq darajada buzuqligini mukammal o'rganing, erkaklarning ayanchli shuhratparastligi qay darajaga yetganiga yaxshilab zehn soling. Shaxsan men o'zim jamiyat kitobini juda diqqat bilan mutolaa qilganman, ammo ma'lum bo'ldiki, uning ba'zi sahifalarini payqamagan ekanman. Endi men hammasini bilib oldim: qancha sovuqqonliq bilan ish tutsangiz, shuncha martabangiz oshadi. Hech ayamay zarba beravering, ana o'shanda qarshingizda titrab turadigan bo'lishadi. Erkaklarni ham, xotinlarni ham pochta aravasiga qo'shiladigan ot deb hisoblang, ularni beayov haydang, mayli, ular har bekatda harom qotaversin, mayli, ana o'shanda butun o'ylagan murod-maqsadingizga yetasiz. yodingizda bo'lsin, sizga yordam beradigan biror xotin bo'lmasa, bu jamiyatda hech narsaga erisholmaysiz. Siz o'zingiz uchun shunday xotin kishini topishingiz kerakki, unda ham chiroy, ham yoshlik, ham boylik sifatlari mujassamlashgan bo'lsin. Agarda ko'nglingizda chinakam hissiyot tug'ilib qolgudek bo'lsa, uni hech kim xayoliga ham keltirolmaydigan darajada qalbingizning teran yeriga yashirib tashlang, aks holda adoyi tamom bo'lasiz. Hayotda jallod bo'ling, jallod bo'lmasangiz, uning oyboltasi ostida o'zingiz halok bo'lasiz. Bitta-yarimtasini yaxshi ko'rib qolsangiz, siringizni aslo oshkor qilmang! o'z yuragingizni ochmoqchi bo'lgan odamni juda yaxshilab bilib olmaguningizcha aslo bu to'g'rida og'iz ocha ko'rmang. Hali hozircha hech kimni bu xildagi muhabbat bilan sevganingizcha yo'q, ammo buning oldini olib qo'ygan yaxshi, shunaqa uchun jamiyatga ishonmaslikni odat qiling. Menga qarang, Migel (o'zi ham sezmagani

holda yanglishib, uni mana shu nom bilan atadi), ikkala qizi ham otasidan yuz o'giran, ehtimolki, uning o'limini istayotgan bu holdan ham dahshatliroq ishlar bor: bu – ikki opa-singil orasidagi raqobatdir. Resto qadimgi asilzodalardan, uning xotinini oq-suyaklar tan oldi, saroyga tavsiya etildi; uning singlisi moliyaviy ishbilarmonning xotini, boy-badavlat go'zal Delfina de Nusingen esa buni ko'rib kuyib ketyapti; ich-etini yeb yotibdi: grafinya de Resto unga qaraganda juda yuqoriga ko'tarilib ketdi; shunday qilib, endi opa-singillik tugadi; endi ular otasidan yuz o'girgandek, bir-birlaridan ham voz kechib turibdilar, Shu sababdan de Nusingen xonim mening uyimga kirishga muyassar bo'lish uchun Sen-Lazar ko'chasidan to Brenel ko'chasigacha bo'lgan yo'ldagi butun chang-loyni yalab tozalashga ham rozi. Bu maqsadiga erishishda de Marse yordam qilar deb o'ylab, de Nusingen xonim uning cho'risi bo'lib qoldi va unga hech tinchlik bermay yuribdi. De Marse esa uni nazar-pisand ham qilmaydi. Agar Delfinani menga siz tavsiya etsangiz, uning ko'nglidagi odam bo'lasiz, sizga sajda qiladigan bo'ladi. Keyinchalik uni yaxshi ko'rib qolishingiz ham mumkin, agarda yaxshi ko'rib qolmasangiz, undan o'z maqsadingizga erishish yo'lida foydalanaverasiz. Men uni bir-ikki marta ko'pchilik mehmonlar orasida qabul qilaman, ammo kunduz kuni aslo qabul qilmayman. Men u bilan salom-alik qilaman, shuning o'zi ham kifoya. Grafinyanikida Gorio otani tilga olib, uning eshigini o'zingizga o'zingiz yopib kelibsiz. Ha, azizim, siz grafinyaning uyiga yigirma marta borsangiz ham grafinya yigirma marta uyida yo'q bo'ladi. Sizni uyga kiritmaslik to'g'risida buyruq berib qo'yilgan. Shunday ekan, Gorio ota sizni Delfina de Nusingen bilan tanishtirib qo'ysin. Go'zal de Nusingen sizga niqob o'rniida xizmat qiladi. Uning mahbubi bo'lib olsangiz, hamma xotinlar sizga shaydo bo'ladi. Delfinaning raqibalari, dugonalari, hatto eng yaqin odamlari ham sizni undan aynitib, o'ziga qaratib olish payiga tushib qoladi. Ba'zi xonimlar birovning mahbubini afzal ko'radilar. Bu bilan ular, bizning shlyapalarimizdan nusxa ko'chirish bilan go'yo turmush tarzimizni ham o'zlashtirib olgandek o'zlarini his qiluvchi meshchan ayollarga o'xshab ketadilar. Siz muvaffaqiyat qozonasiz. Parijda muvaffaqiyat qozonish – hamma narsaning asosi, u hukmronlik garovi. Ayollar sizni iste'dodli



va aqli yigit deb e'tirof etishlari bilanoq, erkaklar bunga ishonadilar, ularning hafsalasini o'zingiz pir qilib qo'ymasangiz bas. Ana o'shanda qo'lingizni nimaga cho'zsangiz yetadi, hamma yerda sizga yo'l ochiq bo'ladi. Jamiyatimiz qalloblar va ovsar odamlardan iborat ekanini o'shanda bilib olasiz. Siz qalloblarga ham, ovsarlarga ham qo'shilmang. Bu changalzorlarda adashib qolmasligingiz uchun Ariadna ipi<sup>1</sup> o'rniga o'zimning ismimni qo'lingizga berib qo'yaman. Unga dog' tushirmang, – dedi u, boshini ko'tarib va Rastinyakka shohona nazar tashlab, – gard yuqtirmang. Endi boring, meni yolg'iz qo'ying: biz ayollarning ham o'zimizga yarasha kurashimiz bo'ladi.

– Sizga chuqur qaziyotganlarning adabini berib qo'yadigan odam lozim bo'lib qolsa... – deb uning gapini bo'ldi Ejen.

– Unda nima bo'lardi? – deb so'radi vikontessa.

Ejen o'zining ko'kragiga urib qo'ydi, qarindoshining tabassumiga jilmayib javob qildi-da, uydan chiqdi. Soat besh edi. Ejenning qorni ochib ketgandi, ovqatdan kech qolmasmikanman deb tashvishga tushib qoldi. Shu tashvish tufayli u Parij ko'chalarida shamoldek yelib borayotgan aravada yurishning qanday gashti borligiga endi tushundi. Ammo bu jismoniy huzur miyasiga quyilib kelayotgan fikrlariga xalaqit bermasdi. Uning yoshidagi yigit birovning nafratiga uchrab kamsitilar ekan, qizishib ketadi, joni hiqildog'iga keladi, butun jamiyatni yanchib, o'ch olish haqida shovqin ko'taradi-yu, ammo bunga kuchim yetarmikan deb o'zidan shubha qiladi. Hozir Ejenni: «Grafinyaning eshigini o'zingizga o'zingiz yopib kelibsiz», – degan gap iztirobga solar edi. «Men, baribir, boraman! – derdi u o'ziga o'zi. – Agarda de Bosean xonim to'g'ri aytgan bo'lsa-yu, meni qabul qilmasin deb tayinlab qo'yilgan bo'lsa... unda... unda grafinya de Resto o'zi borib turadigan hamma mehmonxonalarda men bilan uchrashadi. Men qilichbozlik qilishni, to'pponchadan otishni o'rganib olaman-da, uning Maksimini o'ldiraman!..» «Pul-chi? – deb aqli bunga e'tiroz bildirardi. – Pulni qayerdan olasan?» Shunday deb o'yladi-yu, butun boyligini odamlarga ko'z-ko'z qilib qo'ygan grafinya de Restoning mehmonxonasi ko'z oldiga

<sup>1</sup> **Ariadna ipi** - Ariadna – qadimgi grek mifologiyasida Krit podshohi Minosning qizi; Ariadna bir ko'ptok ip yordamida Afina qahramoni Teseyning labirintdan qutulib chiqishiga ko'maklashgan.

keldi. Ejen, qizlik familiyasi Gorio bo'lgan xonimni, u jondan aziz yaxshi ko'rgan, ko'zni qamashtiruvchi zeb-ziynatlarni, uning haddan tashqari qimmat turuvchi uy jihozlarini, xullas, o'zboshimcha, maqtanchoq qizning davlatini, badavlat suyuqoyoq juvonning isrofgarchiligini tasavvur qildi. Boseanlarning hashamatli imoratlari oldida bu ko'zni qamashtiruvchi manzara darhol so'ndi-qoldi. Parij zodagonlari jamiyatining yuqori doiralari bilan mahkam bog'langan Ejenning butun orzu-umidlari uning ko'nglida yomon niyatlar tug'dirgan, aqlini o'tkirlab, vijdonini o'tmaslashtirgan edi. Dunyo unga endi haqiqiy basharasini ochib ko'rsatgandi: boylik oldida axloq va qonun o'jiz edi; *ultima ratio mundi*<sup>1</sup> pulda, ekani ko'rinib turardi. «Votren to'g'ri aytadi. Eng yaxshi fazilat boylikdir!» – derdi o'ziga o'zi Ejen.

Nev-Sent-Jenevev ko'chasiga yetib borgandan keyin u g'izillab yuqoriga chiqib tushdi, izvoshchiga o'n frank haqini berdi-da, kishining ko'nglini aynitadigan qo'lansa hidli yemakxonaga kirdi va bir oxurdan yem yeyayotgan mollardek ovqatlanayotgan xo'randalarni ko'rdi. Bu g'aribona manzara, bu yemakxonaning ko'rinishi uning nafratini qo'zg'adi. Bu qadar tez o'zgarish, bu qadar keskin farq uning shuhratparastlik intilishlarini beqiyos oshirib yuborishi muqarrar edi. Bir tarafda – eng latofatli jamiyat-tomonidan bunyod etilgan, kishini maftun qiluvchi yorqin qiyofalar, ajoyib san'at asarlari va zeb-ziynatlar orasida ko'milib ketgan navqiron, sho'x chehralar, ehtirosli, shoirona shaxslar; boshqa tarafda – iflos qashshoqliq botqog'iga g'arq bo'lgan dahshatli manzaralar, bir vaqtlar bor g'ayratini ehtirosli o'yinlarga sarflab, adoyi tamom bo'lgan va endilikda cho'pustixon bo'lib qolgan basharalar. De Bosean xonimning, o'sha aldangan xotinning g'azabdan bo'g'ilib turganda bergan maslahati, o'sha qarindoshining kishini vasvasaga soladigan takliflari Ejenning yodiga tushdi, uning muhtojligi esa maslahatlarni qanday sharhlash kerakligini tushuntirdi; boylik orttirish uchun Ejen ikkita parallel yo'l tutmoqchi bo'ldi: ham muhabbatga, ham ilmga suyanmoqchi bo'ldi, ham zodagonlar jamiyati odami, ham yuridik fanlar doktori bo'lishni o'ylab qo'ydi. Uning yosh bola-

<sup>1</sup> *Ultima ratio mundi* (lotincha) – dunyoning tomiri.

ligi hali ham qolmagandi. Bu ikki yo'l bir-biriga asimptota<sup>1</sup> bo'lib, hech vaqt bir nuqtada birlashmaydi.

Votren kishining ko'nglidagi eng yashirin sirlarini bilib oladigan g'alati bir nigoh bilan Rastinyakka tikilib nazar soldida:

– Bugun nima uchundir juda xomush ko'rinasiz, janob markiz, – dedi.

– Meni «janob markiz» deb atovchilarning hazilini ko'tarishga toqatim yo'q, – deb javob qildi Rastinyak. – Parijda chinakam markiz bo'lish uchun yiliga yuz ming livr daromading bo'lishi kerak, modomiki, «Voke uyi»da istiqomat qilarkansan, senga baxt kulib boqmasligi muqarrar.

Votren Rastinyakka otalarcha takabburlik bilan qarab qo'ydi, bu bilan go'yo: «Itvachcha! Xohlasam, teringni shilib olaman-ku», – demoqchi edi. Keyin esa:

– Kayfingiz buzuq, ehtimol go'zal grafinya de Restoga yoqmagandirsiz.

– U meni ikkinchi uyga kiritmaslikni buyurdi, chunki men otangiz biz bilan bir dasturxonda ovqat yeydi, deb yubordim, – dedi Rastinyak.

Xo'randalar bir-birlariga qarab qo'yishdi. Gorio ota yerga qaradi va ko'zlarini artish uchun teskari o'grildi.

– Ko'zimga tamaka tushirdingiz, – dedi u yonida o'tirgan-qo'shnisiga.

– Kimki Gorio otani xafa qilsa, o'zim u odamning adabini beraman, – dedi Ejen, vermishelchining yonida o'tirgan xo'randaga qarab, – u hammamizdan ham yaxshi odam! – Men ayollar-ni nazarda tutayotganim yo'q, – deb qo'shib qo'ydi u made-muazel Tayferga o'grilib.

Bu gap dar qanday tahqirlarga barham berdi: Ejen shunday bir tarzda gapirdiki, hamma xo'randalar jim bo'lib qolishdi. Faqat Votren istehzo bilan gap qotdi:

– Gorio otani o'z himoyasiga olish va uning mas'ul muharriri bo'lish uchun usta qilichboz va yaxshi mergan bo'lish kerak.

– Men ham xuddi shunday qilaman, – deb javob qildi

<sup>1</sup> *Asimptota* (grekcha «tutashmaydi» degan ma'noni bildiradi.) – o'ziga parallel chiziqqa tobora yaqinlashib borsa ham, hech qachon uni kesib o'tmaydigan to'g'ri chiziq.

Ejen.

– Demak, bugundan boshlab urush boshlarkansiz-da?

– Ehtimol, – dedi Rastinyak. – Lekin men o‘z ishla« rim to‘g‘risida hech kimga hisobot bermoqchi emasman, chunki o‘zim ham boshqalarning kechalari nima ish bilan shug‘ullanishini surishtirmayman.

Votren Rastinyakka yer ostidan qarab qo‘ydi.

– Yaxshi yigit, qo‘g‘irchoqlar o‘yinini ko‘rganda, aldanib qolmaslik uchun parda devor yirtig‘idan mo‘ralab o‘tirmay, tomoshaxona ichiga kirish kerak bo‘ladi. Xo‘p, bas qildik bu gapni, – dedi u, Ejenning achchig‘i chiqib kelayotganini ko‘rib. – Bu to‘g‘rida keyinchalik, xohlagan vaqtingizda gaplashamiz.

Ovqat vaqtida xo‘randalar qosh-qovoqlarini solib, zo‘rma-zo‘raki gaplashib o‘tirdilar. Rastinyakning tagidan keyin bir holatga tushib qolgan Gorio ota o‘ziga nisbatan odamlarning munosabati o‘zgarib qolganini va bundan keyin unga tegajaklik qiladiganlarning og‘ziga uradigan yosh homiy paydo bo‘lganini anglamadi.

– Bundan chiqdi, janob Gorio – grafinyaning otasi ekan-da? – shivirlab so‘radi Voke xonim.

– Undan tashqari baronessaning ham otasi, – deb javob berdi Rastinyak.

– U faqat shunga yaraydi, xolos, – dedi Byanshon Ejenga.

– Men uning boshini paypaslab ko‘rdim: boshida faqat bitta g‘udda bor ekan – u ham bo‘lsa otalik g‘uddasi; bu odam otalik kasaliga muhtalo bo‘lgan.

Ejen jiddiy kayfiyatda o‘tirardi, shuning uchun Byanshonning hazili uni kuldirolmadi. U de Bosean xonim maslahatlaridan foydalanmoqchi, shuning uchun qayerdan va qanday qilib pul topsam ekan deb o‘ziga o‘zi savol berardi. Uning ko‘zi oldida ayni vaqtda ham tahir cho‘l, ham serhosil bo‘lgan zodagonlar vodiysi namoyon bo‘ldi, bu manzara uni hayajonli tashvishga solib qo‘ydi. Ovqatdan keyin hamma birin-ketin tarqab ketdi, u yemakxonada qoldi.

– Rostdan qizimni ko‘rdingizmi? – deb so‘radi undan Gorio ota, sidqidillik bilan.

Chol talabani xayol og‘ushidan tortib oldi; Ejen uning qo‘lidan ushladi, unga allaqanday mehr bilan qarab turib javob

berdi:

– Siz yaxshi, hurmatga loyiq odamsiz. Qizlaringiz to‘g‘ri-sida keyin gaplashamiz.

U Gorio otaning gapiga ortiq quloq solishni istamay, o‘rnidan turib, o‘z xonasiga chiqib ketdi va onasiga xat yozdi:

*«Onajon, meni yana bir to‘ydirish uchun uchinchi ko‘kraging yo‘qmi? Shunday vaziyat tug‘ilib kelyaptiki, tez boyib ketishini ham ajab emas. Menga bir ming ikki yuz frank pul kerak, uni har qanday qilib bo‘lsa ham topishi kerak. Mening iltimosimni otam bilmay qo‘ya qolsin hoynahoy, u bunga qarshilik qiladi, agarda shu pulni topolmasam, o‘zimni o‘ldirish darajasida umidsizlikka tushib qolishim mumkin. O‘z rejalarim haqida senga birinchi uchrashganimizdayoq gapirib beraman: hozir tushib qolgan vaziyatimni bayon qilish uchun qanchadan qancha daftarlarni to‘ldirib yuborishim kerak. Onajon, men qimorga pul boy berganim ham, qarzlarim ham yo‘q; lekin o‘zing baxsh etgan hayotim senga qimmatli bo‘lsa, o‘sha pulni top. Qisqasi, men vikontessa de Boseannikiga borib turaman, u menga homiylik qiladi. Men asilzoda odamlar davrasida bo‘lib turishim kerak, lekin toza qo‘lqop sotib olishga, aqalli, bir so‘m ham pulim yo‘q. Quruq non yeb, suvdan boshqa narsa ichmay yashashga to‘g‘ri kelib qolsa, och qolishga roziman; lekin Parij bog‘larida dehqonchilik qilish uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunasiz turishning iloji yo‘q. Men o‘zimga yo‘l ochib, biron yerdan chiqa olamanmi yo botqoqqa botganimcha qolib ketaveramanmi, – gap mana shuning ustida horyapti. Mendan umidingiz katta ekanini bilaman, o‘zim ham o‘sha umidlaringizni tezroq amalga oshirish payidaman. Oyijon, meros qolgan biror ziynat buyumingni sot, ko‘p o‘tmay qarzingni qaytarib beraman. Oilamizning qanday ahvolda kun kechirishini yaxshi bilaman, pulni topib yuborsanglar, buning qanchalik qiyin bo‘lganini tushunib, qadriga yetaman; ishon, men pulni bejiz so‘rayotganim yo‘q, shunday qilsam qabihlik qilgan bo‘lardim. Mening zorlanib qilgan iltimosimni muhtojlik nidosi deb qabul et. Bizning butun kelajagimiz mana shu yordamga bog‘liq bo‘lib turibdi, o‘sha pul bilan men harbiy safarga chiqishim kerak, negaki Parijdagi hayot tinimsiz janglardan iborat. Agarda shuncha pulni o‘zing topa olmasang, xolamning to‘rini sotishdan bo‘lak iloj qolmas, unga ayt, o‘rniga*

*o'zim undan ham yaxshisini olib yuboraman...» va hokazo.*

U ikkala singlisiga ham, yig'ib yurgan pullaringizni men- ga yuboringlar, deb bittadan xat yozdi, ikkala singlisining ham unga pullarini jon deb yuborishiga ishonar edi, albatta, bu ishni oila o'rtasida muhokama qilishdan saqlaninglar, buni sizning vijdoningizga havola qildim, deb qistirib o'tdi, yoshlarning vij- doni doim toza bo'ladi, ular vijdon bilan bog'liq ishlarga juda jiddiy munosabatda bo'ladilar. Shunday bo'lsa ham, xatlarni yozib bo'lgach, u beixtiyor iztirob ichida qoldi, u hayajonlanar, ich-ichidan qaltirar edi. Yosh shuhratparast yigit xilvat qishloqda yashab yurgan singillarining juda ko'ngli toza qizlar ekanini va bu iltimosi bilan ularni qanday og'ir kunga solayotganini, lekin qizlar bu iltimosni bajarish bilan qanchalik xursand bo'lishlarini va bog'larining biror burchagida o'tirib olib, hech kimga bildir- may, sevikli akalari to'g'risida o'zaro suhbatlashib naqadar huzur qilishlarini bilardi. Uning tasavvurida birdan singillarining bir chekkaga chiqib, o'zlarining bszgina pullarini o'g'rinchi sanab ko'rishayotgani aniq namoyon bo'ldi; o'z pullarini hech kimga bildirmay akasiga jo'natish uchun qizlarga xos hiyla-nayranglar qilishayotgani, olijanoblik qilish, himmat ko'rsatish uchun umrlarida birinchi marta ayyorlik qilishayotganini tasavvur qilib turardi. «Singil ko'ngli – tozalik gavhari, mehr bulog'i!» – deb o'yladi u. Endi Ejen yozgan xati uchun xijolat bo'la boshlagach edi. Ularning ibodati naqadar kuchli, xudoga iltijolari naqadar samimiy bo'larkin! Bor bisotlarining hammasini ular qandayin huzur-halovat bilan akalariga hadya etisharkin! Onasi u so'ragan pulning hammasini topa olmasa qanchalik iztirob chekarkin! Mana shu cheksiz mehribonliklar va unga ko'rsatilgan iltifot- larning hammasi Ejen uchun Delfina Nusingen huzuriga ko'ta- rilishda pillapoya xizmatini o'taydi. Uning ko'zlaridan bir necha tomchi yonga dumalab tushdi – bu oilaning muqaddas mehrobiga<sup>1</sup> yoqilgan so'nggi sham edi. Azbaroyi umidsizlikka tushganidan xonasida u yoqdan-bu yoqqa kezib yurardi. Qiya ochiq turgan eshikdan uning xona ichida kezib yurganini ko'rgan Gorio ota uning oldiga kirdi.

<sup>1</sup> **Mehrob** (*arabcha*; ibodatxona; tokcha, taxmon tepasining yarim doira qilib ishlangan qismi) – masjid ichida uning qibla tomonidagi devorida taxmon shaklida qurilgan joy (namoz shu tomonga qarab o'qiladi).

– Sizga nima bo‘ldi? – deb so‘radi Gorio ota.

– Eh, qo‘shinjon, siz ota bo‘lganingizdek, men ham birovning o‘g‘li va birovning akasiman. Grafinya Anastazidan xavotir olishingiz o‘rinli, u Maksim de Tray degan bir kimsaning qo‘liga tushib qolgan, u qizingizni nobud qiladi hali.

Gorio ota allanarsalar deb to‘ng‘illagancha chiqib ketdi, ammo nima deganini Ejen anglamadi.

Ertasi kuni Rastinyak xatlarni jo‘natish uchun pochtaga bordi. U xatlarni jo‘nataymi-yo‘qmi deb oxirgi daqiqagacha ikkilanib turdi, shunday bo‘lsa ham; «Omadimni bersin!» – deb xatlarni pochta qutisiga tashladi; odatda, qimorbozlar yo buyuk sarkardalar shu so‘z bilan ish boshlaydilar, ammo bu yomon gap; ko‘pincha u odamni xalos qilmaydi, balki halok qiladi.

Bir necha kundan keyin Ejen grafinya de Restonikida bordi, ammo uni qabul qilishmadi. U yana uch marta grafinyaning oldiga kirishga urinib ko‘rdi, ammo u graf Maksim de Tray yo‘q vaqtlarni poylab borgan bo‘lishiga qaramay, grafinyaning eshigi uning uchun hech ochilmadi. Vikontessa haq bo‘lib chiqdi! Talaba o‘qimay qo‘ydi. U ma‘ruzalarga faqat yo‘qlamadan o‘tish uchun borar, yo‘qlamadan o‘tishi bilanoq darrov qochib qolardi. U ham ko‘pchilik talabalar singari yo‘l tutib, o‘qishni sinovlar boshlanadigan paytgacha yig‘ishtirib qo‘ygandi. Ejen bir yo‘la ham ikkinchi, ham uchinchi kurs ma‘ruzalariga yozilib qo‘yishni, sinovlar payti kelishi bilan muk tushib o‘qishga astoydil berilib, bir o‘tirgandayoq yuridik fakultetini birato‘la bitkazib ketishni mo‘ljallab qo‘ydi. Mana shu qaroriga ko‘ra uning ixtiyorida o‘n besh oy vaqt bo‘shab qoldi, bu vaqtlarda u bahuzur Parij okeanida suzishi va unda o‘ziga xotin ovlashi yo boylikka tuzoq qo‘yish bilan shug‘ullanishi mumkin edi.

Keyingi hafta ichida Ejen de Bosean xonimnikiga ikki marta bordi, lekin uning oldiga faqat d’Ajudaning kareyasi hovlidan chiqib ketgandan keyin kirardi. Butun Sen-Jermen dahasida eng latofatli shaxs hisoblangan bu mashhura ayol markiz d’Ajuda-Pinto bilan mademuazel Roshfidning nikoh to‘yini kechiktirishga muyassar bo‘lib, jang maydonida ma‘lum vaqtgacha g‘oliba bo‘lib qolgan edi. Lekin baxtdan ajrab qolish xavfi tufayli, beqiyos zo‘r ehtiroslar bilan to‘lib toshgan bu kunlar, oqibat falokatni boshlab kelishi lozim edi. Markiz

d'Ajuda bilan Roshfidlar, vikontessaning markiz bilan arazlashib yana yarashganini ko'rib, de Bosean xonimni bo'lajak nikoh haqidagi fikrga ko'nikishga va tabiatning o'zi odam uchun yaratgan bu hodisa yo'lida, nihoyat, ertalabki uchrashuvlaridan voz kechishga rozi bo'ladi deb hisoblashardi. Shunday qilib, d'Ajuda har kuni ming xil eng muqaddas qasamlarni takrorlab, ko'zbo'yamachilik o'yinini olib borar, vikontessa esa bu aldovlarga bajonidil ishonib kelardi.. Uning eng yaxshi dugonasi, gersoginya de Lanje vikontessa to'g'risida: «Shartta o'zini derazadan otishi o'rniga, u zinadan dumalab tushdi», – deb o'z fikrini bildirdi. Nima bo'lganda ham, quyosh o'zining oxirgi nurlarini vikontessa Parijda qancha vaqt qolgan bo'lsa, shuncha vaqt sochib turdi. Qarindoshiga nisbatan ko'nglida qandaydir xuroffiy. mehribonlik his qilgan vikontessa bu vaqt ichida yosh yigitga ancha yordam qildi. Ejen-unga katta sadoqat ko'rsatdi, ayol kishi holiga hech kim na achinadigan va na uni yupatadigan bunday vaziyatda Ejen unga chin yurakdan rahmdilligini oshkor qildi. Bunday paytlarda ayollarga shirin so'z aytadigan erkaklar ham uchraydi, amma u erkaklar shirin so'zni biror maqsadni ko'zda tutib aytadilar.

Nusingen xonadoniga hujum qilishdan oldin, Rastinyak shaxmat taxtasida o'z donalarining qay vaziyatda ekanini yaxshilab bir ko'zdan kechirmoqchi bo'ldi; buning uchun u Gorio otaning avvalgi hayotini o'rganib chiqmoqchi bo'ldi va bu borada aniq ma'lumotlar to'pladiki, ular quyidagilardan iboratdir.

Inqilobgacha Jan-Joashen Gorio oddiy vermishelchi ishchi edi, u shunday epchil, tejamli va uddaburon yigit ediki, 1789-yilda sira kutilmaganda dastlabki qo'zg'olonda qurbon bo'lgan xo'jayining korxonasini sotib oldi. U kappon<sup>1</sup> yaqinidagi Jyusen ko'chasiga o'rnashdi va o'sha xavfli vaqtdagi eng nufuzli odamlar himoyasi ostida savdo-sotiq ishlarini yurgizib yuborish uchun shu soha seksiyasiga raislik qilishni bo'yniga olib, juda farosatli odam ekanini ko'rsatdi. Uning boyib ketishiga mana shunday ayyorlik bilan tutilgan ish asos bo'ldi: bu boyish yo rostdan bo'lgan, yo atayin qilingan ocharchilik paytida boshlandi, bu paytda Parijda bo'g'doyning bahosi juda ko'tarilib ketgan

<sup>1</sup> Kappon – ombor.



edi. Non do'konlar oldida odam o'lardi, ammo ba'zi odamlar ana shunday qiyinchilik paytida hech qanday qiyinchiliksiz baqqollik do'konlaridan makaron sotib olardilar. O'sha yili fuqaro Gorio shu darajada boyib oldiki, keyinchalik, faqat yirik kapitali bo'lgan savdogargina foydalana oladigan hamma imkoniyatlar-dan foydalanib, savdo qila boshladi. Lekin qobiliyatli odamlar-ning hammasi qanday kun kechirsa u ham shunday yashadi. O'rtamiyona odam bo'lgani tufayli jonini omon saqlab qoldi. Bundan tashqari, uning boyligiga hech kim hasad qilmasdi, chunki uning badavlat ekanligi, boylar tahdiddan xalos bo'lgan-laridan keyingina oshkor bo'ldi. Uning butun aql-farosati, ko'ri-nishdan, non savdosiga sarflangan edi. Gap g'alla, un, yorma, ularning sifati, qayerdan keltirilgani, qanday saqlash kerakligi to'g'risida borganda, donning bahosi kelgusida qanday bo'lishi-ni hosil kam yo mo'l bo'lishini oldindan aytib berishda, bug'doy-ni arzon-garov sotib olishda, uni Sitsiliyada yo Ukrainada g'amlab qo'yishda unga teng keladigan odam topilmasdi. Uning o'z ishlarini qanday epchillik bilan olib borishini, mamlakatda bug'doy olib kelish yoki undan bug'doy olib chiqish to'g'risidagi qonunlarni tahlil qilishini, ularning ruhini chuqur bilishini va ba'zi kamchiliklarini ko'rsatib berishini ko'rib, Gorio ministr bo'lsa ham uddalay oladigan odam deb o'ylash mumkin edi. Sabr-toqatli, g'ayrat, shijoatli, serharakat, gapida mahkam tura-digan, maqsadiga erishishda tez ish ko'radigan, o'z ishi sohasida burgutdek o'tkir ko'zli Gorio hammadan oldin harakat qilar, hamma narsani oldindan ko'rar, hamma narsani bilar va hamma narsani ichida sir saqlar, u fikr qilishda – diplomat<sup>1</sup>, safarda – soldat edi. Ammo o'z ishi sohasidan chetga chiqqanda, o'zining oddiy va qorong'i do'konidan ko'chaga chiqib, bo'sh vaqtlarida eshik kesakisiga suyanib dam olib o'tirganda, Gorio yana avvalgidek to'pori va kaltafahm ishchiga. aylanib qolar, oddiy narsalarga ham aqli yetmas, ma'naviy lazzatlardan mahrum odamga aylanib qolardi, teatrdan uxlab o'tirar va Parijning

<sup>1</sup> **Diplomat** (*fransuzcha*: diplomate – ikki buklangan varaq, hujjat) – chet mamlakatlar bilan rasmiy aloqa qilish yoki muzokaralar olib borish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rgan va shunday ishlar uchun o'z hukumati tomonidan vakil qilib tayin etilgan lavozimli kishi.

to'poriligi bilan mashhur bo'lgan Dolibanlaridan<sup>1</sup> biri bo'lardi qolardi. Bu toifadagi odamlarning deyarli hammasi bir-biriga o'xshatgan bo'ladi. Lekin ularning har biri qalbida yuksak hissiyotlarni uchratishingiz mumkin. Vermishelchining butun miyasini savdo-sotiq band qilib olganidek, qalbining butun haroratini ikki kuchli hissiyot tamomila qamrab olgan edi. Bida yashovchi bir badavlat fermerning yolg'iz qizi bo'lgan xotini erining cheksiz yaxshi ko'radigan odami bo'lib qoldi, hotiniga u xudoga sajda qilgandek sajda qilardi. U o'sha nozik, lekin ma'naviy jihatdan kuchli, mehribon va aziz bo'lgan, o'z tabiatiga tamom teskari tabiatli xotinini yer-u ko'kka ishonmasdi. Agar erkak kishining tabiatida tug'ma hissiyot mavjud ekan – bu hissiyot o'zidan zaif kimsani hamma vaqt o'z himoyasi ostida saqlay olishidan g'ururlanishdir. Bunga muhabbat degan narsani, hamma sof vijdonli odamlarning lazzat oladigan manbaiga bo'lgan qizg'in minnatdorchiligini qo'shsangiz, ma'naviy hayotdagi o'ziga xos juda ko'p ishlarga tushunasiz qo'yasiz. Yetti yil huzur-halovatda yashaganlaridan keyin vermishelchi xotinidan judo bo'ldi – bu baxtining ketgani edi: xotini sekin-asta muhabbatdan boshqa jihatlar bo'yicha ham uni qo'lga ola boshlagan edi. Ehtimol, u bu orqada qolgan odamga mavjud muhit va hayot haqida saboq berib, uning aqlini rivojlantirgan bo'larmidi. Xotini o'lgandan keyin bolalariga bo'lgan mehr-muhabbati telbalik darajasiga yetdi. Xotining o'limi tufayli chuqur iztirobga mahkum etilgan qaynoq muhabbatini u farzandlariga qaratdi. Qizlari ham dastlabki paytlarda ota muhabbatiga muhabbat bilan javob berib yurdilar. Savdogarlar ham, fermerlar ham Gorioni o'ziga kuyov qilishga rosa urinib ko'rdilar, ammo har qanday foydali nikohlardan ham voz kechib, u tul qolishga ahd qildi. Erkaklar orasida vermishelchining birdan bir iltifotiga sazovor bo'lgan odam – qaynatasi, garchi xotini o'lib ketgan bo'lsa ham Gorio unga sodiq bo'lib qolishga ahd qilgan, deb ta'kidlardi. Kappondagi savdogarlar bunday telbalarcha vafoning ma'nosiga tushuna olmay, uni masxara qilib kulishardi, Gorioga hatto allaqanday

<sup>1</sup> **Doliban** – eng sevimli qizini butun vujudi bilan sevgan, erta-yu kech uning tashvishi bilan yashagan ota. **Doliban** – Deforgya taxallusi bilan tanilgan fransuz aktyori va dramaturgi Jan-Batist Shudaraing (1746-1806) «Kar yoki gavjum mehmonxon» komediyasidagi personajlardan biri.

Kulgili bir laqab ham qo'yishgandi. Lekin ulardan biri, navbatdagi oldi-sottidan keyin ichib olib, Gorioning laqabini hammaga ovoza qilganda, vermishelchi uning yelkasiga chunonam boplab musht tushirdiki, masxaraboz Olben ko'chasi burchagidagi tumba oldiga borib tushdi. Gorioning cheksiz sadoqati, qizlariga bo'lgan cheksiz muhabbati, ular ustida parvona bo'lishi, hamma-ga ma'lum bo'lib ketdi: kunlardan bir kun uning savdo sohasidagi raqobatchilaridan biri uni bozordan chiqarib yuborish, bozorda o'zi qolib, uning bahosini yana oshirish maqsadida Gorioga, Delfinani arava urib ketgan emish, deb xabar qildi. Rangi murdanikidek oqarib ketgan vermishelchi o'sha zahotiyog bozordan ketib qoldi. Aldamchining xabaridan u shu qadar xilma-xil xayollarga bordiki, hatto bir necha kun betob bo'lib yotib ham qoldi. Gorio u odamni yelkasiga gurzidek musht tushirib qaqshatib o'tirmadi, lekin aldamchining ahvoli og'irlashib turgan paytni topib turibuni xor-zor qildi-da, bozordan butunlay quvdi.

Ikkala qizining tarbiyasi juda bema'ni olib borilgani o'z-o'zidan ma'lum, yiliga oltmish ming frank daromad qilishiga qaramay, Gorio o'ziga bir ming ikki yuz frank ham sarflamasdi, lekin qizlarining har bir istagini joyiga yetkazishni baxt deb bilardi: qizlariga eng yaxshi murabbiylar hamma sohadan saboq berishardi; qizlarni kompanonka<sup>1</sup> nazorat qilib turardi, bularning baxtidan bo'lib, u aqlli va didli xotin edi; qizlar ot minib sayrga chiqishar, o'z aravalari bor edi – qisqasi, ilgarigi vaqtlarda biror qari, badavlat amaldorning mahbubasi qanday dabdaba bilan kun kechirgan bo'lsa, qizlar ham shunday yashashardi; ular nimani xohlashsa, u buyum qanchalik qimmat turishiga qaramay, ota ularning istagini bajo keltirishga oshiqar, bu qilgan ishi evaziga qizlaridan faqat shirin so'z va mehr kutardi. Bechora, qizlarini farishtalar bilan tenglashtirib, bu qilmishi bilan ularni o'zidan ham yuqoriga qo'yar; uning uchun hatto qizlarining qilgan yomonliklari ham aziz edi. Qizlarining bo'yi yetib, erga tegadigan bo'lishganda, ular o'z xohish va mayllariga qarab er tanlash imkoniga ega bo'ldilar; har bir qiziga u o'z davlatining yarmiki sep qilib berdi. O'z latofati bilan graf de Restoni mahliyo qilgan

<sup>1</sup> Kompanonka - yaqin kishisi, ishonchli odam.

Anastazi oqsuyaklar orasiga kirishni orzu qildi, oliy tabaqalar orasiga kirib olish uchun u otasi uyini tashlab, turmushga chiqib ketdi. Delfina pulni yaxshi ko'rardi, shuning uchun, o'zi nemis bo'lsa ham, Muqaddas Rumol imperiyasining baroni bo'lib qolgan<sup>2</sup> bankir Nusingenga turmushga chiqdi. Gorio vermishelchi bo'lib qolaverdi. Lekin ko'p o'tmay kuyovlari ham, qizlari ham uning ilgari gidek savdo bilan mashg'ul bo'lib yurganini o'z sha'nlari ga yarashmagan ish deb topdilar, vaholanki, uning butun hayoti mana shu savdo bilan chambarchas bog'langan edi. Gorio besh yilgacha ularning gapiga kirmay yurdi; nihoyat, bir kun kelib ularning gapini yerda qoldirmay, savdo-sotiqni tashladi; do'konini sotdi, yana keyingi yillarda qilgan savdo-sotiqdan o'ziga tuzukkina pul orttirib oldi; Voke xonimning uyiga ko'chib kelganida, uy bekasining taxminicha, sakkiz-o'n ming livr yillik daromad keltiradigan darajada puli bor edi. Gorio, kuyovlarining talabiga binoan qizlari uni uyida turishigagina emas, balki ochiq qabul qilishga rozi bo'lmaganlarini ko'rgandan keyin, alamidan Voqe uyiga kelib tiqilgan edi.

Gorio otaning do'koniki sotib olgan janob Myure bergan barcha ma'lumot mana shulardan iborat. Shunday qilib, gersoginya de Lanjening Rastinyak oldida aytgan taxminlari to'g'ri bo'lib chiqdi. Shu bilan biz parijliklar hayotidagi fojining, sirli, ammo dahshatli fojining muqaddimasini tamomlaymiz.

Dekabr oyining birinchi haftasi oxirida Rastinyak ikkita xat oddi: bittasi onasidan, ikkinchisi katta singlisi Loradan edi. Tanish qo'llar bilan yozilgan ikkala xat o'zi ham huzur bag'ishlovchi titroqqa soldi, ham dahshatga solib qaltiratdi. Shu ikkita shildiroq qog'oz uning umidlariga hukm olib kelgandi – yashashi yo o'lishi shunga qarab bo'lardi. O'z oilasining qashshoqligini eslaganda, uni allaqanday qo'rqinch bosar, lekin shu bilan birga Ejen uyidagilarning uni juda yaxshi ko'rishiga shunday ishonchi komil ediki, ularning oxirgi tomchi qonigacha so'rib olishi ham mumkin edi. Onasining xati quyidagi mazmunda edi.

<sup>1</sup> Muqaddas Rumol – muqaddas Rim imperiyasi.

<sup>2</sup> «...Muqaddas Rumol imperiyasining baroni bo'lib qolgan...» – X asrda German davlatiga berilgan nom; Germaniya to Napoleon I qo'shinlari tomonidan zabt etilguncha shu nom bilan yuritilgan. Nemis oqsuyaklari va german knyazlari hukumatlari bilan turli xil bitimlar tuzish natijasida nemis va ajnabiy burjua ahli shunday faxrli unvonlarga sazavor bo'lar edilar.

«Nuridiydam, so'ragan narsangni yubordim. Bu pullarni foydali ishlarga sarfla, negaki hayotingni saqlab qolish uchun kerak bo'lsa ham, bunchalik ko'p pulni otangga bildirmay yana bir marta to'plab yubora olmayman, otangga bildirgudek bo'l-sak, oilamiz tinchi buziladi. Yana bir marta pul so'raydigan bo'lsang, yerimizni garovga qo'yishdan bo'lak ilojimiz qolmaydi. Tuzgan rejalariningni bilmaganim uchun bu to'g'rida bir narsa deyishga o'zimga o'zimga, lekin bu to'g'rida menga ochiq aytishdan qo'rqibsan, nima ishlar qilmoqchisan o'zi? Buni tushuntirish uchun qanchadan qancha daftarlarni to'ldirib o'tirishning sira hojati yo'q, onalar uchun bir og'iz gapning o'zi kifoya qiladi, shu bir og'iz so'z bilan ko'nglim tinchiydi-qoladi. Sendan yashira olmayman, yuborgan xating menga yomon ta'sir qildi. O'g'lim, meni bunday vahimaga solib qo'yishga nima majbur qildi seni? Xatingni yozib tugatguncha qattiq azob chekkan ko'rinasan, negaki uni o'qib chiqquncha men ham juda qiynalib ketdim. Oldingga qanday ishlarni maqsad qilib qo'yding o'zing? Sening hayoting va tinchliging odamlardan haqiqiy ahvolingni yashirish bilan, imkoni yo'q darajada pul va ilm orttiraman deb, qimmatli vaqtingni sarf qilish hisobigagina odamlar orasiga kirish bilan bog'liq bo'lib qolmaydimi? O'rgilay, Ejen, onang yuragiga ishon: qing'ir yo'l yaxshilikka olib bormaydi. Sening vaziyatingdagi yigillar har qanday ishratdan voz kechib, sabr-toqat bilan o'qishlari kerak. Seni koyiyotganim yo'q, yuborgan pulimizning senga zahar bo'lib botishini istamayman. Aytayotgan gaplarim – oqko'ngil, ehtiyotkor onaning gaplaridir. Burching nimadan iborat ekanini bilar ekansan, unda xotirjamman, negaki sening qalbing nechog'liq pokligini, niyating qanchalik Xolisligini men bilmasam, kim bilsin. Demak, sira qo'rqmasdan: – Bor, tasadduq, harakatingni qilaver, – deb ayta olaman. Men cho'chiyapman, negaki, harna bo'lganda ham onaman, lekin biz onalarning toat-ibodatlarimiz va qilgan duolarimiz har qadamingda senga madad bo'ladi, Ehtiyot bo'l, qo'zichog'im. Sen katta kishilardak aqlli bo'lishing kerak, axir, sen uchun qimmatli bo'lgan besh jonning taqdiri sening aql-idrokingga bog'liq bo'lib turibdi. Ha, bizning qismatimiz sening qo'lingda, sen baxtli bo'lsang, bizning baxtli bo'lganimiz. Biz bu yerda xudoga iltijo qilib, sen qilmoq-

chi bo'lgan ishlarga undan madad tilab o'tiramiz. Shunday kunda Marsiyyak xolang juda katta himmat ko'rsatdi; menga qo'lqop to'g'risida yozib yuborganingni uning o'zi fahmlab qoldi. «Ha, katta jiyanimni hammadan yaxshi ko'raman», – dedi u xursand bo'lib. Ejen, xolangni hurmat qil: uning senga qilgan yaxshiligini, niyatlaringga yetganingdan keyin ayatib beraman, agarda o'ylagan niyatingga yeta olmasang, xolang bergan pul-lar qo'lingni kuydirgani kuydirgan. Siz bolalar yodgorlik buyum-lardan judo bo'lishning naqadar og'irligini bilmaysizlar! Lekin sizlarni deb ne-ne narsalarimizdan voz kechmaymiz! «Jiyanim-ning peshonasidan o'paman, tokim bu bo'sa uni doimo muvaf-faqiyatlarga boshlasin», deb yozib yubor, – dedi menga xolang. U oliyhimmat, ajoyib ayol; agar xiragra<sup>1</sup> kasali bo'lmaganda o'ziyam senga xat yozib yubormoqchi edi. Otang sog'-salomat yuribdi. Bu 1819-yil hosili mo'ljalimizdan ham mo'l bo'ldi. Endi xayr, o'g'lim. Singillaring to'g'risida hech nima demayman: Loraning o'zi senga xat yozyapti. Oilamizda yuz bergan iker-chikir hodisalar to'g'risida gap sotish imkonini unga bera qolay. Xudo yor bo'lsin senga, O! Shunday bo'lsin, iloho, Ejen, omading kelsin: seni deb shunday g'am-tashvish chekdimki, ikkinchi martasiga dosh bera olmayman. Ug'lingga pul yuborish zarur bo'lsa-yu, o'zing kambag'al bo'lsayam, shunday paytda, nega boy bulmagan ekanman, deb o'ylashning naqadar og'ir ekanini men boshimdan o'tkazib bildim. Xo'p, omon bo'l. Bizni xat-xabarsiz qoldirma, xatimning oxirida seni mahkam quchib o'pib qolaman».

Ejen xatni o'qib bo'lganda, yuzidan ko'z yoshlari duv-duv oqib tushmoqda edi; u qizining vekselini to'lash uchun kumush idishni sotgani burab-burab yumaloqlagan Gorio otani esladi, «Sening onang ham o'z qimmatbaho ziynatlarini «yuma-loqlab» sotgan! – derdi u o'ziga o'zi. – O'zining yodgorlik bo'lib qolgan ziynat buyumlarini sotayotganda xolang bechora ham rosa yig'lagandir! Shunday ekan, Anastazini so'kishga nima haqqing bor? Bunday ishni u o'z o'ynashini deb qilgan ekan, sen o'zingning shaxsiy istiqbolingni o'ylab qildingmi? Kim yaxshi-

<sup>1</sup> Xiragra – qo'lning bod kasalidan zirqirab og'rishi.

roq: senmi yo u?» Talaba ichi o't bo'lib yonib ketganini his qildi. Hozir u olib tabaqa davrasida hayot kechirishdan voz kechishga ham, bu pullarni qaytarib yuborishga ham tayyor edi. U olijanob va sof vijdonning pinhona azob chekishi qanday bo'lishini boshidan kechirdi, odamlar o'z yaqinlarining bunday qilishidan gapirishar ekan, bu xildagi ishlarga kamdan kam qoyil qolib to'g'ri baho beradilar, garchi yer yuzining huquqshunoslari buni qoralasalar ham, osmon farishtalari bunday Jinoyatchilarning gunohidan o'tadilar. Ejen singlisining iffat va latofat to'la yozilgan xatini ochib o'qirkan, darhol dardi yengillashdi:

*«Akajon, yozgan xating juda vaqtida yetib keldi. Agata bilan ikkalamiz pulimizga ul-bul sotib olmoqchi edig-u, faqat gapimiz bir yerdan chiqmay, nima olishni bilolmay yurgandik. Sen ham ispan qirolining xizmatkori xo'jayinining hamma cho'ntak soatlarini yerga tushirib yuborganda erishgan narsaga yetishding: bizni bitishtirding. Biz akajon, chindan ham, ikkalamizning ham istagimizni ro'yobga chiqaradigan narsani topolmaganimizdan, bir gapga kelolmay g'ijillashib yurgan edik. Agata suyunib ketganidan dikir-dikir sakray boshladi. Xullas, xursand bo'lganimizdan, to'kechgacha o'zimizni qayerga qo'yishni bilmay yurdik, bu ishimiz shunday sezilarli darajaga (xolamning iborasi) borib yetdiki, oyim jahl bilan: «Nima bo'ldi sizlarga, a?» – deb so'rab qoldi. U bizni ozgina urishib berganda, o'ylaymanki, yana ham xursand bo'lardik. Yaxshi ko'rgan odami uchun iztirob chekish ayol kishiga katta lazzat bag'ishlaydi! Shunday xursand bo'lishimizga qaramay yolg'iz men o'yga tolib, xafa bo'lib qoldim. Men erga tekkanimda yomon xotin bo'lsam kerak, nega desang, pulni har baloga isrof qilaman. Men o'zimga ikkita belbog', korsetim orasidagi teshiklarni berkitish uchun yaxshigina punson sotib oluvdim, xullas qayoqdagi qalang'i-qasang'i narsalarga pul sarf qilib qo'ygandim, natijada, mening pulim baqaloq Agatanikidan ancha kamayib kelgandi, nega desang u rejali-tejamli qiz, pullarini hakkadek to'plab yuradi – uning puli ikki yuz frank ekan. Meniki esa, akajonim, bir yuz ellik frank qolibdi, xolos. Qilmishim uchun rosa ta'zirimni yedim, ko'zimga yomon ko'rinib ketgan belbog'larimni quduqqa tashlab yuborgim keldi, ularni ko'rgani ko'zim yo'q. Sening haqqingni o'g'irlagan bo'lib chiqdim. Agata*

biram aqlli qizki, nima dedi degin-a: «Uch yuz ellik frankni ikkalamiz nomimizdan yubora qolaylik!» – dedi. Hamma gapni batafsil gapirib berishdan o'zimni tiya olmayman. Aytganlaringni bajarish uchun nima qilganimizni bilasanmi? O'zimizning zig'irdek pullarimizni olib, aylanib kelgani chiqib ketdik, ammo katta yo'lga chiqib yelishimiz bilanoq Ryufekka qarab yugurdik, u yerga borib, pullarimizni Qirol pochta aloqa SQ Balzakni idoraning xo'jayini janob Grimbertga topshirdik! Shundan keyin uyga xuddi qushday yengil bo'lib uchib keldik. «Balki, baxtli bo'lganimiz uchun shunday yengil tortgandirmiz?» – deb qo'ydi Agata. Ikkalamiz bir-birimizga juda ko'p gaplarni gapirib yubordik, ammo u gaplarni, janob parijlik, sizga takrorlab o'tirmayman. Suhbatimizning mavzui asosan siz edingiz. Akajonginam, seni judayam yaxshi ko'ramiz, gapimiz ana shu. Sir saqlashga kelganda esa, xolamning gapiga qaraganda biz shunaqayam yuragi daryo odamlar emishmizki, har qanday sirni ham ichimizda yashirib, pinhon tutishga qurbimiz yetadi. Oyim bilan xolam o'zlarining yuksak siyosiy maqsadlari haqida hech narsa demasdan, hech kimga bildirmay Angulemgaga borib kelishdi, bu safardan oldin uzundan uzoq majlis qurildi, lekin bu majlisga biz ham, shuningdek janob baron ham kiritilmadi. Rastinyaklar davlatida buyuk tashabbusga donolar bosh qo'shyapti. Saroy xonimlari avvalgidek malika oliy hazratlari uchun nafis hoshiyali muslin ko'ylaklar tikish bilan bandlar, bu ish juda sir saqlangan holda olib borilmoqda; faqat ikki joyda oz-ozdan chalasi bor. Vertey tarafdan devor olmaslik to'g'risida qaror qabul qilindi, u taraf faqat chetan<sup>1</sup> devor bilan to'sib qo'yiladi. Mahalliy aholi o'sha tarafdan daraxt va ishkamlardan meva yeyish imkonidan mahrum etildi, buning hisobiga. musofirlar uchun chiroyli manzaralarni tomosha qilish imkoni qoldirildi. Mabodo valiahd dastro'molchaga zarur bo'lib qolgan ersalar, u janobga yetib ma'lum bo'lsinki, bevalikda umr kechirayotgan malika de Marsiyyak o'zining Pompey va Gerkulanum deb nomi chiqqan sandiqlaridagi hazinalari orasini titkilab ko'rib, xotira-

<sup>1</sup> Chetan – 1) sochiluvchi yuklarni tashish uchun tol, tut novdalaridan to'qib yasalgan maxsus kajava, kuzov; 2) chetandan qilingan, chetan bilan o'ralgan (asarda shu ma'noda); 3) ra'noguldoshlar oilasiga mansub, qizil yoki sarg'ish shoda-shoda mevali daraxt yoki buta hamda uning mevasi.



laridan tamoman faromush bo'lgan, golland shohisidan tikilgan bir nima topdilar; malikalardan Lora va Agatalar igna, ip va ilgarigidek qip-qizil qo'llarini ul oliy hazratlarining ixtiyoriga topshiradilar. Ikkala yosh shahzoda – don Anri bilan don Gabriel hali ham burunlaridan chiqquncha shinni yeyish odatlarini, opalarining jig'iga tegish, hech nima o'qimaslik, qushlarning inini buzish, shovqin-suron solib yurish va davlat qonunlari man etgan bo'lishiga qaramay, tol novdalarini kesib, hassa yasashdek yaramas odatlarini tark etishgani yo'q. Papa vakili, sodda qilib aytganda – bizning ruhoniy otamiz esa, ularga bundan keyin ham xat-savod o'rganish o'rniga laqillab yurishni odat qiladigan bo'lsanglar, sizlarni cherkov himoyasidan chiqarib yuboraman, deb do'q-po'pisa qilib qo'yadilar.

Xayr endi, akajon, hech vaqt bironta ham xatda sening baxtli bo'lishingni bu qadar tilamagan, bu qadar mehr-muhabbatimizni izhor qilmagan edik. Bu yerga kelganingda bizga aytib beradigan gaplaring juda ko'p bo'ladi! Men katta singlingman, shuning uchun ham menga hamma gapingni aytasan. Xolam sening zodagonlar davrasida muvaffaqiyat qozonayotganingni bizga shipshitib qo'ydi.

So'zlashishar faqat-faqat jononlar haqida.

Bu bizning to'g'rimizda, albatta! Bilasanmi, Ejen: xohlasang, biz dastro'molchasis ham kun ko'ra olamiz, o'rniga senga ko'ylak tikib yuboramiz. Bu to'g'rida bizga tezroq javob yozib yubor. Agar senga puxta va chiroyli qilib tikilgan ko'ylak juda zarur bo'lsa, biz hoziroq ishga o'tiramiz; Parijda biz bilmaydigan fasonlar bor bo'lsa, nusxasini yubor, ayniqsa, manjetidan<sup>1</sup>. Xayr, omon bo'l! Peshonangning chap tarafidan – faqat meniki hisoblangan chakkangdan o'pib qolaman. Yozilmagan bir bet qog'ozni men yozganlarimni o'qimaslik sharti bilan Agata uchun qoldirdim. O'shanda ham ko'nglim to'q bo'lishi uchun, u xatini yozib tugatguncha oldida turaman.

Seni yaxshi ko'ruvchi singling  
Lora le Rastinyak».

<sup>1</sup> Manjet – kiyimlarning yeng qismini zichlab turuvchi maxsus qisqichlar yoki bezak.

«O, albatta, albatta, boylik orttirish kerak, nima qilib bo'lsa ham! – deb ta'kidlardi o'ziga o'zi Ejen. – Bunday sadoqatli mehr-muhabbatning qadriga yetish uchun har qancha xazina ham kamlik qiladi. Qani endi ularni birato'la baxtli qila olsam!.. Bir yarim ming frank! – deb pichirladi u, birpasdan keyin. – Bu pulning har bir franki ko'zlangan maqsadga sarflanishi kerak! Lora to'g'ri aytadi. Xudo haqi! Hamma ko'ylaklarim oddiy matodan tikilgan. Qiz sho'rlik akasining baxti yo'lida o'g'ridek ayyor bo'lib ketibdi. Bu oqko'ngil qiz faqat men tufayli ehtiyotkor bo'lib qolibdi; bu farishtaning foniy dunyodagi gunohlardan xabari yo'q bo'lsa ham, ularni kechiradi!»

Endi zodagonlar davrasiga yo'l ochildi! Mashinachi chaqirildi, suhbatlashildi, rom qilindi! Rastinyak yosh yigitlar hayotida kiyim tikuvchining qanday katta rol o'ynashini Maksim de Trayni ko'rganidayoq tushunib olgan edi. Ammo mashinachi kiyimni tikishiga qarab yo odamning do'sti, yo ashaddiy dushmani bo'ladi. – Uning to'g'risida boshqacha tushunchaning bo'lishi mumkin emas. Ejen topgan mashinachi o'z hunarini otalarcha yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi kasb deb tushunadigan va o'zini yosh yigitlarning hozirgi hayoti bilan kelgusi hayotini ulab turadigan zanjir deb his qiladigan odam bo'lib chiqdi. Keyinchalik, so'zga chechanligi bilan dong chiqargan Rastinyak bitta o'tkir gapi bilan mashinachini badavlat odam bo'lib ketishiga yordam berdi.

– Men, – derdi Rastinyak, – u tikkan ikkita shimni bila-man; u shimlar ikkita nikohga va nikohlar oqibatida kuyovning yiliga yigirma ming frankdan daromad olishiga sababchi bo'lgan.

Bir yarim ming frank evaziga ko'nglingga siqqanicha franklar! Bechora janublik yigit bunday paytlarda endi hech narsadan shubha qilmas edi, shuning uchun ham nonushtaga tushib kelar ekan, yoniga uncha-muncha pul tushib qolganidan keyin bosar-tusarini bilmay qoladigan hamma yigitlar singari juda o'zgarib ketgan edi. Talabaning cho'ntagiga pul tushdimi, shu zahoti kayfiyati afsonaviy tosh ustunlardek ko'klarga ko'ta-

rilib ketadi-da, o'zini o'sha yuksak pedestalda<sup>1</sup> his qila boshlaydi. Talabaning qadam qo'yishi darrov chiroyli bo'lib ketadi, har bir ishni dadil qiladigan, odamlarga tap tortmay tik qaraydigan, tez harakat qiladigan bo'lib qoladi; kechagina u tortinchoq, mo'mintoy, hatto kaltak esa ham indamay ketishga rozi edi, ertaga esa o'zi bosh ministrni kaltaklashdan ham tap tortmaydigan bo'lib qoladi. U allaqanday holatni boshidan kechiradi: uning ko'ngli hamma narsani tusaydi va istagan ishiki qila oladi, miyasi to'la chalkash fikrlar, o'zi shod-xurram, qo'li ochiq va dilkash. Qisqa qilib aytganda, qanoti yo'q qushga ulkan qanot baxsh etilgandek. Puli yo'q talaba ahyon-ahyonda bir rohat qilib qoladi – u ming xil xavf-xatarlar orasidan chap berib o'tib, suyak o'g'irlab qochgan va pastqam yerni topib olib ko'migini shimadigan, so'ng yana o'z yo'liga qarab ketadigan itni eslatadi; lekin yosh yigitning yonida oltin jaranglagan hamyoni bo'lsa, mazza qilib kayf-safo suradi, olayotgan lazzat muddatini cho'zishga harakat qiladi, o'zidan o'zi mamnun bo'ladi, «qashshoqlik» degan so'zning ma'nosini tamom unutib, o'zini arsh-a'loda his qiladi. Butun Parij uning farmoniga muntazir. O, hamma narsa yarqirab, uchqunlar sochib va alangalanib yotgan yoshlik davri, ayollar ham, erkaklar ham umrini bekor o'tkazib kayf-safoga berilgan davr! Qarzdorlik va muttasil yurak hovuchlab yuradigan davr – bu esa turmush lazzatini yana ming hissa oshirib yuboradi! Sena daryosining chap sohilidagi, Sen-Jak ko'chasi bilan Sen-Per ko'chalari oralig'ida<sup>2</sup> bo'lmagan kishi inson hayoti nima ekanini aslo tushunmaydi!

– «O, agar parijslik ayollar buni bilishsa, ishq-muhabbat axtarib shu yerga kelishgan bo'lar edi!» – Rastinyak o'ziga o'zi shunday deb, beva Vokening donasi bir lira turadigan pishirilgan noklarini paqqos tushira boshladi.

Shu payt Qirol pochta aloqalari idorasining xodimi panjrali ko'cha eshikning qo'ng'irog'ini chalib, yemakxonaga kirib keldi. U janob Ejen de Rastinyak kim bo'ladi, deb so'rab, uning oldiga ikki hamyon pul bilan imzo chekish uchun kvitansiya

<sup>1</sup> P'edestal – mansab, martaba; obro'.

<sup>2</sup> «... Sen-Jak ko'chasi bilan Sen-Per ko'chasi oralig'ida» – ya'ni Lotin mahallasi – Parij rayonlaridan biri; bu yerda juda qadim zamondan oliy o'quv yurtlari, muzeylar va kutubxonalar joylashgan edi.

qo'ydi. Votren Rastinyakka shunday qattiq tikildiki, bu qarash go'yo uni qamchi bilan savalagandek ta'sir etdi.

– Shamshirbozlik sabog'ini ham, tirda o'q otish san'atini ham o'rganish imkoni tug'ilibdi-da, – dedi u Ejenga.

– Axiri galionlar<sup>1</sup> yetib kelibdi! – deb yubordi Voke pul to'la hamyonlarga qarab.

Mademuazel Mishono o'zining ochko'zligini sezdirib qo'ymaslik uchun pulga qarashdan qo'rqardi.

– Onangiz mehribon ekan, – dedi Kutur xonim.

– Onasi mehribon ekan, – deb takrorladi Puare.

– Ha, oyijoni oxirgi qo'r-qutlaridan ajrabdi, – dedi Votren, – endi ta'bingizga kelgan ishni qilaverasiz, oliy tabaqa kishilar orasiga kirasiz, sepi katta qizlarga tuzoq qo'yasiz va sochiga shaftoli guli qistirgan grafinyalarni raqsga taklif etasiz. Lekin mening gapimga inoning, yigitcha, tirga ham tez-tez kirib turing.

Votren go'yo dushmani mo'ljalga olayotgandek harakat qildi. Rastinyak pochta xodimiga choy puli bermochi edi, ammo yonida mayda puli yo'q ekan. Votren cho'ntagini kavlash-tirib, yigirma su topib xodimga tashladi.

– Sizga qarz berib turishga doim tayyorman, – dedi, u, talabaga qarab turib.

Garchi Rastinyak de Bosean xonimnikidan qaytib kelgan kundan beri bu kishini yomon ko'rib qolgan bo'lsa ham, unga tashakkur bildirdi. So'nggi haftada Votren bilan Rastinyak uchrashganda indashmas va faqat bir-birlarini kuzatishardi. Buning sababi nima ekan deb talaba bekordan bekor bosh qotirardi. Shubhasizki, fikrlar uzoqdan turib o'z manbai hisoblanmish kuchga to'g'ri mutanosib ravishda harakat qiladi va Mortiradan otilgan bombani boshqaradigan qandaydir matematik qonunga o'xshagan biror qoidaga asosan aynan miya yo'naltirgan nuqtaga borib uriladi. Buning natijasi har xil bo'lishi mumkin. Yumshoq tabiatli odamlar bo'ladiki, bunday odamlarning dili ko'ngilga chuqur joylashib olgan o'zgalarning fikridan vayron bo'ladi; ammo shunday mustahkam irodali odamlar ham uchraydiki, bunday odamlarning miya qopqog'ini go'yo bronzadan quyilgan

<sup>1</sup> Galion – ispanlarning yelkanli kemasi. XVI – XVII asrlarda ispanlar shu galionlarda Janubiy Amerika tuprog'ida o'zlari o'g'irlagan yoki mahalliy indeyslarning mashaqqatli mehnati bilan topilgan tog'-tog' oltin va kumushlarni olib chiqib ketgan edilar.

deysiz, – devorga otilgan o‘q unga urilib yerga tushganidek, o‘zga kishining fikri ham unga urilib pacha-pacha bo‘ladi; bulardan tashqari ojiz va bo‘sh tabiatli odamlar ham bor: bundaylar miyasiga boshqa odamlarning fikri transheya<sup>1</sup> ustiga sepilgan qumga cho‘kkan yadrolardek oppa-oson cho‘kib isitaveradi. Rastinyakning miyasi porox bilan to‘ldirilgan va ozgina uchqundan portlab ketishga tayyor turgan odamlarning miyasidan edi. Rastinyak yoshlarga xos qizg‘in ehtirolarga to‘la yigit edi, shu sababli kishini beixtiyor o‘ziga tortib ketadigan ajoyib fikrlar ta‘siriga, o‘ziga rom qilib qo‘yadigan ehtirolar ta‘siriga berilib ketmay iloji yo‘q edi. Qalbidagi ehtirolarning o‘tkirligi barsniki singari ko‘zlarining o‘tkirligidan qolishmasdi. Haqiqatni ikki yoqlama (ham aqli, ham hislari bilan) shu qadar nozik va chuqur his qilar ediki, alohida iste‘dodga ega bo‘lgan odamlargina, masalan, raqibi qanday sovutga o‘ralgan bo‘lishiga qaramay, uning himoyasiz yerlarini bir lahzada sezib oladigan mohir shamshirbozlar shunday odamlar bo‘ladi. Shunisi ham borki, keyingi oy ichida Rastinyakning orttirgan kamchiliklari uning fazilatlaridan kamlik qilmasdi. Bu kamchiliklarning yuzaga kelishiga zodagonlar davrasining talablari va tobora ortib borayotgan xohish-istaklarining zo‘rligi sabab bo‘ldi. Uning fazilatlariga esa o‘sha janubliklarga xos qiziqqonligini qo‘shish mumkin, bunday xususiyat Luara sohillaridan kelgan yigitni yo‘lda uchragan to‘siqlar ustiga dadil bostirib yuborishga, uni yengib o‘tishga undaydi va bir yerda taraddudlanib turib qolishiga yo‘l bermaydi; shimolliklar bunday xususiyatni nuqson deb hisoblaydilar; ularning fikricha, bunday qizg‘inlik Myuratning<sup>2</sup> ko‘tarilib ketishiga sabab bo‘lgan esa-da, ayni vaqtda halokatiga ham sababchi bo‘lgan. Bulardan shunday xulosa chiqarsa bo‘ladi: janublik odam shimolliklarning firibgarligi bilan Luara bo‘ylarida katta bo‘lgan odamlarning tap tortmasligini mujassamlashtirgan holda ish ko‘ra olsa, o‘ziga yarasha yetuk odam bo‘ladi va hech kimga haqini yubormaydi.

<sup>1</sup> *Transheya* (fransuzcha: tranchee – chuqur, xandaq, zovur; trancher – qirqmoq) – jang olib borish, dushman zarbalaridan saqlanish. yashirin harakat qilish uchun moslashtirilgan, atrofi tuproq ko‘tarmali tor, uzun, chuqur zovur, xandaq.

<sup>2</sup> *Myurat loaxim* (1767-1815) – Napoleon I ning marshali; 1808-yildan 1814-yilgacha – Neopol qiroli; Napoleon taxtdan ag‘darilgach, uni ham yiqitishdi, hokimiyatni o‘z qo‘liga qaytarib olishga harakat qilganida qo‘lga tushib qatl etilgan.

Shunday qilib, Ejen Votrenning o'ziga kim bo'lishini: do'st yo dushmanligini aniqlab olmay turib, uning zambaraklaridan otilayotgan o'qlar ostida uzoq qola olmasdi. Ba'zan, Ejenning nazarida, bu g'alati odam uning dilidagi gaplarni uqib, ehtiroslarini sezib turgandek tuyulardi, ammo Votrenning o'zi bironta ham sirini sezdirmasdi, go'yo u hamma narsani ko'rib-bilib tursa ham, gung sfinksning<sup>1</sup> o'zginasi edi. Endi cho'ntagi pulga to'lgandan keyin, Ejen bunga dosh bera olmadi.

Ejen Votrenning o'rnidan turganini va ketmoqchi bo'lib, qahvasining oxirgi ho'plamini ichayotganini ko'rib:

– Iltimos, birpas to'xtab tursangiz, – dedi.

– Nega ekan? – deb so'radi qirqlarga kirgan bu odam soyabonli keng shlyapasini kiyib, temir tayog'ini qo'liga olarkan; u agar qaroqchi to'rtta bo'lsa ham qo'rqmayman deb shu temir tayog'i bilan ko'pincha «tegirmon» qilib ko'rsatar – tayog'ini gir aylantirardi.

– Qarzimni bermoqchiman, – deb javob qildi Rastinyak, shoshib-piShib hamyonlardan birini ocharkan; u bekaga bir yuz qirq frank sanab berdi. – Hamyoningni ayasang, yor-u do'stsiz qolasan, – dedi u Voke xonimga. – Silvestr bayramigacha<sup>2</sup> oramiz ochiq<sup>3</sup>. Menga yuz suni maydalab bersangiz.

– Do'stingni ayasang – hamyonsiz qolasan, – deb takrorladi Puare, Votrenga qarab turib.

– Mana yigirma su pulingiz, – dedi Rastinyak, parik kiygan sfinksga tanga uzatarkan.

– Mendan jindakkina qarzdor bo'lishdan ham qo'rqaysiz deb o'ylash mumkin! – Votren o'zining o'tkir ko'zlari bilan yigitchani teshib yuborgudek tikildi va Rastinyakning necha martalab jonini chiqargan istehzoli kulgisi bilan jilmayib qo'ydi.

– Ehtimol... shundaydir, – dedi hamyonlarini qo'liga ko'tarib yuqoriga, o'z xonasiga chiqib ketmoqchi bo'lib turgan talaba.

Votren mehmonxonaga ochiladigan eshik oldiga keldi, talaba esa zina oldidagi maydonchaga ochiladigan eshikdan

<sup>1</sup> **Sfinks** – Qadimgi Misrda odam boshli arslonning tosh haykali.

<sup>2</sup> **Silvestr bayrami** – diniy bayram. 314-315-yillarda Rimda yepiskoplik qilgan ruhoniylar Silvestrga bag'ishlab o'tkaziladigan bayram. Katoliklarda 31-dekabrda, pravoslavlarda 2-15 yanvar oralig'ida o'tkaziladi.

<sup>3</sup> «**Silvestr bayramigacha oramiz ochiq**» – 31-dekabrgacha.

chiqib ketmoqchi edi.

– Menga hozir aytgan gapingiz odobdan emasligini bilasizmi, markiz de Rastinyakorama? – deb Votren, mehmonxonaga ochiladigan eshikni tayog‘i bilan bir urdi-da, uni sovuqqina kuzatib turgan talaba oldiga keldi.

Rastinyak yemakxona eshigini yopib, Votrenni zinaga o‘tiladigan maydonchaga boshladi, bu yer yemakxonani oshxonadan ajratib turardi, unda boshqa chiqadigan bir eshik bo‘lib, uning tepasida temir panjara qo‘yilgan pastak va uzun tuynuk ham bor edi. Shu payt Silviya oshxonadan chiqib qoldi va talaba uning oldida Votrenga: «Janob Votren, birinchidan, men markiz emasman, ikkinchidan, mening ismim Rastinyakorama emas», – deganini eshitdi.

– Ular urishadi endi, – dedi beparvolik bilan mademuazel Mishono.

– Urishishadi, – deb takrorladi Puare.

– Yo‘q, bo‘lmagan gap, – dedi ustma-ust taxlangan oltin tangalarni qo‘li bilan siypab o‘tirgan Voke.

– Axir ular arg‘uvon tagiga ketishyapti-ku! – deb yubordi mademuazel Viktorina, u bog‘ga qarash uchun dik etib o‘rnidan turgan edi... – Bechora yigit, axir, uning gapi to‘g‘ri-ku!

– Yuring, o‘rgulay, uyimizga chiqaylik, bizning ishimiz emas, – dedi unga Kutyr xonim.

Kutyr xonim bilan Viktorina o‘z xonalariga chiqib ketish uchun o‘rinlaridan turishdi, lekin ostonada baqaloq Silviya ularning yo‘lini to‘sdi.

– Bir kami shu edi endi! – dedi u. – Janob Votren janob Ejenga: «Bir ochiqchasiga gaplashib olaylik!» – dedi. Keyin u janob Ejenni qo‘ltiqlab oldi, ana ular polizimiz yonidan o‘tib ketishyapti.

Xuddi shu payt Votren qaytib kirib qoldi.

– Onaxonim, – dedi u iljayib turib, – qo‘rqmang, hozir arg‘uvon ostida men to‘pponchalarimni sinab ko‘rmoqchiman.

– O, janob Votren, kima uchun Ejenni o‘ldirmoqchisiz? – dedi Viktorina, qo‘llarini bir-biriga urib.

Votren orqaga ikki qadam chekinib, birpas Viktorinaga tikilib turib qoldi.

– Ana xolos! – deb yubordi u, hazil aralash; bundan qiz

bechora qizarib ketdi. – Rost-a, yigit tushmagur durust bola, a? – deb qo‘shimcha qildi u. – Miyamda ajoyib bir fikr tug‘dirdingiz, yaxshi qiz. Ikkalangizni ham baxtiyor qilaman.

Kutyur xonim o‘z tarbiyasidagi qizning qo‘ltig‘idan olib, qulog‘iga:

– Menga qarang, Viktorina, bugun meni juda hayron qoldirdingiz, – dedi-da, yuqoriga boshlab chiqib ketdi.

– Uyimda to‘pponcha otishingizni istamayman, – deb qoldi Voke xonim. – Hozir hamma qo‘shnilarni boshimizga yig‘asiz, politsiya ham keladi.

– Xo‘p, mayli, jim, onaxon Voke, – deb javob qildi Votren. – Bay-bay, xo‘p dedik-ku, biz tirga bora qolamiz.

U Rastinyak oldiga borib, do‘stona vaziyatda uning qo‘ltig‘idan oldi.

– Agarda, – dedi u, – tirda qarg‘a tuzga o‘ttiz besh qadam joydan ketma-ket besh marta tekkiza olsam, qovuringizdan tushasizmi? Mening o‘ylashimcha, bir oz tentakroqqa ham o‘xshaysiz, ahmoqlardek o‘ldirib yuborishimga yo‘l ochib beryapsiz.

– Gapingizdan qaytib qoldingiz deyman, – dedi Ejen.

– Ensamni qotirmang, – deb ogohlantirdi Votren. – Bugun kun sovuq emas, huv anavi yerga borib o‘tiramiz, yuring, – deb taklif qildi u ko‘k skameykalarni ko‘rsatib. – O‘sha yerda gapi-mizni hech kim eshitmaydi. Siz bilan gaplashib olishim kerak. Siz yaxshi yigitsiz, men esa sizga yomonlikni ravo ko‘rmayman, bu Ob... (tuf-e, esim qursin!) Votrenning chin so‘zi – sizni hatto yaxshi ko‘raman ham. Sizni nima uchun yaxshi ko‘rganimni keyinroq aytib beraman. Hozir esa, sizni go‘yo o‘zim bunyod qilgandek, miringizdan siringizgacha juda yaxshi bilaman, buni isbot qilib ham beraman. Hamyonlaringizni mana bu yerga qo‘ying, – dedi u dumaloq stolni ko‘rsatib.

Rastinyak pullarini stolga qo‘ydi va uni hozirgina o‘ldirmoqchi bo‘lib turgan odamning muomalasi to‘satdan o‘zgarib qolganidan, endi o‘zini allaqanday homiy qilib ko‘rsatayotganidan nihoyatda hayron qolib, buning sababini bilishga juda qiziqib skameykaga o‘tirdi.

– Mening kimligimni, ilgari nima ish bilan shug‘ullanganimni hozir nimalar qilayotganimni juda ham bilgingiz keladi,



– deb gap boshladi Votren. – Siz juda ham sinchkov ekansiz, uka. Lekin tinchlaning, hozir ancha-muncha har xil gaplarni eshitasiz! Mening omadim kelmadi. Oldin gapga quloq soling. Gapingizni keyin aytasiz. O‘tmishimni ikki og‘iz so‘z bilan aytsam, ana shu. Men kimman? Votrenman. Nima ish qilaman? Nimani xohlasam shuni. Vassalom. Qanday tabiatli odamligimni bilmoqchimisiz? Menga yaxshi ko‘z bilan qaraganlarga yoki menga yoqqan odamlarga yaxshiman. Bunday odamlar nima qilsalar ham hatto ular oyog‘imni bosib olishsa ham indamayman, «Hey, ko‘zingga qara!» – deb qichqirmayman. Ammo jahlimni chiqargan yoki menga yoqmagan odamlarga nisbatan iblisdan ham yomonman. Sizga aytib qo‘yay, men uchun odam o‘ldirish – tuf deb tupurishdan ham oson gap. Lekin hech iloji qolmagan taqdirdagina o‘ldiraman, o‘ldirganda ham sira iz qoldirmaydigan qilib o‘ldiraman: bu borada, meni artist desa ham bo‘ladi. Shunday odam-manki. Benvenuto Chelinining «Xotiralar»ini o‘qiganman, o‘qiganda ham italyan tilida o‘qiganman! Kallakesar deb ana o‘shani aytsa bo‘ladi, bizni ming ohangga solib o‘ldiradigan taqdiri azalga taqlid qilishni menga o‘rgatgan ham o‘sha, bundan tashqari, u menga qachon va qayerda bo‘lmasin go‘zallikni sevishni ham o‘rgatdi. Bir o‘zing hammaga qarshi borsang-u, g‘olib chiqishingga ishonch bo‘lsa, mana shunday odam rolini o‘ynashning o‘zi go‘zal emasmi? Men sizlarning ijtimoiy tartibsizligingizning hozirgi paytdagi tuzumi to‘g‘risida ko‘p o‘ylaganman. Duel, o‘g‘lim, bolalar ermagi, ahmoqlik. Duelda ikki tirik odamdan biri o‘lishi lozim bo‘lgandan keyin, faqat ahmoq odam o‘zini tasodiflar quchog‘iga ishonib topshiradi. Xo‘sh, duel-chi? Gardkam! Ana shu, xolos. Qarg‘a tuzga men ketma-ket besh marta ustma-ustiga o‘q tekkiza olaman, yana o‘ttiz besh qadam joydan! Mana shunday qobiliyating bo‘lgandan keyin raqibingni o‘ldira olishingga ishonsang bo‘ladi. Lekin bir odamga yigirma qadamdan o‘q otganman-u, tekkiza olmaganman. O‘sha tentak raqibim umrida to‘pponcha ushlamagan odam ekan. Mana, ushlab ko‘ring! – dedi bu g‘alati tabiatli odam nimchasining tugmasini yechib va ayiqning yelkasidek serjun, jun bo‘lganda ham allaqanday yoqimsiz qo‘ng‘ir-qizg‘ish jun qoplab ketgan ko‘kragini ochdi; keyin Rastinyakning barmog‘ini ko‘kragidagi qandaydir chandiq chuqurchaga tiqib ko‘rsatib, gapini

davom ettirdi: – Xuddi o’sha ona suti og’zidan ketmagan ta’viya mana shunday qilib junimni kuydirib qo’ygan, lekin u vaqtda o’zim ham sizga o’xshagan yosh bola edim, yoshim yigirma birda edi. Men u vaqtlarda hali ba’zi narsalarga, xotinlar muhabbatiga va yana bir qancha bema’ni gaplarga ishonardim, siz ham hali o’shanday tuzoqqa ilinasiz. Ikkalamiz urishib qolishimiz ham mumkin edi, shunday emasmi?! Ehtimol, meni o’ldirdingiz ham deyaylik. Faraz qilaylik, meni ko’mib tashlashdiyam, xo’p, siz nima qilasiz? Shveysariyaga qochib, o’sha yerda otangizning pulini yeb yotishga majbur bo’lar edingiz, otangizda esa pul yo’q. Men hozirgi ahvolingizni yoritib beraman, buni sizdan ustun bo’lganim uchun yuksaklikdan turib qilaman, chunki men bu dunyoning ishlariga batamom tushunib olganman, hayotda men faqat ikki yo’l borligini yaxshi bilaman: biri – to’porilik bilan bo’ysunish, ikkinchisi – isyon. Shaxsan men hech narsaga bo’ysunmayman, tushundingizmi? Hozirgi mo’ljal qilib turgan ishlaringizni amalga oshirish uchun sizga nima kerakligini bilasizmi? Million kerak, o’shanda ham juda zudlik bilan kerakki, aks holda, oliy mavjudotning bor-yo’qligiga ishonch hosil qilish uchun, shu sho’rlik boshimizni Sen-Kludagi to’rlarga borib urgani ravona bo’lsak<sup>1</sup> ham ajab emas. O’sha millionni sizga men topib beraman. – Votren Ejenga tikilib turib birpas gapdan to’xtadi. – Aha! Mana endi Votren amakingizga ancha ochiq chehra bilan qaray boshladingiz. «Million» degan so’zni eshitish bilanoq: «Bugun kechqurun», – deb va’da olgan yosh qizga o’xshab ketdingiz, – unday qizlar bu gapni eshitishi bilanoq o’zlariga oro bera boshlaydilar, sutni ko’rib qolgan mushukdek og’izlarining suvi kelib tamshana boshlaydilar. Juda soz. Demak, ketdikmi? Qo’lni qo’lga berib, ketdik! Pulingizni qo’lingizga olib oling, yigitcha. Qishloqda bizning otamiz, onamiz, qari xolamiz, biri o’n sakkiz yashar, ikkinchisi o’n yetti yashar ikki singlimiz, biri o’n beshda, ikkinchisi o’nda ikki ukamiz bor – butun guruhimiz ro’yxati mana shunday. Xolamiz singillarimizga tarbiya beradi. Ikkala ukamizga esa Kyure lotin tilini o’qitadi.

<sup>1</sup> «...Boshimizni Sen-Kludagi to’rlarga borib urgani ravona bo’lsak...» – ya’ni suvga cho’kib o’lsak, demoqchi. Parijdan uzoq bo’lmagan Sen-Klu shaharchasi yaqinida, Sena daryosining quyi oqimida, suvga cho’kkan odamlarning jasadlarini tutib qolish maqsadida, daryo to’rlar bilan to’silgan edi.

Oila oq nondan ham ko'ra ko'proq atala bilan tirikchilik o'tkazib turadi, otamiz shimini juda ehtiyot qilib kiyadi, onamizning nari borsa bitta qishlik, bitta yozlik ko'ylagi bor, singillarimiz esa egniga to'g'ri kelgan narsani ilib yurishadi. Mening hammasidan xabarim bor, janubda bo'lganman. Sizning ahvolingiz ham xuddi shunday; sizga yiliga bir ming ikki yuz frank yuborib turishgan ekan, demak, yeringizdan oladigan daromad uch ming frankdan oshmaydi. Oshpaz xotin, oqsoch xotinlardan iborat xizmatkorlarimiz ham bor, axir, sirdan qaragan odamlarning ko'ziga durustroq bo'lib ko'rinishi kerak-da, nima bo'lganda ham, otamiz – baron. Ammo shaxsan o'zimizga kelsak, shuhratparastligimiz yo'q emas. Bosean degan qarindoshimiz bor-u, o'zimiz piyoda yuramiz; boy bo'lishni orzu qilamiz-u, cho'ntagimizda bir so'm ham pulimiz yo'q, Voke onaxonimizning maza-matrasiz ovqatini yeb tirikchilik qilamiz-u, o'zimiz Sen-Jermen dahasidagi lazmatli taomlarni xush ko'ramiz, pachoq karavotda yotib yuramiz-u, o'zimizga alohida hovli sotib olishni orzu qilamiz! Orzu-havaslarimizni qoralayotganim yo'q. Har kim ham, do'stim, shuhratparast bo'la olmaydi. Qanday erkaklarni yoqtirasizlar deb xotinlardan so'rab ko'ring, – shuhratparast yigitlarni yaxshi ko'rishadi. Boshqa erkaklarga qaraganda shuhratparastlarning beli baquvvatroq, qonida temir moddasi ko'proq, qalbi serotash bo'ladi. Xotin kishi esa avji yetilib turganda o'zini shunday baxtli, shunday go'zal deb hisoblaydi-ki, o'zini majaqlab tashlanishidan ham qo'rqmay, hammadan ham eng baquvvat erkaklarni afzal ko'radi. Butun istaklaringizni sizga bir-bir sanab berishimdan maqsad, bitta savol bermoqchiman. Bermoqchi bo'lgan savolim bunday: ishtahamiz karnay, tishlarimiz o'tkir, lekin qozonga solish uchun masalliqni qayerdan olamiz? Dastavval «Qonunlar majmuasi»ni o'zlashtirishimiz kerak; buning sira qizig'i yo'q, hech narsaga o'rgatmaydi ham; ammo kerak. Shunday ham bo'la qolsin; biz sud hay'atiga a'zo bo'lamiz, keyinroq borib jinoiy sudga rais bo'lib ko'tarilamiz, o'shanda qiladigan ishimiz: o'zimizdan yaxshiroq odamlarning yelkasiga «S. Q.<sup>1</sup>» harflarini tamg'a qilib bosamiz-da, ularni surgunga jo'natamiz, bu bilan boy-badavlat kishilarga tinch

---

<sup>1</sup> «S. Q.» – surgun qilingan.

uxlashingiz mumkin deb, ish ko'rsatgan bo'lamiz. Bu ishlarning hech qiziq yeri yo'q, buning ustiga bosh og'rig'isi ko'p. Avvaliga ikki yilcha Parijda sarson bo'lib yuramiz, shirin-shakar narsalarni juda yaxshi ko'rsak ham, ularga aslo qo'l tekkizmay, faqat uzoqdan ko'zimizni lo'q qilib qarab yuramiz. Doim orzu qilamiz, ammo hech vaqt orzuni ushala olmaslik – kishining tinkasini quritadi. Agar siz molyuskalar singari sovuqqonli odam bo'lganingizda edi, hech narsadan qo'rqmasangiz bo'lardi; ammo sizning qoningiz arslonniki singari qaynoq, orzu-istaklaringiz shu qadarki, bir kunda yuz marta tentaklik qilishingizga ham yetib ortadi. Xudoning do'zaxidagi azoblaridan eng dahshatlisi bo'lgan mana shunday azob ichida halok bo'lib ketasiz. Faraz qilaylik, siz esli-hushli odamsiz, faqat sut ichib, mungli she'rlar to'qib yurasiz; unda juda ko'p ko'ngilsizliklar va hatto, it ham chiday olmaydigan muhtojliklardan keyin olijanobligingiz sabab bo'lib, biror chekka shaharda yaramas bir prokurorning yordamchisi bo'lib ish boshlaysiz, bu ishingizga hukumat yiliga ming frankdan pul to'lab turadi, bu esa qassob itining idishiga yuvindi solib bergandek gap. O'g'rilarga irilla, boylarni himoya qil, dovyuraklarni dor ostiga jo'nat! G'oyat minnatdorsiz! Homiylaringiz bo'lmasa, shu taqlidda viloyat tribunalida<sup>1</sup> butunlay qolib, chirib ketasiz. O'ttizga kirganingizda bir ming ikki yuz frank yillik maosh oladigan sudya bo'lasiz, agar o'shangacha sudyalik libosini uloqtirib yubormasangiz, albatta. Qirqlarga kirganingizda biror tegirmonchining qiziga uylanib, yiliga olti ming livr daromad egasi bo'lasiz. Rahmat! Himoyachilaringiz bo'lgan taqdirda esa, siz o'ttiz yoshingizda yiliga ming ekyu<sup>2</sup> oluvchi viloyat prokurori bo'lasiz va shahar hokimining qiziga uylanasiz. Agarda siyosatda biror mal'unlik qilishga, masalan,

---

<sup>1</sup> Tribunal – harbiy sud.

<sup>2</sup> Ekyu (*fransuzcha*) – yevro joriy etilishga bo'lgan davrda Fransiyaning besh frankka teng bo'lgan banknoti.

saylov varaqasida Manyuel<sup>1</sup> o'rniga Villel<sup>2</sup> degan nomni o'qishga rozi bo'lsangiz (ularning familiyasi qofiyadosh, shuning uchun vijdon azobiga tushmasangiz ham bo'ladi), unda qirqqa kirganingizda general-prokurorlik lavozimiga muyassar bo'lasiz, hatto deputat bo'lib olishingiz ham mumkin. E'tibor bering-a, bo'tam, endi vijdonimiz avvalgidek pok emas, yigirma yil har xil xunoblidlarni boshimizdan kechirdik, pinhoni ravishda muhtojlikda kun ko'rdik, singillarimiz esa qari qiz bo'lib qolishdi. Yana shuni ham aytish sharafiga muyassarman, butun Fransiyada yigirmata general-prokurorlik lavozimi bor, bu yigirmata o'ringa o'tirmoqchi bo'lib yurganlar esa yigirma mingta, o'shalar orasida bir pog'ona yuqori ko'tarilish uchun o'z oilasini sotishdan ham toymaydigan qalloblar uchraydi. Bunday hunar sizga maqbul bo'lmasa, boshqasini ko'rib boqamiz. Baron de Rastinyak advokat bo'lishni istamaydilar? Juda soz! Buning uchun o'n yil azob chekish, oyiga ming frankdan pul xarjlash, kutubxona va qabulxona ochish, zodagonlar orasida bo'lish, mahmadonalik qilish, ishsiz qolmaslik uchun biror sudyaning pinjiga kirish kerak bo'ladi. Agar shu kasb sizga yoqsa, mening qarshiligim yo'q; ammo butun Parijda yoshi ellikka yetgan, yiliga ellik ming frankdan ortiq daromad qiladigan beshta ham advokat topolmay-siz. Be-e! Vijdonimni bunday bulg'ashdan ko'ra, qaroqchilikni afzal ko'rgan bo'lardim. Bularning hammasi ham mayli-ya, ammo bunga pulni qayerdan olasiz? Bularning hech qizig'i yo'q. Endi bitta imkoniyatingiz qoldi – xotiningizning sepi. Uylanishni istaysizmi? Siz uchun bu bo'yniga tosh osib olgandek gap; bundan tashqari, pul uchun uylanadigan bo'lsangiz, vijdon tuyg'usi qayda qoladi-yu, olijanob oiladan chiqqaningiz nima bo'ladi? Yaxshisi, kishilar axloqidagi rasm-taomillarga qarshi shu bugunoq isyon ko'targaningiz ma'qul. Puldor bo'lishni hisobga olib uylanish – xotinning oldida ikki bukilib qulluq qilib turish, qay-

<sup>1</sup> **Manyuel Jak** (1773-1827) – deputatlar palatasining Burbonlar hukmdorligiga qarshi oppozitsiyada bo'lgan a'zosi; 1823-yilning mart oyida Manyuel xokimi mutlaqo qarshi nutq so'zlagani uchun ministrlar palatasidagi ko'pchilik reaksionerlar tomonidan g'ayri qonuniy ravishda palatadan chiqarib tashlangan edi. Fransiyada Qayta tiklanish paytidagi saylov sistemasi, hozirgi vaqtdagi singari, hokimiyatga qo'l kelgan soxtalikka keng yo'l ochib bergan edi.

<sup>2</sup> **Graf de Villel Kozef** (1773-1854) – fransuz reaksion siyosiy arbobi, ashaddiy royalistlarning boshliqlaridan biri; 1821-1827 yillarda ministrlar kabinetini boshqargan.

nananing oyog'ini o'pish, hatto cho'chqaning ham ori keladigan darajada bemazagarchiliklar qilish degan so'z, tuf-e! Turmushingiz baxtli o'tsa ham go'rga edi-ya! Ammo bunday yo'sinda xotin olsangiz, o'zingizni butun axlat-u yuvindilar chiqarib tashlanadigan trubadek his qilasiz. O'z xotining bilan olishgandan ko'ra erkaklar bilan jang qilgan yaxshiroq. Siz, yigitcha, hozir hayot chorrahasida turibsiz, bir yo'lni tanlang! Siz yo'lingizni tanlab ham oldingiz: qarindoshingiz de Boseannikida bo'ldingiz – dimog'ingizga tumtaraq hayot nafasi kirdi; siz Gorio otaning qizi, grafinya de Restonikiga bordingiz – pariqlik ayol hidini his qildingiz. O'sha kuni, grafinyanikidan uyga qaytib kelganingizda ko'zingizdan qanday qilib bo'lmasin yuzaga chiqish kerak degan ma'noni o'qidim. Barakalla, dedim men ichimda, – bunday yigit menga juda yoqadi. Sizga pul kerak edi. Uni qayerdan topsa bo'ladi? Siz singillaringizning eng oxirgi pullarini ham tortib oldingiz. Hamma akalar ham ozmi-ko'pmi, singillarini tovlab turishadi. Oltin tangalardan ko'ra kashtanlar<sup>1</sup> ko'proq bo'lgan qishloqdan bir ming besh yuz frankni qanday qilib topganingizni yolg'iz xudoning o'zi biladi, ammo bu pullar kafando'zd soldatlardek joyini topib ketadi. Unda nima qilasiz? Ehtimol, ishlar qilmaydirmisiz? Lekin ish, hozir o'zingiz guvohi bo'lib turibsiz, Puare toifasidagi odamlarga qarigan chog'ida onaxonimiz Voke singarilarning uyidan bitta xona bera oladi, xolos. Hozir sizning ahvolingizdagi ellik ming yosh yigitlar tez boyib olish yo'lini axtarib yuribdi, siz esa o'shalarning birisiz. Qarshingizda qanday ishlar turganini o'ylab ko'ring: qanchadan qancha mashaqqat-u qancha shiddatli janglar turibdi. Ellik mingta serdaromad o'rin yo'q, shuning uchun hammangiz bitta bankaga solib qo'yilgan o'rgimchaklardek bir-biringizning go'shtingizni yeyishga majbursiz, bu o'rinda kishi qanday qilib o'ziga yo'l ochishi mumkinligini bilasizmi? Yo zakovat kuchi bilan, yo o'ziga og'dirish mahorati bilan. Bu odamlar ommasiga orasiga zambarak o'qidek yorib yoki vabodek<sup>2</sup> suqilib kirish kerak. Halollik bilan hech narsaga alishib bo'lmaydi. Zakovat qudrati oldida bosh egadilar-u, ammo ayni vaqtda uni yomon ko'radilar, zakovat hamma

<sup>1</sup> **Kashtan** (*lotincha*) – qoraqayinlarga mansub daraxt va uning mevasi (yong'og'i).

<sup>2</sup> **Vabo** – organizmning suvsizlanishi bilan kechadigan o'tkir yuqumli kasallik; o'ta xavfli ichak kasalliklaridan biri, o'lat.

narsani hech kim bilan bo'lishmay ola olgani uchun uni yomonotliq qilishga urinib ko'radilar, lekin u o'z o'rnida mahkam turgan paytida uni ko'klarga ko'taradilar, qisqasi, loyga qorish-tira olmaganlaridan, uning qarshisida tiz cho'kib, sajda qiladilar. Xoinlik har qadamda uchraydi, iste'dod esa noyob narsa. Shuning uchun, xoinlik hamma yoqda to'lib-toshib yotgan iste'dodsiz odamlarning quroli bo'lib qolgan, siz bunday odamlarning nayzasi tig'iga har qadamda duch kelasiz. Siz hamma topgan-tutgani olti mingdan ortmaydigan odamlarning xotini faqat kiyim-boshi uchungina o'n mingdan ortiq pul sarf qilayotganini ko'rasiz. Bir ming ikki yuz frank maosh oladigan chinovniklarning yer sotib olishini ko'rasiz. Fransiya perining<sup>1</sup> o'g'liga tegishli karetda sayr qilish uchungina o'zini sotayotgan xotinlarni ko'rasiz, chunki uning karetasida Lonshane ko'chasi o'rtasidan yurish mumkin. Siz laqma Gorio otaning qizi imzo chekkan veksel uchun pul to'lashga majbur bo'lganini o'zingiz ko'rdingiz, vaholanki, erining yiliga ellik ming livr daromadi bor. Siz bilan garov o'ynayman: (Parijda ikki qadam qo'yishingiz bilanoq iblisona hiyla-nayranglarga duch kelasiz. Kalamni salatdan chiqqan mana shu karam po'choqqa qarshi garovga qo'yib aytamanki, sizga yoqib qolgan birinchi xotinning uyidayoq, agar u yosh, chiroyli va badavlat ayol bo'lsa, gazandalalar uyasiga duch kelishingiz muqarrar. Unday xotinlarning bittasi ham qonun bilan chiqisha olmaydi, hammasi ham bo'lar-bo'lmas narsani bahona qilib, eri bilan jang qilgani-qilgan. Har xil latta-putta deb, o'ynashlari, bolalari deb, uy ehtiyojlari yoki shuhratparastlikni deb tuziladigan bitimlar to'g'risida gapiradigan bo'l-sam, gapim sira ham tugamaydi, lekin amin bo'lingki, bunday bitimlar kamdan kam yaxshi niyatni ko'zlab tuziladi. Ana shuning uchun halol odam hammaga dushman. Lekin sizningcha, halol odam deb kimlarni aytamiz? Parijda indamay ishini bitkazib yuradigan va hech kim bilan sirdosh bo'lmaydigan odam – halol odamdir. Hech vaqt qilgan mehnatiga yarasha taqdirlanmaydigan, tirikchiligini zo'rg'a o'tkazib yurgan ojiz qullar to'g'risida indamay o'ta qolay; men ularni xudo yaratgan ahmoqlar birodarligi deb aytaman. Ahmoqona tarzda ravnaq topgan

<sup>1</sup> Per (*lotincha*: pares – teng) – Angliyada va 1848-yilgacha Fransiya davlatni boshqarishda qatnashadigan oliy dvoryanlik tabaqasining vakili.

ezgu fazilatlarining hammasi o'shalar orasida, lekin muhtojlik ham o'sha yerda. Agar xudo-taolo ularni laqillatib, qiyomat qoyimni rad qilgudek bo'lsa, bu ovsarlarning aft-basharasi qanday bujmayib ketishini men hoziroq ko'rib turibman. Shunday qilib, agar siz zudlik bilan boyimoqchi bo'lsangiz yo hoziroq boy bo'lishingiz, yoki o'zingizni boy qilib ko'rsatishingiz kerak. Boyib ketish uchun pulni katta-katta tikib o'ynash kerak, o'yinda ziqnalik qilgan odamning ahvoliga voy. Qo'lingizda yuz xil hunaringiz bo'lsa-yu, shu hunarni bilganlardan o'ntacha odam tez boyib ketsa hamma ularni o'g'ri deb ataydi. Mana shundan xulosa chiqarib olavering. Hayotning asl basharasi mana shunday. Bularning hammasi oshxonadan afzal narsa emas: har xil sassiq hidlar istaganingcha topiladi; bir ish qilaman desang, qo'ling iflos bo'ladi, faqat iflosini keyin yaxshilab yuvib tashlashni bilsang bo'lgani, – davrimizning axloqi mana shunday. Modomiki, men kishilik jamiyati to'g'risida shunday fikrda ekanman, demak, bunga huquqim bor, chunki men jamiyatni yaxshi bilaman. Jamiyatni tahqirlayapti deb o'ylarsiz? Aslo. Jamiyat azaldan o'zi shunday. Axloqshunoslar ham uni hech vaqt o'zgartira olmaydilar. Odam yetuklik darajasidan uzoqda. Odamzod xushomadgo'ylikni ba'zan ko'proq, ba'zan kamroq qiladi, ahmoqlar bo'lsa falonchining axloqi yaxshi, pistonchi axloqsiz deb yurishadi. Men oddiy odamlarni maqtab, boylarni qoralamoqchi emasman: odamzod hamma yerda ham – yuqori tabaqada ham, o'rtada ham, pastki tabaqada ham bir xil. Har bir million odam podasi orasidan o'ntacha azamat chiqib qoladiki, ular o'zini hamma narsadan, hatto qonundan ham yuqori qo'yadi; men ham shundaylardanman. Agar siz oliymaqom odamlardan bo'lsangiz, maqsadga tomon to'ppa-to'g'ri dadil boravering. Lekin siz iste'dodsiz odamlarga, ichi qoralar va tuhmatchilarga qarshi kurash olib borishingiz, butun jamiyatga qarshi borishingiz kerak bo'ladi. Napoleon Obri degan harbiy ministr bilan to'qnashib qolgan, u Napoleonni mustamlaka yurtga surgun qilib yuborishiga sal qolgan edi. O'zingizni tekshirib ko'ring! Har kuni erta bilan o'rindan turgandan keyin, irodam kechagidan mahkamroq bo'libdimi-yo'qmi deb tekshiring. Mana shularning hammasini hisobga olib, sizga shunday bir ish taklif qilmoqchimanki, bundan hech kim ham bosh tortmasa kerak. Yaxshilab



eshitib oling! Men sizga aytsam, bitta reja tuzib qo'yibman. Men Qo'shma Shtatlar janubida, taxminan yuz ming arpan<sup>1</sup> keladigan katta bir mulkda patriarxat<sup>2</sup> turmush kechirmoqchi bo'lib yuribman. Plantatorlik<sup>3</sup> qilmoqchiman, quldor bo'lmoqchiman va tamaki, qoramol va yog'och sotib, bir necha million pul orttirmoqchiman; nufuzli odam bo'lishni, istagan ishinni qilishni va bu yerdagi hayotga, odamlar devorlari shuvoq qilingan kavakda yashab o'rganib qolgan hayotga sira o'xshamaydigan bir vaziyatda hayot kechirmoqchiman. Men zo'r shvirman. Mening she'riyatim harakat va hissiyot bilan ifodalanadi. Lekin she'r yozmayman. Mening ellik ming frank pulim bor, lekin u qirqta negrga zo'rg'a yetadi, patriarxal turmush kechirishga bo'lgan intilishlarimni ro'yobga chiqarish uchun esa ikki yuzta negr kerak, buning uchun ikki yuz ming frank pul kerak. Nima uchun aynan negrlar sotib olmoqchisiz dersiz? Gap shundaki, negrlar – katta yoshdagi go'daklardek gap, ularni istagan ko'yga solishing mumkin, buning uchun har narsaga qiziqaveradigan prokurorlardan birontasi ham seni javobgarlikka tortmaydi. O'sha qora kapital egasi bo'lib olsam, o'n yildan keyin uch-to'rt million pul orttirib olaman. Boyib olganimdan keyin esa, mendan: «Kim-san?» – deb hech kim surishtirmaydi. Men janob To'rt Million, Qo'shma Shtatlar fuqarosi bo'lib olaman. Yoshim ellikka kiradi, hali ancha kuch-quvvatim bo'ladi, ko'nglim istaganicha vaqtichog'lik qilib turmush kechiraman. Qisqasi, agar sizga bir million sepli qiz topib bersam, menga ikki yuz mingini berasizmi? Xizmatim evaziga yigirma foiz, a? Nima yo ko'pmi? Siz bo'lajak rafiqangizni o'zingizga rom qilasiz, uylanib olgandan keyin, xuddi boshingizga bir nimalar tashvishi tushgandek, vijdon azobida qiynalayotgandek, ikki haftacha xafa kishidek xomush yurasiz. Keyin, bir kun kechasi birpas noz qilgan kishi bo'lib turasiz-u, o'pishlar va erkalatishlar orasida xotiningizga: «Azizam, sevgilim», – deb turib, ikki yuz ming qarzim bor edi

<sup>1</sup> Arpan – eski fransuz yer o'lchovi (0,5 gektarga yaqin).

<sup>2</sup> Patriarxat (*yunoncha*: patros – ota + arche – hokimiyat) – ibtidoiy tuzumning matriarxatdan keyingi, oilada, xo'jalik va ijtimoiy munosabatlarda erkaklar hukmronlik qilgan davri, otalik davri.

<sup>3</sup> Plantatsiya (*lotincha*: plantatio – o'simlik o'tqazish, ekish) – faqat birgina maxsus ekin ekilgan katta yer maydoni; 2) alohida ekinlar, masalan, shakarqamish, paxta, choy, kofe kabilar yetishtiriladigan yirik dehqonchilik xo'jaligi. Plantator – plantatsiya egasi.

deysiz. Eng manaman degan yigitlar ham har kuni shunday lo'ttibozlik qilishadi. Yosh juvon hech ikkilanib o'tirmay hamyonini yuragini o'g'irlagan odamga topshiradi. Ehtimol, bu bilan o'zim zarar qilib qolaman deb o'ylarsiz? Yo'q. Siz bironta ishni saranjom qilasiz-u o'sha yo'qotgan ikki yuz ming pulingizni yana ishlab olasiz. Shu aqlingiz bo'ladigan bo'lsa, bunday katta pul bilan istaganingizcha davlat orttirib olasiz. Ergo<sup>1</sup>, yarim yil ichida siz o'zingizni ham, xotiningizni ham, Votren amakingizni ham baxtli qilasiz, o'tin topilmaganidan qishda qo'lini og'zingingiz ustida gapirmasak ham bo'ladi. Qilgan taklifimga ham, qo'ygan shartimga ham hayron bo'lmang! Parijdagi boy-badavlat odamlar nikohining oltnishtasidan qirq yettitasi mana shu asosga qurilgan. Notarial idora janob...

– Men nima qilishim kerak? – deb hovliqib so'radi Rastinyak, Votrenning gapini bo'lib.

– Deyarli hech narsa, – dedi u va yuzida baliq qarmoqqa ilinay deb turganini sezgan baliqchining ich-ichidan xursand bo'lib ketganiga o'xshagan bir ma'no aks etdi. – Gapimga diqqat bilan quloq osing! Ojiza, baxtsiz, kambag'al qizning yuragi bamisoli muhabbat shabnamiga tashna bo'lgan quruq bulut parchasidirkim, unga sevgi degan narsadan bir tomchi tushib qolgudek bo'lsa, u qalb bir zumda ko'pchib chiqadi. Umid-sizlikka tushib, so'qqabosh bo'lib qolgan kambag'al, ammo, tez kunda juda ham badavlat bo'lib ketishidan o'zi ham bexabar qizning atrofida parvona bo'lish qanday soz! Xudo ursin! Bu – hamma huzurlarni qo'lda ushlab turib qimor o'ynash, lotereya biletlarining yutuq chiqadiganini oldindan bilish degan gap, – bu butun ma'lumotlarni oldindan bilib turib, renta kursining ko'tarilish-pasayishiga qarab pul ishlash degan gap. Bunday qiz sizga so'zsiz xotin bo'ladi. Ana shunday qiz million-million pulini ham po'choqcha ko'rmay, go'yo bir xas-cho'pdek oyoqlaringiz ostiga to'kib tashlaydi. Ol, sevgilim! Ol, Adolf, Alfred yoki Ejen! – deydi u, – agarda o'sha. Adolf, Alfred yo Ejenning ilgari u qizga biron saxiylik qilishga aqli yetgan bo'lsa. Saxiylik deganida, men, biror eskirgan frakni sotib, qizni «Zangori

<sup>1</sup> Ergo (*lotincha*) – demak.

tsiferblat<sup>1</sup>» restoraniga olib borib mehmon qilishni, u yerdan esa kechqurun Ambigyu-Komik teatriga olib borishni nazarda tutaman; soatni garovga qo'yib, unga shol ro'mol sovg'a qilish ham mumkin. Muhabbat izhor qilib maktub yozishlar va shu singari xotinlar juda o'ch bo'ladigan bema'ni ishlar to'g'risida, masalan: sevgilingdan uzoqda bo'lgan paytlaringda, ko'z yoshi o'rnida qog'ozga suv tekkizib qo'yishlar va shunga o'xshashlar ustida gapirib o'tirmay ham qo'ya qolay; menimcha, bunday yurak tili o'zingizga ham juda tanish ko'rinadi. Bilasizmi, Parij, jamoatchilik yerlarida ov bilan tirikchilik o'tkazadigan guronlar<sup>2</sup>, illinoylar<sup>3</sup> va boshqa xil yovvoyi odamlar qabilalari yashaydigan Shimoliy Amerika changalzorlariga o'xshaydi. Siz, masalan, millionni qo'lga kiritish uchun ov qilasiz; unga qopqonlar qo'ya-siz, tuzoqlar, to'rlar tashlaysiz. Ov ham har xil bo'ladi. Birov sep ovi qiladi, boshqa birov raqibining korxonasini tugatish maqsadida ov qiladi; birinchisi odamlar qalbini tuzoqqa ilintirish payida bo'lsa, ikkinchisi o'z ishonchli kishilarining qo'l-oyog'ini bog'lab ularni sotib yuradi. Kimda-kim ov to'rvasini o'ljaga to'ldirib qaytsa, salomning quyug'i-yu izzat-ikrom o'shanga, u eng asilzodalar davrasiga qabul qilinadi. Bunday mehmondo'st joyning qadriga yetish kerak: siz dunyodagi eng sabr-toqatli shaharda yashab turibsiz. Yevropaning boshqa poytaxtlaridagi takabbur zodagonlar firibgar millionerlarni o'z oralariga kiritmagan bir paytda, Parij undaylarga qo'ynini keng ochadi, ularning bazmlariga boradi, ularning ziyofatini yeydi va qabihliklarini maqtab, qadah urishtiradi.

- Ammo bunday qizni qayerdan topamiz?
- U sizning yonginangizda, u sizniki!
- Mademuazel Viktorinami?
- Xuddi o'sha.
- Qanday qilib?
- Bo'lajak baronessacha de Rastinyak allaqachon sizni

<sup>1</sup> **Siferblat** (*nemischa*: Zifferblatt – raqamlarni o'zaro ajratib turuvchi bo'lakcha) – soatlardagi daqiqalarni ajratib turuvchi qism yoki soat strelkasi.

<sup>2</sup> **Guronlar** (o'zlarini vendat deb ataydilar) – Kanadada yashovchi irokezlar guruhiga mansub indeys xalqi.

<sup>3</sup> **Illinoylar** – AQSning Illinoys, Ayova, Missuri, Arkanzas kabi shtatlarida yashovchi peoriya, kaskaskiya, kaxokiya, michigameya va tamaroa qabilalariga mansub hindularning umumiy nomi.

yaxshi ko'rib qolgan.

– Uning hech vaqosi yo'q-ku, – deb e'tiroz bildirdi hayron bo'lgan Ejen.

– Aka! Ana maqsadga ham yetib oldik. Yana ikki og'iz gapdan keyin hammasi ravshan bo'ladi qoladi, – dedi Votren. – Tayfer ota o'lgudek ablah chol! U inqilob paytida o'zining bir do'stini o'ldirgan deb gumon qilishadi. U menga o'xshagan shovvozlardan, o'z bilganidan qolmaydigan odam. U bankir, «Frederik Tayfer va sheriklari» degan bankning asosiy paychisi u Viktorinani hamma narsadan tamomila mahrum qilib, butun boyligini yolg'iz o'g'liga qoldirmoqchi. Bunday adolatsizlik menga yoqmaydi. Men Don-Kixotga o'xshagan odamman: ojizlarni kuchlilardan himoya qilishni afzal ko'raman. Agarda xudo uning o'g'lini o'z yoniga chaqirib olsa, Tayfer qizini uyiga olib ketgan bo'lardi; u o'z merosxo'ri bo'lishini istaydi – bunday tentaklik odamzodning tabiatida azaldan bor, endi boshqa bola tug'dirish esa qo'lidan kelmaydi, buni men yaxshi bilaman. Viktorina yoqimtoy, mo'min-ma'qul qiz, otasini hademay o'ziga qaratib oladi va otalik mehrini qo'zg'atib, o'z nog'orasiga o'ynatadigan bo'ladi! Muhabbat izhor qilsangiz juda erib ketadi, yaxshiligingizni hech qachon unutmaydi va sizga turmushga chiqadi. Men esa taqdiri ilohiylik vazifasini bo'ynimga olaman-da, xudoning xohishini amalga oshiraman. Mening bir do'stim bor, unga juda ko'p yaxshilik qilib o'tqazib qo'yanman, o'zi endigina qirol gvardiyasiga<sup>1</sup> xizmatga kirgan, Luar qo'shinining<sup>2</sup> polkovnigi. Polkovnik mening maslahatlarimga kirib, hozir ashaddiy royalist bo'lib olgan, u ahmoq odam emas, shuning uchun o'z e'tiqodlarini u qadar qadrlab o'tirmaydi. Sizga, yaxshi

<sup>1</sup> *Gvardiya* (italyancha: guardia – soqchilar, qo'riqchilar) – XII asrda Italiyada, so'ngroq Yevropaning boshqa bir qancha davlatlarida, XVII-asr oxiridan 1918-yilgacha Rossiyada monarx, podsho, lashkarboshi kabilarning shaxsiy soqchilari; qo'shinning saralangan, imtiyozli qismlari (*asarda shu ma'noda*); 2) Sobiq Ittifoqda: 1942-yilda joriy etilgan, ikkinchi jahon urushida alohida jasorat ko'rsatgan harbiy qismlar, kemalar, qo'shilmalar va shu kabilarga berilgan faxriy nom; 3) muayyan ijtimoiy guruh yoki tashkilotning eng yaxshi, saralangan namunali qismining nomi; 4) bir qator g'arb mamlakatlarida harbiy va harbiy-politsiya tuzilmalari, qismlarining nomi; 5) Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tarkibidagi bir qancha mamlakatlarda muntazam harbiy tuzilmalar nomi.

<sup>2</sup> *Luar qo'shini* – Napoleonning Vaterloo yaqinida mag'lubiyatga uchraganidan keyin, qo'shinning omon qolgan bir qismi, bu qo'shin ittifoqchilarning kelishuvi bilan Luananing janubiy chekingan va u yerda tarqatilib yuborilgan.

yigit, yana bitta maslahat berib qo‘ymoqchiman: e‘tiqod va lafz degan narsalar bilan hisoblashib o‘tirishni tashlang. Bunday narsalarga xaridor topilgudek bo‘lsa, pullab yuboring. Odamzod o‘z e‘tiqodlarini sira o‘zgartirmayman deb maqtandimi, – unday odam doim bitta to‘g‘ri yo‘ldan borish majburiyatini zimmasiga olgan bo‘ladi, – bilingki, bunday odam o‘zining aybsizligiga ishongan ahmoqdir, prinsip degan narsa yo‘q – voqealar mavjud; qonun yo‘q – vaziyat bor; yuksakka parvoz qiladigan odam o‘sha voqealar bilan vaziyatni boshqarish uchun o‘zi ularga moslashadi. Prinsiplar bilan qonunlar o‘zgarimas narsalar bo‘lganda edi, odamlar ularni biz ko‘ylak almashtirib turganimizdek, hadeb almashtiravermagan bo‘lardilar. Ayrim shaxs butun bir millatdan aqlliroq bo‘lishi shart emas. Fransiyaga mutlaqo arzimas xizmat ko‘rsatgan odamni har bir ishga juda qizg‘inlik bilan kirishgani uchungina bir sanam darajasiga ko‘tarib yuborishgan, vaholanki, u faqat Sanoat muzeyidagi mashinalar orasida Lafayet<sup>1</sup> degan etiketka bilan ko‘rgazmaga qo‘yilishga loyiq, xolos, ayni vaqtda har bir odam knyazga<sup>2</sup> tosh otib o‘tadi<sup>3</sup>. knyaz esa insoniyatga shu qadar cheksiz nafrat bilan qaraydiki, unga sodiqligi haqida xuddi yerga tupurgandek osonlik bilan istaganicha qasamyod qiladi, ammo knyaz Vena kongressida<sup>4</sup> Fransiyaning parchalab tashlashga yo‘l qo‘ymadi; uni sharaflab, gullarga ko‘mib tashlash o‘rniga loyga qorishtirib, yomonotliq qildilar. O, bu gaplarni men yaxshi bilaman! Ko‘p odamlarning sir-u asrori mening qo‘limda! Xo‘p, bas endi! Biror prinsipni qo‘llash to‘g‘risida bir fikrga kelgan uchta odamni uchratganimdan keyingina biror e‘tiqodni mahkam ushlayman, ammo buni juda uzoq kutishga

<sup>1</sup> **Markiz Lefoyet Mari-Jan-Pol** (1757-1834) – fransuz siyosiy arbobi, 1789-1830-yillardagi burjua inqiloblari qatnashchisi. Qayta tiklanish davrida – liberal, burjuaziya rahbarlaridan bari. 1830-yil iyul inqilobidan keyin «bankirtar qiroli» Lui-Filippning taxtga o‘tirishiga ko‘maklashgan.

<sup>2</sup> **Knyaz** (*nemischa*: kuning – qabila, urug‘ oqsoqoli) – 1) Yevropa davlatlarida feodal-knyazlik davridagi askar boshlig‘i va viloyat hokimi; 2) Yevropa davlatlarida meros tariqasida yoki davlat oldidagi xizmatlari uchun berilgan faxriy unvon hamda shu unvonga ega bo‘lgan shaxs.

<sup>3</sup> «...**Har bir odam knyazga tosh otib o‘tadi**» – Gap Taleyranning haqida ketyapti. Taleyranning (1754-1838) – beqarorligi va mablag‘ sarflashdagi behayoligi bilan ajralib turuvchi taniqli fransuz diplomati; u 1814-1815 yillarda bo‘lgan Vena kongressida katta rol o‘ynagan.

<sup>4</sup> **Vena kongressi** (1814-1815) – Napoleon I armiyasi tor-mor etilgach, g‘olib davlatlar Vena shahrida o‘tkazgan anjuman.

to'g'ri keladi! Qonunning biror paragrafi to'g'risida bir xil fikrda bo'lgan uchta sudyani jamiki sudlarni axtarsangiz ham topib bo'lmaydi. Do'stim to'g'risidagi gapga qaytaylik. Undan bir og'iz iltimos qilsam bas. Isoni qayta xochga tortishdan ham qaytmaydi. Votren amakining bir og'iz gapi bilan u, sho'rlik singlisiga biron marta bo'lsin besh frank ham pul yubormagan o'sha muttaha'mni yakkama yakka jangga chaqiradi-yu...

Shunday deb Votren o'rnidan turdi, jang qilayotgan kishi bo'lib, raqibiga hamla qilgandek harakat qildi.

– ... qarabsizki, asfalasofilinga ravona bo'lib turibdi-da! – deb qo'shib qo'ydi u.

– Qanday dahshat! – dedi Ejen. – Siz hazil qilyapsiz, janob Votren.

– Bay-bay-bay, o'zingizni bosing! – deb javob qildi u. – Bolalik qilmang... Yo'g'-e, mayli, agar xohlasangiz, achchig'laning, g'azabdan bo'g'iling! Meni razil, jinoyatchi, ablah, bandit deb so'king, lekin josus yoki firibgar deya ko'rmang! Ha, qani, gapiring, birvarakayiga o't oching. Kechiraman: sizning yoshingizda bu juda tabiiy hol. O'zim ham shunaqa edim! Faqat o'ylab ko'ring. Bir kun vaqti kelib bundan ham battar ishlarni qilasiz. Biror do'ndiqqina xotin ketidan ergashib undan pul oladigan bo'lasiz. Shu to'g'rida o'ylab yuribsiz-ku, – dedi Votren, – muhabbatigizni sotmasangiz, qanday qilib ham ilgarilaysiz? Ezgulik, azizim talaba, qismlarga bo'linmaydi; u yo bor, yo yo'q. Cherkovga borib, qilgan gunohlaringizga tavba qilinglar deyishadi bizga. Ha, durust usul! Shu usul tufayli, gunohlardan pok bo'lib chiqish va buning oqibatida unga qayg'urish mumkin. Ijtimoiy zinaning u yoki bu pog'onasiga ko'tarilish uchun xotin kishini yo'ldan ozdirish, oilada bolalar o'rtasida nizo tug'dirish, qisqasi, xufiya ravishda qilinadigan har qanday qallobliklardan tap tortmaslik, – bularning hammasi pirovard maqsadda shaxsiy manfaatni yo aysh-ishratni nazarda tutib qilinadi. Xo'sh, sizningcha, bularning hammasi nima? Din targ'ib qilgan imon, umid va muhabbat yo'lida qilinadigan ishlarmi? Biror olifta yigit bir kechadayoq bolalarning yarim merosini o'marib ketsa, uni ikki oy muddat bilan qamoq jazosiga hukm qiladilar, lekin nima uchun biror kambag'al «aybini og'irlashtiruvchi sharoitda» ming frank pul o'g'irlasa, surgunga yuboradilar? Qonunlar ana shun-

day. Uning bema'niliklarga asoslanmagan bironta ham moddasi yo'q. Modabop qo'lqop kiygan, soxta qalb odam qon to'kmadiyu, ammo bo'hton yo'li bilan odam o'ldirdi; qotil esa eshik qulfini buzib ochdi – har ikkala jinoyat ham kechasi yuz berdi. Axir, men taklif qilayotgan ish bilan o'zingiz qilishingiz muqarrar bo'lgan ish o'rtasida, to'kiladigan qonni e'tiborga olmasak, hech qanday farq yo'q-ku. Siz bo'lsangiz, bu dunyoda qandaydir mustahkam qonun-qoida borligiga ishonib yuribsiz! Mayli, odamlardan nafrat qiling. Qonunlar majmuasi orasidan javoban bo'lmay to'g'ri o'tib ketsa bo'ladigan yerlarini toping. Qay tarzda yig'ilgani mavhum bo'lgan jamiki xazinalar borki, hamma-sining tagida jinoyat yashirinib yotadi, ular unutilib yuborilgan ekan, buning sababi o'sha jinoyatlarning ustalik bilan amalga oshirilganida.

– Bas qiling, gapingizga quloq solishga ortiq toqatim qolmadi, shunday gapiraversangiz, o'zimdan ham nafrat qilib qoladiganga o'xshayman. Hozir men faqat o'z hissiyotim taqozo qilayotgan narsalarni bilaman, xolos.

– Ixtiyoringiz, o'ktam yigit. Asabingiz xiyla baquvvat deb o'ylagan edim. Sizga boshqa hech narsa demayman. Ha-ya, yana bitta oxirgi gapim bor ekan. – U talabaga tikilib qarab turib so'radi: – Siz mening sirimni bilib oldingiz.

– Xizmatigizdan bosh tortgan yigit, siringizni ham unutilib yuborishga qodir.

– Yaxshi gap aytdingiz, menga yoqadi bu gap. Har qanday odam ham bunday nozik tabiatli bo'la olmaydi. Sizga qilmoqchi bo'lgan xizmatimni unutmang. Sizga ikki hafta muhlat beraman. Xo'p desangiz ham, yo'q desangiz ham – o'zingizga havola.

«Bu odamning mulohazalari naqadar puxta-ya!» – dedi o'ziga o'zi Rastinyak, tayog'ini qo'ltig'iga qisib olganicha xotirjamlik bilan ketayotgan Votrenning orqasidan qarab turib. «De Bosean xonim boadablik bilan aytgan gaplarning aynan o'zini qo'pol suratda shartta-shartta gapirib tashladi. U yuragimni po'lat changali bilan pora-pora qildi. Delfina Nusingennikiga nima maqsadda kirmoqchi bo'lib yuribsan deydi-ya? Yuragimda tug'ilgan fikrni darrov payqab olganini qarang-a. Bu qaroqchining ikki og'iz so'z bilan aytgan ezgulik haqidagi mulohazasi, men kitoblardan o'qib odamlardan eshitganim ezgulikdan ko'ra

sermazmunroq. Modomiki, ezgulik vijdotsiz bo'lishga yo'l qo'ymas ekan, demak, men singillarim pulini o'g'irlabman-da?» – deb u hamyonini stolga otib yubordi.

U kishini esankiratib qo'yuvchi fikrlardan ancha vaqt-gacha o'ziga kelolmay o'tirib qoldi.

«Ezgulikka sodiq bo'lish – olijanob fidoyilikdir, Ha. Ezgulikka hamma ham ishonadi, ammo ezgu niyatli odam bormi o'zi? Xalqlar ozodlikka xuddi xudoga sig'ingandek sig'inadilar, ammo yer yuzining qaysi Joyida obod xalq bor? Yoshliging hali shaffof osmondek toza, lekin sen nufuzli yo boy-badavlat bo'lmoqchisan, bu esa ko'rib bila turib yolg'on gapirish, ikki bukilib ta'zim qilish, tiz cho'kish, yana qomatni tiklash, xushomad-go'ylik va ayyorlik qilishga rozi bo'lish emasmi? Axir, buning o'zi yaqinda ikki bukilib, tiz cho'kib; yolg'on gapirib yurgan odamlarga ixtiyoriy ravishda malaylik qilish emasmi? Ularga sherik bo'lishdan oldin ularning xizmatini qilish kerak. Yo'q, aslo, olijanoblik bilan, halollik bilan mehnat qilaman. Kechasi-yu kunduzi ishlashga tayyorman faqat shu yo'sinda boylik orttiram. Bu boylik orttirishning eng mushkul yo'li, ammo har kuni kechqurun yostiqa xotirjamlik bilan bosh qo'yaman, biron-ta ham yomon fikr uyqumni harom qilmaydi. Kechirgan hayotingga nazar tashlaganingda, uning nilufardek pokizaligini ko'rishdan ham yaxshi narsa bormi? Men va mening hayotim – kuyov bilan kelindek gap. To'g'ri, ammo Votren oilaviy hayotning o'n yil keyin qanday bo'lishini ko'rsatib berdi-ku. E, padariga la'nat, Miyam g'ovlab ketdi. Hech narsani o'ylashni istamayman; yuragim – eng sodiq yo'l boshlovchi!»

Uning fikrlarini, mashinachi keldi, deb xabar qilgan baqa-loq Silviya bo'ldi. Rastinyak ikki qo'lga ikki hamyonini ko'targanicha mashinachi oldiga chiqdi, mazkur vaziyatdan u aslo o'kinayotgani yo'q edi. Ejen kechqurunlari kiyadigan frakini kiyib ko'rdi so'ng kunduzi kiyadigan yangi kiyimini kiyib oldiyu, tamomila boshqa odam bo'lib ketdi.

«Endi graf de Traydan qolishadigan joyim yo'q, – dedi o'ziga o'zi u. – Nihoyat, dvoryanlar qiyofasiga kirdim!»

– Janob Ejen, – dedi ichkari kirib kelgan Gorio ota, – de Nusingen xonim kimlarnikiga borib turadi deb so'ragan edingiz mendan.



– Bo‘lmasa bilib qo‘ying, kelayotgan dushanbada u marshal Karilyanonikiga balga borar ekan. Siz ham o‘sha yerga borish imkoniyatini topsangiz, qizlarimning qanday vaqtichog‘lik qilishganini, qanday kiyinishganini, xullas, hammasini gapirib berasiz.

– Buni qayerdan bildingiz, azizim Gorio ota? – deb so‘radi Ejen, uni kamin oldiga o‘tqazar ekan.

– Menga uning uy xodimasi aytdi. Konstansiya bilan Terezadan qizlarimning nimalar qilishini bilib yuraman, – dedi xursand bo‘lib Gorio.

Chol hozir hech kimda hech qanday shubha tug‘dirmay o‘z sevgilisi hayotidan xabardor bo‘lib turish yo‘lini topgani bilan baxtiyor oshiq yigitchalarga o‘xshab ketgan edi. – Siz ularni ko‘rasiz-a! – deb qo‘shib qo‘ydi u, o‘zining alamli hasad qilayotganini soddadillik bilan izhor qilarkan.

– Bilmadim, – deb javob qildi unga Ejen. – Hozir de Bosean xonim huzuriga borib, meni marshalning xotiniga tanishtirib qo‘ya olasizmi deb so‘rab ko‘raman.

Ejen endi bundan keyin doim kiyib yuradigan kiyimida vikontessa huzuriga borishini ajib bir dohiliy shodlik tuyg‘usiga g‘arq bo‘lib o‘yladi. Axloqshunoslar «kishi qalbining cheksiz boyliklari» deb atagan narsa aslida soxta fikrlar, shaxsiy manfaat yo‘lidagi beixtiyor intilishlardir. Qanchadan qancha tumtaraq muhokamalarga mavzu beradigan ko‘ngilning bu hamma beqarorliklari, bu kutilmagan hamma o‘zgarishlar bir maqsadni: ko‘proq huzur qilishni ko‘zda tutadi! Ejen yaxshi kiyim-bosh, modabop qo‘lqop va chiroyli etik kiyib olgandan keyin ezgulik to‘g‘risidagi hamma mulohazalarini unutdi. Odatda, yoshlar haqiqatdan yuz o‘girgandan keyin vijdon oynasiga qarashga yuragi betlamaydi, vaholanki, katta yoshdagi kishilar esa bu paytda u oynaga qarab to‘ygan bo‘ladilar; odamlar hayotida ikki davr o‘rtasidagi tafovut mana shu, xolos.

Ikkala qo‘shni – Ejen bilan Gorio ota keyingi bir necha kun ichida do‘stlashib ketishdi. Ularning bir-biriga og‘ib qolganining psixologik asosi talaba tilida Votrenga nisbatan tamoman teskari hislar uyg‘otdi. Agar biron dadil faylasuf hislarimizning jismoniy olamga ta‘sirini belgilamoqchi bo‘lsa, hislarimizning sezilarli ta‘siri jonivorlar bilan biz o‘rtamizdagi munosabatlar

amalda ko‘rinishiga ko‘pgina misollar topa olgan bo‘lardi, albatta. Biron notanish odamni uchratgan it uning o‘ziga do‘st yo dushmanligini darrov ajratib ola oladi, Iyo(sin inson xarakterini bunchalik tez farq qila olishga qaysi fizionomikning<sup>1</sup> qurbi yetadi? Yopishqoq atomlar – bu ibora xuddi maqoldek keng tarqalib ketgan va hamma eski so‘zlarni to‘pondek to‘zitib yuborishni istagan odamlarning falsafiy safsatalariga parvo qilmay jonli tilimizda yashab kelmoqda. Muhabbat yuqadigan narsa. Ehtiroslar har narsada o‘z ta‘sirini qoldiradi, ular uzoq masofalardan uchib o‘tadi. Maktub – qalbning o‘zginasi, gapirayotgan odamning so‘zlari unda aks sado berib yangraydi, bu yangroq aks sadoni ko‘ngli nozik odamlar muhabbatning eng qimmatbaho xazinalaridan deb hisoblaydilar. Gorio otaning ko‘r-ko‘rona tuyg‘ulari itlarning hushyorligichalik o‘tkir edikim, shuning uchun u talabaning oqko‘ngil ekanligini, uning ko‘nglida o‘ziga nisbatan tug‘ilgan mehrni, achinish hislarini sezib oldi. Shunday bo‘lsa ham, ular orasida tug‘ilgan yaqinlik hislari sirdoshlik darajasiga yetganicha yo‘q edi. Ejen de Nusingen xonimni ko‘rish istagi borligini bildirgan bo‘lsa ham, cholning yordami bilan uning uyiga kirib borishiga ko‘zi yetmas edi, u faqat bu haqda Gorio qizining oldida gap ochib qolar va shu tarzda xizmat ko‘rsatar degan umidda edi. Gorio ota Ejenga qizlari to‘g‘risida gapirganda, u ikki xonim oldiga borib kelgan kuni hammaning oldida uning o‘zi aytgan gap doirasidan chiqmadi. Ertasiga Gorio unga bunday dedi:

– Azizim, de Resto xonim mening nomimni tilga olganingiz uchun achchiqlanib qoldi degan fikrlarga borib yurib-siz? Nechuk bunday qildingiz? Ikkala qizim ham meni juda yaxshi ko‘radi. Men baxtiyor otaman. Ammo ikkita kuyovim men bilan yomon muomala qilishadi. Aziz qizlarimning meni deb erlari bilan urishib yurishlarini istamadim, shu sababdan hech kimga ko‘rinmay borib, ularni ko‘rib kelishni afzal ko‘rdim. Bu sirli uchrashuvlar menga ko‘p quvonchlar bagishlaydi, qizlari bilan istagan vaqtda ko‘rish oladigan otalar buni hech vaqt tushunolmaydilar. Ammo men ular bilan istagan vaqtimda ko‘rish olmayman, tushunyapsizmi ? Shuning uchun, havo ochiq

<sup>1</sup> **Fizionomika** – odamning tashqi qiyofasi va mimikalariga qarab ichki, ruhiy holatini aniqlash san‘ati. **Fizionomik** – shu soha vakili.

kunlari qizlarimning uy xodimalaridan ularning sayr qilgani chiqish niyati bor-yo'qligini bilib olib, Yelisey Dalasiga boraman. Xullas, men qizlarim o'tadigan joyda turaman, ularning karetsi ro'paramga kelganda, yuragim gursullab ura boshlaydi; qizlarimning kiyimlarini tomosha qilaman; yonimdan o'tib keta turib, qizlarim menga jilmayib salom berishadi, shunday paytlarda butun tabiat go'yo allaqanday, judayam yorqin quyosh shu'lasida oltindek jilolanib ketgandek tuyuladi. Keyin men ularning orqaga qaytishlarini kutib turaman. Shunday qilib, ularni yana bir marta ko'raman! Ochiq havoga chiqishgani foyda qilibdi, – ranglariga qizil yuguribdi. Atrofidagi «Qanday go'zal xonim ekan-a!» – degan tovushlar eshitiladi. Ko'nglim tog'dek ko'tariladi. Adir, ular mening farzandlarim emasmi! Ularning karetsiga qo'shilgan otlarni yaxshi ko'raman, qizlarim tizzalarida olib o'tirgan kuchukcha bo'lgim keladi. Ularning huzur-halovati menga orom beradi. Har kim o'zicha yaxshi ko'rarkan. Mening sevgim kimga xalaqit qilyapti? Nega odamlar meni tinch qo'yishmaydi? Men o'zimga yarasha baxtliman. Kechqurun biror yerga balga ketishayotganda, qizlarimni bir ko'rib qolish uchun ularning darvozasi oldiga borib tursam, buning nimasi jinoyat? Kech qolgan paytlarimda, xizmatkorlar menga: «Xonim jo'nab ketdilar!» – deb xabar qilishsa, qanday xafa bo'laman. Bir marta men Nazini rosa ikki kun ko'rmadim, uni bir ko'rish uchun kechqurun borganimdan to ertalab soat uchgacha kutib turdim. Xursand bo'lganimdan, yuragim yorilib o'layozdim! Iltimos qilaman sizdan, biron yerda mening to'g'rimda gap bo'lib qolsa, faqat qizlarimning yaxshiligi to'g'risida gapiring. Ular Meni darxil sovg'a-salomlarga ko'mib yuborishadi-yu, ammo bunga o'zim yo'l qo'ymayman, ularga: «Pulingizni o'zingiz uchun ehtiyot qiling! Sovg'a-salomni nima qilaman? Menga hech narsaning keragi yo'q», – deyman. Rost-da, men nima degan odaman? Ojiz bir murdaman, yuragim esa hamma vaqt va har yerda qizlarim bilan birga. De Nusingen xonimni ko'rsangiz, qizlarimning qaysi biri sizga ko'proq yoqqanini aytarsiz, – deb qo'shimcha qildi bir oz jim turgandan keyin chol, Ejenning ketmoqchi bo'layotganini ko'rib talaba de Bosean xonim huzuriga boradigan vaqt bo'lguncha Tyuilrini bir aylanib qolmoqchi edi.

Mana shu sayr Rastinyakning taqdirini qal qildi. Bir necha

ayol unga e'tibor berib qoldi. U shunday navqiron, shunday o'ktam yigit edi, kiyim-boshlari chunonam did bilan tikilgan edi! Unga suqlanib qarashayotganini ko'rib, singillari bilan xolasini tovlagani, yovuzliklardan nafratlanib yuz o'girganini unutdi qo'ydi. Ejen boshi ustidan farishta qiyofasidagi iblis uchib o'tganini ko'rdi; bu olachipor qanotli iblis dur-gavharlar sochish, shoq saroylari peshtoqlariga oltin nayzalar qadash, ayollarni alvon rang shohona liboslarga burkash va ancha g'aribona bo'lgan taxtlarni bema'ni bezaklarga o'rab tashlash bilan shug'ullanardi; talaba yigit biz qudrat ramzi deb bilgan yarqiroq taqinchoqlar tufayli tumtaroq bo'lib ko'ringan shuhratparastlik xudosining tuzog'iga ilingan edi. «Muhabbat-u oltin desang, istaganingcha!» – deb va'da qiladigan bedavo qo'shmachining basharasi qizning xotirasida qanday o'rnanish qolsa, Votrenning gapini ham, har qancha behayolik bilan aytilgan bo'lishiga qaramay, uning ko'ngliga shunday o'rnanish qolgandi.

Ejen beparvo kezib yurib, soat beshlarda de Bosean xonimnikiga keldi, keldi-yu, yosh yigitlar qalbi dosh bera olmaydigan juda qattiq zarbaga duchor bo'ldi. Shu paytgacha vikontessa uni hurmat, ochiq chehra va xursandlik bilan qarshi olardi. Aristokratik<sup>1</sup> tarbiya natijasida egallanadigan bu odat faqat chin yurakdan bo'lganda takomilga yeta oladi. Ejen kirib kelar ekan, de Bosean xonim quruqqina qilib bosh irg'itib qo'ydi-yu, ochiqdan ochiq qilib dedi:

– Janob de Rastinyak, sizni qabul qilishga imkonim yo'q; ayniqsa, hozirgi daqiqada! Juda bandman...

Ziyrak odam uchun – Rastinyak juda tev vaqtda ana shunday ziyrak bo'lib qolgandi, – xonimning gaplari, bosh irg'itishi, ko'z qarashi, ovozidagi o'zgarishlar, – bularning hammasi ma'lum mazhab kishisining axloqi va xarakteri haqidagi bir qissa o'rni bosardi. U bahmal qo'lqop ichidagi qo'l po'latdan ekanini, olijanoblik niqobi ostida – hamma narsadan o'z shaxsini yuqori qo'yishlik, xudbinlik yotganini, lok ostida – barmoq emas, yog'och ekanini ko'rdi. U, nihoyat, podsho tojidan bosh-

<sup>1</sup> **Aristokrat** (*yunoncha*: aristokratia – yaxshilar hukmronligi) – 1) iqtisodiy hukmron sinf, zodagonlarining siyosiy hokimiyati, hukmronligi; 2) quddorlik va undan keyingi ilk davlatlarda eng imtiyozli tabaqa (**bu yerda shu ma'noda**). **Aristokratik** – aristokratlarga xos.

lanib, eng xarob dvoryanning qalpog'igacha borib ulanadigan: «Bizkim, qirol», – degan tushunchaning nimaligini anglab yetdi. Ejen xotin kishining gapiga laqqa tushib, uning olijanobligiga osongina ishongandi. Hamma baxti qora odamlar singari u ham o'zi istagan bitimni halollik bilan imzolagandi, bu bitim valine'mat bilan uning himoyasi ostidagi odamni bir-biriga mahkam bog'laydi va birinchi moddasidayoq bu saxovatli odamlarning ikkalasini ham teng deb e'lon qiladi. Bunday xayrli ish ikki kishini bir-biriga bog'lar ekan, u chinakam muhabbatga o'xshagan nodir va bebaho bir his baxsh etadi. Bu hislarning har ikkisi ham faqat olijanob qalblar sovg'a qila oladigan nodir narsalardir,

Gersoginya Karilyanoning baliga borish niyatida Rastinyak qarindoshining bu qilig'iga dosh berdi va titroq ovoz bilan dedi:

– Xonim, muhim ish chiqib qolmaganda, kelib g'ashingizga tegavermasdim. Muruvvat qilib, kechroq bo'lsa ham yana bir huzuringizga kelishimga ruxsat bersangiz, kutib turishim ham mumkin.

– Xo'p, yaxshi, men bilan ovqat qilgani keling, – dedi u, o'zining qattiq gapirib yuborganidan o'zi ham bir oz xijolat tortib, bu chindan ham oqko'ngil va olijanob ayol edi.

Ejen uning to'satdan o'zgarib qolganidan qattiq ta'sirlanib ketdi, ammo shunda ham bu yerdan chiqib ketar ekan xayoliga shunday fikrlar keldi: «Unga xushomad qil, hammasiga chida. Ayollar ichida eng yaxshisi bo'la turib, do'stlik ahdlarini shunisiki bir zumda chippakka chiqarib, o'zingni eski botinkadek uloqtirib tashlagandan keyin, boshqalaridan qanday xayr kutib bo'lardi? Demak, har kim o'zim derkan-da? To'g'ri, men uning himoyatiga muhtoj bo'lganim uchun u aybdor emas; uning uyi do'kon ham emas, albatta. Votren aytgandek, to'p o'qidek yorib kirish kerak bular orasiga».

De Bosean xonimnikida ovqat qilishini o'ylab lazzatlan-ganidan Rastinyakning achchiq fikrlari tez tarqab ketdi. Shu tarzda, taqdirning taqozosi bilan, hayotidagi har bir arzir-arzimas hodisalar ham, go'yo bitishib olgandek, uni shunday bir yo'lga itarmoqchi ediki, bu yo'lda, u Voke pansionidagi sfinksning gapi bilan aytganda, jang maydoniga chiqishi va o'zi o'lib ketmasligi uchun boshqalarni o'ldirishi, o'zi aldanib qolmasligi uchun

boshqalarni aldashi kerak; bu yo'lga kirish uchun yo'l boshidagi bekatga vijdon bilan yurakni tashlab o'tishi, yuziga niqob tortishi, odamlarni qo'g'irchoq qilib o'ynatishi kerak edi: gulchambarga muyassar bo'lish uchun Lakedemondagi singari odamlar nazaridan chetda g'alaba qozonishga tayyorlanishi lozim edi<sup>1</sup>.

Ejen vikontessanikiga qaytib kelib, uning yana har vaqtdagidek shirin so'z va ochiq yuz bo'lib qolganini ko'rdi. Ular ikkalasi yemakxonaga yo'nalishdi, bu yerda vikont de Bosean xotinini kutib turgan ekan. Dasturxon ustidagi jamiki idish-tovoqlarda oltin tovlanardi; hammaga ma'lumki, Qayta tiklanish davrida bunday go'zal idish-tovoqlar ayniqsa rasm bo'lgan edi. Har qanday o'ziga to'q odam singari vikont uchun ham mana shunday ajoyib tuzalgan dasturxonda ovqat yeyishdan boshqa lazzat qolmagandi. U ovqatga o'chlikda Lyudovik XVIII<sup>2</sup> va gersog Eskar<sup>3</sup> toifasidagi odam edi. Uning uyida tuzaladigan dasturxon ikki yoqlama lazzat bag'ishlardi – ham ko'z quvonardi, ham og'iz. Hang-mang bo'lib qolgan Rastinyak hali shu paytgacha bunday ajoyib manzarani sira ko'rgan emasdi; u umrida birinchi marta bunday serdabdaba vaziyatda ovqatlanishi edi; ana shu dabdabali hayot esa bu xonadonda avloddan avlodga o'tib kelardi. Imperiya davrida rasm bo'lgan, bal tugagandan keyin beriladigan ziyofatlar yaqinda bekor qilingandi, u vaqtlarda harbiylar begona yurtlarda ham, o'z vatanida ham olib boriladigan janglarda ishtirok etish uchun kuch-quvvat to'plashlari kerak edi. Bugungacha Ejen faqat ballarda bo'lgan edi. Keyinchalik o'z mag'rurligi bilan dong chiqargan Ejen shu kunlardanoq o'ziga ishonishni odat qila boshlagan edi, shuning uchun u hozir ham o'sha g'ururi tufayli, dovdirab qolmadi. Lekin tasavvuri zo'r odam oila tamg'asi bosilgan oltin-u kumush idish-tovoqlarni va hashamatli dasturxonga qo'yilgan xilma-xil lazzatli taomlarni, tovush chiqarmay xizmat qilib yurgan xizmat-

<sup>1</sup> «...Lakedemondagi singari... g'alaba qozonishga tayyorlanishi lozim edi». Lakedemon – qadimiy grek shahri, boshqacha qilib aytganda – Sparta. Rastinyak yuqori mansabni, dovruq qozonishni orzu qilarkan, o'zini Spartada bo'lgan «Olimpiya o'yinlari» qatnashchilari bilan taqqoslaydi – bu sport musobaqalarida g'olib chiqqan kishi dafna gulchambari bilan taqdirlanardi.

<sup>2</sup> Lyudovik XVIII (1785-1795) – 1793-1795-yillarda Fransiya qiroli.

<sup>3</sup> «...Lyudovik XVIII ((1785-1795) – 1793-1795-yillarda Fransiya qiroli) va gersog Eskar toifasidagi odam edi». – Qiroli Lyudovik XVIII va uning saroy gersogi d'Eskar o'lgudek mechkayligi bilan nom chiqargan edilar.

korlarni birinchi marta ko'rgandan keyin, garchi qashshoqlikda turmush kechirishga shu bugun ertalab ahd qilgan bo'lsa ham, bunday chiroyli hayotdan o'sha qashshoqlikni afzal ko'rishi qiyin, albatta. Ejenning xayolida bir lahzagagina oilaviy pansion manzarasi namoyon bo'ldi, – u shunday dahshatga tushdiki, yanvar oyidayoq pansiondan ketaman, yaxshigina biror uyga ko'chib o'taman, shu bahonada Votrendan va doimo yelkamga qo'yadigan uning gurzidek vazmin kaftidan qutulib ketaman deb qasam ichdi. Basharti Parijda buzuqlikning qanchadan qancha pinhoniyl shakllari yoki oshkora xillari mavjudligini tasavvur qilishning iloji bo'lsa, farosatli odam o'ziga o'zi bunday deb savol bergan bo'lardi: davlat nima sababdan yanglishib Parijda maktablar ochib, unga yoshlarni to'plab yuribdi, do'ndiqqina juvonlar nima sababdan u yerda dahlsizlik huquqidan foydalanib yur'ishibdi, sarroflarning yog'och laganchalariga terib qo'yilgan oltin tangalar sehr qilingandek nega g'oyib bo'lib qolmaydi? Ammo yovuzliklarni, hatto buzuqroq ishlarni yoshlar orasida kam uchrashini o'ylaganingda, o'zi bilan o'zi kurashib yotgan va bu kurashda deyarli hamma vaqt ustun chiqadigan sabr-toqatli Tantallarga<sup>1</sup> nisbatan beixtiyor o'zingda hurmat hissi uyg'onganini sezasan! Hech bo'lmaganda mana shu kambag'al talabani misolga olib, uning Parijga qarshi olib borgan kurashini tasavvur qilsangiz, – u asar hozirgi madaniy paytimizdagi eng dramatik epizodlardan biri bo'lib hisoblanardi.

De Bosean xonim, dilidagi gapni aytarmikin, degan niyatda Ejenga qarab-qarab qo'ysa ham bo'lmadi – u vikont oldida dardini ochib gapirgisi kelmadi.

Vikontessa eridan:

– Bugun meni italyanlar teatriga kuzatib borasizmi? – deb so'radi.

Eri esa Rastinyak sezmay qolgan bir istehzo bilan:

– Sizga bo'ysunish menga juda ham katta huzur bag'ishlagan bo'lar edi, – deb javob qildi, – bunga shubhangiz bo'lmasa kerak, albatta, lekin bugun Varete teatrida ba'zi odamlar bilan

<sup>1</sup> **Tantal** (*yomoncha*) – yunon mifologiyasida Lidiya yoxud Frigiya podshosi; ma'budlar tomonidan abadiy azob-uqubatga mahkum etilgan («tantal azoblari»); bo'ynidan suvga botgan holda tepasidagi daraxtdan egilib turgan mevalarni ko'rib tursa ham tantal na chanqoqlikdan va na ochlikdan xalos bo'la olgan, chunki suv uning lablari tagidan o'tib ketgan, mevali shox esa unga tutqich bermagan.

uchrashishim kerak edi.

«Mahbubasi bilan uchrashadi», – deb xayolidan o‘tkazdi de Bosean xonim.

– D’Ajuda bugun kechqurun kelmaydimi? – deb so‘radi vikont.

– Yo‘q, – deb javob qildi vikontessa alam bilan.

– Unda, albatta, biror kavalер zarur bo‘lsa, o‘zingiz bilan janob de Rastinyakni olib keta qoling.

Vikontessa jilmayib turib Rastinyakka qaradi.

– Bu ish sizga juda ziyon bo‘ladi, – deb qo‘ydi u.

– «Fransuz xavf-xatarni yaxshi ko‘radi, negaki shundan u shuhrat orttiradi», degan edi Shatobrian, – deb javob qildi Rastinyak, bosh egib.

Bir necha daqiqadan keyin ikki o‘rinli kareta g‘izillagancha de Bosean xonim bilan Ejenni eng mashhur teatrga olib ketmoqda edi. U sahna ro‘parasidagi lojaga kirganda va zalda-gilarning hammasi lornetlarini<sup>1</sup> bag‘oyat shinam kiyingan vikontessaga, nainki vikontessaga, balki, unga ham harakatlarida hamma yoq afsonaviy bir manzara kashf etgandek bo‘ldi. Xullas, bir joziba o‘rnini ikkinchisi egallab turdi.

– Men bilan gaplashmoqchi edingiz, – deb de Bosean xonim unga eslatib qo‘ydi. – Qarang, huv ana de Nusingen xonim, bizdan uch loja narida o‘tiribdi. Uning qarshisida Sauning opasi janob de Tray bilan o‘tiribdi.

Vikontessa shunday deb turib, mademuazel de Roshfid band qilgan lojaga ko‘z yugurtirdi-yu, darrov chehrasi ochilib ketdi: u yerda d’Ajuda yo‘q edi.

– Juda chiroyli ekan, – dedi Ejen, de Nusingen xonimga qarab.

– Kipriklari sariq.

– Ammo beli xipcha, kelishgan ekan.

– Lekin qo‘llari katta.

– Ko‘zlari ko‘hlik ekan.

– Yuzi juda cho‘ziq.

– Yuzining cho‘ziqligi – asil zotiga tortgan.

– Baxtli ekan, shunchalik bo‘libdi, lornetini qanday tutib,

<sup>1</sup> Lornet – buklama dastali ko‘zoynak. 1780-yilda Jorj Adams tomonidan ixtiro qilingan.



qanday tushirishiga qarang! Har bir harakatidan Gorio avlodi ekani yaqqol ko‘rinib turibdi, – deb javob qildi vikontessa, Ejen-ni g‘oyat hayron qoldirib.

Haqiqatan ham, de Bosean xonim de Nusingen xonimga mutlaqo e‘tibor bermay lornetchasi orqali teatr zalini ko‘zdan kechirmoqda edi, lekin de Nusingen xonimning bironta ham harakati uning e‘tiboridan chetda qolmayotgan edi. Teatrda eng asilzoda odamlar kelgan edi. De Bosean xonim bilan kelgan chiroyli, xushbichim qarindoshining ko‘zini uzmay unga tikilib o‘tirgani Delfina Nusingenga manzur bo‘ldi...

– Undan ko‘z uzmay qarayversangiz, ochiqdan ochiq odobsizlik bo‘ladi bu. Xiralik bilan hech narsaga erisha olmaysiz.

– Muhtaram xonim, – dedi unga Ejen, – menga juda katta yaxshilik qildingiz; agar shu yaxshiligingizni oxirigacha davom ettirmoqni bo‘lsangiz, sizdan faqat bitta narsani iltimos qilardim; siz uchun u hech qiyin emas, men esa undan baxtiyor bo‘laman. Men sevib qoldim.

– Darrov-a?

– Ha.

– Shu ayolmi-ya?

– Istaklarimga yana boshqa joydan ham javob topa olarmidim? – deb so‘radi u, qarindoshiga sinovchan ko‘zlari bilan tikilib qarab; bir ovlik sukutdan keyin yana gapini davom ettirdi; – Gersoginya de Karilyano Berriy gersoginyasi bilan yaqin, hoynahoy siz ham u bilan uchrashib tursangiz kerak, shunday ekan, bir iltifot qilib, meni unga tavsiya qilsangiz va uning ke- layotgan dushanbadagi baliga olib borsangiz. U yerda men de Nusingen xonim bilan uchrashib, birinchi marta hujumga o‘tib ko‘raman.

– Jonim bilan, – dedi u. – Uni halitdan yoqtirib qolgan bo‘lsangiz, oshiqlik faoliyatingiz juda yaxshi yurishib ketibdi. Hov anavi de Marse, knyaginya<sup>1</sup> Galation lojasida o‘tiribdi. Bu de Nusingen xonim uchun bir azob, hozir u rashk o‘tida qovrilib o‘tiribdi. Ayol kishiga, ayniqsa, bankirning xotiniga yaqinlashish uchun bundan ham qulay fursat bo‘lmaydi. Shosse d’Anten ko‘- chasida turadigan xonimlarning hammasi ham o‘ch olishni

<sup>1</sup> Knyaginya – knyazning xotini.

yaxshi ko'rishadi.

– Bunday paytda o'zingiz nima qilgan bo'lardingiz?

– Menmi? Dardimni ichimga yutib ketgan bo'lardim,

Shu payt De Bosean xonim lojasiga markiz d'Ajuda kirib keldi.

– Ishlarni nari-beri bitkazdim-u, sizni ko'rish uchun yugurdim, bu qilgan ishimni fidoyilik demoqchi emasman, shuning uchun ham sizni bundan xabardor qilib qo'yyapman.

Vikontessaning yuzi shodlikdan ochilib ketganiga qarab Ejen chin muhabbat bilan parijlik xonimlarning soxta noz-ishvalari orasidagi farqni tushunib oldi. Qarindoshini mehr bilan tomosha qilib turib, jim qoldi va bir xo'rsinib, joyini markiz d'Ajudaga bo'shatib berdi. «Bunday seva oladigan xotin naqadar olijanob, naqadar chinakam oliyzot bo'lishi kerak! – derdi o'ziga o'zi Ejen. – Bu odam bo'lsa, allaqanday qo'g'irchoq deb, undan yuz o'girmoqchi bo'lib yuribdi! Qanday bevafoqlik qilib bo'ladi unga?» Uning ko'nglida bolalarga xos bir g'azab paydo bo'ldi. Shunda u qarindoshining oyoqlari betiga o'zini tashlagusi kelib ketdi, vodiyanan murg'ak echki bolasini tikka osmonga olib qochadigan burgutga o'xshab, uni yuragida olib ketish uchun iblisdek qudratli bo'lish orzusi yondi. Bunday ulkan nafosat muzeyiga u o'z sanami, ya'ni o'z mahbubasisiz tashrif buyurishni o'ziga ep ko'rmadi. «Mahbuba va shohona vaziyat – qudrat nishonasi deb ana shuni aytsa bo'ladi». Shunday deb o'yladiyu, de Nusingen xonimga bir qarab qo'ydi – bu qarash haqoratlangan odamning haqorat qiluvchiga tikilishiga o'xshab ketardi. Vikontessa unga o'girildi va faqat kiprik qoqib, kamtarligi uchun Ejenga tashakkur bildirdi. Birinchi parda tugadi.

U markaz d'Ajudadan:

– Siz de Nusingen xonimni de Rastinyak bilan tanishtirib qo'ya olish darajasida yaxshi taniysizmi? – deb so'radi.

– Janob de Rastinyakni o'z lojasida ko'rish xonimga g'oyat katta huzur bag'ishlagan bo'lardi, – dedi markiz.

Portugaliyalik o'ktam yigit o'rnidan turib, talabani qo'l-tiqlab oldi va birpasdan keyin Ejen o'zini de Nusingen xonim qarshisida ko'rdi.

– Baronessa, – dedi unga qarab d'Ajuda, – sizga vikontessa de Boseanning qarindoshi shevale Ejen de Rastinyakni

tanishtirish sharafiga muyassarman. Siz uni Shunday maftun qilib qo'yibsizki, tezroq huzuringizga olib kelib, uni baxtiyor qilishga oshiqdim.

Markiz jumlarining dag'al ma'nosini niqoblash maqsadida, ularni hazil ohangida gapirdi, chunki har qanday jumla ham yaxshi qolipga solinib aytilsa, ayol kishida norozilik uyg'otmaydi. De Nusingen xonim bunga javoban jilmayib qo'ydi va Rastinyakni hozirgina chiqib ketgan erining kreslosiga taklif qildi.

– Men bilan shu yerda qoling, deb aytishga jur'at qilolmayman. De Bosean xonim huzurida o'tirishdek baxtga sazovor odam unday baxtdan voz kechib ketolmaydi.

– Lekin qarindoshimning mendan rozi bo'lishi uchun, extimol, siz bilan shu yerda qolganim ma'qul bo'lar, – dedi unga Ejen sekingina, so'ngroq ovozini balandlatib qo'shib qo'ydi: – Markiz kelishidan oldin u bilan siz to'g'ringizda, sizning qar jihatdan g'oyat latofatli ekaningiz to'g'risida gaplashib o'tirgan edik.

D'Ajuda ta'zim qilib, chiqib ketdi.

– Rostdan ham mening oldimda qolmoqchimisiz? – deb so'radi baronessa. – Unda bir-birimiz bilan yaqinroq tanishib olamiz. De Resto xonim sizni ko'rishga menda ishtiyoq uyg'otdi.

– Unday bo'lsa, grafinyaning gaplari uncha samimiy emas, u meni qabul qilmaslikni tayinlab qo'yibdi.

– Nima uchun?

– Bunga nima sabab bo'lganini aytishdan xijolat qilaman, ammo bunday sirdan sizni voqif qilar ekanman, sizning iltifotingizga umid bag'ishlayman. Otangiz bilan men bir uyda turadigan qo'shnilarmiz. Lekin grafinya de Restoning uning qizi ekanligidan bexabar edim. Sira xafa bo'ladigan gap aytmagan bo'lsam ham, otangiz to'g'risida og'iz ochishdek ehtiyotsizlikka yo'l qo'yib, opangiz bilan pochchangizning g'azabini qo'zg'ab yuboribman. Ularning otadan bunday voz kechib yuborishganini qarindoshim de Bosean xonim bilan gersoginya de Lanjega qanday meshchanlik bo'lib ko'ringanini bilsangiz edi. Men yuz bergan voqeani ularga aytib bergan edim, ular rosa xaxolab kulishdi! Ana o'shanda de Bosean xonim siz bilan opangizni taqqoslab, sizni juda yaxshi so'zlar bilan tilga oldi va mening

qo'shnim, janob Gorio bilan samimiy munosabatda ekanligingizni ta'kidlab o'tdi. Otangizni sevmay bo'lar ekanmi? U sizni shunday jon-dilidan yaxshi ko'radiki, rostini aytsam, hatto rashkim ham kela boshladi. Bugun ertalab u bilan ikkalamiz siz to'g'ringizda rosa ikki soat gaplashdik. Kechqurun esa, otangiz aytgan gaplarni eslab, ovqat vaqtida vikontessadan siz to'g'ringizda: «Nahotki u otasiga shuncha mehribon bo'lgani ustiga o'zi ham chiroyli bo'lsa?» – deb so'radim. Aftidan, de Bosean xonim mening sizga bo'lgan otashin zavqimni yana ham oshirmoqchi bo'ldi, shekilli, o'ziga xos muruvvat bilan sizni shu yerda ko'rishim mumkinligini aytib, meni o'zi bilan teatrga olib keldi.

– Ana xolos, allaqachon sizga minnatdorchilik bildirishim kerak bo'lib qolibdi-da? – deb so'radi bankirning xotini. – Gap shu tarzda borsa, ko'p o'tmay qadrdon do'st bo'lib ketamiz.

– Albatta, siz bilan g'ayri tabiiy bir yo'sinda do'stlashishimiz lozim, ammo sizga faqat do'st bo'lib qolishni hech qachon istamas edim.

Zodagonlar orasiga endi kirib kelayotganlargina ishlata-digan bunday maza-bemaza gaplar, chetdan qaragan odamga kulgili tuyuladi, ammo ayol kishi uchun doim yoqimli bo'lib qolaveradi: chunki yosh yigitning gapirish ohangi, nigoh tashlashi va bunday paytlardagi xatti-harakatlari har qanday maza-bemaza gaplarga ham ko'p ma'no bag'ishlaydi. De Nusingen xonim Rastinyakni dilbar yigit deb topdi. Bunday dadillik bilan ochilgan gapga hamma xotinlar kabi nima deb javob berishni bilmay, xonim gapni boshqa tarafga burdi:

– To'g'ri, opam bechora otamga bunday yomon muomala qilib, o'z obro'siga putur yetkazyapti, otamga biz xuddi xudoga sig'ingandek sig'inishimiz kerak. Men otam bilan faqat ertalabki paytlarda ko'rishisharkanman, janob de Nusingenning qat'iy buyrug'iga buysunishga majbur bo'lganimdan shunday qilaman. Ammo keyin ko'p vaqtgacha o'zimni baxtsiz his qilib yurdim. Rosa yig'ladim. Qo'poldan qo'pol oilaviy mojarolar ketidan bunday zo'ravonlik oilaviy hayotimni zaharlanishiga yana bir sabab bo'ldi. Zodagonlar orasida meni Parijdagi eng baxtiyor ayol deb o'ylashadi, haqiqatda esa, men baxtsiz xotinman. Siz bilan bunday gaplashayotganim befarosatlikdek bo'lib tuyulishi

mumkin, Lekin siz otamni taniysiz, uning tanishi bo'lganingiz uchun menga begona emassiz.

– Sizniki bo'lish istagi bilan menchalik yongan boshqa hech kimni hech vaqt topa olmaysiz, – deb unga javob qildi Ejen. – Siz, ayollar, nima istaysiz o'zi? Baxt, – deb jon kuydirib gapida davom etdi u. – Modomiki, ayol kishi uchun baxt degan narsa kimningdir sevgilisi bo'lishdan, kimnidir o'ziga maftun qilishdan iborat bo'lsa, barcha orzu-istaklari, barcha shirin umidlarini, xursandlik va xafaliklarini hamdamlashadigan do'stga yurak dardini ochiq ayta olishi, dilidagi jamiki kamchiliklar va ajoyib fazilatlarni hech qanday xiyonatdan qo'rqmay, bahuzur ayta oladigan samimiy do'stga ega bo'lishdan iborat bo'lsa, unda, gapimga ishonaveringki, bunday do'stni shirin xayollar quchog'ida yurgan, sizning bitta ishorangiz bilanoq jon fido qilishga ham tayyor turgan, bir o'zingizni butun olamdan ortiq ko'rgani uchun, olamni na bilgan va na bilishni istagan yosh yigitlar orasidan topasiz. Mening soddadilligimdan kulsangiz ham, o'z haqimda sizga to'g'risini aytib qo'ya qolmoqchiman – men xilvat bir viloyatdan kelganman, bu yerlarda yangi odamman, doim sofdil odamlar qurshovida bo'lganman, bu yerda esa sevgi degan narsani uchratmasam kerak deb o'ylagandim. Tasodifan qarindoshim bilan uchrashib qoldim. U men to'g'rimda astoydil jon kuydira boshladi; ana shundan keyin men o'tli muhabbat quchog'ida qanchadan qancha xazinalar yashirib yotganini sezib qoldim; men ham Kerubinogo o'xshab, to bironta ayolga tamomila fido bo'lmaganimcha, hamma ayollarga oshiqman. Teatrga kirib, sizni ko'rdim-u, allaqanday bir to'tqin meni o'z girdobiga olib, siz tarafga surib ketaverdi. Sizki ko'rishimdan oldin ham siz to'g'ringizda juda ko'p o'ylagandim! Ammo sizni bunchalik go'zalsiz deb xayolan ham tasavvur qilmagan edim. De Bosean xonim sizga uzoq qarashimga yo'l qo'ymadi. Sizning bejirim la'li lablaringizga, momiqdek oppoq yuzingizga, xumor ko'zlaringizga qarash qanday lazzatli ekanini u tushuna olmaydi. Men sizga qar xil bemulohaza gaplarni aytib yuboryapman, ammo o'tinaman sizdan: meni gapirishdan mahrum qilmang!

Ayol kishi uchun chashma suvining jildirashidek yoqimli, shirin gaplarni eshitib o'tirishdan ortiq lazzat yo'q. Bunday shirin gaplarni eshitishga huquqi bo'lmagan eng xudojo'y xotinlar

ham, tutgan mavqei javob qaytarishga yo'l qo'ymasa ham, indamay quloq soladilar. Mana shunday gap boshlagan Rastinyak ovozini pasaytirib, yana bulbuligo'yodek sayrab ketdi; de Nusingen xonim esa knyaginya Galation lojasida qimir etmay o'tirgan de Marsega qarab-qarab qo'yar va jilmayib Ejenga dalda berardi. To baronning o'zi xotinini uyga kuzatib qo'yish uchun qaytib kelguncha, Rastinyak de Nusingen xonim lojasida o'tirdi.

– Xonim, – dedi Ejen, – gersoginya Karilyano baligacha huzuringizga bir borish umididaman.

– Xotanim shijni taklif qilgan ekan, yaxshi kutib olishimizga ishonafering, – dedi dumaloq yuzidan ayyor va hiylakor odam ekani ko'rinib turgan semiz elzaslik nemis.

«Ishlarim xamirdan qil sug'urgandek oson yurishib ketdi, u: «Meni seva olarmidingiz?» – degan savolimdan hech cho'chib ketmadi-ku. Otim egarlandi, endi egarga minib olib, jilovni qo'lga olish qoldi», – de Bosean xonim bilan xayrlashish uchun uning lojasiga ketayotgan Ejen mana shunday deb o'ylar edi, vikontessa esa d'Ajuda bilan birga ketmoqchi bo'lib, o'rnidan turayotgandi. Bechora talaba baronessaning dardi tamomila boshqa ekanini bilmasdi: u de Marsedan yurakni ezib tashlaydigan, qal qiluvchi oxirgi maktubni kutib yurardi. Soxta muvaffaqiyatdan og'zi qulog'iga yetgan Ejen vikontessani qar kim o'z karetasini kutib turgan tashqi kolonnalar<sup>1</sup> ostigacha kuzatib qo'ydi.

Ejen ular bilan xayrlashib ketgandan keyin portugaliyalik, de Bosean xonimga kulib turib dedi:

– Qarindoshingiz o'zida yo'q xursand. Butun bankni tortib oladi hali. Juda epchil yigit ko'rinadi, menimcha uning qo'lidan hali ko'p ish keladi. Aynan mana shundan ko'ngil ovlovchi yigitga muhtoj bo'lgan ayolni unga tanlab berish faqat sizning qo'lingizdan keladi.

– Ammo u o'zini tashlab ketayotgan oldingi oshig'ini hali ham yaxshi ko'rardimi-yo'qmi, ana shuni bilish kerak edi.

Talaba shirin xayollar surib, Italyan teatri xiyobonidan o'zining Nev-Sent-Jenevev ko'chasigacha piyoda bosib o'tdi. Ejen vikontessaning, so'ng de Nusingen xonimning lojasida

<sup>1</sup> Kolonna – 1) ustun (bu yerda shu ma'noda); 2) saf.

o'tirgan vaqtda grafinya de Resto unga tikilib qarab o'tirganini ko'rgandi, bu esa grafinyaning eshigi endi ham uning uchun yopiqlicha qolmas deb o'ylashga huquq berardi. Ejen marshal Karilyanoning xotiniga o'qishga harakat qilmoqchi, shu tarzda Parijdagi eng oliy tabaqa kishilari orasida o'ziga to'rtta yuksak tayanch orttirmoqchi edi. U umumiy moddiy manfaatlarning murakkab mexanizmi orasida mashinaning yuqori bo'limiga chiqib olish uchun qandaydir biror g'ildirakka yopishib olish lozimligini tushunib qolgan edi; bunga qanday qilib erishish mumkinligini hali aniq bilmasdi, ammo o'zini o'sha asosiy g'ildirakning kegaylaridan<sup>1</sup> biri bo'lishga yaroqli darajada mahkam deb hisoblardi. «Baronessa Nusingen menga ishqiboz bo'lib qolsa, erini istagan yo'rig'iga solishni unga o'rgatib qo'yaman. U tog'-tog' oltinlar bilan ish qiladigan odam, menga ham tez boyib olishga yordam beradi». Bu gapni u ochiq aytgani yo'q, – Ejen hali har bir vaziyatni pulga chaqadigan, qar ishning qancha foyda-yu, qancha ziyon keltirishini o'ylaydigan darajadagi usta siyosatdon darajasiga o'sib yetganicha yo'q; bu fikrlar yengil bulut parchalari singari hali ufqda suzib yurar va Votrenning e'tiqodi singari aniq bir shaklga kirib yetilganicha yo'q edi, ammo ularni vijdon qo'rasida bir toblab ko'rilsa xulosasi Votrenning fikridan beshbattar bo'lib chiqardi... Odamlar vijdon bilan mana shunday bitimlar tuzish orqali bizning avlod ochiqdan ochiq e'tirof etgan axloqiy buzuvchilik darajasiga tushib qoladilar, yomonlikka sira yo'l qo'ymaydigan va to'g'ri yo'ldan salgina bo'lsa ham, og'ishni jinoyat deb hisoblaydigan ajoyib irodali odamlarni, juda to'g'ri, halol odamlarni biz bu avlod orasida qar vaqtdagidan ham kamroq uchratyapmiz – bunday sof vijdonli odamlarning ajoyib obrazlarini bizga ikki ijodkor tasvir qilib berdi: biri, Molerning<sup>2</sup> Alsesti<sup>3</sup>, ikkinchisi, yaqinda Valter Skott<sup>4</sup>

<sup>1</sup> Kegay – g'ildirakning to'g'ini bilan gupchagini qo'shib, tutib turuvchi tayoqsimon qismlardan biri.

<sup>2</sup> Jan Batist Poklen Moler (1622-1673) – fransuz dramaturgi, aktyori, teatr arbobi, sahna san'ati islohotchisi. «Tartyuf», «Zo'raki nikoh», «Mizantrop», «Amfitrion», «Jorj Danen», «Xaxis», «Dvoryanlar orasidagi meshchan», «O'qimishli ayollar», «Soxta bemor» komediyalar va «Don Juan» pesalar muallifi.

<sup>3</sup> Alsest – Molerning «Odamovi komediyasida» bosh personaj – o'z fikrida qattiq turadigan, nihoyatda to'g'ri so'z odam.

<sup>4</sup> Valter Skott (1771-1832) – ingliz yozuvchisi, tarixiy roman janrining asoschisi.

romanida tasvirlangan Jenni Dins<sup>1</sup> bilan otasining obrazlaridir. Lekin butunlay boshqacha xarakterdagi ajoyib asar ham, chunki tashqaridan qaraganda odobga xilof bo'lmagan yo'l tutib, yovuzliklarni chetlab o'tishga va shu tarzda o'z maqsadiga yetishishga intilgan yuqori tabaqaga mansub shuhratparast yigitning bosib o'tgan qing'ir-qiyshiq aylanma yo'llarini ifoda etgan badiiy tasvir ham ehtimol aynan shunday kishini hayajonga soladigan, ajoyib asar bo'lib chiqar? Ejen pansionga yetib borguncha de Nusingen xonimga ishqiboz bo'lib qoldi: xonim unga juda xushbichim, nozanin bo'lib tuyuldi. Muloyim nigohlar, ipakdek mayin badan terisi unga shunday nozik tuyuldiki, go'yo uning ostidan oqayotgan qon ham ko'rinib turgandek edi, – kishini mast qiladigan xush ovozi, oq-sariq sochlari – bularning hammasi yigitning ko'zi oldida namoyon bo'ldi; ehtimolki, tez yurib kelganidan qon yurishi tezlashib, shunday ajib manzaraning sodir bo'lishiga olib kelgandir. Talaba Gorio otaning eshigini qattiq taqillatdi.

– Qimmatli qo'shni, men Delfina xonimni ko'rdim, – deb xabar qildi Ejen.

– Qayerda?

– Italianlar teatrida.

– Vaqtini yaxshi o'tkazdimi u? Kirsangiz-chi bu yoqqa.

Chol ko'ylakchang holda kelib eshikni ochdi va yugurib borib yana o'rniga yotib oldi.

– Qani, gapiring, – dedi u.

Ejen Gorio otaning xonasiga birinchi marta kirishi edi, buning ustiga hozirgina qizining dabdabali liboslarini tomosha qilgandan keyin kirgandi, shuning uchun ota yashab yurgan bu katalakni ko'rishi bilan yuzida beixtiyor ajablanish alomatlari paydo bo'ldi. Derazalarda parda yo'q, nam tortib qolgan gulqog'ozlar bir necha joydan ko'chib, tob tashlab qolibdi, ochilib qolgan yerlarda devorning tutundan sarg'ayib ketgan shuvog'i ko'rinib turibdi. Chol yirtiq-yamoq ko'rpa bilan Voke xonimning eski ko'ylaklaridan quroq qilib tikilgan oyoqqa tashlab qo'yila-

Asarlari: «Ivan oqshomi» «Shotland hududlari qo'shiqlari», «Ueverli», «Puritanlar», «Rob Roy» «Graf Robert Parijli», «Ayvengo», «Kenilvort», «Vudstok», «Pert go'zali», «Sent Ronan soylari», «Napoleon Bonapart hayoti», «Shotlandiya tarixi», «Lord Bayronning o'limi».

<sup>1</sup> Jenni Dins – Valter Skotning «Edinburg zindoni» romanining qahramoni.



digan kichkinagina paxtalik ko'rpacha ostiga kirib yotibdi. Pol nam va chang. Deraza ro'parasida pushti rang yog'ochdan yasalgan eski baqaloq jovon, jovonning tortmalariga uzumning barg va novdalari shaklida ishlangan tutqichlar o'rnatilgan; taxta ustiga o'rnatilgan eski umivalnik, unda tos ichiga qo'yilgan ko'za va soqol qirish buyumlari turibdi. Burchakda tashlab yuborilgan shippak yotibdi, karavoti boshida eshikchasi va marmar taxtasi yo'q tumba; kaminning ichida kuldan asar ham yo'q; kamin yonida yong'oq yog'ochidan qilingan oyoqlari beldamchi<sup>1</sup> bilan ulangan to'rtburchak stol, Gorio ota yaqinda chetiga oltin hal yuritilgan kumush idishni mana shu stolda yumaloqlagan edi. Ko'rimsizgina baland stolcha, uning ustida Gorioning shlyapasi; poxol o'tirg'ichli kreslo va ikkita stul bilan xonadagi g'aribona jihozlar tugardi. Eshik pardasi osiladigan dor shiftga allaqanday lattalar bilan bog'lab qo'yilgan, ammo parda o'rnida oq va qizil doiralar bosilgan arzonigina bir parcha latta tutib qo'yilgandi. Eng kambag'al xat tashuvchilar ham o'z cherdagida Gorio otaning Voke xonim uyida kechirayotgan kunidan tuzukroq turardi. Uning xonasiga bir ko'z yugurtirgan odamning eti junjikib ketar, yuragi ezilardi; bu xona turma kamerasini eslatardi, eslatganda ham turmaning eng yomon kamerasini eslatardi. Yaxshiyamki, talaba stolcha ustiga sham qo'yayotganda Gorio ota uning yuzini ko'rmay qoldi. Nol ko'rpani iyagigacha tortib oldi-da, Ejenga o'grildi:

– Xo'sh, sizga qay biri ko'proq yoqdi, de Resto xonim ko'proq yoqdimi yo de Nusingen xonimmi?

– Menga ko'proq Delfina xonim ma'qul bo'ldi, chunki u sizni ko'proq yaxshi ko'radi, – dedi talaba.

Bu yoqimli gapni eshitib, Gorio qo'lini adyol ichidan chiqarib, Ejenning qo'lini qisdi.

– Rahmat, rahmat, – deb takrorladi ta'sirlanib ketgan chol.  
– Mening to'g'rimda nimalar dedi u?

Rastinyak baronessaning og'asi to'g'risidagi gaplarini bo'yab, ko'shib-chatib gapirib berdi, Gorioga esa uning gapi bamisoli kalomi ollodek eshitildi.

– Jonim qizim! Ha, to'g'ri, meni juda yaxshi ko'radi.

<sup>1</sup> Beldamchi – 1) belga ichdan bog'lab olinadigan issiq (odatda, paxtali) belbog'; 2) biror narsaga ko'ndalangiga, beliga qo'yiladigan, o'rnatiladigan narsa.

Ammo uning Anastazi to'g'risida aytgan gapiga ishonmang. Bilasizmi, qizlarim meni bir-birlaridan qizg'anishadi. Bu ularning menga bo'lgan mehribonchiligidan darak beradi. De Resto xonim ham meni juda yaxshi ko'radi. Buni men bilaman. Xudoi taolo o'z bandalarining dilidagi niyatlarigacha bilib, o'shanga qarab hukm yuritgandek, ota ham o'z farzandlarini juda yaxshi biladi. Ikkalasi ham juda mehribon menga. Eh, kuyovlarim ham yaxshi bo'lishganDa, dunyoda eng baxtli odam bo'lardim! Bu dunyoda to'la baxtli odamning o'zi yo'q, albatta. Eh, qani endi ular bilan birga tursam. Ularning ovozi eshitib yursam, ular shu orada, yonginamda ekanini bilib, biror yerga ketishayotgan yo biror joydan kelishgan paytlarda ko'rib tursam. menga shuning o'zi bas edi, – birga turgan paytimizda turmushimiz xuddi shunday kechgan edi, bunday paytlarda xursand bo'lganimdan yuragim qinidan chiqib ketayozardi. Yaxshi kiyinib kelishibdimi?

– Ha, – deb javob qildi Ejen. – Lekin bunisi qanday bo'ldi, janob Gorio, qizlaringiz shunday zeb-ziynatlar orasida yashasayu, siz mana bunday hujrada tursangiz?

– To'g'risini aytsam, menga bundan ortiq joyning nima keragi ham bor? – dedi Gorio, o'zini beparvolikka olib. – Buni sizga tushuntirib berishim qiyin, jumlani jumlagi ulab gapirishga uquvim yo'q. Hamma gap – mana bu yerda, – dedi u ko'kragiga bir urib. – Mening butun hayotim qizlarimda. Modomiki, ular yaxshi turisharkan, baxtli ekan, yaxshi kiyinib, pat gilamlar ustida yurisharkan, mening ko'ylagimning qanday matodan tikilgani-yu qayerda yotib uxlashimning nima ahamiyati bor? Ular issiq uyda turishsa, men ham sovuq qotmayman, ular xursand bo'lishsa, men ham xafa bo'lmayman. Ularning g'amidan tashqari mening hech qanday g'amim yo'q. O'zingiz ham ota bo'lib, bolalaringiz ovozi eshitganingizdan keyin: «Bular mening bir bo'lagim», – deb qolasiz hali, o'sha kichkintoylar o'z qoningizdan ekanini, nainki qoningizdan, joningizdan ekanini tushunasiz, – haqiqatan ham, o'zi shunday! – nazaringizda, ular bilan bir jon-u bir tan bo'lib ketgandek bo'lasiz, ular qimirlaganda siz ham birga qimirlayotgandek bo'lasiz. Har tarafdan ularning ovozi eshitilib turadi menga. Ularning g'amgin ko'zlariga ko'zim tushsa bas, yuragim orqaga tortib ketadi. Bir kun kelib siz ham o'z tinchingizdan ko'ra bolalaringizning tinchidan ko'proq baxtli

bo'lish mumkinligini tushunib qolasiz. Men hamma gapni sizga tushuntirib bera olmayman: bu – hamma yoqqa shodlik urug'ini sohib yurgan yurak faoliyati. Qisqasi, men uch yoqlama hayot kechiryapman. Xohlasangiz, bir qiziq gapni so'zlab beray? Bilasizmi, men ota bo'lganimdan keyin xudoga tushundim. Hamma mavjudot uning qudrati bilan paydo bo'lgan, demak, u har yerda hozir-u nozir. Qizlarim bilan mening o'rtamdagi munosabat ham xuddi shunday. Lekin xudo dunyoni men qizlarimni yaxshi ko'rganchalik yaxshi ko'rmaydi, negaki dunyo xudoning o'zichalik go'zal emas, ammo mening qizlarim o'zimdan ming bor yaxshiroq, Qizlarim mening qalbiga shu qadar yaqinki, shu bugun kechqurun siz ularni ko'rasiz degan gap sira xayolimdan nari ketmadi. Yo xudo, Qani endi, biror yigit Delfina qizimni baxtli qilsa, u biror yigit tarafidan astoydil sevilgan ayol baxtiga muyassar bo'lsa, – men unday odamning botinkalarini tozalayman, yugurdagi bo'laman. Qizimning uy xodimasidan eshitganman o'sha de Marse degan boyvachcha yaramas it ekan. Biram qo'lim qichib kallasini sug'urib olgim keldi-ya. Shunday ayolni, bulbuldek xushovoz, shunday bebaho, sarv-qomat ayolni sevmay bo'ladimi? O'sha elzaslik to'nkaga erga chiqayotganda qizimning ko'zi qayoqda ekan-a? Ikkala qizim ham chiroyli, xushmuomala, shirinso'z yigitlarga turmushga chiqishi kerak edi. O'zlarining injiqligi tufayli shunday kunlarga qolib o'tirishibdi.

Gorio ota hozir juda boshqacha bo'lib ketgandi. Ejen uni shu paytgacha bunday otalik mehri jo'sh urib turgan holda hech ko'rmagan edi. Ehtiroslarimizning bexosdan jo'sh urib ketishi qanday yaxshi narsa. Eng johil odamni misol olib ko'ring: o'shanday odam ham chinakam muhabbat hislari bilan qaynab-toshdimi – butunlay boshqa odam bo'lib ketadi, butun qiyofasi o'zgarib, xat-harakatlari go'zallashib, ovozi jarangdor bo'lib ketadi. Ehtiroslar ta'siri ostida hatto to'pori odamlar ham gapga chechan bo'lib ketadi, u ravon jummlalar tuza olmasa ham, fikrlari sermazmun bo'ladi, allaqanday yorug' dunyoga chiqib qolgan-dek o'zgarib ketadi. Mana hozir ham shunday bo'ldi: cholning har bir imo-ishorasida, ovozida kishini o'ziga tortadigan qandaydir kuch aks etardiki, bunday kuch faqat buyuk artistlardagina bo'ladi. Ajabo, bizning eng yaxshi hislarimiz ham irodamizning she'riy ifodasi emasmi?

– Demak, bundan chiqdi, u de Marve bilan aloqasini uzsa ham ehtimol desam, xafa bo‘lmas ekansiz-da? – deb so‘radi Ejen, Gorio otadan. – O‘sha quruq savlat uni tashlab, knyagina Galationning pinjiga kirib olibdi. Lekin men, bugun kechqurun Delfina xonimni juda ham yaxshi ko‘rib qoldim.

– Rostdan-a! – deb yubordi Gorio ota.

– Ha, men ham unga yoqdim, shekilli. Biz bir soatcha muhabbat haqida suhbatlashdik, indinga – shanba kuni esa, albatta, uning huzuriga boraman.

– O, qizimga yoqqudek bo‘lsangiz, sizni shunday yaxshi ko‘rardimki, azizim. Siz oqko‘ngil odamsiz, siz uni qiynamaysiz. Agar unga bevafoqlik qilgundek bo‘lsangiz, adi-badi etishib o‘tirmasdan shartta kallangizni olaman. Xotin degan faqat bir marta sevadi, tushunasizmi shuni? E xudo! Qanday bemani gaplarni gapirib o‘tiribman-a, janob Ejen! Bu yer sizga sovuq. E xudo! Demak, u bilan gaplashibsiz-da? Menga biron gap aytib yubordimi?

«Hech nima», – deb xayolidan o‘tkazdi u, ammo ovoz chiqarib:

– Sizga qizg‘in farzandlik salomini yetkazishimni tayinladi, – dedi.

– Xayr endi, qo‘shni, tinch uxlang, yaxshi tushlar ko‘ring, men esa, siz olib kelgan gaplardan keyin juda yaxshi tushlar ko‘rishim turgan gap. Iloyo, niyatingizga yeting, xudoning o‘zi madadkor bo‘lsin sizga! Bugun kechqurun siz ko‘zimga farishta bo‘lib ko‘rindingiz, sizdan qizimning hidi kelib turdi.

«Bechora! – deb o‘ylar edi Ejen, uyquga yotar ekan. – Buni ko‘rib, tosh yuraklar ham erib ketsa kerak. Qizi turk sultoni haqida o‘ylagan bo‘lsa o‘ylagandirki, ammo otasini esiga ham olgani yo‘q».

Mana shu suhbatdan keyin Gorio ota qo‘shnisiga o‘z sirdoshi, do‘stidek qaray boshladi. Ular o‘rtasida cholni o‘zga odam bilan bog‘lay olishga qodir bo‘lgan munosabatlar tiklandi. Qizg‘in ehtiroslar hech vaqt hisobda yanglishmaydi. Gorio ota, agar Ejen Delfinaga yoqqudek bo‘lsa, qizimga ancha yaqin bo‘lib qolaman, uning aziz mehmoni bo‘lib turaman deb orzu qilardi. Bundan tashqari, chol Ejenga o‘zining iztirob chekish sabablaridan birini oshkor qildi. U bir kunda yuz martalab de

Nusingen xonimning baxti ochilsin deb duo qilardi, ammo u shu kungacha muhabbat lazzatini hech ham surmadi. Turgan gapki, Ejen, Gorio ota nazarida, o'zining tan olishiga ko'ra, shu paytgacha uchratgan yigitlar ichida eng yoqimtoyi edi, shu paytgacha muhabbat lazzatidan mahrum bo'lib kelayotgan qizimni Rastinyak bahramand qila oladi, deb o'ylardi. Shunday qilib, Gorio ota qo'shnisi bilan do'stlashib ketdi, bu do'stlik tobora kuchayib boraverdiki, busiz qissamizning yechimini tushunib bo'lmasdi.

Ertasiga ertalab nonushta paytida Gorio otaning Rastinyak yoniga o'tirib olib, unga tikilib-tikilib qarashlari, Ejenga aytgan bir-ikki og'iz so'zi, odatda, yog'ochdek qotib, hech qanday hisni ifoda qilmaydigan, bugun esa butunlay o'zgarib, jonlanib ketgan yuzi, – bularning hammasi boshqa xo'randalarni hayron qoldirdi. Tunov kungi suhbatdan keyin talabani endi uchratayotgan Votren uning yuziga tikilib, dilidagi gaplarni uqib olishga urinarDi. Bugun kechasi uxlashdan oldin Ejen qarshisida ochilgan hayot maydonining butun kengligini bir nazardan kechirib ko'rgan edi, hozir esa Votren bilan to'qnash kelib, u taklif etgan rejalarning hammasi lop etib esiga tushdi-da, tabiiyki, mademuazel Tayferning sepini o'ylab, o'zini tuta olmay Viktorinaga shunday qaradiki eng ezgu niyatli yigitlarga boy-badavlat qayliqqa mana shunday nazar bilan qaraydilar. Tasodifan ularning ko'zi ko'ziga tushdi. Bechora qiz Rastinyakka yangi kiyim-bosh juda yarashganini e'tirof etishga majbur edi. Qiz bilan ma'nodor ko'z urishtirib olgandan keyin, o'zini unga yoqib qolganiga shubhasi qolmadi, yosh qizlarning hammasi ham yo'lida uchragan, sevishga arziydigan tuzukroq yigitlarni mana shunday bir ko'rishda yaxshi ko'rib qoladilar. Ko'nglida: «Sakkiz yuz ming frank-a!» – deb o'ylab qo'ydi. Lekin Ejen darhol o'zini kechagi kun voqealari ustida o'ylashga majbur qildi, de Nusingen xonimni yaxshi ko'rib qoldim-ku, degan yasama o'yni yomon xayollarga qarshi qo'yishga qaror qildi.

– Kecha Italyanlar teatrida Rossiyaining «Seviliya sarta-roshi» operasini ko'rsatishdi. Shu vaqtgacha bunday ajoyib musiqani hech eshitmagan edim, – dedi u atrofdagilarga. – Yo Xudo! Italyanlar teatrida shaxsiy lojang bo'lsa qanday baxt-a!

Gorio ota xo'jayinning har bir harakatini bir lahzada payqab oladigan itdek, bu gapning ma'nosini ham og'izdan chiqishi

bilanoq bilib oldi.

– Siz erkaklarning qozoningiz ham moy, cho‘michingiz ham, ko‘nglingiz nimani istasa shuni qilaverasiz, – dedi Voke xonim.

– Ayting-chi, uyga qanday qaytdingiz? – deb so‘radi Votren.

– Piyoda, – deb javob qildi Rastinyak.

– Bunaqa yarim-yorti lazzatlar menga xush kelmaydi. men bo‘lsam, teatrGa o‘z kareta da borib, o‘z lojamda o‘tirgan va uyga ham mazza qilib kareta da qaytgan bo‘lardim, – dedi u yigitni vasvasaga solmoqchi bo‘lib. – Mening shiorim – yo miriqib lazzatlanish, yo ikki qo‘lni burniga tiqib, och-yalang‘och o‘tirishi

– Yaxshi shior ekan, – deb ta‘kidladi Voke xonim.

– Siz, balki, de Nusingen xonimni ko‘rgani borarsiz, – deb shivirladi Ejen Gorio otaning qulog‘iga. – U sizni quchoq ochib qarshi oladi, mening to‘g‘rimda har xil tafsilotlarni so‘rab bilgisi kelar. Menga ma‘lum bo‘lishicha u qanday qilib bo‘lmasin, mening qarindoshim vikontessa de Boseannikiga bora olish orzusida yuribdi. Gap kelib qolsa aytib qo‘ying, men uni juda yaxshi ko‘raman va uning orzusini qanday qilib ro‘yobga chiqarsam ekan deb o‘ylab yuribman.

Rastinyak shoshilganicha huquqshunoslik maktabiga ketdi. Bu ko‘ngilga tekkan uyda u mumkin qadar kamroq bo‘lishni istardi. Deyarli kun bo‘yi shahar kezib yurdi; kallasini ming xil xayol bilan band edi – haddan tashqari dadil orzu-umidlar quchoq‘ida yongan hamma yigitlar uchun bu holat juda tanish. Ejen Votren keltirgan dalillar ta‘siri ostida jamiyat hayoti ustida xayol surib yurarkan. birdan Lyuksemburg bog‘iga kiraverishda do‘sti Byanshonga duch kelib qoldi.

– Namuncha qovoq-tumshug‘ing osilmasa? – deb so‘radi medik.

– Yomon fikrlar tinkamni qurityapti.

– Qanday fikrlar ekan? Fikrlardan qutulishning dorisi bor.

– Qanday dori?

– Ularni... amalga oshirish.

– Nima gapligidan xabaring yo‘q-da, shuning uchun hazil

qilyapsan. Russoni<sup>1</sup> o'qiganmisan?

-Ha.

- Parigidan chiqmasdan, irodasining kuchi bilan Xitoydagi biror qari mandarinni<sup>2</sup> o'ldirib, shu orqali boyib ketishning iloji bo'lsa, nima qilar edingiz deb uning kitobxondan so'raydigan bir joyi bor, shu esingdami?

- Ha.

- Shunga nima deysan?

- Shu ham qiyin bo'libdimi! Men hozir o'ttiz uchinchi mandarinni o'ldiray deb turibman.

- Hazil qilma. Menga qara, shunday ishni rostdan ham amalga oshirish mumkinligini senga isbot qilib berishsa-yu, gap faqat roziman deb bosh irg'itib qo'yishingga qarab turgan bo'lsa, nima qilarding, rozi bo'larmiding?

- O'sha mandarining juda qarimi? Aytganday, u qarimi, yoshmi, sog'mi yo kasalmi, rostimni aytsam... yo'q, xudo haqi, rozi bo'lmasdim.

- Yaxshi yigitsan-da, Byanshon! Agarda biror ayolni yaxshi ko'rib qolding, shunday yaxshi ko'rib qoldingki, joningni fido qilishga ham tayyorsan, senga pul kerak bo'lib qoldi, kerak bo'lganda ham, uning kiyim-boshlariga, karetda sayr qilishlariga va shunga o'xshash boshqa istaklarini bajarishga yetadigan juda ko'p pul kerak bo'lib qoldi, unda-chi?

- Ana xolos! Avvaliga esimni olib qo'yding-da, endi bo'lsa o'ylashga majbur qilyapsan.

- Men esa, Byanshon, aqlimdan ozib qolayozdim; meni davola, Mening ikkita singlim bor - ikkovi ham latofat va iffat farishtasi, men ularning baxtli bo'lishini xohlayman. Shu yaqin besh yil ichida ikki yuz ming frank sep pulini qayerdan topsam bo'ladi ularga? Hayotda shunday paytlar bo'ladiki, omading kelganida maydalashib o'tirmay, qulay vaziyatdan foydalanib,

<sup>1</sup> Jan Jak Russo (1712-1778) - fransuz faylasuf ma'rifatparvari, yozuvchisi, kompozitori. Fransuz sentimentalizmining yirik vakili. «Emil, ya'ni Tarbiya to'g'risida»romani, «Jtimoiy shartnoma to'g'risida» siyosiy risolasi va «Fanlar va san'atlar haqida mulohazalar», «Odamlar orasida tengsizlikning kelib chiqishi va asoslari haqida mulohaza», «Harbiy asirlar», «Yuliya, ya'ni Yangi Eloiza», «Iqrot», «Dil izhori», «Yolg'iz xayolparastning sayri», «Qishloqlik jodugar», «Pigmalion» (melodramaning ilk namunasi hisoblanadi) kabi asarlar muallifi.

<sup>2</sup> Mandarin - qadimgi feodal Xitoydagi amaldorlar Yevropada shunday deb atalardi.

katta pul tikib o'ynash kerak bo'ladi,

– Sen hozir hayotga kirib kelayotgan har bir odam beradigan savolni o'rta qo'yyapsan, shunday chigal masalani qilichning bir zarbi bilan hal qilmoqchi bo'lasan. Buning uchun, azizim, Iskandar Zulqarnayn<sup>1</sup> bo'lish kerak, aks holda surgunga ravona bo'lishing turgan gap. Shaxsan men qishloqqa borib otamdan meros qoladigan o'rinni egallasam va kamtarona turmush kechirsam, shuning o'zi kifoya. Odamzod katta muhit quchog'ida qilishi kerak bo'lgan ishlarini kichikkina doira ichida amalga oshirsa ham qanoat hosil qilishi mumkin. Napoleon ikki hissa ovqat yemasdi. ma'shuqalari ham kaputsinlar<sup>2</sup> kasalxonasi hujralarida yotib yuradigan oddiy talabalarning o'ynashlaridan ko'p emasdi. Bizning baxtimiz, aziz do'stim, doim boshimiz bilan tovonimiz o'rtasida bo'ladi, undan tashqari chiqib keta olmaydi, baxtimiz biz uchun yiliga bir millionga tushadimi, yuz luidorga tushadimi – ichki sezgilarimiz, baribir, bir xil qolaveradi. Xitoylik mandarinning hayot qolishiga ovoz beraman.

– Rahmat, Byanshon, ko'nglimdagi chigilni yozding! Biz doimo do'st bo'lib qolamiz.

– Menga qara, – dedi tibbiyot sohasining talabasi, – hozir Kyuvening<sup>3</sup> ma'ruzasidan kelyapman, undan Botanika bog'iga chiqib, Puare bilan Mishononi ko'rib qoldim. Ular skameykada bir ta'viya bilan gaplashib o'tirishibdi, u odamni men bulturgi g'alayonlar paytida deputatlar Palatasi oldida ko'rgan edim; nazarimda, u oddiy ijaraxo'r burjua kiyimini kiyib olgan politsiyachi bo'lsa kerak. Kel, oshiq-ma'shuqalarning oyoq olishini kuzataylik, nimaligini senga keyin aytaman. Xo'p, xayr, soat to'rtidagi yo'qlamaga borishim kerak.

<sup>1</sup> Aleksandr, Iskandar (miloddan avvalgi 356 – miloddan avvalgi 323) – Sharq mamlakatlarida Iskandar Maqduniy, Iskandar, Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur bo'lgan makedoniyalik sarkarda va davlat arbobi. Qadimgi dunyo tarixidagi eng katta saltanatning asoschisi. Uning davlati Dunay daryosidan Hind daryosigacha bo'lgan.

<sup>2</sup> Kaputsin (Tgoraeolum) – nastursiyadoshlar oilasiga mansub bir yoki ko'p yillik o'simliklar turkumi. Ko'pincha Janubiy Amerikada, asosan, And tog'larida o'rmon va chakalakzorlarda 80 ga yaqin turi o'sadi.

<sup>3</sup> Kyuve Jorj (1769-1832) – mashhur fransuz olimi, tabiatshunosi va paleantolog; biologik turlarning o'zgarishligi haqidagi metafizik holatni e'tirof etgan. Yer yuzi faunasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarga izoh berishga urinib, u geologik ofatlar nazariyasini oldinga surdi, bu nazariya Engelsning ta'riflashicha «og'izda inqilobiy va amalda reaksion» nazariya edi.



Ejen pansionga qaytib kelganida, Gorio ota uni ostonada kutib turgan edi.

– Mang, sizga undan xat. Xatining chiroyliligini qarang-a! – dedi chol.

Ejen xatni ochib o‘qidi:

*«Muhtaram janob, otam menga italyan musiqasini yaxshi ko‘rishingizni aytdi. Menga iltifot bildirib, mening lojamdan joy olsangiz, benihoya xursand bo‘lar edim. Shanba kuni bosh rollarni Fodor bilan Pellegrini ijro etishadi, aminmanki, rad etmasiz. Janob Nusingen ham mening taklifimga qo‘shilishib, biznikiga ovqatlangani bemalol kelaverishingizni iltimos qilyapti. Sizing rizoligingiz meni teatrga kuzatib borishdek oilaviy burchdan uni xalos etadi va g‘oyat xursand qiladi. Javobning lozimligi yo‘q, bemalol kelavering, eng yaxshi niyatlarimni qabul qilgaysiz.*

*D. de N.»*

– Menga bering, bir ko‘ray, – dedi chol, Ejen xatni o‘qib bo‘lganidan keyin. – Borasiz-a, albatta? – deb so‘radi u xatni hidlab turib. – Hidi qanday xushbo‘y! Uning barmoqlari tekkan bunga.

«Xotin kishi bu qadar osonlik bilan erkak kishining bo‘yniga osilmaydi, – deb o‘yladi Rastinyak. – De Marseni o‘ziga qaytarish uchun mendan foydalanmoqchi. Faqat alamidan shunday qilishi mumkin».

– Xo‘sh, nimasini o‘ylab qoldingiz? – deb so‘radi Gorio ota.

Ejen u vaqtlardagi ayollarning ko‘pchiligi shuhratparastlik balosiga uchraganini, jumladan, bankirning xotini jonini jabborga berib bo‘lsa ham Sen-Jermen dahasiga borish uchun o‘ziga yo‘l ochishga intilayotganini bilmasdi. U vaqtlarda Sen-Jermen dahasidagi stats-xonimlar Kichik saroy deb nom olgan to‘garakka kira olgan ayollarni nazar-e‘tiborga olish rasm bo‘lgan edi, Kichik saroy stats-xonimlari orasida de Bosean xonim, uning dugonasi gersoginya de Lanje va gersoginya de Mofrinez eng nufuzli ayollar edi. Mana shunday ko‘zga ko‘ringan xonimlarning oliy maqom davrasiga kirish uchun Shosse d’Anten ko‘-

chasida turadigan xotinlarning o'lib-qutulishini yolg'iz Rastinyak bilmasdi.

Lekin Ejenning shubha bilan qarashi o'ziga yaxshi bo'ldi, chunki shubhalari uni sovuqqonlik bilan, hamda o'zgalar shartini qabul qilmay, o'z shartlarini ko'ndalang qo'yish qobiliyatini da'vat etuvchi zerikarli imtiyoz bilan qurollantirgan edi.

– Ha, boraman, – deb javob qildi u Gorio otaga.

Shunday qilib, Ejenni de Nusingen xonimnikiga sudragan narsa oddiy qiziqish bo'ldi, agarda u yigitni nazar-pisand qilmasa, ehtimol, unda Ejenni xonimnikiga ehtiros hissi boshlab borgan bo'larmidi. Shunday bo'lsa ham Ejen uning huzuriga boradigan ertangi kun va soatni sabrsizlik bilan kutdi. Yosh yigit uchun birinchi uchrashuv xuddi ilk muhabbatdek shirin tuyuladi. Muvaffaqiyat qozonishiga bo'lgan ishonch ko'pgina shirin tuyg'ular uyg'otadi, ammo erkak kishi buni e'tirof etmaydi. vaholanki, ko'pgina ayollarning o'ziga tortadigan narsasi, jozi-basi ham xuddi ana shunday tuyg'ularni tug'dira olishidadir. Qizg'in ehtirosli orzular, ham qiyinlik bilan qo'lga kiritilgan g'alabadan, ham oson erishilgan g'alabadan o't oladi. Odamzodda mavjud bo'lgan jamiki ehtiroslar, albatta, muhabbat ta'siridagi hamma ishlarni boshqa-boshqa jabhaga ajratib tashlovchi shu ikki xil manba zamirida quriladi yoki shu manbalarga suyanadi. Ehtimolki, bu tarzda ajratish, harna bo'lgandayam, kishilik jamiyatida eng muhim rol o'ynovchi qalb harorati haqidagi eng murakkab masaladan kelib chiqar. Agar xafaqon odamlar uchun ma'lum miqdorda har xil noz-ishvalar zarur bo'lsa, tajang yoki xushchaqchaq odamlar jang maydonida juda qattiq qarshilikka duch kelib, qochib qolishlari mumkin. Boshqacha qilib aytganda, mungli she'rning tug'ilishiga sabab -- limfa-yu<sup>1</sup>, qasidaning<sup>2</sup> tug'ilishiga sabab – asabdir.

Ejen to kiyinib bo'lguncha ming xil mayda-chuyda, ammo shirin tuyg'ular quchog'ida edi, bunday shirin tuyg'ular yigitlar g'ururini qo'zg'asa ham, odamlar masxara qilib kuli-

<sup>1</sup> **Limfa** (*lotincha*: *lympha* – toza suv, namlik) – hujayralar orasidagi bo'shliqlar va limfa tomirlarini to'ldirib turuvchi rangsiz, tiniq suyuqlik.

<sup>2</sup> **Qasida** (*arabcha*) – Sharq mumtoz adabiyotidagi she'riy janrlardan biri, ko'pincha biror shaxsning (odatda hukmdor yoki oliy martabali kishining) madhiga bag'ishlanadigan, shuningdek, falsafiy, axloqiy-didaktik, ijtimoiy mazmundagi, ko'tarinki, tantanavor ohangli, 20 baytdan 200 baytgacha bo'ladigan she'riy asar.

shidan qo'rqib, bu to'g'rida zinhor hech kimga indamaydilar. Ejen, bironta chiroyli xonim menga o'g'rinchi nazar tashlasa ajab emas, degan umid bilan sochlarini to'g'rilab qo'ydi. Balga borish oldidan yasanayotgan qizlarga o'xshab u ham ko'zguga qarab o'zini o'zi masxara qildi, frakini to'g'rilab qo'yar ekan, xipcha beliga o'zi mahliyo bo'lib tomosha qildi. «Qomati menikidan battar yigitlar ham bo'ladi!» – deb qo'ydi o'ziga o'zi. Keyin hamma xo'randalar stol atrofiga endi joylashib bo'lgan paytda pastga tushdi, uning juda olifta bo'lib ketgani to'g'risida boshlangan qar xil maza-bemaza hazillarga ichidan quvonib dosh berdi. Yasangan odamni ko'rganda hayron qolish oilaviy pansionlar uchun xarakterli belgilardan biri. Bunday joylarda bittayarimta yangi ko'ylak kiysa, hamma odamlar uning to'g'risida o'z fikrini aytmay qo'ymaydi.

Byanshon otini qistab haydayotgandek tomog'ini taqillatib qo'ydi.

– Per va gersogning xuddi o'zi-ya, – dedi Voke xonim

– Bitta-yarimtasini maftun qilgani ketyapsiz deyman-a? – deb so'radi mademuazel Mishono.

– Qu-qu-qu-qu! – deb xo'roz bo'lib qichqirdi rassom.

– Rafiqangizga salom aytib qo'ying! – dedi muzey xodimi.

– Janob de Rastinyakning rafiqasi bormi hali? – deb so'radi Puare.

– U rafiqqa yig'ma va bezakli, suvda cho'kmaydi, bo'yog'ining ko'chmasligiga kafolat beramiz. Bahosi yigirma beshdan qirqqacha, so'nggi moda bo'yicha katak-katak gulli mato, yaxshi yuviladi, juda chidamli, o'zi yarmi jun, yarmi kanopdan<sup>1</sup> to'qilgan, paxta ipdan to'qilgan mato, tish og'rig'idan tortib to Qirol tibbiyot akademiyasi tasdiqlagan boshqa kasalliklarga hammasini davolaydi! Bolalarni davolashda eng yaxshi vosita, bosh og'rig'ini tuzatishga esa undan ham foydali, yuragi dam bo'lganlar va boshqa oshqozon kasaliga uchraganlarga davo, quloq og'rig'i-yu ko'z og'rig'ini ko'rdim demay ketasi-iz! – deb Votren qiziqchilik bilan yarmarkadagi tovlamachilar

<sup>1</sup> Kanop (*ruscha*), kenaf (*lotincha*) – poyasidan tola olinadigan, bir yillik baland o'tsimon o'simlik; uning tolasi.

singari bidirlab ketdi. – «Bunday mo'jizaning bahosi qancha? Ikki sumi?» – deb so'rarsiz. Yo'q, tekin. Bu Buyuk Mo'g'ulga<sup>1</sup> tayyorlangan dori-darmondan qolgan-qutganlari; yevropalik butun hukmronlar, hatto Baden gersogi ham kelib ko'rgan! To'g'ri kirib boraverasiz! Yo'lda kassaga kirishni unutmanglar! Musiqa, boshla! Brum-lya-lya, trin-lya-lya, bum-bum! – Keyin, ovozini o'zgartirib, xirillab qichqirdi; – Hey, Klarnet<sup>2</sup>, buz-yapsan! Kaltak yeging keldimi?

– Voy xudo! Biram xushchaqchaq odamki, u bor joyda sira zerikmaysan kishi! – dedi Voke xonim.

Votrenning bu qiziqchiligidan keyin birdan boshlanib ketgan kulgi va hazil-huzul gaplar orasida Ejen mademuazel Tayferning unga o'g'rincha nazar tashlab qo'yib Kutyr xonim qulog'iga allanarsa deb shivirlayotganini ko'rib qoldi.

– Ana kabriolet ham kelib qoldi, – dedi Silviya.

– Qayerda ovqat qilmoqchi u? – deb so'radi Byanshon.

– Janob Gorioning qizi baronessa de Nusingennikida, – deb tushuntirdi Ejen.

Bu gapni eshitish bilan hamma, Rastinyakka ajib bir havas bilan qarab o'tirgan Gorio otaga o'girildi.

Ejen Sen-Lazar ko'chasida ingichka ustunli oddiygina pesh ayvonlik, Parijda umuman «shinamgina» deb ataladigan, bemaza uslubda qurilgan, ammo serziynat, devorlariga har xil quyma naqshlar yopishtirilgan va zinalariga marmar toshdan naqshinkor gullar o'yilgan bankirning tipik uyiga kelib tushdi. De Nusingen xonimni u italyancha did bilan gul solingan va qahvaxona singari bezatilgan kichkinagina bir mehmonxonadan topdi. Baronessa xafa edi. O'zining xafaligini Rastinyakdan yashirmoqchi bo'lgani yigitga shuning uchun ham qattiq ta'sir etdiki, xafaligi soxta emasdi. Yigit bu yerga tashrif buyurish bilan ayolni xursand qilmoqchi edi, ammo uni xafa holda uchratdi. Bunday ahvol uning izzat-nafsiga tegdi.

Ejen uning tashvishli qiyofasi ustidan hazil qilib, keyin jiddiy ohangda so'radi:

– Menga ishonishingizni umid qilishga u qadar haddim

<sup>1</sup> Buyuk Mo'g'ul – Hindistonda, 1526-yildan 1858-yilgacha hokimiyatni boshqargan Boburiylar sulolasi va ularning podsholari Yevropada shunday nomlangan.

<sup>2</sup> Klarnet – surmayga o'xshash muzika asbobi.

sig'maydi, men bilan samimiy muomala qilasiz degan umiddaman: agar malollik qilayotgan bo'lsam ochig'ini aytavering.

– Yonimda qoling, – deb javob qildi baronessa, – janob Nusingen bugun uyda ovqat qilmaydi, siz ham ketib qolsangiz, yolg'iz o'zim qolaman: yolg'iz qolishni aslo istamayman, yuragim chigilini yozishim kerak.

– Nima bo'ldi o'zi sizga?

– Endi buni faqat sizga aytishim mumkin, xolos.

– Men bilishni istayman. Bundan chiqdi, bu sirga mening ham qandaydir munosabatim bor ko'rinadi.

– Ehtimol! Yo'g'-e, bu faqat oilaviy mojaro, xolos, ularni ichimga yutib ketishim kerak. Men sira ham baxtli xotin emasman, deb tunov kuni aytmabmidim sizga? Eng og'ir zanjir – oltin zanjir.

Agar ayol kishi yosh yigitga baxtsizligidan nolisa-yu, yigit farosatli, bashang kiyingan bo'lsa va cho'ntagida bir yarim ming frank puli bekor yotgan bo'lsa, bunday yigit, hoynahoy Ejen o'ylagan gapni o'ylaydi va mamnun oliftaga aylanadi.

– O'zingiz yosh, chiroyli, boy bo'lsangiz, buning ustiga bir bechorani shaydo qilib yurgan bo'lsangiz, yana nguda orzuingiz qoldi? – deb so'radi Ejen.

– Keling, men to'g'rimdagi gapni bas qilaylik, – dedi u, ma'yuslik bilan bosh chayqab. – Ikkalamiz birga ovqat qilamiz, keyin ajoyib musiqa eshitgani boramiz. Didingizdagidek kiyinibmanmi? – deb so'radi u va egnidagi go'zallikda nodir eroncha gullar solingan oq kashmiri ko'ylagini yoyib ko'rsatdi.

– Menga qolsa, butunlay meniki bo'lishingizni istar edim, – dedi Ejen. – juda latofatli bo'lib ketibsiz.

Baronessa esa achchiq tabassum bilan:

– Men sizga ortiqcha tashvish bo'lar edim, – deb e'tiroz bildirdi. – Bu uyda hech qanday baxtsizlik alomatini uchrata olmaysiz», ammo hamma narsa muhayyo ekaniga qaramay o'zim shunday dilxastamanki, asta qo'ying. G'am-tashvishim zo'rligidan, yotib uyqum kelmaydi, bu ahvolda ko'p o'tmay xunuk bo'lib ketaman hali.

– O, bunday bo'lishi mumkinmas! – deb e'tiroz bildirdi Ejen. – Qiziq, otashin muhabbat ham tarqata olmaydigan g'am-tashvish nima ekan o'zi?

– Dardimni sizga ochib aytsam, mendan qochib ketgan bo'lardingiz. Menga bo'lgan muhabbatingiz – erkaklarda bo'ladigan oddiy xushomadgo'ylik. Meni Chindan ham yaxshi ko'rganingizda, siz ham juda xafa bo'lib ketardingiz. Ko'rdingizmi, shuning uchun sizga indamasligim kerak. O'tinib so'rayman sizdan, boshqa narsa to'g'risida so'zlashaylik Yuring, o'zinning xonalarimni ko'rsatay sizga.

– Yo'q, shu yerda o'tiramiz, – dedi Rastinyak va kamin yonida turgan divanchaga, de Nusingen xonim oldiga o'tirib, uning qo'lini dadillik bilan o'z qo'liga oldi.

Xonim bunga qarshilik qilmadi, hatto yigitning qo'lini mahkam qisib, o'zining qanchalik qattiq hayajonda ekanini sezdirib qo'ydi.

– Menga qarang, dedi unga Ejen, – biror ko'ngilsizlik yuz bergan bo'lsa, men bilan o'rtoqlashishingiz kerak. Men sizni rostdan ham yaxshi ko'rishimni isbot qilishim kerak yo gapingizni davom ettirib, nimadan xafaligingizni aytamiz-u, men dardingizni tarqatish uchun besh-oltita yigitni o'ldirish kerak bo'lsa ham tap tortmay ko'nglingizni ochishga harakat qilib ko'raman, yo men hozir ketaman-u, boshqa hech vaqt qaytib kelmayman.

De Nusingen xonimning miyasiga lop etib bir fikr kelib qoldi, shekilli, peshonasiga bir urib:

– Xo'p, yahshi! – deb rozi bo'ldi. – Sizni hoziroq bir sinab ko'raman. – Ha, – dedi u o'ychanlik bilan, – boshqa iloj yo'q! – so'ng ko'ng'iroq chaldi.

– Baronning karetsi tayyormi? – deb so'radi u kirib kelgan lakeydan.

– Tayyor, xonim.

– Unda men ketaman. Baronga mening karetamni yuborarsiz. Ovqat soat yettiga tayyor bo'lsin.

– Qani, ketdik, – deb buyurdi u Ejenga.

De Nusingenning o'zi yuradigan karexada uning xotini bilan yonma-yon o'tirgani, talabaga xuddi tushdek tuyuldi.

– Pale-Royalga, Fransuz teatriga, – deb buyurdi u

kucherga. yo'lda, ko'rinishdan, juda hayajonlanib bo'lsa kerak, Rastinyakning shunchalik yolvorishlariga hech narsa deb y«avob bermadi, yigit esa bunday qarshilikning, bunday o'jarlik

bilan jim o'tirishning tagiga «tolmay garang edi.

«Bir lahzada qo'ldan chiqdi ketdi», – deb xayolidan o'tkazdi Rastinyak.

Kareta to'xtadi, yigitning yolvorishlari juda avjiga chiqqan paytida baronessa bir nazar tashlashi bilan uni jim qilib qo'ydi.

– Meni juda ham yaxshi ko'rasizmi? – deb so'radi u.

– Juda, – deb javob qildi Ejen, tobora ortib borayotgan hayajonini bosishga urinib.

– Nimani talab qilsam ham, men to'g'rimda yomon fikrga borib o'tirmaysizmi?

– Yo'q.

– Menga bo'ysunishga tayyormisiz?

– Ko'r-ko'rona.

– Siz hech qimorxonaga kirganmisiz? – deb so'radi u, ovozi qaltirab.

– Hech qachon.

– O, unda ko'nglimni to'q tutsam bo'lar ekan. Omadingiz keladi. Mana mening hamyonim, – dedi u, – Oling! Unda yuz frank pul bor, – baxtiyor xotinning butun boyligi shu. Biror qimorxonaga kiring; ularning qayerdaligini aniq bilmayman, ammo Pale-Royalda shunday joylar borligini eshitganman. Mana shu yuz frankni qimorga tikib yutqazing yo menga olti ming frank pul olib keling, qaytib kelganingizdan keyin nimadan xafaligim boisini aytib beraman.

– Nima qilishim kerakligini tushungan bo'lsam o'lay agar, ammo bo'ysunaman, – dedi Ejen, xursandlik bilan o'zi esa: «Menga sirini ochib qo'ydi, endi nima desam ham yo'q demaydi», – deb o'yladi.

Ejen chiroyli hamyonni olib, karetdan tushdi va tayyor kiyim bilan savdo qilib o'tirgan bir do'kondordan yo'l so'rab olib, 9-pod'ezdga, eng yaqin qimorxonaga qarab yugurdi. Zinadan yuqori chiqdi, shlyapasini topshirib ichkari kirdi va pildiroq qayerda deb so'radi. Hamisha shu yerda qolib ketgan qimorbozlar hayron, zaldagi lakey esa uni uzun bir stol oldiga boshlab keldi. Tomoshabinlar qurshovida qolgan Ejen sira ham uyalib-netib o'tirmay, qayerga tikay pulni, deb so'radi.

– Mana shu doiradagi o'ttiz oltita raqamdan biri ustiga bir

luidor qo'ysangiz-u, o'sha raqam yutsa, o'ttiz olti luidor olasiz, – deb bir mo'ysafid janob Ejenga tushuntirdi.

Rastinyak yuz frankning hammasini o'zining yoshi raqamiga – yigirma bir ustiga tashladi. Es-hushini yig'ib olguncha bo'lmay, hamma hayron bo'lib qichqirib yubordi. Ejen yutganini o'zi ham bilmay qolgan edi.

– Pullaringizni oling, – dedi unga mo'ysafid kishi, – ikki marta ketma-ket bunday yutuq chiqishi qiyin.

Chol unga pullarni yig'ib oladigan kurakchani tutqizdi, Ejen uch ming olti yuz frank pulni oldiga tortib oldi-da, o'yinning mohiyatiga hali ham tushunmagan holda qizil katakka pul tikdi. Uning yana o'ynayotganini ko'rib, hamma havas bilan qaradi. Pildiroq aylana boshladi, u yana yutdi, bank qo'ygan odam unga yana uch ming olti yuz frankni surib qo'ydi.

– Pulingiz yetti ming ikki yuz frank bo'ldi, – deb shivirladi uning qulog'iga boyagi chol. – Maslahatimga kirsangiz, endi keting: menga ishonavering, qizil katakka bugun sakkiz marta yutuq chiqdi. Agar himmat qilsangiz, bergan yaxshi maslahatim uchun mendek muhtojlikdagi sobiq Napoleon prefektiga<sup>1</sup> bir narsa berib keting.

Ejen sarosimaga tushib qolib, mo'ysafidga o'n luidor olishga ruxsat etdi va o'yinning mohiyatiga hali ham tushunib yetmaganicha, omadi kelganidan dovdirab, yetti ming frankni yoniga solib pastga tushdi.

– Mana, oling! Endi qayerga olib borasiz meni? – deb so'radi Ejen, kareta eshigi yopilgandan keyin de Nusingen xonimga yetti ming frankni tutqazib.

Delfina uni jon-jahdi bilan quchoqlab qattiq o'pdi, ammo o'pichi ehtirossiz, sovuq edi.

– Meni qutqardingiz!

Yuzidan shodlik ko'z yoshlari duvullab oqa boshladi.

– Do'stim, sizga hamma gapni aytib beraman. Menga do'st bo'lasiz endi, shunday emasmi? O'ylashingizcha, men boyman, hatto juda boyman, mening hamma narsam bor, to'g'rirog'i, hamma narsam bordek tuyuladi. Bo'lmasa, bilib qo'ying, janob de Nusingen menga bir su ham xarajat qilishga ruxsat

<sup>1</sup> Prefekt – 1848-yilgacha Fransiyada hukumat amaldorlariga beriladigan unvon.



bermaydi: uy-ro'zg'or xarajatlarining hammasini o'zi to'laydi, kareta uchun teatrga borishim uchun ham o'zi haq to'laydi, kiyim-kechaklarim uchun arzimagan pul ajratib, tushuna-bila turib, meni qashshoqlarcha kun kechirishga majbur etadi. O'zimni kamsitib undan pul so'rashni istamayman. Agar men uning bergan puli evaziga, talab qilgan yo'lga yursam, o'zimni eng past maxluq deb hisoblagan bo'lar edim! Yetti yuz ming frank pulim bo'la turib, o'zimni mana shunday talashga nechuk yo'l qo'yib berdim? Takabburlikdan, achchiq ustida shunday bo'ldi. Turmushga chiqqan paytimizda biz shunday go'l, shunday yosh bo'lamizki, asti qo'yasiz. Erimdan pul so'rash uchun bir so'z aytsam, kifoya qilardi, ammo u so'zni hech qachon aytolmasdim, shuning uchun undan hech qachon pul so'ramaslikka ahd qilib o'z jamg'ariqlarimni va otam sho'rlik berib turgan pullarni sarflab yurdim, keyin esa – qarz ko'tara boshladim. Nikoh – hayotimda ixlosimni qaytargan eng dahshatli narsa bo'ldi, bu to'g'rida sizga bir narsa deya olmayman; agar Nusingen bilan alohida-alohida turmaganimda, o'zimni derazadan tashlab yuborgan bo'lardim, sizga shu gapning o'zi kifoya qiladi. Men, qarz bo'lib qolganimni, ya'ni yosh juvonning qarzlari borligini unga aytishga majbur bo'lganimda, qimmatbaho ziynatlar va boshqa har xil orzularimga pul sarf qilganimni (otam bizni hech narsadan kamsitmaslikka odatlangan edi) aytishga majbur bo'lganimda, juda qiynalardim; nihoyat, botinib, unga qarzim borligini aytdim. O'zimning ham shaxsiy pullarim yo'qmi, axir? Nusingenning joni chiqib ketdi, meni xonavayron qilasan dedi, yana qanchadan qancha yaramas gaplarni gapirib yubordi. Yer yorilmadi-yu, kirib ketmadim. Mening sepimni o'ziga olib olgani uchun, har holda, qarzimni to'ladi, lekin o'shandan beri xarajatlarim uchun oyiga ma'lum miqdorda pul belgilab qo'ydi; qulog'im tinch bo'lar deb, bunga men ham rozi bo'ldim. Keyin men, o'zingizga ma'lum, bir kishining izzat-nafsini ko'tarmoqchi bo'ldim. U meni aldab ketgan bo'lishiga qaramay, uning olijanob hislatini e'tirof etmasam, durust ish qilmagan bo'laman.

Shunga qaramay u men bilan juda xunuk tarzda ajralishdi. Modomiki, erkak, muhtoj ayoldan oltinlarini ayamay, uning kuniga yaragan ekan, bunday ayolni tashlab ketmasligi kerak, bunday ayolni u umrbod sevishi lozim! Siz endi yigirma birga

kirdingiz, hali yoshsiz, ko'ngli pok yigitsiz, ayol kishi erkakdan qanday qilib pul olishi mumkin axir deb so'rarsiz? E xudo, bizni baxtiyor qilgan odam bilan hamma narsani o'rtada baham ko'rishimiz tabiiy hol emasmi, axir? Bir-birimizga butun borimizni bag'ishlagandan keyin, bir butunning qandaydir arzimagan bo'laklari ustida xijolat tortib o'tirishimiz to'g'ri bo'ladimi? Faqat muhabbat tuyg'ulari g'oyib bo'lgandan keyingina pul rol o'ynay boshlaydi. O'z taqdiringni boshqa odam taqdiri bilan qovushtirganingda – bir umrga deb o'ylamaysanmi? Qaysi ayol o'zining haqiqiy sevimli yor ekaniga ishongan holda, kelajakda hijron degan gap borligini o'ylaydi? Axir, siz erkaklar bizga o'la-o'lguncha sevaman deb qasam ichasiz-ku, shunday ekan, qasam ichib turib, yana qanday boshqa maxsus manfaatlar ustida o'ylashingiz mumkin? Erim bugun menga olti ming frank berishdan uzil-kesil bosh tortganda, qanday ahvolda qolganimni sira ham ko'z oldingizga keltira olmaysiz, vaholanki, u shuncha pulni o'zining mahbubasi, opera teatri raqqosasiga qar oy berib turadi! Jonimga qasd qilmoqchi ham bo'lib ko'rdim. Miyamdan ming xil bema'ni fikrlar o'tdi. Vaqti-vaqti bilan o'z xizmatkorim, uy xodimamga ham havasim keldi. Otanning oldiga boraymi deb ham o'yladim. Foydasi yo'q! Anastazi ikkalamiz otam sho'rlikni talayverib adoyi tamom qildik: agar birov unga olti ming frank pul beradigan bo'lsa, o'zini sotishga ham rozi bo'lar edi-ya! Ammo men uni bekorga ranjitgan bo'lar edim, xolos. G'amdan o'layozdim; o'lim va sharmandalikdan siz meni qutqardingiz. Bularning hammasini sizga tushuntirib berishim kerak edi, albatta: siz bilan muomala qilishda men juda yengiltaklik va bemulohazalik qildim. Mening oldimdan nari ketib, ko'zimdan g'oyib bo'lganingizdan keyin qochib ketay ham dedim... Lekin qayerga? Buni o'zim ham bilmayman. Parij ayollarining yarmisi mana shunday turmush kechiradilar: usti yaltiroq, ichi qaltiroq. Mendan ham baxtsizroq, iztirob ichida qolgan ayollarni bilaman. Pul topish uchun ba'zilar o'z ta'minotchilaridan soxta hisobotlar yozib berishni iltimos qilishga majbur bo'ladilar, boshqalari esa erlarining pulidan o'g'irlashga majburlar-u bir xil erlar xotin besh yuz frankka olgan shol ro'molni ikki mingga olgan deb o'ylasa, boshqa ba'zi erlar esa, ikki mingga olingan ro'molning bahosini besh yuz frank deb o'ylaydilar. Shunday xotinlar ham borni,

biror yangi ko‘ylak sotib olish uchun bolalarini och qo‘yadilar. Ammo men bunday yaramas bo‘htonlarni ishlatmadim. Endi azoblardan qutuldim! Erlari ustidan hukmronlik qilish uchun boshqa xotinlar erlariga sotilaversin, ammo men erkin ayolman! Xohlasam Nusingen meni oltinga ko‘mib yuborishi mumkin, ammo mek o‘zim hurmat qilgan boshqa erkakniki ko‘ksiga bosh qo‘yib yig‘lashni afzal ko‘raman. O, bugun kechqurun de Marse mening yuzimga qo‘li kuygan odamdek qaray olmaydi.

U yuzini qo‘llari bilan qoplab, yig‘lab yubordi, lekin Ejen uning yuzini tomosha qilish uchun qo‘lini olib qo‘ydi: hozir u chinakam go‘zal bo‘lib ketgan edi.

– Ehtiroslarni pul bilan bog‘lash juda xunuk narsa, a, to‘g‘ri emasmi? Yo‘q, siz meni hech qachon sevmagansiz, – dedi de Nusingen xonim.

Ayol kishini yuksaklarga ko‘taruvchi ajib hissiyotlar bilan jamiyatning zamonaviy tuzumi tufayli vujudga kelgan nuqsonlarning bu qorishmasi Ejenni dovdiratib qo‘ydi; Ejen shunday go‘zal, o‘z qayg‘usini shunday bemulohazalik bilan ochiqdan ochiq izhor qilgan bu ayolga qoyil qolib, shirin so‘zlar bilan unga tasalli bera boshladi.

– Yuragimni ochib, aytgan so‘zlarimdan qarshi qurol sifatida foydalanmaslik to‘g‘risida menga va‘da bering, – dedi u.

– O, nimalar deyapsiz! Bunday ishlar mening qo‘limdan kelmaydi, – deb javob qildi Ejen.

U azbaroyi minnatdorchiligi va mehribonligi jo‘sh urib ketganidan yigitning qo‘lini oldi-da, yuragi ustiga bosdi.

– Siz tufayli, men yana ruhim yengil tortib o‘zimni erkin his qilyapman. Turmushimni metindek qattiq bir qo‘l ezib turgan edi. Endi men o‘zim uchun hech pul sarf qilmay, oddiygina hayot kechirmoqchiman. Sizga esa, azizim, shunday tarzda ham yoqaveraman, to‘g‘rimi? Bunisi sizga qolsin, – dedi u, faqat olti ming frankni ajratib olib. – Insof yuzasidan aytganda qimorni sheriklikka o‘ynaganimizni e‘tiborga olsak, men sizga uch ming qarzman, Ejen xuddi tortinchoq qizlardek puldan bosh tortdi. Lekin baronessa!

– Agar menga sherik bo‘lsangiz, unda sizni dushmanim deb hisoblayman, – deb aytib qo‘ymagandan keyin, Ejen:

– Mayli, yutqizib qo‘ygundek bo‘lsak, yarab qolar, – deb

pulni olishga rozi bo'ldi.

– Mana shundan qo'rqib turgan edim! – deb yubordi rangi o'chib baronessa. – Agar do'stona munosabatlarimizki qadrlaydigan bo'lsangiz, bundan keyin sira qimor o'ynamayman deb qasam iching. Yo tavba! Sizni men buzsam-a?! Vijdon azobidan o'lib ketarman.

Ular baronessaning uyiga yetib kelishdi. Ayolning uyidagi hashamatli jihozlar bilan bu qadar muhtojligi orasidagi qarama-qarshilik Rastinyakni hayron qoldirdi, shunda Votrenning yovuz gaplari yana esiga tushdi.

– Manavi yerga o'tiring, – dedi baronessa o'z uyiga kirib kelishar ekan, kamin oldidagi divanchani ko'rsatib, – men xat yozishim kerak! Iltimos, menga maslahat bersangiz.

– Xatning keragi yo'q, – dedi Ejen. – Pulni konvertga solib, adresini yozing-da, uy xodimangizdan berib yuboring.

– Siz judayam jonon yigit ekansiz! – dedi qoyil qolib baronessa. – Yaxshi tarbiya olgan deb mana buni aytadi! Bu xuddi boseanchasiga bo'ldi-da, – dedi jilmayib.

«G'oyat dilbar ayol ekan», – deb o'yladi Rastinyak, tobora ko'proq unga ishqibozligi ortib.

U boy-badavlat suyuqoyoq xotinlar uyiga juda o'xshab ketadigan xonani ko'zdan kechirdi.

– Sizga yoqadimi? – deb so'radi baronessa va qo'ng'iroq qilib, uy xodimasini chaqirdi. – Tereza, mana buni janob de Marsega o'zingiz olib borib, o'z qo'liga topshirib keling. Uni uydan topa olmasangiz, xatni qaytarib olib keling.

Tereza chiqib keta turib, Ejenga mug'ambirona bir nazar tashlab qo'yishdan o'zini tiya olmadi. Ovqat tayyor deb xabar qilishdi. Rastinyak de Nusingen xonimga qo'lini tutdi va u bilan yemakxonaga chiqdi, bu yerdagi dasturxon ham qarindoshinikida ko'rganidan qolishmasdi.

– Italyanlar operasi ishlaydigan kunlarda ovqat qilgani mening oldimga kelaverasiz, ovqatdan keyin meni teatrga kuzatib borasiz, – dedi de Nusingen xonim.

– Ahvol bu tarzda davom etadigan bo'lsa, bunday yoqimli hayotga o'rganib qolishim mumkin, vaholanki, men kambag'al bir talabaman, o'zimga davlat orttirishim kerak hali.

– Davlatning o'zi keladi, – dedi baronessa, kulib. – Ham-

ma ishlarimiz juda yaxshi yurishib boryapti: axir, yana shunday baxtiyor bo'lib ketarman deb men ham sira o'ylamagan edim-ku.

Imkoniyati yo'q narsalarni ham imkoni bo'lgan narsalarga asoslangan holda isbot qilish va yaqqol ko'rinib turgan narsani yurak hislariga asoslanib turib inkor etish ayollarga xos narsa. De Nusingen xonim bilan Rastinyak lojaga kirib kelishayotganda, baronessaning chehrasi mamnunlikdan «uda ochilib ketgan ediki, zaldagilarning hammasi ham bu to'g'rida bir oz g'iybat qilib olishdan o'zini tiya olmadi! Ayol kishi qanchalik o'ziga to'g'ri bo'lmasin, badaxloq deb ermakka to'qilgan har xil bo'lmag'ur tuhmatlardan u o'zini himoya qila olmaydi. Parijni yaxshi bilgan odam unda ochiq gapiriladigan gaplardan birontasiga ham ishonmaydi) haqiqatda sodir bo'layotgan ishlar to'g'risida esa, Parijda hech kim og'iz ham ochmaydi. Ejen baronessaning qo'lini qisdi, shundan keyin ular musiqadan olgan taassurotlarini bir-birlarining qo'lini goh qattiqroq, goh sekinroq qisish bilan bildirib turdilar. Bu kungi oqshom ikkalasi uchun ham g'oyat ulkan rohat baxsh etgan edi. Ular teatrdan birga chiqishdi, de Nusingen xonim Ejenni Yangi ko'prikkacha kuzatib qo'ymoqchi bo'ldi, lekin to u yerga yetib borishguncha Pale-Royal'dagi singari qizg'in bir bo'sa sovg'a qilish to'g'risidagi Ejening yolvorishlarini rad qilib bordi. Ejen uning bunday subutsizligidan o'pka qildi.

– U kutilmaganda ko'rsatgan sadoqatingiz uchun minnatdorchilik alomati edi, – dedi baronessa. -- Endigisi esa, sizga biror narsa va'da qilish bilan barobar bo'lar edi.

– Yaxshilikni bilmagan, menga narsa va'da qilishni ham istamaysizmi!

Ejening achchig'i chiqdi. Odatda, oshiq'larni maftun qiladigan bir harakat bilan baronessa o'pish uchun unga qo'lini cho'zdi, lekin Ejen uning qo'lini istamaygina o'pdiki, bu baronessaga juda yoqib tushdi.

– Endi dushanba kuni balda ko'rishguncha xayr, – dedi de Nusingen xonim.

Ejen oydin kechada uyga qaytib kelar ekan, jiddiy mulohazalarga berildi, U baxayor va ayni vaqtda norozi edi. Shuning uchun xursand ediki, u boshidan kechirayotgan ishqiy sarguzasht bir kun emas, bir kun unga Parijning eng chiroyli va kelishgan

ayollaridan birini, o'zi orzu qilib yurgan bir xonimni va'da qilib turgan edi; shuning uchun norozi ediki, davlat orttirish to'g'risidagi rejalari chippakka chiqay deb turgan edi; u o'tgan kuni xayolida g'ira-shira namoyon bo'lgan fikrlarining asl mohiyatiga endi aniq tushungan edi. Muvaffaqiyatsizlik intilishlarimiz kuchini doim oshkor qilib qo'yadi. Rastinyak Parij hayotidan qancha ko'p lazzatlangan sari, odamlar nazaridan chetda qolishni va qashshoqlikda yashashni shunchalik istamasdi. U cho'ntagidagi ming frankli pulni g'ijimlarkan, uni o'ziniki deya olish u«kun ming xil bahonalar o'ylab topishga urinardi. Nihoyat u Nev-Sent-Jenevv ko'chasiga yetib bordi va zinaning tepa qismidagi maydonchaga yetganda: u yerda yorug' tushib turganini ko'rdi. Gorio ota, uning ta'biri bilan aytganda, qizi to'g'risida bir otamlashib olishni talaba unutmasin deb eshikni ochiq qoldirgan va shamni o'chirmagan edi. Ejen bo'lgan gaplarni choldan yashirib o'tirMadi.

– Nima-nima? Ular meni xonavayron bo'lgan deb yurishibdimi? – deb yubordi jon achchig'ida Gorio Ota. – Mening bir ming uch yu» frank daromad beradigan rentam bor! Yo tavba! Bechora qizim, nima uchun mening oldimga kelmaydi? Hamma qog'ozlarimni sotardim, qo'limga tekkan pullardan qarzini uzardim, qolganiga umrbod renta olib qo'yardim. Qo'shnijon, uning tashvishlaridan nega meni xabardor qilmadingiz? Uning arzimagani yuz frank pulini qimorga tikishga qanday yuragingiz betladi? Bu mash'um xabardan yuragim ezilib ketyapti. Ana kuyovlarning holi! O, qo'limga tushib qolishsa, hiqildoqlaridan g'ippa bo'g'ib olardim-a! Yo Xudo! Yig'labdi-ya! Rostdan ham yig'ladimi qizim?

– Nimchasimga yuzini yashirib yig'ladi, – deb javob qildi Rastinyak.

– O, menga sovg'a qiling uni! – deb yolvorib qoldi Gorio ota. – Unga mehribon qizim Delfinaning ko'z yoshlari tekkan; u bolaligida sira ham yig'lamagan edi-ya! Uni boshqa kiyman, menga bering, sizga boshqasini olib beraman. Eri bilan bo'lgan bitimga ko'ra, u o'z pullarida-ya o'zi foydalana oladi. Men ertagayoq ishonchli vakilimiz Dervil oldiga boraman. Qizimning davlatini bankka qo'yilishini talab qilaman. Qonunlarni men yaxshi bilaman, men ko'pni ko'rgan qari bo'riman, hali ularga

qanday o'tkir tishlarim borligini ko'rsatib qo'yaman.

– Mana bu, ota, yutug'imizdan qolgan ming frank; bu pulni qizingiz menga bermoqchi edi; mening nimchaim cho'ntagida uning o'zi uchun asrab qo'ying.

Gorio Rastinyakka bir qarab qo'ydi, uning qo'lini o'» qo'lga oldi, cholning bir tomchi ko'z yoshi yigitning qo'lm» ga tushdi.

– Martabangiz baland bo'lib ketadi hali, – dedi chol. – Xudoning marhamati ulug'! Halollik nimaligini men bilaman va sizni ishontirib aytamanki, sizga o'xshagan halol odamlar juda oz uchraydi. Siz ham menga farzand bo'lishni istamaysizmi? Xo'p, endi borib yoting. Hali ota emassiz, bemalol uxlashingiz mumkin. Qizim yig'labdi, men-chi?.. Buni boshqa odamlardan eshitib o'tiribman! Qizim iztirob chekkan paytda men to'nka xotirjam ovqat yeb o'tiribman-a. Men qizlarimning bir tomchi ham ko'z yoshi to'kmasliklari uchun jamiki avliyo-yu anbiyolarni sotib yuborardim!

Uyquga yotar ekan Ejen o'ziga o'zi derdi: «Rostimni aytsam, umr bo'yi halol odam bo'lib qoladigan ko'rinaman. Vijdoning amriga quloq solish qanday yaxshi».

Mana shunday pinhona yaxshilik qilish faqat xudoga ishonadigan odamlarning qo'lidan kelsa kerak, Ejen esa xudoga ishonar edi.

Ertasi kuni balga borish vaqti kelganda Ejen vikontessa de Bosean huzurida qovir bo'ldi, qarindoshi uni balga olib borishi va gersoginya Karilyanoga tanishtirib qo'yishi kerak edi. Marshalning rafiqasi Ejenni juda ochiq chehra bilan qarshi oldi, bu yerda u de Nusingen xonimni uchratdi. Delfinaning hammaga, ayniqsa Ejenga yoqish uchun nihoyatda bashang kiyinishi yaqqol ko'zga tashlanib turardi, Ejenning unga nazar tashlashini sabrsizlik bilan toqati toq bo'lib kutarkan, o'z hayajonini odamlarga beixtiyor sevdirib qo'yayotgan edi. Ayol kishining hayajonda ekanini sevib turgan yigit uchun bunday paytlar ko'p huzur bag'ishlaydi: maqto'vni kutib turgan ayolni kuttirib toliqtirish va o'z shodligini befarqlik niqobi ostiga yashirib, oliftagarchilik qilib uning ko'ngliga ming xil fikrlar kelib ketgandan keyingina bitta tabassum bilan butun qo'rquvlarini tarqatib yuborish kimga lazzat bag'ishlamagan deysiz? Mana shu tantanada talaba

o'zining hozirgi vaziyati qanchalik qimmatli ekanini to'satdan sevib qoldi! vikontessaning qar taraflama e'tirof etilgan qarindoshi sifatida u zodagonlar davrasidan o'z o'rmini egallagandi. Baronessa Nusingen ustidan g'alaba qozongan deb qilingan taxminlar Rastinyakni shu darajada mashhur qilib yubordiki, yosh yigitlar unga havas bilan qaray boshladilar; buni sevib Ejen birinchi marta o'zidan mamnun bo'ldi. Mehmonxonalarni kezib, to'p-to'p bo'lib turgan mehmonlar orasidan o'tib yurar ekan, u o'z muvaffaqiyatlari to'g'risida aytilgan maqtov gaplarni eshitib qolardi. Ayollar Ejenni har sohada ham katta yutuqlarga erishadi deb ta'kidlashardi. Undan ajrab qolishdan cho'chigan Delfina o'tgan kuni aslo ruxsat etmagani bo'sani bugun va'da qildi. Bal vaqtida Rastinyak bir necha xonadonlardan mehmon bo'lib borish to'g'risida takliflar oldi. Vikontessa uni eng nozik didli ba'zi bir xonimlar bilan tanishtirib qo'ydi, bu xonimlar eng dilbar xonadonlardan edilar. Ejen o'zining oliy tabaqa ahllari safiga, Parijdagi eng asilzodalar doirasiga qabul qilinganini ko'rdi. O'sha kecha Ejen uchun eng shirin tuyg'ularga to'la dastlabki kecha bo'ldi. Yosh qizlar birinchi balda qozongan muvaffaqiyatlarini umrbod yodlaridan chiqarmaganlaridek, Rastinyak o'sha oqshomni hatto qarigan Chog'ida ham eslab yurgan bo'lsa ajab emas.

Ertasiga ertalab, nonushta paytida, hamma xo'randalar oldida Ejen o'z muvaffaqiyatlari to'g'risida Gorio otaga so'zlab berar ekan, Votren muttasil irshayib o'tirdi.

– Shuncha gaplardan keyin, – deb gapga aralashdi rahmsiz mantiqshunos, – kiborlar davrasiga qabul qilingan yigitning Nev-Sent-Jenev ko'chasida, «Voke uyi»da istiqomat qilishiga ishonasizmi? To'g'ri, bu oilaviy pansion qar jihatdan ham yomon joy emas, ammo uncha hashamatli joy ham emas-da; bu yerda nuqson sezilmaydi. To'yib ovqat yeysiz, bu pansion Rastinyaklar avlodidan biriga vaqtincha boshpana bo'la olgani uchun behad mag'rur, ammo u har holda Nev-Sent-Jenev ko'chasida joylashgan, zeb-ziynatlar unga begona, negaki, u g'irt patriarxalrama hukm surgan joy. Inim, – deb yarim hazil, yarim nasihatimiz bir ohangda gapni davom ettirdi Votren, – Parijda o'zingizni ko'rsatmoqchi bo'lsangiz, uchta ot tutishingiz, kun-



duzi tilbyurida<sup>1</sup>, kechqurun ikki o'rinli karetda yurishingiz kerak, – demak faqat aravada yurishning o'ziga ja'chi to'qqiz ming kerak. Juda bo'lmaganda mashinachiga uch ming, parfyumerga olti yuz, shlyapachi bilan etikdo'zga uch yuz frankdan sarf qilmasangiz, tutgan mavqeingizga munosib bo'la olmaysiz. Kir yuvadigan xotinga esa mingdan kam ketmaydi. Ko'pchilikning diqqat-e'tiboriga sazovor bo'lgan yigit, ayniqsa, ichki kiyimni ozoda tutmog'i lozim. To'g'ri emasmi, birinchi galda ichki kiyimlar juda diqqat bilan ko'zdan kechiriladi? Muhabbat ham, cherkov ham o'z mehroblari uchun chiroyli boshpana talab qiladi. Shunday qilib, xarajatni o'n to'rt ming frank hisobladik. Men hali qimor o'yiniga, sovg'a-salom va garov o'ynashlar uchun ketadigan pullar to'g'risida gapirganim ham yo'q. Mayda-chuyda xarajatlar uchun ikki ming ajratmay sira iloj yo'q. Men o'zim ana shunday hayot kechirib ko'rganman, shuning uchun, uning qanchaga tushuvini yaxshi bilaman. Eng zarur bo'lgan mana shu xarajatlar yoniga yana olti mingni noni nasibaga va bir mingni xonai kulbaga deb ajrating. Ana ko'rdingizmi, bo'tam, yillik chiqim yigirma besh mingga borib qoldi, aks holda nomimiz loyga bulg'anadi, hammaga sharmanda bo'lamiz, unda na porloq kelajakka, na muvaffaqiyatga va na mahbubaga muyassar bo'la olamiz! Men yana grum<sup>2</sup> bilan Lakeyni unutibman! Ishqiy maktublaringizni Kristof tashimaydi-ku, axir! Keyin, nahotki, o'shanda ham xatni hozir ishlatib yurganingiz qog'ozlarga yozsangiz? Bu o'z joniga qasd qilish bilan baravar-ku. Hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan men qariyaning gapiga ishonavering! – dedi u do'rilagan ovoz bilan. Yo surgunga borib, himmat yuzasidan og'ir mehnat bilan oshno bo'ling, yoki boshqacha yo'l tuting.

Votren ko'zini qisib turib, yer ostidan mademuazel Tayferga shunday qarab qo'ydi, bu qarashi bilan u Rastinyakni yo'ldan urar ekan, uning ko'ngliga solgan hamma vasvasalariga go'yo yakun yasab yana bir eslatib o'tmoqchiday edi.

Rastinyak ancha kundan beri juda parokandalikda yashab kelmoqda edi. U deyarli har kuni baronessa de Nusingennikida

<sup>1</sup> Tilbyuri – bir ot qo'shiladigan ikki g'ildirakli usti ochiq arava.

<sup>2</sup> Grum – o'z xo'jayinini ot minib yoki foytunning kozlasida o'tirib, yo orqa tomonida turib kuzatib boruvchi xizmatkor.

ovqat qilar va u bilan birga asilzodalar davrasiga borardi. Uyga faqat ertalab, soat uch yo to'rtlarda qaytib kelar, soat o'n ikkilarda o'rnidan turar va Delfina bilan Bulon o'rmonida aylanib kelish uchun yana ketardi, u vaqtning qadriga yetmay, butun vaqtini mana shunday ishlarga sarf qilardi; lekin Ejen dabdabali hayotning har bir sabog'ini, har bir havas qiladigan jihatini xuddi changlanishni mushtoqlik bilan kutib turgan xurmo daraxtining gulidek ochko'zlik bilan o'ziga qabul qilardi! Rastinyak katta pullar qo'yib qimor o'ynar, goh ko'p pul yutqazib qo'yar, goh undan ham ko'proq yutib olardi, xullas, u bora-bora pariqlik bebosh yigitlarning hayotiga ko'nikib ketdi. Eng dastlabki yutib olgan pullarida u onasi bilan singillarining bir yarim ming frankini qaytarib yubordi, pulning yoniga yana ajoyib sovg'a-salomlar ham qo'shib yubordi. Hammaga «Voke uyi»dan ko'chib ketmoqchiligini aytishga aytib qo'ydi-yu, undan qanday qilib chiqib ketishini bilmay, yanvar oyining oxirlarida ham hamon shu yerda edi. Hamma yigitlar tushunib bo'lmaydigan bir qonunga bo'ysunishgandek tuyuladi-yu, ammo aslida bu qonunning zamirida ularning ishligi har qanday rohat-u lazzatlarga mukkasidan ketish xislati yotadi. Ularning boy yoki kambag'alligidan qat'i nazar, kundalik xarajatlar uchun odamlarning birontasida ham pul topilmaydi, ammo ko'ngliga kelgan bema'ni hayollarga darrov pul topila qoladi. Pulni naqd to'lash kerak bo'lganda ular xasis, qarzga olish mumkin bo'lganda esa – juda saxiy bo'lib ketadilar, o'zlari yetisha olmagan narsalar hisobiga, erishish mumkin bo'lgan narsalardan, iloji boricha, ko'proq foydalanib qoladilar. Bu qonunni aniqroq tushuntirib berish uchun mana bunday bir misol keltirish mumkin talaba shlyapasini frakiga qaraganda ko'proq ehtiyot qiladi. Foydani katta qiladigan mashinachi mijozdan ajrab qolmaslik uchun frakni qarzga tikib berishi kerak, shlyapa arzon narsa bo'lgani uchun ooa, shlyapafurush eng gapga yurmaydigan odamga aylanib qoladiki shlyapa olgani kelganda talaba har safar u bilan xiyla savdolashishga to'g'ri keladi. Biror yigit egnidagi chiroyli nimchasi bilan yosh xonimlarning lornetlarini O'ziga qaratib teatr balkonida o'tirganda, uning oyog'ida paypog'i bor-yo'qligiga shubha qilish mumkin chunki paypoqchilar ham hamyonni keminrib turadigan kuyalar toifasidandir, Rastinyak ham mana shunga

hayot kechirardi. Boke xonim uchun doim bo'sh va o'zining shuhratparastlik ehtiyojlari uchun muttasil to'la hamyoni shunday ajib bir tarzda dam-badam to'lib va bo'shab turardi, ammo ayni vaqtda zarur hayotiy xarajatlariga pul to'lanmay yotardi. Agar u o'zining oliy tabaqaga xos hamma orzu-havaslariga tamom qarama-qarshi xususiyatdagi mana shu qo'lansa va yaramas pansiondan chiqib ketish niyatida bo'lsa, bekaga bir oylik haq to'lash bilan o'ziga mustaqil olifta yigit kvartirasi uchun zarur anjomlarni sotib olish nima degan gap edi unga? Lekin har vaqt aynan mana shu narsaning iloji topilmasdi. Qimor o'ynashga doim pul topa olish uchun, o'yinda yutgan kunlari zargardan oltin zanjiri bilan oltin soat sotib olishga aqli yetardi, yutqazib qo'ygan vaqtlarida esa soatini yoshlarning yoqimsiz do'sti va sirdoshi bo'lib qolgan sudxo'rlarga garovga qo'yardi, ammo gap ovqat, boshpana haqida va jamiyat orasida yura olish uchun zarur bo'lgan buyumlarni sotib olishga kelganda, qanday pul topishga aqli ham yetmas, yuragi ham betlamasdi. Kundalik mayda xarajatlari, har kungi zarurat tufayli Orttingan qarzlari to'g'risida sira o'ylagisi kelmasdi. Gardkamiga kun o'tkazishga odatlanib qolgan odamlarning ko'pchiligi singari Ejen ham, meshchanlar nazarida, muqaddas bo'lgan qarzlarni to'lash muddatini, iloji boricha, orqaga surib kelardi; Mirabo ham shu tarzda kun ko'rgan, nasiyaga sotib olgan g'allasi to'ko'zi oldida bamisoli rad etilgan vekselday gavdalanmaguncha u g'alla haqini to'lamagan. Rastinyak bor pulini qimorga boy berib, qarz bo'lib qolgan vaqt yetib keldi. U ma'lum bir daromad manbai bo'lmagan holda bunday hayot kechirishning iloji yo'qligini tushuna boshladi. Lekin u bunday nojo'ya ahvolda, duch kelishi muqarrar bo'lgan qattiq zarbalar ostida qanchalik inqillamasin, baribir, aysh-u ishratdan voz kecha olmasligini his etar va har qanday qilib bo'lsa ham shunday umr kechirishni davom ettirmoqchi edi. Tasodifan boy bo'lib ketarman deb qilgan umidlari puchga chiqdi, buning o'rniga yo'lini to'suvchi g'ovlar tobora orta bordi. Ejen Nusingenlar xonadonidagi sir-asrorlardan xabardor bo'lgandan keyin, muhabbat degan narsani boylik orttirish quroliga aylantirish uchun olijanob g'oyalardan voz kechipti, sharmandalik qadahini oxirigacha shimirishi lozimligini tushundiki, mana shu olijanob g'oyalarga qattiq amal qilganlari sababli yosh-

larning butun gunohlari kechiriladi. U usti yaltiroq, ammo aslida vijdon azobidan zaharlangan, doim yurak hovuchlab xavotirlikda yashash hisobiga bir lahzalik lazzat beradigan turmushga zulukdek<sup>1</sup> yopishib qolgandi, Labryuyerning<sup>2</sup> ko'chadagi ariqlarini o'ziga makon qilgan «Parishonxotir»iga o'xshab, ariq ostidagi loyga qorishib yotar, ammo xuddi o'sha «Parishonxotir»dek, hozircha faqat ko'ylagi loy bo'lgan edi, xolos.

– Xo'sh, qalay? Mandarinni o'ldirdingizmi? – deb bir kun so'rab qoldi Byanshon, dasturxondan turar ekan.

– Yo'q hali, lekin jon talvasasida xirillay boshladi, – dedi Rastinyak.

Tibbiyot sohasining talabasi buni hazilga yo'ydi, ammo bu hazil emas edi. Ko'p vaqtlardan beri bugun birinchi marta uyda ovqat qilgan Ejen indamay ovqat yeb, allanarsalarni o'ylab o'tirardi. Shirinlikdan keyin ham xonasiga chiqib ketish o'rniga mademuazel Tayferning yonida o'tiraverdi; Ejen ahyon-ahyonda unga ma'nodor qilib ko'z qirini tashlab qo'yardi. Xo'randalardan ba'zilari hali dasturxondan turmasdan yong'oq chaqib yeb o'tirishar, boshqa bir xillari o'rnilaridan turib, u yoqdan-bu yoqqa yurib, boshlagan munozaralarini davom ettirishardi. Kechqururlari deyarli doim ahvol mana shunday bo'lardi, har kim istagan vaqtida uyiga chiqib ketardi, bu ularning boshlangan suhbatga qanchalik qiziqishiga va ovqatni qanchalik oson yo qiyinlik bilan hazm qilishiga bog'liq edi. Qishda yemakxona soat sakkizdan oldin bo'shaydigan vaqtlar kamdan kam bo'lardi, ana o'shanda to'rt xotin, erkaklar ko'pligi tufayli indamay o'tirganlarining hissasini chiqarib, rosa suhbatlashib xumordan chiqishardi. O'sha kuni kechqurun Votren ovqatni yeb bo'lgandan keyin ketmoqchi bo'lib turganday edi-yu, ammo talabaning kayfiyati uni o'ylantirib qo'ydi, shundaya keyin, Ejen uni ketdi deb o'ylashi uchun uning ko'ziga ko'rinmaslikka harakat qilib, shu yerda qoldi. Votren eng oxirgi xo'randa chiqib ketgandan keyin ham ketmadi, balki qo'shni mehmonxonada poylab o'tirdi. U talabaning yuragidagi hamma gaplarni sevgan va hal qiluvchi

<sup>1</sup> **Zuluk** – chuchuk suv havzalarida yashovchi, yirtqich yoki parazit holda kun kechiruvchi halqali chuvalchanglar vakili. Zuluk kichkina jonivor bo'lib, qonni so'rish uchun xizmat qiladi.

<sup>2</sup> **Labryuyer Jan de** (1645-1696) – fransuz yozuvchisi «Ushbu asrning xarakteri yoki urf-odati» (1688) nomli satirik kitobning muallifi.

o'zgarish yuz berishini kutayotgan edi.

Rastinyakning ahvoli chindan ham juda og'ir edi, bunday ahvol ko'p yigitlar uchun tanish bo'lsa ham ehtimol. Yaxshi ko'rganidanmi yo noz qilibmi, har nechuk de Nusingen xonim parijlik ayollar bisotidagi butun diplomatik usullarni ishlatib, Ejenini chinakam oshiqlikning butun qiynoqlarini boshidan kechirishga majbur qildi. Delfina vikontessa de Boseanning qarindoshini o'zining yonida ushlab qolish uchun, jamoatchilik nazarida, nomiga dog' qo'ndirgan bo'lsa ham, shunga qaramay xonim, hammaning nazarida, Ejen allaqachon ega bo'lib olgan huquqlarni unga bermay kelardi. U rosa bir oygacha Rastinyakning ko'ngliga o't solib yurdi, nihoyat bu hislar yigitning yuragidan ham joy oldi. Ular bir-biriga yaqinlashgan dastlabki kunlarda Ejen o'zini ustun keldim deb hisoblab yurgan bo'lsa ham, ko'p o'tmay parijlik yigitlar siymosida ayni bir vaqtda mavjud bo'ladigan ikki yo uch erkakning hamma yaxshi va yomon xislatlarini Rastinyakda ham uyg'otib, de Nusingen xonim undan ustun bo'lib oldi. Bunday qilishdan biron maqsadni ko'zlaganmidi? Yo'q, xotinlar hatto behayolarcha aldamchilik qilgan paytlarida ham, biror tabiiy hisga bo'ysunib haqiqatgo'y bo'lib qoiadilar. Delfina dastlabki paytlarda Ejenning o'zidan ustun kelishiga yo'l qo'ygan va, balki, unga nisbatan haddan ziyoda hassoslik ko'rsatgan bo'lsa ham endi o'zining ayollik g'ururi talablariga bo'ysunib, o'zining yo'l qo'ygan yon boshishlariga barham bermoqchi yoki ularni orqaroqqa surmoqchi edi. O'z kelajagini topshirmoqchi bo'lgan va kishining qalbini tanab ko'rish uchun shavqu-zavq ayni jo'sh urib turgan paytda ham, taslim bo'lish paytini orqaga surish parijlik ayollar uchun juda tabiiy holdir! De Nusingen xonimning umidlari bir marta puchga chiqqan edi: uning ko'nglidagi bir xudbin yigitga nisbatan bo'lgan ehtiroslar qanoatlanmay qolgandi. Shubhalanishga unda asos bor edi. Muvaffaqiyatga tez erishganidan Ejen o'ziga bino qo'yib qoldi, ehtimol, shuning uchun ham Delfina, oralarida yuzaga kelgan g'alati munosabatlar natijasida yigitning muomalalarida o'ziga nisbatan hurmatsizlik alomatlarini sezib qoldi. De Nusingen o'zidan voz kechib ketgan oldingi oshig'i oldida uzoq vaqt o'zini qanchalik yerga urib xor bo'lgan bo'lsa, ajab emaski, endi bu navqiron oshiqning ko'z oldida shunchalik yuksakka

ko'tarilishga, unda o'ziga nisbatan izzat-ikrom tuyg'usini uyg'otishga harakat qilayotgandir. Ejen Delfinaning de Marse bilan yaqin munosabatda bo'lganini bilardi, aynan shuning uchun ham xonim Ejenning osongina g'alaba qozondim deb yurishini istamasdi. Qisqasi, haqiqatan ham, dahshatli bir maxluq bo'lgan buzuq yigitdan, uning odamni kamsitadigan shahvatparastligidan qutulib olgan Delfina endi muhabbat chamanining gullab-yashnagan quchog'ida ta'rifga sig'mas darajada bir quvonch topdiki, bu chamanda muhabbat manzaralarini to'yib-to'yib tomosha qilishning, yurakka shirin tuyg'ular soladigan titroq tovushlarga quloq solishning va ma'sumalik shabadasi erkalatishlariga berilishning hamma imkoniyatlari muhayyo edi. Chin muhabbat soxta muhabbatning jafosini tortmoqda edi. Afsuski, erkaklar o'zlarining birinchi aldamchiligi yosh juvonlar ko'nglida qanchadan qancha ochilib kelayotgan gullarni payhon qilib ketishini tushunib olishmaguncha bunday bema'nilik hali tez-tez uchrab turadi. Ammo qanday sabab bo'lishidan qat'i nazar, Delfina Rastinyakni o'z nog'orasiga o'ynatib kelar, o'shanda ham huzur bilan o'ynatib kelardi, negaki Ejenning uni yaxshi ko'rishiga shubha qilmas va sevganining butun xafaliklarini istagan vaqtda bartaraf qila olishning eng to'g'ri vositalari o'zining qo'lida ekanini bilardi. Rastinyakning izzat-nafsi esa birinchi kurashdayoq g'alabani qo'ldan boy berishni istamasdi, shuning uchun u, ovga ruxsat berilgan birinchi kuni har qanday qilib bo'lsa ham kaklik otib kelish payiga tushgan ovchidek, o'z o'ljasini qat'iy turib, ta'qib qilgandi. Kamsitilgan izzat-nafs, xavotirliklar, chinakam yo soxta bo'lishidan qat'i nazar, umidsizlik vasvasalari – bularning hammasi uni mana shu ayolga tobora ko'proq bog'lamoqda edi. Uning de Nusingen xonim ustidan qilgan g'alabasi butun Parij ahlining og'zida edi, vaholanki, uning bu ayol ustidan qozongan g'alabasi ular tanishgan dastlabki kunda erishgan muvaffaqiyatdan nariga o'tganicha yo'q edi. Fa'zin ayol kishining noz-karashmasi, uning muhabbatidan bahramand bo'lishga nisbatan ko'proq quvonch bag'ishlaydi, ammo Rastinyak hali bundan bexabar edi, shuning uchun dam, tentaklarcha xunob bo'lardi. Ayol kishi muhabbat bilan kurash olib bergan vaqt Rastinyakka o'zining dastlabki mevalarini sovg'a qildi: bu mevalar hali juda g'o'r, nordon edi-yu, kishiga ko'p lazzat

bag'ishlardi, ammo o'zi ham ko'p qimmatga tushmoqda edi. Ba'zan sariq chaqasiz qolib, bo'lg'usi hayotini hech tasavvur qila olmay qolganda Ejen vijdon amriga ham parvo qilmay Votren ko'rsatgan yo'l va vosita bilan boyib olishni, – mademuazel Tayferga uylanishni o'ylardi. Endi esa pulsizlik balosi uni o'z domiga shunday tortib oldiki, u dahshatli sfinksning og'ir nazarlariga dosh berib, uning vasvasasi ta'siriga berila boshladi.

Nihoyat, Puare bilan mademuazel Mishono o'z xonalariga chiqib ketishgach, Voke xonim bilan jun yengcha to'qib o'tirgan Kutnur xonim yolg'iz qolishdi; pechka oldida mudrab o'tirgan Rastinyak erkaklardan faqat o'zim qoldim deb o'ylab mademuazel Tayferga shunday mehr bilan qaradiki, qiz yerga boqdi. So'ng:

– Bir narsadan xafamisiz, janob Ejen? – deb so'radi Viktorina, birpas jim o'tirgandan keyin.

– Kimda xafagarchilik yo'q deysiz! – javob qildi Rastinyak. – Biz yigitlar jafu chejishga doim tayyor turganimiz evaziga arziydigan darajada qattiq, sadoqat bilan sevilishdek baxtga ishonchimiz komil bo'lsa, ehtimol, xafagarchilikni uncha bilma-gan bo'larmidik.

– Mademuazel Tayfer bu gapga shunday bir nigoh bilan javob qildiki, u nigohning zamirida qanday zo'r ehtiros yotgan-ligiga hech shubha qolmagan edi.

– To'g'ri, siz bugun o'z qalbinga ishonaman deb o'ylay-siz, – dedi Rastinyak gapini davom ettirib, – ammo kelajakda ham sira o'zgarib qolmasligingizga ko'zingiz yetadimi?

Bechora qizning lablarida tabassum jilvalandi, go'zal qizning qalbini o'tdek yondirib yotgan yorqin shu'la yuziga tepgandek, chehrasi shu qadar yorishib ketdiki, uni bu qadar hayajonga solganini ko'rib, Rastinyakning o'zi ham qo'rqib ketdi.

– Agarda ertaga boy-badavlat bo'lib baxtingiz ochilib ketsa, agarda g'oyibdan kelgan katta davlat egasi bo'lib qol-sangiz, kambag'al paytingizda sizni sevgan yigitni o'shanda ham yaxshi ko'rarmidingiz?

Qiz chiroyli qilib bosh irg'atib qo'ydi.

– Juda kambag'al yigit bo'lsa ham-a?

Qiz yana bosh irg'atdi.

– Nimalarni vaysayapsizlar o‘zi? – deb so‘rab qoldi Voke xonim.

– Bizni o‘z holimizga qo‘ying, o‘zimizning gapimiz bor, – dedi Ejen.

– Unday bo‘lsa, bu gaplardan keyin kavalier Ejen de Rastinyak bilan mademuazel Tayfer orasida nikoh to‘g‘risida ahd-u paymonlar tug‘ilib qolmasmikin? – deb so‘radi yemak-xona ostonasida paydo bo‘lib qolgan Votren.

– Voy-ey, biram cho‘chitib yubordingizki! – deb yuborishdi Kutyur xonim bilan Voke xonim ikkalasi.

Votrenning ovozi uni juda qattiq hayajonga solgan bo‘lsa ham, Rastinyak:

– Bundan ma‘qulrok yo‘lni topolmasam kerak deyman, – deb kulib turib javob qildi.

– Bunday o‘rinsiz hazillarni qo‘ying! – dedi ularga Kutyur xonim. – Viktorina, uyimizga chiqamiz.

Voke xonim o‘z xonasida sham ham, o‘tin ham yoqmaslik uchun ijarachilari orqasidan ularning xonasiga chiqib ketdi. Ejen Votren bilan yolg‘iz qoldi.

– Shunday qarorga kelishingizni bilardim, – dedi Votren o‘ta sovuqqonlik bilan. – Ammo gapimga quloq soling: men ham o‘zimga yarasha tabiati nozik odamman. Hozircha biror qaror qabul qilishdan o‘zingizni tiyib turing, hozir es-hushingiz joyida emas. Qarzlaringiz bor. Istardimki, sizni mening oldimga ehtirosingiz yoki umidsizligingiz emas, balki aql-idrokingiz boshlab kelsa. Balki, sizga bir necha ming zarur bo‘lib turgandir? Marhamat. Beraymi?

Vasvasaga soluvchi bu iblis yonidan karmonini chiqardi-da, undan qar biri ming franklik uchta qog‘oz pul olib, Rastinyak ko‘zi oldida aylantira boshladi. Ejen juda mushkul ahvolga tushib qolgandi. U markiz d’Ajuda bilan graf de Trayga ikki ming frank yutqazib qo‘ygan-u, ammo puli yo‘qligidan, keyin beraman deb va‘da qilgandi, shuning uchun, grafinya de Restonikida uni kutishayotgan bo‘lsa ham, u yerga borolmay o‘tirardi. Grafinyanikida bugun oddiygina bir kecha ediki, bunday kechalarda faqat pechene yeb, choy ichilardi, ammo qarta o‘ynab, olti ming yutqazib ketish hech gap emas edi.

– Janob Votren, – dedi unga Rastinyak, a‘zoyi badanining



titrog'ini zo'rg'a bosib, – menga taklif qilgan ishlaringizdan keyin sizdan hech nima qabul qila olmasligimni o'zingiz tushunsangiz kerak.

– Juda soz! Boshqacha javob bersangiz, meni yomon xafa qilgan bo'lardingiz, – dedi vasvasachi. – Siz o'ktam, xushtabiat, arslondek mag'rur va yosh qizlardek nazokatli yigitsiz. Yo'ldan uruvchi shaytonga juda qo'l kelasiz! Yigit kishining mana shunday fazilatli bo'lganini yaxshi ko'raman. Shunisi ham borki, oliy siyosat sohasidagi yana ikki-uch fikrni singdirib olsangiz, bu dunyoning qandayligini o'zingiz ham to'g'ri tushunadigan bo'lib qolasiz. Bu dunyoda himmat – saxovat ko'rsatish bobida kichik-kichik tomosha qo'yib turish kerak, ana shunda, yuksaklarga parvoz qila oladigan odam parterdagi<sup>1</sup> ahmoqlarning g'ulduros olqishlari ostida istagan injiqliklarini ta'minlay oladigan bo'ladi. Yana bir necha kun o'tadi-yu, bizniki bo'lasiz qolasiz. Eh, agar menga shogird tushishga rozi bo'lganingizda bormi, ko'nglingiz istagan narsaga muyassar bo'lardingiz. Nimani ko'nglingiz tusasa – shon-shuhrat deysizmi, pul deysizmi, xotinlar deysizmi – hamma-hammasi og'zingizdan chiqmasdanoq muhayyo bo'lib turardi. Madaniyatning jamiki mevalarini bir qilib, undan sizga jannat sharobi hozirlardik. Siz bizning erkamiz, bizning Veniaminimiz<sup>2</sup> bo'lardingiz, siz uchun biz jon-jon deb, o't desa o'tdan, suv desa suvdan kechgan bo'lardik. Yo'lingizga g'ov bo'lgan har qanday narsa supurib tashlangan bo'lardi. Mendan pul olishga nomus qilar ekansiz, demak, meni yovuz odam deb hisoblasangiz kerak-da? Ammo xuddi sizga o'xshab o'zini vijdonli odamlar qatoriga qo'shib yurgan odamlardan biri, janob de Tyuren<sup>3</sup> qaroqchilar bilan ba'zan kichik-kichik bitimlar tuzar, ammo bu bilan o'zini yomonotliq bo'lgan deb hisoblamasdi. Menga qarzdor bo'lib qolishni istamaysiz, a? Buning yo'li oson, – deb zaharxanda bilan gapini davom ettirdi Votren. – Mana bu bir parcha qog'ozni oling-da, – deb u Ejenga davlat gerbi bosilgan blank uzatdi, – «Bir yil mobaynida to'lash sharti bilan uch ming besh yuz frank oldim», – deb yozib, imzo chekib bering.

<sup>1</sup> Parter (*fransuzcha*; parterre – yer bo'ylab) – 1) teatr, kinoteatr va konsert zallaridagi tomoshabinlar o'tiradigan, sahnaga nisbatan past joy.

<sup>2</sup> Veniamin – Tavrotda patriarx Yoqubning kenja o'g'li, ko'chma ma'noda – tantiq, erkatoy degan ma'noda ishlatiladi.

<sup>3</sup> Tyuren Anri de la Tur Dovern (1611-1675) – mashhur fransuz lashkarboshisi.

Tagiga sanasini yozing! Foizi shu qadar balandki, sizni har qanday vijdon azobidan xalos qiladi, meni sudxo'r deb hisoblashingiz va o'zingizni har qanday minnatdorchilikdan holi deb bilishingiz mumkin. Bir vaqt kelib, meni yaxshi ko'rib qolishingizga ishonchim komil bo'lgani uchun, shu bugundan boshlab mendan nafratlanishingizga ijozat beraman. Siz menda shunday mavhum, shunday kuchli, mujassam tuyg'ularni uchratishingiz mumkinki, ahmoq odamlar bularni nuqson deb hisoblashadi, ammo hech vaqt ko'rmamaklik va ablahlikni uchratmay-siz. Qisqasi, o'g'lim, men piyoda emas, fil ham emas, balki ruhman.

– Qanday odamsiz o'zingiz? – deb yubordi Ejen. – Mening tinchimni buzish uchun yaratilgansiz!

– Aslo, men shunchaki oqko'ngil odamman, to umringiz oxirigacha yomonotliq bo'lmasligingiz uchun, sizning o'rningizga o'zim yomonotliq bo'lishga tayyor bir odamman. Bunday sadoqatning boisi nima deb o'zingizdan so'rayotgandirsiz? Yaxshi, bir kun emas, bir kun buni sekingina qulog'ingizga aytaman. Jamiyat tuzumi mexanizmni va o'sha mashinaning qanday boshqarilishini ko'rsatib, avvaliga sizni qo'rqitib yubordim; ammo yangi soldatlikka olingan yigitlarning qo'rquvi jang maydonida qanday tez o'tib ketsa, sizdagi bu dastlabki qo'rquv ham shunday tez o'tib ketadi, shunda siz, odamlar o'zini-o'zi tojdor deb e'lon qilganlari uchun jang maydonlarida qirilib ketishga mahkum etilgan soldatlarning xuddi o'zginasi ekan, degan fikrga ko'nikib ketasiz. Zamonlar juda o'zgarib ketdi. Bir vaqtlarda odamlar biror dovyurak yigitga; «Mana bu yuz tillani ol-u, falonchini o'ldirib kel», – deb tayinlab, hech qanday sababsiz bir bechorani u dunyoga jo'natib, o'zlari xotirjam ovqat qilib o'tirishaverardi. Men esa endi, roziman deb bosh irg'atib qo'yishingiz uchungina sizga katta davlat va'da qilib turibman, bundan siz hech qanday zarar ko'rmaysiz-u, yana ikkilanib o'tiribsiz. Qanday zamonlarga qoldik!

Ejen vekselda imzo chekib berdi-da, pulni oldi.

– Juda soz, Endi jiddiy gaplashib olaylik, – deb davom etdi Votren. – Men bir necha oydan keyin tamaki yetishtirish uchun Amerikaga jo'namoqchiman. Do'stligimiz hurmati uchun sizga sigaralar yuborib turaman. Boyib ketsam, sizga yordam-

lashaman. Bola ko'rmasam (shunday bo'lishi aniqroq: urug'imni sochishning men uchun qizig'i yo'q), butun davlatimni sizga vasiyat qilib ketaman. Do'stlik bundan ortiq bo'ladimi? Ammo men sizni yaxshi ko'raman. Men odamlar uchun jon fido qilishga ishqibozman. Azaldan shunday qilib kelganman. Gap shundaki, o'g'lim, men boshqa odamlarga qaraganda yuqoriroq doirada yashayman. Harakat qilishni vosita deb hisoblab, faqat maqsadni ko'zlab ish ko'raman. Odam men uchun nima? Mana u! – deb bosh barmog'ining tirnog'i bilan tishiga chertib qo'ydi, – Odam yo hamma narsa, yo hech narsa emas. Agar u odamning nomi Puare bo'lsa, u hech narsaga arzimaydi, – u shunday ko'rimsiz, sassiq maxluqki, uni kanadek ezib tashlash mumkin, Ammo odam sizga o'xshagan bo'lsa, u xudo: u ustiga teri yopilgan mexanizm emas, balki eng yaxshi hissiyotlar makon qurgan teatr, men esa yolg'iz hissiyot bilan yashayman. Ajabo, hissiyot – bir butun tafakkurga mujassamlangan butun olam emasmi? Shu Gorio otaning o'zini misolga olaylik, uning uchun butun olam, unga yo'l ko'rsatuvchi hayot rishtasi o'sha ikkita qizi. Men bu dunyoni juda sinchiklab o'rganganman va faqat bitta chinakam hisni – ikki erkak o'rtasidagi chinakam do'stlikni tan olaman. Men yaxshi ko'rgan narsa – Per bilan Jafer<sup>1</sup>. Men «Xalos etilgan Venetsiya»ni yod bilaman. O'rtog'i: «Yur, murdani ko'mib ke- laylik!» – deganda churq etmasdan, kishining g'ashiga tegadigan safсата sotmasdan o'sha o'rtog'i orqasidan ketadigan odamlar- dan qanchasini topib bera olasiz? Men mana shunday ishlarni qilganman. Bunday gaplarni har kimga ham aytib bo'lmaydi, ammo siz yuksak darajadagi farosatli odamlardansiz, sizga hamma narsani aytsa bo'ladi, siz hamma gapga tushunasiz. Siz botqoqlikda itbaliqlar qurshovida uzoq qolib ketmaysiz. Kelishib oldik, shekilli, chamamda? Siz uylanasiz. Shamshirlar yalan- g'ochlanib, tikka hujumga o'tamiz! Mening shamshirim po'lat- dan, hech vaqt qayilib ketmaydi, gap ana shunday!

Votren rad javobi olmaslik uchun va Ejen es-hushini to'p- lab olishi uchun darhol xonadan chiqib ketdi. Aftidan, bu ojizona qarshilik ko'rsatishlar, bu barcha munozaralar – kishining o'z aybini oqlash maqsadida qilgan harakat ekanini u yaxshi

<sup>1</sup> Per bilan Jafer – ingliz dramaturgi Tomas Otveyning (1651-1685) «Xalos etilgan Venetsiya yoki fosh qilingan fitna» tragediyasida tasvirlangan yaxshi do'st.

tushunardi.

«Bilganini qilaversin, ammo men mademuazel Tayferga uylanmayman!» – dedi o'ziga o'zi Ejen.

O'zini qo'rqitib yuborgan, ammo ayni vaqtda hamma gaplarini behayolik bilan gapirishi va jamiyat tuzumining mohiyatini bunday aniq tushunishidan, uning nazarida, o'sib borayotgan odam bilan bitim tuzib qo'yganidan esa chiqib ketgan Rastinyak o'zini bosib oldi-da, kareta chaqirib kelishni buyurdi va kiyinib chiqib grafinya de Restonikiga jo'nadi. Grafinya kun sayin oliy tabaqa davrasiga ko'proq kirib borayotgan va vaqti kelib, grafinya uchun xavfli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bu yigitga keyingi kunlarda ikki hissa ko'proq e'tibor berib kuzata boshlagan edi. Ejen d'Ajuda bilan graf de Trayga qarzlarini to'ladi, kechasi bilan qarta o'ynab, yutqazgan pullarini yana yutib oldi. O'zi uchun o'zi yo'l ochadigan odamlarning juda ko'pchiligi ozmi-ko'pmi fatalist<sup>1</sup> bo'ladi. Rastinyak ham xurofotchi edi: bugun qimordan pul yutib olganini – o'zining to'g'ri yo'ldan og'maslikka ahd qilgani uchun qudrati ilohiy yuborgan oliy mukofot deb o'yladi. Ertasi kuni ertalab u Votrenni uchratgan zahoti, men bergan vekselni nima qildingiz deb so'radi. Votrenning, veksel yonimda, degan javobini eshitishi bilanoq Ejen o'zining bundan juda mamnunligini yashirib ham o'tirmay, unga uch ming frankni qaytarib berdi.

– Hamma ish yo'rig'i bilan boryapti, – dedi unga Votren,

– Ammo men sizga sherik emasman, – deb javob qildi Rastinyak.

– Bilaman, bilaman, – deb uning gapini bo'ldi Votren. – Hali ham yosh bolalik qilib, ostonaga yetganda har Qanday hudabehuda bahonalar bilan to'xtab qolyapsiz.

Ikki kundan keyin Puare bilan mademuazel Mishono Botanika bog'ining chekka bir yerida, oftob tushib turgan skameykada qandaydir janob bilan gaplashib o'tirishardi, u janob Byanshonga shubhali bo'lib ko'rindi.

– Mademuazel sizni vijdon azobiga solayotgan narsa nima, – shunga tushuna olmayapman, – der edi Gondyuro. – Davlat politsiyasi ministri janob oliylari...

<sup>1</sup> Fatalist – taqdirga ishonuvchi.

– E! Davlat politsiyasi ministri janob oliylari deng-a... – deb takrorladi Puare.

– Ha, janob oliylari bu ishga qiziqib qoldilar, – dedi Gondyuro.

Lekin fikr yuritish qobiliyatidan mahrumligi aniq bo'lsa ham, iste'foga chiqqan va, har holda, meshchanlik fazilatlariga ega bo'lgan sobiq chinovnik Puare Byuffon ko'chasidan kelganman deb o'zini tanitgan va ayni vaqtda «politsiya»ga sha'ma qilib, Iyerusalim ko'chasidan kelgan agent<sup>1</sup> ekanini sevdirib qo'ygan oddiy burjua niqobidagi odamning gaplariga quloq solib o'tirardiki, bunga ishonish amri mahol edi. Ammo buning hech ajablanadigan yeri yo'q. Shunday bir go'l odamlar turkumi borki, Puare ham keng tarqalgan ana shunday odamlar qatoriga kirardi, – ularni ba'zi tadqiqotchilarning hali e'lon qilinmagan, ammo oxiriga yetkazilgan ishlari bilan tanishgandan keyingina tushunib olish mumkin: shunday ko'chma chinovnik turkumi borki, ular davlat budjeti tomonidan yillik maoshi bir ming ikki yuz frank bo'ladigan birinchi daraja kenglik (buni ma'muriyatchilikdagi Grenlandiya deyish mumkin) bilan uchinchi daraja kenglik o'rtasiga suqib qo'yilgan, bu kenglikda iqlim ancha yumshaydi, negaki durustgina maoshli – uch mingdan to olti minggacha – o'rinlar boshlanadi, mukofot pullari ham tushib turadi, maoshga mukofot pullarini chatishtirish qiyin bo'lishiga qaramay, har holda, u gullab, hatto meva ham berib turadi. Boshliqlarga bo'ysunib o'rgangan bu odamlarning to'poriligini ko'rsatadigan xarakterli belgilaridan biri har bir ministrlikdagi dalaylamaga<sup>2</sup> instinktiv<sup>3</sup> ravishda, sira surishtirmay ko'r-ko'rona bo'ysunishidir, vaholanki, uni faqat qog'ozlardagi «ministr janob oliylari» degan joyga o'qib bo'lmaydigan darajada noaniq qilib chekkan imzosidangina bilsa bo'ladi, mana shu «ministr janob oliylari» dagan uchta so'z «Bag'dod xalifasi»dagi<sup>4</sup> Il Bondo Cani

<sup>1</sup> «...Iyerusalim ko'chasidan kelgan agent» – ya'ni Parij Qidiruv politsiyasining agenti.

<sup>2</sup> Dalaylama – Tibet hokimi va eng yirik ruhoniysi.

<sup>3</sup> Instinkt (*lotincha*: *instinctus* – uyg'onish, qo'zg'alish) muayyan sharoitda hayvonlarning bitta turi uchun xos bo'lgan murakkab irsiy xatti-harakatlari majmui. Insonlarda instinkt uning tarbiya jarayonida shakllanadigan ongli faoliyatiga bo'ysungan bo'ladi. Instinktiv – instinktga xos, instinkt tarzida yuz beradigan; g'ayrishuriy.

<sup>4</sup> «Bag'dod halifasi» – fransuz kompozitori Fransua Bualdning (1775-1834) zo'r muvaffaqiyat qozongan bir pardali hajviy operasi.

sehrli soʻzlardek qudratli hisoblanadi va oʻsha toʻporilashib ketgan chinovniklar ahli uchun muqaddas, shak-shubhasiz hokimiyat oʻrnida oʻtadi: katoliklar nazarida, papa sira gunohsiz boʻlganidek, chinovnik nazarida ham, ministr mutlaqo ayb-u nuqsonsiz odamdir, ministr degan nomning qudrati uning harakatlari, gap-soʻzlariga, hatto uning nomidan aytilgan gaplarga ham oʻtib ketadi; zarhal mundirining taʼsiri uning buyrugʻi bilan qilinadigan hamma ishlarga oʻtadi va qonun tusini beradi; uning niyati xolisligi va buyruqlarining muqaddasligiga guvoh boʻlib qolgan oliy unvoni eng nomaʼlum gʻoyalarga ham yoʻl boshlovchi boʻlib xizmat qilaveradi. Mana shu ayanch, ojiz odamlar «janob oliylari» degan gapni eshitish bilan shunday tirishib ishlaydilar-ki, hatto oʻz manfaatlari yoʻlida ham bunday gʻayrat bilan ishlamagan boʻlardilar. Qoʻshinda intizom qattiq boʻlganidek, mahkamalarda ham soʻzsiz itoat etish degan narsa hukmronlik surib keladi, bu tartib-qoida odamni vijdonidan judo qiladi, uni toʻporilashtiradi va bora-bora uni davlat maʼmuriyatidagi anchayin bir gayka yo biror mixga aylantirib yuboradi. Gondyuro, aftidan, odamlarning farqiga tez yetadigan odam edi, shuning uchun Puarening rasmiyatparast tentaklardan ekanini darhol fahmlab oldi, Mishono Puarening mahbubasi vaziyatidagi odam boʻlganidek, agentning fikricha, Puare ham Mishononing oshigʻidek odam edi, shuni hisobga olib, payt kelishi bilan Puareni hayron qoldirish maqsadida oʻzining Deus ex machine<sup>1</sup>, yaʼni «janob oliylari» degan sehrli iborasini gap orasiga qistirib ketdi.

– Agarki janob oliylarining shaxsan oʻzlari shunday degan ekanlar... janob mi... O, unda butunlay boshqa gap! – dedi Puare.

– Siz u janobning gaplarini eshitasiz va goʻyo, uning fikrlariga qoʻshilganday boʻlasiz, – deb gapini davom ettirdi soxta burjua, mademuazel Mishonoga qarab. – Gap shunday, «Vokey uyi»da yashab yurgan, oʻzini Votren deb atovchi odam Tulon surgunidan qochgan, u yerda «Ajalni aldar» degan laqab bilan mashhur boʻlgan qochqinning xuddi oʻzi ekaniga endi

<sup>1</sup> Deus ex machine soʻzma-soʻz maʼnosi: «mashinadan yaratilgan xudo» – eng murakkab, chalkash vaziyatdan kutilmaganda ilojini topib xalos boʻlishni ifodalovchi lotin maqoli; antik dunyo tragediyasida, birona ilohiy mavjudotning paydo boʻlishi bilan halos boʻlish iloji topilardi, odatda, ilohiy siymoni ifodalovchi aktyor, maxsus mexanizm yordamida sahnaga tushardi.

ministr janob oliylarining sira shubhalari qolmadi.

– A! Ajalni aldar! – deb takrorladi Puare. – Shunday laqab olgan bo‘lsa, juda omadi kelgan ekan-da.

– Bo‘lmasam-chi, – dedi agent. – Juda omadi kelganidan shunday laqab olgan: – o‘zining o‘taketgan xatarli ishlaridan ham hech ziyon ko‘rmay omon qutulib chiqqan. Ko‘rib turibsizki, u xavfli odam! Ba‘zi xususiyatlariga qaraganda, u g‘ayri oddiy odamlardan. Uni surgun qilish katta bir voqea bo‘ldi va o‘z odamlari orasida uning obro‘cini juda oshirib yubordi...

– Demak, obro‘li odam ekan-da u? – deb so‘radi Puare.

– O‘z yo‘lida. U bironing jinoyatini bir chiroyli yigitning, o‘zi yaxshi ko‘rgan o‘rtog‘ining qalbaki hujjatlar yasab qilgan jinoyatini o‘z ixtiyori bilan bo‘yniga oldi, u jinoyatchi o‘taketgan qimorboz, italyan yigit edi; keyinchalik u harbiy xizmatga kirib, o‘zini juda yaxshi tutib yura boshladi,

– Politsiya ministri janob oliylari Votrenning o‘sha Ajalni aldar ekaniga ishonar ekanlar, unda mening nima keragim bor? – deb so‘radi mademuazel Mishono.

– Ha, darvoqe, – dedi Puare, – o‘zingiz aytgandek, ministrning bunga ozmi-ko‘pmi ishonchi komil bo‘lsa...

– Juda ham ishonchi komil deb bo‘lmas: faqat shunday shubha bor. Gapning nimadaligini hozir tushunasiz. Ajalni aldar laqabli Jak Kollen o‘z agenti va bankiri qilib saylagan uchta surgun turmasining ishonchiga sazovor bo‘lgan odamdir. Mana shu singari ishlardan u ko‘pgina pul ishlaydi bunday ish uchun alohida xususiyatga ega bo‘lgan odam kerak.

– Eh-ha! Gapning tagiga tushundingizmi, mademuazel? – deb so‘radi Puare. – Janob Gondyuro uni alohida xususiyatga ega odam dedi, nega desangiz unga tamg‘a bosilgan.

– Soxta Votren, – deb gapini davom ettirdi agent, – surgun qilingan janoblarning pullarini qabul qilib olib, har xil foydali ishlarga topshirib qo‘yadi, agar ular surgundan qochishga muvaffaq bo‘lsalar, o‘ziga yoki surgun qilingan odam vasiyat qoldirgan bo‘lsa, ularning oilalariga yo mahbubalariga Votren nomiga berilgan veksel orqali pullarini o‘tkazib beradi,

– Mahbubalariga deysizmi? Xotinlariga deng, – dedi Puare.

– Yo‘q, surgun qilinganlar, odatda, qonuniy xotin

olmaydilar, biz ularni o'ynash deymiz.

– Demak, ularning o'ynashlari bo'larkan-da?

– Demak, shunday ekan.

– Janob ministr bunday qabihliklarga yo'l qo'ymasligi kerak edi. Siz u kishining huzurlariga kirib turish sharafiga mu-yassarsiz va o'ylashimcha, insonparvar odam ko'rinasiz, shun-day ekan, unday odamlarning qay darajada axloqsiz ekanini va buning jamiyat uchun qanchalik yomon ta'sir ko'rsatishini u kishiga tushuntirib qo'ysangiz bo'lardi.

– Axir, hukumat ularni saxovatli odamlar namunasi sifatida turmaga qamamaydi-ku.

– Haq gapni aytdingiz. Biroq ruxsatingiz bilan...

– Azizim, qo'ying, janob Bondyuro gapini aytib bo'lsin, – deb suhbatga aralashdi mademuazel Mishono.

– Bilasizmi, mademuazel, – deb davom qildi Gondyuro, – o'sha g'ayri qonuniy kassani qo'lga tushirsa, hukumat juda katta naf ko'rishi mumkin, u kassada ovozalarga qaraganda, juda katta mablag' bor emish. Ajalni aldarning qo'lida juda katta davlat bormish, faqat o'zining ba'zi o'rtoqlariga tegishli pullar emas, balki «O'n mingchilar» ittifoqiga qarashli pullar ham uning qo'lida emish.

– O'n mingta o'g'ri deysizmi?! – deb yubordi qo'rqib Puare.

– Yo'q, «O'n mingchilar» ittifoqi katta o'g'rilar tashkilo-ti, katta ish qilib o'rgangan bu o'g'rilar o'lja o'n ming frankdan kam bo'lsa, unday ishga qo'l urmaydilar. Bu ittifoqqa eng saralangan o'g'rilar kiradi – biz to'ppa-to'g'ri Oliy jinoiy sudga yuboradigan shovvozlar ana shular. Ular Qonunlar majmuasini juda yaxshi bilishadi, shuning uchun hatto jinoyat ustida qo'lga tushgudek bo'lsalar ham, hech vaqt o'lim jazosi oladigan modda-ga to'g'ri keladigan qilib javob bermaydilar. Kollen ularning ishonchli vakili, maslahatchisi. Qo'lida hisobsiz mablag'i borligi tufayli o'z politsiyasini barpo qilgan, ko'p tanish-bilishlar orttir-gan, ammo bu ishlarini hech kim payqab olmaydigan qilib, sir saqlab keladi. Mana bir yil bo'libdiki, biz uni josuslar bilan o'rab tashlaganmiz, ammo shunday bo'lsa ham, hanuz uning ishlaridan bexabarmiz. Shunday qilib, o'sha kassa ham, uning iste'dodi ham yovuz ishlarga pul sarflab, jinoiy ishlarga dalda beradi va



doim jamiyat bilan jang qilib kelayotgan qalloblar qo'shinini shay tutib turishga yordam beradi. Ajalni aldarni qamoqqa olish va butun sheriklarini qo'lga tushirish – yovuzlikning ildizi bilan yo'qotish bo'lardi. Ana shuning uchun ham bu paysalga solib bo'lmaydigan chora davlat ahamiyatiga, siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ish bo'lib qoldi, shuning uchun ham bu ishni amalga oshirishda yordam ko'rsatganlar hurmatga loyiq odamlar bo'lib qoladi. Siz o'zingiz ham yana boshqatdan ma'muriy ishga kirishishingiz mumkin, politsiya komissarining kotibi bo'lib ishlaridingiz, bu esa nafaqangizni olishingizga aslo xalal bermasdi.

– Nega Ajalni aldar kassani olib qochib ketmaydi? – deb so'radi mademuazel Mishono.

– Be, surgundagilarni xohlab ketadigan bo'lsa, qayoqqa ketsa ham orqasidan uni o'ldirgani odam yuborishgan bo'lardi! Undan tashqari, kassani o'g'irlab ketish, biror badavlat xonadonning qizini o'g'irlab ketishdek oson ish emas. Ammo Kollen azamat yigit, bunday ishga u qo'l urmaydi, shunday qilsa, o'zini o'zi sharmanda bo'lgan hisoblardi.

– To'g'ri aytasiz, – dedi Puare, – u tamomila sharmanda bo'lardi.

– Lekin bu gaplardan, nega uni to'g'ridan to'g'ri qamoqqa olib qo'ya qolmadingiz, degan savolga javob chiqmadi, – dedi mademuazel Mishono.

– Xo'p, men javob beraman... (faqat bir iltimos, – deb shivirladi u, mademuazelning qulog'iga, – kavaleringiz gapimni hadeb bo'lavermasin, bo'lmasa gapimiz sira tugamaydi. Bu choling gapiga quloq solish uchun u nihoyatda badavlat bo'lishi kerak.) Ajalni aldar bu yerga kelganda nomusli odam niqobini kiyib oldi, hurmatli parijlik bir odam qiyofasiga kirib, kishilar nazari-dan chetdagi pansionga joylashdi. U shunday ustaki, uni aslo g'aflatda qoldirib bo'lmaydi. Qisqasi, Votren chakana odamlardan yemas, qilib yurgan ishlari ham chakana ishlardan emas.

– Mutlaqo turgan gap, – deb qo'ydi o'ziga o'zi Puare.

– Agarda birdan yanglishib chinakam Votrenni qamab qo'ysak-chi? Lekin ministr Parijning butun tijorat aqli bilan jamoatchilik ommasining ta'nasiga qolib ketishni istamaydi. Politsiya prefektining dushmanlari ko'p, shuning uchun u xuddi igna ustida o'tirgandek o'ng'aysiz his qiladi o'zini. Agarda

tuzilgan reja barbod bo'lib qolsa, uning o'rniga ko'z olaytirib yurganlar, liberiallarning irillashlari va akillashlaridan foydalanib uni ag'darishga kirishadilar. Bu ishda Konyarning, ya'ni soxta graf de Sent-Elenning sirini ochgandagidek ehtiyotkorlik bilan harakat qilish kerak. O'shanda u rostdan ham graf de Sent-Elen bo'lib chiqsa, rosa sho'rimiz qurigan bo'lardi. Ana shuning uchun tekshirib ko'rish kerak!

– Demak, sizga biror do'ndiqqina ayol kerak ekanda? – dedi mademuazel Mishono.

– Yo'q, u ayol kishini yaqiniga yo'latmaydi. Sizlarga sirni aytib qo'ya qolay: Ajalni aldar xotinlarni yomon nuradi.

– Unday bo'lsa, agar bu ishni ikki ming evaziga bo'ynimga olganimda ham, mening qanday foydam tegishiga tushunolmay turibman.

– Buni tushunish juda oson, – dedi notanish odam. – Men sizga bir xil suyuqlik solingan shishacha beraman – u suyuqlikning xususiyati shundaki, qoni miyaga uradi, xuddi odamning miyasiga qon quyilib ketgandek behush qilib qo'yadi-yu, ammo sog'liqqa zarari yo'q. O'sha dorini qahvaga yo vinoga qo'shib bersa bo'ladi. Dori kuchini ko'rsatishi bilanoq xastani karavotga olib yotqizasizlar, o'lib qolishidan qo'rqayotgan kishi bo'lib, yechintirasizlar. U bilan faqat o'zingiz yolg'iz qolgandan keyin mana bunday qilib, yelkasiga kaftingiz bilan bir urasiz, tamg'asi bor-yo'qligi ko'rinadi qo'yadi.

– Oppa-oson ekan, – deb qo'ydi Puare.

– Xo'sh, rozimisiz? – deb so'radi Gondyuro, qari qizdan.

– Agarda tamg'a harflari yo'q bo'lsa-chi, o'shanda ham ikki mingni olaveramanmi?

– Unda xizmat haqi qancha bo'ladi?

– Besh yuz.

– Shunday arzimagan pul ekan – qo'limni urganimga arzimaydi! Ozmuncha vijdon azobiga qovrilamanmi, vijdonimni tinchitishimning o'zi bo'lmaydi.

– Ishonavering, – deb gapga aralashdi Puare, – mademuazel juda vijdonli ayol, uning mehribonligi va idrokliligi to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi.

– Mayli, – dedi mademuazel Mishono, – agar u Ajalni aldar bo'lsa, uch ming berasiz, agarda u boshqa odam bo'lsa,

hech narsa bermay qo'ya qoling.

– Mayli, – dedi Gondyuro, ammo bitta shartim bor, bu ishni ertagayoq bajarasiz.

– Bunday tez qilolmayman, azizim, men hali o'z ruhoniyl otam bilan maslahatlashib olishim kerak!

– Ayyor ekansiz! – dedi agent, o'rmidan turarkan. – Demak, ertagacha xayr. Agar men bilan gaplashish zarurati tug'ilib qolsa, Sent-Ani tor ko'chasiga, Sent-Shapel orqasidagi cherkov hovlisiga keling. U yerda faqat bitta eshik bor, Gondyuro qayerda turadi deb so'rang.

Shu payt Kyuve ma'ruzasidan chiqib kelayotgan Byanshon bular oldidan o'tib qoldi, «Ajalni aldar» degan g'alati laqab uning diqqatini o'ziga tortdi, shu sababdan maxfiy politsiyaning mashhur boshlig'i og'zidan chiqqan: «Mayli», – degan so'zni ham eshitdi.

– Nega ishni birato'la pishitib qo'ya qolmadingiz, axir, bu umr bo'yi uch yuz frankdan daromad keltirib turadigan renta degan gap-ku! – dedi Puare mademuazel Mishonoga.

– Nega deysizmi? Buni hali puxta o'ylab ko'rish kerak. Votren rostdan ham o'sha Ajalni aldar bo'lsa, ehtimol, u bilan til biriktirganimiz foydaliroqdir. Lekin undan pul talab qilish degan so'z – uni ogohlantirib qo'yish bo'ladi, kim biladi deysiz, ehtimol, bizga pul bermay, ura qochib qolar. Burnimizga qo'limizni tiqib qolaveramiz.

– Uni ogohlantirib qo'ysak, baribir, boyagi janob aytgandek uni nazorat qilib turuvchilar bor ekan-ku, – deb e'tiroz bildirdi Puare. – To'g'ri, bunda siz quruq qolgan bo'lardingiz.

«Buning ustiga u odamni o'zim yomon ko'raman, – deb xayolidan o'tkazdi mademuazel Mishono. – Menga u faqat ranjitadigan gaplar gapiradi».

– Ammo juda yaxshi ish qilishingiz mumkin, – deb davom etdi Puare. – Axir, boyagi janob, menimcha, tuppa-tuzuk odamga o'xshaydi, kiyim-boshlari ham binoyidek, ana o'sha janob nima dedi: jinoyatchining qar qanday yaxshi fazilatlari bo'lsa ham qonun bunday odamdan jamiyatki tozalashi kerak, dedi. Aroqxo'r hech vaqt ichishini tashlamaydi. Agarda birdan hamma-mizni o'ldirgisi qistab qolsa-chi? Iye, unda, qotillikning sodir bo'lishiga biz aybdor bo'lib chiqishimiz mumkin-ku, hali

hammadan oldin o'zimiz o'lib ketishimiz mumkinligi to'g'risida gapirmayoq qo'ya qolay!

Mishono xayolga tolganligidan, xuddi yomon buralgan jo'mragidan tinmay chakillab turgan suvday oqib chiqayotgan Puarening so'zlarini eshitolmasdi. Bu choli tushmagur bir gapga tushib ketsa bormi, to Mishono uni to'xtatmaguncha, xuddi yaxshilab burab qo'yilgan avtomatdek tinmay javragani javragan edi. U bir mavzudan gap boshlab, uni oxiriga yetkazmas, xulosa chiqarmas va tamomila oldingi mavzuga zid bo'lgan gaplarga o'tib ketardi. «Voke uyi»ga yaqinlashib kelishganda, Puare mavzudan mavzuga sakrab o'taverib, kalavasining uchini tamom yo'qotib qo'ygandi, shunday bo'lsa ham nafasini bir rostlab oldiyu, nihoyat o'zi himoyachi sifatida guvohlik berib ishtirok etgan janob Ragulo bilan Moren xonim ishi to'g'risida gapirib ketdi. Ichkari kirishlari bilan mademuazel Mishono Ejen bilan mademuazel Tayferning nihoyatda muhim bir mavzuda qizg'in suhbatlashib o'tirishganini ko'rib qoldi, ikkala yosh shu qadar yurakdan suhbat qilishayotgan ediki, ikki kekxa xo'randaning yemakxona orqali ichkari o'tib ketganiga zarracha ham e'tibor berishmadi.

– Oqibat, ish shunga kelib taqalishi kerak edi o'zi, – dedi mademuazel Mishono Puarega qarab. – Keyingi hafta ichida ular bir-birlariga ko'zlarini suzib qarashgani qarashgan.

– Ha, ha, – deb javob qildi Puare. – Shuning uchun ham uni qamab yuborishdi-da.

– Kimni?

– Moren xonimni.

– Men mademuazel Tayferni aytyapman, – dedi parishonlik bilan Puarening xonasiga kirib kelgan mademuazel Mishono, – siz bo'lsangiz, Moren xonimni gapirib o'tiribsiz. Qanaqa xotin edi u?

– Mademuazel Viktorinaning aybi nimada? – deb so'radi Puare.

– Aybi shuki, Ejen de Rastinyakni yaxshi ko'radi, sho'rlik qiz nima qilayotganini o'zi ham bilmaydi.

Ertalab Nusingen xonim Ejenni umidsizlikka solib qo'ydi. Ejen Votrenning nega unga o'zini yaqin olayotganini bu munosabatlarning oqibati nima bo'lishini ataylab o'ylamay,

ko'nglining chuqur bir yerida o'zini tamomila bu g'ayri oddiy odamning ixtiyoriga topshirgan edi. Bundan bir soat burun u mademuazel Tayfer bilan astoydil ahd-u paymon qilib, jar yoqasiga borib qolgan, endi uni jarga qulab ketishdan faqat biron mo'jiza xalos etishi lozim edi. Viktorina, nazarida, farishtaning ovozi eshitgandek bo'ldi, samoviy darvozalar uning ko'zi oldida lang ochildi, «Voke uyi» esa, qizning nazarida, rassomning mo'jizakor qo'li ostida sahnalarda paydo bo'ladigan afsonaviy saroylarga o'xshab ketdi: qiz Ejenni yaxshi ko'rardi, u o'zining ham sevilishiga tamoman ishongan edi. Axir Rastinyakka qarab o'tirib va pansion to'rtko'zlarining ko'zini shang'alat qilib, uning shirin gaplariga rosa bir soat quloq solgan bo'lsa, uning o'rnida boshqa har qanday qiz ham bunday muhabbatga ishonmay qola olarmidi?

Ejen o'zining ablahlik qilayotganini juda yaxshi anglagan va lekin ayni vaqtda o'z niyatlaridan qaytmaslikka ahd qilgan holda, ayol kishini baxtiyor qilish bilan butun gunohlarimni yuvaman deb o'zini ishontirmoqchi bo'lardi, u o'z vijdoni bilan shunday kurasharkan, astoydil keskin harakat qilganidan chehrasi yorishib ketdi, qalbida gur-gur yonayotgan jahannam alangasi tamomila yuziga urilganidan yana ham chiroyliroq bo'lib ketdi. Baxtidan bo'lib, mo'jiza yuz berdi: shod-xurram holda Votren kelib qoldi, o'zining iblisona idroki tufayli qovushib o'tirgan bu ikkala yoshning ko'nglida nimalar bo'layotganini darrov fahmlab oldi-da, do'rillagan ovozi baland qo'yib, masxaraomuz:

*Soddaligi bilan Favshetam  
Ham dilrabo, ham juda ko'rkam...*

– deb kuylab yubordi-yu, ularning shirin suhbatini bo'ldi qo'ydi.

Viktorina umrida shu paytgacha qancha azob tortib kelgan bo'lsa, hozir o'shancha baxtiyorlik hissi bilan xonasiga qochib kirib ketdi. Bechora qiz! Qo'l qisishlar, qizning yuziga Ejen sochining tegib ketgani, og'zining hovuri urilar darajada yaqin kelib qulog'iga shirin gap aytgani, belidan quchoqlagan qo'lning titrog'i, bo'ynidan olingan bo'salar – bularning hammasi ilohiy bir muhabbatning ifodalari edikim, uning nuridan tovlanib ketgan yemakxonaga har onda kirib qolishi mumkin bo'lgan

baqaloq Silviyaning shu yaqin oradaligi, qizning muhabbatini sevgi to'g'risida yozilgan hamma qissalarda tasvirlangan muhabbatdan ham alangaliroq, o'tkirroq va qiziqroq qilib yuborgan edi.

Muhabbatning, ota-bobolarimiz tili bilan aytganda, mana shu xufiya ifodalari har ikki haftada bir marta tavba qilgani cherkovga borib turadigan yosh, xudojo'y qizga jinoyatdek tuyuldi! U badavlat xotin bo'lib olgandan keyin, o'zini butunlayin fido qilganda ham, ko'ngil boyliklarini hozirgichalik ko'p sarflay olmasdi.

– Masala hal, – dedi Votren Ejenga. – Bizning oliftalar g'ijillashib qolishdi. Hammasi xamirdan qil sug'urgandek oson bitdi. Janjal e'tiqod masalasidan chiqdi. U shovvoz mening lochinimni haqorat qildi. Uchrashuv ertaga Klinyankur tuproq qo'rg'onida bo'ladi. Mademuazel Tayfer soat sakkiz yarimda, xotirjamlik bilan bo'g'irsog'ini qahvasiga ivitib nonushta qilayotganida otasining bugun davlati-yu muhabbati unga meros bo'lib o'tib qoladi. Bu hazil gap emas! Yosh Tayfer shamshir-bozlikka usta va kuzur tuzdek o'ziga bino qo'ygan yigit, ammo lochinim uning qonini men o'ylab chiqargan bir usul bilan oqizib tashlandi: shamshirni ko'taradi-yu, shartta peshonasiga sanchadi. Bu uslubni sizga o'rgatib qo'yaman – o'lgudek foydali narsa Rastinyak to'porilik bilan quloq solib o'tirar va hech narsa deb javob qila olmasdi. Shu payt Gorio ota, Byanshon va bir necha xo'randalar kelib qolishdi.

– Sizni xuddi shu qiyofada ko'rmoqchi edim, – dedi Votren. – Siz nima qilayotganingizni bilasiz. Juda soz. lochinim! Siz odamlarga bosh bo'lish uchun yaratilgansiz, siz kuchli, irodali, azamat yigitsiz, men sizni hurmat qilaman.

Votren uning qo'lini qismoqchi bo'lgan edi, Rastinyak shartta qo'lini tortib oldi va rangi o'chib, stulga o'zini tashladi: oyog'i ostida, polda qon halqob bo'lib yotgandek ko'rindi ko'ziga.

– E, ezgu fazilatlardan hali ham bor ekan-ku! – dedi unga sekingina Votren. – Doliban otaning uch millioni bor, uning davlati menga ma'lum. Qaylig'ingiz sepini olgandan keyin hamma gunohlardan forig' bo'lib, xuddi nikoh ko'ylagiday oppoq bo'lib ketasiz.

Rastinyak endi ikkilanmasdi. U kechqurun borib, ota-bola

Tayferlarni ogohlantirib qo'ymoqchi bo'ldi. Votren uning oldidan nari ketdi, shundan keyin Gorio ota uning qulog'iga:

– O'g'lim, xafa bo'lib o'tiribsiz! – deb shivirladi. – Hozir sizni xursand qilib yuboraman. Yuring.

Keksa vermishelchi o'zining o'rama shamini lampadan yondirib oldi. Ejen nima gap ekanini tezroq bilishga qiziqib, unga ergashdi.

Silviyadan talaba turadigan xonaning kalitini olgan chol:

– Sizning xonangizga kiramiz, – dedi. – Bugun ertalab, meni yaxshi ko'rmas ekan deb o'ylagan bo'lsangiz kerak-a? Qizim sizni noilojlikdan chiqarib yuborgan, siz esa darrov achchiqlanib, umidsizlikka tushib chiqib ketibsiz. Tentakvoy! U meni kutib turgan edi. Tushudingizmi? Biz ikkalamiz bir ajoyib kvartirani jihozlagani borishimiz kerak edi, uch kundan keyin siz u yerga ko'chib o'tasiz. Sizga aytganimni qizim bilmasin tag'in. U sizni bir suyuntirmoqchi, lekin men sirimizni sizdan ortiq yashirsak bo'lmas deb o'ylayman, joyni d'Artua ko'chasidan topdik, u Sen-Lazar ko'chasidan ikki qadamgina narida. Siz u yerda davron surib turmush kechirasiz. Jihozlarni ham yangi turmush qurganlarga munosibini axtarib topdik. Keyingi oyda ancha-muncha ish qilib yubordik, ammo sizga bildirmadik. Mening ishonchli vakilim harbiychasiga ish boshlab yubordi, qizimning yillik daromadi o'ttiz olti ming frank bo'ladi – bu unga bergan sepimdan oladigan daromad; men uning sakkiz yuz ming frank puli yaxshi daromad berib turadigan biror mulk hisobiga qo'yilishini talab qilaman.

Ejen indamas, qo'lini ko'kragiga chalishtirib, o'zining yig'ishtirilmagan ayanchli xonasida u yoqdan-bu yoqqa yurardi. U orqasini o'g'irgan paytni mo'ljallab turib, Gorio ota oltin hal bilan Rastinyaklar xonadonining gerbi o'yib ishlangan qizil saxtiyon g'ilofni kamin ustiga qo'yib qo'ydi.

– Men, o'g'lim, mana shunaqa ishlarga juda berilganman. Ammo rostimni aytsam, o'zimni ham unutmaganman. Sizning boshqa joyga ko'chib o'tishingizdan men ham manfaatdorman. Bir narsani iltimos qilsam, yo'q demaysizmi? -

– Nima ekan?

– Sizning kvartirangiz tepasida, oltinchi qavatda, sizning yo'lagingizdan chiqiladigan bir bo'sh xona bor; ana o'sha yerga

men ko'chib boraman, maylimi? Men qarib qoldim, ammo qizlarimdan uzoqda turaman. Sizga xalaqit qilmayman. Shunchaki yaqiningizda turaman. Har kuni kechqurun siz Menga qizim to'g'risida gapirib berasiz. Sizga malol kelmaydi, ammo men uyga qaytib kelganingizni eshitib turaman va o'zimga: «U hozirgina Fifinamni ko'rib keldi. U qizim bilan balga bordi, qizimni baxtiyor qildi», – deb o'tiraman. Agarda tobim qochib qolsa, uyga kelganingizni, u yoq-bu yoqqa yurganingizni, stullarni surganingizni eshitib yotishning o'zi menga eng yaxshi davo bo'ladi. Axir, dilingiz Delfinadan olgan taassurotlar bilan limmo-lim bo'ladi-ku! U yerdan qizlarim qar kuni karetasida sayr qilib o'tadigan Yelisey Dalasiga ikki qadam, xolos: ana shunda men ularni doim ko'rib turaman, bo'lmasa, hozir ba'zan ancha kechikib qolyapman. Ehtimol, qizimning o'zi ham uyingizga kelib turar! Unda uning ovozi eshitib turaman, ertalabki kiyimda, u yoq-bu yoqqa yugurib-elganini yo xiromon qadamlar tashlab yurganini ko'rib ham qolarman. Keyingi bir oy ichida u qizlik chog'laridagi singari yana ochilib ketdi, xushchaqchaq va tannoz bo'lib qoldi. Ko'ngli tog'dek ko'tarilib ketdi, bunga siz sababchisiz. O, siz uchun men iloji yo'q ishlarni qilishga ham hozirman! Hozir qaytib kelayotganimizda u: «Dada, men juda baxtliman!» – dedi. Ular menga salobat bilan: «Ota!» – deyishsa, yuragim uvushib ketadi, ammo: «Dada», – deyishganda, ular menga yosh bolalardek ko'rinib ketishadi, eng yaxshi xotiralarimni esimga solishadi. O'shanday paytlarda ularning otasi ekanimni ko'proq his qilaman. Nazarimda, ular hali hech kimning makriga tushmagandek tuyulib ketadi.

Chol ko'z yoshlarini artdi, u yig'lamoqda edi.

– Ko'p vaqtlardan beri qizimning bunday gaplarini eshitganim yo'q edi, ko'pdan beri u qo'ltig'imdand olmagan edi. Ha, ha, mana, o'n yil bo'libdiki, qizlarimning bittasi bilan ham yonma-yon sayr qilib yurmadim! Uning ko'ylagiga tegib ketish, qadamiga moslab qadam tashlash, badanining issig'ini his qilish qanday yoqimli! Bugun ertalab Delfinani hamma joyga kuzatib bordim. Do'konlarni aylandik. Uni uyigacha kuzatib qo'ydim. O, yaqiningizda yashashimga ruxsat bering! Ba'zan biror ishingiz chiqib qolishi mumkin, men esa yonginangizda bo'laman. Eh, o'sha elzaslik to'nka tezroq o'la qolsa edi, qani endi, baytalmon



kasali qorniga o'ta qolsa, qizim juda baxtli bo'lardi-da! Siz menga kuyov bo'lardingiz, ochiqdan ochiq uning eri bo'lardingiz. Qizim hanuzgacha bu dunyoning lazzatlarini totib ko'rgani yo'q, shunday baxtsizki, hamma ayblarini kechiraman. Xudo o'z farzandlarini yaxshi ko'radigan otalarni himoya qilishi kerak. – U jim bo'lib qoldi, keyin boshini chayqab, yana qo'shimcha qildi: – U sizni juda yaxshi ko'radi, juda! Yo'l-yo'lakay faqat sizni gapirdi: «Juda yaxshi yigit-a, to'g'rimi, dada, yuragi ham toza? Mening to'g'rimda ham hech gapiradimi?» D'Artua ko'chasidan Panorama rastasiga borgunimizcha siz to'g'ringizda olamjahon gaplarni gapirib berdi. Fifinamning men bilan endi yuragini ochib gaplashishi! Bugun ertalab baxtiyorligimdan qarilikni ham unutib yubordim, o'zimni qushdek yengil his qildim. Ming frank pulni menga berganingizni unga aytdim. Voy, oppoq qizim-ey! Ta'sirlanganidan ko'zlariga yosh oldi. Kaminingiz ustidagi anavi nima? – deb nihoyat ortiq toqat qilolmay so'rab qoldi Gorio ota, Rastinyakning qimirlamay to'xtab qolganini ko'rib.

Miyasi mutlaqo gangib qolgan Ejen qo'shnisiga baqrayib qarab turardi. Votrenning gapiga qaraganda, ertaga ertalabga tayinlangan o'sha duel uning endi ro'yobga chiqayotgan eng qimmatli orzularidan shu qadar keskin farq qilardiki, bularning hammasini u xuddi yomon tush ko'rgandek boshidan kechirdi. U kamin tarafga o'girilib, to'rt burchak g'ilofni ko'rib qoldi, uni ochib, ichida turgan bir varaq qog'ozga va qog'oz tagidagi Breget<sup>1</sup> soatiga ko'zi tushdi. Qog'ozga bunday deb yozilgan edi:

*«Har on, har soatda meni o'ylashingizni istayman,  
chunki...*

*Delfina».*

Oxirgi so'z bilan u o'z munosabatlarida bo'lib o'tgan biron hodisaga ishora qilgan bo'lsa kerak. Ejen iyib ketdi. Soatning oltin qopqog'i ichkarisiga emal bilan uning gerbi ishlangandi. Ko'pdan beri o'zi orzu qilib yurgan bu qimmatbaho buyum, uning zanjirchasi, kaliti, shakli va o'ymakor gullar hamma-

<sup>1</sup> Breget – Shveysariyada chiqariladigan soat turi.

si didiga juda monand edi. Gorio otaning og'zi qulog'ida edi. Albatta, u Ejenning bu sovg'adan qanday xursand bo'lib ketganini, qanday hayron qolganini qiziga gapirib berishni bo'yniga olgan edi, garchi uchinchi shaxs sifatida bo'lsa ham, yoshlarning hayajonlariga sherik edi, ammo o'zi ham ular singari g'oyat baxtiyor edi. U Ejenni ajoyib insoniy fazilatlari uchun ham, qizini baxtiyor qilgani uchun ham yaxshi ko'rib qolgan edi.

– Bugun kechqurun qizimning oldiga boring, u sizni kutib o'tiradi. Elzaslik to'nka kechqurun o'zining raqqosasinikida ovqat qiladi. Ishonchli vakilim unga hamma gapni ochib solganda, ovsar odamga o'xshab baqrayib qolganini bir ko'rsangiz edi! Tag'in u qizimni jon-dilidan yaxshi ko'rarmish! Qani unga qo'lini tekkizib ko'rsinchi, o'ldiraman qo'yaman! Delfinam uning qo'lida ekanini o'ylasam... (u chuqur xo'rsinib qo'ydi), jinoyat qilishdan ham o'zimni tiya olmayman, ammo uni o'ldirganim bilan odam o'ldirgan bo'lmayman, axir u buzoqning kallasi cho'chqaning tanasiga o'rnatilgandek bir narsa. Xo'sh, meni olib ketasizmi?

– Albatta, qimmatli Gorio dadajon, sizni yaxshi ko'rishimni o'zingiz yaxshi bilasiz-ku,

– Mendek hazar qilmasligingizni bilaman! Ruxsat eting, sizni bir o'pay! – U talabani mahkam quchoqladi. – Uni baxtli qilaman deb menga so'z bering! Kechqurun borasizmi uning oldiga?

– Bo'lmasam-chi! Faqat zarur ish bilan bir joyga borib kelishim kerak.

– Mening foydam tegmaydimi?

– Rost-a! Men Nusingen xonim huzurida bo'laman, ungacha siz kekxa Tayfer oldiga borib, juda muhim bir ish to'g'risida gaplashib olish uchun menga shu bugun kechqurun vaqt tayin qilishini so'rang.

– Hoy, yigit, demak, to'g'ri gap ekan-da bu? – dedi Gorio ota bir holatga tushib. – Pastdagi ahmoqlar aytgandek, rostdan ham uning qizi orqasidan ilakishib yuribsiz deyman-a? Yo qudratingdan! Gorioning mushtini tatib ko'rmagansiz hali! Bizni aldab yurgan bo'lsangiz, mana shu mushtim bilan sizni... O, bu aslo aqlga sig'adigan gap emas.

– Sizga qasamyod qilib aytamanki, dunyoda faqat bitta

ayolni yaxshi ko'raman, ammo shu bugunga qadar buni sezmay yurgan ekanman, – dedi Rastinyak.

– Qanday yaxshi! – deb yubordi Gorio ota.

– Ammo gap shundaki, – deb davom etdi talaba, – Tayferning o'g'li ertaga duelga chiqishi kerak, eshitishimcha, uni duelda o'ldirishadi.

– Sizga nima? – dedi Gorio.

– Otasiga aytib qo'yish kerak, o'g'lini yubormasin, – deb javob qildi Ejen.

Shu payt eshik orqasida ashula aytib yuborgan Votrenning ovozi uning gapini bo'ldi:

– Tark etmoqda hamma ham seni O, sen Richard, mening qirolim... Tak-tum, tak-tum, tum!

Kezib chiqdim butun dunyoni, Hamda ortiq baxtiyor bo'ldim... Lay-la-la-la-lum...

– Janoblar, – deb qichqirdi Kristof, – sho'rva tortildi, hamma dasturxon atrofiga to'plandi!

– Menga qara, – dedi unga Votren, – borib, mening xonamdan bir shisha bordo<sup>1</sup> olib chiq.

– Soat sizga yoqdimi? – deb so'radi Gorio ota. – Qizimning didi yaxshi.

Votren, Gorio ota va Rastinyak pastga birga tushdilar va dasturxonga kechikib kelganlari uchun yonma-yon o'tirib qoldilar. Voke xonimning ta'biri bilan aytganda, umuman yoqimtoygina bo'lgan bu Votren bugun ayniqsa ochilib ketgan bo'lishiga qaramay, Ejen u bilan nihoyatda sovuq muomala qildi. U askiyani avjiga chiqarib hamma xo'randalarning ruhini ko'tardi. Uning o'ziga bu qadar ishonishi, bu qadar sovuqqonligi Rastinyakni vahimaga solardi.

– Bugun sizga nima bo'ldi asti? – deb so'radi Voke xonim. – Judayam xursand ko'rinasiz.

– Yaxshi bitim tuzganimdan keyin doim xursand bo'laman.

– Bitim? – deb so'radi Ejen.

– Ha-da! Bir to'p molni pulladim, endi komission<sup>2</sup> haq

<sup>1</sup> Bordo – vino nomi.

<sup>2</sup> Komission (lotincha: commissio – topshirish; topshiriq) – vositachilik (bitishtiruvchilik) rolini o'ynovchi; molni komissiyaga topshiruvchi.

olishga to'la huquqim bor. – Mademuazel Mishono unga qarab-qarab qo'yayotganini sezib, Votren unga o'girildi: – Mademuazel Mishono, hadeb ko'z'laringizni menga tikib qoldingiz. Yo yuzimda biror narsa sizga yoqmayapti. mi? Ochig'ini aytavering! Sizga yoqish uchun men... Xo'sh, Puare, bu borada siz bilan urishib qolmaymizmi? – dedi u qari chinovnikka ko'z qisib.

– Yo tavba, yarmarka Gerkulesi<sup>1</sup> degan rasm uchun sizdan nusxa olsa bo'larkan! – deb yubordi rassom.

– Mayli! Mademuazel Mishono ham qabriston Venerasi rasmini o'zidan olishga ruxsat bersa, men roziman, – dedi Votren.

– Puare-chi? – deb so'radi Byanshon.

– O, Puaredan faqat Puare rasmini olish mumkin! – dedi Votren. – Bog'lar va polizlar xudosining tap-tayyor rasmi bo'ladi qo'yadi. Silviyaning talaffuzi to'g'ri bo'lsa, uning nomi «porey» degan so'zdan kelib chiqqan-da.

– Iye, irigan piyozdan deng-a! – deb gapni ilib ketdi Byanshon. – Ana sabzavot!

– Bularning hammasi bema'nilik, – deb gapni kesdi Voke xonim. Undan ko'ra anavi uchi ko'rinib turgan shishadagi bordodan quyib bizni mehmon qiling. Ruhimizni yana ham ko'tarishga shu yordam beradi. Bundan tashqari qornimizga ham foydali.

– Muhtaram janoblar, – deb hammaga murojaat qildi Votren, – raisamiz bizni tartibga chaqiryapti. Kutyur xonim bilan mademuazel Viktorina yengiltak suhbatingizdan xafa bo'lishmaydi, ammo Gorio otaning soddaligiga rahmingiz kelsin. Men sizlarga bir shisharama bordo ichishni taklif qilaman, Lafit<sup>2</sup> nomi bilan bog'liq bo'lgani uchun bu vino ikki hissa mashhurdir, gapimni siyosatga ishora deb qabul qilmasligingizni so'rayman. Qani, hey, tentakvoy! – deb qichqirdi u, joyidan qimirlamay turgan Kristofga. – Beri kel, Kristof, Bu nimasi? Otingni esingdan chiqarib qo'ydingmi? Keltir vinoni, tentak!

– Marhamat, – dedi Kristof, unga shishani uzatib.

Ejen bilan Gorio otaning stakaniga to'ldirib vino qo'y-

<sup>1</sup> Gerkules – yunon afsonalari qahramoni Geraklning lotincha nomi.

<sup>2</sup> «Lafit nomi bilan bog'liq bo'lgani uchun bu vino ikki hissa mashhurdir» – so'z o'yini: Lafit – qizil vinoning bir navi; Jak Lafit (1767-1844) – fransuz bankiri va siyosiy arbob; Iyul inqilobi paytida orleanlik Lui-Filippni taxtga o'tirishiga ko'maklashgan; Lui-Filipp qirol bo'lgan paytida Fransiyada yirik moliya burjuaziyasining hukmronligi boshlandi.

gach, Votren o'z stakaniga shoshilmay bir necha tomchi quydi, qo'shnilari vinoni ko'tarib ichishar ekan, u o'z vinosini faqat tatib ko'rdi-da, birdan basharasini burishtirdi.

– Eh, jin ursin! Po'kak mazasi kelyapti! Buni o'zingga ola qol, Kristof, bizga boshqasidan olib kel, o'ng tarafda turganidan, bilasanmi? Biz o'n olti kishimiz, sakkiz shishasini olib kel.

– Siz shunchalik saxiy ekansiz, yuzta kashtan yong'og'i mendan, – dedi rassom.

– Ho! Ho!

– Ehe!

– Brr!

Hamma xo'randalar chekka-chekkadan baqirib-chaqirib, o'z shodliklarini bildira boshladilar.

– Qani, onaxonimiz Voke, ikki shisha shampan<sup>1</sup> vinosidan qo'ying siz ham! – deb qichqirdi Votren.

– Ko'nglingiz yana nimalar xohlaydi! Butun uyimni qo'yib qo'ya qolay! yigirma frank-a! Bunaqada xonavayron bo'lish hech gap emas! Yo'q! Ammo pulini janob Ejen to'lasa, qora smorodina arog'idan qo'yaman.

– Qora smorodina arog'i shumurt<sup>2</sup> arog'i singari qorin og'ritadi, – dedi sekingina Byanshon.

– Jim. Byanshon, – dedi Rastinyak, – shumurt degan so'zni eshitishga tobim yo'q, nomini eshitishim bilanoq qornimga og'riq kiradi... Yaxshi, shampan vinosiga men pul to'layman! – deb qichqirdi talaba.

– Silviya, biskvit<sup>3</sup> bilan vaflya<sup>4</sup> olib keling.

– Vaflyalaringiz eskirib, kafelga aylanib ketgan. Biskvitlarni esa, olib keling dasturxonga! – dedi Votren.

Vino o'rtaga qo'yildi, xo'randalarga jon kirdi, xursandchilik yana ham avjiga chiqdi. Hamma xaxolab kular, qar xil

<sup>1</sup> **Shampan** (*fransuzcha*: champagne – Fransiyadagi ayni vino dastlab rasm bo'lgan Shampan viloyati nomidan) – karbonat angidrid gazi bilan to'yintirilib, germetik idishda qayta achitilgan uzumdan solingan, ko'piklanib vijillab turadigan vino.

<sup>2</sup> **Shumurt** – shox-shabbalari keng, gullari xushbo'y hidli, rezavor mevali, ra'nodoshlar oilasiga mansub daraxt yoki buta.

<sup>3</sup> **Biskvit** (*fransuzcha*: biscuit) – 1) qandolatchilik mahsuloti; un, yog', shakar, tuxum, sut va boshqa masalliqlardan tayyorlanadigan pishiriq turi. Maxsus shakllardagi qolip idishlarda pishiriladi.

<sup>4</sup> **Vaflya, vafil** – katak-katak yupqa pechenye.

jonivorlarga taqlid qilib qichqirishardi. Muzey xodimi mov bo'lgan mushukning ovozigga o'xshatib miyovlab yubordi, uning ketidan darrov sakkiz kishi og'ziga kelganini qaytarmay baqira boshladi:

- Qaychi, pichoq charxlayman!
- Sayratma qushlarga in!
- Obakidandon<sup>1</sup>, lablari qantdan!
- Chini idish chegalayman!
- Ustritsaga<sup>2</sup> kep qoling, ustritsaga!
- Eski-tuski olaman! Eski-tuski!
- Olcha ketdi! Shirin olcha!
- Soyabon, kimga soyabon!

Ammo eng o'tkir gapni Byanshon topdi, u dimog'ida po'ng'illab.

– Tayoq ketdi, kimga tayoq – xotin urishga ham, chang qoqishga ham yarayveradi! – deb qichqirib, birinchilikni olib ketdi.

Bir necha daqiqa davom etgan bunday shovqin-surondan kishining boshi tars yorilar darajaga keldi, go'yo bu nima deyilayotganini tushunib bo'lmaydigan chinakam opera edi-yu, unga Votren dirijyorlik<sup>3</sup> qilayotgan edi; dirijyor ayni vaqtda, aftidak, allaqachon kayfi oshib qolgan Ejen bilan Gorio otadan ko'zini uzmasdi. Ikkovlari ham stulga suyanib olib, haddan tashqari avjga chiqqan bu shovqin-suronga jiddiy qarab o'tirishar va kam ichishardi: ularni bugun kechqurun qilishmoqchi bo'lgan ishlari tashvishga solmoqda edi, lekin o'rinlaridan turib ketish uchun madorlari yo'q edi. Votren ularni yer ostidan kuzatarkan, chehralarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni nazardan qochirmay o'tirardi, ularning ahvoli shu darajaga bordiki, ko'zlari yumilay-yumilay deb pirillay boshladi, shunda Votren payt poylab turib,

<sup>1</sup> **Obakidandon** (*forscha*: suyuq, suvli+tish) – shakar qiyomidan tayyorlangan shirinlik turi.

<sup>2</sup> **Ustritsalar** (*Ostreidae*) – dengiz ikki pallali molluskalari oilasi. Chig'anog'ining balandligi 45 santimetrgacha, to'garak yoki oval – ponasimon shaklda, tishsiz. Muskullari yeyitadi. Maxsus dengiz plantatsiyalarida (asosan, Yaponiya, Amerika, Fransiyada) ko'paytiriladi.

<sup>3</sup> **Dirijyor** (*fransuzcha*: diriger – yo'naltirish, boshqarish, rahbarlik qilish) – musiqa ijrochiligi san'atining murakkab turi; musiqa asarini ijroga tayyorlash jarayonida hamda bevosita tinglovchi – tomoshabinlar oldida ijrochilar (orkestr, xor, ansambl, opera, balet jamoalari va boshqalar) ga rahbarlik qiluvchi shaxs.

Ejenning qulog'iga dedi:

– Ish mana bunaqa bo'ladi, shovvoz, Votren amakingiz bilan olishmoq uchun hali yoshlik qilasiz, u esa sizni juda yaxshi ko'radi va tentaklik qilishga yo'l qo'ymaydi. Men bir qarorga keldimmi, tamom – yolg'iz xudo yo'lmdan qaytara oladi. Ha! Ha! (Siz kekxa Tayferni ogohlantirib, maktab bolalariga munosib xatoga yo'l qo'ymoqchi edingiz! Tandir qizib turibdi, xamir oshgan, non yopishga tayyor, ertaga uni ikki lunjimizni to'ldirib yeya beramiz. Shunday ekan, nega endi uni yopmay o'tirar ekanmiz, yo'q, yo'q, yopamiz! Agarda bironta vijdon azobiga uchragudek bo'lsak, u ham hazm qilish paytida o'tib ketadi. Endi esa, to polkovnik graf Frankessini Mishel Tayferning merosini shamshirining tig'i bilan bizga olib berguncha, jindek mizg'ib olamiz. Akasi o'rniga merosxo'r bo'lib qolgandan keyin Viktorina yiliga o'n besh minglik daromadga ega bo'lib oladi. Men allaqachon surishtirib bildim, onasidan qolgan meros ham uch yuz mingdan ortiq ekan.

Ejen uning gapini eshitib turardi-yu, ammo javob qaytarishga qodir emas edi: tili tanglayiga yopishib qolgan, uni uyqu elitardi, dasturxon ham, uning atrofida o'tirgan xo'randalar ham unga allaqanday tuman orasida xira ko'rinardi. Sekin-asta shovqin-suron tindi, xo'randalar birin-ketin tarqala boshlashdi. Xonada faqat beva Voke, Kutyr xonim, mademuazel Viktorina, Votren va Gorio ota qolishganidan keyin, Ejen uyqu aralash Vokening hamma shishalarni yig'ib, tagida qolgan vinolarni sirqitib bir shishaga quyayotganini ko'rib o'tirdi.

– Ah, qanday tentak, qanday g'o'r-a ular! – derdi Voke.

Ejen ma'nosiga tushuna olgan oxirgi gap mana shu bo'ldi.

– Bunaqa ishda hech kim janob Votrenga teng kela olmaydi, – dedi Silviya. – Eshityapsizmi, Kristof ham xuddi g'irg'irakka o'xshab g'o'ldirab qolibdi.

– Xayr, salomat qoling, onaxon, – dedi Votren. – Xiyobonga borib «Yovvoyi tog'»da o'ynayotgan Martini<sup>1</sup> bir tomosha qilib kelmoqchiman. «Uzlatga chekilgan»ni shu nomda katta pesa qilishyapti. Xohlasangiz, sizni ham, o'zimizning xonim-

<sup>1</sup> Marti – «Gete» teatrining aktyori – «Xilvat tog' yoki Burgundiya Gersogi» fransuz dramaturgi Gilberde Piksererekurning (1773-1844) pesasi bo'lib, u realist yozuvchi Sharl d'Arlenkurning (1789-1856) «Darvesh» nomli romani asosida yozilgan.

larimizni ham birga olib boray.

– Tashakkur, biz bormaymiz, – dedi Kutyur xonim.

– Nega unday qilasiz, qo‘shni? – deb yubordi Voke. – Nahotki «Uzlatga chekilgan»ning sahnaga qo‘yilganini ko‘rishdan bosh tortsangiz? Axir, u Shatobrianning «Atala»siga<sup>1</sup> o‘xshagan narsa-ya! Bulturlari uni armug‘on ostida o‘qishni biram yaxshi ko‘rardikki, o‘qiganda bamisoli Magdalina singari yig‘lardik, – shunday ajoyib narsa u! Juda ma‘naviy asar, qizingizga ham juda o‘rnak bo‘ladigan narsa.

– Teatr ko‘nglimizga sig‘maydi hozir, – dedi Viktorina.

– Ana, tappa-tayyor bo‘lishdi, – deb qo‘ydi Votren, Ejen bilan Gorio otaning boshlarini qiziq bir tarzda burib qo‘yib.

Votren talabani boshini qiynalmay uxlashi uchun stul suyanchig‘iga suyab qo‘yib, mehr bilan uning peshonasidan o‘pdi va kuylab qo‘ydi:

Uxla, orom olgin sevgilim,

Men bor, tinching buzolmas hech kim!

– Kasal bo‘lib qolmasa edi deb qo‘rqaman, – dedi Viktorina.

– Bo‘lmasa siz unga qarab turing, – deb javob qildi Votren. – Vafodor xotin sifatida, bu sizning burchingiz, axir, – deb qizning qulog‘iga shivirlab qo‘ydi. – U sizni juda yaxshi ko‘radi, siz uning sevimli xotini bo‘lasiz hali, oldindan bashorat qilib aytib qo‘ya qolay. Shunday qilib, – dedi u ovozi baland ko‘tarib, – ular hammaning hurmatiga sazovor bo‘lishib, baxtli hayot kechirishib, uvali-juvali bo‘lishib, murod-maqсадlariga yetishibdi. Ishqiy romanlarning hammasi mana shunday tugaydi. Qani, onaxon, – dedi u o‘girilib beva Vokeni quchoqlar ekan, – shlyapangizni, ko‘chaga kiyadigan gulli ko‘ylagingizni kiying, grafinyalar o‘raydigan sharfingizni o‘rang. Sizga izvosh olib kelgani shaxsan o‘zim boraman. – Shunday dedi-yu, qo‘shiq aytib, chiqib ketdi:

*Quyoshingda, yaratgan Olloh,  
Tez pishadi hatto oshqovoq.*

<sup>1</sup> Shatobrianning «Atala»si – Fransiyaning reaksion romantik yozuvchisi Shatobrianning (1768-1848) qissasi; bu asarda indeys qiz Atala bilan indeys Shaktas o‘rtasidagi muhabbat tarixi g‘oyat ta’sirchan jumlatlarda hikoya qilinadi.



– Xudo haqqi, Kutyur xonim, mana shunday odam bilan tovuq katagida tursam ham baxtli bo‘lardim! Gorio ota ham mast bo‘lib qoldi-ya! – deb gapini davom etdirdi Voke, vermishelchi tarafga o‘girilib. – Bu xasis chol meni biror joyga bir marta ham taklif qilmabdi-ya! Voy tavba! Hozir yerga yiqilib tushadi-ku! Keksa odamning es-hushini yo‘qotib qo‘yguncha ichishi yaxshi emas. Ammo esi o‘zi, tagida bo‘lmagandan keyin, nimasini ham yo‘qotardi. Silviya, cholni o‘z xonasiga chiqarib qo‘yinglar!

Silviya cholning qo‘ltig‘iga kirib, uni xonasiga olib chiqdi va yechintirib ham o‘tirmay, qopni tap etib tashlagandek, karavotiga ko‘ndalangiga yotqizib chiqaverdi.

– Bechora yigit, – dedi Kutyur xonim, Ejenning ko‘ziga tushib turgan sochlarini to‘g‘rilab, xuddi qiz bolaga o‘xshaydi-ya: ortiqcha ishratga odatlanmagan-da.

– O, mana, o‘ttiz bir yil bo‘libdiki, pansionni boshqarib kelaman, bu vaqt ichida qo‘limdan qanchadan qancha yigitlar o‘tmadi deysiz! – dedi beva Voke. – Ammo janob Ejendek yoqimtoy, tarbiya ko‘rgan yigitni hali shu vaqtgacha ko‘rganim yo‘q. Uxlaganda biram chiroyli bo‘lib ketarkanki! Kutyur xonim, boshini yelkangizga ko‘yib oling. E, uning boshi mademuazel Viktorinaning yelkasiga og‘ib ketyapti-ku! Bolalarni xudoning o‘zi asraydi: sal bo‘lmaganda, boshini stulga urib yorardi. Eh, qanday yaxshi er-xotin bo‘lishadi!

– Bas qiling, tasadduq, – deb yubordi Kutyur xonim, – shunday gaplarni gapiryapsizki...

– Uyqusida eshitib o‘tiribdimi-ya, – dedi beva Voke, – Silviya, yur, men kiyinishim kerak. Korsetning enligini bog‘lamoqchiman.

– Ana xolos! Ovqatdan keyin enlik korset bog‘lab bo‘larkanmi-ya? – deb e‘tiroz bildirdi Silviya. – Yo‘q, uni tortgani boshqa odam toping: qotilingiz bo‘lishni istamayman. Bunaqada o‘lib qolish ham hech gap emas,

– Baribir, janob Votrenning so‘zini yerda qoldirish yaxshi emas.

– Bundan chiqdi, merosxo‘rlaringizni judayam yaxshi ko‘rar ekansiz-da?

– Bas, Silviya, yetar shuncha gap sotganing, – dedi o‘z

xonasiga chiqib ketar ekan beva.

– Shu yoshida korset taqmokchi-ya! – dedi Silviya Viktorinaga bekasini ko'rsatib.

Yemakxonada, Ejenning yonida Kutyur xonim o'z tarbiyasidagi qiz bilan yolg'iz qoldi. Ejen Viktorinaning yelkasiga bosh qo'yib uxlab yotardi. Kristofning xurragi jimlik cho'kkan uyni boshiga ko'tarar, bolalardek xotirjam va chiroyli pishillab uxlab yotgan Ejen diqqatni tortardi. Viktorina baxtiyor edi: u ayollik mehrini berib, savob bir ishga berilishi, hech qanday og'ir gunoh orttirmay, yonginasidagi yigitning yuragi urishiga quloq solib o'tirishi mumkin edi, yuzida onalarga xos allaqanday mehribonlik va bu mehribonlik oqibatida hosil bo'lgan g'urur hislari aks etib turardi. Yuragida tug'ilgan qar xil fikrlar orasidan yosh yigitning iliq va musaffo nafasidan uyg'ongan jo'shqin ehtiroslar bo'roni qaynab chiqardi.

– Bechora qizim! – dedi Kutyur xonim Viktorinaning qo'lini qisib.

Keksa xotin uning ko'p iztirob chekkan, begunoh chehrasining hozir baxtiyorlik shu'lasidan yorishib ketganini tomosha qilib o'tirardi. Viktorina qadimiy sanamga o'xshab ketardi; odatda, rassom bunday rasmni chizishda uning hamma tafsilotlariga ko'p e'tibor berib o'tirmay, xotirjam va ulug'vor mo'y qalamining butun sehrli kuchini sanamning xiyla sarg'ish tusda bo'lsa dam, shu sarg'ishligi bilan go'yo samoning zarrin shu'lasini o'zida aks ettirayotgandek tovlanuvchi chehrasini tasvirlashga sarflagan edi.

– Onajon, axir, u ikki stakandan ortiq ichgani ham yo'q-ku, – derdi Viktorina, Ejenning sochini silar ekan.

– Agar aroqxo'r bo'lganida, boshqalarga o'xshab pisand qilmay ichaverardi, – deb javob qildi Kutyur xonim. – Mast bo'lib qolgani yaxshi yigitligidan dalolat beradi.

Ko'chadan arava ovozi eshitildi.

– Onajon, bu janob Votren. Janob Ejenni ushlab turing. O'sha odam meni mana shu ahvolda ko'rishini istamayman: u shunday gaplarni gapiradiki, odamning imoni qochadi, uning ayol kishiga qarashi ham qandaydir dahshatli, go'yo uni yechintirib qarayotgandek tuyuladi.

– Yo'q, yanglishasan, – deb e'tiroz bildirdi Kutyur xonim.

– Janob Votren yaxshi odam, u qisman mening rahmatlik erimga o‘xshab ketadi: o‘zi dag‘alroq odam-u, ammo ko‘ngli pok ayiqqa o‘xshaydi.

Shu payt sekingina Votren kirib keldi va qarshisidagi manzaraga, chiroq yorug‘ida guldek yashnab o‘tirgan ikkala yoshga ko‘zi tushdi.

– Mana shunday manzara, – dedi u qo‘lini ko‘kragiga chalishtirib, – «Pavel za Virginiya»ning<sup>1</sup> muallifi muhtaram Bernarden de Sen-Perni ajoyib qissalar yozishga ilhomlantirgan bo‘lardi. Yoshlik qanday ajoyib narsa, a, Kutyr xonim! Uxla, o‘g‘lim, – deb qo‘ydi u Ejenga qarab, – ba‘zan eng yaxshi narsalarni tushida ko‘radi kishi. Xonim, – dedi u, bevaga o‘girilib, – bu yigitning qalbi bilan chehrasining bir xilda go‘zalligi meni mahliyo qilib qo‘ydi. Qarang: farishta yelkasiga bosh qo‘yib uxlab qolgan eng oliy malak-ku. Yaxshi ko‘rsa arziydigan yigit! Ayol kishi bo‘lsam, uning yo‘lida jon-jon deb o‘zimni fido qilib yuborardim (yo‘g‘-e, unchalik ahmoq emasman!), uning uchun yashagan bo‘lardim. – Keyin bevaning qulog‘iga engashib, shivirladi: – Bularni tomosha qilganim sari, xudo ikkovini bir-biri uchun yaratgan, degan fikrdan o‘zimni tiya olmayapman, Taqdirning yo‘llari ko‘p sirli yo‘llar, u odamlarning yuragi-yu belini ko‘p sinovlardan o‘tkazadi, – dedi u, endi baland ovoz bilan, – Siz yoshlar ham qalbingizning, ham barcha insoniy xislatlaringizning pokligi bilan bir-biringizga shu qadar yaqinsizki, ikkovlaringga tikilib turib, o‘zimga-o‘zim: kelgusida ham sizlar hijron nimaligini bilmaysiz, deb aytaman. Xudo yorlaqasin! Haya! – dedi u qizga qarab. – Esimda, bir vaqt men qo‘lingizda baxt chiziqlari borligini ko‘rib qolgan edim. Mademuazel Viktorina, qo‘lingizni menga bering. Folbinlikdan ham uncha-muncha xabarim bor, fol ochishga ham bir necha marta to‘g‘ri kelgan edi. Qani, qo‘rqmay beravering! O, buni qarang-a! Xudo haqqi, siz hademay Parijdagi eng badavlat merosxo‘rlardan biri bo‘lib qolasiz. Yaxshi ko‘rgan yigitingizni haddan ziyod baxtiyor qilasiz... Sizni otangiz olib ketadi. Tagli-taxtli, chiroyli, yosh yigitga turmushga chiqasiz, u sizni boshiga ko‘tarib yuradi.

Noz-karashma bilan pastga tushib kelayotgan bevaning

<sup>1</sup> «Pavel va Virginiya» – Jan-Jak Russoning do‘sti bo‘lmish fransuz yozuvchisi Bernarden de Sen-Perning (1737-1814) Sentimental-idillik romani.

og'ir qadam tovushlari Votrenning folini uzib qo'ydi.

– Ana, onaxonimiz Voke ham tushib qoldilar, juda soz, xuddi yulduzidek charaqlab ketibsiz, qamishidek ingichka tortib ketibsiz. O'zimizni sal-pal bo'g'ib qo'yganimiz yo'qmi? – deb so'radi u bevaning korset taqqan yering ustidan paypaslab ko'rib. – Qo'ltig'ingiz tagini, onaxon judayam tortib yuboribsiz. Xudo ko'rsatmasin, portlash yuz bergudek bo'lsa yomon xarob bo'lalmiz-da: men-ku, albatta, yig'ishtirib olaman-a, yodgorliklarni yig'ib yuradigan odamlardek parcha-purchalaringizni bittalab yig'ishtirib olaman-a.

– Fransuzlarga xos ehtiromni mana shu odam biladi-da! – dedi beva Kutyr xonim qulog'iga.

– Salomat qolinglar, bolalarim, – dedi Votren, Viktorina bilan Ejen tarafga o'girilib. Keyin qo'lini ikkalasining boshi ustiga qo'yib qo'shimcha qildi: – Qo'sha qaringlar. Menga ishonavering, mademuazel, halol odamning fotihasida gap ko'p, u baxt keltiradi. Bunday odamning duosi xudoga ham yetadi.

– Omon bo'ling, tasadduq, – dedi Voke xonim, Kutyr xonimga. So'ng pichirlab ilova qildi: – Janob Votrenning menga nisbatan biror jiddiy niyati yo'qmikin-a, nima deb o'ylaysiz?

– Hm! Hm!

Ikkala ayol yolg'iz qolishgandan keyin Viktorina kaftiga qarab turib dedi:

– Oh, onajon, qani endi, janob Votrenning aytganlari to'g'ri chiqsa!

– Buning faqat bitta yo'li bor: anavi jodugar akang otdan uchib ketishi kerak, – dedi qari xonim.

– O onajon!

– Xudoyo tavba, dushmanga yomonlikni ravo ko'rish, balki, gunohdir, – dedi beva. – Nachora, bu gunohim uchun tavba qilaman, albatta! Rostini aytsam, uning qabriga chin yurakdan guldasta qo'ygan bo'lardim. Noinsof! Onasi to'g'risida bir og'iz gap aytishga yuragi betlamaydi-ya, axir, u hiyla-nayrang bilan seni chetga surib, onasidan qolgan merosni o'ziniki qilib oldi. Onang rahmatlikning durustgina davlati bor edi. Baxting kelmagani qaraki, nikoh bitimida shu to'g'rida biror narsa deb qistirib o'tish hech kimning xayoliga ham kelmagan.

– Birovning hayoti hisobiga boy-badavlat bo'ladigan

bo'lsam, unday davlatdan foydalanish menga og'ir botardi, – dedi Viktorina. – Baxtli bo'lishim uchun akamning o'lishi shart bo'lsa, unda umr bo'yi shu yerda qolishni afzal ko'raman.

– Yo rabbiy! Bu muhtaram janob Votrenning xudojo'y odam ekanini o'zing ham ko'ryapsan, – dedi Kutyur xonim, – uning shaytondan ham battar hurmatsizlik bilan xudoni tilga oladigan shakkoklardan emasligini ko'rib, juda xursand bo'ldim. Ana shu janob Votren, peshonamizga nima yozilganini hech kim bilmaydi, dedi.

Silviyaning yordami bilan ikkala ayol Ejenni o'z xonasiga olib kirib, joyiga yotqizib qo'ydilar; oshpaz xotin u qiynalmasin deb, yoqasining tugmalarini yechib qo'ydi. Chiqib ketish oldidan, Viktorina Kutyur xonimning orqasiga o'girilganidan foydalanib, gunohga qolishiga qaramay, Ejening peshonasidan bir o'pib, xumordan chiqdi. U yigitning xonasini bir ko'zdan kechirdi, bugun kechirgan barcha shirin hayajonlarini bitta fikr bilan mujassamlashtirib, o'sha manzarani ko'z oldiga keltirgancha uzoq vaqt o'ylanib yotdi va o'zini Parijning eng baxtiyor qizi deb hisoblagancha uxlab ketdi.

Votren Ejen bilan Gorioga uxlatadigan dori aralashtirilgan vino ichirish uchun bugungi bazmni ataylab uyushtirgan edi, ammo bu ishi o'zining ham boshiga yetdi. Shirakayf bo'lib qolgan Byanshon mademuazel Mishonodan Ajalni aldar to'g'risida so'rashni unutib qo'ydi. Agarda Byanshon o'sha laqabni tilga olganda, bu bilan, shubhasiz, Votrenni yoki surgun qilinganlar ichida eng dongdorlaridan biri bo'lgan bu odamni, o'z nomi bilan ayt sak, Jak Kollenni hushyor tortishiga sabab bo'lardi. Buning ustiga yana, mademuazel Mishono Kollenning qo'li ochiqligidan umid qilib, uni ogohlantirib qo'ya qolay, shu bugun kechasiyoq g'oyib bo'lsin, deb turganida, birdan Votren uni qabriston Venerasi deb qoldi-yu, shundan keyin qari qiz uni politsiyaga tutib berishga ahd qildi. Shu zahotiyoyoq u Puare kuzatuvida uydan chiqib, Sent-Ani tor ko'chasiga, qidiruv politsiyasining mashhur boshlig'i oldiga qarab ketdi; u yana Gondyuro ismli chinovnik bilan uchrasharman deb o'ylagan edi, uni esa juda ochiq chehra bilan qidiruv politsiyasi boshlig'ining o'zi qabul qildi. U bilan suhbatda mademuazel Mishono hamma shartlarini aniq ifodalab berib, tamg'a rostdan ham bormi yo yo'qligini tekshirib ko'rish

uchun o'sha va'da qilingan dorini berishlarini iltimos qildi. Sent-Ani tor ko'chasida katta nufuzga ega bo'lgan mana shu odam yozuv stolining g'aladonlarini<sup>1</sup> tortib, kichkina shishani axtarar ekan, uning yuzida aks etgan mamnunlikdan mademuazel Mishono, Votrenni qamoqqa olish surgundan qochgan oddiy bir qochoqni ushlagandan ko'ra muhimroq ish ekanini tushundi. U miyasini ishlatib ko'rib, politsiya surgunda yotib xoinlik qilganlarning ba'zi bir guvohliklari asosida juda katta mablag'ni qo'lga tushirmoqchiga o'xshaydi, degan taxminga keldi. U o'zining ana shu taxminlarini boshliqqa bayon qilgan edi, u kulib yubordi va qari qizning ko'nglini tinchitishga oshiqdi.

– Yanglishasiz, – dedi u. – Kollen o'g'rilar dunyosida shu vaqtgacha uchramagan eng xavfli sorbonna. Bor gap shu. Buni hamma ablahlar yaxshi bilishadi; u ularning bayrog'i, tayanchi, qisqasi, ularning Bonaparti; hammasi uni yaxshi ko'rishadi. Bunday epchil odam hech vaqt Grev maydonida<sup>2</sup> o'z to'nkasini tashlab ketmaydi.

Mademuazel Mishono uning gapiga tushunmadi; shundan keyin Gondyuro o'g'rilar tilidan olingan bu so'zning ma'nosini tushuntirib berdi. «Sorbonna» va «to'nka» o'g'rilar tilidagi ikkita kuchli ifoda: kishi kallasiga ikki xil nuqtai nazardan qarash kerakligini eng oldin o'g'rilar his qilishgan. «Sorbonna» – tirik odamning kallasi, uning maslahatchisi, fikri. «To'nka» esa – o'sha kallaning kesilgandan keyingi nomi, kalla kesilib, ojiz bo'lib qolgandan keyin ana shunday nafratli ism oladi.

– Kollen bizni mayna qilyapti, – deb gapida davom etdi u. – Biz ingliz po'latidan qilingan g'o'ladek pishiq odamga duch kelib, uni qamoqqa olmoqchi bo'lganimizda salgina qarshilik ko'rsatgudek bo'lsa ham, uni o'ldirish imkoniyatiga egamiz. Ertaga ertalab Kollenni o'ldirmoqchi ekanmiz, uning qarshilik ko'rsatishiga aminmiz. Agar shunday qilsak, na uni sud qilish, na saqlash va qo'riqlashga xarajat kerak bo'ladi, jamoatchilik hamma tashvishlardan xalos bo'ladi. Sud qilish ishlariga, guvoh-

<sup>1</sup> **G'aladon** (*arabcha+forscha*; g'alla idishi, don saqlanadigan joy) – 1) omborda g'alla (don, un) saqlash uchun atrofi o'ralgan joy; 2) stol, javon va shu kabilarning narsa solib qo'yiladigan tortmasi, yashigi (**bu yerda shu ma'noda**); 3) pul yoki mayda buyumlar saqlash uchun xizmat qiladigan yashik, quticha.

<sup>2</sup> **Grev maydoni** – Parijdagi maydonlardan biri – bu yerda olomon ko'z oldida qat'i marosimi o'tkazilardi.

larga, ularning sarf-xarajatlariga pul to'lash, qatl qilish – qisqasi, bunday ablahlardan qar birini qonuniy yo'l bilan bir yoqlik qilish uchun zarur bo'lgan pul xarajatlari sizga beriladigan ming ekyudan ancha ortib ketadi, qancha vaqt tejab qolishimiz to'g'risida-ku, gapirmay ham qo'ya qolay. Ajalni aldarning qorniga nayza sanchib, biz yuzlab jinoyatlarning oldini olamiz va yuzlab ablahlarning yaramas bo'lib ketishiga yo'l qo'ymaymiz, ular axloq tuzatuvchi politsiya ko'magida es-hushlarini yig'ib oladilar, Mana shuni «yaxshi tashkil qilingan politsiya» deb aytamiz. Haqiqiy filantrop<sup>1</sup> fikricha, – mana shunday yo'l tutish – jinoyatning oldini olish bo'ladi.

– Shu bilan birga bu – vatanga xizmat qilish bo'ladi! – dedi Puare.

– Bugun juda bama'ni gapiryapsiz, – dedi politsiya boshlig'i. – Ha, shubhasiz, biz o'z mamlakatimizga xizmat qilamiz. Odamlar esa, biz to'g'rimizda noto'g'ri fikr yuritishadi. Biz jamiyatga juda katta xizmatlar ko'rsatyapmiz, ammo buni hech kimga bildirmay qilamiz. Shunga ko'ra tafakkur aqli bid'atlardan uzoqroqda bo'lishi kerak, xristian aqli esa, umum jamiyat manfaatlari foydasini ko'zlab qilinayotgan ishlar natijasida ham baxtsizliklar ro'y berishi mumkinligiga ko'nishi kerak. Tushuning, Parij – Parijligicha qoladi! Mening hayotimning isboti ham – ana shunda. Ertaga men o'z odamlarim bilan qirol bog'ida shay bo'lib turaman. Xayr, salomat bo'ling, xonim. Krestofni Byuffon ko'chasidagi o'zingiz men bilan gaplashgan o'sha uyga – Gondyuro huzuriga yuboring. Kamtarin qulingizman, taqsir. Qachon bo'lmasin, uyingizni o'g'ri urib ketsa, mening oldimga kelaveringlar, o'g'irilatgan narsalaringiz topib beriladi: xizmatigingizga hozirman.

– «Politsiya» degan so'zning o'zidan joni chiqib ketadigan befahmlar bor-a, – derdi Puare, mademuazel Mishonoga. – Buncha ham xushmuomala janob ekan, sizdan iltimos qilayotgan narsasi esa, oppa-oson narsa.

Ertangi kun «Voke uyi» tarixiga favqulodda bir kun bo'lib kiradigan bo'ldi. Bundan oldin bu sokin pansion hayotida diqqatga sazovor bo'larli voqea – grafinya de l'Ambermenilning xuddi

<sup>1</sup> **Filantropiya** (*yunoncha*) – yordamga muhtoj insonlarga yordam beruvchi shaxslar haqidagi falsafiy ta'limot. **Filantrop** – xayr-ehson qilish bilan shug'ullanadigan shaxs.

yalt etib yonib o'chgan yulduzdek kelib ketishi bo'lgandi. Lekin bu voqealarning hammasi, ulug' ayyomda yuz berib, keyinchalik Voke xonimning og'zidan tushmay qolgan voqealar oldida hech gap bo'lmay qolishi kerak. Avvalambor, Ejen bilan Gorio soat o'n birgacha uxlab qolishdi. Bevaning o'zi ham Gete teatridan yarim kechada qaytib kelib, ertalab soat o'n yarimgacha o'rnidan turmadi. Votren bergan shishada qolgan vinoni ichib olgan Kristof rosa qotib uxlagani natijasida, pansiondagi hayot o'z izidan chiqib ketdi. Puare bilan mademuazel Mishono nonushta kechikkaniga mutlaqo qarshi emas edilar. Viktorina bilan Kutyur xonim ham ertalab allamahalgacha uxlab qolishdi. Votren soat sakkiz bo'lmasidanoq uydan chiqib ketdi va faqat nonushtaga yetib keldi. Shuning uchun Silviya bilan Kristof, nonushta tayyor, deb uyma-uy eshik taqillata boshlaganda, soat o'n birdan chorak o'tgan bo'lishiga qaramay, hech kimning achchig'i chiqmadi. Xizmatkor bilan Silviya yo'g'ida birinchi bo'lib pastga tushgan mademuazel Mishono hamma xo'randalar idishi qatorida issiq suvda isitilayotgan Votrenning kumush stakanhasidagi qahvaga solinadigan sutga dorini solib qo'ydi. Qari qiz niyatini amalga oshirish uchun pansiondagi maxsus rasmlardan foydalanmoqchi edi. Pansionerlardan yettitasi darrov yig'ila qolmadi. Ejen kerishib-kerishib, hammadan keyin zinadan pastga tushib kelar ekan, xat olib kelgan xizmatkor unga de Nusingen xonimning maktubini topshirdi. Xatda bunday deyilgan edi:

«Sizga nisbatan, aziz do'stim, na jahlim chiqdi, na o'zimni kamsitilgan deb hisobladim. Sizni kechasi soat ikkigacha kutdim. Yaxshi ko'rgan odamingni kutish! Bunday azobni bir tortgan odam, boshqani hech kuttirib qo'ymaydi. Bu sizning birinchi muhabbatingiz bo'lsa kerak. Nima bo'ldi? Xavotir olib o'tiribman. Yurak sirimni bildirib qo'yishdan cho'chimaganimda, nima gap bo'lganini: yaxshilikmi yo yomonlikmi, bilib kelish uchun o'zim borgan bo'lardim. Ammo shunday bemahalda uydan chiqib ketsam, o'zimni sharmanda qilgan bo'lmasmidim? Men ayol kishi bo'lish naqadar katta baxtsizlik ekanini his qildim. Ko'nglimni tinchiting, otam hamma gapni gapirib bergandan keyin ham nega kelmaganingizni tushuntiring. Bir oz jahlim chiqadi, ammo kechiraman. Yo betob bo'lib qoldingizmi? Nega bunchalik uzoqda turasiz! Xudo haqqi, bir og'iz so'z aytib



yuborsangiz, bas. Tezda ko'rishamiz, shunday emasmi? Agar band bo'lsangiz, shuni bir og'iz aytib yuborsangiz kifoya. «Ket-yapman» yo «betobman» deb yozib yuboring. Ammo tobingiz qochib qolgan bo'lsa, otam kelib bundan xabardor qilgan bo'lardi. Nima gap o'zi?.. »

– Rost-a, nima bo'ldi o'zi? – deb yubordi Ejen va xatni o'qib tugatmasdanoq g'ijimlab, yemakxonaga yugurdi. – Soat necha?

– O'n bir yarim, – deb javob qildi qahvasiga qand sola turib Votren.

Qochqin mahbus Ejenga sehrlovchi nazar bilan tikilib qaradi: bunday o'tkir nazar irodasi juda kuchli odamlarda bo'ladi va aytishlariga qaraganda, bunday odamlar jinnixonadagi aqldan ozgan to'polonchilarni ham bir qarashda tinchitib qo'ya olarmish. Ejenning a'zoyi badani jimirlashib ketdi. Ko'chadan kareta ovozi eshitildi, birpasdan keyin ichkariga qo'rquvdan rangi o'chib ketgan bir lakey o'qday otilib kirib keldi, Kutyr xonim uning janob Tayfer xizmatkorlaridan biri ekanini kiyim-boshidan darrov tanidi.

– Mademuazel, – dedi lakey. – Otangiz sizni chaqiryaptilar. Katta baxtsizlik yuz berdi. Janob Frederik duel qilibdi, duelda peshonasiga shamshir bilan urishibdi, shifokorlar uni qutqarib qola olmaymiz deyishyapti, u bilan vidolashib qolishga zo'rg'a ulgurasiz, u hozir qushidan ketib bo'lgan.

– Bechora yigit! – dedi baland ovoz bilan Votren. – Yiliga o'ttiz mingdan daromadi bo'la turib, janjal qilish nimasi ekan-a? Yoshlarimiz hech o'zini tutishni bilishmaydi-da!

– Muhtaram janob! – deb chaqirdi uni Ejen.

– Nima deysiz, katta bola? Duel degan narsa Parijda har kuni bo'lib turmaydi deysizmi? – deb so'radi Votren sovuqqonlik bilan qahvasini ichib tugatar ekan; bu payt mademuazel Mishono unga shunday diqqat bilan tikilib qarab turar ediki, hammani sarosimaga solib qo'ygan hozirgi voqeani u mutlaqo sezmedi ham.

– Viktorina, men ham siz bilan birga boraman, – dedi Kutyr xonim.

Shundan keyin, ikkovlari shlyapa ham kiymay, shol ro'mol ham o'ramay Tayfernikiga jo'nab ketishdi.

Jo'nab yʻish oldidan Viktorina koʻzlariga yosh kelib, Ejenga shunday qaradiki, uning bu qarashidan; «Bunday koʻz yoshi toʻkib, baxtli boʻlaman deb oʻylamagan edim!» – degan maʼnoni oʻqish mumkin edi.

– Avliyo emasmisiz, janob Votren? – deb soʻradi beva Voke.

– Kim desangiz, oʻshaman, – dedi Jak Kollen.

– Juda qiziq-a! – deb Voke xonim gapida davom etarkan, bu voqeaga taalluqli boʻlgan maza-bemaza gaplarni biri ustiga ikkinchisini qalashtirib tashlayverdi. – Oʻlim hech surishtirmay ilib ketaverarkan. Koʻpincha yoshlar qarilardan oldin oʻlib ketadi. Yaxshiyamki, bizlar xotin kishimiz, duelda urishmaymiz; ammo bizning ham oʻzimizga yarasha azoblarimiz borki, erkaklar undan xolidirlar. Biz bola tugʻamiz, onalik azoblari uzoq davom etadi! Viktorinaning rosa omadi keldi-da! Endi otasi uni bolam deb tan olishga majbur boʻladi.

– Qarang-a! – dedi Votren, Ejenga qarab. – Kecha uning bir su ham puli yoʻq edi, bugun esa bir necha millionlik boʻlib oldi.

– Menga qarang, janob Ejen! – dedi Voke xonim. – Siz hech yutqazmadingiz!

Shu payt Gorio ota talabaga oʻgirilib qaradi-yu, uning qoʻlidagi gʻijimlangan xatni koʻrib qoldi.

– Oʻqib ham chiqmadingiz! Bu nima degan gap? Nahotki siz ham boshqalar singari boʻlsangiz? – deb soʻradi u Rastinyakdan.

– Voke xonim, men hech vaqt mademuazel Viktorinaga uylanmayman, – dedi Ejen, bu gapini shunday nafrat va gʻazab bilan aytdiki, hamma hang-mang boʻlib qoldi.

Gorio ota talabaning qoʻlini qoʻliga olib, mahkam qisdi. U yigitni oʻpib olgisi keldi.

– Oʻ-hoʻ! Italianlarning: col tempo<sup>1</sup> degan yaxshi gapi bor, – dedi Votren.

– Men javob kutib turibman, – deb eslatdi de Nu, singen xonimning xizmatkori.

– Kelar emish deng.

<sup>1</sup> Col tempo (italyancha) – kelajak koʻrsatadi.

Xizmatkor chiqib ketdi. Ejen shunday hayajonda ediki, ehtiyotkorlikni ham unutib qo‘ydi.

– Nima qilish kerak? – deb ovozi chiqarib o‘zidan o‘zi gapirardi u. – Hech qanday dalil, isbot yo‘q!

Votren miyig‘ida kulib qo‘ydi. Shu payt ichimlik koniga singib, kuchini ko‘rsata boshladi. Lekin qochqin shu qadar baquvvat ekanki, o‘rnidan turib, Rastinyakka qarab bo‘g‘iq tovush bilan dedi:

– Hoy yigit, yaxshi ishlar biz uxlab yotganda yuz beradi. Shunday dedi-yu, hushidan ketib yiqildi.

– Demak, xudo bor ekan, – dedi Rastinyak.

– Boyoqish janob Votrenimizga nima bo‘ldiykin-a?

– Hushidan ketib yiqildi, – deb yubordi mademuazel

Mishono.

– Silviya, tasadduq, darrov shifokorni topib kel, – deb buyurdi beva. – Siz esa, janob Rastinyak, Byanshonni topib keling: Silviya o‘z shifokorimiz janob Grenprelni topib kelolmay qolishi mumkin.

Rastinyak bu dahshatli o‘g‘rixonadan chiqib ketishga sabab topilganidan xursand bo‘ldi va chopganicha ko‘chaga otildi.

– Hey, Kristof, yugur dorixonaga, hushidan ketganga qarshi bir narsa bering degin!

Kristof chiqib ketdi.

– Gorio ota, yordamlashib yuborsangiz-chi, uni yuqoriga olib chiqaylik.

Votrenni ko‘tarib olib, bir amallab yuqoriga olib chiqdilar va karavotiga yotqizib qo‘ydilar.

– Mendan hech qanday foyda yo‘q, qizlarimni ko‘rgani ketdim, – dedi Gorio ota.

– Xudbin chol! – dedi Voke xonim. – Ketaver! Iloyo, it o‘limini bersin senga!

Mademuazel Mishono Puare yordamida Votrenning ustki kiyimini yecharkan, Voke xonimga qarab:

– Borib qarang, u yer-bu yerda yotgan efir yo‘qmikin, – dedi.

Beva Voke mademuazel Mishononi jang maydonida yolg‘iz qoldirib, o‘z xonasiga tushib ketdi.

– Qani tezroq bo‘ling, ko‘ylagini yechib orqasini o‘giring. Loaqal, bir narsaga foydangiz tegsin: buning yalang‘och badanini ko‘rishdan meni qutqarsangiz-chi, – deb buyurdi mademuazel Mishono Puarega. – Nega qaqqayib turibsiz?

Votrenning orqasini o‘girishgan zahoti. mademuazel Mishono bemorning yelkasiga qattiq shapati urdi, shu payt uning qizarib ketgan yelkasida ikkita mash‘um harf – tang‘a oppoq bo‘lib ko‘rindi.

– Anavini qarang, uch ming mukofotni osongina ishlab oldingiz-a! – dedi Votrenni ushlab turgan Puare; mademuazel Mishono unga ko‘ylak kiygizardi. – Uf, lekin o‘ziyam xirsdan og‘ir ekan-da, – dedi Puare Votrenni joyiga yotqizarkan.

– Sekin! Kassa shu yerda emasmikan? – dedi gapni shart kesib qari qiz; u devorlarni teshib yuborgudek qilib xonadagi har bir buyumni xarislik bilan bir-bir ko‘zdan kechira boshladi. Mana bu sekretarni biror bahona bilan ochishning iloji yo‘q-mikan-a! – deb qo‘ydi u yana.

– Yaxshi bo‘lmas, deymen, – deb javob qildi Puare.

– Yo‘q! O‘g‘irlangan pullar har kimniki edi, endi esa hech kimniki emas. Ulgura olmaymiz, – deb ilova qildi u, – Voke chiqib kelyapti.

– Mana efir, – dedi Voke unga. – Bugun juda g‘alati kun bo‘ldi-da. E xudo! Shu odamni betob deb bo‘ladimi, a, qo‘zichoqdek, momiqdek oppoqqina bo‘lib yotishini qarang.

– Qo‘zichoqdek? – deb so‘radi Puare.

– Yuragi bir tekis urib turibdi, – dedi beva qo‘lini bemorning ko‘ksiga qo‘yib.

– Bir tekis? – dedi hayron bo‘lib Puare.

– U soppa-sog‘.

– Shunday deb o‘ylaysizmi? – deb yana so‘radi Puare.

– Ha, xuddi uxlab yotganga o‘xshaydi. Silviya shifokorni olib kelgani ketdi. Qarang, qarang, mademuazel Mishono, efirni hidlayapti. Demak, shunchaki hushdan ketgan ekanda. Tomir urishi ham yaxshi. Baquvvat kishi u. Ko‘kragidagi junlarini ko‘rdingizmi: bunaqa odam yuz yil yashaydi. Parigi bo‘lsa, xiyla ham siljimabdi. Iye, yopishtirib qo‘ygan ekan. O‘zi qizil sochli bo‘lgani uchun parik kiyib olgan ekan, shekilli. Qizil sochli odamlar yo juda yaxshi, yo juda yomon bo‘lishadi deyishadi.

Lekin bu yaxshi odam ko'rinadi.

– Osishga yaxshi, – deb yubordi Puare.

– Birorta jononning bo'yniga osilishga demoqchisizda, – deb mademuazel Mishono uning gapini cho'rt bo'ldi. Chiqib keting bu yerdan. Betob erkaklarni parvarish qilish biz ayollarning ishimiz. Yaxshisi, borib bir aylanib keling, siz ana shunga yaraysiz, – deb qo'shib qo'ydi u. – Biz muhtaram janob Votrenga Voke xonim bilan o'zimiz qarab turamiz.

Puare egasidan tepki yegan itdek iNdamay, sekingina chiqib ketdi.

Rastinyak bir oz aylanish va toza havodan nafas olish uchun chiqib ketgan edi, u bo'g'ilib ketayotgan edi. Axir, u kechagina bu qotillikni to'xtatib qolmoqchi edi-ku, ammo u xuddi belgilangan vaqtda yuz berdi. Nima bo'ldi o'zi? Endi nima qilishi kerak? O'zining ham jinoyatga sherik ekanini o'ylar ekan, a'zoyi badaniga titroq turardi. Votrenning sovuqqonligi hali ham uni dahshatga solardi.

– Agarda Votren hech narsa demay o'lib ketsa-chi? – deb so'rar edi Rastinyak o'zidan o'zi.

U Lyuksemburg bog'ida zir yugurib yurardi, tasavvurida go'yo bir gala it orqasidan quvib kelayotgandek, go'yo ularning akillashlari ham qulog'iga eshitalayotgandek edi.

– Xo'sh, qalay, – deb qichqirdi unga Byanshon, – «Darg'a»ni o'qidingmi?

«Darg'a» Tisso muharrirligida chiqadigan radikal<sup>1</sup> gazeta edi, ertalabki gazetalar chiqib bo'lgandan keyin viloyatlarga bir kun oldin yetib boradigan kunning hamma yangiliklarini shu gazeta bosib chiqarar edi.

– Unda ajoyib bir voqea bosilibdi, – dedi Koshen nomli kasalxona amaliyotchisi. – Tayferning o'g'li eski gvardiya ofitseri graf Frankassini bilan duel qilibdi, duelda graf uning qoq peshonasiga shamshirning ikki dyumini<sup>2</sup> tiqib olibdi. Endi Viktorina Parijdagi eng badavlat qayliqlardan biri bo'lib qoldi. Qani endi oldin bilganimda! O'lim ham, gardkamiga qimor o'ynagandek gap! Viktorinaning senga mayli borligi rost gapmi?

<sup>1</sup> **Radikalizm** (lotincha: radicalis – ildizga oid) – mavjud davlat tuzumini tanqid ostiga olib, radikal o'zgarishlar va islohotlar o'tkazishni talab etuvchi siyosiy oqim.

<sup>2</sup> **Dyum** – 25,4 millimetr yoki 2,54 santimetrga teng bo'lgan uzunlik o'lchovi birligi.

– Jim bo‘l, Byanshon, men unga hech qachon uylanmayman. Men ajoyib bir ayolni yaxshi ko‘raman, u ham meni sevadi, men...

– Go‘yo hech qachon unga bevafoqlik qilmaydigan odamdek gapirasana. Muhtaram Tayferning davlatidan voz kechishga arziydigan ayol bo‘lsa, uni menga ham ko‘rsat-chi!

– Nahotki jamiki iblislar meni ta‘qib ostiga olgan bo‘lsa? – dedi Rastinyak.

– Qani o‘sha iblislar? Senga nima bo‘ldi, esingni yedingmi? Qani, qo‘lingni ber-chi, tomir urishini ko‘ray, – dedi Byanshon. – Bezgak<sup>1</sup> bo‘lib qolibsan.

– Onaxon Vokenikiga bor, – dedi Rastinyak, – anavi qaroqchi Votren o‘lar holatda yotibdi.

– Ha-a! Taxminlarimni to‘g‘riga chiqaryapsan, borib tekshirib ko‘ray-chi, – deb Byanshon Rastinyakni yolg‘iz tashlab ketdi.

Huquqshunos talabani juda cho‘zilib ketgan sayri tantanali tus olgandi. U o‘z vijdonini har taraflama tekshirib ko‘rdi desak ham bo‘ladi. To‘g‘ri, u uzoq mulohaza qildi, taqqoslab ko‘rdi, taraddudlandi, lekin, shunga qaramay, uning vijdoni bu shafqatsiz va dahshatli sinovdan xuddi har qanday zarbaga ham dosh bera oladigan metindek mustahkam ekani ma‘lum bo‘ldi. U kecha Gorio ota aytgan gaplarni xotirladi, Delfinaning unga atab topib qo‘ygan d‘Artua ko‘chasidagi kvartirani ko‘z oldiga keltirishga urinib ko‘rdi, uning xatini yonidan chiqarib yana o‘qib chiqdi-da, o‘pib qo‘ydi.

«Bunday muhabbat – mening xaloskor langarim, – deb o‘yladi u. – Bechora chol rosa iztirob chekkanga o‘xshaydi. Tortgan azoblari to‘g‘risida hech narsa demaydi-yu, ammo buni kim sezmaydi deysiz! Xo‘p, mayli, endi unga o‘z otamdek g‘amxo‘rlik qilay, uni ko‘proq xursand qilishga urinay. Delfina meni yaxshi ko‘rar ekan, tez-tez uyimga kelib, otasi bilan uchrashib turadi. Anavi takabbur grafinya de Resto esa – yaramas xotin, u o‘z otasini malay qilib ishlatishdan ham toymaydi. Jonim Delfina! Uning chol bilan muomalasi ancha yaxshi, sevsa arziydi uni. Nihoyat bugun kechqurun baxtiyor bo‘laman».

<sup>1</sup> **Bezgak** – vaqti-vaqti bilan isitma chiqarib, qaltiratadigan yuqumli kasallik.

U yonidan soatini olib, tomosha qildi.

«Ishlarim juda muvaffaqiyatli bo'ldi! Astoydil va toabad sevishganlar bir-biriga ko'maklashishi ham mumkin, demak, bu sovg'ani qabul qilib olsam bo'ladi. Undan keyin, men muvaffaqiyatga erishaman, o'shanda yuz hissa. qilib qaytaraman. Munosabatlarimizning hech qanday jinoiy tomoni yo'q, eng nomusli odam ham bizning munosabatimizdan ayb topa olmaydi. Qanchadan qancha tuppa-tuzuk odamlar mana shunday munosabatda yashashadi-yu! Biz hech Kimni aldayotganimiz yo'q, odamni, aynan o'sha yolg'on gap yerga uradi, kamsitadi. Yolg'on gapirish – o'zingdan yuz o'girish degan gap! U allaqachondan beri eri bilan birga turmas ekan. Modomiki, o'sha elzaslik uni baxtiyor qila olmas ekan, Delfinani menga qo'yib qo'ysin-da, buni undan o'zim talab qilaman».

Ejenning ko'nglidagi kurash uzoq davom etdi. Yoshlikning eng yaxshi orzulari zafar qozondi, lekin shunday bo'lsa ham, uyda nimalar bo'ldi ekan degan qiziqish bilan soat to'rt yarimda, qosh qoraya boshlaganda «Voke uyi»ga kelarkan, bu yerdan, albatta, ko'chib ketaman, deb ahd qildi. Ejen Votrenning o'lgan-o'lmaganini bilmoqchi edi. Byanshon Votrenga qusdiradigan dori ichirdi, keyin qusuqni kimyoviy tahlil qilib ko'rish uchun kasalxonaga yubordi. Bemorning qusug'ini mademuazel Mishono yuvindi idishiga to'kib yuborish payiga tushib tipirchilab qolganini ko'rib, Byanshonning shubhasi ortdi. Buning ustiga, Votren darrov tuzalib qola qoldiki, bundan Byanshon, pansionning xushchaqchaq qiziqchisiga qarshi biror fitna borga o'xshaydi, degan fikrga keldi. Rastinyak qaytib kelganda, Votren yemakxonaga tushgan, u pechka oldida turardi. Tayferning o'g'li duel qilgani to'g'risidagi xabarni eshitib, bu duel oqibati Viktorina taqdiriga qanday ta'sir ko'rsatarkin deb qiziqib, xo'randalar qar kungidan vaqtliroq to'planishdi: Gorio otadan tashqari hamma yig'ilgandi, hozir hamma shu mavzuda muhokama qilmoqda edi. Ejen ichkari kirishi bilanoq, ko'zi sovuqqon Votrenning ko'zlari bilan to'qnashdi, Votren unga shunday qattiq tikilib, yuragining nozik torlarini shunday zarb bilan yulqidiki, Ejen qaltirab ketdi.

– Shunday qilib, bo'tam, – dedi unga qochoq mahbus, – ajalning hali ko'p vaqtgacha menga kuchi yetmaydi. Xonim-

larimizning gapiga qaraganda, shunday qattiq dardga dosh beribmanki, unday zarbaga ho'kiz ham chidamagan bo'larkan.

– O! Ho'kiz deganingiz nimasi, buqa deng! – dedi beva Voke.

– Ehtimol, o'Imay qolganimdan xafadirsiz? – dedi Votren Ejenning qulog'iga, go'yo uning dilidagi gaplarni bilib turgandek. Bu faqat nihoyatda irodasi kuchli odamning qo'lidan keladi!

– Ha-ya! – deb gapga aralashdi Byanshon: – Utgan kuni mademuazel Mishono Qandaydir Ajalni aldar degan laqabli bir janob to'g'risida gapirgan edi, o'sha laqab sizga juda mos kelar ekan.

Bu xabar Votrenga xuddi yashin urgandek qattiq ta'sir ko'rsatdi. Uning rangi oqarib, o'zi gandaraklab ketdi, o'tkir ko'zlari xuddi quyosh nuridek Mishonoga tushdi va o'z irodasining o'tkir shu'lasini zarbi bilan urgandek, qari qizning kuchini sindirdi. U stulga o'tirib qoldi. Puare Mishononing xavf ostida qolganini sezib, shoshgancha u bilan Votren o'rtasiga kelib turib oldi – qochqin mahbus o'zining butun niqoblarini olib tashlaganda yuzida ana shunday dahshatli shafqatsizlik alomatlarini paydo bo'lgan edi. Voqeaga tushunib yetmagan xo'randalar dong qotib qolishdi. Shu payt ko'chadan bir qancha odamning oyoq tovushi, ketidan tosh ko'chaga gursullatib qo'yilgan soldatlarining miltiq qo'ndog'i tovushi eshitildi. Kollen beixtiyor deraza va eshiklarga qarab qutulib ketishning yo'lini axtarar ekan, mehmonxona eshigida to'rt kishi paydo bo'ldi. Eng oldinda qidiruv politsiyasining boshlig'i, uning orqasida esa uchta politsiyachi turardi.

– Qonun va qirol nomi bilan!.. – dedi politsiyachilardan biri, ammo hamma hayron bo'lib g'ovur ko'targanidan, gapining oxiri eshitilmadi,

Keyin birdan oraga jimlik cho'kdi, xo'randalar uchta politsiyachiga yo'l berib, o'zlarini chetga olishdi, ularning qar biri qo'lini cho'ntagiga tiqqan holda tepkisi ko'tarilgan pistoletni ushlab olgandi. Politsiya vakillari ketidan kirib kelgan ikki jandarm ostonada turib oldi, boshqa ikkitasi zinaga olib chiqadigan eshik tarafda ko'rindi. Uyning oldi tarafidagi tosh yotqizilgan yo'lkanidan soldatlarning oyoq tovushi bilan miltiq qo'ndoqlarining yerga qo'yilgan ovozi eshitildi. Qochish haqida o'ylash-



ning ham foydasi yo‘q edi, – hamma Ajalni aldarga o‘girilib qaradi, Politsiya boshlig‘i Votren oldiga kelib, uning boshiga shunday kuch bilan urdiki, parigi uchib ketdi, shundan keyin Kollenning xunukdan bedavo boshi hammaning ko‘z oldida ochilib qoldi. Uning kalta qilib olingan to‘q qizil sochlari zabardast ko‘ksi bilan ajib bir tarzda uyg‘unlashgan boshi va yuziga allaqanday makrona kuch irodasini baxsh etar va go‘yo jahannam alangasining shu‘lasidek yuz-ko‘zini ma‘nodor bir tarzda yoritib turardi. Votrenning kimligini, uning o‘tmishini, hozirgi hayoti va kelajagi qanday bo‘lishini, uning shafqatsiz e‘tiqodini o‘z irodasini hammadan yuqori qo‘yishini, fikrlari va xatti-harakatidagi ochiqdan ochiq behayolik, har narsaga moslashgan badanining pishiqligi tufayli boshqalar ustidan hukmron bo‘lib olganini hamma tushundi. Kollenning qoni yuziga urdi, ko‘zlari yovvoyi mushukning ko‘zidek o‘t sochib chaqnay boshladi. Kuch va g‘azabdan qaynab ketib, turgan yerida shunday bir sakradi, shunday o‘kirib yubordiki, xo‘randalarning dahshatdan o‘takasi yorilayozdi. Uning arslonsifat harakatidan hamma dovdirab qolgandi, bundan foydalanib, politsiyachilar cho‘ntaklaridan pistoletlarini chiqardilar. O‘ziga to‘g‘rilangan pistoletlarning yarqirab turgan tepkilariga ko‘zi tushishi bilan, Kollen xavfning naqadar zo‘r ekanini angladi va bir ondayoq irodasi kuchli odamning nimalarga qodir bo‘lishini ko‘rsatdi. Dahshatli va ajoyib manzara! Yuzida shunday bir o‘zgarish paydo bo‘ldiki, buni faqat bug‘ qaynab turgan qozondagi o‘zgarishga o‘xshatish mumkin, bu tog‘larni qo‘porib tashlashga qodir siqib qo‘yilgan bug‘ga bir tomchi sovuq suv tushsa bas, shu zahoti mana shunday taftidan tushadi qoladi. Qochqinning g‘azabini so‘ndirgan bir tomchi suv vazifasini o‘tagan narsa miyasidan yashin tezligida o‘tgan bittagina fikr bo‘ldi. U miyig‘ida kulib qo‘ydi va parikiga ko‘z tashladi. – Ilgarilari xushmuomala eding, – dedi u, qidiruv politsiyasining boshlig‘iga. Keyin, jandamlarni boshi bilan imlab chaqirdi-da, ularga qo‘lini uzatdi – Muhtaram janoblar, janob jandamlar, qo‘limni kishanlanglar. Qarshilik ko‘rsatmaganim to‘g‘risida shu yerdagilarning hammasini guvohlikka olaman.

Odam qiyofasidagi bu vulqondan o‘t bilan lavaning<sup>1</sup> qan-

<sup>1</sup> Lava (*lotincha*: Labes – o‘pirlilish) – vulqon kraterlari, yer yoriqlaridan oqib yoki otilib chiqadigan olovsimon suyuq va qovushqoq modda (magma).

day tezlik bilan qaynab chiqqani va yana joyiga shunday tezlik bilan qaytib ketgani hammani hayratda qoldirdi, xo'randalar pi-chirlashib, Votrenga qoyil qolganlarini bir-birlariga izhor etardilar.

– O'yinda yutqazdim, janob bosqinchi, – deb gapini davom ettirdi Kollen, qidiruv politsiyasining mashhur boshlig'iga qarab.

– Qani, yechin! – dedi nihoyatda nafrat bilan Sent-Ani ko'chasidan kelgan odam.

– Nima keragi bor? – deb e'tiroz bildiradi Kollen. – Bu yerda ayollar bor. Men tonayotganim ham yo'q, taslim bo'ldim.

U birpas jim turdi va hammani qoyil qoldiruvchi gap aytmoqchi bo'lgan notiqday, odamlarni bir-bir ko'zdan kechirib chiqdi.

– Yozing, Lyashapel ota, – dedi u stolning narigi boshiga o'tirib portfelidan qamoqqa olish to'g'risida bayonnoma yozish uchun qog'oz chiqargan mo'ysafid cholga qarab, – e'tirof qilaman: men kishanband qilinib, yigirma yil muddat bilan surgun qilingan Ajalni aldar laqabli Jak Kollenman, bunday laqabni bekorga ko'tarib yurmaganimni hozir yana bir marta isbotladim. – Keyin xo'randalarga o'girilib dedi: – Agar barmog'imni qimir-latgudek bo'lsam, mana bu uchta josus butun klyukva<sup>1</sup> suvlarimni onaxonimiz Vokening xonaki ko'chasiga oqizishgan bo'lardi. Tentaklar! Yana tuzoq ham qo'yib yurishibdi!

Bunday qo'rqinchli gaplarni eshitib Voke xonimning esxonasi chiqib ketdi.

– Yo tavba! Bunaqada kasal bo'lib qolish hech gap emas! Axir, men kecha u bilan Gete teatriga boruvdim-a, – deb Silviyaga qarab nolidi u.

– Sal-pal faylasuf ham bo'lish kerak, onaxon, – deb gapini davom ettirdi Kollen. – Kecha Gete teatrida mening lojamda o'tirgan bo'lsangiz, nima bo'libdi? – dedi u. – Yo bizdan yaxshiroqmidingiz? Bizning yelkamizga bosilgan tamg'a yiring bog'lagan jamiyatning sizdek zaif a'zolari qalbiga bosilgan tamg'achalik sharmandali emas; sizlarning eng zo'ringiz ham menga qarshi dosh berolmadi.

<sup>1</sup> Klyukva -- qizil, nordon mevali buta va uning mevasi.

Kollen Rastinyakka o'girildi, unga mehr bilan kulib boqdi, bu tabassumi uning jiddiy yuziga sira yopishib tushmasdi.

– Kelishgan gapimiz kuchida qoladi, azizim, albatta, rozilik bo'lsa! Kimning roziligi dersiz? Bu ma'lum! – Bunday dedida, kuylab yubordi:

Soddaligi bilan Fanshetam Ham dilrabo, ham juda ko'rkam...

– Xotirjam bo'ling, – deb yana davom etdi u,– o'zimga tegishli narsani, albatta, olaman. Mendan juda qo'rqishadi, haqqimni yeyishmaydi!

Surgunning odati va tili, hazil qilib turib birdan dahshatli gaplarga o'tib ketish, uning bahaybat ulug'vorligi, betakallufigi, pastkashligi – bu xususiyatlarning hammasi yuqorida zikr etilgan gaplarda va endi alohida bir odamni emas, balki allaqanday vahshiy va dono yirtqich, epchil kishilar zotining bir vakili sifatida gavdalangan shu odamda mujassamlashgan edi. Bir lahzada Kollen qandaydir do'zaxiy bir dostonning qahramoni timsoliga kirdiki, tavba-tazarrudan boshqa jamikiy insoniy tuyg'ular unda mavjud edi. U talafotga uchragan bo'lishiga qaramay, kurashni sarkashlik bilan davom ettirishga ahd qilgan farishtaga o'xshab tikilib turardi. Rastinyak ko'zini yerga tikdi, chunki u Votrenning sharmanda qiluvchi do'stligini o'zining hamma yomon niyatlari hisobiga berilgan jazo deb qabul qilgan edi.

– Meni kim sotdi? – deb so'radi Kollen, dahshatli ko'zlarini hammaga bir-bir tikib, so'ng mademuazel Mishonoga qarab turib, dedi: – Sen bo'lsang kerak, qari yalmog'iz? Meni ataylab kasal qilgan hali senmi, josus? Ikki og'iz so'z aytsam bas, bir haftadan keyin seni bo'g'izlab ketishadi. Lekin men xristianman, seni kechirdim. Keyin, meni sotgan ham sen emassan. Ammo, kim qildi?.. Hey! Hey! Nimalarni tityapsizlar? – deb qichqirdi u, politsiyachilar yuqorida uning xonasidagi jovonlarni buzib, buyumlarini olishayotganini eshitib qolgan edi. – Qushchalar kecha uchib ketgan inidan. Hech narsani bila olmaysizlar. Mening savdo kitobim mana bu yerda, – dedi u peshonasiga urib qo'yib. – Meni kim sotganini endi bildim. Hoynahoy anovi ablah Ipakoyim bo'lsa kerak. To'g'rimi, tomteshar ota? – deb so'radi Kollen, politsiya boshlig'idan. – Chervonlarimiz yuqorida turardi, o'sha yerni qidirishingizdan, mo'ljalim to'g'ri chiqayotganga

o'xshaydi. Hozir, shovvoz josuslar, u yerda hech vaqo yo'q. Ipakoyimga kelsak, jamiki jandamlaringizni unga qorovul qilib qo'ysangiz ham, ikki hafta o'tmasidan surobini to'g'rilab ketishadi, Mishonetkaga qancha to'ladinglar? – deb so'radi U politsiyachilardan. – Bir necha mingdir-da? Men undan qimmatroq turaman. Eh, seni qara-yu, mog'or bosgan Ninon<sup>1</sup> qabrison Venerasi, juldurvoqi Pompadur<sup>2</sup>. Agarda meni ogohlantirib qo'yganingda, olti ming olarding. A-a! Odam go'shtini sotuvchi kampirsho, bunga aqling yetmabdida, bo'lmasa men bilan baylashgan bo'larding. Ha, men uchun aslo zarurati bo'lmagan va faqat zarar keltiradigan bunday sayohatdan qutulib qolish uchun shuncha pulni bergan bo'lardim senga, – derdi u qo'lga kishan solishayotganda. – Endi bo'lsa mana bu shovvozlar o'zlariga ermak topib oldilar, endi meni qiynoqqa solib rosa u yoqdan-bu yoqqa sudraydilar, Agar meni hozirning o'zida surgun qilib yuborishsa-ku, sohildagi Zargarlik ko'chasida turuvchi ayg'oqchilarning ziyrakligiga qaramay<sup>3</sup>, tez orada o'z ishimga qaytib kelgan bo'lar edim-a. Surgunda hamma badarg'a qilinganlar o'zlarining sevimli generallari – Ajalni aldarni qochirib yuborish uchun, o'lib-qutulib harakat qilishadi-ya! Jonini yo'lingizda qurbon qilishga shay bo'lib turgan o'n mingdan ortiq oshnaog'ayni qaysi biringda bor? – deb so'radi u g'urur bilan. – Mana bu yerda ozmi-ko'pmi yaxshi hislatlar bor, – dedi u ko'ksiga urib, – Men hech qachon, hech kimga xiyonat qilmaganman! Hey, arvoh, – dedi u, qari qizga o'g'rib, – mana bularga qara! Menga dahshat bilan qarab turishibdi, senga esa jirkanch bilan o'qchigisi kelib boqishyapti! Sazovor bo'lganing ana shu!

U xo'randalarga qarab jim qoldi.

– Muncha anqaymasanglar! Surgun qilingan odamni ko'rmagansizlarmi hech? Qarshingizda turgan Jak Kollendek surgun qilingan odam – boshqalarga qaraganda yurakliroq, u Jan-Jak aytgan ijtimoiy bitimning tamomila buzilishiga qarshi e'tiroz bildiradi, men uning shogirdi bo'lganim bilan faxrlanaman. Butun jandamlari, budjetlari, sudlari bilan bir qilib hukumatga qarshi

<sup>1</sup> Ninon de Lanklo (1620-1705) – fransuz kurtizankasi (ishrattalab, suyuq oyoq ayol).

<sup>2</sup> Markiza de Pompadur (1721-1764) - Lyudovik XVning ma'shuqasi.

<sup>3</sup> «...sohildagi Zargarlik ko'chasida turuvchi ayg'oqchilarning ziyrakligiga qaramay» – bu yerda politsiya ayg'oqchilari ko'zda tutiladi: Zargarlik ko'chasi politsiya prefekturasiga borib tutashadi.

men yakka o'zim bosh ko'targanman va ularni rosa laqillatib yuribman.

– Obbo shayton-ey! Rosa suratga olishga bop bo'lib ketdi-da, – dedi yosh rassom.

– Hey, sen, jallod janob oliylarining tog'asi, Bevaning gofmeysteri (surgun qilinganlar, kishini dahshatga soluvchi mana shunday laqabni gilotinoga<sup>1</sup> berishgan edi), – dedi Kollen, qidiruv politsiyasi boshlig'i tomon o'grilib, – bir himmat qil, meni tutib bergan odam – Ipakoyim bo'lsa, to'g'risini ayt! Uning boshqalar uchun javobgarlikka tortilishini istamayman, bu juda adolatsizlik bo'lardi.

Bu orada politsiyachilar uning xonasini rosa titi-piti qilib va undagi buyumlarni ro'yxatga olib qaytib tushdilar-da, boshliqlari oldiga kelib bor gapni unga pichirlab ayta boshladilar! Tergov tamom bo'ldi.

– Janoblar, – dedi Kollen xo'randalarga, – hozir meni olib ketishadi. Bu yerda turgan vaqtimda, hammangiz ham men bilan yaxshi muomalada bo'ldinglar, buning uchun sizdan doimo minnatdor bo'lib qolaman. Xayr endi, omon bo'linglar. Rozilik bersangiz, sizga Provansdan uzum yuborib tursam<sup>2</sup>.

U bir necha qadam tashladi-yu, lekin Rastinyakka qarash uchun orqasiga o'grildi.

– Xayr endi, Ejen, – dedi u, – odatdagi dag'al gaplariga sira o'xshamagan muloyimlik va ma'yuslik bilan. – Qiynalib qolgudek bo'lsang, kuningga yaraydigan sodiq bir do'st qoldirib ketyapman.

Qo'liga kishan solingan bo'lishiga qaramay, u qilichbozlik o'qituvchilaridek oyoqlarini kerib turib oldi-da: «Bir, ikki!» deb go'yo shamshir bilan birovning ustiga otilgandek bir harakat qilib ko'rsatdi.

– Boshingga kulfat tushsa, o'sha yoqqa murojaat qilaver. Uning o'zi ham, puli ham xizmatingga hozir.

Bu g'ayri oddiy odam keyingi gaplarini shunday maynavozchilik bilan aytdiki, buning ma'nosini o'zi bilan Rastinyak-

<sup>1</sup> Gilotina – bosh oladigan jodi. Dastlab 1792-yilda Fransiyada burjua inqilobi vaqtida ishga solingan.

<sup>2</sup> «Rozilik bersangiz, sizga Provansdan uzum olib borib tursam» – Votren Fransiyaning janubiga surgun qilinishini shu kinoyaviy so'zlar bilan bayon qilyapti.

dan boshqa hech kim tushuna olmadi. Jandarmlar, soldatlar va politsiyachilar uydan chiqib ketishgandan keyin, Silviya bekasi-ning peshonasini sirka bilan ishqab turib, serrayib turib qolishgan xo'randalarga qaradi.

– Harna bo'lganda ham, u yaxshi odam edi, – dedi Silviya.

Uning so'zlari bu voqea tufayli ming xil xayollarga borib, dong qotib qolgan odamlarni qushiga keltirdi, hamma bir-biriga qaradi, hammaning ko'zi cho'pdek ozg'in, qoq suyak, shamdek qotib turgan mademuazel Mishonoga tushdi; u pechkaga suqilib, go'yo shlyapasining soyaboni juda tinig'-u, undan tushgan soya ko'zlaridagi ifodani yashira olmaganday, qo'rqqanidan yerga tikilib turardi.

Ilgari ham hech kim yoqtirmagan bu xotinning butun marazligi tamomila fosh bo'ldi qo'ydi. Hamma undan nafratlanib, g'ovur-g'uvur ko'tarildi.

Mademuazel Mishono hamma gapni eshitib turgan bo'lsa ham, xonadan chiqib ketmadi. Birinchi bo'lib Byanshon yonida turgan odamning qulog'iga pichirlab dedi:

– Agar bu maxluq bundan keyin ham biz bilan ovqatlanadigan bo'lsa, men boshqa joyga ko'chib ketaman.

O'sha zahotiyoq Puaredan boshqa hamma bu gapga qo'shildi, shundan keyin Byanshon hammaning fikriga tayanib turib cholning oldiga bordi.

– Siz mademuazel Mishono bilan ancha yaqinsiz, – dedi u, – u bilan gaplashing va bu yerdan hoziroq chiqib ketishi kerakligini uqtiring.

– Hoziroq? – hayron bo'lib so'radi Puare.

Keyin u qari qiz oldiga borib, qulog'iga allanarsa deb shivirladi.

– Axir men bir oylik haqni oldindan to'lab qo'yganman-ku, men bu yerda hamma qatori o'z pulimga turibman, – deb javob qildi u, xo'randalarga zaharli ilondek nazar tashlab.

– Buning ahamiyati yo'q. Biz pul yig'ib, haqingizni qaytarib beramiz, – dedi Rastinyak.

– Janob de Rastinyak, albatta, Kollen tarafdori, – dedi u talabaga sinovchan, zaharli nazar tashlab, – sababini tushunish qiyin emas.

Ejen qari qizning ustiga tashlanib, uni bo'g'ib tashlamoq-

chi bo'lganday, bir hamla qildi. Mishononing bu makkorona ko'zlari uning qalbini teshib o'tgandek bo'ldi.

– O'sha bilan teng kelib o'tirasizmi! – deyishdi xo'randalar.

Rastinyak qo'lini ko'ksiga qovushtirib oldi-yu, indamadi.

Rassom yigit beva Vokeyga o'grildi:

– Keling, mademuazel xoinni daf qilaylik, – dedi pansion bekasiga. – Agar Mishononi haydab chiqarmasangiz hammamiz bu katalagingizdan chiqib ketamiz va hamma yerda, uyingiz surgun qilinganlar bilan josuslar makoni deb ovoza qilamiz. Gapimizga kirsangiz, biz ham bo'lgan ishlar to'g'risida og'iz ochmaymiz, bunday ishlar asilzodalar orasida ham yuz berishi mumkin-ku axir; to surgun qilinganlarning peshonasiga tamg'a bosadigan bo'lishmaguncha, ularning parijliklar qiyofasida erkin yurishini taqiqlashmaguncha, ular hammaning boshini qotirib yuraveradilar.

Bunday talabni eshitgan zahoti Voke xonim birpasda tuzaldi qo'ydi: u qaddini rostladi, qo'llarini ko'ksiga chalishtirdi, shishaga o'xshagan ko'zlarini katta-katta ochdi, ko'zlarida yoshdan asar ham yo'q edi.

– Nimalar deyapsiz o'zi, azizim, meni xonavayron qilmoqchimisiz? Obbo janob Votren-ey... Voy, xudoyim! – deb o'z gapini o'zi bo'ldi, – Uni to'g'ri odam deb atamaslikka hech tilim bormaydi. Mana, bitta xonam bo'shab qoldi, endi siz yana ikkita xonamning bo'shab qolishini istaysizmi, yana kelib-kelib hech kim boshpanaga muhtoj bo'lmagan bir paytda-ya.

– Janoblar, olinglar shlyapalaringizni, ovqat qilgani Sorbonna maydoniga, Flikotonikiga boramiz, – deb taklif qildi Byanshon.

Beva Voke nima foyda-yu, nima giyoh ekanini darrov fahmladi va pildiraganicha mademuazel Mishono oldiga keldi.

Menga qarang, oppoq qiz, mening xonavayron bo'lishimni istamassiz deyman, a? Ko'rib turibsiz-ku, bu janoblar meni shunga majbur qilishyapti... bugun kechqurun o'z xonangizda o'tirib tura turing.

– Yo'q, hech ham unday deganimiz yo'q! – deb qichqirishdi xo'randalar. – Biz uning bu yerdan butunlay ketishini, ketganda ham hozir chiqib ketishini xohlaymiz!

– Axir, bechora mademuazel hali ovqatlangani yo‘q-ku, – dedi Puare ayanchli yolvorib.

– Xohlagan yerida ovqat qilaversin! – deb qichqirishdi xo‘randalar.

– Josusning dumini tug‘ish kerak!

– Josuslarni haydanglar!

– Janoblar, – dedi to‘satdan Puare, yuragi botinib, – muhabbat hatto qo‘ylarni ham botir qilib yuboradi, – juda bo‘lmasa jinsini hurmat qilinglar!

– Josuslarda jins bo‘lmaydi, – dedi rassom.

– Ana jinsorama!

– Dumini tugorama!

– Janoblar! Sharmandalik bu. Odamlarni uydan ko‘chirmoqchi bo‘lsangiz ham, odobga xilof qilmasligingiz kerak. Biz pul to‘laganmiz, biz shu yerda qolamiz, – dedi Puare furajkasini kiyib, mademuazel Mishono yonidagi stulga o‘tirib olar ekan, Voke esa bu payt mademuazelni uydan chiqib ketishga unatish bilan ovora edi.

– Voy shumtaka-e, – dedi rassom, Puareni mayna qilib, – obbo shumtakasi tushmagur-e!

– Mayli, sizlar ketmasangiz, unda biz ketamiz, – dedi Byanshon.

Shunda hamma xo‘randalar birvarakayiga eshik tomon yurishdi.

– Mademuazel, bu nima qilganingiz? – deb qichqirib yubordi beva, – xonavayron qildingiz-ku. Bu yerda qolishingiz mumkin emas: zo‘rluk bilan ko‘chaga chiqarib tashlashlari ham mumkin-a.

Mademuazel Mishono o‘rnidan turdi.

– Ketadi!

– Ketmaydi!

– Ketadi!

– Ketmaydi!

Keti uzilmaydigan bunday qichqiriqlar va adovat bilan aytilgan har xil gaplardan keyin mademuazel beka bilan bir oz shivirlashib oldi-da, so‘ng ko‘chib ketishga majbur bo‘ldi.

– Men Byuno xonimning uyiga ko‘chib ketaman, – dedi u po‘pisa bilan.



– Xohlagan yeringizga ko‘chib boravering, mademuazel,  
– deb javob qildi, bu javobdan juda xafa bo‘lgan beva Voke,  
negaki, Byuno pansioni «Voke uyi» bilan raqobatda edi va shu  
sababli beva uni juda yomon ko‘rardi. – Byuno pansioniga ko‘-  
chib boravering, u yerda shunday vino quyib berishadiki, basha-  
rangiz burushib ketadi, ovqatlarini ham og‘izga olib bo‘lmaydi.

Xo‘randalar churq etmay ikki qator bo‘lib tizilib turishar-  
di. Puare mademuazel Mishonoga shunday mehr va sadoqat bilan  
qaradi, uning ketidan ketish-ketmasligini bilolmay, shunday sa-  
rosimaga tushib qoldiki, qari qizning ketmoqchi bo‘lganidan  
xursand bo‘lgan xo‘randalar bir-birlariga qarab, kulisha  
boshladi.

– Pish, pish, pish, Puare! – deb qichqirdi unga rassom. –  
Qani, bo‘la qoling, bir, ikki, uch!

Muzey xodimi maynavozchilik qilib o‘sha vaqtdagi  
mashhur bir romansning boshlanishini kuylab yubordi:

*Otlangandi Suriya tomon  
O‘ktam yigit Dyunua shu on...*

– Bo‘la qoling endi, axir o‘zingiz uchib-qo‘nib turibsiz-  
ku, – trahit sua quemque voluptas<sup>1</sup> – dedi Byanshon.

– Har kim o‘z ma‘shuqasining orqasidan ketadi – Ver-  
giliyning she‘rini erkin tarjima qilsak, shunday ma‘no chiqadi, –  
deb ilova qildi repetitor.

Mademuazel Mishono Puarega o‘grilib qaradi va go‘yo  
qo‘li bilan kimningdir qo‘ltig‘idan olgandek harakat qildi; Puare  
bunday talabga dosh berolmay, uning oldiga bordi va unga  
qo‘lini tutdi.

Hamma birdan xaxolab kulib yubordi, qarsaklar chalindi.

– Bravo, Puare!

– Choli tushmagur, Puare

– Appolon<sup>2</sup> Puare!

– Mars<sup>3</sup> Puare!

– Barakalla, Puare!

<sup>1</sup> Trahit sua quemque voluptas (*lotincha*) – har kim o‘z hirsiga ergashadi.

<sup>2</sup> Appollon – qadimgi grek afsonasida quyosh xudosi.

<sup>3</sup> Mars – qadimgi grek afsonasida jang xudosi.

Shu payt xat tashuvchi kirib kelib, Voke xonimga bir xat tutqazdi; uni o'qib chiqib, beva bo'shashganicha o'tirib qoldi.

– Uyimga endi o't qo'yib yuborish qoldi, xolos, samoviy jabr-sitamlarning barchasi boshimga do'lday yog'ilyapti. Soat uchda Tayferning o'g'li o'libdi. Bechora yigitning boshiga tushadigan baxtsizlik evaziga Kutyr xonim bilan Viktorina uchun yaxshilik tilagan ekanman, mana jazoyimni tortib o'tiribman. Xonimlar, buyumlarimizni berib yuboring, biz shu yerda qolamiz, deb yozib yuborishibdi. Tayfer Kutyr xonimga qizi oldida kompanonka bo'lib qolishiga ruxsat beribdi. To'rtta xona bo'shab qoldi, beshta ijarador qo'ldan ketdi! Balo kelsa, qo'sha keladi deyishgani rost ekan! – derdi yig'lamoqdan beri bo'lib Voke xonim.

Ko'chadan eshitilgan arava ovozi eshik oldiga kelib birdan to'xtadi.

– Yana bir balo bo'ldi, shekilli, – dedi Silviya.

To'satdan Gorio kirib keldi; chol xuddi dunyoga qayta kelgandek yuzidan nur yog'ilib turar, nihoyatda baxtiyor ko'rinardi.

– Gorio aravada kelibdi-ya! Axir bu qiyomat-ku! – deb ajablanishdi xo'randalar.

Chol to'ppa-to'g'ri burchakda o'yga tolib turgan Ejen oldig'a bordi, uning qo'ltig'idan olib, xursand ovoz bilan dedi:

– Yuring.

– Iye, bu yerda nimalar bo'lganini bilmaysizmi hali? – dedi Rastinyak. – Votren badarg'a qilingan mahbus bo'lib chiqdi, Tayferning o'g'li o'libdi.

– Bizga nima? – deb e'tiroz bildirdi Gorio ota. – Men qizim bilan birga siznikida ovQat qilaman, tushunyapsizmi? U sizni kutib turibdi, yuring!

U Ejenni xuddi mahubasini o'g'irlab ketayotgan odamdek jon-jahdi bilan qo'lidan torta boshladi.

– Kelinglar, ovqat qilaylik, – deb taklif qildi rassom.

Hamma stul olib dasturxon atrofiga o'tirdi.

– Ana xolos, – dedi baqaloq Silviya, – bugun ko'ngilsiz voqealardan sirayam boshimiz chiqmas ekan-da, bu yoqda lavlagi bilan pishirgan qo'y go'shti ham kuyib ketibdi. Ilojim qancha, kuygan bo'lsa ham yeyaverasizlar endi!

Stol atrofida o'n sakkizta xo'randa o'miga o'nta odam o'tirganini ko'rgan beva Vokening bir og'iz gap aytishga majoli qolmadi, ammo hamma uning ko'nglini ko'tarishga, chiroyini ochishga urinardi. Avvaliga ular Votrendan va bugun bo'lgan ishlardan gaplashib o'tirdilar, ammo bir o'dan keyin gap aylanib suhbat duellar, sudlar, qonunlarning notakomilligi va qamoqlar ustiga o'tib ketdi. Bora-bora suhbatdoshlar Jak Kollen, Viktorina va uning akasi to'g'risidagi gaplardan juda uzoqlashib ketdilar va shunday shovqin-suron ko'tardilarki, garchi o'zlari o'n kishi bo'lsa ham, yigirma kishiga tatirlik darajada baqirishib-chaqirisha boshladilar: go'yo bugun dasturxon atrofiga odatdagidan ham ko'proq odam to'planganga o'xshardi; kechagi ovqat bilan bugungisining farqi ham mana shunda edi, xolos. Parijdagi kundalik hodisalarni o'ziga ermak deb bilgan mana shu xudbin odamlarda mavjud bo'lgan beparvolik ustun keldi; hatto baqaloq Silviyaning gaplaridagi umidvorlikka Voke xonimning o'zi ham ishonib qoldi-yu, ko'ngli tinchidi.

Bugun Rastinyak ertalabdan kechgacha allaqanday yomon tush ko'rgandek gangib yurdi; irodasi kuchli va miyasi joyida ekaniga ham qaramay, Gorio ota bilan aravada yonma-yon o'tirganida ham es-hushini bir yerga yig'ib ololmadi, shuning uchun, qanchadan qancha tashvish tortgan cholning haddan ziyod xursandlik bilan aytayotgan gaplarini xuddi uyqusida eshitayotgandek edi.

– Hamma ish ertalaboq hal bo'lgan. Biz endi uchalamiz birga ovqat qilamiz! Tushunyapsizmi? Mana to'rt yil bo'libdiki, men Delfina bilan, o'zimning Fifina qizim bilan birga ovqat qilganim yo'q. Endi u kechqurunlari doim men bilan birga bo'ladi. Biz ertalabdan beri siznikidamiz. Syurtukimni yechib mardikordek ishladim o'zim ham. Uy anjomlarini tashib kirishga qarashdim. O, Fifinaning dasturxon tepasida qanday mehribon bo'lishini, menga qanday parvona bo'lib: «Dadajon, mana bundan yeb ko'ring, juda lazzatli narsa!» – deyishlarini hali bilmaysiz. U shunaqa mehribonlik qilib turganda mendan sira ovqat o'tmay qoladi. Anchadan beri qizim bilan mana shunday, huzur qilib o'tirmagandim!

– Demak, bugun dunyo ostin-ustun bo'lib ketibdi-da? – dedi unga Ejen.

– Ostin-ustun? – hayron bo‘lib so‘radi Gorio ota. – Yo‘q, dunyo hech qachon bugungichalik yaxshi bo‘lmagan edi. Ko‘chalarda men faqat shod-xurram odamlarni ko‘ryapman, faqat bir-birining qo‘lini qisib ko‘rishayotgan, o‘pishayotgan odamlarni ko‘ryapman, ular shunday baxtiyorki, go‘yo hammasi ham qizlari bilan ovqat qilgani ketayotgandek, xuddi Fifina mening huzurimda «Ingliz qahvaxonasi»ning bosh oshpaziga buyurtirgan lazzatli taomlar singari ovqat yegani ketayotgandek tuyuladi. Qizim bor yerda achchiq turp ham asaldek shirin tuyulib ketadi.

– Endi o‘zimga kelayotganga o‘xshayman, – dedi Ejen.

– Izvoshchi, tezroq qimirasang-chi! – deb qichqirdi Gorio ota, old tarafdagi oynani ko‘tarib. – Hayda, agar aytgan joyimga o‘n daqiqada yetkazib qo‘ysang, aroqqa yuz su olasan.

Bunday va‘dani eshitib, izvoshchi otlarini qamchilab, uchira ketdi.

– Muncha sudralmasa, – derdi Gorio ota.

– Qayoqqa olib ketyapsiz meni? – deb so‘radi Rastinyak.

– Siznikiga.

Arava d’Artua ko‘chasida to‘xtadi. Chol birinchi bo‘lib tushdi va ishratparast tul erkaklar singari saxiylik bilan pulning betiga qaramay, kucherga o‘n frank tutqazdi.

– Qani, yura qoling, – dedi u Rastinyakka va yap-yangi chiroyli bir uyning hovlisidan aylanib o‘tib, Ejenni to‘rtinchi qavatdagi bir kvartira eshigi oldiga yetaklab chiqdi. Gorio ota qo‘ng‘iroq qilishga ham ulgirmadi. De Nusingen xonimning uy xodimasi Tereza eshikni ochdi. Ejen o‘zini bir peshxona, kichkinagina mehmonxona, yotoqxona va kabinetdan iborat shinamgina kvartirada ko‘rdi; kabinetning derazasidan qandaydir bir bog‘ ko‘rinib turardi. Kichkinagina mehmonxona o‘zining qulayligi va jihozlarining chiroyliligi bilan hech qanday mehmonxonadan qolishmasdi. Ejen shu yerda shamchiroq yorug‘ida, kamin oldiga qo‘yilgan kozetkada<sup>1</sup> o‘tirgan Delfinaga ko‘zi tushdi; xonim o‘rnidan turdi, olovning taftini to‘sib turuvchi kichkina to‘siqni kamin tokchasiga qo‘ydi va Rastinyakka qarab g‘oyat mehribonlik bilan:

– Hali sizga odam yuborish ham kerak ekan-da, janob

<sup>1</sup> Kozetka – ikki kishi o‘tiradigan divan.

beparvo! – dedi.

Tereza chiqib ketdi. Talaba Delfinani quchoqladi, uni bag‘riga bosib turib, xursandlikdan yig‘lab yubordi. Miyasi-yu, qalbini toliqtirgan bir kunlik qanchadan qancha og‘ir hayajonlardan keyin «Voke uyi»dek joydan mana bunday manzara qo‘yniga kelib qolishi Rastinyakning ko‘nglini bo‘shashtirib yubordi.

Ejen gapirishga ham, bunday sehrli narsalarning qayerdan paydo bo‘lgani haqida o‘ylashga ham majoli qolmay, kozetkada cho‘zilib yotarkan, Gorio ota qiziga pichirlab derdi:

– Seni yaxshi ko‘rishini bilardim.

– Yuring, axir, bunday o‘z ko‘zingiz bilan uyni ko‘ring, – deb de Nusingen xonim Ejenning qo‘lidan olib, narigi xonaga yetaklab chiqdi, bu yerdagi gilamlar, jihozlar, hatto eng arzimas ikir-chikirlar ham Delfinaning xonasini eslatardi farqi xona xiyla chog‘roq edi, xolos.

– Faqat karavot yetishmas ekan, – dedi Rastinyak.

– Ha, – deb javob qildi Delfina qizarib va uning qo‘lini qisib.

Ejen unga qaradi: yigit hali yosh edi, shuning uchun ham u ma‘shuqa ayolning dili samimiy hayo hissi bilan limmo-lim bo‘lishini angladi.

– Siz sajda qilsa arziydigan ayollar toifasidansiz, – dedi Ejen uning qulog‘iga. – Bir-birimizni shunday yaxshi tushunamizki, sizga: muhabbat qanchalik kuchli, qanchalik chinakam bo‘lsa, uni shunchalik sir saqlash, yashirin tutish kerak, deb dilimdagi gapni qo‘rqmay aytishga jur‘at eta olaman. Sirimizni birovga bildirmaylik.

– O‘sha birov men ekanman-da, – deb to‘ng‘illab qo‘ydi Gorio ota.

– Siz-u biz bir odam ekanimizni o‘zingiz yaxshi bilasiz...

– Men ham ana shuni istardim: axir, menga e‘tibor berib o‘tirmaysizlar-ku, a? Men esa bamisoli maloikalardek kelib-ketib yuraveraman – maloikalar ko‘rinmaydi, Fifina, Nini, Didi! Nima degan edim senga: «D’Artua ko‘chasida yaxshigina bir kvartira ijaraga berilayotgan ekan, o‘sha kvartirani Ejenga yasatib beraylik», demabmadim, yaxshi aytgan ekanmanmi? Sen bo‘lsang, yo‘q deb yuribsan. Seni dunyoga keltirgan ham, mana bugun shodlantirgan ham o‘zimman. Otalik baxtining kayfini

surish uchun otalar bolalariga doim biron narsa hadya qilib turishlari kerak. Doimo hadya qil! Ota bo'lganingdan keyin, qiladigan vazifang shu bo'lsin!

– Nimalar deyapsiz o'zi?

– Ha, ha, to'g'risi, u bunga ko'nmagan edi: go'yo jamoatchilik fikri kishi baxtidan ham ustun-u, shuning uchun har xil g'iybatlar boshlanib ketishidan qo'rqdi! Vaholanki, hozir hamma ayollar u qilgan ishni orzu qiladilar...

Gorio ota yolg'iz o'zi gap sotayotgan edi. De Nusingen xonim Ejenni kabinetga boshlab kirib ketgandi, ular ichkari kirishi bilanoq, u yerdan ehtiyotkorona bo'lsa ham, har holda, bu xonaga eshitarli darajada o'pish ovozi keldi. Bu xona ham jihozlarining chiroyliligi bilan boshqa xonalardan qolishmasdi – hamma xonalar yaxshilab jihozlangan edi.

De Yusingen xonim ovqatlanish uchun mehmonxonaga qaytib chiqib, stol yoniga o'tirarkan:

– Ko'nglingizdagini topibmizmi? – deb so'radi.

– G'oyat darajada soz, – dedi Ejen. – Lekin, afsus! Jihozlarning go'zalligini, did-farosat bilan tanlanganini amalda ko'rib turganim bu ajoyib tushni, bu go'zal hayotdagi butun nafosatni men juda yaxshi tuyib turibman, ammo bunday sovg'ani qabul qila olmayman, o'zim esa juda kambag'al bo'lganim uchun...

– Ha-ha-a! Hali shundaymi! Halitdan gapimni qaytaryapsizmi? – dedi de Nusingen xonim, u bu gapni shunday nozkarashma, hazil-mutoiba bilan, shunday amirona ohangda aytdiki, ayollar o'zgalarni vijdon azobidan qutqarmoqchi bo'lsalar, bunday azobni tamomila yo'qotib yuborish uchun, odatda, shunaqa yo'l tutadilar.

Ammo Rastinyak bugun o'zini juda qattiq tergov ostiga olgandi, buning ustiga, Votrenning qamoqqa olinishini ko'rdiyu, sal bo'lmasa, qanday tubsiz jarga qulab ketay deb turganini payqab oldi, bularning hammasi bir bo'lib, Ejendagi olijanoblik tuyg'ularni va axloqiy-ma'naviy kuchlarni shunday mustahkamlagan ediki, shirinso'zlik bilan uni o'z e'tiqodlaridan qaytarmoqchi bo'layotgan Delfinaga bo'ysuna olmasdi. U juda xafa bo'lib ketdi.

– Nima, nahotki rad qilsangiz? – deb so'radi de Nusingen xonim. – Bunday bo'yin tovlashning ma'nosini o'zingiz tushuna-

sizmi? Siz kelajakka ishonmayapsiz, men bilan munosabatda bo'lishdan qo'rqaysiz. Demak, sizga bo'lgan hislarimni aldashedan qo'rqasan? Agarda meni sevsangiz, men ham sizni sevsam, bunday arziyas sovg'ani qabul qilishingizga nima to'sqinlik qiladi sizga? Bo'ydoqlarga xos bu kvartirani jihozlash menga qanchalik lazzat bag'ishlaganini bilsangiz edi, bunday ikkilanib o'tirmasdingiz, mendan uzr so'ragan bo'lardingiz. Qo'limda pulingiz bor edi, men ularni mana shu ishga sarf qildim – bor gap shu. O'zingizni himmati zo'r odam deb hisoblaysiz, aslida esa, nazari past odamsiz. Siz bulardan ham ko'proq narsani istaysiz... Ah,.. – deb yubordi u, Ejenning ehtiros bilan qarab turganini payqab qolib, – ...o'zingiz bo'lsangiz arzimagan narsalar ustida noz-firoq qilib o'tiribsiz! Meni yaxshi ko'rmasangiz, o, unda, bularni rad qilganingiz ma'qul! Mening qismatim bir og'iz gapingizga bog'liq bo'lib qoldi. Gapiring!.. Axir, dada, tushuntir-sangiz-chi bunga, – dedi u otasiga, birpas jim turgandan keyin. – Nahotki, or-nomus masalasida meni o'zichalik ziyrak emas deb o'ylasa.

Gorio ota kayf qilib olgan nashavandlar singari og'zining tanobini yig'ib ololmay, ularning yoqimtoy g'ijillashiga quloq solib turardi.

– Siz go'daksiz, hayotga endi kirib kelyapsiz, – deb davom etdi xonim, Ejenning qo'lidan ushlab, – yo'lingizda ko'pchilik yengib o'tolmaydigan to'siq paydo bo'ldi, ammo ayol kishining qo'li o'sha to'siqlarni yo'lingizdan surib tashladi, siz bo'lsangiz orqaga tisarilib o'tiribsiz! Lekin hamma narsa hali oldinda, juda katta davlat ham ortirasiz, oydek jamolingizdan omadli yigit ekanligingiz ko'rinib turibdi. Omadingiz kelib boyiganingizda sizga hozir qarzga bergan narsalarimni qaytara olmaysizmi? Axir, qadim zamonlarda xonimlar o'z ritsarlariga turnirlarda<sup>1</sup> mening sharafimga jang qiling deb qilich, qalqon, sovut sovg'a qilmas edilarmi? Menga qarang, Ejen, men sizga sovg'a qilayotgan narsa hozirgi zamonda nufuzli odam bo'laman degan kishi uchun zarur bo'lgan kurash qurollari-ku. Cherdak-

<sup>1</sup> **Turnir** (*nemischa: Turnier*) – 1) o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada ritsarlarning harbiy musobaqasi. Uning maqsadi ritsarlarning jangovarlik qobiliyatini namoyish qilish bo'lgan. Ko'p mamlakatlarda 16-asrda to'xtatilgan; 2) 2 tadan ortiq sportchi ishtirok etadigan shaxsiy yoki jamoa birinchiligi musobaqalarini o'tkazish shakli.

dagi hujrangiz otamning xonasiga o'xshasa, xo'p yaxshi joy bo'lsa kerak! Demak, ovqat qilmas ekanmiz-da, bo'lmasa? Siz meni xafa qilmoqchisiz-a? Javob bersangiz-chi! – dedi u Ejenning qo'lidan tortib. – Yo rabbiy! Dada, ko'ndirsangiz-chi uni, bo'lmasa men bu yerdan hozir ketaman-u, u bilan boshqa sira ko'rishmayman...

– Hozir sizni ko'ndiraman, – dedi shodlikdan esini yo'qotgan Gorio ota hushini yig'ib. – Azizim, janob Ejen, axir, yahudiylardan ham qarz olib turasiz-ku, a shundaymi?

– Bo'lib turadi, – dedi Rastinyak.

– Juda soz, mana, qo'lga tushdingiz, – deb gapini davom ettirdi chol, yonidan eskib ketgan karmonini qo'lga olar ekan. – Endi men o'zim yahudiy bo'lib oldim: bu narsalarga hamma pullarni men to'ladim, mana hujjatlari. Bu yerdagi jamiki narsalar uchun siz bir santim<sup>1</sup> ham qarzdor emassiz. Sarf bo'lgan pul uncha ko'p ham emas, nari borsa, besh ming frank bo'ladi, ana shu pulni sizga men qarz beraman, men esa ayol kishi emasman, shuning uchun mendan pul olishga yo'q deya olmaysiz. Bir parcha qog'ozga menga tilxat yozib berasiz bas, pulni keyin beraverasiz.

Ejen bilan Delfina hayron bo'lib bir-birlariga qarashdi; shunda ikkalasining ko'zida ham yosh yaltiradi. Rastinyak chorning qo'lini qizg'inlik bilan qisdi.

– Ha, nimasiga hayron bo'lasizlar! Axir, ikkingiz ham mening bolam emasizmi? – dedi Gorio ota.

– Otajonim, – dedi de Nusingen xonim, – axir buni qanday qila oldingiz?

– Ha-a, hamma gap ham ana shunda-da! Unisenga yaqinroq yerga ko'chirib kelishga ko'ndirganimdan keyin qaragam, xuddi kelinchakka mol tanlagandek rosa xarid qilyapsan, shuni ko'rdim-u: «Ish bunday boradigan bo'lsa, boshi g'ovlab qoladi-ku!» – dedim o'zimcha. Axir, ishonchli vakilimizning aytishicha, o'z pullaringni ajratib berish uchun eringga qarshi qo'zg'agan sud ishimiz yarim yilcha cho'zilar ekan. Xo'p! Shunday dedim-u, o'zimning yiliga bir ming uch yuz ellik frank foyda berib turgan doimiy rentamni sotdim; o'n besh ming frankni umrbod

<sup>1</sup> Santim – Fransiyada 1797-2001-yillar muomalada bo'lgan pul birligi frankning 100 dan bir qismi. 1 frank = 100 santim.



bir ming ikki yuz frankdan yillik daromad berib turadigan ishonchli bir ishga joylashtirdim, qolgan pullarimdan esa, sizlarga mana bularni yetkazib berganlar bilan hisob-kitob qildim. Shu yerda, yuqoridan, bir yuz ellik frankka bir xonani bir yilga ijaraga oldim; kuniga qirq su bemalol yetib, ortib qoladi. Kiyimboshning menga keragi yo‘q, borlarini kiyib tamomlasam ham xo‘p gap. Rosa ikki haftadan beri o‘zimga o‘zim: «Xo‘p baxtli bo‘lishadi-da, endi!» deb sevinib yuribman. Xo‘sh, yo baxtli emasmisizlar?

– O, dada, dadajon! – dedi-yu, de Nusingen xonim lip etib otasining tizzasiga o‘tirib oldi.

Delfina og‘asining yuz-ko‘zlaridan o‘par, erkalanib sarg‘ish sochlari, oltindek tovlangan boshini uning yuzlariga surkar va baxtiyorlikdan ochilib ketgan cholning yuzlariga ko‘z yoshlarini to‘kardi.

– Dadajon, siz chinakam otasiz. Dunyoda sizdan boshqa bunaqa ota yo‘q. Ejen sizni ilgari ham yaxshi ko‘rar edi, endi qanchalik yaxshi ko‘rarkin!

Gorio ota o‘n yildan beri, qizining yurak urishini mana shunday, o‘z yuragi oldida his qilmagan edi.

– Bo‘ldi, bolalarim, bas, Delfina, – der edi u, – bunday qilaversang xursandlikdan yuragim yorilib o‘laman. Yuragim otilib chiqib ketay deyapti. Menga qarang, janob Ejen, siz bilan endi oramiz ochiq. Shunday deb, chol qizini astoydil shunday mahkam quchoqladiki, qizi:

– Voy, og‘ritdingiz, – deb yubordi.

– Qattiq og‘ritdimmi-a?! – dedi chol, rangi o‘chib.

Otasi unga qattiq iztirob bilan qarab turardi. Bu payg‘am-barsifat otaning chehrasini aniq tasvirlamoq uchun buyuk rassomlar chizgan ajoyib sanamlarga murojaat qilmoq lozim; bu sanamlarda bashariyat haloskori Isoning jamiyat istiqboli yo‘lida tortgan jamiki azob-uqubatlari nihoyatda yorqin aks ettirilgandir. Gorio ota g‘oyat ehtiyotlik bilan qizining belidan o‘pib qo‘ydi – xuddi shu yerga uning barmoqlari juda qattiq botgan edi.

– Yo‘q, yo‘q, joningni og‘ritganim yo‘q, – derdi u jilmayib, qiziga yolvoruvchi nazar tashlarkan, – o‘zing qichqirib, o‘takamni yorib yubording. – So‘ng u qizini ehtiyot bilan o‘pib qo‘yib, qulog‘iga shivirladi: – Bularning hammasi aytganimdan

ancha qimmat turadi, ammo buni unga bildirib bo'larmidi, achchig'i chiqib o'tirmasin yana.

Ejen cholning bunday cheksiz himmatidan hayratda edi, unga shunday laqmalik va ochiq chehra bilan mahliyo bo'lib turardiki, bu his yosh yigitlarning badanini allaqanday ilohiy tuyg'u bilan jimirlatib yuboradi.

– Men bularning hammasiga munosib odam bo'laman! – dedi u.

– Azizim Ejen, hozir aytgan gaplaringiz biram yoqimlik! – deb, de Nusingen xonim uning peshonasidan o'pib oldi.

– U seni deb mademuazel Tayferdan, uning millionlaridan voz kechib turibdi, – deb qo'shimcha qildi Gorio ota. – Ha, o'sha qiz sizni yaxshi ko'rar edi, endi bitmas-tuganmas davlatga ega bo'ldi.

– Nima keragi bor edi bu gaplarning? – Rastinyak unga ta'na bilan qarab qo'ydi.

– Ejen, – deb Delfina uning qulog'iga shivirladi, – endi bugun kechqurun xafalikdan boshim chiqmas ekan-da, O, sizni hamma vaqt birday yaxshi ko'raman!

– Sizlarni erga berganimdan beri ko'rgan eng yaxshi kunim mana shu bugun bo'ldi! – dedi Gorio ota. – Endi xudo boshimga ne-ne azoblarni solsa ham mayli, faqat sizlarning g'amingizni ko'rmasam bas, endi doim: «Shu yil fevral oyida men odamlar butun umrida ko'rolmaydigan xursandchilikni ko'rdim», – ham bo'laveradi. Yuringlar, ovqat yeyaylik, yuringlar, bu yerdagi hamma narsa o'zimizniki, – deb qoldi u to'satdan, boshqa nima deyishini bilmay.

– Dadajon,

Chol o'rnidan turdi, qizining oldiga borib, uning boshini qo'llari orasiga oldi va sochining farqidan o'pib, dedi:

– Eh, qo'zichog'im, o'zingni hech koyitmasdan turib ham meni juda baxtiyor qila olishingni bilsang edi! Men anavi yerda, yuqorida yashayman; ikki qadam ortiqcha yurib, mening oldimga kirib chiqsang nima qiladi? Kirasanmi, a?

– Kiraman, dadajon.

– Takrorla.

– Kiraman, dadajon.

– Bo'ldi, bas qil, bo'lmasa sevinganimdan, bu gapni yu-

marta takrorlatishga majbur etaman. Yuringlar, ovqatlanaylik.

O'sha kuni kechqurun hammalari ham yosh bolalardek rosa sho'xlik qilishdi, lekin Gorio ota sho'xlik qilishda sira ham yoshlardan qolishmadi. U qizining oyoqlari ostiga yonboshlab yotib olib, u oyoqlardan o'par, ko'zlariga uzoq-uzoq tikilar, ko'ylagiga yuzini ishqar – xullas, hech o'zini tiya olmay, faqat juda yosh, juda jo'shqin oshiqlargagina xos qiliqlarni qilardi.

– Ko'rdingizmi? – deb Delfina Rastinyakka shivirladi. – Otam biya bilan birga bo'ladigan bo'lsa, faqat u bilan band bo'lishga to'g'ri keladi. Bu esa ba'zan malol keladi.

Bir necha bor rashk o'tida yongan Ejen uni bu gapi uchun qoralamadi, bu fikr ostidan esa mash'um nonko'rlikning kurtagi nish urib chiqayotgan edi.

– Xonamiz qachon mukammal tayyor bo'ladi? – deb so'radi Ejen, xonani ko'zdan kechirar ekan. – Demak, bugun ajralishga to'g'ri kelar ekan-da!

– Ha, ammo ertaga menikida ovqat qilasiz, – dedi Delfina, unga mug'ambirona nazar tashlab, – ertaga Italianlar operasi kuni.

– Men parterdan joy olaman, – dedi Gorio ota.

Vaqt yarim kecha bo'ldi. Delfinani olib ketgani kareta keldi. Talaba bilan Gorio ota «Voke uyi»ga qarab ketishdi, Yo'l-yo'lakay Delfina to'g'risida gaplashib borisharkan, uning go'zaligiga shunday tahsinlar o'qishdiki, bu suhbat kuchli ehtiroslar tortishuviga o'xshab ketdi. Har qanday xudbinlik manfaatidan holi bo'lgan bu otaning mehri o'z mustaqilligi va teranligi bilan Ejenning muhabbatidan ustun edikim, buni yigit e'tirof etmay iloji yo'q edi. Ota mehriga sazovor bo'lgan farzand, shak-shubhasiz, musaffo va go'zal bo'lib qolgandi, o'tmish va kelajak to'g'risidagi fikrlar esa bu mehribonlikni yana ham oshirib yuborgandi.

Uyga qaytib kelib, ular beva Vokening yolg'iz Silviya va Kristof bilan pechka oldida o'tirganini ko'rishdi. Keksa baka Karfagen<sup>1</sup> xarobalari orasida yolg'iz qolgan Mariyga o'xshardi. U Silviyaga dard-alamini aytib, qolgan ikkita ijaradorni kutib

<sup>1</sup> Karfagen – O'rta Yer dengizga hukmronlik qilish uchun Rim imperiyasi bilan urushgan davlat. Urush Rimning g'alabasi bilan tugagan. Karfagen hududining bir qismi Rimning Afrika provinsiyasiga aylantirilgan, bir qismi esa Numibiyaga berilgan.

o'tirardi. Lord Bayron o'zining Tasso degan qahramoniga o'z hasratini bayon qilishi uchun qanday zo'r so'zlarni topib bergan bo'lmasin, u gaplar beva Vokening og'zidan chiqayotgan jonli hasrat darajasiga yetishiga hali ancha bor edi.

– Silviya, bundan chiqdi, ertaga faqat uch chashka qahva tayyorlashga to'g'ri keladi. Qara-ya. Uyimiz huvullab qoldi, yuraklarim chok-chok yorilib ketyapti. Xo'randalarsiz! Turmush turmush bo'libdimi? Hech ham-da. Yo rabbiy, uyim huvulladi qoldi-ya! Odamsiz uyda hayot ham bo'lmaydi. Xudoga nima gunoh qiluvdimki, boshimga bunday savdolarni solmasa? Loviya bilan kartoshkani yigirma kishiga mo'ljallab g'amlab qo'ygan edik-ku, a! Buni qarang-ki, kelib-kelib mening uyimga politsiya kirsa-ya! Endi faqat kartoshka bilan kun kechirishga to'g'ri kela-di) Kristofga ham javob berib yuborish kerak bo'ladi!

Uxlab yotgan Kristof sapchib uyg'onib ketib, so'radi:

– Nima xizmat buyuradilar?

– Bechora bola! Xuddi poyloqchi itga o'xshaydi-ya, – deb qo'ydi Silviya.

– Qish vaqti bo'lsa, hamma joy-joyini topib ketgan. Endi ijaradorlarni qayerdan topaman? Jinni bo'lib qolaman hali. O'lganning ustiga chiqib tepgan, degandek, anavi alvasti Mishono Puareni ham ergashtirib ketdi. Uning nimasi yoqib qoldiykin Puarega, nima qilib o'ziga rom qilib oldiykin, u dajjol xuddi laycha itdek orqasidan ergashib yuradi-ya!

– Voy, bo'lmasam-chi! Odamni qanaqa qilib tuzoqqa ilintirishni shu qari qizlar bilishsin-da, – deb qo'ydi bosh chayqab Silviya.

– Sho'rlik janob Votrenni mahbusga aylantirishdi qo'yishdi-ya, bilasanmi, Silviya, nima desang degin-u, ammo haligacha bunga ishongim kelmaydi. Chunonam xushchaqchaq odam edi. oyiga o'n besh frankdan naqd to'lab, «gloriya» ichib turardi

– Tuppa-tuzuk odam edi! – deb qo'ydi Kristof.

– Biror chatoqlik yuz bergan, qoynahoy! – dedi Silviya.

– Yo'g'-e, o'zi iqrar bo'ldi-yu, – dedi beva Voke. – Yo tavba-ey, shu ishlarning hammasi kelib-kelib mening uyimda yuz berdi-ya, hattoki daydi mushuk ham uchramaydigan osoyishta bir mahalladagi uyda-ya! Xudo haqqi, xuddi tushga

o'xshaydi. Sen bilan biz Lyudovik o'n oltinchining boshiga ne kunlar tushganini ham, imperatorning taxtdan tushganini, yana qaytib taxtga o'tirganini, keyin yana taxtdan ag'darilganini ham ko'rganmiz – bularning hammasi ishonsa bo'ladigan narsalar. Ammo oilaviy pansionlarga qarshi bir narsa deb bo'larkanmi, podshosiz yashasa bo'ladi, lekin ovqatni doim iste'mol qilib turish kerak, modomiki, halol bir bechora beva, tag'in, de Konflanlar avlodidan chiqqan ayol odamlarni xilma-xil lazzatli taomlar bilan boqib kelayotgan bo'lsa-yu, boshiga shunday kunlar tushsa, qiyomat-qoyim boshlandimi, deymanov... Rost, xuddi shunday, qiyomat-qoyim yaqinga o'xshaydi.

– Buni qarang-ki, shu mashmashalarning hammasiga mademuazel Mishono sabab bo'ldi-ya, yana aytishlariga qaraganda, bu qilmishi uchun yiliga ming ekyudan daromad beradigan renta ham ishlab olgan emish! – dedi Silviya.

– Nomini tilingga olma o'sha yashshamagurning! – dedi beva Voke. – Bu ham kamdek, u yana Byunoning uyiga ko'chib o'tmoqchi. Ha, uning qo'lidan har ish keladi, bir vaqtlar juda yomon ishlar bilan shug'ullangan bo'lsa ham ajab emas, o'g'irlik ham qilgan, odam ham o'ldirgan. Anavi bechoraning o'rniga asli o'sha mochag'arni surgunga yuborish kerak edi!

Xuddi shu payt Ejen bilan Gorio ota eshik qo'ng'irog'ini chalib qolishdi.

– Ana! Mening ikkita sodiq ijaradorim keldi, – dedi xo'rsinib Voke xonim.

Oilaviy pansion boshiga tushgan musibatlar haqida g'irashira tasavvurga ega bo'lgan bu ikki «sodiq» ijarador o'yabnetib o'tirmay, bekaga o'zlarining Shosse d'Anten ko'chasiga ko'chib o'tmoqchi bo'lishganini bildirishdi.

– Silviya, oxirgi umidim ham puchga chiqdi! – deb yubordi Voke xonim. – Janoblar, menga yomon zarba berdinglar! Naq yuragimga xanjar urdinglar! Iloyo, qurib ketsin bunaqa kun! Bunaqa bir kunda o'n yosh qariysan kishi. O'lay agar jinni bo'lib qolaman! Loviyani nima qilaman endi? Xo'p, mayli! Yolg'iz o'zim qolar ekanman, senga, Kristof, ertagayoq javobingni beraman! Xayr, janoblar, yaxshi tush ko'rib yotinglar.

– Unga nima bo'ldi o'zi? – deb so'radi Ejen Silviyadan.

– Nima bo'lardi! Yuz bergan voqeadan keyin hamma

ijaradorlar to'zib ketishdi. O'shanga miyasi aynib qoldi. Iye, yig'layaptimi deyman? Bir yig'lab olsa, yuragi bo'shaydi. Shu yerda xizmat qilganimdan beri, uning yig'laganini birinchi ko'rishim.

Ertasiga erta bilan Voke xonim, o'z ta'biri bilan aytganda, esini yig'ib oldi. Ma'lumki, ijaradorlaridan ajralgan va katta o'zgarishlarni boshidan kechirgan har bir beka singari u ham qattiq xafa edi, ammo aqlini yo'qotib qo'ymadi va chinakam g'amning, moddiy jihatdan zarar ko'rish hamda odatlanib qolgan hayotidan ajrash natijasida tug'iladigan cheksiz g'amning qanday bo'lishini namoyish qildi. Ma'shuqasi yashaydigan joydan jo'nab keta turib, u oshyonga so'nggi marta nazar tashlayotgan oshiqning nigohida aks etgan anduh ham Voke xonimning bo'shab qolgan stolga tikilgan ko'zlaridagi tashvishchalik og'ir ko'rinmasdi. Ejen Byanshonning kasalxonadagi amaliy mashg'uloti tugab qolayozdi, yaqinda mening o'rnimga u ko'chib keladi, muzey xodimi ham Kutzur xonimning xonasiga ko'chib kelgan bo'lardim, deb bir necha marta xohish bildirgan edi, sira g'am yemang, hademay yangi ijaradorlar bilan uyingiz to'lib qoladi yana, deb bekani yupata boshladi.

– Iloyo, aytganingiz kelsin, muhtaram janob Ejen! Lekin bu uyga baxtsizlik kirib qoldi. Ko'rarsiz, o'n kun ham o'tmay, bu yerga ajal ham kirib keladi hali, – dedi Voke yemakxonani g'alati bir nazar bilan ko'zdan kechirib. – Kimni olib ketarkin o'lim?

– Ko'chish kerak, – dedi sekingina Ejen, Gorio otaga,

– Xonim, uch kundan beri, Mistigri ko'rinmaydi, – dedi vahima bilan Silviya yugurganicha xonaga kirib kelarkan.

– Voy, agar mushugim o'lib qolgan bo'lsa, agar u ham meni tashlab ketgan bo'lsa, unda...

Sho'rlik beva gapini tugatmay qo'llarini izdi-yu, bu xunuk xabardan o'zini yo'qotib kresloga suyanib qoldi.

Choshgohga yaqin, pochtaalon Panteon atrofidagi joylarga xat olib keladigan vaqtda Ejen de Boseanlar muhri bosilgan konvertda bir maktub oldi. Konvert ichida, bo'lishi bir on oldin ma'lum bo'lgan balga janob Nusingen bilan Nusingen xonim nomiga yuborilgan mehmon qog'ozi bor ekan. Mehmon qog'ozlar orasidan Ejen nomiga yozilgan kichkinagina maktubcha ham chiqdi.

*«De Nusingen xonimga ko'nglimdagi hislarimni yetkazishda menga vositachi bo'lishdek ishga mamnuniyat bilan rozilik bildirarsiz deb o'yladim. O'zingiz iltimos qilgan mehmon qog'ozlarni yubordim va de Resto xonimning singlisi bilan tanishish baxtiga muyassar bo'larman deb umid qilaman. Mana endi, o'sha sohibjamolingizni menikiga olib kelavering, ammo shunday qilingki, do'stlik hislaringizning hammasini u o'ziniki qilib olmasin, nega desangiz, sizga do'st bo'lganim uchun, o'sha hislaringizdan kattagina ulushini menga ham ajratishingiz kerak.*

*Vikontessa de Bossan»*

«Durust, ammo de Bosean xonim baron Nusingenning balda hozir bo'lishini xush ko'rmasligi haqida aniq sha'ma qilibdi-ku» – deb o'yladi Ejen.

U Delfinani xursand qilishidan mamnun bo'lgan holda va bu xizmati evaziga munosib tuhfa olishiga qattiq ishongan holda, shu zahotiyiq xonimning huzuriga jo'nadi. De Nusingen xonim vannada edi. Ejen ikki yildan beri o'z mahubasiga ega bo'lishni orzu qilib yurgan jo'shqin yurakli yigitga xos sabrsizlik bilan uni xosxonada kutib o'tirdi. Yigitlar hayotida bunday hayajonli damlar ikkinchi bor takrorlanmaydi. Erkak kishi birinchi marta yaxshi ko'rib qolgan, chindan ham sevishta munosib bo'lgan ayolning, ya'ni, erkak kishi nazarida, Parij zodagonlari davrasi tomonidan zardal ramkada tasvirlangan ayolning hech qachon raqibi bo'la olmaydi. Parijdagi muhabbat chekka viloyatlardagi muhabbatga aslo o'xshamaydi. Chin yurakdan sevaman, hech qanday shaxsiy manfaat ko'zlayotganim yo'q deb hamma ishlatadigan soxta iboralar bilan bu yerda hech kimni – erkak kishini ham, ayol kishini ham aldab bo'lmaydi. Bu yerda ayol kishi faqat bizning hirsiy tabiatimizga va qalbimizning barcha talablariga javob berish bilan cheklanib qolmaydi – u ko'pdan ko'p ikirchikirlarga e'tibor berishni o'zining muhim vazifasi deb tushunadiki, hayot degan narsaning o'zi ana shundan iborat. Parijliklar muhabbatida maqtanchoqlik, dabdaba-yu, yasan-tusan, isrofgarchilik, bezbetlik va safsatabozlik haddan ziyod ko'p, Made-muazel de Lavalerga azbaroyi mehri qaynab ketganidan, gersog

de Vremanduaning yorug' dunyoga kelishiga ko'maklashish uchun qar biri ming ekyudan turadigan manjetini ham ayamay shartta yirtib bergan buyuk qirol Lyudovik XIV saroyidagi hamma xonimlar mademuazelga o'lgudek hasad qilganlaridan keyin boshqalardan nima kutish mumkin edi? Boylik, yoshlik, asilzodalikni o'zingizda mujassamlashtiring, ilojini topsangiz, yana ham omadliroq bo'ling, sanamga sajda qilgandek ixlos qo'ygan odamingiz oyoqlari ostiga qanchalik ko'p mana shunday fazilatlaringizni keltirib qo'ysangiz, u odamingiz sizga o'shan-chalik mehribon bo'laveradi, albatta, shunday sajda qiladigan odamingiz bor bo'lgan taqdirdagina bunga muyassar bo'lasiz. Muhabbat ham bir din, unga sig'inish boshqa narsalarga sig'inishdan qimmatroq turadi: muhabbat tez o'tib ketadi. Ammo u ko'cha bolasi singari yo'lida uchragan qar bir narsani buzib, yanchib o'tadi. Hassoslik – cherdaklarda yashaydigan odamlarga xos nafosatdir. Hassoslikdek ko'ngil boyligi bo'lmasa, unday odamlarning muhabbati qay ahvolga tushgan bo'lardi? To'g'ri, Parij qonunlariga aloqador bo'lmagan qalblar ham bo'ladi, ammo bunday qalblarni biz behuda ovoragarchiliklardan holi o'zga dunyoda, umuman, qabul qilingan qoida-qonunlar ta'siriga berilmagan, zilol suvlarini tinimsiz, tez oqizib, sharaqlab qaynab yotgan, qancha qaynasa ham, suvi ado bo'lmaydigan sof buloqlar boshida yashaydigan odamlarda uchratamiz; bunday odamlar o'zlarining yam-yashil kulbalariga doimo sodiq bo'lib qoladilar, ular har bir narsaga, jumladan, butun koinot aks-sado berib turgan tovushlarga xursandlik bilan quloq solib, o'zini o'zi yerga bog'lab qo'ygan odamlarga qayg'urib, o'zlarining samoga parvoz qiladigan paytlarini sabr-toqat bilan kutib yotadilar. Ejen har xil izzat-ikromlar mazasini tushunib qolgan ko'pchilik yigitlar singari jamiyat orasiga har jihatdan shaylangan holda kirib borishga intilardi; u jamiyat ustidan hukmron bo'lish dardiga muhtalo bo'lgandi, ehtimolki, hukmronlik qilishga o'zida yetarli kuch borligini ham his etgandi, ammo bu maqsadga erishishning na vositasini topa olar, na bunday shuhratparastlikdan maqsad nima ekanini tushunardi. Kishi hayotini bezaydigan sof va muqaddas muhabbat mavjud bo'lmagan yerda, hukmronlik qilishga bo'lgan intilish ajoyib ishlar manbaiga aylanishi mumkin – buning uchun faqat kishi har qanday shaxsiy maqsadlardan



voz kechib, o'z mamlakatini ulug'lashni oldiga maqsad qilib qo'yishi kerak. Lekin Rastinyak odam hayotini to'g'ri nazorat qila oladigan va hayotning qay tarafga oqib borayotganini belgilay oladigan darajadagi yuksaklikka ko'tarilganicha yo'q edi hali. Qishloqda katta bo'lgan odamning qoniga singib ketadigan yoqimli, shirin tushunchalar quchog'idan ajrab chiqib ketolmagan edi. Ejen Parij Rubikonidan<sup>1</sup> hatlab o'tolmay turardi. Yangi hissiyotlarga chanqoq bo'lishiga qaramay, u hali ham haqiqiy dvoryanlar o'z yer-mulkida kechiradigan baxtli hayot to'g'risidagi fikrlarni ko'nglidan chiqarib tashlaganicha yo'q edi. Ammo uning eng oxirgi shubhalari ham o'z kvartirasiga kirib borgan zahoti tarqab ketdi. O'zining asilzodaligi tufayli erishgan butun afzalliklaridan ko'pdan beri foydalanib kelganidek, boylikning moddiy afzalliklaridan foydalanib ko'rdi-yu, qishloqilik qobig'ini tashlab yubordi va sekin-asta shunday bir mavqega kirib oldiki, bu mavqedan unga go'zal kelajak sari yo'l ochilardi. Mana hozir Delfinaning chiroyli xosxonasidagi kresloda, o'z uyida o'tirgandek bahuzur yastanib, Delfinani kutib o'tirar ekan, o'zini bundan bir yil oldin Parijga kelgan avvalgi Rastinyakdan shunday uzoqlashib ketgan holda tasavvur qildiki, beixtiyor o'zidan: «Hozir o'zim o'zimga o'xsharmikanman?» – deb so'radi.

– Baronessa o'z yotoqxonalaridalar, – deb xabar qildi Tereza, u shunday to'satdan paydo bo'lib qolgan ediki, yigit hatto cho'chib tushdi.

Hozirgina cho'milib chiqqan, tetik Delfina kamin oldida, kresloda yastanib yotardi. Mayin muslin kiyim-boshlarga g'arq bo'lib yotgan bu xotinga ko'z tushar ekan, uni Hindistonda o'sadigan, atrofi gul barglari bilan qurshalgan shirin-shakar mevaga o'xshatmay iloj qolmasdi.

– Mana, siz ham kelibsiz! – dedi u mamnuniyat bilan.

– Sizga nima olib kelganimni toping-chi, – dedi Ejen, uning yoniga o'tirib, qo'lidan o'par ekan.

De Nusingen xonim taklifnomani o'qib chiqib, sevinga-

<sup>1</sup> Rubikondan o'tmoq – Yuliy Sezar imperator bo'lmasdan oldin. Rimdagi senatning ta'sir doirasi chegara hisoblangan Rubikon daryosidan o'tadi. Senator unga orqasiga qaytishni buyuradi. Ammo u: «Men Rubikondan o'tdim», – deydi. Bu gap keyinchalik, «Orqaga qaytish yo'q» iborasiga aylanadi.

nidan bir seskanib ketdi. U nam ko'zlarini Ejenga tikdi-da, shuhratparastligini o'rniga keltirayotganidan mamnun bo'lib, yigitning bo'ynidan quchoqlab, bag'riga bosdi.

– Axir, bunday baxtga erishuvimga siz (sen, – dedi u, yigitning qulog'iga, – pardozi xonada Tereza barcha ehtiyot shart!), siz sabab bo'ldingiz. Ha men buni baxt deb dadil atashim mumkin. Modomiki, bunga siz orqali erishgan ekanman, demak, bu izzat-nafsning tantanasidan ortiqroqdir. Zodagonlar davrasiga seni hech kim olib kirishni istamadi. Hozir meni mayda gap, bema'ni va yengiltak xotin ekan deb o'ylasangiz ham ehtimol, ammo azizim, yodingizda bo'lsinki, sizni deb men hamma narsamni qurbon berishga hozirman. Sen-Jermen mahallasiga borishga endi ilgarigidan ham ortiqroq intilayotgan ekanman, buning sababi faqat shuki, siz o'sha yerda bo'lasiz.

– De Bosean xonim, nazarimda, o'zinikida bo'ladigan balga baron de Nusingen kelmasin degandek imo qilibdimi, shunga nima deysiz? – deb so'radi Ejen.

– Ha, albatta, – dedi Baronessa, xatni Ejenga qaytarib berar ekan. – Bunday ayollar adabsizlikni ham juda o'rniga qo'yishadi. Ammo men, baribir, boraman. U yerga hoynahoy opam ham borsa kerak: u o'ziga ajoyib bir ko'ylak tiktirayotganidan xabarim bor. Ejen, – dedi u sekingina, – opam o'sha balga shu kunda ovoza bo'lgan ko'ngilsiz gaplarga barham berish uchun boradi. Opam to'g'risidagi mish-mishlarni eshitganingiz yo'qmi? Bugun ertalab Nusingen mening oldimga kirib, klubda opam to'g'risida hech uyalib-netib o'tirmay nimalar deyishganini aytib berdi. Yo tavba! Ayol kishi bilan oila nomusi qanday narsalarga bog'liq bo'lib qoladi-ya! Bechora opam to'g'risidagi o'sha gaplarni eshitib, juda xafa bo'ldim, o'zimni haqorat etilgandek his qildim. Ba'zi odamlarning gapiga qaraganda, janob de Tray yuz ming frankka yaqin veksell bergan ekan, deyarlik hamma veksellarining to'lash muddati o'tib ketibdi, endi uni sud orqali undirib olishlari kerak ekan. Uning juda mushkul ahvolga tushib qolganini ko'rib, opam allaqanday bir yahudiyga o'zining ajoyib gavharlarini sotibdi; o'sha gavharlarni, ehtimol, o'zingiz ham ko'rgandirsiz, u qimmatbaho buyumlar opamga graf de Restoning onasidan meros qolgan. Xullas, mana ikki kun bo'libdiki, faqat shu to'g'rida gapirishadi.

Anastazi nima uchun o'ziga sadafli ko'ylak buyurtirganini endi tushunib oldim: U de Bosean xonimnikidagi balga yasanib-tusanib gavharlarini ham taqib kelib, hammaning e'tiborini o'ziga qaratmoqchi. Lekin men ham undan qolishmoqchi emasman. U har doim meni yerga urishga intiladi, men unga ko'p yaxshiliklar qilsam ham, zarur bo'lib qolganida sira yo'q demay, pul topib berib tursam ham, hech vaqt menga yaxshilik qilgan emas. Keling, qo'ying-e, zodagonlar to'g'risidagi gaplarni bas qilaylik, bugun men o'z baxtiyorligimdan huzur qilmoqchiman.

Kechasi soat bir bo'lganda ham Rastinyak de Nusingen xonimnikida edi: u xayrlashish oldidan Ejenni shodlik baxsh etuvchi bo'salari bilan mehribonona o'par ekan, g'amginlik bilan dedi:

– Men qo'rqq, irimchi ayolman, nima desangiz deng-u, ammo qo'rquvdan yuragim qinidan chiqib ketay deyapti: bunday baxtga erishganim burnimdan chiqib, biror falokatga uchrab yurmasam edi.

– Yosh bola ekansiz-ku! – dedi Ejen.

– To'g'ri, bugun yosh bola siz emas, men, – dedi u kulib.

Ejen ertagayoq bu yerdan ko'chib ketaman degan qat'iy qaror bilan «Voke uyi»ga qaytib keldi; yo'l-yo'lakay u, baxtning muattar hidi hali dudoqlaridan arimagan yosh yigitlarga xos shirin xayollarga berilib keldi.

Ejen Gorio otaning eshigi yonidan o'tib ketayotganida, chol undan:

– Xo'sh, ishlar qalay? – deb so'radi.

– Ertaga hammasini aytib beraman, – dedi Rastinyak.

– Hammasini-ya? Rostdanmi? – dedi chol. – Mayli, yotib uxlang. Ertadan baxtli kunlarimiz boshlanadi.

Ertasi kuni ertalab Rastinyak bilan Gorio oilaviy pansiondan ko'chib ketishga shaylanib, faqat hammolning kelishini kutib o'tirgan edilar, soat o'n ikkilarda birdan Nev-Sent-Jenev ko'chasidan gumburlab kelayotgan arava ovozi eshitildi, g'ildiraklar ovozi «Voke uyi» ostonasiga kelib tindi. O'zining karetasidan de Nusingen xonim tushib keldi va otam hali shu yerdami, deb so'radi. Silviyadan tasdiq javobini olgandan keyin, chaqqonlik bilan yugurganicha zinadan yuqori chiqib ketdi. Ejen o'zining xonasida edi-yu, ammo bundan Gorio otaning xabari yo'q edi.

Nonushta vaqtida u Gorioga, soat to'rtta d'Artua ko'chasida uchrashamiz, mening buyumlarimni ham olib boravering, degan edi. Lekin chol hammol qidirgani ketganda, Ejen g'izillagancha Adliya maktabiga borib, yo'qlamadan o'tgan va hozir azbaroyi iyib ketib, muhabbatdan ko'zi ko'r bo'layozgan Gorio men uchun ham haq to'lab yurmasin degan andisha bilan Voke xonim bilan hisob-kitob qilgani orqasiga qaytgan, ammo uning qaytib kelganini hech kim sezmagandi. Beka uydan chiqib ketgan ekan. Ejen biror narsani esimdan chiqarib qo'ymadimmikan deb yuqoriga, o'z xonasiga chiqdi-yu, tunov kuni Votrenga bergan vekselining o'sha kuni qaytarib olib, tashlab qo'yganicha hali ham stol tortmasida yotganini ko'rib, yaxshi ham chiqqan ekanman, deb xursand bo'ldi. Pechkaga o't yoqilmagan edi, shuning uchun, u vekselni endi mayda-mayda qilib yirtib tashlamoqchi bo'lib turgan edi, Delfinaning ovozi eshitilib qoldi, uning ovozini tanib, tovush qilmaslik uchun yirtmadi-da, Delfinaning mendan yashiradigan siri bo'lishi mumkin emas, dab o'ylab, jim turganicha quloq soldi. Ota-bolaning gapi boshidanoq shunday qiziq chiqib qoldiki, Rastinyakning qulog'i ding bo'ldi.

– Oh, dadajon, – dedi qizi otasiga, – mening mablag'larim to'g'risida juda vaqtida hisobot so'ragan ekansiz, xayriyat, sal bo'lmasa xonavayron bo'layozgan ekanman! Bu yerda bahuzur gapiraversam bo'ladimi?

– Bo'ladi, uyda hech kim yo'q, – dedi Gorio ota, ovozi titrab.

– Nima, bo'ldi sizga, dada? – deb tashvishlanib so'radi de Nusingen xonim.

– Boshimga gurzi bilan urgandek gangitib qo'yding, qizim, – dedi chol. – Xudo o'z panohida asrasin, bolam! Seni qanchalik yaxshi ko'rishimni bilmaysan, bilganingda, bunday gaplarni menga to'satdan aytmagan bo'larding, keyin, tuzatsa bo'ladigan xato ekan-ku. Birpasdan keyin o'zimiz ham d'Artua ko'chasiga ketay deb turganimizda, nega bunday shoshilib qolding?

– Oh, dadajon, xonavayron bo'lay deb qolganini eshitgan odam o'zini tutib tura oladimi? Aqlim shoshib, hushim uchdi. Ishonchli vakilingiz, ish oqibati xonavayronlikka olib kelsa ajab emas, deb ogohlantirdi bizni. Hozir sizning ko'p yillik savdo-

sotiqda orttirgan tajribangiz juda zarur bo'lib qoldi, cho'kib ketayotgan odam xasga ham yopishadi, men ham ana shu qabilda oldingizga keldim. Janob Dervil Nusingenning har xil hiylanayranglar bilan to'g'anoq bo'layotganini ko'rganidan keyin bunday qilaversangiz, sudga beraman, sud raisining qaror chiqarib berishi qiyin ish emas, deb po'pisa qilibdi. Bugun ertalab Nusingen mening oldimga kirib, mening ham, o'zingizning ham xonavayron bo'lishimizni istab qoldingizmi, deb so'radi. Men bo'lsam, bu ishlarga hech aqlim yetmaydi, mening o'z mablag'larim bor edi, o'sha pullarimdan o'zim foydalanmoqchiman, qar xil chigalliklarni yechish esa – ishonchli vakilning vazifasi, o'zimning bunday ishlarga aqlim yetmaydi, baribir, hech narsaga tushunmayman, dedim. Axir, o'zingiz ham xuddi shunday deb o'rgatib qo'ygan edingiz-ku, a?

– To'g'ri, – dedi Gorio ota.

– Shundan keyin, Nusingen meni o'z ishlari bilan tanishtirdi. U qo'lida bor pullarining hammasini – o'zinikini ham, menikini ham, endigina tashkil qilingan bir ishga sarflab qo'ygan ekan, ishn o'ngidan kelsin deb, ko'p miqdordagi pullarni chet ellardagi banklarga joylashtiribdi. Pullarimni qaytarib berishga uni majbur etsam, sinib qolar ekan; agarda bir yil kutib turishga rozi bo'lsam, pulimni ikki-uch hissa ortig'i bilan qaytarib berishga or-nomusini o'rta qo'yib qasamlar ichdi, pulimni yer oldi-sottisi bilan bog'liq ishlarga joylashtirib bermoqchi bo'ldi, o'shandan keyin pullaringizni nima qilsangiz, o'zingiz bilasiz, dedi. Dadajon, u astoydil kuyib-pishib gapirdi, meni biram qo'rqitib yubordiki! Nusingen butun qilmishlari uchun mendan uzr so'radi, menga to'la erk berdi, ko'nglingiz qanday xohlasa, shunday yashayvering, deb ruxsat etdi, ammo mening nomimdan ish ko'rish uchun unga to'la huquq berishimni shart qilib qo'ydi. Astoydil gapirayotganiga ishonishim uchun Nusingen pullarimni menga o'tkazib berayotganida, qog'ozlarni qanchalik to'g'ri to'ldirganini kelib ko'rish uchun istagan vaqtimda Dervilni chaqirib turishimga rozi bo'ldi. Qisqasi, u oyoq-qo'lini bog'lab, menga taslim bo'ldi. U mendan yana ikki yilgacha uy-ro'zga bosh bo'lib turishni, o'zim uchun u belgilab qo'ygandan ortiq pul sarf qilmasligimni yolvorib iltimos qildi. U menga sirdan qaragan odamga hamma ishlari yaxshi borayotgandek ko'rinishga

majbur ekanini, raqqosasidan ajralishganini, to'lov quvvatini ketkazib qo'ymay, boshlagan ishlarini oxiriga yetkazish uchun juda tejam bilan, ammo buni juda sir saqlagan holda, yashashga majburligini isbotlab berdi. Men uni ko'proq siqishtirib, ko'proq gap bilib olishga harakat qilib, o'zini rosa urishdim, bironta ham gapiga ishongim kelmadi. Menga u hisob-kitob daftarini ham ko'rsatdi, oxiri, sira bo'lmagandan keyin, yig'lab yubordi. Erkak kishining bunday holatga tushganini ilgari sira ham ko'rmagan edim. Es-qushidan adashib qoldi, o'zimni o'ldiraman dedi, keyin alahsiray boshladi, unga juda rahmim kelib ketdi.

– Shu yolg'on-yashiqlarga ishondingmi, a! – dedi fig'oni falak bo'lib Gorio ota. – Axir u nayrangboz-ku. Men ish yuzasidan nemislar bilan uchrashganman. Ularning deyarli hammasi oqko'ngil, ochiq so'z odamlar edi, ammo biror nemis o'zini oqko'ngil va ochiq so'z qilib ko'rsatishga tirishib, hiyla-nayrang ishlata boshladimi, vassalom – bunda ularga hech kim teng kelolmaydi. Ering seni laqillatyapti. Uni qiyin-qistoqqa olishgan bo'lishsa kerak, o'ligini tashlab olibdi, u shu paytgacha o'zining nomidan xo'jayinlik qilib kelar edi, endi sening nomingdan undan ham erkinroq xo'jayinlik qilmoqchi. Nusingen ishlari o'ngidan kelmay qolgudek bo'lsa, bu vaziyatdan foydalanib chap berib qolmoqchi. U ablah ham ayyor, ham xiyonatkor odam. Yo'q, yo'q, men qizlarimni qashshoqlikda qoldirib, Per-Lashez qabristoniga ravona bo'lmoqchi emasman! Mening ham ba'zi narsalarga aqlim yetadi! Hamma pullarini katta ishlarga sarflab qo'yibdilarimi! Juda soz! Shunday qilgan bo'lsa, o'sha ishlarga ma'lum qimmatga ega bo'lgan mablag'lar, tilxatlar, bitimlar bilan ishtirok etgan.

Senga ana o'shalarni ko'rsatsin, o'shalar bilan hisob-kitob qilsin. Biz foydaliroq ishlardan o'zimizga ma'qulini tanlab olamiz, baxtimizni sinab ko'ramiz. Qo'limizda qonuniy ravishda tasdiqlangan, eri baron de Nusingendan mol-mulkini ajratib olgan Delfina Gorio nomidagi o'z firmamiz bo'ladi. Bizni ahmoq deb o'ylaydi, shekilli, a? Nahotki u sening mol-dunyosiz, bir burda nonsiz qolganingni ko'rib turib, meni dunyoda ikki kun bo'lsa ham yashay oladi deb o'ylasa? Yo'q, men bir kecha ham, bir kun ham, ikki soat ham yashay olmayman! Agar rostdan ham ish shunday bo'lib chiqsa, o'lib qolaman! Buni qarang-a! Qirq

yil ishladim, qora terga botib, qop ko'tardim, sizlarni deb umr bo'yi ne-ne qiyinchiliklarga chidamadim, har qanday og'ir yukimni yengil qilgan, har qanday ishni oson qilgan faqat sizlar bo'ldingiz, oppoq qizlarim! Endi esa mening butun hayotim, butun topgan boyligim chippakka chiqar ekan-da! Bunaqada g'azabdan bo'g'ilib o'laman! Jamiki avliyo-yu, anbiyolar haqiga qasam ichib aytamanki, uning butun kirdikorlarini ochib tashlaymiz, butun hisob-kitob daftarlarini, kassasini, ishlarini tekshirib ko'ramiz! Mol-mulkingning butunligi! i isbotlab berishmaguncha yonboshim yer ko'rmaydi, ko'zimga uyqu kelmaydi, tomog'imdan luqma o'tmaydi! Xudoga shukurki, siz er-xotinning mablag'laringiz birga qo'shib yuborilmagan, alohida-alohida, baxtimizga, sof vijdonli Dervil sening vakiling bo'ladi. Xudoyimning karami ulug'! Sening million puling bor, umring oxirigacha ellik mingdan yillik daromad egasi bo'lib qolasan, yo'qsa, Parijda shunday g'ovg'a ko'tarayki, hamma hayron qolsin! Tribunallarda bizga qarshi qaror chiqarsalar, Palataga murojaat qilaman. Ishqilib, pulingni sovurib yubormagan bo'lsa, puling butun bo'lsa bas: faqat shuni o'ylab dardim yengillashdi, g'amim kamaydi. Pul – hayot degan so'z! Pul – jamiki narsaning boshi! Elzaslik to'nka bizni nimalarga mahkum etmoqchi-a? Delfina, seni zanjirband-u, baxti qaro qilgan semiz to'ng'izga yarim diar ham haqingni ketkazma. Hamon unga kerak ekansan, uning bir gribonidan olamiz, aqlini kirgizib qo'yamiz. Yo rabbiy! Boshim qizib ketdi ichidan allanarsa kuydirib yuboryapti. Mening Delfinam cho'kib ketmaslik uchun cho'p-xasga yopishar darajaga yetibdi-ya! Sen-a! Mening Fifinam! Ming la'nat! Qo'lqoplarim qani mening? Qani, ketdik, hamma narsani hoziroq ko'rishni istayman, hammasini; hisob-kitob daftarlarini, naqdinalarni, yo-zishmalarni; barcha ishlarini ko'rishni istayman. Pullaring bexatar ekanligini isbotlab bermagunicha tinchimayman; hammasini o'z ko'zim bilan ko'rishim kerak.

– Dadajon, ehtiyot bo'lib ish ko'ring! Sal bo'lsa hali o'ch olish niyatingiz borligi sezilib qolsa, ochiqdan ochiq adovat bilan ish ko'rsangiz, xonavayron bo'laman. U sizni biladi, sepimning nima bo'lganiga sizning gapingiz bilan qiziqayotganimizga ham tushunadi, albatta, mening pullarim uning qo'lida, ammo u pulni qo'lidan sira ham chiqarmoqchi emas. U shunday odamki, butun

boyligni o'zi bilan olib qochib ketishdan ham toymaydi, unda biz ikki qo'limizni burnimizga tiqib qolaveramiz! U o'z nomimga dog' tushirib, uni ta'qib qilmasligimni tushunadi. U ayni vaqtda ham ojiz, ham kuchlidir. Bu to'g'rida rosa o'ylab ko'rdim. Biz uning toqatini toq qiladigan bo'lsak, bizni xonavayron qilishi turgan gap.

– Demak, qallob ekan-da, u?

– Ha, dada, xuddi shunday, – deb otasining gapini ma'qulladi u, yig'i aralash o'zini kresloga tashlab. – Qizimni shunday yaramas odamga bergan ekanman deb, xafa bo'lishingizni o'ylab sizga indamagan edim. Uning asl hayoti, nomusi, vijdoni-yu, isqirt badani – hammasi bir-biriga monand! Dahshat-a, dahshat! Uni ko'rgani ko'zim yo'q, afti qursin! Ha, menga shunday gaplarni aytdiki, bunday ablahni aslo hurmat qila olmayman. U qilmoqchi bo'lgan moliyaviy qallobliklarini menga so'zlab berdi, shunday ishlarni ixtiyor qilmoqchi bo'lgan odamda zarracha ham vijdon bo'lmaydi, uning dilidagi gaplarni aniq uqib oldida, mening hamma xavotirlarim o'shandan. O'z erim bo'la turib, uyalmay-netmay, menga to'la erk berdi – bu bilan nima demoqchi ekanini bilasizmi o'zi? – lekin evaziga, o'ylab qo'ygan ishlari chipakka chiqqudek bo'lsa, uning qo'lida qurol bo'lib qolishim lozimligini, qisqasi, uning ishlarida soxta xo'jayin bo'lib xizmat qilishim kerakligini shart qilib qo'ydi.

– Lekin qonun bunday ishlarga qarshi-ku! Bunday kuyovlarning jazosini beradigan Grev maydoni bor! – dedi kuyib Gorio ota. – Agar jallod bo'lmay qolsa, kallasini o'zim chopib tashlayman!

– Yo'q dada, unga qarshi qonun yo'q. Nusingenning nima deganiga quloq soling-a, boshimni aylantirgan har xil mujmal ikir-chikirlarni tashlab yuborganda, ikki og'iz qilib bunday deb aytsa bo'ladi: «Yo hamma ishlariy chippakka chiqadi va bunda siz bir liraga ham ega bo'lolmay qolaverasiz; bu – xonavayron bo'ldingiz degan so'z, chunki men sizdan boshqa o'zimga sirdosh topolmayman; yoki boshlagan ishimni oxirigacha yetkazib olishingacha qo'yib berasiz». Tushundingizmi? U hozircha mening qadrimga yetib turibdi. Mening ayollik nomusim unga kafillik o'rnida o'tib turibdi: men uning pullarini o'zlashtirib olmasligimni, o'zimning pulim bilan kifoyalaniq qilishimni



biladi. Men mana shu muttahaqlik, vijdotsizlik asosiga tuzilgan bitimga ko'nishga majburman, aks holda xonavayron bo'lishim turgan gap. U mening nomusimni sotib olmoqchi, buning evaziga ko'nghim istaganicha Ejenning xotini bo'lishimga ruxsat bermoqchi. «Har qancha gunoh qilsang ham mayli, qilaver, ammo mening ham kambag'allarni xonavayron qilishdek yovuzliklarimga ruxsat berishing kerak!» Nahotki, bu fikri ham aniq bo'lmasa? Amaliy ish deb nimani aytishini bilasizmi? U o'z nomiga quruq yer sotib oladi-da, keyin o'rtaga qallob odamlarni qo'yib, ularga o'sha yerlarda uy qurishni topshiradi. Bu o'rtadagi odamlar to'g'ri kelgan pudratchilar bilan bitishib, ularga uy qurishni baholab beradilar, mehnatga esa uzoq muddatli veksel-lar bilan haq to'laydilar, keyin esa, bir oz choychaqa hisobiga mening erimga imorat qurish uchun pul olganliklari haqida tilxat beradilar; shundan keyin bu uylarning xo'jayini Nusingen bo'lib qoladi, o'rtadagi soxta xo'jayinlar esa o'zlarini singan deb e'lon qilib, pudratchilarni o'tdek kuydirib ketadilar. Nusingen xonadonining savdo firmasi bechora quruvchilarning ko'zini bo'yash uchun xizmat qiladi. Bularning hammasini yaxshi tushunib oldim. Boshqa yana bir narsani ham tushunib oldim: Nusingen katta-katta xarajatlar qilib qo'rganini isbotlash uchun Amsterdam, Neapol, London, Venaga ancha-muncha pul o'tkazib qo'rgan ekan. U pullarni biz qanday ham qilib xatlaymiz?

Ejen Gorio otaning gumburlab polga tiz cho'kib qolganini eshitdi.

– Yo parvardigor, nima gunoh qiluvdimki, meni buncha azoblaysan? Qizim bir yaramasning qo'lga tushib qolibdi, u ablah esa istagan narsasini talab qila oladi. Kechir meni, qizim! – dedi ingrab chol.

– Rost, men bunday tubsiz jar yoqasiga kelib qolgan ekanman, bunga, ehtimol, siz ham sababchidirsiz, – dedi Delfina. – Erga tegayotganimizda biz hali juda tentak bo'lamiz. Unda biz jamoat nima, muomala nima, erkaklarni ham, urf-odatlarini ham bilmaymiz! Biz uchun otalarimiz o'ylashi kerak. Otajon, shunday deganim uchun kechiring meni, sizga ta'na qilish uchun shunday deyayotganim yo'q. Hozir boshimizga tushib turgan ishda faqat o'zim aybdorman. Dada, yig'lamang, – dedi u otasining peshonasidan o'pib.

– Sen ham yig'lama, jonginam Delfina. Kel, ko'zlaringdan o'pib, ko'z yoshlaringni quritay. Shoshma! Hozir mana bu xomkallaga es-qushimni yig'ib olay, keyin ering chigallashtirib tashlagan tugunni yechishga harakat qilib ko'raman.

– Yo'q, bu ishni o'zimga qo'yib bering: erimni o'zim yo'lga solib ko'raman. U meni sevarmish – juda soz! Unga so'zim o'tishidan foydalanib, kapitalning bir qismiga mening nomimga yer sotib olishga majbur qilaman. Ehtimolki, Nusingenlarning Elzasdagi sobiq mulkini mening nomimga qaytarib sotib olishga majbur qilib bo'lsa ham ko'ndira olarman. U o'sha mulkni juda qadrlaydi. Siz esa ertaga uning hisob-kitob daftarlari va ishlari bilan tanishgani borasiz. Dervil savdo-sotiq ishlariga uncha tushunmaydi... Yo'q, ertaga bormang. Diqqat bo'lishni istamayman. Indinga de Bosean xonimning bali, o'zimni ehtiyot qilmoqchiman, balga chiroyli bo'lib, ochiq chehra bilan bormoqchiman, – aziz Ejenning g'ururi-yu, ko'rki bo'lishni istayman! Yuring, uning xonasini ko'rib chiqamiz.

Shu payt Nev-Sent-Jenev ko'chasiga kareta kelib to'xtadi, shu zahoti zinada grafinya de Restoning Silviyadan:

– Otam uydami? – deb so'ragani eshitildi.

Bu hol Ejenni qutqarib qoldi, bo'lmasa u karavotga yotib olib, o'zini uxlaganga solmoqchi edi.

– Voy, dada, Anastazi to'g'risida hech gap eshitganingiz yo'qmi? – deb so'radi Delfina, opasining ovozi tanib. – Aftidan, uning oilaviy hayotida ham bir chatoq ish yuz berganga o'xshaydi.

– Nima bo'libdi? – Gorio otaning quti uchdi. – Bo'lmasa o'libman endi: ikkita kulfatni baravar ko'tara olmayman.

– Salom dada, – dedi ichkari kirib kelar ekan grafinya. – Ha, sen ham shu yerdamiding, Delfina?

Singlisining bu yerdaligidan grafinya sal xijolat tortgandek ko'rindi.

– Salom, Nazi, – deb javob qildi unga baronessa. – Meni bu yerda ko'rib hayron bo'lyapsan, shekilli? Men dadamlar bilan har kuni ko'rishib turaman.

– Qachondan beri?

– Bu yerga kelib turganingda, bilgan bo'larding.

– Meni ko'p koyiy berma, Delfina, – dedi yig'lamoqdan

beri bo'lib grafinya, – men bir baxti qaroman! Oh, otajon, ado bo'ldim men!.. Bu safar endi butunlay adoyi tamom bo'ldim...

– Nima bo'ldi senga, Nazi? – deb yubordi Gorio ota. – Bor gapni bizga aytaver, qo'zichog'im. Ranging oqarib ketdi. Delfina, bo'lsang-chi! Yordam qil unga, sal bo'lsa ham mehribonlik qil, shunda seni yana ham ko'proq yaxshi ko'raman, bundan ortiqroq yaxshi ko'rishning iloji bormikan o'zi!

– Bechora Nazi, – deb opasiga achingan bo'ldi Nusingen xonim, uni stulga o'tqazar ekan. – Shu esingda bo'lsinki, faqat biz otam ikkalamiz seni shunday yaxshi ko'ramiz, doim kechirishga tayyormiz. Tuqqan tuqqan bilan topishib ketadi, jigar emasmi!

U opasiga maxsus tuz hidlatdi, grafinya hushiga keldi.

– Bu gaplardan keyin men odam bo'lmayman endi, – deb qo'ydi Gorio ota, pechkadagi yonib turgan torfni kovlashtirar ekan, qizlarini yoniga chaqirdi. – Beriroq kelinglar. Negadir, sovqotib ketyapman. Nima bo'ldi senga, Nazi? Tezroq gapir-sang-chi, o'ldirasan-ku meni...

– Gap shundaki, erim hamma voqeadan xabardor bo'lib qolibdi, – dedi bechora xotin. – Maksimning tunov kungi vekseli esingizdami, dada? U Maksimning birinchi vekseli emas edi. Men uning bunday vekselarini ko'p to'laganman. Yanvar oyining boshlarida, nazarimda, graf de Trayni allaqanday g'am ezayotgandek tuyuldi. U menga hech narsa degani yo'q, ammo yaxshi ko'rgan odamingning ko'nglida nima gaplar bo'layotganini payqab olish qiyin emas: sal imo-ishora bo'lsa kifoya, bundan tashqari, kishining ko'ngli ham bundan guvohlik berib turadi. U shunday mehribon, shunday shirinso'z bo'lib qoldiki, menga hech vaqt bunchalik mehr ko'rsatmagan edi, men esa bundan benihoya baxtiyor edim. Bechora Maksim! Keyin ma'lum bo'ldiki, u o'zini otib o'ldirmoqchi bo'lib, xayolan men bilan xayrlashib yurgan ekan. Bu xafalikning sababini rosa surishtirdim, ko'p yalindim, oldida ikki soat tiz cho'kib turdim, nihoyat, u menga yuz ming frank qarzi borligini izhor etdi,

Dada! Yuz ming-a! Esdan og'ayozdim. Sizda pul qolmagan, sizning pulingizni oz-ozdan shipirib ketgandim...

– Yo'q, buncha pulni topib berolmasdim, – dedi Gorio ota, – biror joydan o'g'rilik qilmay, buncha pulni topolmasdim,

O'g'rilik qilishdan ham tap tortmasdim. Tap tortmayman ham.

O'lim oldi g'arg'arasidek ojiz bo'lgan bu gap nihoyatda majolsizlangan ota ko'nglidagi hissiyotning qay darajaga ortganidan darak berganini ko'rgan opa-singil jim qolishdi. Tubsiz jarga tashlangan tosh uning qanchalik chuqurligini ko'rsatganidek, alamning nechog'liq teranligini isbotlovchi bu qalb nidosiga qaysi xudbin befarq qaray bo'lardi?

– Dada, men o'zimmiki bo'lmagan narsalarni garovga qo'yib pul topdim, – dedi grafinya ko'z yoshi to'kib.

Delfina bundan ta'sirlanib ketdi, opasining yelkasiga boshini qo'yib yig'lab yubordi.

– Demak, to'g'ri ekan-da! – dedi u.

Anastazi boshini quyi soldi; Nusingen xonim opasini quchoqladi, uni mahkam bag'riga bosib o'pdi.

– Biz seni qoralamaymiz, biz seni sevamiz, – deb qo'shib qo'ydi u.

– Pari qizlarim, – dedi ojiz bir tovush bilan Gorio ota. – Sizlarni uchrashtirish uchun boshimizga falokat Tushuvi shart ekan, nega bunday-a?

– Maksimning hayotini, bu bilan esa o'zimning baxtimni saqlab qolish uchun men bir sudxo'rning oldiga bordim – o'sha do'zaxi sudxo'rni, o'sha berahm Gobsekni o'zingiz ham yaxshi taniysiz, – deb bularning issiq muomalasi va ko'rsatgan mehribonchiligidan dadillashgan grafinya gapini davom ettirdi. – Borib, graf de Resto juda qadrlaydigan oilaviy dur-gavharlarning hammasini – o'zimmikini ham, unikini ham Gobsekka sotdim! Tushudingizmi? Maksimni qutqarib qoldim, Ammo o'zim halok bo'ldim. Resto bilib qolibdi.

– Nechuk? Kim aytibdi? O'ldiraman o'sha odamni! – deb qichqirdi Gorio ota.

– Kecha erim meni oldiga chaqirdi. Bordim... «Anastazi, – deb bu so'zni shunday ovoz bilan aytdiki... (O, shunday deyishi bilanoq hamma gapga tushundim!) – Anastazi, dur-gavharlaringiz qani?» – «Turibdi». – «Yo'q, – dedi u, menga tikilib turib, – ular mana bu yerda, komodda<sup>1</sup>». Shunday dedi-yu, ustiga ro'molcha yopib qo'yilgan g'ilofni ko'rsatdi. «Ularning bu yerga

<sup>1</sup> Komod - kiyim-kechak, ro'zg'or buyumlari va boshqa narsalarni qo'yish uchun maxsus ishlangan kichik, uzun shkaf.

qanday kelib qolganini bilasizmi?» – deb so‘radi u. Men uning oyog‘i ostiga yiqildim... Rosa yig‘ladim, qanday o‘lim bilan o‘lishimni buyuring, deb yolvordim.

– Shunday dedingmi-a! – deb yubordi Gorio ota. – Xudo haqqi, sizlarga, senga yo singlingga ozor bergan har qanday odamni ham tanimda jonim bor ekan, ming xil qiynoqqa solib o‘ldiraman! Uni burda-burda qilib tashlaymanki, xuddi...

Gorioning tili tanglayiga yopishib, gapi chala qoldi.

– Oxiri gap shunga bordiki, singlim, u mendan o‘limdan ham battarroq narsani talab qildi... Men eshitgan gaplarning birontasini hech bir ayolning boshiga solgilik qilmasin!

– O‘ldiraman uni, – dedi xotirjamlik bilan Gorio ota. – Uning joni bitta, ammo u menga ikkita jon berishi kerak. Keyin nima bo‘ldi? – deb so‘radi u Anastazidan.

Bir oz sukutdan so‘ng grafinya gapida davom etdi: –

– Keyin, menga ko‘zlarini tikib turib, nima dedi deng: Anastazi, men bu gaplarning birontasini ham oshkor qilmayman, bundan keyin ham birga turaveramiz: o‘rtada bolalarimiz bor. Janob de Trayni duelda o‘ldirib o‘tirmayman ham: o‘qni tekki-zolmay qolishim ham mumkin; boshqa biror yo‘l bilan yo‘qotmoq payiga tushsam, qonun yo‘li bilan jazoga tutilishim mumkin. Uni sizning og‘ushingizda o‘ldirsam, bolalaringiz sha’niga dog‘ tushiraman. Men bolalaringiz sha’niga ham, ularning otasi sha’niga ham, o‘zimning sha’nimga ham dog‘ tushirmoqchi emassan; shuning uchun sizga ikkita shart qo‘yaman. Javob bering: «Mendan bolangiz bormi?» – «Bor», – deb javob berdim men. «Qaysi biri?» – deb so‘radi u. – «To‘ng‘ichi, Ernest», – «Yaxshi, – dedi u, – endi men qo‘ygan talablarga bo‘ysunaman deb qasam iching». Men qasam ichdim. «Men talab qilgan paytda, butun mol-mulkimni erimga sotganman deb tilxat berasiz».

– Tilxat berma! – deb qichqirdi Gorio ota. – Aslo bunga yo‘l qo‘yma! Hali shunday deng, janob de Resto, o‘zingiz xotiningizni baxtiyor qilolmagansizki, xotiningiz baxtini imkoni bor boshqa joydan qidirgan, endi, o‘zingiz uddalay olmagan ish uchun yana xotiningizni jazolamoqchi bo‘lasizmi?.. To‘xta! Men borman hali! Qo‘rqma, Nazi, unga mana men g‘ov bo‘laman. Aha! Merosxo‘ringizni yaxshi ko‘rarkansiz-u! Juda soz, juda

yaxshi! O'g'lini oldimga olib kelib olaman, axir, u menga nabira bo'ladi-ku, A, labbay! U bolani ko'rishga mening ham haqqim bor-ku axir. Xotirjam bo'laver, uni o'zim bilan qishloqqa olib ketaman, unga o'zim qarab turaman. U do'zaxini taslim bo'lishga majbur etaman. «Ko'ramiz, kim zo'r chiqishini! O'g'lingni qaytarib olishni istasang, qizimga o'z mol-mulkingni qaytarib berib, o'z holiga qo'y uni, xohlaganicha oshasin!» – deyman.

– Ota!

– Ha, men otangman! O, men haqiqiy otaman! Ammo anavi ablah to'ra qizimga zug'um qilmasin. Ming la'nat! tomirlarimdan nima oqayotganini bilolmay qoldim. Tomirimdan sherining qoni oqib turibdi, erlaringizni tilka-pora qilib tashlagim kelib turibdi. Bolalarim! Qanday malomatli kunlarga qoldinglar? Bu tashvishlar meni ;o'ldiradi... Mendan keyin boshingizga ne kunlar tusharkin? Bolalari tirik vaqtida otalarning ham o'lmasligi kerak.

Yo xudo, bu dunyoni nechog'liq nobop yaratgansan-a! Yana, o'zingning ham farzanding bor deyishadi. Bolalarimiz tashvishidan bizni xalos etishing kerak edi. Oppoq qizlarim, nima ham derdim! Faqat boshingizga g'am tushgani tufayli mening oldimga kelibsizlar. Ko'z yoshingizdan boshqa hech narsa ko'rmadim sizlardan. Nima bo'libdi! Ha, Ha bilaman, meni yaxshi ko'rasiz. Kelaveringlar, yig'lab – istab ketgani oldimga kelib turinglar. Mening yuragim keng – har qancha dard bo'lsa ham sig'adi. Yuragimni pora-pora qilib yuborsanglar ham roziman, har bir pora yana ota yuragiga aylanadi. Hamma dardingizni o'zinga olishni istardim, sizning o'rningizga o'zim azob chekishni istardim. Kichkinaligingizda qanday baxtli edingiz-a...

– Faqat o'sha paytlarda yaxshi kunlarni ko'rib qolgan ekanmiz, – deb qo'ydi Delfina. – Katta omborda o'ynab, qop uyumlari ustidan pastga sirg'anib yurgan vaqtlarimiz qani endi?!

– Dada, bu hali hammasi emas, – dedi grafinya otasi qulog'iga, Gorio ota o'rnidan sakrab turib ketdi. – Dur-gavharlarga yuz ming berishmadi. Maksim hali ham sudga tushish xavfidan qutulgani yo'q. Biz yana o'n ikki ming frank to'lashimiz kerak. U menga, endi esimni yig'ib olaman, qimor o'ynamayman, deb va'da qildi. Uning muhabbatidan boshqa hech nima qolmadi endi? Muhabbati menga juda ham qimmatga tush-

di, undan ham ajralsam, o'laman. Uning ko'yida hamma narsamdan: nomusimdan, mol-mulkimdan, tinchligimdan ajraldim, hatto bolalarimdan voz kechdim. O, hech bo'lmasa, uni ro'shnoqlikka chiqaring, nomiga dog' qo'nmasin, shunda kiborlar davrasida bosh ko'tarib yura oladi, bu esa unga mol-dunyo orttirish imkonini beradi. Endi u mening oldimda faqat o'z baxti uchungina qarzdor bo'lib qolmaydi, o'rtada bolalarimiz bor, bolalar mol-mulksiz bo'lib qolishadi. Uni Sent-Pelajiga<sup>1</sup> qamab qo'yishsa, hamma narsa barbod bo'ladi.

– Endi menda pul yo'q, Nazi. Hech narsa, mutlaqo hech narsa qolmadi! Zamona oxir bo'ldi. Ha, hademay dunyo ostinustun bo'ladi – bu muqarrar! Boringlar, vaqt g'animatda qutulib qolishning ilojini qilinglar! Ha-ya! Hali kumush to'qalarim, oltita kumush idishim bor-ku! Umrimda birinchi marta shularni sotib olgan edim. Yana nimam bor?.. Faqat bir ming ikki yuz frankdan yillik daromad beradigan umrbod rentam qolgan, xolos.

– Doimiy rentangizni nima qildingiz?

– Sotdim, o'zimga faqat mana shu ozgina daromadni olib qoldim, xolos. Fifinaga kvartira jihozlab berish uchun o'n ikki ming frank zarur bo'lib qolgandi.

– Nima gap o'zi, Delfina? Sening uyingdami? – deb so'radi de Resto xonim, singlisidan.

– Uyidami, boshqa yordami, buning nima ahamiyati bor? O'n ikki ming frank xarajat qilinib bo'ldi! – dedi Gorio ota.

– Fahmladim, – dedi grafinya. – Janob Rastinyak uchun ketgan u pullar! Sho'rlik Delfina, es-hushingni yig'. Mening qay holga tushganimni ko'rib turibsanku!

– Opajon, janob Rastinyak mahbubasini xonavayron qiladigan yigitlardan emas.

– Rahmat, Delfina, shu ahvolga tushib turganimda bunday og'ir gap qilarsan deb o'ylamagan edim. Meni hech vaqt yaxshi ko'rmagansan.

– Yo'q, Nazi, u seni yaxshi ko'radi, hozirgina menga shuni aytib o'tirgan edi! – deb gapga aralashdi Gorio ota. – Biz sen to'g'ringda gaplashib turgan edik, u seni sohibjamol deb, o'zini esa shunchaki, sal ko'hlikman deb turgan edi.

<sup>1</sup> Sent-Pelaji – Parij turmasi (1899-yilda vayron qilingan).

– Husni bo‘lgani bilan o‘zi toshyurak, – dedi grafinya.

– Shunday ham bo‘la qolay, – deb gap qaytardi Delfina, qizarib, – Xo‘sh, o‘zing qanday muomala qilib kelding menga? Sen mendan yuz o‘girding, men kirmoqchi bo‘lgan uylarning eshigini men uchun yoptirib qo‘yishga urinding, umuman, menga yomonlik qilishning iloji bor yerda qo‘l tortmading. Men bu yerga otamdan ming-minglab pul shilib ketish uchun kelibmanmi? Uni shu ahvolga men soldimmi? Bu sening ishing, opajon! Men otam bilan, iloji boricha, ko‘rishib turdim, uni uyimdan haydab chiqarmadim, u kerak bo‘lib qolgan paytlarda qo‘lini o‘pish uchun kelib yurganim yo‘q. Hatto, o‘sha o‘n ikki ming frankni men uchun sarf qilganini ham bilganim yo‘q: o‘zing bilasan, pul masalasida chatoqliklarga yo‘l qo‘yishni yoqtirmayman. Agar otam menga sovg‘a qilgan bo‘lsa ham, men shunday qiling deb otamdan so‘raganim yo‘q.

– Mendan ko‘ra baxtliroq ekansan: janob de Marse baddavlat odam, bu o‘zingga ham uncha-muncha ma‘lum, albatta. Sen hamma vaqt oltin kabi jirkanch eding, hali ham shunday ekansan. Xayr, sizlarga, mening endi na singlim bor, na...

– Jim bo‘l, Nazi! – qichqirdi Gorio ota.

– Bu hech kim ishonmaydigan gapni faqat sendek opa gapirib yurishi mumkin; sen ma‘nan zaifa odamsan, – deb javob qildi Delfina.

– Bolalarim, bolalarim, bas qilinglar, bo‘lmasa, hozir ko‘z oldingizda o‘zimni o‘ldiraman!

– Menga qara, Nazi, seni kechirdim, sen baxti qaro ayolsan! – dedi Delfina. – Ammo men sendan yaxshiroqman. Senga yordam berish uchun hatto erimning yotog‘iga kirishga ham rozi bo‘lib turganimda shunday deding-a, bunday ishga esa men hatto na o‘zimni deb rozi bo‘laman, na... bu qilgan ishing keyingi to‘qqiz yil ichida menga ko‘rsatgan yomonliklaringning davomi bo‘ldi!

– Bolalarim, bolalarim, yarashinglar! – deb yolvorar edi ota. – Ikkalangiz ham farishtasiz-ku!

– Yo‘q, qo‘ying meni! – deb qichqirdi grafinya, Gorio ota uning qo‘lidan ushlaganda u siltanib otasining quchog‘idan chiqib ketdi.

– U menga erimchalik ham achinmaydi. O‘zlari sutdek



oppoq, begunoh-u, benuqsonlar!

– Meni janob de Marsega qarzdor deb g‘iybat qilsalar qilaverishsin: menimcha, bu – janob de Trayning senga yuz mingdan ham qimmatga tushib turganidan ko‘ra afzalroq! – deb javob qildi de Nusingen xonim.

– Delfina! – deb qichqirdi grafinya, singlisi oldiga bostirib kelar ekan.

– Men bor haqiqatni gapiryapman, sen esa menga tuhmat qilyapsan! – dedi sovuqqina qilib baronessa.

– Delfina, sen...

Gorio ota yugurganicha grafinya oldiga keldi-yu, ortiq gapirgani yo‘l qo‘ymay uning og‘zini yopdi.

– Yo rabbiy, qo‘lingizni nimaga urgan edingiz bugun? – deb so‘radi undan Anastazi.

– Ha-ya! Uzr, – deb kechirim so‘radi bechora ota, qo‘lini cholvoriga<sup>1</sup> artarkan. – Ko‘chib ketayotgan edim, sizlarning kelishingizni qaydan bilibman.

Qizining g‘azabini o‘ziga qaratib, shunday ta‘na eshitganiga ham xursand edi bechora ota.

– Oq! Yurak-bag‘rimni ezib yubordinglar, – deb davom etdi u, joyiga o‘tirar ekan. – Bolalarim, men o‘laman! Kallam o‘tda kuydirgandek yonib ketyapti. Yaxshi, aqlli bo‘linglar, bir-biringlarni sevinglar. Meni qora yerga tiqasizlar sizlar. Nazi, Delfina, qo‘yinglar endi, ikkalangiz ham haqlisiz, ikkalangiz ham nohaqsiz. Menga qara, Dedel, – dedi u, jiqqa yosh ko‘zlarini baronessaga tikib, – unga o‘n ikki ming kerak ekan, kel, qayerdan topish mumkinligini o‘ylab ko‘raylik. Bir-biringizga bunaqa olayib qaramanglar.

U Delfina oldiga tiz cho‘kdi.

– Men uchun undan uzr so‘ra, – deb qizining qulog‘iga shivirladi u, – axir, u sendan ko‘ra ancha baxtsizroq, to‘g‘rimi, a?

– Bechora, Nazi, – dedi otasining ovozi uning naqadar ruhiy azobda qolganini sezgan Delfina, opasiga shafqat qilib, – men nohaq ekanman, kel, meni o‘pa qol...

– O, yuragimga malham qo‘ydingiz! – dedi Gorio ota. –

<sup>1</sup> **Cholvor** (*ruscha yoki forsha-o‘zbekcha*; keng ishton) – asosan uyda kiyiladigan, shimga o‘xshash kiyim.

Ammo o'n ikki ming frankni qayerdan topamiz? Yo bitta-yarim-taning o'rniga soldatlikka ketsammikan?

– Nimalar deyapsiz, dada? Yo'q, yo'q! – deyishdi ikkala qizi ham uning oldiga kelib.

– Shunday deganingizgayam xudo xayringizni bersin, sizga minnatdorchilik bildirish uchun butun umrimiz ham yetmaydi! To'g'rimi, Nazi? – dedi Delfina.

– Bundan tashqari, dadajon, bu dengizdan bir tomchi bo'lar edi, xolos, – dedi grafinya.

– Demak, o'z qonimni to'kib ham hech qanday yordam qilolmas ekanman-da? – dedi faryod chekib chol. – Seni tutqazgan odamning quli bo'lardim, Nazi! O'sha odam uchun boshqa bironta odamni o'ldirishga ham roziman. Votrendek surgunga ketishga ham roziman! Men...

U to'satdan yashin urgandek qotib qoldi.

– Yo'q, hech vaqo yo'q! – dedi u sochlarini yulib. – Qani endi pul o'g'irlyadigan joyni bilsam... Lekin bunday joyni topish oson emas. Bankni ko'tarib ketish uchun vaqt kerak, odam kerak. O'lishdan boshqa ilojim qolmaganga o'xshaydi. Endi hech narsaga yaramay qolibman, men endi ota ham emasman! Yo'q! Qizim yordam so'rayapti, muhtoj bo'lib kelibdi! Men xudo bezor bekorchida esa, hech vaqo yo'q. Ah sassiq chol, ikki qizing bo'la turib, o'zingga umrbod renta qoldirib o'tiribsan-a! Demak, ularni yaxshi ko'rmas ekansan-da! O'l, bu kuningdan ko'ra, it kunida o'lib ket! Ha, men itdan ham battarman, it ham o'zini menchalik tutmasdi! Voy boshim! Qizib cho'g'dek qaynab ketyapti!

– Dada, es-hushingizni yig'ing! – deb qichqirishdi ikkala qizi, otasining boshini devorga urib yorishidan qo'rqib, ular ikki tomoniga kelib turishdi.

Gorio ho'ng-ho'ng yig'lar edi. Ejen bundan dahshatga keldi, Votrenga bergan muhrli vekselni qo'lga olib, unda ko'rsatilgan raqamni o'n ikki mingga to'g'riladi-da, Gorio nomiga o'tqazib, qo'shnisining xonasiga chiqdi.

– Xonim, mana sizga zarur bo'lgan pul, – dedi grafinyaga vekselni uzatib. – Men uxlab yotgan edim, ovozingizdan uyg'onib ketdim, suhbatingizdan janob Gorioga qancha qarzdor ekanimni bildim. Mana bu majburiyat qog'ozini oling, o'z vaqtida aniq to'layman.

Grafinya gerbli qog'ozni ushlaganicha turgan yerida dong qotib qoldi.

– Delfina, – dedi u g'azab, nafrat va alamdandangi o'chib, titrab-qaqshab, – hammasini kechirib kelgan edim, xudo shohid, ammo bunisini!.. Janob de Rastinyak shu yerda ekan, buni bilib turib indamabsan! Butun sirimni, hayotimni, bolalarim hayotini, nomus va sharafimni beixtiyor ochib solgan bir paytimda, uni bundan xabardor qilib, pastkashlik bilan o'ch olding mendan! Shuni bilib qo'y, endi men uchun sen hech nima emassan, sendan nafrat qilaman, qo'limdan kelgancha sendan o'ch olaman, men...

U g'azabdan bo'g'ilib gapirolmay qoldi, tomog'i qurib-qaqrab qolgandi.

– Axir, u mening o'g'lim-ku, u o'z kishimiz, sening ukang, xaloskoring-ku! – deb qichqirib yubordi Gorio ota. – Quchoqla uni, Nazi! Ko'rdingmi, men uni quchoqlayapman, – deb davom etdi chol, allaqanday hushsizlik bilan Ejenni mahkam bag'riga bosar ekan. – Eh, o'g'lim! Senga otadan ham afzal bo'laman, butun oilang o'rmini bosaman. Agar men xudo bo'lganimda edi, butun dunyoni oyoqlaring ostiga tashlardim! Qani, Nazi, o'psang-chi uni! Axir, bu odam emas, farishta-ku, chinakam farishta!

– Qo'ysangiz-chi uni o'z holiga, dada, hozir es-hushi joyida emas, – dedi Delfina.

– Mening es-hushim joyida emasmi! Joyida emas degin! O'zing qanaqasan! – deb so'radi grafinya de Resto.

– Bolalarim, bas qilmasanglar o'laman! – deb qichqirdi Gorio ota va xuddi o'q yegan odamday karavotga gursullab yiqildi.

– Meni o'ldirdi bular! – deb g'o'ldiradi u.

Grafinya ta'rifiga til lol qoladigan bu ishlardan dahshatga kelib, dong qotib qolgan Ejenga qaradi.

Delfina tezlik bilan otasining nimcha tugmalarini yechib yuborgan edi; grafinya bunga qayrilib ham qaramay, so'ramoqchi bo'lgan narsasini o'zining yuz ifodasi, ovozidagi ohang va nigohlariga jo qilib Ejenga qaradi-da:

– Janob... – dedi. Rastinyak uning savolini kutmay:

– Pulni to'layman, lekin bu to'g'rida g'ing deb og'iz ham ochmayman, – deb javob qildi.

– Nazi, otamni o‘ldirib qo‘yding! – deb opasiga ta’na qildi Delfina, behush yotgan otasini ko‘rsatib, ammo grafinya allaqachon g‘oyib bo‘lgan edi.

– Kechirdim uni, – dedi chol, ko‘zini ochib, – bechora qizimning ahvoli og‘ir, undan boshqa odam bo‘lganda es-hushidan ajragan bo‘lardi. Naziga dalda ber, yaxshi gapir, o‘lim to‘shagida yotgan otangga shunday qilaman deb so‘z ber, – deb yolvordi chol, Delfinaning qo‘lini qisib.

– Nima bo‘ldi o‘zi sizga? – deb so‘radi qiz, o‘takasi yorilib.

– Hech narsa, hechqisi yo‘q, hozir o‘tib ketadi, – dedi otasi. – Nima uchundir, boshim qattiq og‘riyapti, nazla kelibdi, shekilli. Bechora Nazi, turmushi nima kecharkin uning?

Shu payt grafinya qaytib keldi va o‘zini otasining oyog‘i ostiga otdi.

– Kechiring! – dedi u.

– Bu bilan meni battar qiynayapsan, xolos, – dedi otasi.

– Janob, – dedi grafinya yosh to‘la ko‘zlari bilan Rastinyakka qarab, – nihoyatda alam o‘tib ketganidan nohaq gaplarni gapirib yuboribman. Menga ini bo‘lishni istaysizmi? – deb so‘radi u qo‘lini uzatarkan.

– Nazi, o‘rgulay Nazi, hamma gaplar shu yerda qolsin, unutaylik ularning – dedi Delfina, opasini quchoqlab.

– Yo‘q, buni unutmaman!

– Farishtalarim, ko‘z oldinga allaqanday parda to‘shib, dunyoni qorong‘i qilib yuborgan edi, hozir o‘sha pardani sizlar ochib yubordingiz, ovozingiz menga obi hayot purkadi! – dedi Gorio ota. – Yana bir marta o‘pishinglar! Xo‘sh, Nazi, shu veksel seni qutqarib qola oladimi?

– Shunday deb umid qilaman. Menga qarang, dada, bunga siz ham imzo chekib bermaysizmi?

– Qanday ahmoq odamman-a, shu ham esimdan chiqibdi-ya! Ahvolim og‘ir edi, Nazi, mendan achchig‘ing chiqmasin! Tashvishlardan qutulganingdan keyin menga xabar qil. Yo‘q, o‘zim boraman. Yo‘q, bormayman, eringni ko‘rgani ko‘zim yo‘q, ko‘rgan yerimda o‘ldiraman uni! Mol-mulkingni sotish masalasi bilan esa o‘zim shug‘ullanaman. Bora qol endi, qizim, Maksimni insofga keltir.

Ejen hang-mang bo'lib qolgandi.

– Sho'rlik Anastazi, doim ana shunday qiziqqonlik qiladi-yu, ammo o'zi oqko'ngil, – dedi de Nusingen xonim.

– U vekselga o'tkazma imzo chektirish uchungina qaytib keldi, – deb shivirladi uning qulog'iga Ejen.

– Rostdan-a?

– Men ham rost bo'lmasligini istar edim. U bilan ehtiyot bo'lib gaplashing, – deb javob qildi yigit va ko'zlarini ko'kka tikib, ochiq aytishdan cho'chigan fikrlarini xudoga izhor qildi.

– To'g'ri aytasiz, unda doim mana shunday lo'ttibozlik sezilib turadi, bechora dadam esa, uning qiliqlariga laqqa ishonib yuradi.

– Ahvolingiz nechuk, otajon? – deb so'radi choldan Ejen.

– Uyqum kelyapti, – dedi Gorio.

Rastinyak cholni o'miga yotqizdi. Chol qizining qo'lidan ushlab yotganicha uxlab qolgandan keyin, Delfina qo'lini ajratib oldi.

– Kechqurun italyanlar teatrida uchrashamiz, – deb, Ejenning yodiga solib qo'ydi u, – o'shanda otamning sog'lig'i haqida menga aytasiz... Ertaga esa, taqsim, bu yerdan ko'chib o'tasiz. Xonangizni bir ko'ray. Qanday dahshat-a! – deb yubordi u xonaga kirishi bilan. – Xonangiz otamnikidan ham battar. – Ejen, sen o'zingni juda yaxshi tutding. Iloji bo'lsa, seni bundan ham ko'proq yaxshi ko'rgan bo'lardim. Lekin yaxshi yigit, davlat ortiraman desangiz, hozirgiga o'xshab, o'n ikki minglab pulni xuddi havoga sovurgandek bekorga isrof qilishning hech hojati yo'q. Graf de Tray – qimorboz. Opam hech narsani ko'rishni istamaydi. U tog'-tog' oltinlarni yutib-yutqazib yurgan joyidan o'sha o'n ikki ming frankni ham topishi mumkin edi.

Cholning ingragani eshitildi va ular Gorioning oldiga qaytib chiqishdi; u uxlab yotgandek edi, ammo ikki oshiq-ma'shuq uning yoniga kelganda, cholning:

– Ular qanday baxtsiz-a! – degan gapini eshitdi.

Chol uxlab yotganmidi, yo'qmi, ammo uning bu nidosi Delfinaga qattiq ta'sir qildi – u otasi yotgan shaloq karavot oldiga kelib, cholning peshonasidan o'pdi. Chol ko'zini ochdi:

-- Senmisan, Delfina?

– Qalaysiz, tuzukmisiz? – deb so'radi qizi.

– Shukur, yaxshiman, hech xavotir olma, hademay o‘rnimdan turib ketaman. Boringlar, boringlar, bolalarim, baxtli bo‘linglar.

Ejen Delfinani uyigacha kuzatib qo‘ydi, ammo Gorio otaning holi tangligini o‘ylab, sevgilisikida ovqatlanishdan voz kechib, «Voke uyi»ga qaytib keldi. Rastinyak qaytib kelganida Gorio o‘rnidan turgan va ovqatlangani yemakxonaga tushib o‘tirgan edi. Byanshon vermishelchining yuzini yaxshiroq kuzatish uchun o‘ziga qulay joy topib o‘tirib olgandi. Gorio bir burda nonni qo‘liga olib, uning qanday undan yopilganini bilish uchun hidlab ko‘rdi, ammo u nima qilayotganini mutlaqo sezmayotgan edi – talaba-medik buni cholning yuz ifodasidan anglab oldi-yu, qovog‘ini soldi.

– Yonimga o‘tir, Koshen pansioneri<sup>1</sup>, – dedi unga Ejen.

Cholga yaqinroq bo‘lish uchun Byanshon jon deb o‘rtog‘i yoniga o‘tib o‘tirdi.

– Nima bo‘lgan unga?

– Agar yanglishmasam, fотиhasi o‘qib qo‘yilibdi! Alla-qanday tushunib bulmaydigan bir dardga yo‘liqibdi, falaj kasaliga uchramasa edi deb turibman. Yuzining past qismi ancha xotirjam-u, ammo yuqori qismi beixtiyor uchib-uchib turibdi, ko‘ryapsanmi? Keyin, ko‘zlariga bir qara: allaqanday maydamayda, kulga o‘xshagan bir narsa toshganga o‘xshaydi, shunday emasmi? Ana shu belgilar miyaga qon quyulganidan darak beradi. Ertaga ertalab ahvoli menga yana ko‘proq ayon bo‘ladi.

– Bu kasalga davo bo‘ladigan biror dori bormi?

– Hech qanday dorisi yo‘q. Agar qonni oyoq tarafiga ko‘proq oqizib yuborishning biror ilojini topsak, o‘limini kechiktirsa bo‘ladi, ammo ertaga kechqurungacha kasalning hozirgi belgilari yo‘qolib ketmasa, bechora chol tamom bo‘ldi deyaver. Kasaliga nima sabab bo‘lganini sen bilmaysanmi? Aftidan, u juda qattiq ruhiy azobni boshidan kechirgan ko‘rinadi, ana shunga qalbi bardosh berolmagan.

Rastinyak, cholning ikkala qizi hech tinmasdan, biri olib, biri qo‘yib, ota bechoraning diliga ozor yetkazishganini eslab:

– To‘g‘ri, – deb javob qildi.

<sup>1</sup> «Koshen pansioneri» – ya‘ni amaliyotchilar amaliyot o‘tkazadigan Koshen nomidagi qadimgi Parij kasalxonasida yashovchi shifokor talaba.

«Delfina otasini yaxshi ko‘rar ekan», – deb qo‘ydi Ejen o‘ziga o‘zi.

Kechqurun, Italyanlar teatrida Ejen de Nusingen xonimni juda ham xavotirga solib qo‘ymaslik uchun, otasi haqida ehtiyot bilan gap boshladi. Lekin Delfina shu zahotiy oq Rastinyakning gapini shartta bo‘ldi:

– Xavotir olmang, otam baquvvat odam. Ammo to‘g‘ri, bugun ertalab biz uni bir oz qiynab qo‘ydik. Gap boyligimizdan ajrab qolish ustida boryapti, bunday baxtsizlikning oqibati nima bo‘lishini ko‘z oldingizga keltira olasizmi? Agar sizning muhabbatingiz, yaqiniginada men uchun go‘r azobidek musibatli bo‘lgan narsalarning hammasi bilan befarq munosabatda bo‘lishga o‘rgatmaganda, hozir bu dunyoda yashamagan bo‘lardim. Endi, meni hayot shodliklari bilan bog‘lab turgan muhabbatdan ajrab qolishdan ortiq hech narsa qo‘rqitmaydi, men uchun bundan ortiq falokat bo‘lishi mumkin emas. Mana shu hisdan boshqa hech narsaning menga qizig‘i yo‘q, boshqa hech narsaning qadr-qimmatini yo‘q. Siz men uchun butun olamsiz. Modomiki, boylik menga huzur bag‘ishlar ekan, buning sababi faqat shuki, o‘sha boylik orqasidan sizga yana ham ko‘proq yoqish imkoniyatiga ega bo‘laman. Uyat bo‘lsa ham aytib qo‘yay, men otamga qiz bo‘lishdan ko‘ra, ko‘proq sizning o‘ynashingizman. Nima uchun? O‘zim ham bilmayman. Butun hayotim sizga bog‘liq. Yurakni menga otam bergan bo‘lsa, siz unga hayot bag‘ishladingiz. Meni butun jamiyat qoralasin, menga baribir, o‘zimni tiya olmay shu hisga berilib ketib, jinoyat qilish darajasiga borgan ekanman, mendan norozi bo‘lmay – bunday qilishingiz uchun hech qanday sabab ham yo‘q o‘zi – bu qilg‘imni kechirsangiz bas. Nahotki, meni otasiga nisbatan berahm ekan deb o‘ylasangiz? Aslo unday emas, bizning otamizdek yaxshi otani sevmay bo‘lmaydi! Nikohimizning oqibati baxtsiz bo‘lishi muqarrar ekanki, buni otamning o‘zi ham nihoyat tan oldi, ammo men qanday to‘sqinlik qila olardim bu baxtsizlikka? Bizning mana shu tariqa turmushga chiqishimizga nima uchun otam qarshilik ko‘rsatmadi? Bizning tashvishimizni shu otam qilishi lozim emasmi? Bilaman, u ham hozir Nazi bilan mendan kamroq tashvish chekayotgani yo‘q, ammo biz nima qila olardik? Dalda berishimiz kerakmi? Baribir, ovutganimizga ko‘nmasdi.

Tahdirimizga tan berib ketishimiz, oh-faryod chekishimizdan ham ko'proq azob beradi unga. Hayotda shunday vaziyatlar bo'ladiki, unda har qanday sabab oqibatida ham faqat alam-iztirob vujudga keladi.

Ejen yurakdan chiqarib aytilgan bu gaplarga quloq solib, indamay o'tirardi. Parijlik ayollar ko'pincha soxtakor, shuhratparast, xudbin bo'ladilar, ortiqcha noz-ishva qiladilar yoki sovuqqina muomala qiladilar, ammo ular chin yurakdan sevib qolgudek bo'lsalar, hirsiy tuyg'ularga boshqa ayollardan ko'ra ko'proq beriladilar, deb dadil aytish mumkin; ular o'zlarining mayda xususiyatlaridan ustun keladilar va qalban yuksakka ko'tariladilar. Bundan tashqari, Ejenni Delfinaning teran aqli hayron qoldirdi, ayol kishi biror muqaddas orzuga berilib, boshqa narsalarni go'yo chetdan nazorat qilib turgandek tuyulgan paytlarda oddiy, tabiiy hissiyotlar to'g'risida ana shunday salobat bilan muhokama yuritadi.

De Nusingen xonim Ejenning jim o'tirganiga xafa edi.

– Nimalarni o'ylab o'tiripsiz?

– Aytgan gaplaringizga hamon quloq solib o'tiribman. Shu paytgacha men sizni, siz meni yaxshi ko'rganingizdan ortiqroq sevaman deb o'ylab yurardim!

Delfina tabassum qildi, ammo suhbatni hozirgi vaziyat talab qilgan chegaradan oshirib yubormaslik uchun shodligini bosdi. Shu paytgacha u yosh yigitning bu xilda titroq tovush bilan chin yurakdan muhabbat izhor qilganini hech eshitmagan edi. Suhbat shu tarzda yana sal davom etsa, u o'zini bosa olmay qolishi muqarrar edi.

– Ejen, zodagonlar davrasida nima ishlar bo'layotganidan, nahotki xabaringiz bo'lmasa? – deb gapni boshqa yoqqa burdi u. – Ertaga butun Parij vikontessa de Boseannikiga to'plani. Markiz d'Ajuda bilan Roshfidlar hech gapni oshkor qilmay turish to'g'risida bitishib olishgan, ammo ertaga qirol ularning nikoh bitimini tasdiqlaydi, bechora qarindoshingiz esa hali hech gapdan xabari yo'q. U balni to'xtatib qo'ya olmaydi, markiz esa balga bormaydi. Hozir hammaning og'zida ana shu gap.

– Zodagonlar esa bu pastkashlikka mamnuniyat bilan ishtirok qilyapti! Bunday ish sodir bo'lsa, de Bosean xonim g'andan kuyib kul bo'lishini, nahotki tushunmasangiz?



– Yo‘q, – dedi jilmayib Delfina, – siz hali bu xildagi ayollarni bilmaysiz. Ha, ertaga unikiga butun Parij to‘planadi, men ham o‘sha yerda bo‘laman. Bunday baxtga men siz tufayli muyassar bo‘ldim.

– Ehtimol, bu ham Parijda ko‘p uchraydigan mish-mishlardan bittasidir? – dedi Rastinyak.

– To‘g‘risini ertaga bilamiz.

Ejen «Voke uyi»ga qaytib bormadi. O‘zining yangi kvartirasidan sira chiqib ketolmadi. Kecha Delfina bilan kechasi soat birgacha qolib ketgan edi, bugun esa Delfina soat ikkida uyiga ketdi. Ertasi kuni ertalab u juda kech uyg‘ondi va unikida nonushta qilmoqchi bo‘lgan Delfinani choshgohgacha kutdi. Bunday shirin hissiyotlarga yoshlar chunonam tashna bo‘ladilarki, Rastinyak Gorio otani deyarlik unutib qo‘yayozdi. O‘ziniki bo‘lib qolgan har xil chiroyli buyumga ko‘nikish Rastinyak uchun uzluksiz bir namoyishga o‘xshab ketgan edi. Delfina shu yerda bo‘lganida, xonadagi jihozlar yana ham boshqacha joziba kasb etardi. Har qalay, soat to‘rtlarga borganda oshiq-ma‘shuqlar, bu yerga ko‘chib o‘tishni orzu qilganda Gorio ota o‘zini naqadar baxtiyor his qilganini eslashdi-yu, chol yodlariga tushdi. Ejen, cholning betob bo‘lib qolishi muqarrar ekan, uni zudlik bilan bu yerga ko‘chirib kelish kerak deb taklif qildi va Delfina bilan xayrlashib, «Voke uyi»ga yugurdi. Dasturxon ustida na Byanshon bor yedi, na Gorio ota.

– Gorio otamizning surobi to‘g‘ri bo‘lib qoldi, – dedi rassom. – Byanshon yuqorida, uning oldida. Chol qizlaridan biri, de Restorama bilan uchrashibdi. Shundan keyin ko‘chaga chiqmoqchi bo‘lib ko‘ribdi-yu, ahvoli og‘irlashib qolibdi. Hademay bizning jamoa o‘zining eng muhtaram zotlaridan biri bilan vidolashadi,

Rastinyak yuqoriga otildi.

– Janob Ejen! Janob Ejen, sizni beka chaqiryapti! – deb qichqirdi Silviya.

– Janob Ejen, – dedi unga beva, – janob Gorio ikkovingiz o‘n beshinchi fevralda ko‘chib ketmoqchi edinglar. O‘n beshinchidan beri yana uch kun o‘tdi, bugun o‘n sakkizinchi; endi ikkovingiz ham oyning. oxirigacha haq to‘lashingiz kerak, lekin Gorio otaga kafil bo‘lsangiz, men uchun sizning so‘zingiz kifoya.

– Nega endi? Nahotki unga ishonmasangiz?

– Nimasiga ishonaman uning? Agar, chol hushiga kelmay o‘lib ketgudek bo‘lsa, qizlari menga bir lira ham to‘lashmaydi, uning butun latta-puttalari esa, yig‘ishtirib kelganda o‘n frank ham pul bo‘lmaydi. Sababini bilmadim-u, ammo bugun u oxirgi idish-tovoqlarini olib chiqib ketdi. Xuddi yosh yigitlardek yasanib olgandi. Xudo o‘zi kechirsin-u, nazarimda, yuziga qizil ham surtib olgandek tuyuldi, xuddi yosharib ketganga o‘xshardi.

– Hammasiga men kafil, – dedi Ejen, dahshatga kelib va falokat yuz berganini sezib.

U Gorio otaning oldiga chiqdi. Chol holdan toyib, o‘rinda cho‘zilib yotardi, uning yonida Byanshon o‘tirardi.

– Salom, ota, – deb salomlashdi Ejen.

Chol unga mehribonlik bilan kulib boqdi va shishaga o‘xshab qolgan nursiz ko‘zlarini unga tikib:

– Uning ahvoli nechuk? – deb so‘radi.

– Yaxshi. O‘zingiz qalaysiz?

– Yomon emas.

– Uni toliqtirma, – dedi Byanshon Ejenni bir burchakka chorlar ekan.

– Xo‘sh, qalay? – deb so‘radi Ejen.

– Uni faqat mo‘jiza qutqarib qolishi mumkin. Miyasiga qon quyulib ketdi; gorchichniklar<sup>1</sup> qo‘ydim; baxtidan bo‘lib, ularni his qilyapti, gorchichniklar ta‘sir qilyapti.

– Uni olib ketsa bo‘ladimi?

– Hech iloji yo‘q. Uni shu yerda qoldirib tura turish kerak; hech qanday harakat qilmasligi, mutlaqo tinch bo‘lishi kerak.

– Azizim, Byanshon, – dedi Ejen, – unga ikkalamiz qarab turamiz.

– Men kasalxonadan bosh shifokorni taklif qilib keldim.

– Xo‘sh, u nima dedi?

– Ertaga kechqurun fikrini aytadi. Kasalxona bemorlarini kunduzi bir ko‘rib chiqqandan keyin kelishga va‘da qildi. Baxtga qarshi, bu choli qurg‘ur bugun ertalab yengiltaklik bilan bir qiliq qilgan ko‘rinadi, ammo nima qilganini sira aytmayapti; eshakdan ham qaysar ekan. Uni gapga solsam, javob bermaslik uchun

<sup>1</sup> Gorchichnik – gorchitsa qatlami bilan qoplangan kompress qog‘oz yoki mato.

o'zini uxlab yotgan odamga soladi, ko'zi ochiq bo'lsa, ixrab-sixrab gapdan chalg'itadi. Bugun ertalab uydan chiqib ketibdi, allaqaysi go'rga piyoda borib kelibdi. Xonasida bor qimmatbaho buyumlarining hammasini o'zi bilan olib ketibdi, allaqanday bir ish qilib kelishdi – padariga la'nat o'sha ishning! – ana shunday qilib, uzilib qolibdi. Qizlaridan bittasi oldiga kelib ketdi.

– Grafinyami? – deb so'radi Ejen. – Baland bo'yli, qad-qomatlari kelishgan, qora sochli, ko'zlari sho'x, oyoqlari chiroyli ayolmi?

– Ha.

– Bizni bir daqiqa holi qo'y, – dedi Rastinyak, – uni men gapga solaman, senga aytmagan gaplarini menga aytadi.

– Bo'lmasa, men ovqat yegani tushib chiqay. Faqat uni ko'p bezovta qilma; bir oz umid bor hali.

– Xotirjam bo'laver.

– Ertaga o'ynab-kulishadi ular, – dedi Gorio ota Ejenga, u bilan ikkisi holi qolgandan keyin. – Ular katta balga borish-moqchi.

– Ota, nima qilib bu ahvolga tushib qoldingiz, ko'rpa-to'shak qilib yotib olibsiz-ku, bugun ertalab nimalar qilib keldingiz?

– Hech narsa.

– Anastazi kelgandimi? – deb so'radi Rastinyak.

– Ha, – dedi Gorio.

– Bo'lmasa, mendan hech gapni yashirmang. Sizdan yana nima so'radi u?

– Uh – deb ingrab yubordi u, javob berish uchun kuch to'plar ekan. – Bilasizmi, bolam, u sho'rlik juda ham baxtsiz! Anavi gavharlar g'alvasidan keyin Nazining qo'lida bir su ham puli qolmagan. Ertagi balga borish uchun esa, u o'ziga zarhal pistonlar<sup>1</sup> qadalgan ko'ylak buyurtirgan ekan, ko'ylagi o'ziga

<sup>1</sup> Piston (*fransuzcha*; piston -- zarbdor, uruvchi, sindiruvchi) – 1) patronning poroxli zaryadini yondirish uchun oz miqdorda portlovchi modda solib, o'q tubiga o'rnatiladigan metall kosacha; 2) o'yinchoq multiq yoki to'pponchada otish uchun belgilangan, oz miqdorda portlovchi moddasi bo'lgan tangachasimon qog'oz g'ilof; 3) pichoqning dastasiga qadalgan sadafning atrofiga uni mahkam tutib turish uchun qo'yilgan halqa – sim; 4) kiyim-kechak, parda va shu kabilarga ziynat uchun qadaladigan yiltiroq plastinkacha (*bu yerda shu ma'noda*); 5) bir-biriga qadab qo'yiladigan ikki qismdan iborat tugma; shiq-shiq tugma; 6) puflab chalinadigan musiqa asbobining ijrochi-sozanda qo'l bilan bosib ochib-yopib turadigan tugmasi.

juda ham yarashib tushgan bo'lsa kerak, hoynahoy. Badbaxt mashinachisi ko'ylagini qarzga tikib berishdan bosh tortibdi, shundan keyin Nazining xizmatkor qizi uning o'rniga ko'ylakka ming frank to'labdi. Bechora Nazi! Shu ko'yga tushibdi-ya! Yuragim tors yorilib ketay dedi. Ammo xizmatkori Restoning Naziga ishonmay qo'yganini sezib, mashinachi xotin bilan til biriktiribdi-da, ming frank pulini Nazi qaytarib bermaguncha, ko'ylakni bermay turishga uni ko'ndiribdi. Ertaga bal, ko'ylak tayyor, Nazi esa nima qilishini bilmay boshi qotgan! U mening idish-tovoqlarimni qarz berib turing, garovga qo'yib, pul topay deb kelibdi. Eri undan, sotilib ketibdi deb mish-mish bo'lgan gavharlarni balga taqib borib, butun Parijga ko'rsatasan deb turib olgan. O'shanday maxluqqa Nazi: «Mening ming frank qarzim bor, qarzimni to'lang», – deb ayta olarmidi? Yo'q. Men buni darrov tushundim, albatta. Delfina ajoyib ko'ylagini kiyib boradi. Anastazi ham singlisidan qolishmasligi kerak. Bechora qizim, ko'zlaridan duv-duv yosh to'kib yig'lab yubordi! Kecha o'n ikki ming frank pul topolmaganimda, nomusimdan o'lar holatga keluvdim! Bunday aybimni yuvish uchun qolgan bema'ni umrimdan voz kechishga ham rozi edim. Qarang-a: har qanday dard-alamga ham chidab keluvdim-u, ammo kechagi – oxirgisi sillamni quritdi. Ho-ho! Ko'p o'ylab o'tirmay, shart kiyindim-u, o'zimni qo'lga olib, ko'chaga chiqdim, olti yuz frankka to'qalar bilan butun idish-tovoqlarimni sotdim, keyin Gobsek amakiga bir yil muddat bilan umrbod renta qilib qo'ygan qog'ozlarimni to'rt yuz frank naqd pulga garovga qo'ydim. Nima bo'libdi, quruq non yeb ham tirikchilik qilaveraman! Yoshligimda shunday qilib ham kun ko'rganman-ku, endi ham balo urmaydi. Buning evaziga Nazi qizim xursand bo'lib mehmonga boradi. U hammadan ham yaxshiroq bezanib boradi. Ming franklik qog'oz pul yostig'im ostida yotibdi. Bechora Nazini xursand qila oladigan ana shunday narsani boshim ostiga qo'yib yotganimdan, badanimga issiq yugurib turibdi. Endi u o'sha yaramas Viktorinasini haydab yuborishi ham mumkin. Xizmatkorlarning xo'jayiniga ishonmaganini qayerda ko'rgansiz? Ertaga tuzalib qolaman. Soat o'nda Nazi keladi. Qizlarim kasal ekanimni bilishmagani yaxshi, bo'lmasa, balga ham bormay, holidan xabar olib turamiz deb, tepamda o'tirib olqishlari ham mumkin-a.

Ertaga Nazi meni o'z bolasini o'pgandek mehribonlik bilan o'padi-yu, uning bo'sasidan bir zumda tuzalib ketaman. Ming frankni dori-darmonga ham sarflardim-da, baribir emasmi? Undan ko'ra shu pulni meni davolaydigan Naziga bersam bo'lmaydimi? Nazining boshiga shunday baxtsizlik tushib turganda, unga dalda beraman. Shu bilan o'zim uchun umrbod daromad ajratib olib qilgan aybimni yuvaman. Qizim jar tagida yotibdi, men esa uni o'sha yerdan tortib olishga ojimman. O, men yana savdo-sotiq bilan shug'ullanaman. G'alla olib kelish uchun Odessaga jo'nayman. U yerda bo'g'doy bizdagiga qaraganda uch hissa arzon turadi. To'g'ri, don olib kelishi ta'qib qilingan, ammo qonunlarni yozadigan muhtaram zotlar, bug'doydan qilinadigan narsalarni ham olib kelishni ta'qiqlab qo'yishni unutishgan. He-he! Bu gap bugun ertalab xayolimga kehib qoldi. Kraxmal savdosini qo'ling o'rgulsin qilib yo'lga qo'yib yuborsa bo'ladi.

«Esi og'ib qoldi», – deb o'yladi Ejen, cholga qarab turar ekan.

- Xo'p, mayli, tinchlaning, ko'p gapirish zarar qiladi sizga.

Byanshon qaytib chiqqanda, Ejen ovqatlanib olish uchun pastga tushdi. Kechasi bilan bir-birini almashtirib, ular cholning tepasida navbatchilik qilib chiqishdi – biri tibbiyot kitoblarini o'qib, ikkinchisi onasi bilan singillariga xat yozib, tong ottirdilar.

Ertalab kasalning ba'zi belgilari, Byanshonning gapiga qaraganda, bemorning tuzalib qolishidan darak berdi, ammo bunday bo'lishi uchun bemorga uzluksiz qarab turish kerak edi, bunday ishni butun tafsilotlarigacha o'rniga qo'yib, faqat shu ikki talaba amalga oshirishi mumkin edi, ammo o'sha zamonning adabiy uslubi talablaridan chetga chiqib ketmaslik uchun, yaxshisi, o'sha tafsilotlar to'g'risida gapirmay qo'ya qolamiz. Madori qolmagan cholning badaniga zuluk solishar, ketidan og'riqni qoldiradigan dori-darmonlar qo'yishar, oyog'iga vanna qilishar va boshqa xil davolash choralarini ko'rishardiki, bu ishlarni amalga oshirishda ikkala yigitning jonbozligi va kuch-g'ayrati asqotdi. Grafinya de Restoning o'zi kelmadi, pulga bir odamni yubordi.

- O'zi kelar deb o'ylovdim. Xayr, mayli, hechqisi yo'q, bo'lmasa xafa bo'lib ketardi, – deb qo'ydi, go'yo qizining

kelmaganidan xursand bo'lgan chol.

Kechqurun soat yettida Tereza Delfinadan xat olib keldi.

*«Nima ish bilan bandsiz, azizim? Nahotki, endigina muhabbat izhor qilganimizda mendan yuz o'girsangiz? Samimiyat bilan suhbatlashgan paytlarimizda ajoyib qalb egasi ekakingizni bilib olganman, shunga ko'ra aytamanki, siz, shubhasiz, hissiyotning naqadar xilma-xil lazzat bag'ishlay olishini tushunib olgach, to oxirigacha unga sodiq bo'lib qoladigan odamlar turidansiz. Musoning ibodatiga<sup>1</sup> quloq solib turib: «Ba'zi odamlarga bu har kuni eshitib yurgan oddiy notadek tuyulsa, boshqa ba'zi odamlarga – u eng olijanob musiqa!» deganingiz hamon yodimda. Yodingizdan chiqmasin, bugun kechqurun vikontessa de Boseannikiga balga boramiz, men sizni kutib o'tiraman. Markiz d'Ajudaning nikoh bitimiga qirol saroyda bugun ertalab imzo chekkani hammaga ayon bo'ldi endi, boyoqish vikontessa esa, buni faqat kunduzi soat ikkida eshitibdi. Qatl paytida hamma Grev maydoniga yugurganidek, bugun butun Parij vikontessanikiga otlanadi. Ayol kishining o'z boshiga tushgan musibatga qanday dosh berishini yoki bu azobga chiday olmay qay tarzda jon berishini tomosha qilgani unikiga yugurish razillik emasmi? Men-ku, avvallari ham unikiga borib yurgan bo'lganimda, bugun bormagan bo'lar edim-a, ammo turgan gapki, unikida endi hech qachon bunday mehmon kutishlar bo'lmaydi, shu sababdan u xonadonga kirish uchun qilgan hamma harakatlarim zoye ketgan bo'lardi. Mening ahvolim boshqalarnikiga qaraganda tamomila boshqacha. Bundan tashqari, men u yerga siz uchun ham boryapman. Kutaman. Agar ikki soatdan keyin mening huzurimda bo'lmasangiz, bunday bevafoqlikni kechira olamanmi, yo'qmi – bilmadim».*

Rastinyak pat qalam olib, unga javob yozdi:

*«Otangizning tirik qolish-qolmasligini bilish uchun shifokorning kelishini kutib turibman. Otangiz o'lim to'shagida yotibdi. Huzuringizga shifokorning fikrini eshitib boraman, u fikr*

<sup>1</sup> «Musoning ibodati» – Italiya kompozitori Rossinining «Muso Misrda» (1818) nomli operasidan ariya.

*o'lim hukmi bo'lmasa edi, deb qo'rqib turibman. O'zingiz o'ylab ko'ring, shunday vaziyatda balga borishingiz qanday bo'larkin. Sevib, o'pib qolaman».*

Soat sakkiz yarimda shifokor keldi u bemorni tuzalib ketadi demadi, ammo yaqin orada joni uziladi deb ham aytmadi. Bemorning ahvoli goh yengillashib, goh og'irlashib turadi deb ogohlantirdi u, cholning hayoti ham, aql-hushi ham shunga bog'liq, dedi.

– Bu kunidan tezroq o'lib qo'ya qolgani yaxshi edi, – deb xulosa qildi oxirida shifokor.

Ejen cholni Byanshonga topshirib, o'zi de Nusingen xonim oldiga ketdi, u xonim oldiga shunday qayg'uli xabar bilan jo'nadiki, oilaviy burch to'g'risidagi tushunchalar ongiga singib ketgan, yigitning nazarida, bunday xabarni eshitgan odamda har qanday shodiyona kayfiyatdan ham asar qolmasligi kerak edi. Chiqib ketayotganida, Gorio xuddi uxlab yotganday tuyulgandi, ammo Rastinyak eshikni ochishi bilan chol to'satdan qaddini ko'tarib qoldi va o'rnida o'tirganicha uning orqasidan:

– Unga ayting, bahuzur o'yin-kulgi qilaversin, – deb qichqirdi.

Yigit Delfinaning oldiga tashvishli qiyofada kirib bordi, u esa sochlarini tarab, balga kiyadigan tuflisini kiyib bo'lgan edi – faqat balga atab tiktilgan ko'ylakni kiyishi qolgan edi. Ammo yo'lga o'tlanishdagi oxirgi tayyorgarliklar bilan rassomning rasmga oxirgi pardo berishi o'rtasida allaqanday o'xshashlik bor: shu oxirgi ishlarga asosiy ishga ketgandan ko'ra ko'proq vaqt sarf bo'ladi.

– Iye, hali ham kiyinmay yuribsizmi? – deb so'radi Delfina.

– Ammo otangiz...

– Yana «otam!» – dedi u yigitning gapini bo'lib. – Otamga nisbatan qanday burchim borligini o'rgatmang menga. Men otamni ko'p vaqtdan beri bilaman. Ejen, bo'ldi, boshqa gapirmang! Kiyinib kelmaguningizcha gapingizga quloq solmayman. Tereza hamma kiyimlaringizni yangi kvartirangizda taxt qilib qo'yibdi; karetamga ot qo'shilgan, tezroq borib kela qoling. Otam to'g'risida yo'l-yo'lakay gaplashib olamiz; vaqtli-

roq jo'nash kerak, bo'lmasa, eng keyinda qolib ketamiz-da, balga soat o'n birlarda kirsak ham xo'p gap.

– Xonim! Lekin...

– Yo'q, yo'q, boshqa bir og'iz ham gapingizga quloq solmayman, – dedi u, marjonini olib chiqish uchun yugurganicha xosxonasiga kirib ketar ekan.

Ejen bu sohibjamol padarkushning xatti-harakatidan sarang bo'lib turgan edi, Tereza:

– Janob Ejen, bora qoling tezroq, baronessaning achchig'ini chiqarib qo'yasiz-ku bunaqada, – deb uni chiqarib yubordi.

Shundan keyin u tashvish va nadomat to'la fikrlarga berilib, kiyingani ketdi. Zodagonlar davrasi uning ko'ziga go'yo ifloslik okeani bo'lib tuyulardi, bu okeanga oyog'ining uchini tiqqan odam bir zumda tomog'igacha botib ketardi.

«Zodagonlarning hamma jinoyatlari – past jinoyatlar, – derdi o'ziga o'zi Ejen, – Votren ancha yuqori turadi».

Rastinyak endi jamiyatning uchta qiyofasini yaqqol ko'rib turardi, bular: Tobelik, Kurash va Isyon – oila, zodagonlar davrasi va Votren edi. Ejen bularning qaysi (biriga qo'shilishini bilmasdi. Tobelik zeriktiradigan narsa; isyonning iloji yo'q; kurash oqibati shubhali narsa. U o'z oilasini esladi; u oilada tinch hayot kechirgan vaqtlaridagi musaffo hissiyotlari yodiga tushdi, uni boshiga ko'targan o'z oila a'zolari davrasida yashaganini – o'sha unutilmas ajoyib kunlarini xotirladi. Unga aziz bo'lgan odamlar oilada tabiiy bo'lgan qoida-qonunlarga rioya qilishar va doimiy, g'am-alamsiz, to'la baxt deb, ana shuni tushunishardi. Ko'p yaxshi fikrlari bor bo'lishiga qaramay, Ejen Delfina oldiga borib, muhabbatni o'rta qo'yib, shu muhabbat haqi yaxshilik yo'liga yur, deb talab qilishga jur'at eta olmasdi. U allaqachon yangicha tarbiya ola boshlagan va u tarbiya o'z samaralarini namoyish qila boshlagan edi. Hatto, muhabbat bobida ham u yolg'iz o'zini o'ylaydigan bo'lib qolgandi. U Delfinaning qanday tabiatli ayol ekanligini chuqur anglay boshlagan edi, u otasi-ning murdasi ustidan hatlab o'tib bo'lsa ham, balga borishdan toymasligini sezib turardi; Ejenning unga na ta'lim o'rgatishga kuchi yetardi, na g'ijillashib o'tirishga jasorati, na olijanoblik qilib, u bilan shartta ajrashib keta olardi. «Agar Delfinaning gapiga kirmay, o'z gapimda turib olsam, keyin u meni sira



kechirmaydi», – derdi Ejen o‘ziga o‘zi. Shundan keyin u shifokorlarning aytgan gaplarini birma-bir xotirlay boshladi; Gorio otaning kasali men o‘ylagancha xavfli emas, deb o‘zini o‘zi ishontirishga urinib ko‘rdi; qisqasi, u Delfinani oqlash uchun har xil xoinona dalil-isbotlar axtarmoqqa tutundi. Axir, otasining qay ahvolda yotganini u qaydan bilsin; agar u hozir otasi oldiga borganda ham, chol uni balga jo‘natgan bo‘lard. Sira ham surishtirib o‘tirmay, yuzaki hukm chiqarib yuboraveradigan jamoatchilikning beayov qonunlari, sodir bo‘lgan ishlarni ham ko‘pincha ayb deb hisoblaydi, bunday jinoyat garchi ochiq-oydin ko‘rinib turgan bo‘lsa ham, oilaviy sharoitda odamlar xarakterining turkiligi yo manfaatlarning har xilligi tufayli ozmi-ko‘pmi uni yumshatishning iloji bo‘lgan behisob shart-sharoitlar mavjud bo‘lganda ham shunday hukm chiqaraveradi. Ejen o‘zini o‘zi aldamoqchi bo‘lard, mahbubasi uchun vijdonidan voz kechishga ham tayyor edi. Keyingi ikki kun ichida uning hayoti tamomila o‘zgarib ketdi. Ayol kishi uning qalbida allaqachon vayronalik kashf etgan edi, oila degan narsani uning nazaridan orqaga surib tashladi, uni faqat o‘ziniki qilib oldi. Rastinyak bilan Delfina shunday sharoitda uchrashdilarki, bu sharoit bir-birlariga, iloji boricha, ko‘proq lazzat bag‘ishlashlari uchun go‘yo atayin yaratilgandek edi. Ularning juda kamolga yetib turgan ehtiroslari har qanday ehtiroslarni ham o‘ldiradigan narsaga duch kelganidan keyin – ya‘ni ehtiroslari qondirilgandan keyin – yana ham jo‘shqinlashib ketdi. Mahbubasi visoliga yetishib, ehtiroslarini qondirgandan keyin, Ejen avvallari unga yetishsam deb yurganini, mahbubasini esa faqat muhabbat lazzatini surgandan keyingina chinakamiga yaxshi ko‘rib qolganini sezib qoldi, muhabbat degan narsa, ehtimol, bag‘ishlangan lazzatlar hisobiga ko‘ngilda uyg‘onadigan hisdan boshqa narsa emasdir. Delfina vijdotsiz edimi yo nuqsonsiz edimi, uning qanday ayol bo‘lishidan qat‘i nazar, Ejen uni, baribir, jonidek yaxshi ko‘rar, xuddi nikoh sovg‘asidek unga o‘zi bag‘ishlagan va Delfina ham unga hadya qilgan ehtirosli lazzatlar uchun yaxshi ko‘rardi; Tantal qornini to‘ydirib va chanqog‘ini qondirib ketish uchun huzuriga kelgan farishtani nechog‘liq yaxshi ko‘rsa, Delfina ham Rastinyakni ana shunday yaxshi ko‘rardi.

Ejen balga borish uchun kiyinib qaytib kelgandan keyin,

de Nusingen xonim:

– Ana endi otamning sog‘lig‘idan gapiring, – dedi.

– Juda yomon, – dedi Ejen. – Meni yaxshi ko‘rishingizni isbot qilmoqchi bo‘lsangiz, uning oldiga bir kirib o‘taylik.

– Xo‘p, faqat baldan keyin. Azizim Ejen, yaxshi yigit bo‘l, menga hadeb aql o‘rgataverma, qani ketdik!

Ular balga jo‘nashdi. Yo‘lning yarmisigacha Ejen jim bordi.

– Nima bo‘ldi sizga? – deb so‘radi Delfina.

– Otangizning o‘lim talvasasida xirillagani qulog‘imga eshitildi, – dedi tajanglik bilan Ejen.

Shundan keyin u yoshlarga xos qizg‘inlik bilan grafinya de Restoning shuhratparastlik deb qilgan shafqatsizligini ham, bechora otaning ko‘rsatgan oxirgi jonbozligi natijasida kasali juda og‘irlashib, o‘lim to‘shagida yotganini ham, Anastazining zarhal pistonlar qadab tiktirgan ko‘ylagi qanday qimmatga tushganini ham gapirib tashladi. Delfina yig‘lab o‘tirardi.

Shunda uning miyasiga:

«Xunuk bo‘lib qolaman», – degan fikr keldi.

Shunday deb o‘yladi-yu, ko‘z yoshi quridi qoldi.

– Otamga o‘zim qarayman – tepasidan bir qadam ham jilmayman, – deb javob qildi Delfina.

– Seni ana shunday qiyofada ko‘rsam deb, orzu qilgandim, – dedi Rastinyak.

De Boseanlar hovlisi joylashgan ko‘chani besh yuztacha kareta o‘z fonarlari bilan yoritib turardi. Xuddi kunduz kunidek yoritib qo‘yilgan darvozaning ikkala tarafidan bittadan otlq jandarm turardi. Bu yerga oliy tabaqa zodagonlar shunday yopirilib kela boshlagan, vikontessaning ruhiy tushkunlikka uchrashini ko‘rishga shunday oshiqishgan ediki, de Nusingen xonim bilan Rastinyak yetib kelishganda, uyning pastki qavatidagi hamma xonalar mehmonlar bilan liq to‘lgandi. Lyudovik XIV<sup>1</sup> o‘z qarindoshi gersoginya de Monpaseni oshig‘idan mahrum qilganda hamma a‘yonlar yoppasiga uning saroyiga yugurgan edi; toptalgan muhabbat tuyg‘usi o‘sha vaqtdan beri, to de

<sup>1</sup> Lyudovik XIV (1638-1715) – fransuz qiroli, 1643-1715 yillarda hukm surgan. Burbonlar sulolasidan. Rivoyatlarga ko‘ra, «Davlat – bu men» degan ibora Lyudovik XIV ga tegishli.

Bosean xonim baxtsizlikka uchragan hozirgi paytgacha, bu qadar katta shov-shuvga sabab bo'lmagan edi. Bu fojia boshiga tushganda Burgundiyaning deyarlik hokimi mutlag'i bo'lib kelgan gersoglar xonadonining eng oxirgi vakilasi o'zini g'am alamdan ustun ekanini isbot qila oldi va oxirgi daqiqaga qadar zodagonlar jamiyati ustidan hukmronlikni qo'ldan bermadi, o'sha jamiyatning shuhratparastlikdan iborat manfaatlari darajasiga qadar pastga tushib bo'lsa ham, ularni o'z muhabbati tantanasi uchun xizmat qildirdi. Parijning eng go'zal ayollari yasanibtusanib va odamlarga tabassumlar hadya qilib, uning mehmonxonalarini jonlantirib yuborishgan edi. Saroyning oliyzot a'yonlari, elchilar, ministrlar, biron sohada mashhur bo'lgan, kishilar ordenlar, yulduzlar va rang-barang lentalar taqib etgan odamlar de Bosean xonim atrofida to'dalashib yurishardi. Orkestr sadolari, malikasi uchun sahroyi azidadek huvullab qolgan bu qasrning oltin hal yuritib bo'yalgan peshtoqlarida aks sado berardi. De Bosean xonim birinchi mehmonxona eshigi oldida turib, mehmonlarni go'yo o'z do'stlarini kutgandan qarshi olardi. Oppoq ko'ylak kiyib, hech qanday bezak taqmay, sochini oddiygina qilib tarab olgan, bunday qaraganda juda xotirjam ko'ringan vikontessa na g'ururini, na tashvishini, na soxta shodligini ayon qilardi. Uning ko'nglidagi gaplarni bironta odam ham o'qiy olmadi. Uni ko'rib, bu Niobeyaning<sup>1</sup> marmardan yasalgan haykali deyish mumkin edi. O'zining eng yaqin do'stlariga jilmayib qaraganida, ba'zan ko'zlari istehzo bilan chaq nab ketganini ko'rish mumkin bo'ladi: lekin boshqalar navarida u sira o'zgar-magan holda, ko'zlaridan baxt nur sochib turgan paytlaridagi vikontessa sifatida namoyon bo'ldi; buni ko'rib, hatto hissiyotdan mahrum odamlar ham uning irodasi mahkamligiga qoyil qolishardi, labida tabassum bilan jon bergan gladiatorga<sup>2</sup> qadimgi Rumoda yosh qizlar qanday qoyil qolishgan bo'lsa, vikontessaga ham o'shanday qoyil qolishardi. Go'yo zodagonlar bu

<sup>1</sup> **Niobeya** – yunon afsonasidagi qahramon bahodir Tantalning qizi.

<sup>2</sup> **Gladiatorlar** (*lotincha*: gladius – shamshir) – qadimgi Rimda maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, o'zaro yoki yovvoyi hayvonlar bilan kurashishga majbur qilingan baquvvat, jasur qullar, harbiy asirlar. Maxsus maktabda o'qiganlar (Rimda, Kapuyada). Rimda birinchi Gladiatorialar jangi miloddan avvvalgi 264-yilda bo'lgan. Gladiatorialar bir necha bor quldorlarga qarshi bosh ko'targanlar. Gladiator Spartak rahbarligidagi qo'zg'olon shularning biri. Gladiatorialar jangi V asrdan e'tiboran barham topgan.

yerga hukmronlaridan biri bilan vidolashuv uchun dabdaba bilan to'pdanib kelgandek tuyulardi.

– Kelmay qolarmikinsiz deb juda qo'rqib turgandim, – dedi de Bosean xonim Rastinyakka.

Men hammadan keyin ketadigan bo'lib keldim, – deb javob qildi hayajon bilan Rastinyak. U vikontessa o'pka qilyapti deb tushungan edi.

– Juda soz, – dedi u yigitga qo'lini uzatib. – Bu yerda men yuragimni ochishim mumkin bo'lgan yagona odam siz bo'lsangiz ham ajab emas. Azizim, faqat bitta ayolni seving, doim sevishingizga ishongan yagona ayolni seving. Ayol kishini hech vaqt tashlab ketmang.

Ejenni qo'ltiqlab oldi-da, mehmonlar karta o'ynagan mehmonxonaga olib kirdi va uni kursiga o'tqazdi.

– Markizning oldiga borib kelsangiz, – deb iltimos qildi u. – Mening lakeyim Jak sizni unikiga kuzatib qo'yadi va unga atalgan xat beradi. Men undan hamma maktublarimni qaytarib berishni iltimos qilganman. Qaytarib berar degan umiddaman. Qo'lingizga tegishi bilanoq, bu yerga olib keling va mening xonamga olib chiqing. Menga Dabar berishadi.

U o'zining eng yaxshi dugonasi gersoginya de Lanjeni qarshi olish uchun o'rnidan turdi. Rastinyak markiz d'Ajuda hoynahoy Roshfidlarnikida bo'lsa kerak deb, o'sha yerga jo'nadi, markizni, haqiqatan ham, o'sha yerdan topdi va chaqirib berishlarini so'radi. Markiz uni o'z uyiga olib bordi-da, Rastinyakning qo'liga xatlar to'plab qo'yilgan qutichani berar ekan:

– Hammasi shu yerda... – dedi.

Aftidan, u Ejen bilan gaplashmoqchi edi: ehtimol, yigitdan bal va vikontessa to'g'risida gap so'ramoqchi edi, ehtimolki, bo'lajak nikohidan halitdan dilxastalikka uchrab turganini e'tirof qilmoqchi edi, – bu nikoh unga, haqiqatan ham, ko'p baxtsizliklar keltirdi – ammo markizning ko'zlari g'urur bilan chaqrab ketdi-yu, o'ta mardonalik bilan eng olijanob hissiyotlarini ichiga yutdi.

– Azizim Ejen, unga men to'g'rimda bir og'iz ham gap aytmang.

D'Ajuda g'amgin mehribonlik bilan Rastinyakning qo'lini qisdi-da, unga boshi ila imo qilib ruxsat berdi. Ejen de Bo-

seanlar hovlisiga qaytib keldi; uni vikontessaning xonasiga boshlab kirishdi, bu yerda u jo'nab ketishga hozirlik ko'rib qo'yilganini sezdi. Rastinyak kamin oldiga borib o'tirdi, kedr<sup>1</sup> yog'ochidan yasalgan qutichaga qarab, og'ir xayolga botdi: de Bosean xonim o'zining ulug'vorligi bilan unga «Iliada»dagi<sup>2</sup> ma'budani eslatardi.

Ichkari kirib kelar ekan:

– Keldingizmi, azizim! -- dedi vikontessa va Ejenning oldiga kelib, yelkasiga qo'lini qo'ydi.

Ejen qarindoshiga qaradi: bechora ko'zlarini yuqoriga tikkancha yum-yum yig'lamoqda edi, Ejenning yelkasidagi qo'li dir-dir titrar, ikkinchi qo'li holsizlanib osilib qolgandi. Birdan vikontessa kedr yog'ochidan yasalgan qutichani qo'lga oldi-yu, kaminda yonib turgan o't ichiga qo'ydi va uning yonishiga tikilib turdi.

– Raqs qilishyapti! Hammalari xuddi tayin qilingan vaqtga yetib kelishdi, o'lim esa kechroq keladi! Jim, keragi yo'q! Azizim, – dedi u, Ejen bir narsa demoqchi bo'lib og'iz juftlaganda barmog'ini uning labiga bosib. – Men Parijni ham, zodagonlar davrasini ham boshqa ko'rmayman – hech qachon ko'rmayman. Erta bilan soat beshda, o'zimni Normandiyaning bir burchagiga tiriklayin ko'mgani jo'nab ketaman. Kunduzi soat uchdan beri safarga hozirlik ko'rish bilan ovoraman, har xil qog'ozlarga imzo qilish, turli ishlarimni bitkazish bilan bandman; biron odam topilmadiki... – oldiga yuboray desam.

U birpas to'xtab qoldi.

– Hoynahoy uni... anavilarnikidan topishgan bo'lardi.

Shunday dedi-yu, g'amdan bo'g'ilib yana jim qoldi. Bunday daqiqalarda qar narsa ham yurakni ezadi, ba'zi so'zlarni butunlay tilga olib bo'lmaydi.

– Qisqasi shuki, menga mana shu oxirgi yaxshilikni siz qilarsiz degan umidda edim. Sizga do'stligimiz belgisi tariqasida biror narsa sovg'a qilgum bor. Men sizni tez-tez xotirlab turaman, sizni olijanob va oqko'ngil, yosh va sof bir yigit sifatida tanidim, zodagonlar davrasida bunday fazilatlar kamdan kam

<sup>1</sup> Kedr (Cedrus) – qarag'aydoshlar oilasiga mansub doim yashil daraxtlar turkumi.

<sup>2</sup> «Iliada» – yunon epik dostoni. Gomer yozgan deb taxmin qilinadi. Aftidan, miloddan avvalgi XIII dagi Iliion, ya'ni Troya urushi haqidagi rivoyatlar asosida paydo bo'lgan.

uchraydi. Meni ham qar zamonda bir xotiringizga olib turishingizni istardim. Shoshmang, – dedi u xonani ko‘zdan kechira turib, – mana bu qutichada mening qo‘lqoplarim turardi; qar safar balga yo teatrqa jo‘nashdan oldin bundan qo‘lqoplarimni olib kiyar ekanman, baxtiyor bo‘lganimdan o‘zimni chiroyli his qilardim, qo‘lqopni olib, qutichani yopar ekanman, o‘zimning bironta yoqimli fikrimni shu qutida qoldirib ketardim – bu qutida mening ko‘p fikrlarim qolgan, unda hozir soyasi ham qolmagan avvalgi de Boseanning ko‘pgina narsalari qolgan. Shuni siz oling. Men aytaman, uni sizning uyingizga, d’Artua ko‘chasiga yetkazib berishadi. Bugun de Nusingen xonim juda ochilib ketibdi, uni chinakamiga yaxshi ko‘ring. Agarda azizim, boshqa ko‘rishga olmasak, sizning haqingizga ham ibodat qilib turishimga amin bo‘ling, chunki siz menga faqat yaxshilikni ravo ko‘rdingiz. Yuring, pastga tushamiz, meni yig‘lab o‘tirgandir deb o‘ylashlariga sira ham bahona topib bermoqchi emasman. Hali ko‘p yashayman, yolg‘iz o‘zim qolaman, o‘shanda ko‘z yoshlaring qayerdan quyilib kelyapti-yu, nega kelyapti deb hech kim so‘ramaydi. Shu xonani yana bir nazardan kechiray.

U jim qoldi. Bir daqiqagina kafti bilan ko‘zlarini yopib turdi, keyin ko‘zini ishqab artdi-da, muzdek suv bilan yuvib oldi va Ejenni qo‘ltiqladi;

– Yuring! – dedi u.

Ejen g‘am-alamini mag‘rurlik ila ichiga yutib yonida ketayotgan xotin bilan qo‘ltiqlashib borar ekan, ruhi shu qadar ko‘tarilib ketgan ediki, bunday holatni u hali hech boshidan kechirmagandi. Bal bo‘layotgan zalga qaytib kirib, Ejen de Bosean xonim bilan qo‘ltiqlashib butun zalni kesib o‘tdi – bu o‘sha ajoyib ayolning unga ko‘rsatgan oxirgi zo‘r himmati bo‘ldi. Ko‘p o‘tmay u ikkala opa-singilni – baronessa de Nusingen bilan grafinya de Restoni ko‘rib qoldi. Grafinya hamma dur-gavharlarini yarqiratib taqib kelgandi, o‘zi ham juda go‘zal bo‘lib ketgandi, ammo, aftidan, qimmatbaho bezaklari uning badaniga nashtardek azob bermoqda edi: dur-gavharlarini u oxirgi marta taqib chiqishi edi. U o‘zini naqadar mag‘rur tutmasin, muhabbati naqadar otashin bo‘lmasin, baribir, erining ko‘ziga tik qaray olmasdi. Bunday manzarani nazardan kechirar ekan, Rastinyak xafalikdan o‘zini tiya olmadi. Opa-singillarning dur-

nimaiki yomon gap eshitsang, hammasiga ishonaver! U jamiyatning oltin va dur-gavharlar bilan niqoblangan marazliklarini to'la ochib bera oladigan Yuvenal yo'q.

Ertasiga soat ikkilarga yaqin Byanshon Rastinyakni uyg'otdi; bir joyga borib kelishi kerak edi, shuning uchun Ejendan Gorio ota oldida o'tirib tur, deb iltimos qildi, chunki cholning ahvoli ertalabdan beri juda og'irlashib qolgan edi.

– Cholning ikki kunlik, ehtimolki, olti soatlik umri qoldi, – dedi medik, – shunday bo'lsa ham kasalga qarshi kurashni to'xtatmasligimiz kerak. Qimmatga tushadigan dori-darmonni ham qo'llab ko'rishimiz kerak. Albatta, cholga o'zimiz qarab turamiz, ammo pulga kelsak, menda bir so'm ham pul yo'q. Uning hamma cho'ntaklarini titkilab ko'rdim, hamma shkaflarni qidirdim, ammo hech narsa topolmadim. Chol hushiga kelganda, o'zidan ham so'rab ko'rdim, ammo bir lirasi ham yo'q ekan. Qancha puling bor?

– Yigirma frank pulim qoldi, – dedi Rastinyak, – lekin borib qimor o'ynayman-u, yutib kelaman.

– Yutqazib qo'ysang-chi?

– Kuyovlari bilan qizlaridan pul talab qilaman.

– Berishmasa-chi? – deb so'radi Byanshon. – Ammo hozir eng zaruri pul topish emas, zaruri uning oyog'iga tovonidan sonigacha gorchichnik qo'yish kerak. Agar og'riqdan dodlasa, demak, umid qilsa bo'ladi. Gorchichnikni qanday qo'yishni bilasan. Kristof ham yordamlashib yuboradi. Men esa dorixonaga borib, dori tayyorlovchiga, hamma olgan dori-darmonlarga pul to'laymiz, deb kafillik berib kelaman. Afsus, sho'rlikni bizning kasalxonaga ko'chirishning iloji yo'q-da o'sha yerda ahvoli yengillasharmidi. Xo'p, qani, yur, hammasini bemorning oldida yaxshilab tushuntirib qo'yaman, men qaytib kelguncha hech qayoqqa ketib qolma. yigitlar chol yotgan xonaga kirishdi. Kasalning og'riqdan bujmayib, oppoq oqarib, quruq suyak bo'lib qolgan yuziga qarab turib, uning bunday o'zgarib ketganidan Rastinyak dahshatga keldi.

– Xo'sh, ota, ahvol qalay? – deb so'radi u bemor ustiga engashib.

Gorio xira ko'zlarini ochib, Ejenga tikilib qaradi-yu, ammo uni tanimadi. Talaba bunga dosh berolmay, ko'zlari jiqqa

yoshga to'ldi.

– Byanshon, derazaga biror narsa tutsa bo'lmasmikin?

– Yo'q, tashqi muhit unga ta'sir qilmay qo'ygan. Issiq yo sovuqni sezsa-ku, juda yaxshi bo'lardi-ya, dori-darmonlarni tayyorlash uchun, yana boshqa ba'zi ishlar uchun, baribir, kaminga o't yoqish kerak. Bir necha bog' o'tin berib yuboraman, yana topgunimizcha o'shani yoqib turamiz. Kecha, butun kechasi sening o'tiningni, yana chol bechoraning uyidan topilgan hamma o'tin bilan torfni yoqib bo'ldim. Xona shunday zah ediki, devorlardak suv chakillab tomib turdi. Xonasini zo'rg'a quritdim-da! Kristof supurib-sidirib berdi, bo'lmasa xuddi otxona bo'lib ketibdi. Qora archa tutatib yubordim, bo'lmasa, juda sasib ketgan ekan.

– Yo rabbiy! Qizlari-chi, qizlari?! – deb yubordi Rastinyak.

– Menga qara, suv desa, mana buni ber, – deb medik katta oq ko'zani ko'rsatib qo'ydi. – Agar qornim og'riyapti deb shikoyat qilsa, qornini ushlab ko'r, agar issiq va qattiq bo'lsa unda Kristofga ayt... nima qo'yishni o'zing ham bilasan. Agarda birdan hayajonlanib ketib, gapga tushib ketsa, hatto bir oz gapidan og'ib pala-partish gaplarni ayta boshlasa ham, indama, gapiraversin. U yomon alomat emas. Har holda, o'shanda ham Kristofni Koshen kasalxonasiga yubor. Yo shifokorimiz, yo o'zim, yo o'rtog'im dori bilan kuydirgani kelamiz. Bugun ertalab, sen uxlab yotganingda Gallning shogirdlaridan birini chaqirib, yana o'zimizning kasalxona bosh shifokori bilan Otel-De bosh shifokori ishtirokida katta konsilium<sup>1</sup> uyushtirdik. Ularning nazarida, bir qancha juda muhim belgilar topildi, shu sababdan fan nuqtai nazaridan juda ahamiyati zo'r bo'lgan bir qator masalalarni hal qilib olish uchun kasalning rivojini kuzatib boramiz. Shifokorlardan biri, seroz suyuqliklari odamning bir a'zosiga ko'proq, boshqa a'zosiga ozroq ta'sir qilsa, u butunlay kutilmagan hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, deydi. Agarda birdan gapirib qolsa, gapi nimalar to'g'risida bo'lishiga quloq

<sup>1</sup> **Konsilium** (lotincha: consilium – kengash) – bemorga tashxis qo'yish va davolash masalalarini hal etish uchun o'tkaziladigan vrachlar (bemorga bevosita aloqador bo'lgandan tashqari tor soha mutaxassislari) kengashi. Bemorni davolovchi vrach (bemorning ahvoli og'ir yoki kasallikni aniqlash qiyin bo'lgan hollarda) yoki uning yaqin kishilari iltimosiga binoan o'tkaziladi.



solib tur: gapirib yuborishiga nima sabab – o‘tmish xotiralarimi, kelajak to‘g‘risidagi fikrlarmi yoki uni hissiyot olami o‘ziga tortib ketadimi, yo moddiy jihatni o‘ylay boshlaydimi, hisob-kitobga berilib ketadimi, o‘tmishga qaytadimi; qisqasi, bizga shu to‘g‘rida aniq hisobot berishing kerak. Ehtimol, qon birato‘la miyasiga quyilib ketgandir, unda hozirgi chala telbaligicha o‘lib ketadi. Bunday kasallarda hamma narsa ham sira kutilmagan tarzda ro‘y beradi. Qon mana bu yerga quyilib ketsa, – deb Byanshon bemorning ensasini ko‘rsatdi, – juda qiziq hodisalar yuz beradi: miya sal-pal ishlay boshlaydi-da, o‘lim kechroq keldi. Qon miyaga quyilmay, boshqa yo‘l topib ketishi ham mumkin, lekin qayoqqa quyilib ketganini faqat murdani yorganda aniqlash mumkin. Bedavo bemorlar kasalxonasida bitta esi kirarli-chiqarli chol bor, qoni umurtqa suyagi yoqalab quyilib ketgan; juda qattiq qiynalyapti-yu, ammo yashab turibdi.

– Qizlarim xursand bo‘lishdimi? – deb so‘radi Gorio ota Ejenni tanib.

– Uning fikri-yodi qizlari, – dedi Byanshon. – Shu bugun kechasi: «Ular raqs qilishyapti! Mehmonga yangi ko‘ylak kiyib borishdi!» – deb yuz martacha takrorlagandir. Ularning otini aytib chaqirdi. Jin ursin! Oh-u fig‘onlari bilan meni ham ko‘z yoshi qilib olishga majbur etdi; «Delfinaginam, qizim Delfina! Nazi!» – degani degan. O‘lay agar, yig‘lamay iloj yo‘q edi!

– Delfina shu yerda, a? O‘zim ham biluvdim kelishini, – dedi chol.

Shunday dedi-yu, ko‘zlari allaqanday tarzda chaqnab, eshik va devorlarga jovdirab qaray boshladi.

– Pastga tushib, Silviyaga aytay: gorchichnik tayyorlab bersin, hozir juda payti! – deb qichqirdi Byanshon.

Rastinyak chol bilan yolg‘iz qoldi va uning oyoq tarafida o‘tirib, cholning boshiga dahshat va iztirob bilan qaray boshladi.

«Vikontessa de Bosean qochib ketdi, bu o‘lim to‘shagida yotibdi, – deb xayolidan o‘tkazdi Rastinyak. – Nozik ko‘ngil odamlar bu dunyoda ko‘p turolmaydilar. Katta qalb egasi bo‘lgan olijanob odamlar bunday mayda, cheklangan, arzimas jamiyat qo‘ynida qanday qilib ham chidab tura olardi?»

Uning tasavvurida o‘zi mehmon bo‘lib borgan zodagonlar baliga tamomila zid o‘laroq mana bu ajaldan darak beruvchi

g'amxona manzarasi namoyon bo'ldi. To'satdan Byanshon qaytib kirdi.

– Menga qara, Ejen, hozir ko'chada o'zimizning bosh shifokor bilan uchrashib qoldim-u, darrov orqamga qaytdim. Agar es-hushi joyiga kelib gapirib qolgudek bo'lsa, bo'ynidan to dumg'azasigacha uzunasiga gorchichnik qo'yib chiqda, menga odam yubor.

– Qoyil yigitsan-da, Byanshon.

– O, hozir gap fan to'g'risida boryapti! – dedi medik, qizg'inlik bilan.

– Demak, bechora cholni astoydil mehr bilan faqat men boqayotgan ekanman-da? – dedi Rastinyak.

– Bugun ertalab bemorga qanday qaraganimni ko'rganingda, sira ham shunday demagan bo'larding, – deb e'tiroz bildirdi xafa bo'lmay Byanshon. – Ko'p bemor ko'rgan shifokorlar faqat kasalni ko'radilar, men esa og'aynim, hozircha bemorni ham ko'rib turibman.

U Ejenni bemor oldida yolg'iz qoldirib, cholning ahvoli hademay tang bo'lishini sezgan holda chiqib ketdi, haqiqatan ham, bemor hademay og'irlashib qoldi.

– Ha-a! Sizmisiz, o'g'lim! – dedi Gorio, Ejenni tanib.

– Bir oz yengil tortay dedingizmi? – deb so'radi talaba, uning qo'lidan ushlab.

– Tuzukman, miyamni bir narsa omburdek qisib olgan edi, lekin hozir qo'yib yubordi. Qizlarimni ko'rdingizmi? Hademay bu yerga kelib qolishadi, kasal bo'lib qolganimni eshitishlari bilanoq yugurib kelishadi. Jyusen ko'chasida menga qanday mehribonlik bilan qarab turishgan edi-ya! Yo rabbiy! Ular kelishganda, xona tozaroq bo'lsa durust bo'lardi. Shu yerda bitta yigit aylanishib yuribdi, u hamma torfni yoqib bo'ldi.

– Ana, eshityapsizmi, Kristof zinadan o'tin olib chiqib kelyapti, o'tinni o'sha yigit yuborgan.

– Yaxshi qilibdi! Faqat o'tinga pulni qayerdan olib to'layman? Mening bir su ham pulim qolgani yo'q, o'g'lim. Boryo'g'imni berib bo'ldim, hamma narsamni berdim! Endi qashshoq bo'lib qoldim. Nima bo'lganda ham zarhal pistonlik ko'y-lak qizimga yarashibdimi? Voy boshim! Rahmat, Kristof, xudo xayringni bersin, mendan qaytmasa, xudodan qaytsin.

– Senga ham, Silviyaga ham, hamma haqlaringni o‘zim to‘layman, – deb shivirladi Ejen, Kristofning qulog‘iga.

– Kristof, qizlarim, hozir boramiz deb aytishgandir-a, to‘g‘rimi? Ularning oldiga yana bir marta borib kel, senga yuz su beraman. O‘zimni yomon his qilayotganimni ayt, o‘lishdan oldin ularni yana bir ko‘rmoqchiman, yana bir bag‘rimga bosmoqchiman. Ularga shunday deb ayt, faqat juda ham qo‘rqitib yuborma.

Rastinyak Kristofga imo qildi, shundan keyin Kristof chiqib ketdi.

– Kelishadi ular, – dedi yana tilga kirib chol. – Ularni yaxshi bilaman. Oppoq qizim Fifina, o‘lib qolgudek bo‘lsam, bechorani qanday g‘amga kuyaman-a! Nazini ham. Ular yig‘lamasligi uchun o‘lishni istamayman. Aziz o‘g‘lim Ejen, o‘lish – ularni boshqa ko‘rmaslik degan gap-ku. Men u yerda – hamma ham axir bir kun boradigan joyda – qizlarimni juda sog‘inib yotaman. Farzandlardan ajralish – ota uchun do‘zax azobi degan so‘z, bu kunga men ular erga tekkan kundan boshlab tayyorlik ko‘rib kelganman. Mening jannatim – Jyusen ko‘chasida qoldi. Yo rabbiy, agarda jannatga tushsam, arvoh sifatida bo‘lsa ham yerga qaytib kela olarmikanman, ular bilan birga bo‘la olarmikanman? Shunday gaplarni eshitgan edim. To‘g‘rimikan shu gaplar? Mana hozir ularning Jyusen ko‘chasidagi paytini ko‘rib turgandekman. Qizlarim ertalab pastga tushishardi. «Salom, dada», – deyishardi. Ikkalasini ham tizzamga o‘tqazib olib, hazil-lashardim, sho‘xlik qilardik. Menga qanday mehribon edilar-a! Har kuni birga nonushta qilardik, tushki ovqatniyam birga yerdik – kisqasi, men ota edim. bolalarim yonimda, yaqinimda ekanidan rohat qilardim. Jyusen ko‘chasida turganimizda menga aql o‘rgatishmas, hayotga mutlaqo tushunishmas va meni juda yaxshi ko‘rishardi. E xudo! Nega bolaligicha qolishavermadi, a? (Voy, boshim! Tors yorilib ketay deyapti!) Voy, voy, kechiringlar meni, bolalarim, boshim juda qattiq og‘rib ketdi, demak, rostdan ham haddan tashqari qattiq; og‘riq kiribdi-da, bo‘lmasa og‘riqqa dosh berishni menga o‘rgatib qo‘ygan edinglar. Yo rabbiy! Qani endi faqat qo‘llarini ushlab turgan bo‘lsam, hech qanday og‘riqni sezmagani bo‘lardim. Nima deysiz, kelisharmikin? Kristof o‘lgudek ahmoq bola! O‘zim borsam bo‘lardim. Ana u ko‘rib keladi

bolalarimni. Ha-ya, Kecha balga bordinglar-ku. Nimalar bo'lganini, nimalar qilishganini, xullas, hammasini gapirib bering, Ular, hoynahoy, mening kasal ekanimdan bexabardirlar? Bilib qolishsa, raqs ham qilmay qo'yishgan bo'lardi! Ortiq kasal bo'lishni istamayman. Hali ularga juda zarurman. Ularning moldavlati xavf ostida. Qanday odamlarga erga tegishdi-ya! Tuza tinglar meni! (Uh, boshim! Voy, voy, voy!) O'zingiz ko'rib, bilib turibsiz, meni tuzatmasanglar bo'lmaydi: ularga pul kerak, men esa qayerga borish kerakligini, pulni qanday topish mumkinligini bilaman. Sof kraxmal ishlab chiqarish uchun Odessaga jo'nayman. Men juda ustabilarmon odamman, million jamg'arib kelaman. (Voy, boshim og'rib ketyapti!)

Gorio birpas jim yotdi, ko'rinishdan, og'riqqa dosh berish uchun astoydil harakat qilayotgan edi.

– Qizlarim yonimda bo'lishsa, oh-voh qilmasdim, – dedi u. – Unda nimagayam zorlanardim?

U mudrab, ko'zi ilinib ketdi. Kristof qaytib keldi. Rastinyak Gorio uxlab qoldi deb o'ylab, topshiriqni qanday bajarib kelganini qattiq-qattiq qilib gapirib bera boshlagan Kristofning gapini bo'lmadi.

– Taqsir, oldin grafinyaning uyiga bordim, faqat u bilan gaplashishning sira iloji bo'lmadi: ari bilan qattiq urishib qolibdi. Men hadeb qistayverganimdan keyin grafning o'zi yonimga chiqdi-da, bunday dedi: «Janob Gorio o'lyaptimi, o'lsa o'libdida! Yaxshi qilibdi. Men grafinya bilan muhim bir ishni bitkazib olishim kerak. Ishimiz bitishi bilanoq, grafinya otasi oldiga boradi». Aftidan, juda achchig'i chiqib turgan ekan. Men endi qaytmoqchi bo'lib turgan edim, shu payt grafinyaning o'zi chiqib qoldi, qaysi eshikdan chiqqanini sezmay ham qoldim. «Kristof, – dedi u, – otamga borib ayt, erim bilan urishib qoldik, uydan chiqib ketolmayman: gap bolalarimning hayot-mamoti ustida boryapti. Ishimiz bir yoqlik bo'lishi bilan o'zim boraman». Baronessanikida bo'lsa, butunlay boshqacha gap qilishdi. Uni men hech ko'rmadim ham, shu sababdan u bilan gaplasha olmadim, uy xodimasi bunday dedi: «Ah, baronessa baldan soat beshdan chorak o'tganda keldi, hozir uxlab yotibdi, o'n ikkidan oldin uyg'otсам, urishib beradi. O'zi qo'ng'iroq qilib chaqirsa, unda o'sha zahoti otasining ahvoli og'ir ekanini aytaman. Yomon

xabarni qachon aytsang ham bo'laveradi». Har qancha urinsam ham, boshqa iloji bo'lmadi. Baron bilan gaplashmoqchi edim, ammo u uyda yo'q ekan.

– Bitta ham qizi kelmas ekan-da? – deb yubordi Rastinyak. – Hozir ikkalasiga ham xat yozib beraman.

– Bittasi ham kelmadi! – dedi qaddini sal ko'tarib chol. – Ularning ishi bor, ular uxlab yotishibdi, kelishmaydi. O'zim ham bilardim. Farzandning nimaligini faqat o'layotganingda bilar-kansan. Eh, azizim, o'g'lim, sira uylanmang, bola orttirmang! Siz ularga hayot berasiz, ular esa sizga – o'lim! Siz ularni dunyoga keltirasiz, ular sizni dunyodan siqib chiqaradilar! Kelishmas ekan! Bu menga o'n yildan beri ma'lum. Bu gapni o'zimga o'zim juda ko'p aytardim-u, ammo ishongim kelmasdi.

Yallig'lanib, qizarib yotgan ko'zlaridan ikki dona yosh oqib chiqdi-yu, qotib qoldi.

– Eh, boy bo'lganimda, davlatimni ularga bermay, o'z qo'limda saqlab yurganimda, ular shu yerda bo'lishardi-ya, yuz-ko'zlarimdan o'paverib shishirib yuborgan bo'lishardi. Unda o'zimning dang'illama imoratli hovlim bo'lardi; ajoyib xonalarda yotgan bo'lardim, xizmatkorlarim xizmatimga hozir turgan bo'lardi; issiqqina uyda yotgan bo'lardim; qizlarim erlari, bolalari bilan ko'z yoshi qilib tepamga kelishardi. Xuddi shunday bo'lardi! Ammo menda hech vaqo yo'q. Pulga hamma narsani, hatto qizlaringni ham sotib olishing mumkin. Oh, pullarim, qani ular?! Mol-dunyo meros qoldirayotgan bo'lsam, qizlarim tepamda parvona bo'lishardi-ya, meni davolatishardi; men ham ularni ko'rib, ovozlari eshitib yotardim. Oh, aziz o'g'lonim, mening yakka-yu yagona farzandim, boshpanasiz bir g'arib, gado bo'lishni afzal ko'raman. Agar kambag'al odamni yaxshi ko'rishsa, hech bo'lmaganda, u, men ham odam ekanman-u, deb o'ziga o'zi dalda berishi mumkin. Yo'q, boy bo'lishni afzal ko'rardim, o'shanda ularni ko'rardim... Yana kim bilsin? Qizlarimning yuragi toshdan. Ular meni yaxshi ko'rsin deb, o'zim ularni haddan ortiq sevdim. Ota, albatta, boy odam bo'lishi kerak, bolalarining jilovini qo'lida mahkam ushlab turishi kerak. Men esa ular oldida tiz cho'kib yuribman. Yaramaslar! Ular menga keyingi o'n yil ichida qilgan munosabatlarini juda boplab oxiriga yetkazdilar. Erga tekkandan keyin, dastlabki yillarda

menga qanchalik mehribon bo'lganlarini bir ko'rsangiz edi! (Uh, boshim, qanday azobga qoldim-a!) Har biriga sep qilib sakkiz yuz ming frankdan pul berganman, u paytlarda ularning o'zi ham, erlari ham menga andishasizlik qila olmasdilar. Uylaridan joy berishar: «Dadajon, mana bu yerga o'tiring, dadajon, anavi yerga o'tiring», deb ustimda o'lib bo'lishardi. Dasturxonda men uchun doim qoshiq-sanchqilar tayin edi. Erlari ham meni izzat-hurmat qilishardi, men ham ularning hurmatini joyiga qo'ydim. Ularning nazarida, mening davlatim yana anchagina bor edi. Nima uchun shunday deb o'ylashardi? Men hech vaqt ularga o'z ishlarimdan gapirmasdim-ku. Lekin qiziga sakkiz yuz ming pulni sep qilib bergan odamni izzat qilsa arziydi. Shu sababdan, atrofimda girdikapalak bo'lib aylanishib yotishardi, turgan gapki, pulim borligi uchun shunday qilishardi. Odamlar juda bema'ni bo'ladi. Men hayotimda unaqalarning juda ko'pini ko'rganman! Meni karetaga solib teatrlarga olib borishardi, mehmonxonalarida ham kechqurunlari istaganimcha o'tiraverardim. Qisqasi, ular o'zlarini mening qizim deb, meni o'z otalari deb e'tirof etardilar. Ammo men ancha ziyrak odam edim, mendan hech narsani yashirib bo'lmasdi. Hamma gapga aqlim yetib, tushunib yurardim, ko'p ishlar yuragimga nashtardek sanchilardi. Ularning hamma muomalasi soxta ekanini juda yaxshi bilib yurardim, ammo endi dardimga davo topishning iloji yo'q edi. Men o'zimni ularnikida mana shu yerdagidek, pastdagi yemakxonadagichalik erkin his qila olmasdim. Nima gapirishni ham, qanday gapirishni ham bilmasdim. Ba'zan zodagon mehmonlardan birontasi pichirlab kuyovlarimdan:

– Bu kim o'zi? – deb so'rab qolardi.

– Qaynatam – oltin xazinasi, boy odam.

– Ah! Anavini qarang-a! – deyishardi mehmonlari va shundan keyin menga hurmat bilan qarashardi... pulim uchun, albatta. Turgan gapki, ba'zan ularga malol kelib qolardim, ammo men buning hisobiga pul to'lab turardimda! Benuqson kim bor? (Oh, boshim, hamma yog'i yara bo'lib ketganga o'xshaydi-ya!) Hozir shunday azobdamanki, shu azobning o'zidan o'lib ketish mumkin, ammo muhtaram janob Ejen, bir kun bema'ni gap aytding deb Anastazi menga birinchi marta shunday o'qrayib qaragan ediki, o'shaning og'rig'i oldida bu azoblar hech gap

emas. Uning tikilib qarashidan yuragim orqasiga tortib ketgandi. Nima ishligini bilmogchi bo'lib ko'rdim-u, ammo faqat bir narsani, bu dunyoda ortiqcha bo'lib qolganimni angladim, xolos. O'zimni yupatish uchun ertasiga Delfinanikiga bordim, ammo u yerda ham bir ayb ish qilib qo'ydim, shekilli, qizimning g'azabiga uchradim. Bundan aqlim ozar darajaga keldi. Bir haftagacha nima qilarimni bilmay yurdim; ta'na-yu malomatga qolib ketishdan qo'rqib, ularning uyiga bormadim, ana shu taxlidda qizlarimning eshigi men uchun yopildi qoldi! Yo xudo, o'zing rahm qil! Qanchadan qancha azob chekkanimni bilasan-ku! Shundan beri ne-ne jafolarni chekmadim, meni o'sha azob-uqubatlar adoyi tamom qildi, qaridim, soch-soqolimga oq tushdi, toptaldim; endi nega bunday qiynoqqa solasan yana? Men o'z gunohimni – qizlarimni haddan ortiq sevganimdan orttirgan gunohimni allaqachon yuvib bo'lganman, Mehrim uchun ular rosa boplab adabimni berishdi: a'zoyi badanimni xuddi jallodlardek ombur bilan burda-burda qilib uzishdi, Nima ham qila olardim! Otalar mana shunday ahmoq bo'lishadi! Men qizlarimni shunday yaxshi ko'rardimki, xuddi qimorxonaga oyog'i tortib ketaveradigan qimorbozlardek o'shalar oldiga borgim kelaverardi. Qizlarim – mening nuqsonim, muhabbatim, butun borlig'im edi! Ikkalasi ham biror narsa xohlab qolsa – biror qimmatbaho bezakli yo shunga o'xshash narsanimi, xohlab qolishsa – uy xodimlari buni darrov menga yetkazishardi, men ham darrov o'sha narsani ularga sovg'a qilardim, meni yaxshiroq qabul qilishar deb umid qilardim. O'shanda ham qizlarim zodagonlar davrasida o'zimni qanday tutishim kerakligi to'g'risida bir necha marta saboq berishdi. Ammo buning natijasini kutib o'tirmay, men uchun qizara boshlashdi. Ha, ha, xuddi shunday bo'ldi, farzandlaringga yaxshi tarbiya bersang, oqibati shu bo'ladi! Soqolimga oq oralaganda maktabga borib ta'lim olishim kerak edimi? (Voy boshim, e xudo, o'zing rahm qil! Shifokorlarni topib kelinglar! Shifokorlarni! Miyamni yorib, ochishsin, zora dardim yengillashsa!) Qizlarim, qizlarim, Delfina! Anastazi! Ularni ko'rgim kelyapti! Ularga jandarm yuboringlar, majburan olib kelinglar! Sud meni yoqlaydi, hamma narsa – tabiat ham, fuqarolik qonunlari ham meni yoqlaydi! Men norozilik bildiraman! Agar hamma otasini oyoq osti qilaversa, vatan halok bo'ladi. Bu

aniq. Jamiyat, butun dunyo otalarga suyanib turibdi, bolalar o'z otalarini sevmay qo'ysalar, hamma narsa ostin-ustun bo'lib ketadi. O, ularni bir ko'rsam, ovozi bir eshitsam edim; nima desalar ham mayli, faqat ovozlari eshitsam bas, ayniqsa, Delfinaning ovozi eshitsam, azoblarim pasayardi. Faqat, ayting, bu yerga kelishganda menga har vaqtdagidek sovuq nazar bilan qarashmasin, shuni iltimos qilib qo'ying. Eh, aziz do'stim, janob Ejen, oltidek nur sohib qarab turgan ko'z birdan sovib, qo'rg'oshindek xiralashib qolsa, buning naqadar og'ir bo'lishi hali bilmaysiz. Ular meni yonib turgan ko'zlari bilan isitmay qo'yganlaridan beri bu dunyo men uchun zimiston bo'ldi, xafalikni ichimga qult yetib yutib ketaverishdan boshqa ilojim qolmadi. Shunday qilib yurdim ham! Xo'rlanish va tahqirlanish uchun yashab yurdim. Ikkalasini shunday yaxshi ko'rardimki, hamma tahqirlariga dosh berib keldim, nomusimni bukib bo'lsa ham, shu haqoratlar hisobiga jindek-jindek shodliklarni sotib olib yurdim. Ota bo'la turib qizlarimni o'g'rinchi ko'rib yursam-a? Men ularga butun umrimni bag'ishladim – ular esa bugun bir soat vaqtini bergisi kelmadi! Yuragim o't bo'lib yonib boryapti, ochlikdan, yurak-bag'rim yonib ketganidan jonim chiqay deb turibdi, ular esa azoblarimga malham bo'lish uchun ham bir kelishmadi, axir, o'lishim aniq, buni o'zim ham sezib turibman. Ko'rinishdan, ular otaning jasadini oyoq osti qilish nimaligini hali bilishmaydiganda o'xshaydi! Tepamizda xudo bor, u biz otalar uchun, farzandlarimizning jazosini beradi! Bizlardan so'rab ham o'tirmaydi. Yo'q, kelishadi! Kelinglar, jon qizlarim, meni yana bir o'pish uchun kelinglar, jon chiqar paytida otangiz haqiga ibodat qilmasanglar ham, oxirgi marta bir o'pinglar, o'shanda otangiz xudodan gunohingizni so'rab oladi, qizlarim yaxshi edi deb, uning dargohida gunohingizdan o'tishni yolvorib so'raydi! Surishtirib qaraganda, ularda ayb ham yo'q asli. Do'stim, ularda ayb yo'q. Odamlar ularni men uchun qoralab yurishmasin, shu gapni hammaga eshittirib qo'ying. Gunoh menda! Meni oyoq osti qilishni ularga o'zim o'rgatganman. Shu menga yoqardi. Ammo buning hech kimga, na insoniyatga-yu, na xudoga dahli bor. Meni deb, ularni gunohkor qilsa, xudo nohaq ish qilgan bo'ladi. Men o'zimni o'zim himoya qila olmadim, o'z huquqlarimdan kechib ahmoqlik qildim. Ularni



deb, o'z qadr-himmatimni bilmadim. Nima qilishim kerak edi? Eng yaxshi fazilatli odam ham, eng ko'ngli pok odam ham otalikning bunday ojizligiga dosh berolmagan bo'lardi. Men ayanch bir odamman, qilgan ishlarimga yarasha jazoyimni tort-yapman. Qizlarimning bunday axlohsizligiga men sabab bo'lganman: ularni juda erkalatib yuborganman. Ular bolaligida konfet talab qilganidek, endi huzur-halovat talab qilyapti. Ularning hamma orzularini o'rniga yetkazib kelganman. O'n beshga kirishganidayoq ularning shaxsiy karetalari bor edi! Hech narsani yo'q demasdim. Faqat men o'zim aybdorman, ammo hamma balo mehrimda. Ularning ovozi eshitsam, yuragim tors yorilgudek bo'lardi. Ovozi qulog'imga kiryapti, kelishyapti ular. O, albatta, kelishadi! Qonun, o'lar holatda yotgan otani borib ko'rish kerak, deydi, qonun meni yoqlaydi. Bu yerga kelish uchun izvoshchiga haq to'lashdan boshqa hech qanday pul sarf qilish ham kerakmas. Haqini o'zim to'layman. Ularga xat yozing, men ularga millionlab pul qoldiraman! Xudo haqqi! Vermishel ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun Odessaga jo'nayman. Yo'lini bilaman. Mening loyiham bilan ish olib borilsa, millionlab pul topish mumkin. Bu to'g'rida hali hech kim o'ylab ko'rmagan. Vermishel don yo un singari yo'lda buzilib qolmaydi. Ha! Ha! Kraxmalni aytmaysizmi! Million-a! Xuddi shunday: «million», deb yozib yuborsangiz, sira ham yolg'on gapirgan bo'lmaysiz. Ular pulni o'ylab, ochko'zlik qilib kelishsa ham, men aldansam ham, mayli, ularni ko'rib qolaman-ku. Qizlarimning kelishini talab qilaman! Ularni men yaratganman! Ular meniki! – dedi u, o'rnidan qo'zg'alib va oppoq sochlari potila-potila bo'lib yotgan boshini Ejenga burib; uning yuzidagi har bir ajindan dahshat alomati aks etib turardi.

– Qo'ying, yoting, hurmatli Gorio ota, hozir ularga xat yozib yuboraman, – deb uni tinchlantirishga urinardi Ejen. – Agar o'shanda ham kelishmasa, Byanshon qaytib kelishi bilanoq, ular oldiga o'zim boraman.

– Kelishmasa, deysizmi? – deb takror so'radi chol, ho'ng-ho'ng yig'lab. – Ammo ungacha o'lib qolaman, telba bo'lib, ha, telba bo'lib o'lib qolaman! Men hoziroq telba bo'lib qoldim. Hozir butun hayotimni ko'rib turibman. Aldanibman! Ular meni yaxshi ko'rishmas ekan, hech vaqt yaxshi ko'rishmagan ekan. Bu

aniq bo'lib qoldi. Shu paytgacha kelishmadimi, endi kelishmaydi. Bu yerga kelishdan oldin qanchalik ko'p taraddudlanishsa, kelishlari shuncha qiyin bo'laveradi. Buni yaxshi bilaman. Ular hech qachon mening na g'am-kulfatlarimni, na chekkan azob-uqubatlarimni, na ehtiyojlarimni anglashgan – o'layotganimni ham anglashmaydi; mehribonligimning sirini ham tushunishmaydi. Ha, buni o'zim ko'rib turibman, ular meni shilib o'rganganlar, shuning uchun ularni deb qilgan hamma ishlarim zoye ketar, qadriga yetishmasdi. Ko'zimni o'yib olmoqchi bo'lib qolsalar ham, yo'q demagan bo'lardim; «Mana, o'yib ola qolinglar!» degan bo'lardim. O'lgudek ahmoq odamman. Ular, hammaning otasi ham bizning otamizga o'xshaydi deb o'ylaydilar. Hamma vaqt o'z qadringga yetish kerak ekan. Ularning bolalari mening o'chimni olishadi hali, bolalaridan qaytadi. O'zlarini o'ylab, oldimga kelishlari kerak. O'zlaringiz ham shu kunga tushishga zamin hozirlayapsizlar deb ogohlantirib qo'ying. Mana shu jinoyatning o'zi bilan ular birvarakayiga jamiki jinoyatga qo'l urdilar. Borib ayting ularga, kelishdan bosh tortsalar – padarkushlik qilgan bo'ladilar! Yovuzlikni shunday ham ko'p qilganlar. Ularga: «Hoy, Nazi! Hoy, Delfina! Otangiz oldiga boringlar, u sizlarga juda mehribon edi, endi qiynalib yotibdi!» deb qichqiring. Hech narsam ham, hech kimim ham qolmadi. Nahotki, itdek xor bo'lib o'lib ketsam? Tashlab ketishdi – oqibatda, yetishganim shu bo'ldi. Jinoyatchilar! Besharm, behayolar! Ularni ko'rgani ko'zim yo'q, oq qildim ularni, ming la'nat ularga, kechalari go'rimda tik turib la'natlarimni qayta-qayta yog'diraman, axir, do'stlarim, nohaq gaplarni aytyapmanmi-a? Axir ular nonko'rlik qilishyapti-ku, to'g'rimi? Iye, nima deyapman o'zim? Delfina shu yerda dedingiz, shekilli! U yaxshiroq. Ha, ha, Ejen, o'g'lim! Uni seving, unga otalik qiling. Anavinisi juda bebaxt bo'ldi. Ularning mol-davlati-chi! Yo rabbiy! Kunim bitdi, og'riqqa ortiq dosh berolmayman Boshimni kesib tashlang, faqat yuragim qolsa, bas.

– Kristof, Byanshonga yugur, yo'l-yo'lakay menga izvossh olib kel! – deb qichqirdi cholning nola-fig'onlaridan qo'rqib ketgan Ejen. – Muhtaram Gorio otajon, hozir qizlaringiz oldiga o'zim borib, birga olib kelaman!

– Majburan, majburan olib keling. Gvardiyani, qo'shinni,

hamma, hammani jalb qiling! – deb qichqirdi halihozircha sog'lom aql chaqnab turgan ko'zlari bilan Ejenga qarab chol. – Hukumatga, prokurorga ayting, ularni yonimga olib kelishsin, men shuni talab qilaman!

– Siz ularni oq qildingiz-ku!

– Kim aytdi sizga? – deb hayron bo'lib so'radi chol. –

Ularni yaxshi ko'rishimni, juda yaxshi ko'rishimni hamma bilmasa ham, siz yaxshi bilasiz-ku! Ularni ko'rsam, tuzalib ketaman. Bora qoling mehribon qo'shnim, aziz o'g'lim, bora qoling, siz juda yaxshi yigitsiz. Sizni bir xursand qilardim-u, ammo o'lim to'shagida yotgan odamning duosidan boshqa narsasi yo'q. Oh, juda bo'lmasa Delfinani ko'rsam ham mayli edi, bu yaxshiliklaringizni qaytarishni undan iltimos qilardim! Kattasi-ning kelishiga iloj bo'lmasa, Delfinani olib keling. Bormasang, sendan aynab qoladi. Balzakman, sevmayman, deng. U sizni judayam yaxshi ko'radi, shu gapingizdan keyin keladi. Suv! Yuragim yonib ketdi! Boshimga biror narsa qo'ying – qani endi qizim qo'lini qo'ysa, unda-ku, darrov tuzalib ketardim-a, sezib turibman buni. Yo rabbiy! O'lib ketgudek bo'lsam, ularning mol-dunyosini kim o'zlariga qaytarib beradi? Ularni deb Odessaga boray devdim.. vermishel qilgani... Odessaga...

– Iching, – Ejen chap qo'li bilan bemorning boshini sal ko'tarib, o'ng qo'li bilan unga dori tutdi.

– Siz ota-onangizni yaxshi ko'rsangiz kerak! – derdi chol, madorsiz qo'llari bilan Ejenning qo'lini qisib. – Qizlarimni ko'rmay o'lib ketayotganimni sezib turgandirsiz-a? Keyingi o'n yil ichida doim tashnalikda, bir marta ham suvga qonmay yashadim. Kuyovlarim qizlarimdan judo qilishdi. Otalar, palatalardan nikoh to'g'risidagi qonunni bartaraf qilishni talab etinglar! Qizingizni yaxshi ko'rsanglar, erga bermanglar. Kuyov – yov, u qizingizni odamgarchilikdan chiqaradi, sizlarni oyoqosti qiladi. Nikoh degan narsaning zarurati yo'q! Nikoh bizni qizlarimizdan judo qiladi, jon berar paytimizda ular tepamizda turishmaydi. Shunday qonunlar chiqaringlarki, otalar oyog'ini tinchgina uzata olsin. Hozir bulayotgan ishlar dahshat-ku! Uch, intiqom! Ularning kelishiga kuyovlarim ruxsat berishmayapti-ku, axir. O'ldiringlar ularni! O'lim o'sha Restoga, o'lim elzaslikka, ular mening qotillarim. Sizlarga yo o'lim, yo qizlarimga ruxsat bering-

lar! Tamom! Ularni ko'rmay o'lib ketadigan bo'ldim! Ularni ko'rmasdan-a! Kela qolinglar, Nazi, Fifina! Otangizning joni uzilyapti...

– Azizim Gorio ota, tinchlaning, jim yoting, hayajonlanavermang, hech narsani o'ylamang.

– Ularni ko'rmaslik – hamma azob mana shunda!

– Hademay ko'rasiz ularni.

– Rostdan-a? – deb yubordi chol, o'zini unutib. – O, koshki edi! O'zlarini bir ko'rsam, ovozlarini eshitsam, baxtli odamlardek jon berardim. Ortiq yashashni istamayman ham, jonimning qadriga yetmaganman, chunki azob-uqubatlarim tobora ortib boravergan. Axir, ularni ko'rish, ko'ylaklaridan, faqat ko'ylaklaridan ushlab boqish, nima degan narsa: ularning shu yerdaligini his qilsam bas! Ularning soch tolasini qo'linga olib bering... soch tola...

Nol go'yo boshiga birov tayoq bilan tushirgandek yostiqa guppa yiqildi. Qo'llari bilan go'yo qizlarining sochini axtarayotgandek o'rinni naypaslay boshladi.

– Men ulardan roziman, roziman, – dedi u zo'rg'a va hushidan ketib qoldi.

Xuddi shu payt Byanshon kirib keldi.

– Yo'lda Kristofni ko'rdim, u hozir senga kareta topib keladi, – dedi Byanshon.

Keyin u bemorni ko'zdan kechirdi, qovoqlarini ko'tarib qaradi, shunda ikkala talaba ham uning ko'zlarida nur qolmaganini ko'rdilar.

– Menimcha, endi u ortiq hushiga kelmasa kerak, – deb qo'ydi medik talaba.

Byanshon cholning tomir urishini tekshirib ko'rdi, keyin qo'lini yuragi ustiga qo'ydi.

– Yuragi urib turibdi, ammo uning hozirgi holatida bu – azob. Bundan ko'ra o'lgani yaxshi edi!

– To'g'ri aytasan, – dedi Rastinyak.

– Senga nima bo'ldi? Murdadek oqarib ketibsang?

– Men hozir odamzodning dilidan chiqqan shunday fig'onlarini, oh-zorlarini eshitdimki, asti qo'yasan. Xudo bor-ku, axir! O, albatta, xudo hozir-u nozir, u yer yuzini bezaydi, bo'lmasa, yerimiz – g'irt bema'nilik ekan. Agar bu ishlarning

hammasi shu qadar fojiali bo'lmasa, ho'ngrab-ho'ngrab yig'lagan bo'lardim. Ammo dahshat ko'ksim bilan qalbimni parchinlab tashladi.

– Menga qara, yana ancha-muncha narsa kerak bo'ladi, pulni qayerdan topsak ekan-a?

Rastinyak yonidan soatini olib berdi.

– Mana, buni tezroq garovga qo'y. Bir daqiqani ham bekor ketkazmaslik uchun yo'lda to'xtalib o'tirmoqchi emasman, faqat Kristofni kutib turibman. Yonimda bir lira ham pulim yo'q, izvoshchiga qaytib kelganimdan keyin pul to'lashga to'g'ri keladi.

Rastinyak yugurgancha pastga tushdi va Gelder ko'chasiga, grafinya de Restonikiga jo'nadi. Yo'l-yo'lakay hozirgina guvohi bo'lgan dahshatlardan ko'ngli buzilib, g'azabi qo'zg'adi. Oldingi xonaga kirishi bilanoq grafinya de Restoni so'radi, ammo u hech kimni qabul qilmaydi, degan javobni eshitdi.

– Men otasining topshirig'i bilan keldim, u o'lim to'shagida yotibdi! – dedi Ejen lakeyga.

– Afandim, graf bizga juda qattiq buyruq berib aytdiki...

– Agar graf de Resto uyida bo'lsa, qaynatasining qay ahvolda yotganini unga bildiringlar, u bilan hoziroq gaplashib olishim zarurligini aytinglar.

Ejen uzoq kutib qoldi. Shu damda, ehtimol, chol jon berayotgandir, deb o'yladi u.

Nihoyat, lakey uni birinchi mehmonxonaga boshlab kirdi, graf de Resto shu yerda o't yoqilmagan kamin oldida Ejenni kutib turgan ekan, ammo u mehmonga joy ko'rsatmadi.

– Graf, – dedi unga Rastinyak, – qaynatangiz yaramas bir kovakda jon beryapti, o'tin sotib olishga sariq chaqasi ham yo'q, u rostdan ham o'lim to'shagida yotibdi, oxirgi tilagi, qizini ko'rishni istaydi.

– Janob de Rastinyak, o'zingiz ham sezgandirsiz, janob Gorioni uncha yoqtirmayman, – dedi sovuqqina qilib graf de Resto. – U grafinya de Restoning otasiman deb, juda haddidan oshib ketdi, baxti qaro bo'lishimga sabab bo'ldi, men uni tinchligimni buzgan odam deb bilaman. O'ladimi, qoladimi – menga baribir. Unga nisbatan shaxsan mening munosabatim shu. Odamlar meni qoralasa qoralayversin – odamlarning fikriga e'tibor

berib o'tirmoqchi emasman. Hozir mening to'g'rimda telba odamlar yo men uchun fikrining ahamiyati yo'q kishilar, nima deyar ekan deb andisha qilib o'tirmay, zarur bir ishni bitkazib olishim kerak. Grafinya de Restoga kelsak, u hozir borolmaydi. Bundan tashqari, uning uydan chiqishini men istamayman. Otasiga aytib qo'ying, qizi, menga va mening o'g'limga nisbatan olgan burchini bajarishi bilanoq uni ko'rgani boraveradi. Agar u otasini yaxshi ko'chadigan bo'lsa, bir necha soniyadan keyinoq uning oldiga jo'nashi mumkin.

– Graf, qilayotgan ishingiz to'g'ri yo noto'g'ri deb hukm yuritishga haddim sig'maydi, o'z oilangizning boshlig'isiz, ammo hozirgi so'zingizga ishonsam bo'lar deyman? Shunday ekan, otasining bir kunlik ham umri qolmaganligini va tepasida turmagani uchun uni allaqachon oq qilganini grafinyaga aytib qo'yishga so'z bersangiz.

– Buni unga o'zingiz ayting, – dedi Ejenning ovozi g'azabdan titraganini payqab, ta'sirlanib ketgan graf de Resto.

Grafning kuzatuvida Rastinyak, grafinya, odatda, vaqt o'tkazadigan mehmonxonaga kirdi; u kresloga o'zini tashlagan-cha, xuddi o'limga hukm qilingan odamlar singari, ko'z yoshlarini yum-yum to'kib o'tirardi. Ejyonning unga rahmi keldi. Rastinyakka o'girilishdan oldin, u eriga qo'rqa-pisa bir nazar tashlab qo'idiki, bu qol uning ham jismoniy, ham ma'naviy zulmdan tamoman zaiflashganini ko'rsatardi. Graf bosh irg'itib qo'ydi, grafinya ham bu uning gapirishiga berilgan ijozat ekanini angladi.

– Afandim, men hamma gapni eshitdim. Agar otam qanday ahvolda ekanimni bilsa, meni kechirgan bo'lardi; shuni unga aytib qo'yarsiz. Men bunday azoblarga qolarman deb o'ylamagan edim, bunga bardoshim yetmaydigan ko'rinadi, ammo oxiriga qadar qarshilik ko'rsataman, – dedi u eriga. – Men onaman!.. Otamga aytib qo'ying, chetdan qaraganda shunday ko'rin-sa ham, ammo ta'na-malomatlardan holiman! – deb qichqirdi u Rastinyakka, dilxastalik bilan.

Rastinyak grafinyaning qalbida qanday daxshatli o'zgarishlar sodir bo'layotganini sezib, er-xotinga ta'zim qildi-yu, qattiq ruhiy hayajonda chiqib ketdi. Graf de Restoning gapidan Ejenning bu urinishlari bekor ekanligi aniq ko'rinib turardi,

shuning uchun ham u endi Anastazining eridan mahrum bo'lganini angladi.

U de Nusingen xonimnikiga yugurdi, u o'rinda yotgan edi.

– Men, azizim, betobman, – dedi u. – Baldan qayta turib shamollab qolibman, zotiljam<sup>1</sup> bo'lib qolmayin deb qo'rqib, shifokorga odam yubordim...

– Bir oyog'ingiz go'rda bo'lganda ham, emaklab yurib borsangiz ham, otangiz tepasida bo'lishingiz kerak, – deb uning gapini bo'ldi Ejen. – U sizni aytib yubordi! Uning oh-u zorlaridan, aqalli, zig'ircha bo'lsin eshitganingizda edi, butun kasalingiz tarqab ketardi.

– Ejen, ehtimol, otam siz aytgancha og'ir ahvolda emasdir, ammo sizning nazaringizdan xiyla bo'lsa ham chetda qolsam, kuyib kul bo'lardim, shuning uchun aytganingizdek, qilaman. Lekin uydan chiqqanimdan keyin kasalim og'irlashib qolsa, otam mening g'amimni yeb o'lishi turgan gap. Xo'p, yaxshi! Shifokor kelishi bilanoq jo'nayman... O-o( Soatingiz qani? – deb so'radi u, soatning zanjiri ko'rinmay qolganiga e'tibor berib.

Rastinyak qizardi.

– Ejen! Ejen, agar uni yo'qotgan, sotib yuborgan bo'lsangiz... o, qanday yomon ish qilgan bo'lasiz!

Ejen uning ustiga engashib, Delfinaning qulog'iga shivirladi:

– Shuni bilmoqchimisiz? Xo'p, Bilib qo'ying, bo'lmasa! Otangizni bugun kechqurun kafanga o'rasak kerak, kafanlik sotib olishga ham pul yo'q. Soatni garovga qo'ydim, boshqa sariq chaqam ham qolmadi.

Delfina bir sakrab o'rnidan turib ketdi, yugurgancha kotib oldiga bordi, undan hamyon olib, Rastinyakka uzatdi. Keyin qo'ng'iroq qilib, qichqirdi:

– Ejen, hozir boraman, hozir! Faqat kiyinib olay. Ha, bormasam qanday yaramaslik qilgan bo'lardim! Boravering, men sizdan oldinoq yetib boraman! Tereza, – deb, uy xodimasini chaqirdi, – janob de Nusingenni chaqirib yuboring, hoziroq mening oldimga chiqsin, unga gapim bor.

<sup>1</sup> **Zotiljam** (arabcha: o'pkaning yallig'lanishi) – o'pkaning yallig'lanishi, o'pkaning yuqumli kasalligi; pnevmoniya.

Ejen o'layotgan cholga qizlaringizdan biri hozir keladi deb xabar qila olishidan xursand bo'lib, Nev-Sent-Jenevev ko'chasiga deyarlik shodiyona bir ruhda qaytdi. U izvoshchiga pul to'lash uchun, hamyonni titkilab ko'ra boshladi! shunday boy, shunday nozanin navniholdek xonimning hamyonida faqat yetmish frank pul bor ekan. Yuqoriga chiqib qarasa, Byanshon Gorio otani suyab ushlab turibdi, kasalxona feldsheri<sup>1</sup> esa, shifokor nazorati ostida, cholning orqasini qizdirilgan temir bilan kuydirmoqda edi – bu tibbiyot fanining oxirgi, ammo befoyda chorasi edi.

– Hech nima sezyapsizmi? – deb shifokor Gorio otadan so'radi.

Ammo Gorio ota Rastinyakka ko'zi tushishi bilan javob berish o'rniga, undan:

– Kelishyapti-a, rostmi? – deb so'radi.

– Gapirishga holi kelyaptimi, kasalga dosh beradi, – dedi feldsher.

– Ha, orqama orqa Delfina kelyapti, – dedi cholga Ejen.

– Menga qara! U nuqul qizlari to'g'risida gapiradi. Oldimga olib kelinglar deb talab qiladi, shunday jon holatda qichqirdiki, odamlarning gapiga qaraganda, qoziqqa o'tqazib jazolangan odamlar suv talab qilib, ana shunday baqirishar emish.

– Bo'ldi, – dedi shifokor feldsherga, – bundan ortiq hech qanday chora qolmadi, uni qutqarib bo'lmaydi.

Byanshon bilan feldsher ikkalasi bemorni yana qo'lansa o'ringa yotqizib qo'yishdi.

– Har holda, ich kiyimini o'zgartish kerak edi, – dedi shifokor. – To'g'ri, ortiq umid qolmadi, ammo har bir odamning o'ziga yarasha qadr-qimmatini bor, axir. Men yana bir kirib o'tarman. Byanshon, – dedi u, talabaga. – Agar bemor yana ohvoh qila boshlasa, diafragmasiga<sup>2</sup> afyun<sup>3</sup> quytinglar.

<sup>1</sup> **Feldsher** (*nemischa*: Feldsherer – jarroh; harbiy qism sartaroshi) – o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan tibbiyot xodimi, vrach yordamchisi.

<sup>2</sup> **Diafragma** (*yunoncha*: diaphragma – to'siq) – sutemizuvchilarda va odamlarda ko'krak qafasini qorin bo'shlig'idan ajratib turadigan, muskul-paydan iborat parda, to'siq.

<sup>3</sup> **Afyun** (*arabcha*) – qora dori. 1) ko'knorning dumbul boshog'idan olib quritilgan shira (qora dori, taryak ko'rinishida, kayf qilish uchun, tibbiyotda esa narkotik modda sifatida ishlatiladi); 2) (ko'chma) kishi ongini zaharlaydigan narsa.



Feldsher bilan shifokor ketishdi.

– Menga qara, Ejen, xafa bo'lma, do'stim! – dedi Byanshon Rastinyakka, ikkovi yolg'iz qolgach. – Hozir unga faqat toza ko'ylak-ishton kiygizib, choyshabini yangilab qo'yish kerak. Silviyaga borib ayt, toza choyshab olib kelsin, bizga qarashib ham yuborsin.

Ejen yemakxonaga tushdi, bu yerda Voke xonim bilan Silviya ikkalasi dasturxon tuzatishayotgan ekan. U Silviyaga iltimosini bildirishi bilanoq, beza Voke yuzida, zarar ko'rishni ham, xaridorni qo'ldan boy berishni ham istamagan ehtiyotkor savdogar xotinlar singari basharasini burishtirib, uning oldiga pildiragancha keldi.

– Azizim, janob Ejen, – deb gap boshladi u, – Gorio otaning sariq chaqasi ham qolmaganini o'zingiz mendan ham yaxshiroq bilasiz. Joni chiqay deb turgan odamga choyshab berish – uni bekorga isrof qilish bilan baravar, haliyam unga bitta choyshabni kafanlikka berishga to'g'ri keladi. Siz esa menga halitdan bir yuz qirq to'rt frank qarzsiz, buning ustiga yana choyshabga kirq frank va boshqa ba'zi mayda-chuydalarga, Silviya keltirib beradigan shamga haq to'lasangiz hammasi bo'lib, ikki yuz frankka borib qoladi, mendek bir mushtipar beva xotin shuncha pulni qanday qilib havoga sovurib yuborsin? Insof qiling o'zingiz, janob Ejen, baxtsizliklar do'ldek yog'ilib turgan shu keyingi besh kun ichida surobim to'g'ri bo'lib qoldi o'zi. Cholning siz belgilagan muddatda ko'chib ketishi uchun yonimdan o'n ekyu to'lashga ham rozi edim. Bunday ko'ngilsizlik ijaradorlarimni bezdiradi. Tekin bo'ladigan bo'lsa, uni yaxshisi kasalxonaga jo'natay. Mening ahvolimga ham tushuning-da. Korxonam men uchun hamma narsadan ham muhim, men o'shaning orqasidan kun ko'raman.

Rastinyak g'izillagancha Gorioning xonasiga chiqdi.

– Byanshon, soatga olgan pullaring qani?

– Anavi yerda, stolda turibdi; uch yuz oltmish nechayam frank qoldi. Olgan dorilarning pulini hammasini to'lab keldim. Ijara kassasining kvitansiyasi ham pul ostida turibdi.

Rastinyak zinadan yugurib tushdi-yu, nafrat bilan bevaga qarab dedi:

– Endi, Voke xonim keling, bir hisob-kitob qilib qo'yay-

lik. Janob Gorio uyingizda endi uzoq qolib ketmaydi, men ham...

– Ha, bechoraning oyog‘ini oldinga qilib olib chiqib ketishadi, – dedi u yarim xafalik, yarim shodlik bilan, ikki yuz frank pulni sanab olar ekan.

– Bas qiling bu gapni, – dedi Rastinyak.

– Silviya, choyshabdan bering, o‘zingiz ham yuqoriga chiqib qarashib yuboring. Silviyani xursand qilishni ham unut-mang, – deb shipshidi beva Voke Ejenning qulog‘iga, – ikki kundan beri uxlagani yo‘q.

Rastinyak uzoqlashgani zahoti kampir g‘izillab oshpaz xotinning oldiga bordi va:

– Yettinchi nomerli yamoqli choyshabdan ol. Murdaga o‘shanaqasi ham yarayveradi, – dedi qulog‘iga shivirlab.

Ejen zinadan bir necha pillapoya yuqoriga chiqib qolgan edi, shuning uchun bekaning buyrug‘ini eshitmadi.

– Menga qara, – dedi unga Byanshon, – kel, boshqa ko‘ylak kiydiramiz. Ko‘tarib tur uni.

Ejen bemorning bosh tarafiga o‘tib uni ko‘tarib turdi, Byanshon esa uning ko‘ylagini yechib oldi; chol go‘yo bir nar-sani ushlab qolmoqchi bo‘lgandek o‘z ko‘kragiga chang soldi-yu, ingrab yubordi, odatda, qoramol ham kuchli og‘riqqa chiday olmaganda shunday iztirob bilan cho‘zib ingraydi.

– Ha! Aytganday! – deb yubordi Byanshon. – U soch tolalaridan to‘qilgan zanjircha bilan medalonini so‘rayapti, orqa-sini kuydirganimizda yechib olib qo‘ygan edik. Boyoqish! Bo‘yniga osib qo‘yish kerak ularni. Anavi yerda, kaminda yotibdi.

Ejen kulrang soch tolalaridan o‘rilgan (Gorio xonimning sochi bo‘lsa kerak) zanjirchani qo‘liga oldi. Medalonning bir tarafiga: «Anastazi» deb, ikkinchi tarafiga esa: «Delfina» deb yozib qo‘yilgan edi. Bu cholning yurak emblemasi bo‘lib, doimo uning ko‘ksida osig‘liq yurardi. Medalon ichida soch tolalari bor edi, ularning nozikligiga qaraganda, qizlarining juda yoshlik chog‘idagi soch tolalari bo‘lsa kerak. Medalon cholning ko‘ksiga tegishi bilanoq, u tepasida turgan yigitlarning yuragini uyushtirib yuborar darajada qattiq xo‘rsinib, bundan mamnun bo‘lganini bildirdi. Bu xo‘rsinishda odamzodning ich-ichiga, ya‘ni kishi-ning nazaridan holi go‘shaga yashiringan, odamzod mehr-

muhabbatining pinhona makoniga kirib ketgan oxirgi mehr ifodalari aks etgandek edi. Chehrasida jon talvasasiga o'xshagan g'alati bir shodlik alomati qo'rindi. Ulkan his egasi bo'lgan bu odamdagi fikrning oxirgi ifodasi lov etib, bir yonib o'chganini ko'rgan ikkala talaba ham o'zini tuta olmadi: ikkalasining ham qaynoq ko'z yoshlari joni uzilayotgan cholning yuziga tushdi, bunga esa chol:

! – Nazi! Fifina! – deb shodiyona qichqiriq bilan javob qildi.

– Hali joni uzilmaydiganga o'xshaydi, – dedi Byanshon.

– Nima keragi bor unga jonning? – deb qo'ydi Silviya.

– Azob chekish uchun, – deb javob qildi Rastinyak.

Byanshon, menga ko'maklashib yubor, degandek o'rtog'iga

Imo qildi-da, tiz cho'kib, qo'lini cholning oyoqlari ostiga tiqdi, Rastinyak esa karavotning narigi tarafiga tiz cho'kib, bemorning beli ostiga qo'lini yubordi. Silviya uning tagidan choyshabni tortib olish va yangisini solib qo'yishga shay bo'lib, bemorni ko'tarishlarini kutib turdi.

Gorio yigitlarning ko'z yoshini qizlariniki deb o'ylab, oxirgi kuchini yig'di-da, qo'llarini uzatdi va karavotning ikki tarafida tiz cho'kib turgan talabalarning boshidan quchoqlab oldi, shunda: «Oh, pari qizlarim!» degani zo'rg'a eshitildi. Uning joni shu ikki so'zni g'o'ldirab talaffuz etdi-yu, o'zi ham o'sha so'zlar bilan birga tanidan uchib ketdi.

– Oxirgi marta eng yovuz, ammo nihoyatda sidqidillik oqibatida vujudga kelgan aldovdan lov etib yana bir yonib so'ngan eng yuksak his ifodasini ko'rgan Silviyaning ko'ngli bo'shshib:

– Oh, bechora, – deb yubordi.

Cholning oxirgi xo'rsinishi, shubhasiz, shodlik ifodasi edi: shu xo'rsinishda Gorio otaning butun hayoti yana bir marta aks etdi – u yana aldangan edi.

Gorioni avaylab karavotga yotqizdilar. Shu ondan boshlab uning yuzida o'lim bilan hayot o'rtasidagi kurash aks etib turdi, odamzodning shodlik yo xafaligini ongli ravishda aks ettirib turadigan miyasi allaqachon ishlamay qo'ygan edi. O'limning butunlay ustunlik qilishi uchun ozgina vaqt qolganda.

– . Mana shu alpozda u yana bir necha soat yotadi, – dedi

Dyanshon, – o‘lib qolganini sezmay ham qolamiz, u hatto xirillamaydi ham. Miyasi butunlay ishdan chiqqan ko‘rinadi.

Shu payt zinadan xarsillagancha chiqib kelayotgan yosh ayolning oyoq tovushi eshitildi.

– U juda kechikib keldi, – dedi Rastinyak.

Ammo kelgan Delfina emas, uning xodimasi Tereza ekan.

– Janob Ejen, baronessa bilan baron pul to‘g‘risida qattiq urishib qolishdi, bechora baronessa otasi uchun pul so‘ragan edi. Sho‘rlik hushidan ketib yiqilib qoldi, shifokor chaqirishdi, qon olishga to‘g‘ri keldi; keyin esa; «Otam o‘lay deb yotibdi, otam bilan vidolashgani borishim kerak!» – deb chunonam ayyuhanos soldiki, asli qo‘yasiz! Dod-faryodlari bilan yuraklarimni ezib yubordi.

– Bas, Tereza! Endi kelganining foydasi ham yo‘q: janob Gorio quhsiz yotibdi.

– Bechora janob Gorio, nahotki ahvoli shu qadar og‘ir bo‘lsa? – deb qo‘ydi Tereza.

– Endi sizlarga keragim yo‘q, borib ovqat qilay, soat ham to‘rt yarim bo‘lib qoldi, – dedi Silviya va chiqib keta turib, zinaning yuqori maydonchasida grafinya de Restoga urilib ketay dedi.

Grafinya de Restoning ahvoliga qarab ta‘sir lanmay va dahshatga kelmay iloj yo‘q edi. U bittagina sham yorug‘ida g‘irashira ko‘rinib turgan o‘lim to‘shagiga qaradi, hayotning oxirgi zaif ifodalari ko‘rinib turgan, ammo niqobdek qotib qolgan otasining yuziga qarab yig‘lab yubordi! Byanshon unga xalaqit bermaslik uchun chiqib ketdi.

– Oldinroq chiqib kelolmadim, – dedi grafinya Rastinyakka.

Ejen g‘amginlik bilan bosh irg‘itib qo‘ydi. Grafinya de Resto otasining qo‘lini o‘z qo‘liga olib o‘pdi.

– Dada, kechiring meni! Ovozingni eshitsam, go‘rdam ham chiqib kelaman derdingiz: bir lahzaga bo‘lsa ham yana qayting, tavbasiga tayangan qizingizning gunohidan qayting! Gaplarimni eshiting. Qanday dahshat: bu yorug‘ dunyoda mening! Sizdan boshqa kim ham fotiha berardi! Meni hamma yomon ko‘radi, faqat siz yaxshi ko‘rasiz. Meni, hatto, o‘z bolalarim bilan yomon ko‘rib qolishdi. Meni ham o‘zingiz bilan olib keting.

butun mehr-u muhabbatimni sizga bag'ishlayman, sizga g'am-xo'rlik qilaman. Gapimni eshitmayapti, jinni bo'lib qolaman hali.

– U otasining oyog'iga yiqilib, jonsiz tanaga telbalarcha nazar bilan baqrayib qarab qoldi.

– Ne savdolar tushdi mening boshimga, – dedi u Rastinyakka o'girilib. – Graf de Tray katta qarz orttirib jo'nab qoldi; menga bevafoqlik qilib yurganini ham bildim. Erim meni hech vaqt kechirmaydi, o'z davlatimni esa tamomila uning ixtiyoriga berib qo'yganman. Butun orzu-havaslarim puchga chiqdi! Hayhot! Doim mening duoyi jonimni qilib yurgan (shunday deb, u otasini ko'rsatdi) odamdan kimlarni deb yuz o'giribman-a! Men uni tan olmabman, ko'krigidan itaribman, ming xil azob-uqubatlarga duchor qilibman, men – maraz xotinman!

– U hammasini bilar edi, – dedi Rastinyak.

Birdan Gorio ota ko'zini ochdi, ammo bu kipriklarining uchib ketgani natijasi edi. Grafinya otasiga otildi, puchga chiqqan bu umid ifodasi ham, o'layotgan cholning nursiz boqishi singari o'ta dahshatli bir manzara edi.

– Ehtimol gapimni eshitar! – deb yubordi grafinya. – yo'q, – dedi u o'ziga o'zi javoban karavot yoniga o'tirar ekan.

Grafinya de Resto, otam oldida birpas yolg'iz qolay, deb xohish bildirdi; shundan keyin Ejen bir oz tamaddi qilib olish uchun pastga tushdi. Xo'randalarning hammasi yig'ilib bo'lishgan edi.

– Aftidan, yuqorida kichkinagina o'limrama yuz bera-digan ko'rinadimi? – deb so'radi rassom.

– Sharl, menimcha, hazil qilish uchun xiyla xushchaqchaq mavzu tanlaganingiz ma'qul edi, – dedi Rastinyak.

– Iye, hali kulib ham bo'lmas ekan-da? Nima qilibdi axir, Byanshon, chol behush yotibdi deb aytdi-ku, – deb e'tiroz bildirdi rassom.

– Demak, qanday yashagan bo'lsa, shunday o'lib ketar ekan-da, – deb gapga aralashdi muzey xodimi.

– Dadamning joni uzildi! – deb qichqirdi grafinya.

Bu dahshatli qichqiriqni eshitib, Rastinyak, Silviya, Byanshon yuqoriga otilishdi, grafinya behush yotgan edi. Uni hushiga keltirib, darvoza oldida kutib turgan aravaga eltib

qo'yishdi. Ejen uni Terezaga topshirdi va de Nusingen xonim oldiga olib borishni buyurdi.

– O'libdi, – dedi Byanshon, pastga tushib.

– Qani, janoblar, dasturxonga marhamat, bo'lmasa sho'rva sovib qoladi, – deb taklif qildi Voke xonim, Ikkala talaba yonma-yon o'tirishdi.

– Endi nima qilish kerak? – deb so'radi Byanshondan Ejen.

– Men uning ko'zini yumib to'g'rilab yotqizib tushdim.

Biz ma'lum qilganimizdan keyin, meriyadan<sup>1</sup> kelgan shifokor cholning o'lganiga guvohlikka o'tadi-da, so'ngra uni kafanga o'rab, olib borib ko'mishadi! Seningcha, nima qilish kerak, bo'lmasa ?

Xo'randalardan biri cholning qilig'iga taqlid qilib ko'rsatib:

– Endi u mana bunday qilib non hidlamaydi, – dedi. – E, janoblar, Gorio otani tinch qo'yinglar endi, hadeb bizga o'shandan gapiravermanglar! – dedi repetitor<sup>2</sup>. – Bir soatdan beri ming ohangga solib, hadeb o'shani og'zingizdan qo'ymaysiz. Shavkatli Parij shahrimizning ajoyib xususiyatlaridan biri shuki, unda senga hech kimning e'tiborini tortmasdan tug'ilish, yashash va o'lish Imkoniyati berilgan. Madaniyat yaratgan qulayliklardan foydalanaylik-da axir. Bugun Parijda oltmish kishi dunyodan o'tsa, shuncha odam o'lib ketibdi deb, ko'z yoshi to'kib o'tirmoqchi emasdirlar? Gorio ota dunyodan ko'z yumgan ekan, o'ziga yaxshi! Agar unga juda joningiz achib ketayotgan bo'lsa, boringlar, oldiga chiqib o'tiringlar, biz esa tinchgina ovqatimizni yeylik.

– O, albatta, o'lgani o'ziga yaxshi bo'ldi! – dedi beva. Aftidan, u sho'rlik yorug' dunyodan sira ro'shnolik ko'rmay o'tdi!

Ejenning nazarida, otalikning timsoli bo'lgan odam o'lganidan keyin, qabri ustida aytilgan birdan bir gaplar so'z bo'ldi. O'n besh nafar xo'randa har vaqtdagidek undan-bundan gaplashib ovqatlana boshladi. Byanshon bilan Rastinyak dastu

<sup>1</sup> Meriya – shahar hokimiyati.

<sup>2</sup> Repetitor – darslardan o'zlashtira olmagan o'quvchiga uning uyida yordamchi o'tuvchi kishi.

xon oldida o'tirishganda, qoshiq va sanchqilarning jarangi, shovqin-suron bilan olib borilayotgan suhbat orasida ko'tarilib turgan qahqahalar, ochko'zlik bilan ovqatni urayotgan odamlarning basharasi, ularning yuzida aks etib turgan e'tiborsizlik va hech narsaga mutlaqo qiziqmaslik – bularning hammasi ham ikki yigitning qalbini nafrat bilan to'ldirdi. Ikki do'st dasturxon oldidan turib, murda oldida kechasi ibodat qilib chiqishi uchun ruhoniycha qirishga ketishdi. Qazo qilgan cholni butun rasm-rusumlarini joyiga keltirib ko'mishga pullarini yetkazish uchun pulni juda tejab xarajat qilishlari kerak edi. Kechqurun soat to'qqizga yaqin murdani bir-biriga qoqib ulangan taxta ustiga, ikki sham orasiga, o'sha o'zining ayanch xonasiga yotqizib qo'ydilar, shundan keyin murda oldiga ruhoniycha kelib o'tirdi. Uyquga yotishdan oldin Rastinyak o'likni ko'mish uchun taxminan qancha pul ketishini ruhoniycha otadan so'rab oldi-da, ko'mish marosimiga ishlatish uchun shuncha pul kerak ekan deb, baron de Nusingen bilan graf de Restoga o'z ishonchli vakillarini yuborishni iltimos qilib, xat yozib yubordi. Xatlarni Kristofdan berib yuborib, charchab ketganidan o'rniga yotdi-yu, qotib uxlab qoldi.

Ertasiga ertalab Rastinyak bilan Byanshon Gorioning o'limi to'g'risida meriyaga o'zlari xabar berishga majbur bo'ldilar, shundan keyin uning vafot etgani kunduz soat o'n ikkilarda rasmiy ravishda qayd qilindi. Ikki soatdan keyin ruhoniycha Rastinyakning o'zi haq to'lashga majbur bo'ldi, negaki kuyovlar oldidan hech kim kelmadi va bittasi ham pul yubormadi. Murdani yuvib, kafanga o'rab berish uchun Silviya o'n frank so'radi. Rastinyak bilan Byanshon pullarini hisoblab ko'rib, agar marhumning qarindoshlari ko'mish xarajatlaridan bosh tortsalar, bor pullari o'likni ko'mishga zo'rg'a yetishini bilardilar! Shuning uchun tibbiyot sohasining talabasi murdani Koshen kasalxonasidan arzon-garov sotib olib kelgan kambag'allar tobutiga o'zi soladigan bo'ldi.

– Anavi yaramaslarni bir boplaysan, – dedi u, Rastinyakka. – Per-Lashez qabristonidan besh yil muddat bilan ozgina yerni ijaraga olasan, cherkovga ibodat buyurasan, o'liklarni ko'mish idorasiga murdani uchinchi darajali marosim bilan ko'mishni shart qilib qo'yasan. Kuyovlari bilan qizlari qilgan

xarajatlaringni to'lashdan bosh tortinsa, cholning qabri ustiga qo'yilgan toshga: «Bu yerda grafinya de Resto bilan baronessa de Nusingenning ikki talaba puliga dafn qilingan otasi janob Gorio yotibdi», – deb o'yib yozdirasan.

Ejen do'stining maslahatiga kirib, de Nusingenlar uyiga ham, de Restolar uyiga ham borib ko'rdi. Ammo uni ostonadan nariga o'tkazishmadi. Ikkala xonadon shveysarlari ham bu to'g'rida qattiq buyruq olgan edilar.

– Xo'jayinlar hech kimni qabul qilishmaydi, – deb javob qilishdi ular, – ularning otasi o'lgan, motam tutmoqdalar.

Ejen Parij zodagonlarining rasm-odatlarini, ortiqcha urinishning befoydaligini bilardi. Delfinaning ham oldiga kirishning iloji yo'qligini tushungandan keyin Ejenning yuragi ayniqsa siqildi, shundan keyin shveysarning hujrasida unga kichkina xat yozib kirgizib yubordi:

*«Otangizni so'nggi makoniga munosib ravishda olib borib qo'yish uchun biror qimmatbaho bezagingizni bo'lsa ham soting!»*

U xatni konvertga solib baronessaga yetkazish uchun buni Terezaga eltib ber deb shveysardan iltimos qildi, ammo shveysar xatni baronning o'ziga eltib berdi, baron esa uni kaminda yonib turgan o'tga tashlab yubordi. Qo'lidan kelgan butun harakatini qilib, Ejen soat uchlarda pansionga qaytib bordi-yu, qora matoga naridan-beri o'ralgan va bo'm-bo'sh ko'chaning o'rtasida, ikkita stul ustiga qo'yilgan tobutni ko'rib, beixtiyor ko'zlariga yosh keldi. Kumush suvi yuritilgan mis tosdagi muqaddas suv ichida eski bir kropilo<sup>1</sup> ivib yotardi, ammo unga hali hech kim qo'l tekkizmagandi. Hatto ko'cha eshikka ham motam belgisi osilmagan edi. Bu gado o'limi edi: na biror tantanali marosim bo'layotgan edi, na marhumning biror qarindoshi, na biror kuzatuvchi, na biror do'st-yori kelgan edi. Kasalxonada band bo'lib qolgan Byanshon unga xat yozib yuboribdi, unda, ibodat o'qiydigan ruhoniylar bilan gaplashib qo'ydim, deb xabar bergan edi. Tibbiyot sohasining talabasi, cherkovda tantana bilan ibodat o'qitishga pulimiz yetmaydi, kichkina qilib kechqurungi ibodat buyurib

<sup>1</sup> **Kropilo** – momiq popukka o'xshagan bir narsa, xristianlarni dafn qilish marosimlarida o'sha narsa bilan murdaga «muqaddas» suv sepiladi.



qo'ya qolaylik, ancha arzon tushadi, shuni iltimos qilib o'lik ko'mish idorasiga xat bilan Kristofni yubordim deb yozgan edi. Byanshonning aji-buji xatini o'qib tugatar ekan, Ejen beva Boke-ning qo'lida Gorio ota qizlarining soch tolalari solingan tilla gardishli medalonni ko'rib qoldi.

– Qanday haddingiz sig'di buni olishga? – deb so'radi u.

– Ana xolos! Buni ham qo'shib ko'marmidingiz? Axir, bu oltin-ku, – dedi Silviya.

– Nima qilibdi! – dedi Rastinyak, g'azabdan bo'g'ilib. – Qizlaridan qolgan birdan bir xotira shu, go'riga birga olib ketsin.

Tobut qo'yadigan arava yetib kelgandan keyin Ejen tobutni yana yuqoriga olib chiqishni buyurdi, tobut qopqog'iki ochib, Delfina bilan Anastazining go'dak, qalbi pok va

Gorioning jon talvasasida aytganidek, «unga aql o'rgatish-maydigan» vaqtlaridan xotira bo'lgan buyumni ixlos bilan cholinek ko'kragiga qo'ydi.

Bechora otaning murdasi solingan aravani Nev-Sent-Jenevev ko'chasiga yaqin joylashgan Sent-Eten-de-Mon cherkoviga faqat Rastinyak, Kristof, yana ikkita mash'alachi kuzatib borishdi! Yetib kelishgandan keyin tobutni cherkovning bir burchagidagi pastakkina mehrobga qo'yishdi ammo Rastinyak cherkovga ko'z yugurtirib, Gorio otaning qizlari yo kuyovlarini qidirib topolmadi. Tobut yonida faqat Rastinyak bilan Kristof qolishdi, Gorio otaga dastyorlik qilib yurgan vaqtlarida durustgina choychaqa ishlab olgani uchun Kristof unga oxirgi marta xolis xizmat qilishni o'zining burchi deb hisoblagan edi. Ikki ruhoniyni – duoitakbir o'qiydigan pop va unga jo'r bo'ladigan bolani kutib turishar ekan, Rastinyak bir og'iz ham so'z aytishga majoli qolmay, indamasdan Kristofning qo'lini qisib qo'ydi.

– Ha, janob Ejen, – dedi Kristof, – u yaxshi, halol odam edi, hech vaqt hech kim bilan urishmasdi, hech kimga zarari tegmasdi, hech kimga hech vaqt yomonlik qilgan emasdi.

Ikki ruhoniyni – duoi-takbir o'qiydigan pop va unga jo'r bo'ladigan bola kelishib, cherkov tekinga ibodat qilgudek boy bo'lmagani uchun, yetmish frankka loyiq qilib janoza o'qib yubordilar. Pop Libera va De profundia degan ikki sura o'qidi. Butun marosim yigirma daqiqacha davom etdi. Ruhoniyni ota bilan jo'r bo'luvchi bola uchun faqat bitta motam kareyasi bor edi,

lekin ular Ejen bilan Kristofni ham birga olib ketishga rozi bo'ldilar.

– Kuzatuvchilar yo'q, – dedi ruhoniy ota, – kech qolib ketmaslik uchun tezroq yursak ham bo'laveradi, soat ham besh yarim bo'lib qoldi.

Ammo endi, tobutni aravaga olib qo'yishayotganda, eshigiga gerb, ishlangan, ammo o'zi bo'sh ikki arava – graf de Restoning karetsi bilan baron de Nusingenning karetsi kelib qoldi va marosimni Per-Lashez qabristonigacha kuzatib bordi. Soat oltida Gorio otaning jasadini yangi kovlangan qabrga qo'ydilar; qabr atrofida qizlarining lakeylari turishardi, ammo talabalar to'lagan arzimas haq uchun nari-beri ibodat o'qib jo'nab qolgan ruhoniylar ketidan ular ham qochib qolishdi.

Tobut ustiga bir necha belkurakdan tuproq tashlab. go'rkovlar ishdan to'xtashdi, shundan keyin ulardan biri Rastinyakdan aroqqa pul so'radi. Ejen cho'ntagini kavlashtirib, hech narsa topa olmaganidan keyin Kristofdan bir frank qarz olishga majbur bo'ldi, Bu arzimagan hol Rastinyakka juda qattiq ta'sir qildi: juda yuragi siqilib ketdi. Kun botib borar, nam oqshom havosi kishining asabiga tegardi. Ejen qabrga nazar tashladi va chin yoshlikning so'nggi samimiy va hayajonli ko'z yoshini shu qabrga ko'mdi – bunday ko'z yoshlar yerga tomgach, o'sib-unib samoga ko'tariladi. Ejen qo'llarini ko'ksiga qovushtirib, bulutlarga qarab qoldi. Kristof unga bir nazar tashladi-yu, uyga jo'nadi.

Talaba yolg'iz o'zi qolganidan keyin bir necha qadam yurib, qabristonning balandroq yeriga chiqdi, bu yerdan ilon izi bo'lib oqib yotgan Sena bo'yiga joylashgan, ba'zi yerlarida allaqachon chiroqlar yoqilgan Parij ko'rinib turardi. U ko'zlarini Vandom ustunlari bilan Nogironlar uyi gumbazi o'rtasiga joylashgan, Parij zodagonlari yashaydigan, o'zi kirib bormoqchi bo'lib intilgan dahaga tikdi. Ejen xuddi ari uyasidek g'uvullab yotgan o'sha yerga xaris ko'zlari bilan tikilarkan, go'yo asalidan totib ko'rayotgandek takabburlik bilan:

– Qani, endi ko'ramiz, kim yengar ekan: menmi yo sen? – dedi.

Jamiyatga ana shunday xitob qilib, birinchi qilgan ishi – ovqatlanish uchun Delfina de Nusingennikiga jo'nab ketdi.

*Sashe. 1834-yil, sentabr.*

## **«GORIO OTA» ASARINING QISQACHA MAZMUNI**

Balzak «Gorio ota» romanini eng avval 1834-yilning dekabridan 1835-yil fevraligacha «Parij axboroti» jurnalida bostirdi: 1835-yilda roman alohida kitob bo'lib chiqdi; 1843-yilda u «Parij hayoti manzaralari» siklining birinchi tomiga kiritildi. Biroq Balzak yozib qoldirgan maqolalarida aytilishicha, u kelgusi nashrlarda bu romanni «Xususiy hayot manzarasi» sikliga kiritmoqchi bo'lgan ekan.

«Gorio ota» romani adibning ijodiy rejasiga kirgan o'tgan asr burjua hayoti badiiy tarixining eng muhim qismi hisoblanadi. Balzakning «Fikrlar, syujetlar, fragmentlar» deb atalgan ijodiy rejaları orasida qisqagina bir yozuv bor. «Chol – oilaviy pansion – 600 frankli renta – qizlari deb o'zini hamma narsadan mahrum qiladi, ammo har ikkala qizning 50 000 frankdan daromadi bor; itdek xor bo'lib o'ladi». Bu xomaki yozuvda qizlari tomonidan oyoq osti qilingan Gorioning cheksiz mehr-muhabbati tarixini osonlik bilan anglab olish mumkin. Balzak dastlabki ijodiy rejalaridayoq Gorio ota fojiasining tipik burjua karakterini keskin fosh qilib tashlaydi, o'z qahramonlarining «xususiy hayoti» pulga benihoya xasislik xususiyati bilan cheklanganini ta'kidlaydi.

Bu asarni «Odamzod komediyasi»dagi umumiy reja bilan chambarchas bog'lab turgan belgilardan biri shundan iboratki, bu romandagi personajlardan o'ttizga yaqini Balzak epopeyasiga kirgan boshqa roman va qissalarda ham qatnashadi; Ejen Rastinyak, Jak Kollen (Votren), vikontessa de Bosean, Delfina Nusingen, Byaishon va boshqalar shular jumlasidandir.

Balzak kitoblarida ko'pchilik hollarda «Gorio otadagi» qahramonlarning tilga olinishi – asosan Gorio otada umumiy tarzda belgilangan yoki qisman yoritilgan, yoki uning asosiy muammolari bilan chambarchas bog'langan mavzularga murojaatdan iboratdir. «Gorio ota» romani «bog'lovchi»lik vazifasini o'tovchi asardir, Balzakning ko'pgina roman va qissalari mavzu jihatdan u bilan ulangandir.

Balzak romanidagi ikki eng muhim obraz – Gorio bilan Rastinyak – bir-biri bilan chambarchas bog'langandir, ammo bunga sabab Ejenning Gorio qizi Delfinaga oshiq bo'lib qolgani va Rastinyakning romanning boshidan oxirigacha Gorio bilan

yonma-yon yashab, u boshidan kechirgan fojialarni beg'araz shohidi sifatida bo'lganining o'zigina emas, Yigitning kiborlar davrasida qozongan dastlabki yutuqlari tarixi va cholning halokati tarixi Qayta tiklanish davrida, fransuz jamoatchiligida, Balzak shohidi bo'lgan aynan mazkur ijtimoiy axloq qonunlaridan bunyod bo'lgan. Bu axloqni Balzak vikontessa de Bosean tili bilan ifodalaydi; vikontessa Rastinyakka nasihat qilib shunday deydi: «Qancha sovuqqonlik bilan ish tutsangiz, shuncha martabangiz oshadi. Hech ayamay zarba beravering, ana o'shanda qarshingizda titrab turadigan bo'lishadi... Hayotda jallod bo'ling, jallod bo'lmasangiz, uning oyboltasi ostida halok bo'lasiz...» Rastinyak bu nasihatni yaxshilab o'zlashtirib oldi va «zafar qozonish» yo'lidan ketdi. Gorio ota hayosiz «naqdina» axloqning ayovsiz zarbasiga duchor bo'ladi...

Surgundan qochgan Votren obrazi romanda alohida o'rin tutadi. Balzak shu Votrenning tili bilan burjua axloqini nihoyatda aniq xarakterlab beradi; chunovchi, Votren «million-milion pulga tuzoq qo'yish haqida» gapirarkan, Rastinyak asta-sekin halol mehnat haqidagi orzularidan voz kechib, ovga ishtirok etish uchun shaylana boshlaydi; «Ov ham har xil bo'ladi, deydi Votren, – birov sep ovi qiladi, boshqa birov raqibining korxonasini tutatish maqsadida ov qiladi; birinchisi odamlar qalbini tuzoqqa ilintirish payida bo'lsa, ikkinchisi o'z ishonchli kishilarining qo'l-oyog'ini bog'lab, ularni sotib yuradi. Kimda-kim ov to'rvasini o'ljaga to'ldirib qaytsa, salomning quyug'i-yu, izzat-ikromning ulug'i o'shanga, u eng asilzodalar davrasiga qabul qilinadi... E'tiqod va lafz degan narsalar bilan hisoblashib o'tirishni tashlang. Bunday narsalarga haridor topilgudek bo'lsa, pullab yuboring...» Votrenning pand-nasihati bilan vikontessa de Bosean o'gitlarining mazmuni bir xil, ammo bu nasihatlarini surgundan qochgan Votren «odamzod komediyasi» pardasi orqasiga yashiringan holda aytsa, vikontessa ochiq-oydin gapiradi. Ularning burjua jamiyatida kishilar munosabati haqidagi fikrlari zahirida ichki o'xshashlik mavjud ekanligini Rastinyakning o'zi ham e'tirof etadi: «Bu odamning mulohazalari naqadar puxta-ya! De Bosean xonim boadablik bilan aytgan gaplarning aynan o'zini u qo'pol suratda shartta-shartta gapirib tashladi».

*TARJIMON – Sulton Muhammadjonov*

**JAHON ADABIYOTI DURDONALARI**

**ONORE DE BALZAK**

**GORIO OTA**

*(roman)*

Tarjimon:

**Sulton MUHAMMADJONOV**

Nashrga tayyorlovchi:

**Ergashboy MATYOQUBOV**

Mas'ul muharrir:

**Alisher RAVSHANOV**

Qo'shimcha izoh va iqtiboslarni kirituvchi:

**Ergashboy MATYOQUBOV**

Musahhih:

**Lolaxon QO'ZIBOYEVA**

Komp yuterda sahifalovchi:

**Majidov AVAZ**

**Litsenziya raqami AI № 193, 2011. 05. 10. da berilgan.**

Bosishga 2018 10. 04. yilda ruxsat etildi. Bichimi – 84x108 1/32.

Bosma tabog'i –10 Garnitura – «Times New Roman».

Qog'oz – ofset bosma. Adadi – 1200 nusxa. Buyurtma raqami 16.

Bahosi kelishilgan narxda.

Yosh kuch press matbuoti" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasi 1A-uy.

2200

26 (4 Fre)  
B-26

*Onore de Balzak*  
**GORIO  
OTA**

Buyuk fransuz yozuvchisi Onore de Balzakning «Gorio ota» romanidagi voqea Qayta tiklanish davrida boʻlib oʻtadi. Burjuaziya dunyosining qonunlari shafqatsiz. Bu jamiyatda odamning qadri-qimmati qancha daromad keltirishiga qarab belgilanadi.

Gorio ota kapitalist boʻlganda hamma unga xushomad qilardi, davlat, boylik qoʻldan ketib, u mayda burjua darajasiga tushib qolgach, hamma uni unutadi. Gorio azob-uqubatda oʻlib ketadi, hatto qizlari ham otalarining oʻlimiga kelmaydi. Yozuvchi “Gorio ota” romanida boylik bilan mehr-muhabbat qozonib boʻlmasligini, oilaning birdamligi koʻproq mehr-oqibatga bogʻliqligini yuksak badiiy ifoda bilan koʻrsatgan.

ISBN 978-9943-5683-9-6



9 789943 568396